



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI: muammo va yechimlar

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA
MATERIALLAR TO'PLAMI



TERMIZ SHAHRI, 2024-YIL 11-12 NOYABR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**«Oilaviy munosabatlar psixologiyasi: muammo va yechimlar» mavzusida
Termiz davlat universitetining 70-yillik yubileyiga bag‘ishlangan respublika
ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI**
2024 yil 11-noyabr

МАТЕРИАЛЫ
**Республиканская научно-практическая конференция «ПСИХОЛОГИЯ
СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ», посвященная
70-летию Термезского государственного университета**
11 ноября 2024 год

MATERIALS
**"PSYCHOLOGY OF FAMILY RELATIONS: PROBLEMS AND
SOLUTIONS" republican scientific-practical conference dedicated to the 70th
anniversary of Termiz State University**
November 11, 2024



Термиз-2024

**«OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR» mavzusida Termiz davlat universitetining 70-yillik yubileyiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya.
Termiz "Surxon ilm nashri", 2024-yil 11-noyabr.**

Mazkur to'plamda psixologiya sohasida respublikamizdagi taniqli olim va mutaxassislar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlar, va bevosita ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar, umumta'lim maktablarining o'qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrlar hamda iqtidorli talabalarning zamonaviy psixologik tadqiqotlar: muammolar, yechimlar, istiqbollari, oila mustahkamligini ta'minlashda innovatsion-psixologik yondashuvlar, oilaviy munosabatlar destruksiyasini psixologik tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari: psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya, ijtimoiy psixologik muammolarni bartaraf etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari va ularning yechimiga doir taklif-mulohazalar o'z aksini topgan. Mazkur to'plam materiallaridan barcha turdagi ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrlar, talabalar hamda sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Anjuman materiallari Termiz davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2024-yil 13 apreldagi № 7 -bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir:

X.G.Sharafutdinova – Psixologiya kafedrasi mudiri, dotsent

Tahrir hay'ati a'zolari:

S.Almardanova, M.Sattorova, S.Choriyeva

Taqrizchilar:

Qodirova A,B. – psixologiya f.f.d.(PhD), dotsent

Karayeva Yu.X. – psixologiya f.f.d.(PhD)

To'plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

SO'Z BOSHI

Barcha davr va zamonlarda oila degan nom muqaddas sanalib, jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Ta'kidlash joizki, oilaning mustahkamligi va undagi o'zaro hurmat va ijobiy munosabatlar, farovon hayotning asosida tomonlarning ruhiy, jismoniy, aqliy va iqtisodiy ijtimoiy jihatdan tayyorligi yotadi. Barcha omillarning qisman butligi va kamchiliklardan xoli bo'lmashligi ham farovon hayotni kafolatlay olmaydi.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davrida O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbek xalqiga xos bo'lmagan ayrim illatlar - oilaviy ajrashishlar, turli nizoli vaziyatlar, ishsizlik, oiladagi nosog'lom muhit, ma'naviy tushkunlik, jinoyatchilik holatlari kabi omillar notinch oilalar va qator ijtimoiy-ma'naviy muammolarni paydo qilmoqda. Ayniqsa, ajrashishlar sonining ortishi kishida jiddiy tashvish uyg'otadi. Bugun oilalar barbod bo'lishiga oiladagi og'ir psixologik muhit, o'zaro tushunishning yo'qligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo'yish, bir-biriga befarqlik; ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi; er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari; turar joy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy etishmovchilik, erning oilani ta'minlamasligi, mehnat migranti sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilgani kabilar kiradi.

Oiladagi sog'lom va barqaror, osoyishta psixologik muhit; yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiya; etarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila a'zolarining ta'lim yo'nalishida oliy ma'lumotlilik darajasi; sihat-salomatlikka alohida e'tibor qaratish kabilarni zamonaviy oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiritish mumkin.

Oilada ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga - jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, oila tarbiyasi, shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda yoshlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan mukammal pedagogik jarayon hisoblanadi. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan ma'naviy-axloqiy munosabatlarni kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinisdagi munosabatlarni uyushtirish jarayonida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy

me'yorlarga to'liq rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy tarbiya paradigmasini aks ettiradi.

Oiladagi samimiy suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar oquvchi yoshlarda huquqiy bilim, aql-idrok, tafakkur, jo'shqinlik, mas'ullik, ishonch va layoqatning qaror topishiga sabab bo'ladi.

Har bir oilaning ma'naviy sog'lom, baxtli va xotirjam hayot kechirishi oila muhtida tarbiyalanayotgan farzandlarning komil inson sifatida voyaga etishiga, davlatning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shadi. Zero, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekan, uning mustahkam bo'lishi, farovonligi davlat va jamiyat ravnaqiga xizmat qilishi, shubhasizdir.

Biz o'zlarining bevosita ilmiy ma'ruzalari, maqola va tezlari bilan konferensiyaning qiziqarli va sermazmun bo'lishiga hissasini qo'shgan barcha mutaxassis - olimlarga chuqur minnatdorchiligimizni bildirib, bundan keyin ham psixologiya fani va amaliyotining rivojlanishida samarali hamkorlikni davom ettirishlariga umid qilamiz.

Abduqodir Hamidovich Toshqulov
Termiz davlat universiteti rektori,
iqtisod fanlari doktori, professor

OILALARDA ROLLAR TAQSIMOTINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karimova V.M.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori*

Hamma davrlarda ham ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari odamlar hayotining shaxsiy sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mamlakatimizda oila instituti jadal o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu umumiy tsivilizatsiya tendentsiyalarini ham, so'nggi o'n yilliklarda keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy stressni aks ettiradi. Bu, birinchi navbatda, oila tizimidagi tarkibiy o'zgarishlardir. Oilada rollar oila dinamikasida muhim rol o'ynaydi va oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ularning qanday shakllanishi va o'zgarishini tushunish sog'lom va uyg'un oilaviy munosabatlarni yaratish uchun kalit hisoblanadi. Ushbu maqolada biz oilaviy rollar psixologiyasining asosiy jihatlarini va ularning oila dinamikasiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda oilaviy rollar eng ko'p muhokama va qayta ko'rib chiqishni talab qilayotgan mavzudir. Bir tomondan, ayollar qanchalik ko'p martaba qurishga va professional sohada muvaffaqiyatga erishishga intilayotganini ko'rishingiz mumkin. Boshqa tomondan, erkaklar ayollar bilan teng ravishda bolalarni tarbiyalash va uy xo'jaligini yuritish uchun mas'ul bo'ladilar. Shu nuqtai nazardan, savol tug'iladi: qanday qilib munosabatlarda uyg'unlikni saqlab qolish va muvaffaqiyat va o'zini o'zi anglash uchun cheksiz poygada o'zingizni yo'qotmaslik kerak.

Jamiyatning bosh bo'g'ini bo'lmish oila erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Bu borada er-xotin zimmasiga yuklanadigan burch va vazifalar doimiy mu'okamalar markazida b'ylib kelgan. Agar er va xotin mazkur qoidalarga amal qilsa, bir-biriga nisbatan zimmalaridagi burch va mas'uliyatini his qilib, sitqi-dildan ado etsa, bunday oila baxt va saodat maskaniga aylanadi. Zero, shu sabab Y'zbekistonda oila ravnaqi va uni mustahkamlash masalalari oliy qadriyatlardan biri sifatida ulug'langan. "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham oilalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash masalalari bo'yicha, shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish, harbiy xizmatchilar oilalarida ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, axloqiy-ruhiy ta'minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha etakchi mutaxassislar ish faoliyati samaradorligini oshirish belgilab qo'yilgan.

Har qanday oilaning saqlanishini ta'minlovchi motivlar, er-xotinlarning rolli ustanovkalari, ular o'rtasidagi fikrlarning nomutanosibligiga olib keluvchi omillarni, ularning hamkorligini ifodalovchi holatlarni empirik tadqiqot doirasida o'rganish muhim.dir. Shu maqsadda Yu.E.Aleshina, L.Ya.Gozman, E.M.Dubovskayalarning "Oiladagi nikoh rollarining taqsimlanishi"ni diagnostika qilishga mo'ljallangan ixcham metodika orqali Andijon va Farg'ona viloyatlarida faoliyat yuritib, istiqomat

qilayotgan harbiy oila va harbiy bo'lmagan oila vakillari(er-xotin)ni tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab, tadqiq etdik. Sinaluvchi harbiy va harbiy bo'lmagan oilalar soni jami 98 tani tashkil etadi. Bu metodikadan o'tkazishdan maqsad, oilalarda rollar taqsimotining oila mustahkamligiga ta'sirini aniqlash, shuningdek harbiy oila va harbiy bo'lmagan oilalardagi rollar taqsimotida o'ziga xoslikni aniqlashdan iborat bo'ldi.

Oilaviy hayot dastlab majburiyatlarni taqsimlash asosida qurilgan va ularni er-xotinlar o'rtasida optimal taqsimlash masalasini hal qilish juda muhimdir. Bundan tashqari, uy vazifalari har bir turmush o'rtog'ining xohish-istaklari va imkoniyatlariga muvofiq taqsimlanishi kerak, shunda ularni amalga oshirish og'ir yukga aylanmaydi.

Biroq, zamonaviy oila har doim ham an'anaviy qoidalar va me'yorlarga rioya qilmasligini unutmashimiz kerak va har bir juftlikdagi amaliyot har doim individualdir. Bu erda eng muhimi, turmush o'rtoqlar ota-ona uyidan oilaviy hayotning qanday namunalari va majburiyatlarni taqsimlashi, ular bilishi kerak bo'lgan oilalarda nimani kuzatishidir. Ko'pincha, o'z oila tuzilmasini rivojlantirish va oilaviy majburiyatlarni taqsimlash uzoq va murakkab jarayonga aylanadi. Shu bilan birga, ularning har birining funktsional roli maqsadi va mas'uliyati haqidagi g'oyalarning izchilligi faqat turmush o'rtoqlarning o'ziga bog'liq. Shu bilan birga, ular uchun oilaviy psixologiya va oilaviy munosabatlar sohasidagi mahalliy va xorijiy mutaxassislar tomonidan oilaviy rollarning qanday tasniflari taklif qilinishini bilish ortiqcha bo'lmaydi.

Amerikalik sotsiolog K. Kirkpatrikning fikricha, oilaviy munosabatlarda uchta asosiy turdagi oilaviy rollar hal qiluvchi rol o'ynaydi: an'anaviy, sheriklik va sherik rollari.

An'anaviy rollar xotindan bolalarni tug'ish va o'stirish, uy qurish va saqlash, oilaga kundalik xizmat ko'rsatish, o'z manfaatlarini oila boshlig'i sifatida erining manfaatlariga sodiqlik bilan bo'ysundirish, qaramlikka moslashish va cheklovlarga toqat qilishni talab qiladi. uning faoliyat doirasi. Bu holatda oilaviy munosabatlarning uyg'unligini saqlash uchun er tomonidan quyidagilar zarur (qat'iy izchil): bolalarining onasiga sadoqat, oilaning iqtisodiy xavfsizligi va himoyasi, oilaviy hokimiyat va nazoratni saqlash., asosiy qarorlarni qabul qilish.

Hamrohlik roli xotindan tashqi jozibadorlikni saqlashni, ma'naviy qo'llab-quvvatlashni va jinsiy qoniqishni ta'minlashni, eriga foydali bo'lgan ijtimoiy aloqalarni saqlashni, qiziqarli muloqotni ta'minlashni, hayotda rang-baranglikni ta'minlashni va zerikishni yo'q qilishni talab qiladi. Erning roli o'z xotinini hayratda qoldirishni va unga nisbatan jasur munosabatni, o'zaro romantik sevgi va muloyimlikni, uni kiyim-kechak, o'yin-kulgi va xotini bilan bo'sh vaqtini o'tkazish uchun vositalar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Hamkorlarning roli er va xotinning oila byudjetiga ma'lum iqtisodiy hissa qo'shishini, bolalar uchun mas'uliyatni taqsimlashni, uy ishlarida ishtirok etishni va qonuniy javobgarlikni bo'lishishni talab qiladi. Er, shuningdek, xotining teng maqomini (lavozimini) qabul qilishi va har qanday qarorlarni qabul qilishda uning teng ishtirok etishiga rozi bo'lishi kerak. Xotindan - erning ritsarlikdan voz kechishga

tayyorligi (turmush o'rtloqlar tengdir), oila maqomini saqlab qolish uchun teng javobgarlik, ajrashgan va bolalari bo'lmagan taqdirda - moddiy yordam berishdan bosh tortish.

Rus olimi S.V.Kovalev oilaning eng muhim xususiyatlariga muvofiq oilaviy rollar quyidagilarni kiritgan: oilaning moddiy ta'minotchisi, oilaning bekasi, qarindoshlararo munosabatlarga mas'ul, oilaviy submadaniyat tashkilotchisi, oilada k'ngilochar o'yinlar tashkillovchi, oilaviy psixoterapevt, sevimli mahbuba (mahlub), ota-ona-tarbiyachi [4].

harbiylar oilasida oiladagi munosabatlarni o'rganish maqsadida o'tkazgan "Oiladagi rollar taqsimoti" so'rovnamiz natijasiga ko'ra, oiladagi vazifalar va rollar taqsimoti oddiy oilalarga nisbatan farqli natijalar bilan ajralib turdi. Oilada moddiy ta'minotchi – erkak zimmasida(ayollarning aksar qismi uy bekasi), ammo farzand tarbiyasi, oilaviy submadaniyat tashkilotchisi, qarindoshlararo munosabatlarga mas'ullik, oiladagi katta-kichik harajatlarni qilish ayollar zimmasida ekanligi aniqlandi. qolaversa, tadqiqot ishida erkak sinaluvchilarning oiladagi vazifalar taqsimotiga ko'ra harbiy va harbiy bo'lmagan oilalar o'rtasidagi tafovutlarini tahlil qilganimizda quyidagi holatlar kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, farzandlarning tarbiyasi shkalasi ($\tau=2,198$; $\pi < 0,01$), oiladagi ma'naviy muhit ko'rsatkichi- ($\tau=1,732$; $\pi < 0,05$), oilaning moddiy ta'minoti- ($\tau=,667$; $\pi < 0,05$), bo'sh vaqtni tashkil etish- ($\tau=,420$; $\pi < 0,05$), oila bekasi- ($\tau=1,096$; $\pi < 0,05$), jinsiy munosabatdagi sheriklik- ($\tau=,740$; $\pi < 0,05$), oilada submadaniyat tashkilotchisi- ($\tau= -,428$ $\pi < 0,05$)kabi ko'satgichlarda harbiy va harbiy bo'lmagan erkaklarda ishonchli tafovutlar kuzatildi. "Oiladagi rollar taqsimoti" metodikasining harbiy hamda harbiy bo'lmagan erkak respondentlar natijalarida yuqori farqli ko'rsatkichlari keltirilgan.

haqiqatdan ham harbiy kasbiy faoliyat bilan band bo'lgan erkaklar kasb taqozosiga ko'ra, ko'p vaqtini oiladan tashqarida o'tkazadi. Farzandlari tarbiyasiga nisbatan kam vaqt ajratishlari ma'lum. Bu holat nafaqat oilada farzand tarbiyasi, balki oiladagi ma'naviy muhit hamda oiladagi rollarni, vazifalarni bajarishda ham namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida harbiy erkaklar: "Ertalab erta ishga ketaman, farzandlarim uxlayotgan bo'ladilar, ishdan qaytgunimgacha ham uxlab qolishgan bo'ladilar, uyqularini buzgim kelmaydi; farzandlarim bilan faqat dam olish kunlari vaqt o'tkaza olaman" degan fikrlarni berdilar. harbiy oilalarda farzandlar garovi o'z navbatida ona (ayol) zimmasida ko'proq bajarilishini kuzatamiz.

Yana bir ko'rsatkich – "Oiladagi ma'naviy muhit" bu rol aslida hayotda oilaning psixoterapevti roliga tenglashtiriladi, va u zamonaviy oilalarda eng qiziqarli va muhim rollardan biri hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, uning paydo bo'lishi oiladagi vazifalarini tubdan o'zgartirish natijasida yuzaga keladi, bunda asosiy xususiyatlardan biri oila a'zolarining qo'llab-quvvatlash, himoya qilish va shaxsiy qulayliklarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish asosan ayol zimmasida ekanligi ma'lum bo'ldi.

Erkak sinaluvchilarning "oilada ma'naviy muhit" shkalasida farqlarning kuzatilishida harbiy erkaklar ko'proq ayollaridan kutishlarini ta'kidladilar. Harbiy erkaklar: "Ishdan charchab kelaman, uyga kelganimda ayolim, go'zal, toza-pokiza va

samimiy tabassum bilan kutib olishini istardim” yoxud aksincha “yaxshi hamki ayolim yonimda, ayolim va farzandlarim bilan gaplashganimda, charchoqlarim yoziladi” degan fikrlarni bildirganlar. Yana ba'zi bir harbiy erkaklar: “ishga yaxshi borib keling”, “yaxshi borib keldingizmi?” kabi so'zlar bilan kutib olish, narsani darrov qo'ldan olish, turmush o'rtog'ini ishidan e'tibor bilan kutib olgan ayol o'z navbatida eri uchun eng yaqin va sevimli ayol bo'la olishini ta'kidlaganlar.

Ikkala toifa erkaklarda ham “Oilaning moddiy ta'minoti” “dam olishni tashkil etish”, “jinsiy munosabatdagi sheriklik”, “oilada submadaniyat tashkilotchisi” shkalalari bo'yicha o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi, rollarni amalga oshirishda qarashlar adekvat baholadilar. Respondentlarda xoh u harbiy xoh u boshqa kasb egasi bo'lsin oiladagi moddiy ta'minot masalasida erkaklar dominantligini belgiladilar.

Oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor, tinch-totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushuvi muhim rol o'ynaydi. Bu albatta, ularning y'zaro munosabatida shubhasiz o'z izini qoldiradi. Bu o'rinda shuni ham aytib y'tish joizki, aksariyat juftliklar qarama - qarshi jinslar o'rtasidagi munosabatlarning bu sohasida tegishli bilimga ega emasligidan aziyat chekishadi, bu borada ochiq suxbat qurishdan qochadilar. Bu esa o'z navbatida juftliklar o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Erkak sinaluvchilarning “jinsiy munosabatdagi sheriklik” shkalasi natijalariga t'yxaladigan bo'lsak qarashlardagi tafovutning yo'qligini jinsiy munosabatlar har bir erkak hayotida katta rol o'ynashi, bu ularning jismoniy va ruhiy muvozanatiga bevosita bog'liqligi bilan izohlasak bo'ladi.

Tadqiqotimizning konkret ushbu qismidan xulosa qiladigan bo'lsak, oilaviy munosabatlarda xoh u harbiy, xoh u harbiy b'ylmagan oila bo'lsin, er-xotinning e'zozlanishi, konfliktlarning oldini olishda, oilada bar'arorlik hukm surishida oiladagi rollar taqsimoti har ikki tomon uchun ham ijobiy ahamiyatga ega. Zero hissiy-emotsional, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, huquqiy, siyosiy savodxonlik, «birgalik» effekti, hissiy-psixologik uyg'unlik, tenglik, o'zaro bir-birlarini tan olish, yon berish ko'nikmalari oila barqarorligining asosiy omilidir.

Xulosa shundan iboratki, barcha oilalar o'ziga xosdir va ularning har biri o'ziga xos oilaviy rol dinamikasiga ega. Biroq, bu rollarni faol boshqarish, ularning evolyutsiyasidan xabardor bo'lish va doimiy ravishda oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga intilish mustahkam va sog'lom oilaviy munosabatlarni yaratishga yordam beradi. Natijada, o'z rollarini muhokama qilish va moslashtirish uchun ochiq bo'lgan oilalar o'zaro o'sish, qo'llab-quvvatlash va sevgi uchun joy yaratishi mumkin.

O‘ZBEKISTONDA OILAGA PSIXOLOGIK XIZMAT – INNOVATSION-PSIXOLOGIK FAOLIYAT SIFATIDA

Akramova Feruza Akmalovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda oila mustahkamligini ta’minlashda psixologik xizmat – innovatsion-psixologik faoliyat asosida olib boriladigan amaliy psixolog faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha vazifalar yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, amaliy psixolog, faoliyat, shaxs, psixologik xizmat, professionallik, tamoyil.

Аннотация: В данной статье представлена информация об обязанностях практического психолога, которая осуществляется на базе психологической службы - инновационно-психологической деятельности по обеспечению стабильности семьи в Узбекистане.

Ключевые слова: Семья, прикладной психолог, деятельность, личность, психологическая служба, профессионализм, принцип.

Annotation: This article provides information on the duties of a practical psychologist, which is carried out on the basis of a psychological service - innovative psychological activities to ensure family stability in Uzbekistan.

Key words: Family, applied psychologist, activity, personality, psychological service, professionalism, principle.

Inson hayotida muhim o‘rin tutuvchi oila-nikoh, oilaviy qadriyatlar, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan nizolarning kelib chiqishi masalalari ilmiy jamoatchilik diqqat markazidagi eng dolzarb mavzulardandir. Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish kerakki – davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan!

Oila sog‘lon bo‘lmasa, tarbiyaga ham e‘tibor berilmasa, qancha buyuk bo‘lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Buni donishmandlar ko‘p ta’kidlashgan: “Millatlar sharafini yuqori martabaga ko‘taradigan narsa millionlar ila sanaladigan askarlar-u, dunyoda eng buyuk va zo‘r bo‘lgan kemalar emas, balki eng oz e‘tibor beradiganimiz yo bo‘lmasa, hech bir zamon e‘tibor bermasdan qoladiganimiz – oiladir. Oila nizomsiz bo‘lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta’sir etadi va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o‘rnini tubanlik negiz quradi. Agar bir millatga bunday hol ro‘baro‘ kelsa, u millat kitobining so‘nggi varag‘i osiladi.”

Har bir inson dastavval, oilada o‘rin topolmasa– jamiyatda o‘rin topishi qiyin, oilada qadr topolmasa – jamiyatda qadrlanishi dargumon; oilada mehribonlik ko‘rmasa, oilada mehirsiz ulg‘aysa jamiyatda ham begonalarday yashaydi. Ma’lumki, hayotimizning yarmidan ko‘pini qamrab oladigan, chinakam, to‘laqonli insoniy baxtni in‘om etadigan yoki, aksincha, har tomonlama ta’minlanganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir.

BMT Bosh Assambleyasining 47/237 Rezolyutsiyasi bilan 1993 yilda har yili 15 mayni «Xalqaro oila kuni» sifatida nishonlash yoʻl qilinganligi oilaning dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekanligi, oilaning barbod boʻlishi xolatlarining qayd yetilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash uchun oilaga psixologik xizmatni olib borish masalasini alohida amaliy, konstruktiv hamda yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishni davr taqazo yetmoqda. Oilaga psixologik xizmatni olib borish ijtimoiy tuzilma boʻlgan oila instituti bilan bevosita bogʻliq boʻlganligi bois, oilaviy psixologik xizmatga qoʻyilgan tamoyillar, oilalar bilan ishlashning oʻziga xos jihatlari, kontseptual asoslarini bilish mazkur xizmatning samaradorligini taʼminlashi shubhasiz.

Oʻzbekistonda oilaga psixologik xizmatni olib borishdan koʻzlangan asosiy maqsad psixolog va oila aʼzolarining birgalikda oiladagi rollarini maqsadga muvofiq tarkib toptirish, shaxsning oʻz xatti-harakatlarini anglashiga erishish va barkamol shaxsni tarbiyalashni taʼminlash hisoblanadi. Hozirgi davrda oilaviy psixologik xizmat oila masalalari bilan shugʻullanuvchi mutaxassis amaliyotchi psixologninggina emas, balki oilaga ijtimoiy-maʼnaviy-psixologik yordam koʻrsatadigan bir qator tashkilotlar mutaxassislarning ham vazifalari sirasiga kiradi. Bu oʻz navbatida joylarda oilalar bilan ishlaydigan mutaxassislarning ish uslubida tashkiliy va amaliy jihatlarni oʻrganishni, oilalar bilan ishlashda, ularga psixologik xizmat koʻrsatishning oʻz tartibi, tamoyillarini bilishni taqazo yetadi.

Psixologik xizmat amaliyotida turli muammoli oilalarga maslahat berish jarayoni ahamiyat qaratish lozim boʻlgan muhim bosqich sifatida koʻriladi. Oilaga koʻrsatiladigan psixologik xizmat sohasida ish olib borishda asosiy maqsad oila aʼzolari muloqotning turli shakllarini erkin tanlay olishi, munosabatlardagi tabiiylik va ochiqlik, uygʻunlikni taʼminlanishi zarur ekanligini, bunda psixologning asosiy vazifasi oila aʼzolari his qilayotgan tuygʻularni ochiq-oydin bayon yetishlarini qoʻllab-quvvatlash boʻlishni talab etadi.

Psixologik amaliyot mazmun mohiyatiga koʻra oila bilan ish olib borishni «mijoz bilan psixologik xizmat» olib borish tarzida qabul qilingan boʻlib, uni pozitsiyasi uch xil koʻrinishda boʻlishi mumkin: tenglik pozitsiyasi, «yuqoridan» munosabatda boʻlish, «quyidan» munosabatda boʻlish pozitsiyalarini har xil nuqtai nazardan taʼrif beriladi Biroq, amaliyotdan koʻrinadiki, psixolog va mijoz orasidagi tenglik pozitsiyasi eng maʼqul hisoblanadi, ammo shunda ham yoʻnaltiruvchi va asosiy rol psixologda qoladi.

Tenglik tamoyili asosidagi pozitsiyada mijoz oʻzini teng huquqli sherik sifatida his etadi va shuning uchun psixolog bilan birgalikda muammoni hal etishda tushunib, anglab, faol, samarali ish olib boradi. Tenglik tamoyilida mijoz psixologning samimiy munosabatda boʻlayotgani, unga tanqidiy koʻz bilan qaramayotgani, xatti-harakatini baholamayotgani, mijozda oʻzi haqidagi biror maʼlumotni yashirish yoki oʻzgartirishga asos qolmaydi.

Professional psixologni yaxshi aktyorga oʻxshatish mumkin, u zarur paytda «yuqoridan» munosabatda boʻlib, chuqur bilim egasi va kuchli mutaxassis sifatida mijozda yorqin taassurot qoldirishni ham; mijozning past oʻziga-oʻzi bahosini

ko'tarish maqsadida uning qobiliyati va ijobiy xususiyatlarini ta'kidlash, ko'kka ko'tarish, maqtashni ham eplashi zarur.

Amerikalik psixolog, psixoanalitik Erik Lennard Bern tomonidan uch xil ego-holat: «Katta odam», «Ota-ona» va «Bola»ni tahlil yetib, odamlar bilan muloqotga kirishishda shu uch ego-holatning birini o'z xulqida namoyon yetishini asoslanganligi ma'lum. Erik Bern fikricha, har bir holat shaxs tizimini ifodalaydi. «Katta odam» yego holatida vaziyatni to'g'ri baholash orqali qarorni ham shu tarzda oqilona qabul qilsa, «Ota-ona» yego holati har bir odamning o'z ota-onasi proektsiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holatda asosan ota-onaning ikkita vazifasi: «nazorat qiluvchi» – bu modelda birinchi o'ringa taqiqlar ustun bo'lishi; «g'amho'rlik qiluvchi» – bu modelda qo'llab-quvvatlash, maslahat berish ustuvorligi namoyon bo'ladi. «Ota-ona» ego holatida «nazorat qiluvchi» modeli uchun xulq-atvorning o'zlashtirilgan ko'rinishlari: qadriyatlar tizimi, ijtimoiy normalar, ko'pincha «majbur», «qilish kerak», «shunday bo'lishi kerak» degan iboralar qo'llanadi. «Katta odam» ego holatida xulq-atvorning o'zlashtirilgan ko'rinishlari sifatida: dalillar asosida ish ko'rishi, aql xolatining ustunlik qilishi, qarorning aqlga asoslanishi kuzatiladi. «Bola» ego holati shaxsning emotsional jihati hisoblanib, bu holatda ishonuvchanlik, beg'uborlik, beozorlik xislatlari xos va qarorning xoxish va istaklarga asoslanishi, «xoxlash»- «xoxlamaslik» eng muhim omil bo'ladi. Bu ego holatlar esa oilaviy psixologik xizmatni olib borishda munosabat pozitsiyasini belgilab olish va shunga ko'ra suhbat olib borish texnologiyasini joriy eta olishga xizmat qiladi.

Psixologik xizmat amaliyotida oilalarga maslahat berish uchun quyidagilar asosiy vazifalar hisoblanadi: Oila a'zolarida o'z orzu-niyatlari, his-tuyg'ulari, qadriyatlari, xavotiri, kechinma va h.k.lari yuzasidan fikr-mulohazalarini ochiq bayon etish, ya'ni muloqotga kirishish malakalarini rivojlantirish; Oilada muloqotning samarali usullarini tarkib toptirish; Oiladagi o'rnashib qolgan tasavvur, stereotiplardan voz kechishga o'maklashish; Oila a'zolarining ularga xos oilaviy rollarini o'zlashtirishlariga yordam berish; Oila a'zolarida hamkorlik, birdamlik tuyg'ularini rivojlantirish va h.k.

Oilaga ko'rsatiladigan psixologik xizmatning asosiy jihati unda psixologning maslahat jarayonida diqqat-e'tiborini shaxsning oiladagi ijtimoiy maqomiga, muammoni yechishga nisbatan ichki imkoniyatlarini safarbar qilishga yo'naltirishi muhim bo'lib, bu borada psixologning asosiy missiyasi mijozning yetakchi qadriyatlarini anglagan holda imkon darajasida unga yaqinlashishi zaruratini inobatga olishdir. Oilaviy psixologik xizmatning asosiy komponentlari sifatida psixologik xizmatni ko'rsatadigan mutaxassis shaxsi, uning etikasi, kasbiy tamoyillari; oila muammosida psixologik yordam ko'rsatishda oila klassifikatsiyasini to'liq bilishi, psixologik diagnostika metodlarini qo'llashda ehtiyotkorlik, sezgirlikni yodda tutish hamda psixologik xizmatning shakli bo'lgan tuzatish, suhbat, tushuntirishdan o'rinli va maqsadli foydalanish zarur ekanligi talab etiladi.

Oilaviy xizmatning turli usullari bo'lib, ular ma'lum bir nazariy kontseptsiyalarga asoslanadi, mazkur kontseptsiyalar orasida kognitiv-xulqiy va hissiy yo'nalishlarni ta'kidlash mumkin.

Oilaga psixologik xizmatni tashkil etishda oilaga nisbatan mas'uliyati mavjud imkoniyatlariga mos kelishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu borada ushbu etika tamoyillariga amal qilish zarur bo'ladi: 1.Oilaga psixologik yordam ko'rsatishda oila a'zosining huquqlarini himoya qilishi, uning qadr-qimmati, fikri, shaxsiyati va hayotiy qadriyatlarini hurmat qilishiga e'tibor qaratadi. 2.Psixologik xizmat jarayonida mutaxassis/psixolog odamlar orasidagi ijtimoiy va individual tafovutlarni hisobga olib faoliyat yuritadi. 3.Mijozning jinsi, millati, dini, professional faoliyatini kamsitmagan tarzda psixologik xizmatni olib boradi. 4.Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda oilaning muammosi turli og'ir hayotiy vaziyatlar bilan bog'liqligini tushunish muhim bo'lib, asosiy vazifa – oilaga mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tishiga psixologik yordam berishdir. 5.Maxfiylik tamoyili – oila bilan bog'liq barcha elektron va qog'oz shaklidagi hujjatlar begonalar foydalanishidan himoyalangan bo'lishi va faqat ish yuritish maqsadlaridagina qo'llanilishi zarur bo'ladi, oila a'zolarining maxsus yozma ruxsatnomasini olmasdan shaxsiy ma'lumotlarni (ismlari va familiyalari, hayotiy holatlari va h.k.) oshkor etish taqiqlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Akramova F.A. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari: Monografiya. –T.: «Lesson-press» nashriyoti, 2021 y. – 178 b. [ISBN 978-9943-7024-5-5]
- 2.Akramova F.A. Oilaviy psixologik xizmat: xorij tajribasining O'zbekiston ta'limidagi imkoniyatlari // Zamonaviy ta'lim 2020 № 8, B.94-101.
3. Akramova F.A. Oz'bekistonda oilaviy psixologik xizmatning asosiy muammolari // Maktab va hayot, 2020 № 6. B.7-9.

O'G'IL BOLALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Umarov Baxriddin Mengbaevich

*Alfraganus universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedراسi professori,
psixologiya fanlari doktori*

Ҳозирги замон никоҳ-оила муаммоларини ўрганишга бағишлаб ўтказилган қатор тадқиқотларда бугунги кунда энг муҳим муаммолардан бири-ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш ва ҳозирги замон оилаларида никоҳ омиллари хусусиятлари ўрганиш масалалари эканлиги тасдиқланмоқда.

Маълумки, ҳозирги даврда оила муаммолари орасида ўзаро муносабат ва ёш авлодни мустақил ҳаётга тайёрлаш, яъни оилани бошқарадиган қилиб тарбиялаш шу куннинг долзарб масаласи ҳисобланади. Дарҳақиқат ҳар бир ота-она ёш йигит-қизнинг онгида ўзбек миллатига хос урф-одатлар, қадриятлар, миллий анъаналарни таркиб топтириб бориши керак.

Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш вазифалари куйидагиларни ўз ичига олади:

1.Йигит ва қизлар ўртасида ахлоқий муносабатларни тўғри шакллантириш ва тўғри йўлга қўйиш;

2.Ўспиринларда ўзаро ҳурмат, дўстлик самимий ҳамкорлик каби юксак инсоний ҳис туйғуларни ривожлантириш;

3.Ахлоқий тарбиянинг биологик ижтимоий жиҳатларни, йигит ва қизларнинг ўсиш хусусиятлари ҳамда ўзига хос хусусиятлари туғрисида ёшларда илмий тушунчалар ва ҳаққоний тасаввурларни ҳосил қилиш;

4.Йигит ва қизларни жисмоний бақувват, соғлом, юқори маданиятли, барқарор кадриятли, хулқ-атворли, иродали шахс сифатида шаклланишига ёрдам бериш;

5.Турмуш қувончлари ва ташвишлари, оғирликлари, аччиқ-чучукларини тасаввур этишга ҳамда бундай вазиятларда ўзини тута билиш усулларини шакллантириб бориш;

6.Маънавий ва руҳий жиҳатдан камолотга етказиб, юксак ахлоқ меъёрларини ўзида мужассамлаштириш, миллий қиёфа хусусиятларини ўзлаштиришлари учун шароит яратиш;

7.Оилада куёв-қайликнинг ўзаро бурчларини ҳамда қайнона-қайнота, қариндош-уруғ, хонадоннинг яқин кишилари олдидаги бурчларини англашга ўргатиш;

8.Ўспиринларни келин-куёвнинг янги шарт-шароитга қўниқиши, ўзгача турмуш тарзига, урф-одатларига мослашув усуллари ҳақидаги маълумотлар билан таништириш.

Маълумки, оилада фарзанд тарбиясининг дастлабки босқичидаёқ ўсмирларни келажакдаги мустақил ҳаётда ўзини-ўзи бошқара оладиган, ўз даврининг муносиб кишиси бўлиб етишиши учун ўқитувчи ва ота-она масъулдир. Ота – фарзанд тарбиясида масъулиятнинг биринчи навбатида туради. Бола то балоғатга етгунча ўша масъул ҳимоясида бўлади. Агар бола ақлан заиф ёки жисмонан ҳимояга муҳтож бўлса, у ҳолда балоғат ёшига етганда ҳам масъул қўл остида бўлади. Иккинчиси, фарзанд ҳаётида унинг келажак учун энг муҳим, келажакдаги ким бўлишини белгилайдиган босқичдир. Чунки бу босқич фарзанд учун илм, хунарга эга бўладиган, жамият учун фойда келтирадиган, жамиятнинг бир аъзоси сифатида камол топадиган даврдир. Ҳақиқатан ҳам биринчи босқични амалга оширмасдан, иккинчи босқичга ўтиш мумкин эмас. Шундай экан, ўсмир йигитларни мустақил ҳаётга тайёрлашда ота вазифаси катта аҳамиятга эга.

Отанинг оиладаги мавқеи – фарзандлар учун, айниқса ўғил болалар учун жасорат сабоғи. Ҳеч кимга сир эмаски, ҳозирги кунда баъзи ўғил болалар айниқса, қишлоқ жойларда ўзининг қобилиятини намоён қилишга тортинчоқлик қилади. Бу жараёнда кўпчилик қизлар етакчи ўрин эгалламоқда. Ўғил болаларга нисбатан қизлар мактабда ҳам жамиятда ҳам устинликка эришмоқда. Бунинг сабабини педагог олим Т. Қурбонов «Ота бўлиш осонми» номли китобида қуйидагича изоҳлайди: ўғил бола 3 ёшгача оилада ота-она тарбиясида бўлади. Бола 3 ёшдан бошлаб боғчага боради, у ерда 4 йил аёл киши қўлида тарбия олади. Боғчадан сўнг мактабга боради. Бу ерда ҳам бошланғич

синфда яна 4 йил аёл ўқитувчи, 5-9-синфларда ҳам деярлик аёллар қўлида таълим-тарбия олади. Демак ўғил бола айни характери шаклланиб, ҳаётга тайёрланадиган 13-14 йил ёш даврини аёллар қўлида, аёллар тарбиясида ўтказди. Бундан шу нарса аён бўладики, аёлларга хос тортинчоқлик, итоаткорлик, уятчанлик каби хислатлар ўғил болаларда ҳам шакллана боради. Айниқса, юқорида айтиб ўтилганидек, ўғил болада тортинчоқлик устун бўлади. Уларда эркак кишидаги жасурлик, ботирлик, каттиққўллик, чидамлилиқ ва эпчиллик етишмайди.

Ўсмир йигитларни мустақил ҳаётга тайёрлаш борасида оила, маҳалла, мактаб ҳамкорлиги асосида энг аввало касбга йўналтириш бугунги куннинг маънавий-маърифий, мафкуравий, тарбиявий зарурати ҳисобланади. Чунки, йигитларнинг майян касб-ҳунарга эга бўлиши оила иқтисодини юритишда, оила аъзоларининг моддий эҳтиёжларини қондиришда муҳим ҳисобланади.

Халқимизнинг касб-ҳунар ўргатиш борасидаги анъанавий усуллари бугунги кунда ҳам ғоят долзарбдир. Чунки, шогирдлар устозлардан касб-ҳунар ўрганиш билан бирга ахлоқ-одоб, меҳнатсеварлик, инсонийлик хислатларини ҳам ўргана борадилар. Бу борада маҳалла, мактаб, оилаларда ташкил этилган касб-ҳунар ўргатишнинг анъанавий усуллари - “устоз-шогирд” шакли айнан ўсмир йигитларни мустақил ҳаётга тайёрлашда қўл келмоқда.

Ўсмир йигитларни мустақил ҳаётга тайёрлашда оила муҳим пойдевор ҳисобланади. Ушбу муаммонинг самарали ечимини топишда қатор омилларга эътибор бермоқ лозим:

- оиланинг жамиятда тутган ўрнини йигитлар онгига сингдириш ва чуқур англаш;
- оиланинг ижтимоий-маънавий ҳолатини яхшилашда даҳлдорлик ҳиссини шакллантириш (зиёли, тадбиркор, деҳқон, катта, кичик ва ҳ.к.);
- ота-оналарнинг педагогик-психологик маданияти даражасини ошириш;
- йигитларни оилада бошқариш тизимининг ҳолатини яхшилашга доир билимлар билан қуроллантириш;
- оила сулоласининг тарихи, бугуни ва истиқболини белгилаш;
- оилада ота-она ва оила аъзоларининг шахслараро муносабатларини соғломлаштириш борасидаги қарашларини ривожлантириш;
- оилада эркак кишининг ўрни англаш ва тушуниш;
- оила аъзоларининг мақсад ва маслак мутаносиблигини таъминлаш борасидаги кўникмалар билан қуроллантириш;
- оиланинг моддий таъминоти борасидаги билимлар билан таъминлаш;
- оила аъзоларининг маиший турмуш даражасига боғлиқ бўлган тушунчаларни англаб етиш;
- оиланинг демократик тамойил ва ўзаро ҳурмат асосида бошқарилиши борасидаги тажрибасини орттириш;
- оила аъзоларининг физиологик, психологик хусусиятларига доир билимлар билан қуроллантириш;
- оила аъзоларининг қизиқиши билан эҳтиёжлари ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш;

- оила аъзоларининг ижтимоий келиб чиқиши ҳамда касбий фаолиятлари ўртасидаги мутаносибликка эътибор қаратиш.

Ўсмир йигитларни оилада, мактаб ва жамоатчилик ҳамкорлигида олиб бориладиган тарбиявий ишларини ташкил этишнинг самарадорлиги ота-оналарнинг педагогик ва психологик тайёргарлигига боғлиқ. Бу ўринда оила психологияси ва педагогикаси олдида турли касб эгалари бўлган ота-оналарни шу жараёни ташкил этишга тайёрлаш зарур. Бунинг учун оила психологияси ва педагогикаси олдида қуйидаги вазифалар туради:

- сиёсий, миллий мафкуравий қадриятларни ўғил-қизлар тафаккурига сингдиришнинг мақбул шаклини ўргатиш;

- ёш ота-оналарни оилада ўсмирлар тарбиясига ғоявий, психологик, педагогик ва услубий тайёрлаш.

- оила психологияси ва педагогикаси орқали ота-оналарни фалсафа, сиёсатшунослик, тарих, социология, ижтимоий психология, маънавият, ҳуқуқшунослик, миллий истиқлол ғояси фанлари ютуқлари билан таништириш;

- оилавий тарбия психологияси бўйича амалга ошириладиган илмий тадқиқотларда олға сурилган тарбиявий ғоялар билан ота-оналарни қуроллантириш;

- ота-оналарни маънавий тарбиянинг миллий ва умуминсоний ютуқлари моҳияти, илғор тажрибалар билан таништириш;

- ўсмир йигитлар психологияси, физиологияси ҳақида илмий-назарий ғояларни уларга етказиш;

- ўсмир йигитлар тарбиясида ҳамкорлик педагогикаси мазмуни, самарали шакл, метод ва воситалари ҳақида маълумотлар билан қуроллантириш.

Тадқиқотларда ота-оналарнинг ўсмир йигитларни мустақил ҳаётга тайёрлашда қуйидагиларга амал қилишлари мақсадга мувофиқлиги аниқланган:

- ўсмир йигит билан самимий алоқа ўрнатиш;

- унинг “Мен”ини ҳурмат қилган ҳолда муносабатда бўлиш ва ўз-ўзига бўлган ишончни мустаҳкамлаш;

- ўсмирга талаб қўйганда унинг имкониятларини инобатга олиш, муаммоларига бефарқ бўлмаслик;

- ўсмирни ҳаётда муаммоларни қийинчиликларсиз ҳал қилишга ўргатиш;

- ўсмирни касбга йўналтириб, таълим тизими ва ишлаб чиқариш ҳамкорлигини амалга ошириш;

- соғломлаштириш ва жисмоний тарбия, спортга жалб этиш орқали уларни ҳаётга жисмонан соғлом қилиб тайёрлаш;

- оилада соғлом муҳит яратиш, миллий руҳ ва турмуш тарзини ҳисобга олиш, фарзандлар учун ота-онанинг ҳар томонлама ўрнатилган бўлиши, фарзандларда ота-онасига, Ватанига меҳр-муҳаббат туйғусини шакллантириш, ўзаро ғамхўр бўлишини таъминлаш;

- ўсмирларга ахлоқий билим асосларини бериш, маърифатли ва маънавиятли кишилар бўлиб етишишларини таъминлаш;

- фарзандларнинг маънавий баркамол ва жисмонан соғлом бўлишлари учун иқтисодий ва ижтимоий муҳитни яратиш;

-фарзандларда тежамкорлик ва ишбилармонликнинг маънавий-ахлоқий томонларини шакллантириш;

Юқоридагилардан хулоса қилиб таъкидлаш мумкинки, ўсмир йигитларни мустақил ҳаётга тайёрлашда улар онгига оилавий ҳаёт ҳақидаги қадриятлар, оилада эрнинг ўрни ва роли, оила бошлиғи ва унинг зиммасига юкланадиган вазифалар, фарзандлар тарбиясида отанинг ўрни ва таъсири ҳамда шу каби бир қатор оилавий ҳаёт ҳақидаги тасаввур ва тушунчаларни сингдириш муҳим ижтимоий-психологик масалалардан ҳисобланади.

OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.

*M.Fayziyeva Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrası professori*

Annotatsiya : Mazkur maqolada oiladagi shaxslararo munosabatlarda psixologik himoya mexanizmini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari masalalariga e'tibor qaratilgan . Bundan tashqari oilada psixologik muhitni optimal ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy mexanizm hisoblangan psixologik himoyaning asosiy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar : Oila, oilaviy munosabatlar, psixologik inqiroz, ota-ona bilan farzandlar, tendensiya.

Annotation: it is known to us that in order to find out what will be the future of the family that has arisen at the present time, the parents, the future bride-grooms pay attention to the following factors and the influence of the family self-esteem, the following factors have received in marriage: the maturity of the family life, the reasons for their

Keywords: family, parent, couple, maturity, nikoh, factors, cross section, maturation, young family

Shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-psixologik va psixologik muhitni optimal ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Bugungi kunda oilalarda kutilayotgan psixologik inqirozlar shaxs kamoloti, shaxslararo munosabatlar ulardagi ijtimoiy muhit, qadriyatlar buzilishi bilan bog'liqdir.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda er-xotin, ota-ona bilan farzandlar, kelin bilan qaynona-qaynota, kelin bilan qayn aka, qayn uka, qayn opa, qayn singil va boshqa yaqin qarindoshlar o'rtasidagi munosabat jarayonlarini kuzatish mumkin.

Oila mustahkamligi nizoli vaziyatlardan xoli bo'lishi, uning a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va e'zozning shakllanishi qanday omillarga bog'liq.

Shaxslararo munosabatlar "subyekt-subyekt" bilan bir qatorda "subyekt-guruh", "Men-biz" tizimda namoyon bo'lishi ma'lum.

Chunki, davrlar o'rtasidagi nomutanosiblik, dunyoqarashlardagi nomuvofiqlik va avlodlar orasidagi munozaralar tahlili muammoga muayyan darajada aniqlik kiritadi, deb o'ylaymiz.

Aslida munosabat jarayonidagi tushunmovchilik, ziddiyatlar, shaxsning dunyoqarashi va kamoloti darajasidagi tafovutlar, manfaat, qiziqish va maqsadning mos kelmasligi, o'zaro hurmatning shakllanmaganligi, antipatiya ular o'rtasida turli darajadagi nizolarni keltirib chiqaradi.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda tenglikni ta'minlash uchun ham nizoli vaziyatlar tahlilini yoritib o'tish joiz. Shaxslararo munosabatlarning turmush sharoitida maromga egaligi ham ahamiyatga molik hisoblansa-da, ammo oila a'zolarining "Men" bilan "biz" o'rtasida uyg'unlik va izchillik shakllanmasligi, shaxslarning identifikatsiyalashuvi va ijtimoiylashuvining meyorida bo'lmasligi ancha ayanchli holat sanaladi. Bunday holatga aniqlik kiritish uchun Liri metodikasini tatbiq etishdan olingan natijalarga psixologik sharh berishni lozim topdik.

Biz natijalarni tahlillashga oila a'zolaridan, ya'ni er-xotin va kuyovning otanasi (qaynota-qaynonalar) tomonidan berilgan javoblarga tayanishga harakat qildik. Chunki oilaviy munosabatlarda er-xotin, qaynota-qaynona markaziy timsol hisoblanadi. Shuningdek, metodika natijalarini sinaluvchilarning "Real Meni", "idealdagi er" va "idealdagi xotin" timsollari bo'yicha baholash mo'ljallandi.

1-tendensiya. Liderlikka moyillik, hukmronlik, zulmkorlik. Ushbu tendensiya bo'yicha natijalar er-xotinlarning "Real Men" doirasida 9,16(0,70 ball va 8,45(0,52 ball bilan qanoatlandi. Aytish joizki, liderlikka moyillik erlarda yuqori bo'lsa-da, ammo ayollarda ham bu sifat qisman tengdir. Oilaning har ikkala a'zosi ham oilani boshqarishning adaptatsiya bosqichiga ega, hayotiy tajriba to'planib borayotganligi va uning ikir-chikirlarida o'z sheriklaridagi qaysidir yetishmovchiliklarni anglay olganliklaridan dalolat beradi. Bu o'rinda liderlikning o'zi yetarli emasligi, oilani boshqarishda taktik shart-sharoitlarga sezgirlik, er-xotinlar bir-birini ijtimoiy tan olishi, bir-birlariga ijobiy o'zaro munosabatni namoyon qilishlarini taqozo etmoqda. Natijalarimizdan ko'rinayapdiki, erlarning "Mening idealimdagi er" ((11,6(0,76)), "Mening idealimdagi ayol" (10,28(0,63) ko'rsatkichlari bo'yicha yoki xotinlarning "Mening idealimdagi ayol" (10,76(0,56) va "Mening idealimdagi er" (10,3(0,44) ko'rsatkichlari bo'yicha tasavvur obrazlari "real men" pozitsiyasiga qaraganda, ancha yuqori miqdorga egadir.

2. O'zini yaxshi ko'rish - o'ziga ishonch. Bu tendensiya - o'ziga ishonch, mustaqillik, ishchanlik, yuqori ko'rsatkichi esa egoistlikni ifodalaydi. Ushbu tendensiya bo'yicha sinaluvchilar ikkinchi darajali natijalarni namoyon qildilar, ya'ni ular: erlar "Real men" bo'yicha (8,46(0,38), xotinlar (8,05(0,32 ball) ko'rsatkich bilan cheklandilar. Bu voqelik ularda oilaviy munosabatlarda ishonch hissi shakllanganligini, bu esa o'ziga ishonch tuyg'usi, ishchanlik sifatlari mavjudligini ko'rsatadi, ammo mazkur sifatlari har doim ham ijtimoiy munosabat va kundalik turmushda namoyon bo'la olmasligini taxmin qilamiz. Er-xotinlarning "ideal er" va "ideal xotin" to'g'risidagi tasavvurlari ham ikkinchi darajali natijaga mos keldi (erlarda "ideal er" bo'yicha 10,3(0,42 ball, "ideal xotin" 0,69(0,37 ball, xotinlarda esa "mening idealimdagi er" bo'yicha 10,06(0,56 ball "meni idealimdagi ayol" bo'yicha (0,2(0,43 ball). Bu esa er va xotinning "o'ziga ishonch - o'zini yaxshi ko'rish" tendensiyasi natijalari reallik bilan ideallikni taqozo etganligini e'tirof etadi.

3. Talabchanlik-murosasizlik-shafqatsizlik. Bu tendensiya ta'sirchanlik, tanqidiylik, sherikning xatolariga bardoshsizlik. Ushbu tendensiya-ning meyordan yuqori natijalari istehzolik va zaharxandalikni namoyon qiladi.

"Talabchanlik murosasizlik-shafqatsizlik" tendensiyasi bo'yicha ko'rsatkichlar er-xotinlarning oilaviy munosabatda, murosasizlik va shafqatsizlikka o'rin yo'qligini qayd qiladi. Chunki ular murosasizlik, nizo, o'zaro tushunmovchilik hech qachon ijobiy oqibatlarga olib kelmasligini hayotiy tajribalardan bilishadi.

Natijalarimiz ham tendensiya bo'yicha uchinchi darajali ko'rsatkichlar maqsadga muvofiq emasligini tasdiqladi. Erkaklar "Real men" bo'yicha 10,6(0,69 ball, ayollar 7,25(0,48 ballni namoyon qildilar ($t=3,80$ $p<0,001$ ga teng bo'ldi). Bu esa, ayollarning oilada erkakning talabchanligi va shunga muvofiq ayolni, uning talablariga nisbatan sabr-toqatli bo'lishini talab etar ekan.

4. Ishonchsizlik-qaysarlik-salbiylik tendensiyasi. Mazkur tendensiya ishonchsizlik, shubhalanish, rashk, jizzakilik, gina saqlovchanlikni aniqlashga yordam beradi.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda ishonchsizlik, shubhalanish, rashk va jizzakilik buzuvchi omillar sifatida ishtirok etishi tabiiydir. Mazkur munosabatlarda tenglikni ta'minlashda ta'kidlab o'tilgan xususiyatlardan xoli bo'lgan oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish ma'quldir. Natijalarga murojaat qiladigan bo'lsak, erlar ham ayollar ham ikkinchi darajali natijalarga ega ("real men" bo'yicha 6,33(0,29 ball va 7,30(0,42 ballga teng). ($t=1,90$, $p>0,05$ ga teng)dir. Bu er-xotinlarda rashk qilish, shubhalanish va qaysarlikka moyillik hukm surishini tasdiqlaydi. (Albatta, oilalarning hayot tajribasiga ko'ra, o'zgarib boradi, ilovalardagi jadvallar bundan dalolat beradi).

5. Yon berishlik-beozor-passiv bo'ysunuvchanlik. Tendensiya o'ziga tanqidiylik, vazminlik, muloyimlik, tobelik, uyatchanlikni baholash imkoniyatini beradi. Natijalar metodikaning xususiyatiga ko'ra, birinchi va ikkinchi darajali ko'rsatkichlar doirasidan o'rin olgan: erkaklarda "Real men" 4,45(0,27 ball, "idealdagi er" 7,48(0,56 ball, idealdagi ayol 8,36(0,71 ball ($t=1,41$; R-kuzatilmadi) ayollarda: "Real men" 6,46(0,45 ball, "idealdagi er" 7,35(0,62 ball, "idealimdagi xotin" esa 7,52(0,7 ballni namoyon qildi ($t=0,17$ ga tenglikda R-ishonchlilik kuzatildi).

Tadqiqotimizdan ko'rinayaptiki, erkaklar real hayotda doimo ham oilaviy munosabatlardan yon beravermasliklari, qaysidir ma'noda "erlik g'ururiga" berilishlari, munosabatda dominantlik, erkinlikni xohlashni, ammo "ideallarida" esa erkak uchun oilaviy munosabatlarda beozorlik, vazminlik, o'z xatti-harakatlariga tanqidiy qarash lozimligini, ammo tobelik, tortinchoqlik va uyalishga hojat yo'q degan xulosa chiqarishga imkon beradi.

6. Ishonuvchanlik-itoatkorlik-tobellik. Hurmatlash, tashakkur bildirish, sherigiga quvonch baxshida etishga intilish tendensiyaning tavsiflovchi asosiy sifatlar hisoblanadi.

Mazkur tendensiya oilaviy munosabatdagi tenglikni ta'minlashni markaziy tendensiyalaridan biri sifatida qarash mumkin. Hurmat-ehtirom ko'rsatish, e'zozlash, quvonch ulashishga intilish oiladagi ijobiy psixologik muhitni yaratadi.

Sinaluvchilarni bergan javoblariga ko'ra: erkak va ayollarning "Real men" bo'yicha ko'rsatkichlari ikkinchi darajali pog'onadan o'rin olgan, ya'ni 8,28(0,76 ball (erlarda), 8,15(0,58 ballni (ayollarda) namoyon qildi. Erkak va ayollar bir-birilarida turmushda yuqori ishonuvchanlikni namoyon qilishga moyilligini ko'rsatmoqda.

7.Ko'ngilchanlik - mustaqil emas, yon beruvchan. Ushbu tendensiya o'zaro yordam, muloqotmandlik, e'tiborlilik, xayrixohlikni o'lchash imkoniyatiga ega. Tendensiya natijalariga ko'ra, erlar 3,61(0,21 ball ("Real men" bo'yicha ("ideal"likda esa 4,21(0,28 ball va 6,15(0,34 ballar)ni ($t=4,41$, $r<0,001$ ga teng) namoyon qildi); ayollar esa 5,84(0,27 ball, (real men bo'yicha),("ideal" larida 5,16(0,30 ball; 6,28+0,36 ball ($t=2,43$; $r<0,05$ ga teng).

Natijalardan ko'rinadiki, oilaviy munosabatda o'zaro yordam, muloqotmandlikning zarurligini (erkak va ayollar natijalariga ko'ra) tasdiqlasa-da, ammo doimo xayrixohlik, qat'iy fikrning yo'qligi, yon beruvchanlik maqsadga muvofiq emas, degan xulosaga olib kelmoqda.

8.Rahmdillik-beg'arazlik-fidokorlik. Bu tendensiya er-xotinlarni shaxslararo munosabatidagi muloyimlik, atrofdegilarga nisbatan g'amxo'rlikka intilishini, kamchiliklarni tuzatishga moyillik, kamchilik va xatolarga nisbatan kechirimlilikini anglatadi.

Mazkur tendensiya natijalariga ko'ra, er-xotinlar "rahmdillik, beg'arazlik, fidokorlik" ni quyidagicha baholadilar: erkaklar "real men" bo'yicha 4,32(0,25 ball, "ideallari" bo'yicha 6,38(0,31 ball va 5,47(0,21 ball. ($t=2,45$, farqlar ishonchliligi. $R<0,05$ ga teng bo'ldi); ayollar esa 4,32(0,19 ballni (real men) va "ideallari" bo'yicha 6,45(0,35 ball va 7,26(0,40 ballni ($t=1,52$ ga farqlar ishonchliligi kuzatilmadi) namoyon qildilar. Erklar oilaviy munosabatlarda (xususan, atrofdegilar), bilan xushmuomila, ularga monand ish tutishni e'tirof etsalarda, doimo ham kamchiliklarga nisbatan kechirimli va ko'z yumib ketish ham joiz emasligini ifodalamoqdalar.

Endi mazkur fikrning davomi hamda oilaviy munosabatlarda yetakchi rolga ega shaxslar qaynota-qaynonalarning bu boradagi tasavvurlarini ham tahlil qilishga kirishdik. o'zbek etnosida qaynota-qaynona (ko'proq kuyovining ota-onasi, ba'zi hollarda kelinning ota-onalari) oiladagi shaxslararo munosabatlarni regulyatsiya qilib turishadi. Bu boradagi fikrlar ilmiy tadqiqot ishlarida (G'. B. Shoumarov, V. T. Karimova, N. Salayeva, F. Ro'ziqulov va boshqa) ham aks etgan.

Qaynota-qaynona o'zining hayot tajribasi va muomala maromini shakllantirgan va ijtimoiy pozitsiyaga ega shaxslar sifatida oilaviy munosabatlarda faol ishtirok etishadi. Ularning oilaviy munosabatlarida yoki er-xotin (o'g'il bilan kelin) munosabatlarida muvozanatlashtirib turuvchi sifatida qarash o'rinlidir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, oilaviy shaxslararo munosabatlar murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosiy bo'g'ini er bilan xotin o'rtasidagi munosabat hisoblanadi. Er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning hayoti va faoliyatida namoyon bo'ladi. Oilaning shaxslararo munosabatlaridagi barqarorlikni oilaviy qadriyatlarining shakllanganlik darajasi belgilaydi.

Er-xotinlarning jinsiy munosabatlariga oid qadriyatlar etnopsixologik va milliy madaniy muhit ta'siri ostida namoyon bo'lib, sinaluvchilar ushbu qadriyat zarurligini ta'kidlasalarda, lekin hali ham etnik stereotiplashgan xususiyatga ega.

Oiladagi er-xotinlarning o‘zaro munosabatlaridagi qadriyatlari bir-biri bilan uzviy xususiyatga ega bo‘lib, ularning shakllanmaganligi munosabatlarning beqarorlashuviga olib keladi. Er-xotinning shaxs sifatida identifaksiyalashuvi oila qurish jarayoni bilan adaptatsiya bosqichida ta‘minlanishi zarurat ekanligi kuzatildi. Ota-onaning maslahati bilan shaxsiy maqsadni muvofiqlashtirish, "gardish samarasi" ta‘siridan qochishni ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik T.: “Fan va texnologiya”, 2008. M.Fayziyeva, A.Jabborov Oilada shaxslararo munosabatlar psixologiyasi .Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti-2006 yil
- 2.M.Fayziyeva Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. Qarshi “Nasaf”nashriyoti -2018 yil.
3. M.Fayziyeva Oila psixologiyasi Uslubiy qo‘llanma. Qarshi “Nasaf”nashriyoti - 2019 yil.

ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХСНИНГ БАХТНИ ҲИС ҚИЛИШ ДАРАЖАЛАРИ

Жўраева Соҳибжамол Норқобиловна

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor
psixologiya fanlari доктори (DSc)*

Муайян ижтимоий жамият тараққиётини таъминловчи омиллар орасида мазкур жамиятнинг қуйи бўғини ҳиобланган оилаларнинг мустаҳкамлиги, уларда соғлом руҳий муҳитнинг қарор топганлиги, оилаларда жисмонан соғлом фарзандларнинг дунёга келаётганлиги, уларнинг маънавий етук шахс бўлиб тарбияланишлари йўлида ташкил этилаётган оила тарбиясининг самарадорлиги каби омиллар муҳим ўрин тутди.

Бахтли болалик – бу оиладаги қувончли ҳамжихатликнинг ҳамда оналарнинг болаларига ғамхўрлигининг самарасидир.

Фарзандга миллиард сўмлик шароит, қулайлик, қошона олиб бериш осон. Уни бахтли бўлишга ўргатиш қийин. Бироқ, бунга қандай эришса бўлади? Бахт сотиладиган дўкон, супермаркет бирор жойда йўқ. Фақат бахтлилар яшайдиган кўча, маҳалла ҳам йўқ. Демак, битта йўл қолади. Бу - Болаларни оилада, жамиятда бахтли бўлишга ўргатиш.

Бизнинг сезги рецепторларимиз нимадир янги нарсани идрок қилиш учун доимо тайёр туришади, баъзида эса улар унга мослашишади ва қизиқарлироқ нарсаларга эътиборимизни жамлашимизга имкон беради.

Бу эса фундаментал бир ҳақиқатни тасдиқлайди: биз атроф дунёни қандай бўлса шундайлигича эмас, балки қандай кўришни истасак, шундай кўрамиз.

“Анна Каренини” романида Л.Тольстой балоғатга етмаган ёшлик йилларни шундай тасвирлар эди. “Ёшлик бу бахтли давр, болалик билан энди хайрлашсак, лекин ҳаёт йўли ҳали бошланмаган”.

Баъзи бир психологларни айтишича, кўп ёшлар катта бўлганидан хурсанд бўладилар, яъни улар панд-насихатлардан қутулганига хурсанд бўладилар. Бу даврда ёшлар ўзларини ҳар тарафлама бахтли ҳисоблашади. Уларда соф виждон, соф муҳаббат туйғулари уйғонади, чексиз баландликларни эгалламоқчи бўладилар, бекиёс имкониятлари борлигига ишонишади.

Болалар вақт, пул ва эмоционал энергияни тортиб олишни бошлаганда, турмушнинг ўзидан қониқиши пасайиши мумкин. Бу айниқса, ишли аёллар орасида кўп бўлади, улар кутгандан кўра, уйда вазифаларни бажаришда анъанавий қийинчиликни орттиришади. Муқобил алоқани ўрнатишга бўлган уруниш 2 карра двидентларни тўлайди: ота-она ва бола алоқаларини давом эттирувчи яроқли турмуш гарчи севги болани дунёга келтирса ҳам, болалар қачонлардир уйини ташлаб кетади. Бу кўчиш муҳим ва баъзида қийин ҳодиса ҳисобланади. Кўплаб одамлар учун аммо бўш уй бахтли жой ҳисобланади. Ҳали ҳам уйда ўрта ёшли болали аёллар билан таққослаганда бўм-бўш уйда яшайдиганлар кўпроқ бахт ва уларнинг турмушдан кўпроқ роҳатланаётганидан ҳабар беради. Кўплаб ота-оналар агарда улар болалар билан алоқани мустаҳкамламоқчи бўлса қисқа муддатли асал ойини ташкил қилишади. Даниел Гилберт айтганидек, “бўш уй синдромининг ягона маълум белгиси табассумни оширади.”

Охирида бахт муваффақият ва қобилият сезгиси билан сизни таъминлайдиган ва сизнинг қизиқишлармизга мос ишга эга бўлишдир. Бу эса сизнинг муваффақиятларингиздан хурсанд бўладиган яқин қўллаб – қувватловчи ҳамкасбларга эга бўлишдир ва баъзилар учун бу нарса сизни севадиган кимдир ва сиз билан фахрланадиган ва сизни севадиган фарзандларга эга бўлишни ўз ичига олади.

Агар сиз олдиндан оила бахтли бўлишини айтиб бергингиз келса, улар бир-бирини телбаларча севишларига аҳамият берманг.

Одам кўпинча борининг қадрига етмайди. Нолийди, шукрни унутиб қўяди. Бахтли, ахилликни, бирдамликни ўзи яратиш кераклигини ҳам. Худди меҳр доим уни кутиб туриши керакдай. Ўзбек доим бировга, айниқса, оиласига меҳр берган, эвазига меҳр кўрган. Ҳар битта катта одамдан 10 дан 9таси турмуш куради. Ажралишгандан сўнг улар 75% иккинчи мартда уйланади. Иккинчи турмуш ҳам яхши бўлмайди. Одамлар ўз турмушларини бахтсиз ҳисоблашса ҳам баъзи бир ажралишганлардан ёки бир ўзи қолиб кетгандан кўра бари бир Европада ва жанубий Америкада одамлар ўзини бахтли деб ҳисоблашади.

АҚШда масалан 25% ками ёлғиз одамлар ва тахминан 40% уйланганлар ўзини "жуда бахтли" ҳисоблашади. Лезбиянкалар жуфт бўлиб яшаб, ўзини ёлғиз қолган одамлардан бахтлироқ ҳис этишади. Кўп йиллар яшаётган

оилаларда ҳам зиддиятлар бўлади. Бир хил эр хотинлар уришадилар, кейин ўзининг айбини ювишга ҳаракат қиладилар.

Жон Готмон 2000 жуфт оилаларнинг муносабатларини кузатиб шундай хулосага келди, эр-хотиннинг муносабатлари яхши бўлиши учун оиладаги позитив ва негатив контактлар оилада 5:1 нисбатни ташкил этиш керак. Стабил бракларда 5 мартаба бир-бирига кулишади, комплиментлар айтишади, жинсий алоқага киришади, ҳақорат қилишади, кесатишади ҳам.

Яхши аёл турмуш қураётиб бахт ваъда қилади, ёмон аёл – бахтни кутади.

1958 йили Иллинойс университети штатида, бир профессор ишдан бўшатишган эди. Унинг фикри бўйича, турмуш курмасдан аввал, севишганлар ўзини севги борасидаги муносабатларини синаб кўришлари керак.

Бернард коллежидаги иккинчи босқич талабаси Линда Ликлер 1968 йили Колумбия Университетидаги ўз дўсти билан ётоқхонанинг бир хонасига жойлашганда, маъмурият норозилик билдириб уни коллеждан ҳайдаш ҳавфи туғилган эди. Охирида, унинг талаба бўлиб қолишига рухсат беришди, лекин унга кафетерийга, талабалар барига ва дам олиш хонасига киришга рухсат беришмади.

Ҳозирги пайтда, кўпгина университетлар бошқа фикрга амал қилишади. Ноқонуний яшаш оддий ҳол бўлиб қолди. 1970 йилларда никоҳсиз йўл билан яшовчилар сони АҚШ мамлакатига 3 мартаба кўпайди, 1980 йилдан бошлаб улар сони 2 мартаба кўпайди. Анологик ҳолатлар Ғарбий Европада ҳам ўз ўрнини топди. Австралияда турмуш қуришдан олдин ноқонуний яшаб юрганлар сони 50% ташкил қилди, бу 4 баробарга 1975 йилдан кўра кўпайди.

Кўп одамлар, турмуш курмасдан олдин яшаб бир-бирини синаб кўриш ажрашишлар сонини камайтиради деб ўйлайдилар.

Америкада ўтказилган мулоқотда 300.000 1-курс талабалари шу фикрни қўллаб қувватлашди. 2 одам турмуш қургунча бирга бир неча муддат яшаб кўришлиги керак – деган фикр билдиришади. Ҳақиқатдан ҳам турмуш қургунча инсонлар ўзини интим ҳаётда синаб кўришлиги характериға мос келишлиги тўғри фикрмикин?

Бирга яшаш камроқ ажралишларға сабаб бўла оладими? Йўқ. Саккизта изланишлар натижаси шуни кўрсатдики, турмуш (нигоҳ) қургандан сўнг яшайдиган инсонларда ажралиш кам бўлади. Миллатлар аро сўровлар шуни таъкидлайдики 13.000 катта ёшдаги одамлардан олган маълумотлар натижаси шуни кўрсатдики, олдиндан никоҳсиз яшаб юрганлар сони 1,3 қисми 10 йилдан сўнг ажралиб кетишлар экан. Геллан институти берган маълумотиға кўра 1990 йилда одамлар никоҳдан кейин бирга яшашган ва уларнинг ажралиш рақами 21% ташкил этиши ва аксинча 40% ажралишлар никоҳдан олдин яшаган одамларға мансубдир.

Канада 53000 та сўровдан ўтган аёллар натижаси қуйидаги кўрсаткичларни кўрсатди. Яқин 15 йил ичида ажралишганлар кўрсаткичи 54% ни ташкил этганлигини кўриш мумкин.

Швециядаги 43000 сўровдан ўтганларни натижаси, аввал никоҳдан ўтмасдан олдин яшаганлар ажралиши сони 80%ни ташкил этди. Нима учун?

Биринчидан, никоҳдан олдин енгил табиатли инсонлар яшайдилар, шунинг учун улар биринчи қийинчиликка учрагандаёқ турмушини бузишади. Агар бир биридан хафа бўлсалар, улар бахтни четдан қидиришадилар. Никоҳсиз яшаб юрган инсонлар идеалистик этикани тарафдори, улар ўз муносабатларини вақтинча деб ҳисоблайдилар ва шу сабабдан ажралиш улар учун оддий ҳодиса.

40 ёш - бу "ҳаётни ўртаси" бу давр баъзан жуда қийин қабул қилинади. Бу ёшда одамлар ўз орзулари билан хайрлашадилар, бой бўлиш ёки машҳур бўлиш орзусидан, чунки улар бахтни бойликда машҳурликда кўришар эди. Ўз ҳаётини ва ютуқларини анализ қилишади.

Изланишлар натижаси шуни кўрсатадики, ишини ёқтирмаслик, оилани бошқармаслик, эр-хотин ажралиши, депрессия ва ўз жонига қасд қилиш ҳолатлари 40 ёшлик одамларга мансуб эмас. Ажралишлар ҳолати тахминан 20-30 ёшга мансубдир, ўз жонига қасд қилиш ҳолатлари 70 ёшли инсонларнинг характериға мансубдир. Ишдаги ва уйдаги ишлардан қониқмаслик, бу ёшдаги одамлар тез-тез нолишади ва афсус қилишади. Бундай ҳолат ва ҳис туйғу 40 ёшли одамларга хос эмас. Бундай натижалардан ҳайрон бўлиб олимлар ўзининг ўлчови билан 300 эркакдан ва шунингдек характери бир меъёردа бўлмаганлигини ҳисобга олган, улар 10 минг эркак ва аёлларни, савол-жавоб қилишди. Олдинги олган натижалар исботланди ҳеч қандай аломатларни белгилаш таъкидланмади гўё "40 ёшда инсон яшашини ўртасида бефарқлик пайдо бўлади."

Лекин бизда, миллий этник жиҳатларимиз, оилавий муносабатларимиз шарқона бериладиган тарбиямиз ўзбек оилалари учун жуда муҳим аҳамиятга эга. Чунки бу маънавий мерос, бу топилмас хазина, йўқотиб бўлмас анъаналардир.

Оила тарбияси – бу умумий ижтимоий тарбия жараёнининг шундай босқичики, у инсоннинг кейинчалик бутун умри давомида оладиган маърифат ва ҳаёт сабоқлари учун асос, замин, пойдевор вазифасини ўтайди. Оила тарбияси ота-она ва фарзандлар, шунингдек бир неча авлодга мансуб шахсларнинг ўзаро қон-қариндошчилик муносабатлари асосида қурилувчи ўзига хос бетакрор маънавий-руҳий жараёндир.

Оиланинг яна бир муҳим жиҳати психологик яқинлик: бир-бировини тушуниш, оиланинг бошқа аъзоларини ҳолатини олдиндан ҳис қилиш ва шу асосда муносабатларни намоён қилиш, оилани психотерапевтлиги, оилада бир-бирига эътибор, меҳр кўрсатиш, бир-бирини қўллаб қувватлаш, эмпатия ва ҳоказолар. Булар ҳаммаси оилавий анъаналар ва шахснинг ўз-ўзини таҳлил

қилиши асосида шаклландиган хусусиятлар ҳисобланади. Масалан: психологик яқинлик ўз-ўзидан пайдо бўлмайди, бу анъаналар асосида пайдо бўлади. Бу анъаналар эса оила бошлиқлари, қон-қариндошчилик ришталари орқали шакллантирилади ва назорат қилинади.

Оила ичидаги муносабатларнинг шаклланиши ва ривожланиши жараёнини тушунишда ҳиссий-эмоционал муносабатлар муаммоси муҳим рол ўйнайди. Энг яқин одамлари билан бўлган муносабат психологик яқинлик билан, шерикларнинг ўзаро обрўлиликлари билан, ижобий эмоционаллик билан белгиланади. Энг яқин одамлар билан бўладиган муносабатларда одамнинг бошқалар учун аҳамиятли бўлиш эҳтиёжи тўлиқроқ қондирилади.

Инсон турмуш қуришдан олдин бу ҳаётда ўзининг дунёқарашига эга бўлади. У ўзи учун азиз ва қимматли нарсаларни белгилаб қўяди, шунинг учун ўз ёнида тушунадиган, унинг ғурурига тегмайдиган дунёқараши устидан қулмайдиган, таъна қилмайдиган кўпинча яқин бир инсон бўлишини истайди.

У бошқа ўзига яқин инсондан уни дунёқараш, ғурурини, ҳаётдаги ўрнини, ҳурмат қилишини хоҳлайди. Фақат шундай инсонгина турмуш ўртоғини била олиши ва шундагина мустаҳкам оила қуриши мумкин.

Болалар оилани мустаҳкамлайди, лекин умумий маънавий қизиқишлар ҳам бўлиши керак. Оила бахтли бўлишида турмуш қурганлар бир-бирларига дўстона муносабатда бўлиши муҳим аҳамиятга эга. Чунки, ёшлиқда турмуш қуриб, йиллар давомида икки шахс бир-бирига боғланиб қолади. Улар бир-бирини тарбиялайди, бир-бирини ўрганади.

Оиладаги атмосфера яхшилансагина, ўспиринларимизнинг улғайишига, ҳаётни англаб етишига имкон берсагина юқоридаги фактлар маълум роль ўйнайди. Шундай қилиб, ўзаро жанжаллар оиладаги ҳамма яхши нарсаларни ўлдиради, яъни дейишади - "жанжалли ўтган ҳаёт - бу манфий яшаб ўтилган ҳаёт, чунки ҳар бир жанжалли ўтган дақиқа кун, соат орқага қайтмайди". Шундай қилиб, жанжаллар ва келишмовчиликларда жаҳлдорлик ва ўз-ўзини бошқара олмаслик муҳим аҳамият тутади. Шу ҳолатларни бошқара олиш муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса қилиб айтганда, турли хил қатлам вакиллари: эркаклар ва аёллар, кексалар ва ёшлар, бадавлат ва ўрта ҳоллар, ногиронлар ва ногирон эмаслар, барча-барчасининг бахт ҳақидаги тушунчаси бир-бирига жуда яқин бўлиб, оилада бахтни ҳис этиш деярли бир хилдир.

INNOVATSION O‘QITISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Beknazarova Lola Sadinovna

QarshiDU psixologiya kafedrasi professori, fanlari doktori (DSc)

Fan va texnikaning jadal rivojlanish davrida axborot oqimi ortdi, ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi esa, insonning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish,

ijodkorlik va novatorlik imkoniyatlarini takomillashtirish shuningdek, uning ustun qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish kabilarni oliy maqsad emoqda. Bizningcha, ijodkor, novator pedagoglarning tinimsiz izlanuvchanligi va faoliyat samarasi, bugungi ta'lim makonida, zarur yangilik bilan birga ehtimoldan holi emas. Shuning uchun ham, har bir ta'lim oluvchining qobiliyatiga qarab ta'limni tashkil etish, ularning mustaqil fikrlashiga, izlanuvchanligiga, ijodkorligiga xizmat qiluvchi eng muhim ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni yaratish ishlariga, katta burilish qilish zarurati tobora ortmoqda. Chunki ta'lim jarayonini davlat ta'lim standarti darajasida tashkil etish, o'z mazmunida yangi pedadagogik -psixologik usullarni joriy etish kabilarni taqozo etadi.

Ta'lim sohasi xodimlari oldidagi vazifalardan biri, o'qitish uslublarini muntazam psixologik jihatdan takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda yangi ta'limiy vositalarni ilshlab chiqishdan iboratdir. Ayni paytda har bir professor-o'qituvchilar dars jarayonida, o'zlarining innovatsion va ijodkorlik usullaridan foydalanib, mashg'ulotlarni sifatli va qiziqarli o'tkazishmoqda.

Agar "innovatsiya" tushunchasini psixologik tadqiqotlarning mazmunida keng qamrovli ko'rib chiqadigan bo'lsak, ko'pgina olimlar unga turli xil ta'riflar berishgan. Masalan, E.Rodjers innovatsiya tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Innovatsiya – bu aniq shaxs uchun yangi bo'lgan g'oyadir" [1,17]. S.R. Yagolkovski shunday deydi: "Innovatsiya - bu alohida yangi o'zgarishlar vaziyati bo'lib, biz undan tizimli vazifalarimiz amalga oshishini va yangi yechimlarni kutamiz" [2,97].

Ijtimoiy ahamiyatga ko'ra, innovatsion hodisalar o'tgan asrning 80-85 yillarida ta'lim sohasida keng tarqala boshladi. Qoidaga ko'ra, innovatsiya bir nechta dolzarb muammolar vaziyatida paydo bo'ladi va u psixologik hodisani doimiy ravishda modernizatsiya qilishga olib keladigan, yangi maqsadlarni hal qilishga qat'iy yo'naltirilgan hodisa sifatida e'tirof etiladi. V.YE.Klochko va E.V.Galajinskiylarning aytishicha, innovatsiyaga yaqin tushuncha, "Renovatsiya" so'zi ham farqlanib, u biror eskirgan g'oyani ta'mirlash, yangi holatga integratsiya qilish, o'zgarishlar olib kelish, yangi sifatlarni kashf etish, eskilikdan uzoqlashish kabilarni bilan xarakterlanadi[3,82]. Ko'pchilik mashhur ijtimoiy soha vakillarining yozishicha, "Innovatsiya, innovatsion-ijodkorlik jarayonini – ta'lim muassasalarining yangiliklarni yaratish, bilimlarni egallash, uni o'zgarishlar sharoitida qo'llash va tarqatish bilan bog'liq faoliyati turi sifatida qayd etishadi. Misol uchun, L.A.Regush o'z tadqiqotlarida "innovatsiya" – bu bilim mazmuni, metodikasi, texnologiyasi, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, ta'lim tizimini samarali boshqarish kabilarda o'z aksini topadi, deb ta'kidlab o'tadi [4,123]. E.I. Mesheryakova o'z tadqiqotida o'quv jarayonida innovatsion o'qitish usullarini qo'llashning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatdi [5,69-75]:

– O'z-o'zidan ta'lim texnologiyasi shaxsning ijtimoiy-psixologik mas'uliyatini oshiradi, ta'lim jarayonida fan asoslarini o'zlashtirish uchun fazilat va axloqiy fazilatlarini shakllantiradi.

– Jamiyat va tabiat qonuniyatlarini integratsiyalashuv asosida o'zlashtirish;

– O‘qituvchiga noma’lum bo‘lgan ijodiy izlanishlar asosida hayotga kirgan yangi qobiliyat;

– Tabaqalashtirilgan bosqichli ta’lim texnologiyasida o‘qitish mazmuni va metodlari ijodiy izlanish va harakat asosida shaxsning innovatsion qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

– Axborot dasturlash ta’limi — ta’lim mazmunini fanlararo aloqa nuqtai nazaridan tashkil etish;

– Illyustrativ va tushuntirishli o‘qitishda “inson-jamiyat-tabiat” uyg‘un dunyoqarashida tizimli ongli madaniyat shakllanadi;

– Texnologiyani insonparvarlashtirishda, psixologiya fanining ilg‘or ilmiy yangiliklarini amaliyotga “bola-subyekt”, “bola-obyekt” nuqtai - nazaridan joriy maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ilmiy bilim esa, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy holatlar birligida ko‘rib chiqiladi. Ta’lim menejmentiga oid ilg‘or asarlarda innovatsiyaning uch turini uchratish mumkin: modifikatsion innovatsiya, kombinatsion innovatsiya va radikal innovatsiya. Quyida ana shu uch tushunchaning mazmunini yoritishga harakat qilamiz.

Modifikatsiya innovatsiyasi – bu ilgari mavjud bo‘lgan narsalarni ishlab chiqish, uning shaklini o‘zgartirish. Masalan, V.F.Shatalovning matematikaga oid sxemasi va undan ko‘plab o‘qituvchilar ta’lim jarayonida foydalanishi yaqqol misoldir. Kombinativ modifikatsiya – ilgari ishlatilmagan, ma’lum bo‘lgan uslubiy elementlarning yangi konstruksiyasidir. Radikal innovatsiya eskilikni, o‘zgarmaslikni shior qiluvchi yondashuv bo‘lib, hozirga kelib ushbu komponent ko‘plab olimlar tomonidan tan olinmaydi. Biroq, hozirda ham ushbu innovatsiya turini ham qo‘llab-quvvatlovchi jamiyatlar turi ham uchrab turdi. M.V.Klarinning yozishicha, milliy innovatsiya – ta’limga yangi davlat standartlarini joriy etishdir [6,56]. Ta’limdagi davlat standarti asosan, ta’limning miqdori, shart-sharoitlari, darajasi va sifat ko‘rsatkichlarini shakllantiradi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda qator ta’lim muassasalari tomonidan taklif etilayotgan ko‘plab imkoniyatlar tufayli, tashkilotlar istalgan model bo‘yicha xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Bu yo‘nalishda ta’lim mazmuni, tuzilishi, fan va tajribaga asoslangan yangi g‘oyalar, yangi texnologiyalarning har xil turlari ishlab chiqilgan. Shuning uchun, har bir ta’lim oluvchi shaxslarning yoshi va individual psixologik xususilaridan kelib chiqqan holda, turli xil o‘qitish texnologiyalari va ta’lim mazmunini tanlash va ularni amaliyotda sinab ko‘rish juda muhimdir. Amalga oshirilayotgan texnologiyaning xususiyatlari bilan;

1. Innovatorlarning innovatsion salohiyati bilan;
2. Yangilikni joriy etish usullari va hokazo.

O‘qitishning yangi innovatsion texnologiyasi kasbiy faoliyatning alohida turidir. O‘qitishning innovatsion texnologiyasini o‘zlashtirish uchun katta pedagogik tajribani safarbar etish zarur bo‘ladi. Bu o‘z ishiga ijodkorlik bilan yondoshadigan va ishbilarmon, kreativ sifatlarga ega imkoniyatlarni talab qiladigan ishdir. Darhaqiqat, har bir o‘qituvchi yangi innovatsion texnologiyani o‘zlashtirish jarayonida o‘zini rivojlantiradi va shakllantiradi. XXI asrda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy jihatdan

ilg'or tayyorlash va ularning innovatsion-ijodkorlik sifatlarini shakllantirish masalalari, o'ta ahamiyatli vazifa sanaladi.

S.N.Tolstov xulosalariga ko'ra, bo'lajak mutaxassislarni yangi innovatsion-ijodkorlik sifatleri bilan shakllantirish hamda ilg'or usullardan foydalanishga o'rgatish quyidagilarni o'z ichiga oladi[8,50]:

– Motivatsion jihat – bu kognitiv qiziqishlarni shakllantirishni o'z ichiga olib, u bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirish, ilmga qadriyatli munosabatlarini oshirish, o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishga intilishi, bo'lajak kasbiga bo'lgan alohida mehrni uyg'otish, kelajak avlod tarbiyasida o'qituvchining yetakchi mavqe'ga ekanini his etishga o'rgatish, o'z saviyasini yanada oshirishga yo'naltirish kabilarda o'z aksini topadi.

– Kognitiv jihat – bu bo'lajak mutaxassislarning umumiy madaniy tayyorgarlik darajasi va mazmunli uslubiy tayyorgarligi, mutaxassislik bo'yicha bilimlari, yagona samarali ta'lim tizimi, o'zlashtirish va yaratishning psixologik qonuniyatlari, bilim va ko'nikmalarni egallashga xizmat qiluvchi kuchlar kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu komponentga samarali ta'lim jarayonning nazariy asoslari va o'zlashtirish va ijodkorlikning ilmiy asoslarini o'zlashtirish, ijodiy faoliyat asoslarini bilish, yaratuvchanlikni his qila olish kabilar kiritiladi. Bo'lajak mutaxassisning har qanday vaziyatga moslasha olish qobiliyati moslashuvchanlik xususiyati deb ataladi.

– Innovatsion-ijodiylik jihati - bo'lajak mutaxassisning ijtimoiy va kasbiy muhitni tezda tan olish qobiliyati, kasbiy o'zini o'zi anglashning samarali usullaridan foydalanishi, innovatsion pedagogik texnologiyalarga qiziqishi bilan ajralib turadi. Bu bo'lajak mutaxassisning ijtimoiy va kasbiy muhitini bilish, kasbiy bilimlarini o'z amaliyotida qo'llay olish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rganish va o'rganishni o'z ichiga oladi.

– Kasbiy motivatsion jihat – bo'lajak mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatining maqsad va vazifalarini aniqlash va pedagogik muloqot jarayonini samarali amalga oshirish qobiliyati bilan o'lchanadi. U bo'lajak mutaxassisning o'z fanini puxta egallashi, yaxlit ta'lim jarayonining psixologik-pedagogik asoslarini bilishi, pedagogik jarayonni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati kabilan bilan tavsiflanadi. Innovatsion-ijodkorlik malakalari ta'limda, o'qitishning uslubiy maqsadlari, ilg'or o'qitish jarayoni, uning vazifalarini aniqlay olish, o'qitish natijalarini bashorat qila olish, yetakchilik uchun zarur sanalgan ijtimoiy-psixologik bilimlarni egallash kabilan bilan ham belgilanadi. Bo'lajak mutaxassis darsni yaxlit ta'lim jarayonida samarali tashkil eta olishi, o'quvchilar bilan hamkorlik aloqalarini amalga oshira olishi, guruhviy munosabatlarga tashxis qo'ya olishi va nizolarni oldini olishda samarali psixologik usullarni tanlay olishlari o'ta muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, oliy ta'lim sharoitida professor-o'qituvchilarning innovatsion-ijodkorlik faoliyati quyidagilarda o'z aksini topadi:

– O'z tajribasini hisobga olgan holda, boshqalarning innovatsion tajribasini o'zgartirish, takomillashtirish va uni yaxshi idrok etish qobiliyati;

– Yangi ilmiy g'oyalar va boshqalar tajribasidan xabardor bo'lish, o'z ishining natijalarini tushunish zarurati;

– Yangi ilmiy tadqiqotlar, ularni uzluksiz amaliyot bilan metodik tadbiq eta olish qobiliyati;

– Ta’lim berishning yangi uslub va vositalarini mustaqil ravishda yarata olish tajribasi:

– Kasbiy deformatsiya, turli dogmalar hamda kasbiy qoloqlik kabilarga nisbatan faol kurasha olish malakasi.

– Ta’lim berish, o’qitish va o’zlashtirish jarayoni samaradorligini ta’minlay olish:

– Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining talablari va istaklar birligini ta’minlay olish;

– Shaxsning ijodiy imkoniyati va yaratuvchanlik xususiyatini shakllantirish;

– Kasbiy faoliyatda doim novator bo’lish, o’zaro munosabatlarga tolerant munosabatda bo’lish, yangiliklar sharoitiga tez moslasha olish va boshqalar.

Ushbu qayd etilgan sifatlarni o’z vaqtida rivojlantirish, uni amalga oshirishning ilmiy psixologik modelini ishlab chiqish, shaxsning ijodiy, innovatsion, kreativlik sifatlarini o’z vaqtida qo’llab-quvvatlash hisoblanib, ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan keng tadqiq etish, hozirgi jamiyat qolayevrsa, zamonaviy psixologiya oldida turgan eng dolzarb, ijtimoiy hamda iqtisodiy xarakterga ega bo’lgan masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rogers E. M. Diffusion of Innovations. 4th ed.- New York, 1995. -PP.33.
2. Яголковский С. Р. Психология инноваций: подходы, модели, процессы. М.: НИУ ВШЭ, 2011– ISBN 978-5-7598-0771-1 – 272 с
3. Ключко В.Е., Галажинский Э.В. Психология инновационного поведения - Томск: Томский государственный университет, 2009. – 240 с.
4. Регуш Л.А. Психология прогнозирования: успехи в познании будущего. – СПб.: Речь, 2003. – 352 с. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.klex.ru/dup> (дата обращения: 01.12.2015).5
5. Мещерякова Э.И., Ларионова А.В. Особенности становления личностного потенциала субъекта инновационной деятельности // Психологическая наука и образование. 2013. № 2. С. 69-75.
6. Кларин М.В. Инновации в обучении: метафоры и модели: Анализ зарубежного опыта. М., 1997. – С.56.
7. Абчук В.А. Менеджмент для педагогических специальностей. Учебное пособие / В.А. Абчук. - М.: Академия (Academia), 2010. – 261 с.

OILAVIY MUNOSABATLARNING TIPIK KO‘RINISHLARI

Bekova Shamsiya Jabborovna

QarshiDU psixologiya kafedراسи dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Har bir oilada ma'lum munosabatlar vujudga keladi va rivojlanadi, ular turmush o'rtoqlarning ota-onalari oilalarida bo'lgan oilaviy munosabatlarning turlari va

modellariga asoslanadi. Olimlar uzoq vaqtdan beri har bir oila ittifoqining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini taxmin qilish imkonini beradigan oilaviy stsenariylarning taksonomiyasini ishlab chiqdilar. O'zaro munosabatlar turlarining xususiyatlari va nozikliklarini bilib, siz oldindan "somonlarni qo'yishingiz" va yoqimsiz vaziyatlarning xavfini kamaytirishingiz mumkin. Ta'kidlash joizki, bu turlar sof shaklda uchramaydi, har bir oiladagi har qanday munosabatlar o'ziga xosdir, xuddi uni yaratgan odamlar o'ziga xosdir, lekin har bir er-xotinda o'zaro ta'sirning ma'lum bir turi hukmronlik qiladi, bunda barcha aloqa mavjud.

Oilaviy munosabatlar muammosini o'rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari so'nggi yillarda dunyo miqiyosida jadal tus olib bormoqda. Jumladan, chet el psixolog va sotsiolog olimlari, Fransiyada A.Villi, E.Dyurkgeym, P.Jane, Germaniyada T.Shrayber Amerikada K.Byuler, V.Metyuza, Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba Dj Bruner, S.Xoll, U.Djeyms, D.Cheyne, Shveysariyada E.Klapared va boshqa ko'plab tadqiqotchilar tomonidan bu sohada bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Bizning nuqtayi nazarimizcha, bolalar va ota-onalar munosabati, ota-onalik munosabati va ota-onalik ustanovkalari kabi bir-biri bilan bog'liq, lekin shu bilan birga, bir-birini to'ldiruvchi hamda ko'pincha sinonim tarzida qo'llaniladigan tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim. Bolalar va ota-onalar munosabatlarining o'ziga xosligi shundan iboratki ular ikki tomonlama munosabatlardan tarkib topib, har ikki tomon ota-ona va bola munosabatlar tizimini faollik bilan shakllantiradi. Bu munosabatlar avval boshidan teng huquqli munosabatlar bo'lmasa-da, biroq doimo teng huquqlilikka intiladi. Bola shaxsining shakllanganligi esa bunday munosabatlarning mahsuli bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, bolalar va ota-onalar munosabatlarini bevosita qarindoshchilikka ega bo'lgan kattalar hamda bolalar o'rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida talqin qilish mumkin: ular bola tug'ilishi bilan paydo bo'lib, ota-ona va bolaning o'zaro ta'sirli hamkorligi jarayonida o'zining alohida dinamikasi hamda o'ziga xoslik bilan tavsiflanuvchi mohiyatga ega bo'lib boradi. Bunday munosabatlar quyidagi uchta omil: ota-ona, bola munosabatlarining madaniy tarixiy mazmuniga ega.

Oilada bolalar bilan to'g'ri munosabatga kirishish juda muhim ahamiyatga egadir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga va xalq boylıklariga ongli munosabat, nuqsonlarga muvosiyoqlik ruhida tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga ega. Oila, xususan, bolaning hissiyoti va emotsional madaniyatini tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega.

Ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatning ijobiy tus olishi uchun ota-ona farzandlari bilan munosabatga kirishayotganlarida pedagogik odobga rioya qilmoqlari kerak. Ota-onaning aytgan har bir so'zi ta'sir qiladigan bo'lmog'i, so'zning aytilish formasi, shu so'zning formasiga mos keladigan holda chehraning ochiq yoki vajohatli bo'lishi pedagogik ta'sirning ta'sirchanligini oshiradi. Aksincha, pedagogik odobga rioya qilmaslik bolani haddan ortiq sevish yoki berahm, qattiqqo'l munosabatda

bo'lish ota-ona bilan bola o'rtasidagi o'zaro muomalaning buzilishiga sabab bo'ladi. Ota-onalar va bolalar o'rtasida munosabatlarning ijobiyligini ta'minlashda har bir bolaga alohida muomala va munosabatda bo'lish zarur. Bunda bolaning yoshi, o'sha davrdagi holati hisobga olinishi kerak. Bolaning yoshini, ma'lum vaziyatdagi holatini yaxshiroq tushunish uchun o'zimizni bolaning o'rniga qo'yib ko'rishimiz kerak. Shunda biz bolaning ichki olamini, xohish-istagini anglab yeta olamiz.

Oilaviy munosabatlarda ota-ona va bolalar o'rtasidagi ijobiy munosabatni yuzaga keltirish ko'p jihatdan ota-onalarning o'z bolalarini, ularning fe'l-atvori, xarakter xislatlari, qiziqishlari kabilarni bilishlariga bog'liqdir. Shu jihatdan har bir ota-ona, eng avvalo, o'z bolalarini har tomonlama bilishlari va shu asosda munosabatda bo'lishlari lozimdir. Keltirilgan fikrlarga asoslangan holda quyidagi xulosa va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

Bolalarga samimiyat bilan munosabatda bo'luvchi, lekin ularga ko'p narsalarni ruxsat etuvchi ota-onalarning farzandlari faollik, mustaqillik, o'rtoqlik, ijodga intilish kabi xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, ularda salbiy sharoitlar shakllanishiga keng imkoniyat yaratilishi mumkin.

Bolalarga samimiyat bilan qarovchi, lekin ularni ko'p jihatdan cheklovchi ota-onalarning bolalari xushmuomala, yon bosuvchan bo'lib, ularda ijodkorlikka, mustaqillikka intilish kamroq namoyon bo'ldi.

Bolalarga sovuq munosabatda bo'luvchi, lekin ularga ko'p narsalarni ruxsat etuvchi ota-onalarning farzandlari ko'pincha ota-onalariga befarq munosabatda bo'ladilar, lekin buni xulq-atvorlarida har doim ham namoyon qilmaydilar. Shuningdek, ular odatda tortinchoq, kattalarga ishonmaydigan bo'ladilar, ijtimoiy yolg'izlikni afzal ko'radilar.

Farzand bilan ota-ona o'rtasidagi yaqin munosabat o'z-o'zini anglashni rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin. Ilgari surilgan xulosalarga muvofiq quyidagi tavsiyalarimiz ota-onalar va o'qituvchilarga mo'ljallangan.

Shaxsda o'z-o'zini anglashning shakllanish xususiyatlari to'g'risida ota-onalar va o'quvchilar to'liq tasavvurga ega bo'lishlari kerak.

Ota-onalar o'z farzandlarining qiziqishlari imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'g'ri baholashlarga o'rganishlari lozim. Faqat shundagina ular o'z farzandlarini o'z-o'zini to'g'ri baholash va o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatishlari mumkin.

Oiladagi psixologik iqlimning buzilishi bola xulqida negativ xususiyatlarni shakllantirishini inobatga olgan holda ota-onalar oilada hamkorlik muhitini yaratishga odatlanishlari maqsadga muvofiq. Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba

Oilada o'rnatilgan samimiy muloqot bola shaxsida rostgo'ylik, saxiylik, mustaqillik sifatlarni tarkib toptiradi. Bu esa ota-onalarning o'z farzandlari bilan muntazam jonli muloqotda bo'lishni taqazo etadi.

Oilada manipulyatsiya munosabatlarining asosi sherikdan ham jismoniy, ham hissiy jihatdan ustunlik va zo'ravonlikdir. Bundan tashqari, jismoniy zo'ravonlik

deyarli har doim aniq bo'lsa-da, psixologik yoki hissiy zo'ravonlikni sezish qiyinroq. Odatda bunday munosabatlarda manipulyator mojarolar yoki muvaffaqiyatsiz munosabatlar uchun barcha aybni jabrlanuvchiga aylanadigan sherikga yuklashga harakat qiladi. Odatda suhbatlarda u "bu sizning aybingiz", "bu siz uchun", "buni siz qaror qilgansiz" iboralarini ishlatadi.

O'zaro munosabatlarning boshida manipulyatsiya yoqimli va jozibali ko'rinadi, chunki noz-karashma ham manipulyativ texnikaning bir variantidir.

Ammo asossiz rashk, doimiy nazorat, tashqi ko'rinishdan norozilik allaqachon ehtiyot bo'lish uchun sababdir, chunki bu odatda ultimatumlar, taqiqlar va tahdidlar bilan birga keladi. Bunday oilada ba'zida turmush o'rtoqlar rollarni o'zgartirishi mumkin. Manipulyator bolalikdan beri ko'p odamlarda bo'lgan aybdorlik tuyg'usiga mohirlik bilan bosim o'tkazadi. Manipulyatsion munosabatlar juda halokatli bo'lib, ularni imkon qadar tezroq o'zgartirish yoki to'xtatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Раҳимова К., Отажоновна М. Болаларда маънавий тушунчаларни шакллантиришда актив методлардан фойдаланиш. / Фан ва тиббиёт. Технологиялар. 1999.

2. Йўлдошева Б. С. Ўзбекистонда ёшларни маънавий тарбиялашнинг ижтимоий-педагогик асослари. Пед.ф.н. ... ёзилган дисс. – Тошкент: 2000.

3. Воспитать человека: Сб. под ред. В.А. Березиной. – Москва: Вентана-Граф, 2002.

ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР ДЕСТРУКЦИЯСИДА КОГНИТИВ ПСИХОТЕРАПИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Шарафутдинова Хадичахон Гулямутдиновна

Термиз давлат университети доценти, психология фанлари номзоди

Когнитив психотерапия замонавий когнитив-хулқ-атвор терапияси йўналишларидан бири бўлиб, у шахс хатти-ҳаракатлари даражасидаги ўзгаришлар билан ўз-ўзини тадқиқ қилиш ва ўз-ўзини когнитив тузилишидаги ўзгаришларни кучайтириш учун қисқа муддатли, симптомларга йўналтирилган стратегик моделдир. Когнитив-хулқ-атвор йўналиши шахснинг вазиятни қандай қабул қилишини ва ўйлашини ўрганиб, унга содир бўлаётган воқеаларга янада реалроқ қарашни ва кўпроқ унга мос хатти-ҳаракатни ривожлантиришга ҳамда миждозга унинг муаммоларини енгишга ёрдам беради.

Когнитив психотерапиянинг юзага келиши турли йўналишларда психологик фикрнинг ривожланиши билан тушунтирилади. Когнитив-хулқ-атвор йўналишининг шаклланиши узоқ тарихга эга, жумладан терапиянинг индивидуал усуллариининг ривожланиш тарихи хориж психологларидан Е.Торндайк, Ж.Уотсон, Б. Скиннер, А. Бандура, А. Эллиснинг когнитив моделлари, А.Бекк кабиларнинг тадқиқотлари, гештальт йўналишга эса

когнитив-хатти-ҳаракат интеграциялашуви тарихи индивидуал техникалар даражасидагина эмас, балки методология даражасида ривожланишини камраб олади.

Ҳозирги вақтда когнитив психотерапияси психотерапиянинг энг илмий асосланган, самарали ва технологик жиҳатдан тасдиқланган энг кўп тадқиқотларга эга йўналиши ҳисобланади ва етакчи ўринни эгаллайди. Мазкур ёндашув тарафдорлари инсон ўз хатти-ҳаракатини содир бўлаётган воқеалар ҳақидаги ғоялари асосида куради деб тахмин қилишади ва инсоннинг ўзини, одамларни ва ҳаётни қандай кўриши унинг фикрлаш тарзига, тафаккури эса инсонни қандай фикрлашга ўргатилганига боғлиқ бўлади деб ҳисоблайдилар. Бунинг мазмуни эса бирор киши салбий, деструктив ёки ҳатто нотўғри фикрлашдан фойдаланганда, у нотўғри ёки самарасиз ғояларга эга бўлади ва натижада нотўғри ёки самарасиз хатти-ҳаракатлар қилади, натижада эса турли муаммолар пайдо бўлади деган хулосани беради. Когнитив психотерапия йўналишида одам даволанмайди, балки яхшироқ фикрлашга ўргатилади, бу эса кишини ўзини яхшироқ ҳис қилиш ва яхшироқ ҳаёт кечириш имконини беради.

Инсон ёшлигиданоқ турли ҳиссий кечинмаларни бошдан кечиради, ёш ўсиши билан турли муаммолар, ташвишлар, ғам-андухлар билан ўзи хоҳламаган тарзда тўқнаш келади. Ҳаёт давомида бошдан кечириладиган ҳилма хил ҳиссиётлар турли вазиятларда муаммоларга муносабатимизнинг шаклланишига таъсир кўрсатади. Жумладан, кутилаётган вазиятларга нисбатан юзага келадиган салбий ҳиссиётлар: кўркув, ваҳима, ҳавотирланиш кишининг ҳаётий муносабати сифатида онгида, тасаввур ва тафаккурида, вазиятни идрок қилишида қатъий ўринни эгаллаб олиб, кўпинча унинг бутун ҳаракатларини бошқариши мумкин. Буларнинг барчаси кундалик турмушда учраб турадиган одатдаги нохуш, кутилмаган стрессли вазиятлар билан боғлиқ ҳолда юзага келади.

Когнитив психотерапияда когнитив хатоларни автоматик фикрлар билан боғлаб, ҳодисаларни идрок қилиш ва уни талқин этишдаги стереотипик бузилишлар сифатида қуйидагича таҳлил қилиш мумкин:

Жадвал 1.

1	“Максимализм”	нарсалар, одамлар ва ҳаракатларни икки қутбда баҳолаш, “яхши” ўз холича ҳамда “ёмон” мураса қилиш керак кабиларга йўл қўйиш
2	“Ҳаёлий”	ҳаддан ташқари умумлаштириш, етарли асосларсиз хулоса чиқариш
3	“Ҳожеалаштириш”	бошқа вариантларни ҳисобга олмаган ҳолда келажакни энг ёмон оқибатда башорат қилиш
4	“Адолатли”	қатъий талаб ва стандартларга таяниш, ундан ташқарига чиқишни хато сифатида қабул қилиш
5	“Ёрлиқлаш”	ўзи ва бошқаларни дастлаб глобал хусусиятлар

		билан кўрсатиш
6	“Башорат”	бошқа одамлар қандай фикрда эканлигини билишга ишонч
7	“Филтрлаш”	танлаб идрок қилиш ва фақат ҳозирги нуқтаи назарни тасдиқлайдиган нарсага эътибор бериш

Когнитив психотерапияда юқоридаги каби когнитив хатолар туфайли келиб чиқадиган эмоционал, когнитив ҳамда хулқ-атвор бузилишларини коррекциялаш асосий вазифа ҳисобланади. Бизнинг тадқиқот ишимизда оилавий муносабатлардаги бузилишларни коррекциялашда когнитив психотерапия элементларини қўллаш назарда тутилган. Бизнинг назаримизда оилавий муносабатлар деструкциясига шахснинг эмоционал, когнитив ва хулқ-атворидаги салбий хусусиятлар сабаб бўлади. Бундай салбий хусусиятлар эса ўз ўзидан келиб чиқмайди, балки унинг ички ва ташқи қўзғовчилари мавжуд бўлади. Улар эса айнан когнитив хатоларни юзага келтиради.

Когнитив психотерапияда юқоридаги каби когнитив хатолар туфайли келиб чиқадиган эмоционал, когнитив ҳамда хулқ-атвор бузилишларини коррекциялаш асосий вазифа ҳисобланади. Тадқиқот ишимизда оилавий муносабатлардаги бузилишларни коррекциялашда когнитив психотерапия элементларини қўллаш назарда тутилган. Бизнинг назаримизда оилавий муносабатлар деструкциясига шахснинг эмоционал, когнитив ва хулқ-атворидаги салбий хусусиятлар сабаб бўлади. Бундай салбий хусусиятлар эса ўз ўзидан келиб чиқмайди, балки унинг ички ва ташқи қўзғовчилари мавжуд бўлади. Улар эса айнан когнитив хатоларни юзага келтиради.

Когнитив психотерапиянинг замонавий йўналишлари сифатида қуйидагиларни эътироф этиш мумкин:

1 Когнитив хулқ-атвор терапияси - Когнитив психотерапия десенситизация усулларини, таъсир қилиш ва малака оширишни қўшиш билан шаклланган.

2 Рационал-эмотив-хулқ-атвор терапияси когнитив бихевиорал терапия (КБТ) билан бир хил, аммо Алберт Эллиснинг асарларига асосланган.

3 Схематик терапия - бу Гештальт ва транзакцион таҳлил усулларини ўз ичига олган КБТнинг ривожланган кўриниши. Дисфункционал белгиларни диагностика қилиш ва тузатишга урғу беради, уларни адаптив хусусиятлар билан алмаштиради.

4 Эҳтиёткорликка асосланган когнитив психотерапия - асосий эътибор фикрларни қийинлаштиришга эмас, балки медитация усуллари орқали уларнинг ҳис-туйғулари ва хатти-ҳаракатларига таъсирини камайтиришга қаратилган.

5 Мета-когнитив психотерапия - фикрлар мазмунига эмас, балки фикрлаш жараёнига ва ички ҳиссиётларга нисбатан реакцияни камайтиришга қаратилган.

6. Реаллик терапияси - масъулиятни ривожлантириш, ижтимоий мослашиш ва узоқ муддатли мақсадларни амалга оширишга қаратилган.

7. Когнитив тарафкашликни ўзгартириш терапияси - фикрлашда нотўғри ва селективликни тузатишга ёрдам берадиган дастурий таъминотдан фойдаланишга қаратилган.

8. Когнитив ушлаб туриш терапияси (когнитив ушлаш терапияси) - когнитив тренинглари орқали хотира, тафаккур қобилиятини яхшилаш, жумладан, барча руҳий хусусиятларни ўз ичига олган машқлар тизимидан фойдаланиш.

Мазкур саккизта когнитив психотерапиянинг замонавий йўналишларига биз томонимиздан алоҳида оилавий муносабатлар деструкциясини бартараф этишда қўлланишга мўлжалланган “Когнитив оилавий муносабат терапияси” ни киритишни жоиз деб топдик. “Когнитив оилавий муносабат терапияси” - шахсни оилавий ўзини анлашга йўналтириш, оилани қадрият деб билишга асосланади.

“Когнитив оилавий муносабат терапияси” йўналишини киритишга асос сифатида инсоннинг барча ҳаётини жараёнларини ва унинг юксалишини оиладан ташқарида тасаввур қилиб бўлмаслиги, оилавий муносабатларнинг шахс руҳий мувозанатини белгилаши, (кўчада, ишхонада ёки бошқа жойдаги муносабатлардан киши кучли руҳий таъсирланмаслиги мумкин аммо, оиладаги элементар салбий ҳолат ҳам уни ташвишга солади) инсон ўзининг бахтини кўпроқ оила бахти билан боғлаши кабиларни кўрсатиш мумкин.

Шунингдек, “Когнитив оилавий муносабат терапияси” йўналишини киритишдан кўзланган асосий мақсадимиз шундан иборатки, биринчидан у асосан оилавий муносабатлар деструкциясини фаол бартараф этишга қаратилади, иккинчидан, ушбу йўналишдаги олиб бориладиган ишлар соф психокоррекцион тадбирлар, психологик машқлантириш, эмоционал, мотивацион, когнитив, хулқ-атвордаги деструктивликни конструктивга ўзгартиришга хизмат қилишидан иборат.

Когнитив психологияда дисфункционал эътиқодларни рад этиш ва янада аниқроқ адаптив фикрлашни тарғиб қилиш учун ҳам когнитив, ҳам баъзи хулқ-атвор усуллари қўлланилади. Когнитив психологияда шахснинг муаммолари, деструктив хулқи асосан, нотўғри тахминлар, ноадекват установкалар ва қарашларга асосланган ҳақиқатнинг муайян бузилишларидан келиб чиқади деб тахмин қилади. Ушбу нотўғри тушунчалар шахснинг когнитив ривожланиши жараёнини нотўғри ўрганиш ва талқин қилиш натижасида пайдо бўлади. Когнитив психотерапияда психолог миждозга фикрлашдаги бузилишларни топишга ва ўз тажрибасини шакллантиришнинг муқобил, янада аниқроқ усуллари ўрганишга ёрдам беради.

Когнитив психологик тузатиш дастлаб симптомларни, шу жумладан муаммоли хулқ-атворни ва мантиқий бузилишларни бартараф этишга қаратилган, аммо унинг пировард мақсади миждознинг фикрлашидаги тизимли ёпишқоқликларни йўқ қилишдир. Хулқ-атвор тажрибаси - бузилган эътиқод ёки кўрқувни ҳақиқий ҳаётини вазиятда синаб кўриш бўлиб, когнитив психолог миждозга унинг эътиқоди мантиқсиз ёки нотўғри эканлигини ёки психологнинг эътиқодини қабул қилиши кераклигини айтмайди. Бунинг ўрнига психолог

функцияларнинг маъноси ва мижоз эътиқодининг оқибатлари тўғрисида маълумот олиш учун саволлар беради. Охир оқибат, мижоз ўзларининг эътиқодларини рад этиш, ўзгартириш ёки сақлаб қолиш тўғрисида қарор қабул қилади, уларнинг ҳиссий ёки хулқ-атворли оқибатларини олдиндан англаб етадиган бўлади.

Когнитив психология намоёнладаридан Д.Келли ўзининг шахсий конструкциялар назариясининг марказида асосий нарса келажакдаги воқеаларни башорат қилиш учун инсон дунёни тасвирлаши керак деган фикрни қўйди. Д.Келлининг фикрича, инсон воқеа-ҳодисалар ўртасидаги ўхшашлик ва фарқларни ўрнатишга имкон берадиган махсус индивидуал концептуал ғоялар асосида воқелик образини яратади. Бундай ғояларнинг энг оддий мисоллари: яхшилик - ёмонлик; кучли - кучсиз; ақлли - аҳмоқ. Мураккаб ўзаро муносабатларга киритилган ушбу ғоялар, дунё ҳақида фаразларни илгари суришга имкон берадиган тизимларни шакллантиради. Гипотезаларни тасдиқламаслик конструкцияни рад этишга ёки конструкциялар ўртасидаги муносабатларни қайта қуришга олиб келади. Шахсий қийинчиликлар, Келлининг сўзларига кўра, конструкцияларнинг етарли эмаслиги, уларни қайта қуришдаги қийинчиликлар билан боғлиқ. Ва шунга кўра, бунга тузатиш ҳаракатларини йўналтириш керак.

Агар инсон ўзини яхши англаган, ҳиссий-эмоционал ҳолатини назорат қила оладиган, мақсадларини тўғри қўйган ва унга етишиш учун астойдил ҳаракатда бўлса, унда ҳеч қачон салбий психологик ҳолат юзага келмайди. Ҳар қандай шароитда ҳам иродали, шижоатли кишилар олдинга қараб интиладилар. Салбий кайфиятидаги кишиларни кузатсак, улар ҳар қандай кичик муаммони ҳам катталаштириб юборишади, беҳудага асабийлашишади. Чунки, бу тоифадаги шахслар ўзига берилган ҳаёт имкониятидан тўғри фойдалана олмайдилар.

Ҳар қандай жамиятда психологик етук шахс ўз олдига эришиши муқаррар бўлган, бунга имкониятлари етарли бўлган мақсадларни қўяди, ўз ҳаёт йўлини ва унга эришиш воситалари ва усулларини тўғри белгилайди. Психологик етук шахс ўз ҳиссиёти, кечинмаларини етарлича яхши назорат қила билиши, яъни ички интизомининг юқори ривожланганлиги билан характерланади. Психологик етуклик бошқа одамларнинг хоҳиш, истаклари, кечинмаларини тушуниш билан маълум даражада боғлиқ бўлади.[2]

Психологик етуклик шахснинг бошқа одамларга нисбатан бўлган ижобий муносабатлари: ҳамдардлик, ҳамфикрлик, ғам-ташвишга шерик бўла олиш, ўзаро ёрдам қилиш тарзида намоён бўла оладиган маънавий сифатларнинг таркибий жиҳатларини ўзида бириктиради ва оилада юз берадиган деструктив муносабатларнинг авж олишини олдини олишга хизмат қилади. Психологик етукликнинг муҳим мезонларидан бири шахсда оилавий муаммоларни адолатли ҳал этишга хизмат қилувчи ўз мустақил фикри, қараш, позициясининг бўлиши, зарур бўлганда оила манфаатида ўз қарашларини ота-оналари ва жамият олдида ҳимоя қила олишидир.

Адабиётлар:

1. Нарзиқулова Д.Х. Оилада низоларнинг яратувчанлик ва бузғунчилик хусусиятларини бартараф этишнинг психологик жиҳатлари. Психология журнали . 2021 №1. Б 51-54
2. Румянцева Т.Г. Проблема неблагополучной семьи // Вопросы психологии. – 2002. – №5–6. – С.20–25
3. Шарафутдинова Х.Г. Никоҳ олди омиллари ва уларнинг оила мустақамлигига таъсири. // “Ёш авлодда маънавий-ахлоқий қадриятларни шакллантириш ва оиланинг тарбиявий ва маданий-илмий салоҳиятини ошириш масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция. Термиз. 2019. 25-май, Б.25-27.
4. Эйдемиллер, Э.Г., Юстицкис, В.В. Психология и психотерапия семьи. – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2001. – 656 с.

I-SHO‘BA. OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI.

OILAVIY MUNOSABATLAR BARQARORLIGI-HAYOT MAZMUNI KO‘RSATKICHI SIFATIDA

Abdullayeva Ranajon Matyoqubovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Umumiy psixologiya”
kafedrasi dotsenti, ps.f.n.*

Vatanimizning kelajagi, jamiyatimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘- e‘tibori avvalambor yoshlarimizning danday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Ma‘lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta‘lim olishi va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq bo‘ladi. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo‘lib, o‘z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko‘ra, bugungi kunda o‘zbek oilalarida o‘sib kelayotgan farzandlarimizni tarbiyaning barcha qirralari asosida tarbiyalash hamda oilaviy hayotga tayyorlash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kelajakni hech bir inson oilasiz tasavvur qila olmaydi. Har bir inson uchun oila - hayotning boshlanishi. Bugungi kun ziyolilari yoshlarni davlatimiz va jamiyatimizning yetakchi kuchi, deb hisoblaydi. Shu ma‘noda, ularga qilingan har qanday g‘amxo‘rlik, kelajakka tashlangan nazar, uni oldindan tasavvur etish yo‘lidagi intilishdir [3.B.38].

2014 yil Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilinishi eng avvalo, yoshlarimiz ongida yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirish, shu bilan birga ularni ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, xususan, yosh oilalarni ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning muhim vazifasi qilib belgilandi.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta‘minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma‘naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila va oila muammolari doimo davlatning diqqat-e‘tibori va himoyasida bo‘lib kelmoqda.

Oilaviy munosabatlarning barqarorligi yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligiga bog‘liq. Shunday qilib, nikohga tayyorlik shunday yetuklikning mezonlaridan biri bo‘lib, bir tomondan yoshlarning ijtimoiy ko‘rsatmalarining yaqqol ko‘rinadigan yig‘indisi va ikkinchi tomondan, psixologik hodisa (fenomen) hisoblanadi, unda fuqarolik nikohiga intilishning asosida yotadigan ehtiyoj va motivlarning mavjudligi yoki yo‘qligi aks etadi (masalan, sevimli inson haqida qayg‘urishga tayyorlik, ota-onalikka bo‘lgan ehtiyoj, ma‘naviy o‘zaro fikr almashish va boshqalar). Bu hozirgi jamiyatdagi nikohning o‘rni va uning to‘laqonli amalga oshirishni to‘g‘ri tushunishga qaratilgan ijtimoiy talabga to‘liq mos keladi. Umuman, yoshlarning oilaviy hayotga

tayyorlash, oila va nikoh to'g'risida adekvat tasavvurlarini shakllantirish dolzarb jiddiy umumdavlat miqyosidagi muammo hisoblanadi [4.B.910].

Yosh avlodni axloqiy tarbiyalashning eng muhim jihati hozirgi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni tashkil etishdir. Yoshlarda oila va nikohning ma'naviy-psixologik asoslari, oilaviy va oilaviy munosabatlarda xulq-atvorni tartibga solish haqidagi g'oyalari tizimini shakllantirish dolzarb ehtiyojdir.

Oila hayotiga keng ma'noda tayyorgarlik ko'rish bir qator vazifalarni hal etishni o'z ichiga oladi, ularning aksariyati shaxsni shakllantirish bo'yicha umumiy tarbiyaviy ishlar vazifalari bilan bevosita bog'liq. Shaxsning axloqiy shakllanish asoslari yoshlarni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash poydevorini yaratadi. Shuning uchun ham yosh avlodni oila va nikoh munosabatlariga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri bo'lajak oila a'zosi shaxsini shakllantirishdir. Asosiy e'tiborni axloqiy ongni shakllantirish, axloqiy fazilatlarni, odatlarni rivojlantirish, yoshlarning axloqiy ongi, xulq-atvori va his-tuyg'ulari birligini tarbiyalash, yoshlarning axloqiy saviyasini oshirishga qaratilmoqda. Tor ma'noda, demak, bo'lajak oila va nikoh rollarini samarali ijro etish uchun yoshlar oilaviy hayot sohasida muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim.

Oilaviy hayotga tayyorlashning muhim vazifasi yigit-qizlar o'rtasida oila va nikoh munosabatlari sohasida adekvat tasavvurni shakllantirishdan iborat. Bo'lajak oila va nikoh rollarini samarali bajarish uchun yoshlar mustahkam, baxtli oila va oila vazifalarini (reproduktiv, tarbiyaviy, iqtisodiy va h.k.) mas'uliyatli bajarishga qaratilgan ijobiy munosabatlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Umuman olganda, insonning oilaga bo'lgan ehtiyojini, uning zarurligi va muqaddasligiga ishonishini tasdiqlash zarur, shuningdek, insonning oila qadrini, uning jamiyatdagi o'rni va shaxs rivojlanishi uchun ahamiyatini anglash; oilaviy hayot idealini shakllantirish; farzand ko'rishga psixologik tayyorlik va ularni to'g'ri tarbiyalash istagini shakllantirishdan iboratdir.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda alohida vazifa nikohga bo'lgan motivatsiyani, turmush o'rtog'ini ongli tanlashga psixologik tayyorlikni shakllantirish va ularning shaxsiy jozibadorligini aniqlashtirishdan iborat. Shu bilan birga, bu sohada kerakli ma'lumotlarni o'zlashtirishni ta'minlash, sevgi, nikoh, oila, zamonaviy o'g'il-qizlarning qadriyat yo'nalishlari haqida mavjud g'oyalarni aniqlash muhimdir[3.B.36].

Yosh avlodni kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlashdan maqsad - nikoh va oilaviy munosabatlarni muvaffaqiyatli qurish va ularni uyg'unlashtirish, nikoh barqarorligini ta'minlash va mas'uliyatli nikoh va ota-onaga munosabatni rivojlantirishga qodir bo'lgan oilaviy insonning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdir. Bo'lajak oila a'zolarini yuqori sifatli tayyorlash jihatlaridan biri-bo'lajak oila hayotidan xabardorlik darajasidir. Bunday xabardorlik oila va nikoh haqidagi bilimlar majmuasi, oila va nikoh munosabatlari sohasidagi ko'nikmalar bilan belgilanadi va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1) **iqtisodiy tayyorlik** - jumladan, yosh erkaklar va ayollar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan kundalik hayotda zarur bo'lgan iqtisodiy bilim va iqtisodiy ko'nikmalar majmui;

2) **ijtimoiy mustaqillik** - yaratilgan oila uchun javobgarlik bo'lajak turmush o'rtoqlar haqida tushuncha berish, ularning iqtisodiy mustaqilligi, oilani moddiy jihatdan ta'minlashning real imkoniyatlari, turmush sharoitini yaratish va boshqalar;

3) **oila va nikoh munosabatlarining ijtimoiy va huquqiy bilimlari** - oilaning jamiyat birligi sifatida ijtimoiy ahamiyatini tushunishdan iborat ;

4) **oilaviy hayot uchun ma'naviy-psixologik tayyorlik**- munosib turmush o'rtoq tanlash, yangi quriladigan oila uchun javobgarlik hissi, oilada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni yaratish uchun tayyorligi, oilada murakkab nizolarni hal qilish qobiliyati, oila a'zolarining kamchiliklari uchun bag'rikenglik, barcha narsada adolat va boshqalar[2, B.453].

Nikoh va oilaviy hayotga tayyorlashning yakuniy natijasi oila va nikoh munosabatlariga tayyorlikni shakllantirishdir. Kelajakda mustaqil oilaviy hayotni tashkil etishga tayyorlik insonning avvalo oilaviy munosabatlarga tayyorligidir, chunki bu munosabatlarning nomukammalligi birinchi navbatda oilani beqarorlashtiradi. Agar yosh avlod erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy asoslari haqida yetarli nazariy ma'lumotlar bilan ta'minlangan bo'lsa, shuningdek, ular o'rtasidagi axloqiy munosabatlar tajribasi, axloqiy xatti-harakatlar amaliyoti va o'g'il - qizlar o'rtasida o'zaro aloqa shakllangan bo'lsa shaxsning nikohga tayyorligi insonning biologik, ijtimoiy va psixologik yetukligidan iborat.

Oilaviy hayotga tayyorgarlik aslida erta yoshda boshlanadi, oila va ota-ona xulq-atvori tasvirlarida bola rollar, erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar haqida birinchi g'oyalarni oladi. Hayotining ikkinchi yilida oilaviy va ota-ona ijtimoiylashuvi boshlanadi, oilaviy muloqotda bola erkaklik va ayollikning birinchi namunalarini qabul qiladi. Ikki-uch yoshda bola odatda o'z jinsini biladi, o'z "men" ini o'zi va qarama-qarshi jinsdagi odamlarning g'oyalari bilan bog'lay boshlaydi. Uch-besh yoshlarda bunday bolalar o'yinlarida bola ko'rgan o'zi yoki boshqa oilalarning hayotini nusxalash va taqlid qilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Har ikki jins bolalarining manfaatlarini hisobga oluvchi hikoya-rolli o'yinlarni tashkil etish bu yoshda bo'lajak oilaviy hayotga tayyorgarlik, jinsga mos ijtimoiy rollarni ijro etish shaklidir.

Kichik maktab yoshida bola oilaviy ahvolini tushunishga, umuman ota-onalarning xulq-atvori va ularning xulq-atvoriga baho berishga harakat qiladi bu yoshdagi bolalar otasi va onasiga nisbatan ko'proq yoki kamroq barqaror g'oyalar, fikrlar va pozitsiyalarni rivojlantirishi mumkin. Shu bilan birga, oiladagi har qanday keskin nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda, ayrim bolalar ota-onalardan biriga yoki har ikkisiga birdaniga nisbatan "boshqacha bo'lish" ga aniq ongli intilishni shakllantirishlari mumkin.

O'smirlik davrida oilaviy hayotga tayyorgarlikni tashkil etish ayniqsa o'tkir va dolzarb bo'ladi. O'smirlik davrining asosiy mazmuni bolalikdan kattalikka o'tishdir. Bu yoshdagi aqliy rivojlanish o'smirning ijtimoiy ahvoli va balog'atga yetishi tufayli o'ziga xos xususiyatlar va qiyinchiliklarga ega. Bu davrda o'g'il-qizlarda faqat balog'atga yetish tuyg'usi emas, balki muayyan jinsning yetarli darajada tabaqalashtirilgan voyaga yetishi "erkakning ichki holati" yoki "ayolning ichki holati", biroq balog'at yoshining o'zi o'smir shaxsining shakllanishini hech qanday

yo'l bilan belgilamaydi, u faqat uning jismoniy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda his-tuyg'ular, qo'shimchalar va ideallarning umumiy xarakteri asosan shakllangan shaxs xususiyatlari, do'stlik tajribasi, faolligi va tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti bilan belgilanadi. O'smirlik va o'spirinliklik davrida inson boshqa jins vakillari bilan muloqot qilishda nisbatan kuchli g'oyalar va ko'nikmalarni rivojlantiradi, ularning kelajakdagi turmush o'rtog'i, erkaklar yoki ayollar haqida, shuningdek, erkaklik hamda ayollik haqida ideal g'oyalar bilan qurollanishadi.

Talabalik davridagi yoshlar uchun ham kelgusida o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish va shu bilan birga bo'lg'usi turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlay olish motivlari ustunlik qiladi. O'z sohasining yetuk mutaxassisi va mustahkam oilaning a'zosi sifatida hayot kechirish shaxsga o'z "Men"idan qanoatlanib yashash imkonini beradi. Bunday shaxslar o'z maqsadlarini amalga oshirgani holatida, hayotlaridan mamnun yashaydilar va muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Demakki, har bir dunyoga kelgan farzandni ertangi kunda o'z hayotidan qanoatlanib yashashga o'rgatishimiz, bugungi kunda ota-ona, ustoz-murabbiy va jamoatchilikdagi har birimizning vazifamizga aylanishini davrning o'zi taqozo qilmoqda.

Talabalardagi hayot sifatini oshirish ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida biz ham o'z tadqiqotimizni olib bordik. Hayot sifati - bu ijodiy faoliyatni, inson va jamiyat rivojlanishi uchun ehtiyojlar va shart-sharoitlarning tuzilishini, odamlarning hayotdan, ijtimoiy munosabatlardan va atrof-muhitdan qoniqishini tavsiflovchi hayotiy qadriyatlar tizimidir. Bizning tadqiqotimiz respondentlar guruhlaridagi "Oila-Ish-Ta'lim", "Oila-Ta'lim", "Oila-Ish" ko'rsatkichlarini Hayot sifatini indeksi (HSI) va hayot strategiyasi orasidagi bog'liq jihatlarni aniqlab o'rganishdan iborat edi. Tadqiqotimizda Toshkent, Xorazm va Chet elda tehsil olayotgan jami 300 ta respondent ishtirok etdi. Ularga ishtirok etgan respondentlar ichidan 100 tadan saralab olindi. 1-guruhni bakalavr talabalar. 2-guruhni ishlab o'qiydiganlar talabalar tashkil etdi. 3-guruhni ishlaydiganlar tashkil etdi. Har bir guruhda "oilali" va "buydoqlar" borligi aniqlandi[1, B.44].

Natijalar asosida umumiy xulosa shuki, oilada tug'ilgan har bir farzandga o'zining layoqati va qobiliyatiga mos va xos bo'lgan kasbga to'g'ri yo'naltirish, kelajakda o'z sevgan sohasida mehnat qilishiga imkoniyat yaratish, strategik rejalarni to'g'ri amalga oshirish usullarini o'rgatish, ta'lim muassasalarida qobiliyatning rivojlanishi va amaliyotga tatbiqini to'g'ri tashkil etish, hayotning har bir bosqichida salomatlikni saqlash muhimligini his qilishga o'rgatish hamda kelgusida o'zining xoxishi va tanlovi asosida mustaqil oila qurishini ta'minlashga yo'naltirish lozim. Mazkur ko'rsatkichlar, ya'ni qiziqqan sohasi bo'yicha ta'lim olish, sog'ligini mustahkamlash va oilaning mustahkamligi mujassamligi asosida har bir shaxsda hayotining sifatli kechishi ta'minlanadi. Bu esa shaxsning o'zidan qanoatlanib yashashi, sermahsul faoliyatni amalga oshirishi, salomatligining me'yorida bo'lishi hamda hayotining sifatli kechishiga olib keladi. Natijada respublikamizda shu yo'nalish ishlarida tezroq rivojlanish amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva R.M. Hayot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/8/1] ISSN 2181-7324. FALSAFA HTTP://JOURNALS.NUU.UZ SOCIAL SCIENCES. B-44-46.
2. Abdullaeva R.M., Bagoyeva Z.R., Djo'rayeva M.T., Sattarova D.E. Social-Psychological Factors of Improving the Quality of Life. EXCELLENCIA: INTERNATIONAL MULTI-DISCIPLINARY JOURNAL OF EDUCATION. <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje>. Volume 02, Issue 06, 2024 ISSN (E), 2994-9521. 452-459.
3. Abdullaeva R.M., Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash - hayot sifatini oshirish mezon. Jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yillarida zamonaviy shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. T.2023. 36-38 b.
4. Abdullaeva R.M. Hayot sifatini oshirishda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurati. Ta'lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: nazariya va amaliyot. Respublika II- ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2023 yil 12-13 may. Termiz. 908-912 b.

OILADA MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Achilov Nuriddin Abdugafforovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Termiz davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani

Har bir oila nikoh ustiga quriladi. Nikoh muqaddas tushuncha hisoblanadi. "Nikoh" so'zi lug'atda uylanish, erga tegish; er-xotinlik ma'nolarini bildiradi [1;38]. Oila haqidagi tushunchalar qadimgi yozma manbalarda ham qayd qilinadi. Eng qadimgi yozma manba hisoblangan "Avesto"da ijtimoiy-siyosiy boshqaruv jarayonida: "dmana" – uy-oila jamoasi, "dmanopati" – katta oila boshlig'i, "vis" – urug' jamoasi, "vispati" – urug' jamoasining qishloq oqsoqoli, "zantu" – qabila, "zantupati" – qabila boshlig'i, – deb qayd etilgan. Bu ma'lumotdan anglaniladiki, eng qadimgi ajdodlarimiz azaldan oila, farzand tarbiyasi, oilada boshqaruv masalalariga e'tibor qaratgan. Bundan tashqari Qur'oni Karim va Hadisu sharifda nikohni targ'ib etuvchi juda ko'plab hadislar ham mavjud. Xususan, Payga'ambarimiz Rasululloh s.a.v. aytadilar: **"oila quringlar, chunki men sizlarning ko'pligingiz bilan ummatlarga maqtanaman. Nasoro rohiblariga o'xshamanglar"** [2;3].

Har birimiz oilalarimizning mustahkamligi va tinchligi uchun qayg'urishimiz burchimiz ekanligini anglab yetishimiz va bu borada qo'limizdan kelgan barcha chora-tadbirlarni ko'rishimiz asosiy vazifamizdir. Chunki farzandlarimizning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasvvurlari birinchi o'rinda oila bag'rida shakllanadi. Insonning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas qadriyatlarimizning dastlabki poydevori oila

sharoitida shakllanadi. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda oila institutini amalda mustahkamlash borasida juda ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Avvalo, oila va nikoh munosabatlari masalalarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yaratildi. 1998-yilda qabul qilingan "Oila kodeksi"da ushbu munosabatlarning barcha jabhalari o'z aksini topgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bevosita oila, nikoh, ota-onalar, farzandlar va ularning burchlari o'z ifodasini topgan. Jumladan, "oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir, nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi, Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi"(76-modda) [3;3].

O'zbek oilasi serfandzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning o'ziga xos etnografik xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ko'p bolalik, ko'p tabaqalilik (bir necha avlod vakillarining birga yashashlari), avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikning boshqa mamlakatlardagina nisbatan kuchliligi va shu kabi qator xususiyatlari uning psixologik ahamiyatini yanada orttirib yuboradi. Oila erkak va ayolning nikohdan o'tib, bir yostiqa bosh qo'ygan kundan boshlanadi. Uning eng muhim vazifasi naslni davom ettirish hamda ota-bobolarning eng yaxshi an'ana va udumlarini davom ettirish, turmushni mustahkamlashdan iborat. Oilaning muhim ijtimoiy vazifalari quyidagilardan tashkil topadi: jamiyatning demokratik hujayrasini tashkil etib, odamlar shu muqaddas maskanda tug'ilib, o'sib, jamiyat tarkibini tashkil etadi; oila muhim bo'g'in bo'lib, unda biz mehnat jarayonida sarf qilgan kuchlarimizni tiklash imkoniyatiga ega bo'lamiz; oila muhim tarbiya o'chog'i; oila nodir ruhiy muhit [4;88].

Oila jamiyat ichidagi kichik bir vatandir. Agarda shu kichik vatan mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam va farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda nosog'lom muhit ya'ni, parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, natijada chuqur tanazzulga yuz tutadi. Shu sababli oilada sog'lom muhitni yaratish, uning mustahkamligini saqlab qolish va mavjud muammolarni oldini olish maqsadida quyidagi tavsiyalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Birinchiidan, oilada yuksak, sog'lom ma'naviy muhitni tashkil etish. Bunda oila a'zolarining, ayniqsa, er va xotinning o'zaro munosabatlari, muammo paydo bo'lsa murosa-madoraga borishi, g'azabi kelganda uni yengishi va shirin so'zli bo'lishi, shu bilan bir qatorda, oiladagi sirlarni ko'chaga olib chiqmasligi kabi bir qancha omillar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchiidan, oilada farzandlarning baxtli bo'lishlariga erishish. Bunda er-xotinning har ikkisi ham oiladagi o'z burchlarini astoydil ado etishga intilishlari muhim hisoblanadi. Oilada er o'z o'rnini yo'qotgan, xotin esa, erning mavqesiga da'vogarlik qilgan oilalarda nafaqat notinchlik bo'ladi balki, el-yurt, mahalla ko'y orasida ham bunday oilaning hurmati bo'lmaydi.

Uchunchidan, qurilgan oilani bus-butun saqlab qolish. Bunda er-xotinning oilani asrab-avaylashi: sabrlilik, qanoatlilik, masuliyatlilik kabi fazilatlar asosida avaylab

asrashi muhimdir. Ushbu ma'naviy-axloqiy fazilatlarni farzandlarda ham shakllantirish oilaning farovonligini ta'minlaydi.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, milliy tarbiya mezonlariga tayanmoq lozim. Milliy tarbiyada axloqiy munosabatlar ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovdan o'tgan hayot saboqlari va o'git ko'rsatmalari asosida shakllantirilgan. Shu sababli milliy axloqiy qadriyatlarimiz sayqallanib asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o'tib kelmoqda. Har qanday axloqiy fazilat u yoki bu ko'rinishda insonda xatti-harakat tartibga solinishining ifodasi hisoblanib, kishilarga bo'lgan hurmat e'tibor, mehr-muhabbatni bildirar ekan, u umubashariy mazmuni beradi. Shuning uchun, har bir ota-ona farzand tarbiyasida, uni kelajakda barkamol inson bo'lishida umuminsoniy ma'no va mazmuni ko'rmog'i lozim. Chunki, bolaning axloqiy fazilatlari umuminsoniy xarakter kasb etadi. Milliy axloq milliy tarbiya natijasida tarkib topadi. Mir Alisher Navoiy insoniy munosabatlarni ikki guruhga ijobiy va va salbiy sifatlarga ajratadi. Ijobiy sifatlarga: tavba, muruvvat, vafo, hayo, iymon, hilm (muloyim tabiatlilik), do'stlik, sabrlilik, tavoze', odob saqlash, xoksorlik, qanoat va boshqalar. Salbiy sifatlarga: xasislik, nokaslik, yengiltaklik, razillik, ta'magirlik, takabburlik, xudbinlik, himmatsizlik, maqtanchoqlik, isrofgarchilik, chaqimchilik, ikkiyuzlamachilik, hasad, ichkilikbozlik, bangilik, g'iybatchilik, bachkanalik va boshqalar [5;51]. Bunday ijobiy sifatlar milliy tarbiya asosini tashkil qiladi. Ayniqsa, oila tarbiyasida farzandga beriladigan eng yaxshi tarbiya go'zal odob hisoblanadi. Odobni ulug' alloma al-Hakim at-Termiziy "amallar gilami" deb ta'rif beradi [6;14].

Darhaqiqat, har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga milliy tarbiyani singdirish kerakki, ular oldilariga qo'ygan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, oilaviy an'analar, urf va odatlar orqali bolalarimiz ongiga milliy tarbiyani singdirishni ta'minlovchi ijtimoiy pedagogik-psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniq bilish muhim vazifadir. Milliy tarbiya tushunchasi ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Makur tushunchaga quyidagicha ta'rif beriladi: "milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat hisoblanib, umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli hamda o'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologik yo'nalishlarda tarbiylashning bosh tamoyili" [5;6].

Biz yuqorida ta'kidlagan tavsiyalar oiladagi sog'lom muhit kishini halol va pokiza bo'lishiga, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga dav'at etadi. Chunki har bir insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, muomala madaniyatini, uning oilasi, oiladan olgan tarbiyasi, u yashagan muhiti belgilaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, oila ijtimoiy institut sifatida vazifalarini bajargan taqdirdagina, milliy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir oilaning asosiy bosh vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy-axloqiy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya'ni, ma'naviy-axloqiy, barkamol, intellektual jismoniy

jihtadan sog'lom, yetuk inson faqatgina sog'lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odat va qadriyatlarimizni asrab-avaylaydigan, kelajak avlodlar qanday inson bo'lib shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, jamiyat hayoti uchun har tomonlama yetuk, barkamol mutaxassislarni tayyorlab, yuksak zakovatli, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatli shaxslarni shakllantiruvchi tarbiya maskanidir.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. -T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2004.
2. <https://imon.uz/news.php?slug=nikoh-haqida-qirq-hadis>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
4. Oila pedagogikasi. T., "Aloqachi", Jamoa. 2007, 384 bet.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. –T.:Ma'naviyat,2007. -240 b.
6. Achilov N.A. Al-Hakim at-Termiziy asarlari vositasida talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi. Ped.fan.bo'y.fal.dok. ... avtor. – Termiz, 2020. - 50 b.

IJTIMOY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKDA SHAXS VA JAMOANING O'ZARO ALOQADORLIK MUNOSABATI

*Abdunazarova Zaynab Almurod qizi
TerDPI o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shaxs rivojlanishi bilan kommunikativ kompetensiya takomillashish jarayoni bog'liqligi yuzaga kelishi, o'quvchilar ijtimoiylashuvining nazariy asoslari va jamoaviy munosabatlarda ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini shakllantirish, Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan yosh avlodni tarbiyalash muammosiga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylik, kommunikativlik, kompetentlik, jamoa, ijobiy, fazilat, jamiyat, salbiy munosabat, ta'lim, kompetentlik, tarbiya, xulq-atvor, faoliyat, odob-axloq.

Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik shaxsning ma'lum bir jamiyat, jamoa yoki ijtimoiy institutlar madaniy hayoti, qadriyatlari, munosabatlari, me'yorlari va an'analarini qabul qilish hamda moslashish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik mazmuniga shaxsning ma'lum bir jamoadagi mavjud madaniy me'yorlari asosida o'z xulq-atvoriga o'zgarish kiritishi yoki jamoa madaniy tizimlar transformatsiyasi bilan bir qatorda yangi madaniy va ijtimoiy munosabatlar tizimining yaratilishi, jamiyat hayotida yangi madaniy, ma'naviy, iqtisodiy o'zgarishlar yuzaga kelishi kabi jarayonlar ham kiradi. Bu jarayonda asosiy vazifani

refleksiv jarayon natijasida o'zi va sosiumni o'zgartirish ehtiyojini anglagan individ bajaradi. Ijtimoiy-kommunikativ kompetentligi shaxs va jamoaning o'zaro aloqadorligi va o'zaro bir-birini taqozo etishi bilan tavsiflanadi. Shaxsning ijtimoiy-kommunikativ kompetentligidagi ishtiroki passiv yoki faolligi bilan farqlanadi. Ya'ni passiv ishtirokchi jamoadagi madaniy muhitga nisbatan ko'nikma hosil qiladi va madaniy me'yorlarni qabul qiladi. Faol ishtirokchi esa jamiyatdagi ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik me'yorlarni o'zgartirishga va o'zi yoki ma'lum bir guruh me'yorlari, tartiblarini jamoa hayotiga singdirishga harakat qiladi. faol ishtirokchi faoliyati jamoada yangi va barqaror ijtimoiy munosabatlarning yaratilishida boshlang'ich asos tayyorlashga xizmat qiladi.

Kompetentsiya – bu o'quv jarayonining rejalashtirilgan maqsadi, usullari, texnologiyasi va bilim oluvchining malakasi asosida shakllanadi. “Kompetentsiya” lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman degan ma'nolarni bildiradi.1 Kompetentsiya – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni birlikda samarali tashkil eta olishga tayyorgarligi, subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir. “Kompetentsiya tushunchasi tarkibiy qismlar sifatida bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar (tashabbuskorlik, maqsadga muvofiqlik, maqsad qo'yish qobiliyati, mas'uliyat, bag'rikenglik va boshqalar), ijtimoiy moslashuv (jamoada va undan tashqarida ishlash qobiliyati), tanqidiy fikrlash”, shuningdek, tanlangan sohada professional faoliyat tajribasi kabilar belgilandi. Pedagog olimlar R.Safarova va R.Jo'rayevlar tomonidan “kompetentsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif taklif etilgan (lot. compete-erishyapman, munosibman, loyiqman): 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish o'rgani) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav va boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror bir sohadan habardorligi, shu sohani bilish darajasi. N.M.Muslimovning ta'kidlashicha inglizcha “competence” tushunchasining lug'aviy ma'nosi “qobiliyat” demakdir, biroq “kompetentsiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi”. Professor B.X.Xodjayev “kompetentsiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar mazmuni kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqligini ta'kidlab, ushbu tushunchani umumiy o'rta ta'lim bilan bog'lagan holda “kompetentsiya – ma'lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo'lgan, o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib ketishidir”, deb ta'rif beradi.

Umumiy o'rta ta'limda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, bu asosan o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va pedagogik muhitga bevosita bog'liqdir. O'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, jamoaning shaxsiy va guruhiy xususiyatlariga asoslangan metodologiyasini yaratishga imkon beradi. Shu bilan o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning aniq usullarini tanlash samarali bo'ladi. Bugungi kunda til o'rgatishda, ta'lim berishda bolaning rivojlanishiga, o'zini-o'zi rivojlantirishida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ta'limning bunday paradigmasiga o'tish bilan

o'qituvchiga sifat jihatdan yangi talablar qo'yiladi. Xo'sh, yangi maktab til o'rgatishining shakllanib, rivojlanishida bizga Qanday o'qituvchi mutaxassislar kerak? Pedagogik ta'lim oldida bolaning ichki dunyosini tushunadigan, muloqotga kirisha oladigan munosabatlarni yaratishga intiladigan, bolalar bilan yetarli darajada pedagogik muloqotga tayyor bo'lgan mutaxassislar kerak. O'quvchining qobiliyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarish, maktab jarayonida uning hissiy erkinligini ta'minlash uchun professional insonparvarlik holatini o'qituvchining mafkuraviy qarashlarda o'z aksini topishi zarur. Shu nuqtai nazardan, ta'lim-tarbiyada o'zaro munosabatlarga davlatimiz tomonidan ko'proq e'tibor qaratilmoqda. O'zaro bir-birini tushunish pedagogikada eng samarali usul hisoblanib, unda munosabatlarning eng to'liq intilishiga erishiladi, ishtirokchilar muloqotning asosiy shakli bo'lgan muloqot orqali o'z pozitsiyalarini kelishib oladilar. Muloqot holatida talabalarga nisbatan insonparvarlikni egallashda va o'zlarining kasbiy vazifalarini to'g'ri yaratilgan, muloqot orqali amalga oshirishda qodir bo'lgan o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj kelajakdagi kommunikativ kompetensiya o'qituvchilarini maqsadli rivojlantirish muammosini qo'yadi.

Kommunikativ kompetensiya muammosi zamonaviy pedagogika fani va o'quv amaliyoti uchun ahamiyatli ekanligini ko'satadi. Muammoning nazariy jihatdan ishlab chiqilishiga qaramasdan maktabning pedagogik jarayonida "o'qituvchi-o'quvchi" munosabatlari tubdan o'zgarishlarga duchor bo'ladi deb aytish mumkin emas. Keng ko'lamda olib borilayotgan qator taqiqotlar bu muammoning zamonaviy pedagogika fani va o'quv amaliyoti uchun ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'qituvchi o'z o'quvchilari uchun axloqiy xulq-atvor va yuksak darajadagi muloqot madaniyatiga ega bo'lgan madaniyatli pedagog bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Bu muammoning holati o'rganilayotgan paytda bir qator bir-biriga zid bo'lgan holatlarga duch kelamiz va ular quyidagilar: 1) bolalar bilan o'zaro munosabatga kirishishda amalga oshiriladigan an'anaviy yondashuv; 2) zamonaviy maktabning amaliy muloqotga kirisha oladigan o'qituvchilarga ehtiyoji; 3) o'quvchilarning o'qituvchilar bilan samarali ishlar olib borish istagini yaratish qobiliyati. Bir-biriga zid bo'lgan bunday holatda bizga kommunikativ kompetensiya nima sababdan yoki nega kerak bo'ladi? Kommunikativlikni shaxsning ijtimoiy amaliyotidan butun katta amaliyotda qo'llashni, ikkinchi ta'rif esa kommunikativlikni tushunishni asos ko'rsatmasdan torayishga olib kelyapti. Insoniyat madaniyatining bir qismi bu kommunikativ munosabatdir. Kommunikativ kompetensiya ijtimoiy hayotda yechilishi kerak bo'lgan muammolarni talabalar adabiy asarlarni o'qib, teatrga borib yoki kino tomosha qilib ham kommunikativ tajribani egallab bo'ladi. Kommunikativ kompetensiya insonning o'ziga, tabiiy va ijtimoiy olamda sodir bo'layotgan voqealarga bo'lgan munosabatlarining tizimini tartibga solib beradi. Kommunikativ kompetensiyaning vazifalari nimalardan iborat? Vazifalaridan biri shuki, holatlarni yetarli darajada tahlil qilib, talqin qilishni ta'minlab berish kerak bo'lgan bilim resurslariga ega bo'lishdir. Kommunikativ kompetensiyalarni o'rganishning yana bir usullaridan bu – texnik vositalardan foydalanib, tashkil etilgan o'yinlarni kuzatish yoki bu o'yinlarni dars davomida foydalanib ko'rish, olingan ma'lumotlarni guruh ichida tahlil qilish kerak. Umuman olganda aytish mumkinki, kommunikativ

kompetensiya boshqa kishilar bilan kerakli aloqalarni o'rnatish va umumli foydalanib, shu holatda saqlab qolish tushunilib, kompetensiya samarali muloqotni ta'minlab beradigan bilim, ko'nikma, malakalar jamlanmasi hisoblanadi. Bu turdagi kompetensiyada aloqada bo'lgan sheriklarni tushunish va to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sirlashish orqali javob berishning ongli tajribasidir. Shaxs rivojlanishi bilan kommunikativ kompetensiya takomillashish jarayoni bog'liqligi yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaxobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida. /Zamonaviy ta'lim/ Современное образование. 2016 yil 10- son, 3-b.
2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. — Toshkent, 2015. — 94 bet. 3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности — новая парадигма результата образования // Высшее Образование сегодня. — 2003. - № 5.
- 4.Общая и профессиональная педагогика / Под ред. В.Д. Симоненко. - М., 2005. С.24

OILADA SOG'LOM BOLA TARBIYALASHDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR

Turayeva Gulnoza Ergashevna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TerDU Boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

Maxamadinova Ulug'oy Abduqodirovna

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila muhitida axloqiy tarbiyaning ahamiyati va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Oila – bolalarning dastlabki tarbiya muhitidir va farzandlarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oila a'zolarining o'zaro hurmati, mehr-muhabbatli munosabatlari hamda ota-onalarning shaxsiy namunalari orqali axloqiy qadriyatlar farzandlarga o'rgatiladi. Maqolada oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlik va ular orqali bolalarga vatanparvarlik, insoniylik va halollik kabi sifatlarini shakllantirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Axloqiy tarbiya, oila muhiti, farzand tarbiyasi, ota-onalar va bola munosabati, axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, insoniylik, oila va jamiyat.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Oila a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlar va tarbiya jarayonlari insonning shaxsiyati shakllanishida muhim o'rin tutadi. Oila muhitida farzandlarga axloqiy qoidalarni o'rgatish, ularni jamiyatga foydali va axloqli inson sifatida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Oila but bo'lishi uchun birinchi navbatda oila a'zolari, shaxslararo tenglikni qaror toptirish kerak, bir - birlarini chuqurroq o'rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko'z yumishlari zarur. Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish ayni muddaodir. Ichkilikbozlikka, o'g'irlikka, bekorchilikka, haromtamoqlikka qarshi o't ochish, tarbtibli kurash olib borish shart. Yoshlarni qiyinchilikni yengishga, o'zgacha shart-

sharoitga ko'nikishga bolalikdan o'rgatib borish lozim. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni hal qilish uchun oila va maktab hamkorligini chuqurlashtirish, ota-onalarning bolalar tarbiyasi uchun ma'suliyatini oshirish, keksalar ta'minoti va osoyishtaligini qaror toptirish maqsadga muvofiqdir. Xoh yoshlar, xoh ota-onalar hech mahal oila qurishga, qiz uzatish yoki o'g'il uylantarishga yuzaki, yengil-yelpi qaramasliklari lozim. Bu narsalarning barchasi oilaning tuzilishi hamda uning shaxslararo munosabat ko'lamlari, ayrim ibratli tomonlari insoniy mezon bilan o'lchanganligini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda jamoatchilikni quyidagi dolzarb muammolar tashvishga solmoqda. Oilada o'g'il-qizlar kimlar tomonidan tarbiyalanmoqda va ular qanday ruhda, maromda tarbiya olmoqdalar? Oilaning tarbiya ishi rejali va tartibli olib boriladimi? O'quvchilar ko'z o'ngida ota-ona, katta yoshdagi qarindosh-urug'lar, tug'ishganlar qanday darajadagi obro'ga egalar? Oila tarbiyasida ota-ona o'rtasida birlik, umumiylik mavjudmi? Maktabda qo'llanilayotgan axloqiy tarbiya vositalari va shakllari qanday tadbiiq etilmoqda?

Oilada rag'batlantirish va jazolash metodlaridan qay yo'sinda foydalanilmoqda. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarda oila a'zolarining asab sistemasi (uning kuchi, muvozanati, ildamligi, beqarorligi), temperamenti (uning xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik toifalari), g'oyaviy maslagi (uning qiziqishi, his-tuyg'usi, ideali, e'tiqodi, dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi), axloqiy xislati, diqqati (uning kuchi, tarqoqligi, parishonxotirligi, tiyrakligi), xotirasi, irodasi (mustaqilliga, qat'iyliga, dadilliga, mard-qo'rmasligi), nutqi (mazmuni, mantiqli, ohangi, sur'ati, dag'al va yumshoqligi), emotsional ichki kechinmalari (kayfiyati, ehtirosi, zo'riqishi, jo'shqinligi, qo'rsligi, achchiqlanishi, hursandliga) kabi ruhiyat va ma'naviyat jihatlari hisobga olgan holda joriy qilish muammolari ham kishilarni juda qiziqtiradi.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tuzilishini taxminan ushbu tarzda tushuntirib bersa bo'ladi: buva va buvi hamda oilaning qolgan barcha a'zolari aloqasi; ota-onaning o'zaro munosabatlari; ota-ona va farzandlar orasidagi muloqot; farzandlarning o'zaro munosabatlari tartibi; kelinning barcha oila a'zolari bilan munosabatlari; kelinlarning (ovsinlar) o'zaro muloqot qilishlari kabilar. Teng huquqli oila a'zolari o'zaro inoq va ittifoq bo'lib turmush kechirishlari uchun keksalar ruhiyati er-xotinlar ruhiyati va ma'naviyatidan, turli yoshdagi o'g'il-qizlarning ruhiy xususiyatlaridan (chaqaloqlik, go'daklik, bolalik, kichik maktab o'quvchisi, o'smirlilik, o'spirinlik) muayyan ko'lamda bilimga ega bo'lishlari shart.

Vatanimiz psixologlari va sotsiologlarining tekshirishlariga qaraganda, oilaviy tarbiya kamchiliklari turli-tuman ekanligi dalillab ko'rsatilgan, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar hamda ildizlar ochib berilgan: bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e'tiborning etishmasligi; farzandlar bilan muloqotga kirishish istagining mavjud emasligi yoki xohishning yo'qligi; ota-onalar bilan farzandlar o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi va unga ikki tomonlama intilishning etishmasligi; ota-onalarning o'g'il va qizlarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari; ko'r-ko'rona otalik va onalik mehr-muhabbatining hukm surishligi va uning barqaror ahamiyat kasb etmasligi; oila davrasida, muhitida doimiy janjallarning qaror

topganligi va ularni kamaytirish uchun intilishning yo'qligi, ota-onalarning beqaror his-tuyg'ulari, kayfiyatlari, ularning tartib-siz, tasodifiy xarakterga ega bo'lishligi; ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarining o'zaro mos tushmasligi va tubdan bir-biriga qarama-qarshiligi; katta-kichik yoshdagi farzandlar davrasida ota-onalarning salbiy xulq-atvorlari hamda ularning ichkilikbozliklari, chekishlari, giyohvandligi, intim qiliqlari; ota va ona o'rtasidagi o'zaro tushunmovchiliklarning surunkasiga davom etib turishi; oila muhitida adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik, o'g'rilik, tovlamachilik, poraxo'rlik illatlarining namoyon bo'lishi; oila turmushining to'ralarcha qonun-qoidasi shaxsiy manfaatdorlikka ruju qo'yilganligi; ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy darajalarining past ekanligi; oilada yaxshi an'analar, rasm-rusmlar, urf-odatlarining yo'qligi va ma'lum qolipdagi salbiy xatti-harakatlarga rioya qilinishi, ijtimoiy muhitdan tubdan ajralib qolishligi, loqaydlik kabi qator kamchiliklar va illatlar o'g'il-qizlarni oqilona tarbiyalashga halal beradi, ko'zlangan maqsad sari intilishga g'ov bo'ladi.

Oilada axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirish «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odobini ham yaxshilangizlar»-deyladi Muhammad payg'ambar hadislaridan birida. Farzand-hayotning guli. Darhaqiqat, odobli farzand bilan hayotimiz fayzlidir. Biroq farzandlarimiz xatti-harakatida ham goho nuqsonlar ko'zga tashlanadi, ularni o'z vaqtida oldini olib, bartaraf etmaslik gunoh ishlarga olib boradi. Shuning uchun oilada farzandlarimizga hadis namunalarini uqtirib borishimiz kerak. Pedagogika fani atamasida «tarbiyasi qiyin» degan tushuncha mavjud. Bu tushuncha odatda sho'x va qaysar o'quvchilarga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, tarbiyasi og'ir bolalar qatoriga o'zboshimcha, hatto bezori va zararkunanda darajasiga tushib qolgan o'smirlar ham kiradi; ularni tarbiyalash, hayotda haqiqiy to'g'ri yo'lga solib yuborish oson ish emas, albatta. Biroq astoydil, e'tiqod va fidoyilik ko'rsatib, ijtimoiy fanlar qonuniyatlariga suyanib, bu og'ir va mashaqqatli ishda muvaffaqiyatga erishadigan tarbiyachi, murabbiylar ham yo'q emas. Chunki atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy aytganidek, yomon bola yo'q, faqat yomon tarbiyachi bor, xolos. Bola ruhiyati va madaniyatidagi nuqsonlarni o'z vaqtida payqab, ularni bartaraf etish tadbirlarini izlash va mohirona ish yuritib, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish orqali, shubhasiz, samarali natijalarga erishish mumkin. Buning uchun ruhiyat va pedagogika fanlariga asoslangan holda ish yuritish ko'zlangan maqsad sari etaklaydi. Bo'lmasa «Quruq yog'och egilmaydi, qurigan kirshi (novda) bog'lanmaydi, tugulmaydi». Bu maqol biron narsani ishlatishda haddan oshirib yuborilgandan keyin, u narsa avvalgi holiga qaytmaydi. (M. Koshg'ariy, I tom, 1960. Toshkent, Fan, 206-bet) degan ma'noni anglatadi. Tarbiya ishining zargarning mehnatidek nozik ish ekanligini unutmagan holda, bolani eng kichik yosh davridan boshlab xulq-odob, yurish-turish malakalariga o'rgatib borish, buning uchun, avvalo, mashq qildirish, suhbat, tushuntirish, ishontirish, ibrat-namuna kabi ilmiy-amaliy metodlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Inson mashq qilish, ayrim odatlarni egallash orqali har qanday mo'jizalar yarata oladigan darajadagi qudratli kuchga ega. Dorboz-u polvonlarning mahorati-yu, kosmonavt-uchuvchilarning jasorati tinimsiz mashq natijasi ekanligini to'g'ri tushuntira olmasak; kelajakda «Sab'ai sayyor»dagi Bahromdek o'z mahoratlariga

qandaydir rag'batlantirishni talab qilishlarining guvohi bo'lamiz. Inson o'z oldiga qo'ygan maqsadiga yetish uchun tinimsiz mehnat qilar ekan, buning uchun avvalo, unda mustahkam iroda bo'lishi lozim. Demak, biz tarbiyaviy ishimizning asosiy yo'nalishini bolalarda mashq qilish sifatlarini shakllantirishga qaratishimiz zarur. Bunda kun tartibi katta rol o'ynab, uning asosida o'z faoliyatini tashkil etgan bola vaqtdan unumli foydalana oladi, hayoti davomida qunt bilan ishlash, mehnat qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Unda intilish bilan shaxsiy imkoniyatiga baho berish o'rtasida uyg'unlik vujudga keladi. Vaqt-vaqti bilan axloqiy mavzularda suhbat o'tkazib, bolaning ongiga ta'sir etish ham ahamiyatlidir. Bunday suhbatni badiiy asar qahramonlari, Vatanimizning ajoyib kishilari hayoti va faoliyati to'g'risida, tabiat olami haqida qiziqarli qilib o'tkazish mumkin. Bunda o'g'il va qizlarning yosh xususiyatlari, bilim saviyalari, aqliy imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari e'tiborga olingan holda tarbiyaviy tadbirni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu xususda bolalarning din ahllari bilan muloqotda bo'lishi ham maqsadimizni oydinlashtiradi. Islom hadislarida «Din-nasihatdir» deyilgan.

Darhaqiqat, yomon gapga pichoq qinidan, yaxshi gapga ilon inidan chiqadi. Bola tarbiyasi hamma uchun ahamiyatli masalalardan. Chunki, bolani yoshlikdan qayoqqa yetaklasang o'sha tomonga ketaveradi. Shuning uchun ularning fikrlash qobiliyatini o'stirish uchun ibratli hikoyalardan aytib, o'qib berish kerak. Avvalo bunday ishlarda bola qalbiga yo'l topa olishlik eng asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yoshligida hamma narsaga havas qiluvchi, o'zidan kattalarga taqlid qiluvchi bo'ladi. Ba'zan kattalarning yomon qiliqlarini o'zlashtirishga ulgurgan bo'ladilar. Bola xarakteriga xos bunday xususiyatlar tarbiyada keng ildiz otgan, uni ko'proq oiladagi to'g'ri tarbiya va o'rinli, asosli tanbehlar, ibratomuz o'gitlar zahirida ulgaysak, bu illatni asta-sekin yo'qotish mumkin. Ammo biz kattalar ba'zida erkanib yolg'on gapirib kelgan bolalarga befarq qaraymiz: bunday qusurlarga «shunchaki kamchilik» yoki «hali bola-ku» degan tushuncha bilan yondashmasligimiz kerak. Aks holda ana shu yuqoridagi «shunchaki kamchilik»lar qimmatga tushadi.

Oila ichidagi sog'lom ruhiy muhit va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish oila barqarorligini ta'minlaydi. Axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun ota-onalar va oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va mehr-muhabbat muhim omil bo'lib, oilaning mustahkamligini va farzandlarning jamiyatda munosib shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Turaeva, G. E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In Conference Zone (pp. 163-165).
2. Turaeva, G. E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 407-410.
3. Turaeva, G. E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 90-93.

4. Тураева, Г. Э., & Бадалов, Д. А. (2019). Инновационный подход к обучению геометрическим фигурам ученикам начальных классов. *Научные горизонты*, (5-1), 320-323.

5. Исмоилов, Б. Т., Бадалов, Д. А., & Тураева, Г. Э. (2019). Постановка и решение задачи: найти площадь четырехугольника по четырём сторонам. *Научные горизонты*, (5-2), 43-47.

OILADAGI STRESS HOLATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ECHIMLARI

Bilolova Zamira Baxtiyarovna

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” dotsenti, psixologiya fanlari falsafa doktori Phd

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi stress holatining o‘ziga hos xususiyatlari, mavzuga oid olimlarining ilmiy qarashlari va oiladagi stress holatining echimi sifatida diadik kopingning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oiladagi stress holati, stress omillari, oilaviy inqiroz, diadik koping.

Annotation: This article highlights the unique features of stress in the family, the scientific views of scientists on the topic, and the importance of dyadic coping as a solution to stress in the family

Key words: stress situation in the family, stress factors, family crisis, dyadic coping.

Bugungi kunda “asr kasalligi” deb e’tirof etilgan stress 65%ini stressogen vaziyat yuzaga keltiradi. Bunda er-xotin munosabatlaridagi nizoli vaziyatlar, spontan yuzaga keladigan xayotiy holatlar va xissiy-emotsional holatning barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi psixologik omillarning ortishi oilalar farovonligiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmasligi mazkur muammoni chuqur va atroflicha o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi hamda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada stressning inson salomatligiga ta’sir etuvchi stressogen omillarni ilmiy tadqiq etishda turli ekstremal vaziyatlarning inobatga olinishi, stressni boshqarish, shaxs ruhiy va jismoniy salomatligiga ta’sirini pasaytirishda psixik ta’sir usullarini qo‘llash masalalarini ilmiy tadqiq etish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Oilaviy stress fenomenologiyasi T. L. Kryukova, V. M. Saporovskaya, E. V. Kuftyak asarlarida tasvirlangan bo‘lib, oiladagi stress - bu oilaning haqiqiy talablari (tahdid, yo‘qotish) va ularni engish qobiliyati o‘rtasidagi nomutanosiblik sifatida yuzaga keladigan holat. Odatda, bu holat stress omillari yoki oilaviy tizimga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hayotiy hodisalar tufayli yuzaga keladi. Stress omillari butun oilaga yoki uning bir qismiga (masalan, er-xotin yoki ona-bola juftligiga), shuningdek, alohida oila a'zolariga ta'sir qilishi mumkin.

R.Lazarning shogirdi K.Oldvin "Stress, koping (english) va rivojlanish" (1994) asarida stress omillarini ikkita asosga ko‘ra tasniflashni taklif qiladi: stressning kuchliligi-zaifligi va harakat davomiyligi. Ushbu mezonlarga asoslanib, u stress omillarining to‘rt turini aniqlaydi:

- 1) travma (falokat, baxtsiz hodisa) - qisqa muddatli, ammo kuchli ta'sir ko'rsatadigan hodisa (urush, o'lim, kutilmagan ajralish);
- 2) hayotiy voqea - kelajakdagi hayot va taqdirga katta ta'sir ko'rsatadigan uzoq davom etadigan voqea (oila a'zosining paydo bo'lishi/ketishi, ko'chishi);
- 3) surunkali stressorlar ta'siri - bu birinchi navbatda, ma'lum ijtimoiy rollarni (er, xotin, jinsiy sherik, qaynona) bajarish paytida to'planib boradigan va hal qilish qiyin bo'lgan nizolarni o'z ichiga oladi;
- 4) insonlar va atrof-muhitning o'zaro ta'siridagi kundalik tashvishlar yoki mikrostressorlar paytida yuzaga keladigan hayotiy qiyinchiliklar. Bu engil stressli ta'sirlar bo'lib, ularning kuchi kuchayishi, to'planishi va oila uchun har qanday hayotiy hodisaga qaraganda ko'proq qiyinchilik tug'dirishi mumkin (masalan, doimiy pul etishmasligi, yomon uy-joy).

Oiladagi qiyinchiliklar – stressning bir turi bo'lib, oiladagi stressli voqealar bilan bog'liqdir (masalan, bolaning tug'ilishi yoki oila a'zosining boshqa shaharda o'qishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar).

Oila bardosh bera olmaydigan kuchli stress holatlari oilaning inqiroziga olib kelishi mumkin. Bu oila a'zolarining o'zaro munosabatlarda doimiy bosim ostida bo'lishi va oilaning barqaror holatini tiklay olmasligi bilan bog'liqdir. (masalan, ajrim)

Oilaviy inqiroz – oila a'zolarining odatiy rollari etarli darajada bajarilmaganda, oldingi namunali xatti-harakatlarning yo'q qilinishi (parchalanishi) sodir bo'lganda va oila hayotida qaytarib bo'lmaydigan o'zgarish sodir bo'lganda paydo bo'lishi mumkin deb ta'riflanishi mumkin. Agar oila o'z resurslaridan foydalansa va buzg'unchi o'zgarishlarga qarshi tursa, oilaviy stress inqiroz darajasiga etib bormaydi.

Stress omillari oila hayotining barcha sohalariga ta'sir qiladi, xatto ba'zilar oila bilan o'zaro bog'liqdir, ba'zi oilaviy munosabatlarda stress holati ayniqsa zaifdir ya'ni yuqori stress holatlari kuzatilishi mumkin. Bular:

- oilaviy hayotning ayrim bosqichlarida (masalan, yosh oila bosqichida) turmush o'rtoqlar orasidagi nikoh munosabatlari, shu jumladan, intim va shaxsiy munosabatlar;

- yangi ota-ona bo'lish - (birinchi bolaning onasi yoki otasi) qabul qilish, surunkali kasal bolani tarbiyalash;

- oila a'zolarining sog'lig'i (og'ir kasallik va og'ir kasal oila a'zosiga g'amxo'rlik qilishdagi qiyinchiliklar).

Oilaviy hayotning boshqa sohaları ham borki, ular stress holati va unga qarshi kurashish nuqtai nazaridan o'rganishni talab qiladi: oiladagi yolg'izlik, iqtisodiy stress (moliyaviy tanglik); kasbiy stress (oila va ish: ishni o'zgartirish yoki yo'qotish, turmush o'rtoqlar ham, ota-onalar ham ko'p ishlaganda, karera) va boshqalar.

Biz aniq aytishimiz mumkinki, oilaviy stress - muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning belgilari insonning o'zi va oila farovonligiga tahdid darajasini belgilab beruvchi va xatti-harakatlaridagi keyingi o'zgarishlarni kognitiv baholashga xizmat qiluvchi holatdir.

Xorijiy psixologiya fanida oilaviy stressning zamonaviy nazariy va empirik ishlanmalari G. Bodenmann (1997), P. Boss (1987), P. Vatslavik, R. Viklendi, M. Fish (1977), S. R. kabi olimlar tomonidan taqdim etilgan.

Karter (1988), M. Perre (1998)larning tadqiqotlari oilaviy hayot uchun eng muhim stresslarni aniqlashga va oila muammoli hayotiy vaziyatlar va inqirozlarda stress holatini qanday engib o'tishini tushuntirishga qaratilgan. Masalan, S. R. Karter vertikal va gorizontal oilaviy stressni ajratadi.

Vertikal - oilaviy va avlodlararo munosabatlar stereotiplari, oilaviy afsonalar, oilaviy sirlar va oilaviy vasiyatlarga asoslangan (ham yadroviy, ham katta oilaga (bobo-buvilar, aka-uka va opa-singillar bilan) tegishli holatlar).

Gorizontal stress omillari hayot siklidagi o'zgarishlardan, me'yoriy va me'yoriy bo'lmagan stresslardan (kutilmagan o'lim, surunkali kasallik yoki baxtsiz hodisa, oila tarixi faktlari kabi) iborat.

1940-yillarning oxirida bir guruh chet ellik olimlar oilaning rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqadigan oilaviy stress modelini ilgari surdilar. Ular oila siklining turli bosqichlari oila ichidagi hayotning turli xususiyatlari bilan tavsiflanadi (masalan, bolasiz oila, yosh bolali oila, maktabgacha yoshdagi bolalari bo'lgan oila, maktab yoshidagi bolali oila, o'smir bolali oila, ajralish jarayonidagi oila, o'rta hayotda va qarilikda) deb taxmin qildilar.

Bundan tashqari, har bir bosqich tipik taxminlar, me'yorlar, o'ziga xos rollar, shuningdek, majburiy kuch tuzilmasi, ta'sir tuzilishi, aloqa tuzilishi (K. Rogers, 1973), juftlik va oilaviy o'zaro ta'sir tizimlari (yaqinlik va jinsiy aloqaning rivojlanishi) bilan tavsiflanadi. Shuningdek, keng ko'lamlı hodisalarga taqsimlash (masalan, ota-ona uyini tark etish) (S. V. White, 1991). Mualliflar oila siklining yangi bosqichiga o'tish oilaviy muloqot va rol stereotiplarida ko'proq chuqur o'zgarishlarga olib keladi va moslashishni talab qiladi deb ta'kidlaydilar.

M. Perrening (1997) yondashuvi oiladagi stressni oila rivojlanishining markaziy omili sifatida tushunishni taqdim etadi. Stress ko'p hollarda oiladagi deviant xatti-harakatlarning sababi bo'lishi mumkin (masalan, zo'ravonlik) deb ta'kidlaydi va u bolalarda ham, ota-onalarda ham ichki va tashqi og'ishlarning shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, oilani halokat yoqasiga olib borishi mumkin deb baholaydi.

Xorijiy psixologiya fanida ushbu masala bo'yicha alohida o'rinni nikoh munosabatlari sohasidagi stress va koping usullarini o'rganish egallaydi.

Turmush o'rtoqlar boshdan kechiradigan stresslar va qiyinchiliklar ularning kelib chiqish manbasi, oqibatlari, tajribasi va ular bilan birgalikda nazorat qilish xususiyatlarida farqlanadi. Oilaviy munosabatlarda oilaviy stressning bir nechta manbalari mavjud. Bularga kasbiy stress, moliyaviy qiyinchiliklar, oilaviy munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, muloqotning buzilishi va nizolarning yuqori chastotasi, oilaviy rollarning beqarorligi kiradi. Biroq, oilaviy hayotda stressni boshdan kechirishning tavsiflangan oqibatlariga qaramay, aksariyat hollarda salbiy oqibatlarining ko'lami oilaviy resurslarga, muammolarni hal qilish va stressni engish qobiliyatiga, ya'ni turmush o'rtoqlarning adekvat xatti-harakatlariga bog'liq. (G. Bodenmann, 2000).

Kopining psixologiyasida oilaviy munosabatlardagi qiyinchiliklarni engishni o'rganishga katta e'tibor beriladi, bu nafaqat stress va qiyinchiliklarni engish usuli, balki oila tizimining barqarorligi va hayotiyiligi uchun eng muhim manba sifatida ham tushuniladi.

Er-xotin munosabatlaridagi qiyin vaziyatlarda eng muhim resurs sifatida juftining ahamiyati ko'rsatilgan. Bu nikoh munosabatlari yuqori darajadagi hissiy yaqinlik, mas'uliyat, qulaylik va inson yaqinligi bilan ajralib turadigan va samarali qo'llab-quvvatlovchi yagona ijtimoiy munosabatlar ekanligi bilan ta'kidlanadi.

1990-yillarda. S. Koen va T. Smit (1994) yangi atamani taklif qildilar - muammoga yo'naltirilgan va hissiyotlarga yo'naltirilgan kopingdan tashqari munosabatlarga asoslangan koping (R. Lazarus, 1984). Ularning ta'rifiga ko'ra, munosabatlarga asoslangan koping ikkita strategiyaga ega: faol yordam va himoya.

Faol qo'llab-quvvatlash strategiyasi turmush o'rtog'ining, sherikning muammosini muhokama qilishga, uning his-tuyg'ularini aniqlashga va qiyin vaziyatga birgalikda konstruktiv echimni ishlab chiqishga undashga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oladi.

Himoya strategiyasi orqali juftlik bibri ikkinchisining holatini hissiy jihatdan engillashtiradi, masalan, bezovta qiluvchi mavzuni muhokama qilmaslik, hamdardlikni ko'rsatish, salbiy his-tuyg'ularni o'z ichiga olishi va kelishmovchilikdan qochish uchun sherikga taslim bo'lish. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bu nazariy jihatdan juda qiziqarli tezis, lekin, hali empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlanmagan.

A. De Longis va D. B. O'Brayen (1990) munosabatlarga asoslangan kopingni rivojlantirishni davom ettirdilar. Stress va hissiy zo'riqish bilan adekvat kurashishda nafaqat muammolarni hal qilish va hissiy nazoratda bo'lish mumkinligini aytadilar, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydilar. Insonning sog'lig'i va o'zini o'zi qadrlashi asosan ijtimoiy o'zaro ta'sir (ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, moslashish, hamdardlik va boshqalar) orqali belgilanadi.

Shu bilan birga, mualliflar o'zlarining e'tiborini empatik kurashishga qaratadilar, u orqali "qobiliyat va shunga mos ravishda stressli vaziyatda boshqa odamning affektiv dunyosini tushunishga urinish va bu affektiv tushunchani bo'lishish". Ular hamdardlik, xayrixohlik, tushunish yuz ifodasi va iliq intonatsiya namoyishlarini empatik kurashning ifoda shakllari deb atashadi.

Stress bilan ikki tomonlama kurashishning qiziqarli kontseptsiyasi D.Terri (1989) va T. Revenson (1994) tomonidan taklif qilingan. Ular: "er-xotinlar orasida individual hissiy yo'naltirilgan kopingning yuqori muvofiqligi ijobiy holatdir, shu bilan birga, turmush o'rtog'lar tomonidan muammoga yo'naltirilgan kopingdan foydalanish ham samarali bo'lishi mumkin, bu ikkala sherikning nikoh munosabatlari sifati va farovonligiga zarar etkazmaydi"- deb hisoblaydilar.

Keyinchalik, har ikkala turmush o'rtog'ining individual harakatlari va harakatlaridan iborat bo'lgan strategiyalar to'plami sifatida diadik koping taklif qilindi (G. Pakenham, 1998).

Oldin taqdim etilgan nazariyalardan farqli o'laroq, G. Bodenmann (1998) tomonidan diadik stress va diadik koping tushunchasi er-xotinlarning stress holatlari o'rtasidagi yuqori korrelyatsiyani kuzatdi va er-xotin stress holatiga yagona tizim sifatida munosabatda bo'lishini, stress holatini birgalikda boshdan o'tkazishlarini va engishlari mumkin ekanligini aniqlagan. G. Bodenmann oilaviy munosabatlardagi stress va kopingni tizimli hodisa sifatida tushunadi. U diadik stressni umumiy tizimni beqarorlashtiradigan bir yoki ikkala sherikga bo'lgan talablar sifatida belgilaydi. Bunday holda, stressning sababi o'zaro er-xotin orasida yoki tashqi ta'sirlar bo'lishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri diadik stress ikkala turmush o'rtog'iga bir xil darajada ta'sir qiladi (masalan, bolaning tug'ilishi, harakatlanishi va boshqalar). Bilvosita diadik stress turmush o'rtoqlardan birining individual salbiy hatti-harakatlari yoki samarasiz muloqotni olib borishi natijasida yuzaga keladigan muammoli holatlardir.

Diadik koping muammoni hal qilish shakliga ham tegishli bo'lib, bu:

- 1) bir tomonning stress holatiga boshqa tomonning ushbu stress holatga javobini (og'zaki va og'zaki bo'lmagan) hisobga oladi;
- 2) er-xotinlar orasida vazifalar va tadbirlarni taqsimlashni o'z ichiga oladi;
- 3) turmush o'rtoqlarning keskin vaziyatga birgalikda va kelishilgan holda yondashuvlarini o'z ichiga oladi (birgalikda ikki tomonlama kurashish).

Er-xotin munosabatlarida diadik kopingning vazifalari:

- 1) stressga yo'naltirilgan jihatlar (muammolarni haqiqiy hal qilish, hissiy va ijtimoiy tartibga solish orqali keskinlikni kamaytirish);
- 2) nikoh munosabatlariga yo'naltirilgan jihatlar ("biz" tuyg'usini shakllantirish va mustahkamlash, er-xotinlarning bir-biriga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ijobiy munosabatlarga yordam berish, qo'llab-quvvatlash, nikohni qimmatli deb bilish va boshqalar) (G. Bodenmann, 2000).

Shunga ko'ra, Diadik kopingning foydali ta'siri, chet ellik olimlarning fikriga ko'ra, stressni kamaytiradi, turmush o'rtoqlarning yaxshi psixologik va jismoniy farovonligiga, hayotdan yuqori qoniqishga, yaxshi ijtimoiy moslashishga va munosabatlar barqarorligiga yordam beradi. O'zaro munosabatlarga asoslangan yoki ikki tomonlama kurash barcha mualliflar tomonidan oiladagi qiyinchiliklarni engishning eng samarali turi sifatida baholanadi, bu nafaqat stressli vaziyatlarni muvaffaqiyatli engib chiqishni, balki nikoh munosabatlarini qimmatli, yaqin va qadrli deb bilishni ham ta'minlaydi.

Xorijiy olimlar va tadqiqotchilarning oilaviy munosabatlar sohasidagi bunday qiziqarli ma'lumotlar, oilaviy stress va unga qarshi kurashishni yanada o'rganish imkoniyatlari va istiqbollarni ko'rsatadi, xorijiy mualliflarning to'plangan tajribasini mahalliy ishlanmalar bilan tahlil qilish va o'zaro bog'lash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Мелникова М.Л. Психология стресса: теория и практика: учебно-методическое пособие. УрГПУ. Екатеринбург 2018. – 112 с.
2. Бодров В.А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. - М.: 2006.
3. Акрамова Ф.А., Билолова З.Б. Оила энциклопедияси. – Т: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyati, 2019. – 240 б.

4. Каримова В.М. Оилавий ҳаёт психологияси. Т.: 2006. – 142 б.
5. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun / G'.B. Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. – 338 б.
6. Акрамова Ф.А. Социально-психологические факторы создания прочных семейных отношений. // Международная научная конференция IX Уральский демографический форум. «Демографическая и семейная политика в контексте целей устойчивого развития» 8-9 июня 2018 г

ОИЛА ВА ЁШЛАР ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Қулмаматова Фазилат Қаршиевна

Денов тадбиркорлик ва педагогика институти ўқитувчиси

Жаҳонда бугунги кунда ёшлар ҳаётидаги, ижтимоий хулқ-атвордаги ўзгаришлар, таълим-тарбия жараёнидаги камчиликлар, маънавий ва ахлоқий бузуқлик, турли диний ниқоблар асосида экстремистик ҳаракатларнинг авж олаётганлиги ёшларнинг дунёқараши ва хулқ-атворининг шаклланишига ҳам жиддий хавф солаётганлиги эътироф этилмоқда. Ёш авлодни уларнинг таъсиридан асраш ва деструктив хулқ шаклланишининг олдини олиш муаммоси янада долзарбланимоқда.

Ш.Мирзиёев "Албатта, биз мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-ҳунарни эгаллаган, мустаҳкам ҳаётини позицияга эга бўлган ёшларни тарбиялаш бўйича катта ишларни амалга ошириш керак. Аммо ҳолисона тан олиб айтадиган бўлсак, бугунги кунда бутун дунёда аҳолининг, биринчи навбатда, ёшларнинг онги ва қалбини эгаллаш учун қандай кескин кураш бораётганини, диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, "оммавий маданият" каби таҳдидлар кучаяётганини ҳисобга оладиган бўлсак, фарзандларимиз тарбияси, маънавий-маърифий соҳадаги ишларимизни бир зум ҳам сусайтирмасдан, аксинча, уларни янги босқичга кўтаришимиз зарур" дея таъкидлаб, деструктив ҳаракатларнинг олдини олиш борасида амалга оширилиши лозим бўлган вазифаларни белгилаб берди.

Ўзбек психологи У.Д.Қодировнинг "ёшларни деструктив таъсирлардан ҳимоялашнинг психологик жиҳатлари" номли монографиясида, - "Умумжаҳон муаммоларидан бири ҳисобланган ёшларнинг деструктив гуруҳлар таъсирига тушишини тадқиқ қилиш борасида кўплаб хорижий ва ҳамдўстлик мамлакатларида ва шу жумладан республикамизда бир қатор илмий изланишлар олиб борилган бўлиб, уларда мазкур муаммонинг келиб чиқишига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар, статистик, демографик, ҳуқуқий ва ҳудудий хусусиятлар ҳар томонлама илмий таҳлил қилишга ҳаракат қилинади." [3] деб таъкидланган.

Хориж ва ҳамдўстлик мамлакатларида бир қатор соҳа мутахассислари ёшлар ўртасида содир этилаётган жиноятчилик, гиёҳвандлик ва алкоголизм каби иллатлар ўрганилган. Уларнинг келиб чиқишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари, уларнинг олдини олиш, шахсда антиманипулятив, асертив хулқни шакллантиришга йўналтирилган тадқиқот ишлари олиб борилган.

Яна бир ўзбекистонлик тадқиқотчи Х.Шарафутдинова – “Деструктив хулқ-атвор кўринишлари сифатида аддиктив хулқ, ғайриижтимоий хулқ, суицидал хулқ, конформистик, нарцисстик, фанатик, аутистик хулқни келтириш мумкин. Шахс деструктив хулқ-атворининг исталган кўринишида муайян оилавий ўзаро муносабатларга путур етказувчи жиҳатлар мавжуд. Жумладан, биргина аддиктив хулқ-атворнинг умумий хусусиятларига кундалик ҳаётий қийинчиликларга чидамсизлик, номукамаллик комплексининг яширин кўриниши, турғун эмоционал муносабатлардан кўрқиш, ёлғон гапиришга интилиш, бошқаларни айблашга интилиш, қарор қабул қилишдаги масъулиятдан қочиш, хулқининг бир қолипдалиги, тобелик, хавотирланиш кабилар оила ривожланишининг турли босқичларида ўзига хос мураккабликларга сабаб бўлади.” [4] деган фикрларни баён қилган.

Дарҳақиқат, деструктив хулқ-атворнинг шаклланиши омиллари ва кўринишлари хилма хил бўлиб, унинг ёшларда шаклланиши ва намоён бўлиши ҳам ўзига хосликларга эга бўлади. Демак, уларнинг хилма хиллик доирасида ўтганиш ва бартараф этишдан кўра, деструктив хулқ шаклланишининг олдини олишга қаратилган психологик чора тадбирларни ишлаб чиқиш ва уларни амалиётда қўллаш бир мунча қулай.

Ёшларда деструктив хулқнинг пайдо бўлиши жуда кўп омиллар билан боғлиқ бўлиши мумкин. Масалан ёшлардаги импульсивлик ҳам деструктив хулққа ишора ҳисобланади. Импульсивлик - ўйламасдан, асосан, ҳис-туйғулар ҳамда бошқа шароитлар таъсирида ҳаракатларни амалга оширишга мойиллик ифодаланадиган хулқ-атвор хусусияти ҳисобланиб, импульсив ёшлар ҳиссий беқарор, сабрсиз ҳамда асабий бўладилар. Уларда масъулиятсизлик, бепарволик кўпинча устунлик қилади. Импульсивлик хусусияти мавжудлигини суҳбат, кузатиш ва психологик тест орқали аниқлаш мумкин.

Кўпчилик ёшларда импульсивлик пайдо бўлиб, у беқарор ва жиддий салбий оқибатларга олиб келмаслиги мумкин. Булар кучли ҳиссий таъсир кучига эга бўлган ички ва ташқи вазиятлар, чалкашлик ёки чарчоқ ҳолати таъсири бўлиши мумкин. Бу каби омилларнинг барчаси ёшларда ўз-ўзини назорат қилиш қобилиятини пасайтиради ва ақлий ривожланишининг муайян босқичларида, характернинг маълум турлари билан кузатилади.

Баъзида импульсивлик ёшларда темперамент ва характер хусусияти сифатида юзага чиқиши мумкин. Жумладан, сангвиник ва холерик темпераментларга хос бўлган юқори асабийлик жараёнларининг ҳаракатчанлигидир. Импульсивлик хусусиятларнинг бундай бирлашиши таълим ва ижтимоийлашув жараёнида содир бўлиши мумкин. Бундай ёшлар жаҳлдор, ўзини тута олмаслик ҳамда мантиксиз ҳаракатларга мойил бўлиб, улар кўпинча ўз-ўзидан пайдо бўлган ҳошиш ва инжиқликлар билан бошқарилади. Энг ачинарлиси бу каби ёшлар ўз ҳаракатларининг салбий оқибатларини англамайдилар.

Биз тадқиқот ишимизни ташкил этишда болаларда деструктив хулқнинг шаклланиши оила, ундаги муҳит, ота-оналарнинг ўзаро ва фарзандлар билан

муносабати ва энг муҳими ота-онанинг деструктив хулқи сабаб бўлади деган методологик ғояга асосландик.

Оилавий муносабатлардаги деструкция оила ривожланишининг турли юсоқчиликларда турлича характер касб этади ва бу нафақат оиланинг ичдан емирилишига балки шу оилада ўсаётган фарзандлар аксариятининг деструктив хулқи бўлиб шаклланишига замин яратиши билан хавлидир. Айниқса, оила ривожланишининг иккинчи босқичида (ўрта ёш оилалар) деструктив муносабатлар оилада фарзанднинг дунёга келиши, фарзандларни тарбиялаш, жинсий установакалар: фарзанднинг ўғил ёки қиз бўлиши, рўзгор кенгайиши, янги билим ва малакаларга мухтожлик, ота-онанинг ёрдами ва аралашуви, ота-она хулқидаги намунавий томонларни шакллантириш, қабила билан боғланиб кетади.

Шахснинг ижтимоийлашуви, миллийлашуви ҳамда миллийликни ўзлаштириши алоҳида аҳамият касб этади. Жумладан, бу соҳа муаммолари ва хусусиятларини психология фанининг тармоғи бўлган этнопсихология ўрганади. Этнопсихологик хусусиятларнинг ўзига хос томонларини мужассамлаштирувчи ва уни намоён этувчи айнан шу этник бирлик вакиллари дир. Маълумки, бола ўзига Ватани ёки ота-онани танлаб туғилмайди. Шундай экан у ўз миллатига хос бўлган тайёр руҳий хусусиятлар билан ҳам туғилмайди. Бола ота – онасида авлод- аждодидан биологик йўл билан фақат ирсий хусусиятларни ва айрим руҳий хусусиятларнигина мерос қилиб олади, холос. Бола туғилиш даврида одам бўлишга номзод бўлади лекин, якка, жамиятдан ажралган ҳолада у шахсга айлана олмайди балки, маълум бир жамиятда яшасагина шахсга айланади.

Шахс яшаб турган миллий муҳит ёки унинг қайси миллатга мансублиги шу миллат ва элатга хос бўлган хусусиятларни эгаллашига ва унга хос хулқ-атвор ва характернинг шаклланишига замин яратади. Онтогенетик тараққиёт давомида ташқи хатти-ҳаракатларни ботиний яъни, “ақлий” хусусиятларига айланиши даврида кишида миллий психологик қиёфа асослари шакллана бошлайди. Тадқиқотчилар томонидан этнопсихология масалаларни ўрганишда маълум муваффақиятларга эришилган бўлсада, унинг кўп муаммолари хали ечимини топа олгани йўқ. Ёшларда деструктив хулқ-атвор шаклланишининг этнопсихологик хусусиятларини аниқлаш ва бартараф этиш усулларидан фойдаланишда амалиётчи психологлар таълим муассаларида деструктив хулқ-атвор диагностикаси, психокоррекциясига оид ишларни тизимли йўлга қўйишлари мақсадга мувоқилиги: деструктив хулқ-атворга эга бўлганлар билан индивидуал ва гуруҳий психотерапевтик ишларни олиб бориш ва салбий хусусиятларини бартараф этиш зарурлиги: ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари, педагоглар учун деструктив хулқни бартараф этишда индивидуал ва гуруҳий психотерапия элементларидан фойдаланиш бўйича тавсиялар бериш муҳиндир.

Хулоса сифатида, оилаларда деструктив муносабатлар, ота-онанинг хулқи уларнинг фарзандлари хулқ-ватвори ва муносабатларида такрорланади ва бу занжир реакцияси жамиятда деструктив хулқнинг барҳам топишига акс таъсир кўрсатади. Шу нуқтаи назардан ёшларда деструктив хулқни бартараф

этиш учун аввало, ёшларни оилага тайёрлаш масаласига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Жумладан, турмуш қуриш ёшидаги йигит қизларнинг хулқ-атворида деструктивликни махсус психологик методикалар ёрдамида ўрганиш; деструкцияга мойиллиги (характер акцентуацияси) бўлган ёшлар билан психологик коррекцион ишларни ташкил этиш деструктив хулқнинг жамиятда авж олишини олдини олади.

Адабиётлар

1. Дорфман Л.Я., Злоказов К.В. Поражение и деструкция и их исследование в зарубежной психологии. Сообщение 1 // Вестн. Южно-Уральского гос. ун-та. Сер. Психология. 2016. Т. 9, № 1. С. 5-16.
2. Клейберг, Ю.А. Типология деструктивного поведения // Вестник Краснодарского университета МВД России. - 2008. - С. 130-135.
3. Қодиров У. Ёшларни деструктив таъсирлардан ҳимоялашнинг психологик жиҳатлари. –Т.: 2013, 236 бет.
4. Шарафутдинова Х.Г. Оилавий муносабатлар деструкцияси муаммоси. // Психология, № 1. Бухоро, 2023. Б. 197-200

ОТА-ОНА ВА FARZAND MUNOSABATLARINING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI

Xayrullayeva Marjona Xayrulla qizi

Termiz Davlat universiteti 1-kurs magistranti,

Psixologiya kafedrasida Psixologiya (Faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi

Annotatsiya: Bu maqola orqali oiladagi ijobiy muhit va uning farzandlar tarbiyasiga ta'sirini ko'rish mumkin. Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi; xususan, bolada iroda, odatlar, fe'l-atvor, xulq, atrofga munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Shu bois turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas.

Kalit so'zlar: ota-ona, farzand, jamiyat, kelishuv, sog'lom munosabatlar, murosa, hurmat.

Farzandlarda ota-onaga yaqinlik mehr-muhabbat hissi bir oz bo'lsada kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashishi «begonalashish» tomoniga o'sib o'tadi. Oilaviy turmush munosabati ichida «liberal» (murosasozlik) toifasi ham ko'zga tashlanib turadi. Oila davrasida ota yoki ona murosasoz, ko'ngilchang bo'lishlik tashqi ko'rinishidan iliq ruhiy iqlimini o'ziga aks ettirganday bo'lib tuyulsa ham, aslida unda hamjihatlik, o'zaro tushunish etishmaydi. Murososozlik tasirida farzandlar fe'l-atvorida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kelishuvchilik kabi illatlar tarkib topishi mumkin. Ota-ona obro'si oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi. Buyuk allomalarning mulohazalariga ko'ra, tarbiyada hazilga yo'l qo'yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka,

sertakalluflikka, adovat, tirnoq orasidan kir izlashga aylanib ketmasligi kerak. Shu boisdan muayyan pedagogik-ruhiyat qonun-qoidalariga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya tamoyillari, usullari, vositalari bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi.

"Ota-ona va farzand munosabatlarining ijtimoiy hayotga ta'siri juda katta va ko'p qirrali bo'lib, bular:

Birinchi, ota-ona va farzand o'rtasidagi sog'lom munosabatlar bolaning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bunday munosabatlar bolaning o'zini ishonchli his qilishiga, o'ziga bo'lgan hurmatini oshirishga, boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganishga va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

Ikkinchi, ota-ona va farzand o'rtasidagi sog'lom munosabatlar jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Bunday munosabatlar bolaning jamiyat qoidalariga rioya qilishini, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishini va o'z jamiyatiga foyda keltirishni o'rganishini ta'minlaydi.

Uchinchi, ota-ona va farzand o'rtasidagi sog'lom munosabatlar jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga yordam beradi. Bunday munosabatlar bolaning o'z jamiyatiga, boshqalarga va atrof muhitga nisbatan mas'uliyatni his qilishini, o'z jamiyatini yaxshilashga harakat qilishini ta'minlaydi. Afsuski, ota-ona va farzand o'rtasidagi salbiy munosabatlar ham ijtimoiy hayotga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bunday munosabatlar bolaga o'zini ishonchsiz his qilishiga, o'ziga bo'lgan hurmatini yo'qotishiga, boshqalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishiga va jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, ota-ona va farzand o'rtasidagi salbiy munosabatlar jamiyatda jinoyatchilik, zo'ravonlik va boshqa ijtimoiy muammolarni kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bunday munosabatlar bolaga jamiyat qoidalariga rioya qilmaslikni, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lmaslikni va o'z jamiyatiga zarar yetkazishni o'rganishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, ota-ona va farzand o'rtasidagi sog'lom munosabatlarni shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bu munosabatlarni mustahkamlash uchun ota-onalar o'z farzandlariga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik va hurmat bilan munosabatda bo'lishlari, ularga o'zlarini ishonchli his qilishlari va jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilishlari kerak. Bolalar, shuningdek, ota-onalardan bir qator ko'nikmalarni o'rganadilar, masalan, his-tuyg'ularni qanday namoyon etish va tartibga solish, nizolarni qanday hal qilish, tengdoshlar bilan munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, ota-onalar farzandlari bilan ijobiy munosabatda bo'lish orqali bolalarning tengdoshlari munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishining iltimos, maslahat, ishontirishi, talabqilish, buyruqva tanbeh berish, jazolash, rag'batlantirish singari qator usullaridan o'z o'rnida va me'yorida foydalanilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Ulardagi samimiylik, g'amxo'rlik fazilatlarini farzandlar ruhiy dunyosiga katta ta'sir etadi, ruhlanish, to'liqlanishi, shijoat, ehtirosni vujudga keltiradi. Ularning ibratli hislatlari, shaxsiy fazilatlarini, irodaviy sifatlarini, o'z-o'zini o'lgan olish kabi jihatlari yigit va qizlar qalbida o'chmas iz qoldiradi. Ota-onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatlarini shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit, totuvlik mavjud bo'lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma'nodagi nazokat hamda obro' mustahkam shakllangan bo'lishi kerak.

Dunyoqarashi endi shakllanib borayotgan bolalarga nima mumkin, nima mumkin emasligini ochiq aytib borish kerak. Biz esa xuddi bolalar buni biladiganday ish tutamiz. Masalan, bolalar jonli mushuk bilan o'yinchoq mushukchani bitta narsa deb o'ylashi mumkin. Ular o'yinchoq mushukni osmonga irg'itadilar, quloqchalarini sindiradilar, ustiga chiqib o'tiradilar, ya'ni o'zlari istagan ishni qiladilar. Ular jonli mushukchada ham shu harakatlarni takrorlashga urinadilar. Bunday paytda ota-onalar jonsiz va jonli predmetlar to'g'risida ularga tushunchalar berib borishlari lozim. Kattalar tomonidan bolalarga qilingan po'pisa(tahdid)larni ular teskari tushunishlari mumkinligini o'ylab ko'rganmisiz?. Bolaga "agar ukangni yana bir marta ursang..." desak ular "... dan keyingi aytilmagan fikrni ular "ukangni yana bir marta ur" deb, yoki "yana derazaga qarab tosh otasan...", desak ular "derazaga tosh yana otishim kerak ekan", deb tushunishlari mumkin. Bunday po'pisalar yakunlangan tarzda bo'lishi lozim. Masalan, "agar ukangni yana bir marta ursang, biz hammamiz sendan hafa bo'lamiz. Ukangni urishing emas, uni himoya qilishing kerak", degan gaplarni aytgan afzalroq.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Allomalarimiz ta'kidlaganidek, insonni tarbiyalashdagi eng asosiy yo'l — e'tiqoddir, e'tiqodga esa ishontirish yo'li bilangina ta'sir etish mumkin, xolos. Tarbiya ishining muvaffaqiyatli chiqishi uchun tarbiyachilar tinmay o'zlarini tarbiyalashlari kerak. Faqat ana shu yo'llar bilangina yuqorida ko'rsatib o'tilgan oila tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkin. Mazkur mas'uliyatli burchni bajarish uchun ota-onalar o'z ustilarida ko'proq ishlashlari va tarbiya vositalarini takomillashtirishga intilishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Hoshimov K., Ochilv S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. -T., 1995-y.
2. Abdurauf Fitrat. "Oila yoki uni boshqarish tartiblari"- T., 2000-y
3. Hasanov S. Xorazm ma'rifati-olam ko'zgusi. -Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
4. Eshmuradov O. Oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. 2022.
5. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005.

PEDAGOG XODIMLARNING STRESSGA BARDOSHLILIGINI OSHIRISHDA OILAVIY MUHITNING TA'SIRI

Usanova Bahoroy Eshpo'lat qizi

Termiz davlat universiteti psixologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada pedagoglarning kasbiy faoliyati davomida kelib chiqadigan kasbiy emotsional zo'riqishlarini qanday qilib oldini olish va stressga bardoshlilikni oshirishda oilaviy muhitning ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, kasbiy zo'riqish, stress, profilaktika, emotsiya, A.M.Bakovikov, kommunikatsiya, A.B.Lenova, Ye.S.Jarikov, stressor, Hans Seyle, eustress, distress, kreativ, reglament.

Pedagoglik kasbi eng sharaflil kasblardan biri, chunki u har bir kasb egasiga, u xoh quruvchi bo'lsin, xoh hokim, barchasining qo'lga qalam tutib yozishni o'rgatgan, harf tanitgan. Pedagog o'quvchiga nafaqat ta'lim, balki tarbiya ham beradi. Bu kasb faxrli kasblardan bo'lish bilan bir qatorda, faoliyati davomida o'ziga xos qiyinchiliklarga duch keladi. Buning natijasida kasbiy emotsional zo'riqishlar kelib chiqadi. Keling, bu haqida so'z yuritishdan oldin, Pedagog kim? Pedagoglik kasbi tarixi haqida va uning bugungi kundagi pozitsiya va vazifalari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar bilan tanishamiz. Pedagog – yunon tilidan tarjima qilganda “παῖς” (paida) — bola, “ἄγω” (gogos)— yetaklovchi, ya'ni “bola yetaklovchi” degan ma'noni anglatadi Qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinlarining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini pedagog deb atashgan. Keyinchalik bu atama kengayib, maxsus bilimlarni egallagan mutaxassislariga nisbatan qo'llanila boshlagan. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyati va to'plagan tajribalari asosida “Pedagogika” fani vujudga kelgan. Bugungi kunda pedagog sifatida pedagogika mutaxassisi, bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs nazarda tutiladi.

Pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladigan kasbiy stress omillarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: mehnat faoliyati bilan bog'liq omillar: ish yuklamasining haddan ziyod ko'pligi, yomon ish sharoiti, vaqtni yetishmasligi; pedagogik jamoadagi pedagogning roli bilan bog'liq stress omillar: kasbiy majburiyatlarini to'la bilmaslik, jamoada tan olinmaslik, hamma uning majburiyatni bo'yniga olish, ish yuklamasining adolatsiz taqsimlanishi natijasida kelib chiqadigan noaniqlik, jamoa oldidagi javobgarlikning o'ta pastligi, jamoa hayotida kam ishtirok etish; pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq omillar hamda pedagoglardagi kasbiy stressning namoyon bo'lishida shaxs reflektiv jihatlarining ijtimoiy-perseptiv xususiyatlarda differensial namoyon bo'lishiga ko'ra, ijtimoiy-psixologik kompetentlikning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar bugungi kunda kasbiy stressga ta'sir

etuvchi asosiy mezonlardan biri pedagogning kasbiy stressning reflektivlik, muloqotdagi kommunikativlik bilan bog‘liqlik jihatlari ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqot ishimizda shaxs nuqtai nazaridan yondashish tamoyilining qoidalari va tashqi xulq-atvorda muayyan tarzda ifodalanishidagi psixologik tafovutlar odam individual-psixologik sifatlari, xususan, sub’ektiv lokal nazorat, empatiya, emotsional intellekt hamda shaxs xususiyatlari bilan bog‘liq xususiyatlar tomonidan bog‘lanishi nuqtai nazaridan o‘rganish orqali ro‘yobga chiqarilishi ko‘zda tutiladi. Bunda pedagogning individual-psixologik xususiyatlari emotsiogen, psixologik omillarning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi faktor ekanligini taxmin qilish va ularning o‘rtasidagi oraliq omillar sifatidagi o‘rni nimada ekanini aniqlashga intilish aniq maqsad etib belgilanadi.

Tadqiqot ishimizning metodologik asoslaridan biri bo‘lgan Yu.Kulning nazariyasiga ko‘ra, o‘zini o‘zi boshqarish negizida harakatlarni nazorat qiluvchi subtizimlar o‘rtasida mutlaqo boshqa aloqalar yotadi. «O‘zini o‘zi boshqarish» tizimining ishi demokratik tamoyil asosida amalga oshadi, samarali boshqaruv tizimining barcha tarkibiy qismlari o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liq va doimo shaxs «Men»ining nazorat qiluvchi ta’siriga ehtiyoj sezadi. Yu. Kul tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida maqsadga erishishni ta’minlaydigan bir qancha mexanizmlar aniqlandi. Bu mexanizmlar ko‘pincha anglanmagan darajada amalga oshishi, strategiya shaklida qo‘llanilishi mumkinligi korsatib beriladi.

Endi esa yuqoridagi “O‘qituvchi-pedagog o‘z faoliyatida duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar va uning oqibatida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan zo‘riqishlar va ularni oldini olish” haqida mavzumizni bayon qilsak. O‘qituvchi o‘z faoliyati davomida nafaqat o‘quvchilar bilan, balki o‘z hamkasblari va ta’lim muassasasi rahbarlari bilan ish olib boradi. Har bir kasbda bo‘lgani singari pedagoglarda ham kasbiy zo‘riqishlar bo‘lishi tabiiy hol. Keling shu o‘rinda kasbiy zo‘riqish va uning turlarini izohlasak. Kasbiy zo‘riqish bu ish faoliyati bilan bog‘liq zo‘riqish bo‘lib, xodimning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq salbiy emotsional holati hamda ekstremal omillarga duch kelganda yuzaga keladigan noxush his-tuyg‘ularidir. Kasbiy zo‘riqishlar bugungi kunda “Kasbiy stress” deb ham ataladi. A.B.Lenova kasbiy stressni shunday turlarga ajratadi:

- Axborotli stress;
- Hissiy stress;
- Kommunikativ stress.

Endi “Axborot stressi”ga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Axborot stressi bu tashqi muhitdan olingan har xil, haddan tashqari ko‘p miqdordagi ma’lumotlar natijasida insonda yuzaga keladigan zo‘riqishlardir. Bunday stress quyidagi sabablar natijasida kelib chiqishi mumkin:

- Axborotning haddan tashqari ko‘payishi;

-Pedagog o'ziga berilgan vazifalarni vaqtida bajara olmasa;

-Dars jarayonini olib borish uchun o'quv qo'llanmalarining yetishmasligi natijasida yuzaga keladi.

Bunday stressni oldini olish uchun quyidagilarga diqqatimizni qaratishimiz lozim:

-Pedagog o'z ishlarini vaqtga nisbatan to'g'ri taqsimlashi kerak;

-Pedagog o'z faniga doir yangiliklar bilan tanishib borish bilan bir qatorda, qiziqarli faktlar to'plab o'quvchida fanga nisbatan ko'proq qiziqish uyg'otish kerak;

-Pedagog imkon qadar har sohadan xabardor bo'lishi, zamon bilan hamnafas bo'lishi lozim;

-Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi zarur.

Hissiy stress deganda, inson biror-bir voqeadan qattiq ta'sirlanishi, shuning oqibatida noxush his-tuyg'ular girdobida qolishi nazarda tutiladi. Bunday stressga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

-O'quvchilar tomonidan o'qituvchining faniga bo'lgan qiziqishning sustligi;

-Darsdagi kelishmovchilik yuzasidan kelib chiqadigan g'azablanish tuyg'usi;

-Nohaqlik ortidan yuzaga keladigan aybdorlik hissi;

-Ishdagi hamkasblar bilan qarama-qarshilik;

-Tahqirlashga duch kelganda;

-Ta'lim muassasasi rahbariyati bilan ziddiyatlar mavjud bo'lishi natijasida hissiy stress vujudga keladi.

Pedagog hissiy stressdan saqlanish uchun quyidagilarga amal qilsa, bu stress bilan bog'liq muammolar nisbatan o'z yechimini topgan bo'ladi:

-Pedagog doim pozitiv fikrlashi darkor;

-O'qituvchi o'z fanining haqiqiy mutaxassisi bo'lishi kerak;

-Pedagog hamma voqealardan ham ta'sirlanib, hissiyotlarga berilmasligi zarur.

har bir insonning kasbiy hayotida vaqti-vaqti bilan rivojlanish inqirozlari deb ataladigan tanqidiy daqiqalar paydo bo'ladi. Xuddi shu faoliyatdan bir necha yil o'tgach, mutaxassis boshlanadi "Mos kelmaydi" kasbi bilan, ya'ni. kasbiy funktsiyalarni bajarishning normativ tasdiqlangan usullaridan oshib ketish, buning natijasida ular kasbga qiziqishni yo'qotadilar. Bu holat charchash sindromi deb ataladi. Bu atama jismoniy, hissiy va ruhiy charchoq holatini anglatadi. Ushbu sindrom ko'plab tashqi va ichki sabablar ta'sirida kuchli professional muloqot sharoitida yuzaga keladi va o'zini his-tuyg'ularning "bo'g'ilishi", his-tuyg'ular va tajribalarning keskinligining yo'qolishi, aloqa sheriklari bilan nizolar sonining ko'payishi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa odamning tajribalariga befarqlik, hayotning qadr-qimmatini his qilishni yo'qotish, o'z kuchiga ishonchni yo'qotish. Aniqlanishicha, "hissiy charchash" yosh mutaxassislarda ham ko'proq ishning uchinchi yilida, keyin esa kasbiy

inqiroz davrida sodir bo'ladi. Anksiyete, ruhiy tushkunlik, hissiy qattqlik va hissiy vayronagarchilik - bu o'qituvchi to'laydigan mas'uliyat narxidir. Savollar tug'iladi: bizning bolalarimizni kim o'qitadi va tarbiyalaydi? Bunday azob-uqubatlarga duchor bo'lgan odam yosh avlodga muvaffaqiyatli ta'sir qila oladimi? Bilimlarni uzatish texnologiyasi o'qituvchi o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun yaratadigan atmosferaga nisbatan orqa fonga tushadi. Emotsional charchagan o'qituvchida o'quvchilarning idroki buziladi, bu esa o'quv ishlarida inertsiyaga olib keladi. Agar tizim o'quvchilar va o'qituvchilarning sog'lig'iga zarar etkazsa, ta'lim maqsadlari asosan ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini, ma'nosini yo'qotadi. Yuqori darajadagi psixologik va kasbiy salomatlikni ta'minlangan zamonaviy o'qituvchilarni shakillantirishim juda zarurdir. Chunki bu kuchiga egadir. Hissiy charchash shaxsning kasbiy deformatsiyasiga olib keladi, o'qituvchilar va yaqin odamlar va o'quv jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unligini buzadi. Profilaktik chora-tadbirlar hissiy charchash xavfini kamaytiradi, o'qituvchilarning yuqori samaradorligi va samaradorligini ta'minlaydi va natijaga erishishga yordam beradi. Stressga chidamli ishtiyoqni o'rganishga qiziqish pedagogik faoliyatning tobora kuchayib borayotgan stereotiplarning ajralib turishi, yosh avlodni tarbiyalash uchun ijtimoiy tartibning rivojlanishi tufayli, rivojlanish uchun yangi strategiyalarni hisobga olgan holda, o'sib borayotgan pedagogik faoliyatning tobora kuchayib borishi munosabati bilan alohida ahamiyatga ega. Jamiyat, raqobatni oshirish va hokazo. Shu bilan birga, bugungi kunda o'qituvchining stress qarshiligini o'rganishga bag'ishlangan cheklangan miqdordagi ishlar mavjud. Bundan tashqari, pedagoglar introvertizm, kuch va teng tizimning ko'payishi bilan stressga chidamliligi o'qituvchilar guruhidagi stress namoyonlari pasayishi bilan ajralib turadi. Umuman olganda bugungi kunda umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilarida stress namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlariga jiddiy e'tibor berilishi zarur. An'anaviy tarzda aytishimiz mumkinki, charchash va stress juda yuqumli va tez xodimlar orasida tarqalishi mumkin. Kuchlanishga moyil va pessimistlarga aylanadi; va ular boshqa odamlar bilan ish joyida o'zaro aloqada bo'lib, tezda butun jamoani "tuyganlik" to'plamiga aylantirishi mumkin. Shu sababli, kasbiy hissiy charchashning oldini olish ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatida muhim yo'nalishga aylanishi kerak.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashni istardimki, hissiy kasbiy charchash stress juda hiyla-nayrang jarayondir, chunki ushbu sindromga moyil bo'lgan odam ko'pincha uning alomatlarini bilmaydi. U o'zini tashqaridan ko'ra olmaydi va unga nima bo'layotganini tushunmaydi. Shuning uchun u qaramaqarshilik va ayblovlariga emas, balki qo'llabquvvatlash va e'tiborga muhtoj.

O'qitish va pedagogik ishning ko'plab qiyinchiliklari orasida psixologik salomatlikni yomonlashtiradigan, uning yuqori ruhiy stressi ajralib turadi. Buning oqibati aqliy funktsiyalar barqarorligining zaiflashishi, mehnat qobiliyatining qisman yo'qolishi va hatto somatik kasalliklar bo'lishi mumkin, bu esa psixologik moslashuvning pasayishiga, buzilishiga olib keladi. o'qituvchi shaxsiyatining yaxlitligi. Natijada, ushbu kasb vakillarida funktsional holatning tez-tez uchraydigan salbiy ko'rinishlaridan biri bu holatidir. kasbiy emotsional zo'riqishlar har bir kasbda, shu jumladan pedagoglik kasbida ham odat tusiga kirgan tabiiy jarayondir. Avvalambor, pedagoglarni bunday holatlarga tushirmaslikka va pedagog sifatida o'zimiz tushmaslikka harakat qilishimiz zarur, agar pedagoglar bunday vaziyatlarga duch kelgan vaqtida ham o'zlarini yo'qotmagan holda, ustalik bilan vaziyatdan chiqa bilishlari kerak. Bunda, albatta, pedagoglar uchun yaqin insonlari, ya'ni oilasi va yon-atrofdagilar, hamkasblar, ta'lim muassasasi rahbariyatining ko'magi hamda o'quvchilarning ustozga bo'lgan hurmati katta ahamiyat kasb etadi. Agarda pedagoglarda kasbiy emotsional zo'riqishlar vaqtida bartaraf qilinsa, pedagogik-psixologik profilaktik ishlar amalga oshirilsa pedagoglarning ma'naviy hayotida pozitivlikka erishgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.E.Yakubova."Pozitiv dunyoqarashni shakllantirishga oid ma'naviy pedagogik merosning mazmun-mohiyati". IISN 2181-6883. "Pedagogik mahorat" ilmiy nazariy metodik jurnal. 5-Son. Oktabr. 168-bet. Buxoro-2022. (13.00.00.No23)
2. Sh.E.Yakubova."The system of instilling a healthy perspective in students through eastern academics' educational principles". European international journal of multidisciplinary research and management studies. Volume03.
3. Боковиков А.М. (ред.) Энциклопедия глубинной психологии Т. Новые направления в психоанализе; Психоанализ общества

OILAVIY MUNOSABATLARNI O'RGANISHGA DOIR ALLOMALARNING ILMIY MEROSI.

Murtozayeva Muhlisa Karim qizi
TerDU Amaliy psixologiya yo`nalishi talabasi
Qayumova Go`zal Narzullayevna
TerDU Psixologiya kafedrasida o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola sharq mutafakkirlari va davlat arboblari - Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Axmad Donish, Abay Sunanbayev, Rizouddin ibn Faxruddin, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlaridagi oila-nikox munosabatlari,

oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi xaqida g'oyatda ibratli maslahat va ugitlar bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Oila, oila-nikox munosabatlari, ota-onalar va farzandlar munosabati, sadoqat, yorga vafo, erkak va ayol munosabatlari, ota-onaning vazifalari.

Oilaviy munosabatlarni oʻrganishda tarixiy maʼlumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini koʻrsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asoriatlarni, muqaddas diniy manbalarda, oʻzbek xalqining ogʻzaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan oʻzbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon boʻladigan odob-axloq qoidalari, meʼyorlari, insoniy fazilatlar ifodasi toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlarni uchratish mumkin.

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va maʼrifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, oʻzbek xalqining oilaviy hayoti, undagi oʻzaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari boʻlmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) oʻz ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy taʼlimot yaratmagan boʻlsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar boʻyicha oʻzining nuqtai nazarini koʻpgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning aʼzolari oʻrtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. “Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir”. “Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar oʻrtaga kirib olishi bilan ish toʻgʻri boʻlmaydi”. “Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiros, gʻam-gʻussa boʻlmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy oʻrta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining oʻziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-nikoh, oiladagi oʻzaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning “poligamiya” (erkak yoki ayol bir paytning oʻzida bittadan ortik er yoki xotinga ega boʻlishiga yoʻl qoʻyiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli maʼlumotlarni keltiradi. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni oʻrnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chogʻida oʻqli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar

keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bu ma'lumotlar izlanuvchilarda ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida oilaviy turmushning takomillashuvi, oila-nikoh munosabatlarining barqarorlashuvi va monogamiya oila turining kelib chiqishi tarixi haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining yetakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud". Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishgan".

Alisher Navoiy (1441-1501) «Mahbub ul qulub», ya'ni «qalblar sevgilisi» va «Vaqfiya» asarlarida oilaviy turmushi bilan bog'liq er va xotinning vazifalari, burchlari, o'zaro munosabat-muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlari haqida qimmatli nasihat va ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Alisher Navoiy «Mahbub ul qulub» asarining 37 fasl «uylanganlik va xotinlar to'g'risida» ayolning fazilatlari va uning oiladagi o'rni haqida quyidagilarni yozadi; «er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganning (erning) tinchligi undan.

Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa, jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi. Ana shunday turmush o'rtog'i bo'lsa - g'am kulfatda sirdosh va hamdaming bo'lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo'lur. Turmushdan har jafo yetsa, hasratdoshing ul va osmondan har bir balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidan ul g'am chekadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abay Ibragim Kunanbayev. Slova nazidaniya. / Per. s kaz. - Almaty: «Rauan», 1995. -S. 135.
2. Xasanov S. Xorazm ma'rifati - olam kuzgusi. - T.: «O'kituvchi», 1996. -304-b.
3. Muxiddin S. Oila va shar'iy nikox odoblari. - T.: «Movarounnaxr», 1999. 80-b.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. - T.: Abdulla Kodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 1993. -224-b

OILAVIY MUNOSABATLARDA ERKAK VA AYOL PSIXIK XUSUSIYATLARIDAGI TAFOVUTLARNING TAHLILI.

Ulasheva Karomat
Termiz davlat universiteti
Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Erkak va ayol o'rtasidagi farqlar kundalik turmushimizda ham juda ko'p. Erkakning oilaga bosh bo'lishi va erkakning jismonan va psixalogik kuchli bo'lishi

oilaning moddiy ta'minotchisi bu ham ayol kishi kabi erkak kishi ham hayotda o'rinli shaxs ekanligini anglatadi.

Ayollar ko'proq tinch osoyishta shart sharoitlarda o'zini yaxshi tutib yaxshi natijalarni ko'rsatar ekan. Erkaklarda ruhiy psixalogik holat ancha mo'tadil, bosiq bo'ladi, shuning uchun ko'pincha jarrohlik, fuqaro aviasiyasida uchuvchilik va boshqa shunga o'xshash kasblarning 99,9%ini erkaklar tashkil qiladi. Masalan ayol kishi asabiyroq bo'ladi, va bu holatni hayotda juda ko'p kuzatish mumkin. Mashina haydayotganda ayol kishida ishonchsizlik sezilib turadi. Boshqa tarafdin qarasak ayollar uchun oddiy bo'lgan kundalik uy yumushlarini erkaklar umuman qila olmaydilar, shuning uchun erkak va ayol o'ziga xos ishni qilishi yaxshiroqdir. Ayol kishi erkak kishiga nisbatan hissiyotli bo'ladi. Ayol psixalogiyasida ayollar hissiyoti to'liq o'rganilmagan chegarasiz. Ayollar erkaklarga nisbatan ikkilanuvchi passiv hisoblanadi. Ayollarda yana bir qobiliyat, bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajarishi mumkin bu qobiliyat erkaklarda yaxshi rivojlanmagan. Bu ham bosh miya o'ng va chap yarimsharlari o'rtasida ularni yaxlit organ sifatida ishlashini ta'minlaydigan qism mavjud. Bu qism ayollarda erkaklarga nisbatan 30% yaxshi rivojlangan. Erkaklarda buning aksi, masalan cho'milayotib paypog'ini yuvishi yoki gazeta o'qiyotganda ayolning gaplarini eshita olmasligini misol qilish mumkin. Gap borasida ham ayollar suhbatdoshiga o'zining gaplarini mimika, sha'ma orqali tushuntiradi. Erkaklar esa to'g'ridan to'g'ri maqsadga o'tishadi. Erkak kishining miyasi kunning oxirida barcha ma'lumotlarni qaytadan tahlil qilish kerakligini saqlab qolib qolganlarini unutishga qodir, ayol bunday qila olmaydi. Ayollar hayotiy muammosini boshqalar bilan bo'lishgisi keladi va bir kunda 30mingta so'z aytishga qodir, erkak kishiga 4mingta ham yetarli. Qiz bola o'quvchi sinfda o'g'il bola o'quvchiga nisbatan a'lochi o'qiydi. Bu degani o'g'il bolalar qoloq degani emas.

Qiz bola tez balog'atga yetishishi sababli shunday bo'ladi, vaqtlar o'tishi bilan o'g'il bola o'quvchi salohiyatli bo'lib boradi. Bular bilim olish bilan birga hunar ham o'rganishga moyil bo'ladi. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi gender farqlarga to'xtaladigan bo'lsak, gender tafovuti bu turli jinsdagi shaxslar orasida uchraydigan nisbiy nomutanosiblikning jamiyatda turli sohalarda namoyon bo'lishi ya'ni erkak va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, intellektual, madaniy, ilmiy hamda iqtisodiy munosabatlar yoki yutuq va kamchiliklarda aks etishidagi farqlar. Gender tafovutlariga ko'ra ayollar moddiy jihatdan kam oylik to'lanadi. O'zbekistonda gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatidagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasining 562-sonli qarorga ko'ra xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolotlari to'g'risida qonun qabul qilingan. O'zbekistonda gender tengligi bo'yicha komissiya 2019-yildan boshlab faoliyat yuritib kelmoqda. 2015-yil Pokistonda BMT gender tengligi va ayollarning huquqlarini kengaytirish bo'yicha hisobot tayyorlandi. Bu hisobotning asosiy muammosi ayollarni ish bilan ta'minlay olishmasligining sababini o'rganishdir. Shu bilan birga yosh qizlar bilimli bo'la turib o'ziga bo'lgan ishonchsizligi tuyfayli ishlay olishmaydi, ayniqsa matematika va tibbiyot fanlaridagi yoshlarni misol qilish mumkin. O'zbekistonda gender tengligi bo'yicha quyidagi tashkilotlar bilan

hamkorlik olib boriladi. Bularga Loyihaning asosiy hamkori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hisoblanadi. Gender tafovuti — bu turli jinsdagi shaxslar orasida uchraydigan nisbiy nomutanosiblikning jamiyatda turli sohalarda namoyon bo'lishi ya'ni, erkaklar va ayollar o'rtasida ijtimoiy, siyosiy, intellektual, madaniy, ilmiy hamda iqtisodiy munosabatlar yoki yutuq va kamchiliklarda aks etishidagi farqda namoyon bo'ladi.

Erkaklar va ayollar o'rtasidagi gender stereotiplarni uch guruhga ajratish mumkin. Bu mardlik, latofatlik stereotiplari deb ataladi. Birinchi guruhdagi gender stereotiplarni mardlik va latofatlik haqidagi tasavvurlar aksini topgan. Masalan, ayollarga passivlik, emotsionallik kabi xususiyatlar, erkaklarga esa faollik, mustaqillik, jahldorlik va hokazolar xos. Gender stereotiplarning ikkinchi guruhi oilaviy, va boshqa sohalarda muayyan ijtimoiy rollarni mustahkamlash bilan bog'liq. Ayollarga, odatda, asosiy rollar sifatida oilaviy (ona, uy bekasi, turmush o'rtog'i) rollar, erkaklarga esa professional rollar belgilanadi. Gender stereotiplarining uchinchi guruhi erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlikni mehnatning muayyan turlari bilan shug'ullanish jarayonida o'z ifodasini topgan. Jumladan, erkaklarga odatda ijodiy va yaratuvchanlik xarakteriga ega. ayollarga esa- bajaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi xarakteri bilan farqlanadi. Ijtimoiy stereotip tushunchasi shaxsning qobiliyatini bildiradi. Ijobiy xulosalar va tanqidiy xulosalar chiqarishga, uning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy stereotiplarning ijobiy tomoni shundan iboratki, o'zgarishlar va sharoitlarda tezda harakat qilishni o'rgatadi. 1970-yillarda olimlar erkaklar va ayollar o'rtasida kichik farqlar mavjud bo'lgan to'rtta parametрни topdilar.

Oxirgi tadqiqotlar ushbu ma'lumotlarga aniqlik kiritdi va nutq qobiliyatlarida gender farqlari yo'qligini aniqladi. Umuman olganda, bugungi kunga qadar to'plangan ilmiy bilimlar shuni ko'rsatadiki, turli jins vakillari deyarli hamma narsada bir-biriga o'xshashdir, garchi juda kam va nisbatan kichik istisnolar mavjud bo'lsa ham. Shunga qaramay, gender farqlariga ham ilmiy hamjamiyatda ham, undan tashqarida ham katta ahamiyat berilyapdi. Erkak va ayolning fikrlashlari orasidagi farq: Erkak va ayolning fikrlashlari orasidagi farqni aniqlash bo'yicha yangi ilmiy ish olib borilmoqda, miya vazifalarini o'rganish bo'yicha mutaxassis jarrohlar o'zlari erishgan yangi natijalarni e'lon qildilar. Ularning fikrlashicha erkak kishining miyasi ayol kishining miyasiga qaraganda 16% ga katta ekanligini aniqladilar. Shuningdek, ikkovlarining miyasi bir xil vazifani bajarganda ham turli uslubda bajarar ekan. erkak kishi fikr yuritganda uning miyasining muayyan qismigina ishlar ekan. Erkak kishi ayol kishiga nisbatan fikrni jamlashga qudratli ekanligi aniqlangan. Erkak kishi ayol kishiga nisbatan ko'ngilchanlikda ta'sirsizroq ekani ham ilmiy ravishda aniqlandi.

Ko'ngilchanlik zohir bo'lish paytida ayol kishining miyasi erkak kishining miyasiga qaraganda sakkiz marta ko'p harakat qilishini asboblari ko'rsatdi. Shuningdek, erkak kishi g'azablenganda qo'pollikka o'tishi, ayol kishi esa gapirishga o'tishi, ya'ni so'z bilan orani isloh qilishga o'tishi ham sobit bo'ldi. Erkak kishining miyasi ayol kishining miyasiga qaraganda sekin ishlar ekan. Shuning uchun erkak kishi juda past ovozni eshitmas, ayol kishi esa eshitar ekan. Yosh ulg'ayishi bilan erkak kishining miyasi ayol kishinikiga qaraganda ko'proq kichrayadi. Yigirma

yoshda erkak kishining miyasi ayol kishinikidan katta bo'ladi. Qirq yoshda esa, ikkovlarining miyalari tenglashadi. Oltmish yoshda ayol kishining miyasi erkak kishining miyasidan katta bo'lib qoladi. Alloh taolo insonning o'zidan unga juft yaratib berishidagi hikmatni «sokinlik topishingiz uchun» deb bayon qilmoqda. Ayollar erkaklarga qaraganda ancha murakkab mavjudotlar. Erkaklar esa ancha sodda. Ularning orasidagi asosiy farq fikrlash tarzining turlicha ishlashidir. Alloh taolo insonning o'zidan unga juft yaratib berishidagi hikmatni «sokinlik topishingiz uchun» deb bayon qilmoqda. Darhaqiqat, erkak faqat ayoldangina sokinliksokinlik, orom, osoyishtalik va tinchlik topadi. Shuningdek, ayol ham o'ziga kerak bo'lgan sokinlikni, orom, osoyishtalik va tinchlikni erkakdan topadi. Ha, albatta, buning uchun tafakkur qilish kerak. Agar insonlar, erkak va ayollar o'zlarining tuzilishlari, bir-birlarining oralaridagi farqlari haqida keragicha tafakkur qilsalar, ular bir-birlaridan sokinlik topishlari uchun yaratilganlarini anglab yetadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017.
2. Oila psixologiyasi: darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M. Karimova. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2008. –170 b.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil kishilar shahri. –Toshkent: Xalq merosi, 1993. – 224 b.

OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY

PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Choriyeva Sevinch
Qayumova Go'zal
Termiz davlat universiteti*

Annotatsiya: Oila qurishdan asosiy maqsad jamiyat barpo qilishdir, jamiyat barpo qilish esa bir davlatni yuzaga keltiradi. Shu sababdan ham oila qurish va nikohlanishga azaldan alohida ahamiyat berilgan va jiddiy yondashilgan. Oilaviy munosabatlar muammosining yuzaga kelishida asosan oilaning har bir a'zosi bir birini tushuna olmasligida, tushunishni istamasligida yoshlarning noto'g'ri tarbiyalanishida, er-xotin oilada burch va vazifalari haqida tushunchaga ega bo'lmasligida qaynona kelin munosabatlari yangi kashf qilinayotgan urf-odatlar sabab darz ketishi va murosa qila olmaslikdadir. Shu sabablar ham oilaning darz ketishi va ajrimlar sonini ortib borishi natijasida hamda qizlarning turmushsiz farzand dunyoga keltirishi natijasida "Mehribonlik uylari" va "Oilaviy bolalar uylari" tashkil qilinishiga sabab bo'lib qolmoqda. Jamiyatimizda bunday og'riqli nuqtalarni bartaraf etish uchun yetarlicha tushunuvirish ishlari targ'ib qilinishi lozim.

Kalit so'zlar: Oila, burch, vazifa, munosabatlar, jamiyat, Mehribonlik uylari, Oilaviy bolalar uylari er-xotin munosabatlari, qaynona-kelin munosabatlari, nizolar.

***“Nikoh mening sunnatimdir.
Kim sunnatimdan yuz o‘girs, mendan emasdir”
(Muhammad sollalohu alayhi vasallam)***

Oila jamiyat ichidagi kichik bir jamiyat hisoblanadi. Ana shu kichik jamiyat kattalashsa butun bir davlatga aylanadi. Oilaning jamiyatda o‘rni muhim hisoblanadi. Sababi sog‘lom muhitda shakllangan farzandlar jamiyat va davlat rivoji uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shadi. Sog‘lom oilada tarbiyalangan bola bilan nosog‘lom muhitda tarbiyalangan bolalar bir biridan farq qilgani kabi nosog‘lom jamiyat ham sog‘lom jamiyatdan keskin farq qiladi shu sabab ham jamiyatda oilaning mustahkamligi va u sog‘lom muhitda ekanini nazorat qilish muhim sanaladi. Oilaviy munosabatlarda albatta birinchi o‘rinda yoshi keksalarning tajribalari asosida oila haqida tushunchalar shakllantiriladi. Qolaversa oilada o‘zaro hurmatni ta‘minlashi kichikligidayoq tarbiya asosida rivojlantirilishi kerak. Yoshlar keksalarni hurmat qilishi, keksalar holidan doimo habar olib turish va oilada har kim o‘z burch va vazifalarini bilishi talab etiladi.

Shuningdek ikki yoshning oila qurishi yangi bir jamiyatning boshlanishi bo‘lsa demak bu kichik jamiyatda albatta erkak kishining ustunligi talab etiladi. Shu bilan bir qatorda albatta oila mustahkam va mukammalligi har ikki shaxsning burch va vazifalarini yaxshi bilishi natijasida yuzaga keladi. Oilada xotinning burchlari erga itoat qilmog‘i, ayol kishi erining ruxsatisiz begona uyga kirmasligi, eri yomon ko‘radigan insonlarni uyiga kiritmasligi, erining iznisiz biror ish qilmasligi kabilar bo‘lsa urning burchlari esa mahr, nafaqa, taomlantirish, kiyintirish, maskan bilan ta‘minlanishi nazarda tutiladi. Albatta oiladagi eng katta kuchli nizolar ikki tomonning bir birini tushuna olmasligidan vujudga keladi. Oila munosabatlari psixologiyasida asosan oila jamiyatning bir bo‘lagi va shu kichik bir jamiyat qanchalik tinch totuv bo‘lsa jamiyat ham yuksalishda davom etadi degan qarashni ilgari surishadi. Shu sababdan ham eng katta e‘tibor avvalambor oilaning nizolardan holi ekanini ta‘minlashdir. Shuningdek oilaning to‘g‘ri shakllanishida yoshlarni ma‘lumotlar ba‘zasi bilan ta‘minlash, juftni to‘g‘ri tanlashga ko‘maklashish, oila haqida tushunchani rivojlantirish, oilada shaxsning ro‘li muhimligini o‘rgatish, yoshlarni jinsiy hayotga tayyorlash kabilar eng muhim asoslardan biri hisoblanadi shu sabab ham yoshlarni bu hayotga tayyorlash shart. Aynan shu tushunchalar yaxshi shakllanmagan oilalarda aynan tanazzulga uchrash, ajrimlar, ikki nikohlanish, farzandlarni “Mehribonlik uylari” va “Oilaviy bolalar uylari”da bolalarning ko‘payishiga olib kelmoqda.

“Nikoh” deb atalgan muqaddas aloqa faqat kelin va kuyovning ikkovlari o‘rtasidagi robitadagina iborat emas. Balki bu robita ularning ortida turgan ota-onalari, oila a‘zolari va qavmi-qarindoshlarini ham o‘z ichiga oladi. Nikohning jamiyat a‘zolari orasidagi aloqalarni muhtakamlashga qiladigan katta xizmati ham shundadir. Kelin va kuyovning sababi ularning oila a‘zolari, urug‘lari va qarindoshlari ham qudachilik asosida yaqinlashadilar. Shuning uchun ham Islomda qudachilik aloqalariga alohida e‘tibor berilgan va uning ahamiyati qayta-qayta ta‘kidlangan.

Oilada qaynona-kelin, er-xotin munosabatlarida nizolar asosan muvozanatni ushlay olmaslikdan yuzaga keladi. Ya'ni hozirgi kunda keraksiz urf-odatlarini ko'payib ketishi, sarpo suruqlarning haddan oshib ketishi yoki ikki oila orasida aynan shu sarpolar sabab katta nizo shakllanishi natijasida nikohlarning buzilib ketishi nazarda tutiladi. Aynan shu sabab ham oilalarda o'g'il va qizlarni oilaga tayyorlash keksalarning keraksiz urf odatlarini yaratishdan qaytarish lozim. Yoshlarni o'zlaridan kattalarni hurmat qilishni va oilada erga e'tiqod qilib yashash va oilada keladigan qiyinchiliklarga sabr qilib yashashga tarbiyalash lozim. Aynan oilaviy munosabatlar psixologiyasida juda ko'p muammolar qaynona kelin munosabatlarida er-xotin munosabatlarida qaynsingil va qaynopa kelinlarning o'zaro nizolarida har tomon bir birini tushuna olmaslik va bir birini eshita olmaslikdan kelib chiqmoqda. Har tomon bir birini tushunish uchun avvalo bir birini eshinishi lozimdir insonlarning deyarli ko'pchiligi bir birini eshinish nuqtasigacha yetib bormasdan yosh oilalar buzilib ketishi kuzatilmoqda. Bu borada nafaqat kelinlarni balki qaynona va erlarni ham tarbiyalash lozim deb hisoblayman. Sababi bu kabi muhim qarorlar har ikki tomonning aybi bilan yuzaga keluvchi eng og'riqli qarorlar hisoblanadi shu sababdan ham oila qurish ostonasida turgan yosh o'g'il qizlar va quda andachilik munosabatlarini mustahkamlash arafasida turgan jamiyatimiz bo'laklari bilan albatta diniy tushunchalar oila, nikoh, taloq, idda, er xotin ustida haqlari, xotinni er ustida vazifalari, ota-onani hurmat qilish, ularga itoat qilish kabi tushunchalar bilan birga psixologik suhbatlar va metodikalar o'tkazish lozim.

Bundan tashqari jamiyatimizdagi juda katta og'riqli nuqtalarimizdan biri bu "Mehribonlik uylari" "Oilaviy bolalar uylari" "Mehr uylari" "Qariyalar uylarining" hali ham mavjudligidir. Har bir ota-ona o'z farzandi yonida keksayishni xohlagani kabi bolalar ham oilalarda tarbiyalanishni istaydi. To'g'ri bu kabi "Uylarning" imkoniyatlari sharoitlari juda ham to'la-to'kis va katta e'tiborda bo'lishi mumkin ammo xech biri ota-ona va farzand bag'ri kabi o'z oilangiz kabi qaynoq va totli bo'lmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1908 yildan boshlab yetimlarni siylash ta'sis etilgan bo'lsa keyinchlik bunday muassasalar turli nomlar bilan nomlanib boshlangan. Uzoq o'tmishdan olib qarajak urush yillarida bolalar ota-onasiz qolganligi sabab ham bunday uylar xalq uchun ancha manfaatli bo'lgan. Ular kasblarga tayyorlangan oilalarga uzatilgan hozirgi zamon bilan taqqoslansa natija ancha yuqori bo'lgan. Hozirgi kunda "Mehribonlik uyi" va "Oilaviy bolalar uyi" tarbiyalanuvchisi sifatida o'z tajribamdan kelib chiqib ayta olishim mumkin-ki, hozir juda kop mendek farzandlar ota-onalarning arzimagan daxanaki tortishuvlarning yoki yoshlik sabab nikohsiz tug'ib tashlab ketishlari shunday uylarni sonini oshirishmoqda bu juda alamlidir. Yuqorida ta'kidlaganimdek, har bir farzand ona bag'rida va ota qaramog'ida tarbiyalanishga haqli. Ma'lumot o'rnida eslatish joiz-ki, hozirgi kunda "Mehribonlik uyi"da bolalarning ko'pi chin yetimlar, ijtimoiy yetimlar, ota-ona huquqidan mahrum qilingan bolalar, ma'lum muddatga tashlab ketilgan bolalar, "Mehr operatsiyasi" sabab keltirilgan bolalar mavjud. Bu kabi tashlab ketilgan bolalarni bunday psixologik travmalari albatta bolaning kelajagi va uning boshqalarga munosabatlari ham xuddi shunday agressiv va ishonchsiz hamda tajavvuzkor bo'lib qoladi, Shu bilan birga ayrim holatlarda bolalar o'g'irlikka

mukkasidan ketgan yoki foxishalikga moyilligi kuchli bo‘lgan jamiyatning ayanchli nuqtasiga aylanib borishadi, Asosiy bu kabi “Uy” bolalarining fikrlashida bu ajrimlarga ota-ona kelisha olmasligi, otaning ichkilikka beriganligi, ota 2chi turmush qilganida o‘gay otaga qizning yoqmasligi, qaynonaning kelinga beradigan zug‘umlari yoki yengil hayotga o‘rganib farzand tarbiya qilishga erinishlari yoki oilada qotilliklar sabab er xotinni o‘ldirishi yoki xotin erni o‘ldirish yuzadigan kuzatilgan holatlar sabab deb hisoblashadi. Bu kabi misollar aynan “Mehribonlik uylari”da tarbiyalangan tarbiyalanuvchilr bilan bo‘lgan suhbat jarayonida o‘z tasdig‘ini topgan. Shu sabab ham bu kabi uylarni ko‘payishiga va bolalarning qarovsiz qolishi yok iota-ona bag‘ridan uzoqda tarbiyalanishi ular uchun juda xavotirlidir. Shu sabab ham oila qurish orasida turgan har bir jamiyat a‘zosi va quda-andalik rishtalarini bog‘layotgan oilalar bilan alohida suhbatlar o‘tkazilishi va oila haqidagi nikoh haqidagi mavzularga jiddiy yondashish shart.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oilaviy munosabatlarda sog‘lom oila muhitini yaratish butun boshli bir jamiyatning kelajagiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Oilaning ichki muhitida tinchlik va xotirjmlik barqaror bo‘lsa, farzandlar ham jamiyat uchun va uning kelajagi uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shadi. Bunday holatni oldini olish uchun

- Oila va oilaviy munosabatlar haqida bililarning yetishmasligi;
- Aroqxo‘rlik va giyohvandlik;
- Yosh oilaga ota-onaning aralashuvi;
- Befarزندlik;

kabi muammolarning oldini olish lozim. Bu kabi oilaning buzilishini va jamiyatda oqsayotgan bu jihatlarni oldini olish uchun har bir oilada ma’lum bir qismda diniy limga ega bo‘lish ham muhim sanaladi. Shu sababdan bu kabi holatlarni kamaytirish uchun har bir jamiyat a‘zosida diniy va psixologik ilm o‘rgatilishi lozim.

Foydanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimova V. Salomatlik psixologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
- 2.Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006 – 142 b.
- 3.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. - T.: Abdulla Kodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 1993. -224-b
- 4.Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshkarish tartiblari.T.: «Ma’naviyat», 1998 -8-b.
- 5.Ro‘ziqulov F.R. O‘zbek oilalarida ajralishning ijtimoiy-psixologik asoratlari: Dis... psixologiya fan.nomzodi: 19.00.05. – T.: 2002. – 160 b.
- 6.Salaeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis. psixol.fan.nom. 19.00.05. – T.: 2005.

II-SHO‘BA. GLOBALLASHUV SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI.

О ПРОБЛЕМЕ ПРЕДСТАВЛЕННОСТИ ЖЕНЩИН В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ.

*Назирова Л.В., к.п.н., доц кафедры Общей психологии, ТГПУ им Низами
Рахмонова Н. педагог, кафедры Общей психологии, ТГПУ им Низами*

В современном обществе женщинам приходится совмещать профессиональную деятельность и семейные обязанности. Успешная профессиональная деятельность требует от женщины проявления таких качеств как активность, целеустремлённость, инициативность. В семейной жизни женщине необходимо принимать решения по вопросам, связанным с детьми, семейным бытом. Справляться с данными задачами женщине сложно без наличия таких качеств, как самоорганизация, стрессоустойчивость, эмоциональная уравновешенность.

И в этой связи исследование эмоционального интеллекта у женщин приобретает особую актуальность, подчеркивающую значимость развития у них способностей распознавания эмоций и их контроля, владения собой в трудных жизненных ситуациях, принятия решений. Исследование проводилось на основе сравнения двух выборок женщин: 25–30 лет и 40–45 лет. В ходе исследования было выявлено, что общий уровень эмоционального интеллекта у женщин 40–45 лет выше, чем у женщин 25–30 лет. По отдельным составляющим эмоционального интеллекта были получены следующие данные: эмоциональная осведомленность, эмпатия, самомотивация, управление своими эмоциями у женщин 40–45 лет выше, чем у женщин 25–30 лет.

Полученная возрастная динамика эмоционального интеллекта у женщин связана с ростом развития ЭИ от ранней к средней взрослости в связи с накоплением жизненного опыта в понимании и управлении своими и чужими эмоциями. На современном этапе развития общества исследование эмоционального интеллекта (ЭИ) приобретает особое значение. С одной стороны, это связано с тем, что к человеку предъявляется все больше требований в профессиональной среде и в сфере межличностных отношений. С другой стороны, в обществе происходит рост экономической и социально-политической нестабильности, усиливаются информационные потоки. Это приводит к появлению у человека эмоционального напряжения и стресса, дезадаптации. В зарубежной и отечественной психологии создано большое количество моделей ЭИ и методик его исследования.

Все существующие модели ЭИ делятся на 2 группы: смешанные модели ЭИ и модель способностей. Одной из первых появилась модель способностей, авторами которой являются Д.Майер, Д.Карузо и П.Сэловей. Они определили ЭИ как «способность отслеживать собственные и чужие чувства и эмоции,

различать их и использовать эту информацию для направления мышления и действий» [1, с. 27]. ЭИ представляет собой сложный конструкт, состоящий из четырех компонентов: идентификация эмоций, использование эмоций в мышлении и деятельности, понимание эмоций и управление эмоциями. Авторы также отмечают, что компоненты ЭИ расположены в определенной иерархии и познаются человеком в процессе развития. Д. Майер и П. Сэловей в результате своих исследований обнаружили, что уровень ЭИ у подростков ниже, чем у взрослых. Это говорит о наличии позитивной возрастной динамике эмоционального интеллекта. Исследования представителя смешанного типа ЭИ Р. Бар-Она также подтвердили факт увеличения параметров эмоционального интеллекта с возрастом человека.

Согласно смешанной модели ЭИ представляет собой совокупность когнитивных, личностных и мотивационных черт, которые тесно связаны с адаптацией к реальной жизни и процессами совладания. К наиболее известным отечественным моделям ЭИ относятся модели Д.В. Люсина и М.А. Манойловой. Д.В. Люсин рассматривает ЭИ как способность понимания своих и чужих эмоций и управление ими. Отмечается двойственная природа ЭИ: когнитивные способности (распознавание, идентификация эмоций – скорость переработки эмоциональной информации) и личностные показатели: поведенческие (эмоциональная саморегуляция) и эмоциональные (эмоциональная выразительность, эмоциональная чувствительность, эмпатия, доминирующее настроение). Важно отметить, что эмпирические исследования показали, что эмоциональный интеллект развивается, он не представляет собой исключительно личностную черту [6].

Согласно модели М.А. Манойловой ЭИ представляет собой способность человека к осознанию, принятию и регуляции эмоциональных состояний и чувств как своих, так и других людей. ЭИ является интегративным понятием, включающим в себя эмоции, интеллект и волю. Воля является объединяющим звеном между эмоциями и интеллектом, а ЭИ – субъективной характеристикой личности. Цель ЭИ – трансформация и развитие эмоциональной сферы личности. Процесс ЭИ – осознание своего внутреннего состояния и партнера по общению. Результат ЭИ – психическое новообразование личности. В модели ЭИ отсутствует иерархическая зависимость, т. е. все формы проявляются на всех уровнях профессиональной деятельности в неразрывном слиянии и взаимодействии [8]. Разработка научных основ ЭИ далека от завершения и исследователи указывают, что «теперь необходимы исследования, которые позволят выявить компоненты ЭИ и связать их с психическими процессами, обуславливающими индивидуальные различия в понимании эмоций...» [10, с. 18].

Существующие данные о гендерных различиях эмоционального интеллекта в целом достаточно противоречивы. Большую роль в формировании и закреплении гендерных различий в составляющих эмоционального интеллекта играют социальные стереотипы, культурные нормы и ролевые ожидания. В исследовании А.Ф. Минуллиной и Э.И. Муртазиной, в частности,

показано, что мужчины имеют более высокий уровень ЭИ, чем женщины. При этом у мужчин выше характеристики ЭИ, связанные с процессом управления эмоциями и их контролем. В то же время в группе женщин выше уровень техпоказателей ЭИ, которые связаны с процессом понимания эмоций [9]. В литературе имеются многочисленные данные об особенностях возрастной динамики эмоциональной сферы как мужчин, так и женщин [2], [4]. В частности, отмечается, что уровень эмпатии неуклонно повышается от юношеского возраста, достигая максимального значения у женщин и мужчин в возрасте 40–50 лет [4].

Изменение с возрастом сентиментальности у взрослых женщин и мужчин в разных возрастных группах по данным Е.П. Ильина и А.Н. Липиной показала, что среднегрупповые значения показателя сентиментальности с возрастом неуклонно возрастают, достигая максимума, как у женщин, так и у мужчин в возрасте 50–60 лет [5]. Анализ возрастной динамики свойств эмоциональности показал, что среднее значение показателя эмоциональной возбудимости у женщин сначала держится на одном уровне в возрастных группах 15–20 и 21–30 лет, а затем начинает постепенно снижаться [5]. Значительно меньше работ посвящено возрастной динамике именно ЭИ. В исследовании О.В. Грибковой, посвященном возрастным особенностям уровня развития ЭИ студентов и работающих взрослых, в частности, показано, что у испытуемых в возрасте от 17 до 25 лет корреляции между возрастом и показателями развития ЭИ и его компонентов не выявлено. В группе более взрослых людей (26–43 лет) была выявлена слабая зависимость между возрастом испытуемых и показателями шкалы «Эмоциональная осведомленность».

С другими компонентами ЭИ и уровнем интегрального ЭИ возраст обследованных не коррелирует [3]. На основании полученных данных О.В. Грибкова делает вывод о том, что в группе работающих взрослых эмоциональная осведомленность незначительно нарастает с увеличением возраста. С точки зрения автора, это связано с приобретенным во взаимодействии с другими людьми жизненным опытом, в ходе которого диапазон испытываемых ими эмоций и чувств расширяется [3]. Недостаточность исследований возрастной динамики ЭИ, в частности, у женщин и обуславливает существенную значимость данного исследования. Изучение возрастных изменений ЭИ у женщин связано с тем, что в современных условиях жизни женщина включается во все виды социально-экономических отношений.

Женщины все чаще сталкиваются со множеством проблем – сложность выбора между карьерным ростом и семьей, необходимостью совмещать профессиональную деятельность и семейные обязанности, постоянные физические и ментальные перегрузки. Решение этих проблем требует от женщины самоорганизации, стрессоустойчивости, эмоциональной уравновешенности, умения управлять своими эмоциями и эмоциями других людей. Проведенное исследование было направлено на изучение особенностей проявления различных составляющих ЭИ у женщин разного возраста. На

начальном этапе исследования была выдвинута гипотеза— существуют возрастные различия в проявлениях эмоционального интеллекта у женщин, связанные с развитием ЭИ и накоплением жизненного опыта, способностью понимать и управлять своими и чужими эмоциями. В исследовании приняли участие 60 испытуемых, разделенных на две группы по критерию возраста: 1 группа – женщины ранней зрелости – 30 человек, в возрасте от 25 до 30 лет. 2 группа – женщины средней зрелости – 30 человек, в возрасте от 40 до 45 лет.

Исследование проводилось удаленно, с использованием интернет ресурсов. Для статистического анализа использовался непараметрический U-критерий Манна-Уитни, позволяющий выявить статистически значимые различия в выраженности показателей ЭИ в группах женщин ранней и средней зрелости. Для изучения различных составляющих эмоционального интеллекта были использованы следующие методики – «Оценка эмоционального интеллекта» (опросник EQ) Н. Холла, «Опросник ЭИИ» Д.В. Люсина. В результате эмпирического исследования были выявлены особенности ЭИ у женщин ранней и средней зрелости.

При этом не по всем параметрам различия достигают уровня статистической значимости. Характер данных позволяет предположить, что при увеличении выборки все различия с большой долей вероятности станут статистически значимы.

Полученные результаты в ходе исследования позволяют автору сделать вывод о подтверждении гипотезы исследования - выявлена возрастная динамика эмоционального интеллекта у женщин, связанная с развитием ЭИ от ранней к средней зрелости в связи с накоплением жизненного опыта в понимании и управлении своими и чужими эмоциями.

Список литературы:

1. Люсин, Д.В. Современные представления об эмоциональном интеллекте / Д.В. Люсин; под ред. Д.В. Люсина, Д.В. Ушакова // Социальный интеллект: Теория, измерение, исследования. – М.: Ин-т психологии РАН, 2004.
2. Люсин, Д.В. Новая методика для измерения эмоционального интеллекта: опросник ЭИИ / Д.В. Люсин // Психологическая диагностика. – 2006. – № 4. – С. 3–22.
3. Манойлова, М.А. Развитие эмоционального интеллекта будущих педагогов / М.А. Манойлова. – Псков: ПГПИ, 2004. – 60 с.
3. Возрастные особенности эмоционального интеллекта у женщин разного возраста.// Karabushchenko N.B., Zorina N.N. Peoples' Friendship University of Russia, Moscow, Russia E-mail: natanzorina@mail.ru

ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШ ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТ СИФАТИДА

Сатторова Махлиё Дилмурод қизи

ТерДУ психология кафедраси катта ўқитувчи (PhD)

Ижтимоий психология фанида ахлоқий, тарбиявий ўз – ўзини англаш ижтимоий рухий ходиса бўлиб, психологик жараён сифатида алоҳида илмий нуқтаи назарга эга. Бироқ у тўлиқ илмий ўрганилмаганлиги туфайли

уни таҳлил қилишда, ахлоқ, миллий характер, миллий маънавият ва қадрият категориялари билан бевосита боғлиқ равишда амалга оширилмоқда. Ушбу категорияларни ўзига хос тарзда ёритиш психология фанининг асосий тушунчаси ҳисобланиб, шахсни яққол англаш, унинг гуруҳ (жамоа)даги роли, шахслараро муносабатдаги ўрнини ўрганиш имкониятини яратади.

XX ва XXI асрда Психология фанида олиб борилган илмий ишларга назар солсак, ушбу масаланинг ижтимоий – психологик табиатини тушунтиришда икки хил ёндашув вужудга келганлигини кўришимиз мумкин. Бунда уларни ўзаро бир – биридан кескин даражада ажратиб турувчи фарқлар мавжуд.

Биринчи ёндашув талқинича ўз – ўзини англаш – бу ўз йўналишини ўзгартирган онгнинг айнан ўзидир. Мазкур талқин рус психологиясида кенг тарқалган бўлиб, Л.С.Виготский, А.Н. Леонтев, В.В. Столин ва уларнинг шогирдлари томонидан тадқиқ қилиб келинган.

Иккинчи ёндашув моҳияти С.Л. Рубинштейннинг илмий ишларида ўз аксини топган.

Биринчи ёндашувнинг намоёндалари талқинида ўз – ўзини англаш:

Л.С. Виготскийнинг шахсий фикрича, ўз – ўзини англаш турли хил маънолар орасида бирликни (умумийликни) вужудга келтирувчи жараён сифатида ва ўзлаштирилган онг тариқасида намоён бўлади.

А.Н. Леонтев талқинига қараганда, индивидуал онгдаги моҳият билан мазмун ўртасидаги зиддият ўз – ўзини англашнинг сабабчисидир.

В.В. Столиннинг таъкидлашича, ўз – ўзини англашнинг асосида “Мен”ликнинг мазмуни ва моҳияти ўртасидаги зиддият ётади.

Иккинчи йўналиш асосчиси С.Л. Рубинштейн тадқиқотларига асосланиб, биз ўз – ўзини англаш муаммосини тадқиқ этадиган бўлсак, энг аввало, унинг субъектига, яъни шахс (индивид)га эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ. Бошқача сўз билан айтганда, ўз – ўзини англашни шакллантиришнинг манбаи онг ва ундаги зиддият бўлмасдан, балки инсоннинг ижтимоий муҳитда таркиб топиши ҳамда ривожланиши саналади. “Рухий фаолиятнинг махсус ҳолдаги (вазиятдаги) объектив шарт – шароитлари сифатида одамларнинг ҳаёти, умумий яшаш шароити ётади,” - деб ёзади С.Л. Рубинштейн.

Инсоннинг ўз – ўзини англаш жараёнидаги субъектлилиги билан амалга оширишга мўлжалланган алоқасининг шаклланиши ва оқибат натижада юзага келадиган янги сифатий ҳолат ундаги олдинги ички зиддиятлардан тамоман фориғ эканлигини билдиради. Ўз – ўзини англашни унинг субъекти билан бир даврда ўрганиш бизнингча, руҳият билан ижтимоийлик ўртасидаги муносабат муаммосини ҳал қилишда зарур, муҳим имконият, қулай шарт – шароит яратиб беради.

Демак, бу илмий ёндашувда ўз – ўзини англашнинг узлуксиз руҳий жараён сифатида такомиллашуви инсоннинг бошқа одамлар тўғрисидаги тасаввурлари ва уларнинг унга нисбатан муносабатлари ўртасидаги зиддият

билан белгиланади. Одатда инсон ўзи ҳақида фикр юритаркан, албатта, у ўзининг бошқа одамлар билан кечадиган ўзаро муносабатлари натижасини таҳлил қилади ва уларнинг самарали эканлигига асосланиб ўз “Мен”лигини яратади.

С.Л. Рубинштейн ва К. А. Абулханова – Славскаялар ўз – ўзини англашнинг ички моҳияти икки негиз (асос) билан тавсифланишини таъкидлайдилар. Биринчиси – инсоннинг атроф – муҳит ва шахслараро муносабатларининг мазмунидан иборатдир. Иккинчиси эса, ана шу муносабатлар тўғрисида уни фикр юритиш имкониятининг ифодасидир. Шунга мувофиқ биринчи негиз ижтимоий, яъни объектив хусусиятига эга бўлса, иккинчи негиз субъектив, бинобарин, инсоннинг психофизиологик ва руҳий хусусиятларига боғлиқдир. Ҳар иккала асоснинг ўзаро бир – бири билан мос келиши ёки мос келмаслиги ўзлик, “Мен”лик тўғрисидаги аниқ, ҳаққоний тасаввурларни вужудга келтиради. Муаллифларнинг мулоҳазасига кўра, ижтимоийлик - инсоннинг онгига ва руҳиятига кириб боради. Натижада онг ўзи – ўзини англашнинг ҳамда идора қилишнинг манбаига айланади. Охир оқибат инсоннинг ижтимоийлашуви деганда – унинг онгига қаратилган ижтимоийлашуви назарда тутилади ва ана шу тариқа ўз – ўзини англашнинг ижтимоийлашувдаги ўрни ҳамда унинг роли ортади. Мазкур ёндашувга биноан, ўз – ўзини англаш жараёнида руҳият ва ижтимоийлашув ўртасида муттасил равишда ўзаро муносабатлар вужудга келади. Муносабатларнинг ўзаро мазмуни боғлиқлиги натижасида ўз – ўзини англаш шаклланиб боради.

Бизнингча, инсонда ўз – ўзини англашнинг субъектликка қаратилишининг ўзида ижтимоийлик мавжуд. Шунинг учун руҳият билан ижтимоийлик ўртасидаги масалаларни махсус муаммо сифатида ажратиш, талқин қилиш ғайритабиийликдир.

Шахс ўз – ўзини англаганлиги туфайли эмас, балки ўзида ўз – ўзини англашга нисбатан ички мотив ва эҳтиёжлар мавжудлиги учун ҳам у шахсдир. Ижтимоийлик ҳудди шу тариқа инсонда ўз – ўзини англашга нисбатан зарурий талаб, эҳтиёжни ўзида ифодалайди. Шундай экан, инсон томонидан ўзининг ижтимоийлашуви, яъни инсонийлик даражасида англаш, психологик нуқтаи назардан унинг ички эҳтиёжлари, қизиқишлар, интилишларнинг моҳиятини тушуниш ҳамда шу аснода ўзининг ҳаёти, фаолияти юзасидан шахсий мақсадларини яратиш жараёнидир.

Хулоса қилиб айтганда, юқоридаги фикр – мулоҳазалардан келиб чиқиб, ахлоқий ўз – ўзини англашга, биз қуйидагича, таъриф беришимиз мумкин:

Ахлоқий ўз – ўзини англаш бу ўз – ўзини инсон сифатида тасдиқлаш ҳамда ўзлигида инсонийликни шакллантиришга нисбатан интилишдир. Шахс ўз – ўзини инсон сифатида эътироф этмас экан, унда инсонийлик фазилатлари вужудга келиши қийин.

Ўз – ўзини англаш - инсон учун ана шу эътирофни амалга оширувчи муҳим восита ва унинг намоён бўлиш жараёни ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Рубинштейн С.Л. “Основы общей психологии.” - М.: ВДАДОС, 1987.
2. Леонтьев А.Н.- «Проблемы развития психики»
3. Леонтьев А.Н. “Лекции по общей психологии” М., 2000
4. Давлетшин М. Г. «Умумий психология» Т-2000й.
5. Немов Р. С. «Психология» Т. 1998й

OILADA FARZAND TARBIYASIDA INTERNET VA IJTIMOYIY TARMOQLARNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

*Karayeva Y.X PhD, Alixanova Yu.
Termiz davlat universiteti*

Annotatsiya; Ushbu maqolada internetning psixologik ta’sirlarini tahlil qilingan bo’lib, internetning ijtimoiy munosabatlarda o’z-o’zini anglash va ruhiy salomatlikka ta’siri ko’rsatish omillari tadqiq etiladi. Shu bilan birga raqamli muhitda muloqot qilish usullari va ijtimoiy tarmoqlarda o’zaro aloqalar yoritilgan.

Tayanch so’zlar: Ijtimoiy tarmoq, raqamli muloqot, foydali aloqalar, psixologik ta’sir, stress, identitet, internet.

Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning iloji yo’q. Hozirgi kun nuqtayi Nazari bilan qaraydigan bo’lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o’zining tezkorligi, chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot olamida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizda tutgan o’rnini inkor qilib bo’lmaydi. Deyarli kun davomidagi ko’p ishlarimiz tezda hal bo’ladi. Albatta bu og’irimizni yengil, uzog’imizni yaqin qiladi. Deyarli barcha yangiliklardan xabardor bo’lamiz. Ammo internet va ijtimoiy tarmoqlarning tahlikali jihatlaridan ham ko’z yuma olmaymiz, ijtimoiy tarmoqlarga nafaqat vaqtimiz, balki, ruhiy salomatligimizni ham boy beryapmiz.

2017-yilda Avstriyalik tadqiqotchilar tomonidan o’tkazilgan tajribada 20 daqiqa Facebookdan foydalanish ruhiy holatda kayfiyatsizlik, alamzadalik va tushkunlikni paydo qilishi aniqlangan. Boshqa bir tadqiqotda esa yaxshi va yomon kayfiyat ijtimoiy tarmoqlardan tarqalishi ta’kidangan.

Ijtimoiy tarmoqlar inson ruhiyatiga turli jihatdan ta’sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar odamlar o’rtasida aloqa va munosabatlarni osonlashtiradi, lekin ba’zida yolg’izlik hissi va ijtimoiy izolatsiyaga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda keng ko’lamdagi ma’lumotlar tarqalishi ruhiyatga ijobiy yoki salbiy ta’sir qilishi mumkin, ammo, yolg’on va salbiy xabarlar tashvish va qo’rquvni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi mukofotlanish va izohlarga ega bo’lish kabi omillar stressni kuchaytirishi mumkin. Shuni ham ta’kidlash joizki internet tarmoq foydalanuvchilari boshqalar bilan o’zini solishtirishi, tenglashtirishi salbiy his tuyg’ularni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy oqibatlari shundaki odamlar onlayn munosabatlarga qaram bo’lib, haqiqiy real ijtimoiy munosabatlarga e’tibor kamayib ketmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarga ko’p vaqt sarflash esa real hayotdagi

muhim faoliyatlatni e'tiborsiz qoldirishga olib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoq ko'rsatkichlari masalan, „like“larning ahamiyati insonlarning hayotdan rozi bo'lmaslikka olib kelishi mumkin

Ushbu salbiy tomonlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni ehtiyotkorlik bilan boshqarishni taqozo qiladi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlarning inson ruhiyatiga ta'siri murakkab va ikki tomonlama bo'lib ularni qanday foydalanishimizga qarab, ruhiyatimizga ta'siri ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar odamlarni birlashtiradi, uzoqdagi do'stlar va oilalar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Foydalanuvchilar turli mavzularda ma'lumot va tajribalarni osonlik bilan baham ko'rishlari mumkin, bu bilim va tafakkurni kengaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali xabarlar va fikrlar tezda auditoriyaga yetib boradi, bu muhim voqealar va tadbirlar haqida ma'lumot tarqalishga foydali hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yanggi do'stlar orttirish, biznes tarmog'ini kengaytirish va ish imkoniyatlari haqida malumot olish mumkin. Foydalanuvchilar o'z ijodiy ishlarini namoyish etish, fikrlarini ifodalash va o'z brendlarini yaratish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy muammolarni ko'tarish va adolat uchun kurashayotgan odamlarni birlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda muayyan muammolar bilan shug'ullanayotganlar uchun qo'llab-quvvatlash guruhlari mavjud bo'lib bu ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda muammolarni hal etish uchun quyidagi yechimlar taqdim qilinadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda o'tkaziladigan vaqtni cheklash uchun vaqt belgilash va monitoring qilish. Masalan kuniga 30 daqiqa yoki ma'lum soatlarda foydalanish. Faoliyatimizni yaxshilash uchun ishonchli manbalardan ma'lumot olish va salbiy yoki yolg'on xabarlardan saqlanish.

Ijtimoiy tarmoqlarda do'stlar va kuzatuvchilar tanlashda, ijobiy fikr va qo'llab-quvvatlovchi odamlarni tanlash. Online va real hayot o'rtasidagi muvozanatni saqlash real ijtimoiy aloqalarga e'tibor berish. Qiziqishlarga asoslangan guruhlarga qo'shilish va hamfikrlar bilan muloqotda bo'lish, bu yordam va qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, parollarni kuchaytirish va online ta'qibdan saqlanish choralarini ko'rish. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalangandan so'ng o'z hissiyotlaringizni tahlil qilish, ular salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash.

Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, dunyoda g'oyaviy hamda information xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, „biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasini bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishga beparvo qarab tura olmaymiz“.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: «O'zbekiston», 2017. B.6.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni O’RQ-637 / <http://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907-sonli Qarori // <http://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonuni O’RQ-406 / <http://lex.uz>

OILAVIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHIDA ALTURIZM XUSUSSIYATINING PSIXOLOGIK FENOMENLARI

Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna
Termiz davlat universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Hozirgi kunda respublikamizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 64 foizini tashkil etadi. Shuning uchun ham yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga yetishiga huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz, jamiyatimizning kelajagi bo'lgan yoshlarda ma'naviy yuksaklik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida ahloqiy, hissiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni tarbiyalash mustaqil mamlakatimiz hayotida ustivor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin.

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri alturizmdir. Psixologiyada “alturizm” tushunchasi turlicha yondashuv asosida tahlil qilingan bo'lib, bir guruh tadqiqotchilar alturizmni pozitiv xulq-atvor modeli sifatida baholasalar, yana bir guruh tadqiqotchilar bu xulq-atvorning negativ tomonlari ham mavjudligini ta'kidlaydilar.

Altruizm (lot. alter - boshqa, boshqalar) - boshqalarning farovonligi uchun beg'araz g'amxo'rlik bilan bog'liq faoliyatni anglatuvchi tushuncha; fidoyilik tushunchasi bilan, ya'ni o'z manfaatlarini boshqa shaxsning, boshqa odamlarning yoki umuman olganda - umumiy manfaatlar uchun qurbon qilish bilan bog'liq.

"Altruizm" atamasi faylasuf Ogyust Kont tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan, uning fikricha, altruizm "boshqalar uchun yashash" me'yorining timsolidir, insoniyat jamiyatini yanada insonparvarlashtirish sari o'zgartirishning

harakatlantiruvchi kuchidir¹. Shu bilan birga, Kont altruizmga asoslangan axloqqa, xristian axloqiga, uning fikricha, najotga intilishdan kelib chiqqan holda, o'zini xudbinlik ko'rinishi deb hisoblagan. Kont altruizmning ikki turini aniqladi: hayvonlarga xos (instinktiv altruizm) va insonga xos bo'lgan, sivilizatsiya ta'sirida rivojlanib, tug'ma bo'lib qoladi .

Alturistik insonlarga quyidagi xislatlar bo'lishi kerak: mehribonlik, saxiylik, rahmat, beg'arazlik, boshqa odamlarga hurmat va sevgi, zodagonlik. Alturistik insonlar mehribonlik uylari, kasalxonalar yoki qariyalar uyiga o'zlarini beg'araz yordamlarini bersalar bo'ladi. Yoki bo'lmasa otasi yoki onasi vafot etgan bolalarga yordam bersalar bo'ladi chunki oilasida otasi yoki onasi yo'q bolalar kimningdir mehr e'tiboriga muhtoj bo'lishadi. Ularga shu vaqtda mehr berib ulatni hayotda o'z o'rinlarini topishida yordam berish ham alturizmga misol bo'la oladi. Alturistik insonlarga quyidagi xislatlar bo'lishi kerak: mehribonlik, saxiylik, rahmat, beg'arazlik, boshqa odamlarga hurmat va sevgi, zodagonlik. Alturistik insonlar mehribonlik uylari, kasalxonalar yoki qariyalar uyiga o'zlarini beg'araz yordamlarini bersalar bo'ladi. Yoki bo'lmasa otasi yoki onasi vafot etgan bolalarga yordam bersalar bo'ladi chunki oilasida otasi yoki onasi yo'q bolalar kimningdir mehr e'tiboriga muhtoj bo'lishadi. Ularga shu vaqtda mehr berib ulatni hayotda o'z o'rinlarini topishida yordam berish ham alturizmga misol bo'la oladi.

Psixologik nuqtai nazardan, altruizm ko'pincha sodiqlik, hamdardlik, rahm-shafqatga asoslangan mazmunli, erkin va boshqalardan hech qanday foyda kutmaydigan xizmat sifatida ta'riflanadi, altruist esa o'z xohish-istaklaridan voz kechishi, farovonligini qurbon qilishi mumkin. Psixologiyada u ba'zan ijtimoiy xulq-atvor yoki uning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi.

Axloqiy alturizm-Altruizmning axloqiy tomonini I. Kantning axloqiy imperativi orqali tushunish mumkin. Inson tomonidan o'zlashtirilib, axloqni u yoki bu tushunish vijdon kabi shaxslararo ta'limga aylanishi mumkin, buning asosida inson muayyan manfaatlarga intilishdan emas, balki harakat qiladi. Shunday qilib, axloqiy altruizm o'z vijdoniga muvofiq harakat qilishdan iborat.

Axloqiy altruizmning yana bir shakli yoki bitta tushunchasi-bu G'arb jamiyatlarida keng tarqalgan ijtimoiy institutlar adolat haqidagi g'oyalar doirasida tushunishdir. Adolat haqidagi g'oyalar doirasida inson ko'pincha ijtimoiy munosabatlar dunyosida haqiqat va uning g'alabasi uchun, shuningdek, turli xil adolatsizliklarga qarshi fidokorona harakat qilishga tayyor deb qaraladi.

Haqiqiy alturizm nafaqat qarindoshlari, ota-onalar balki notanish odamlarga ham yordam berishga tayyorlikdir. Va eng muhimi, bunday kishi minnatdorchilik uchun yordam bermaydi. U boshqa odamni bergan yordami bilan qaram qilib qo'yishni maqsad qilib olmaydi. Alturizm boshqalarni boshqarmaydi, ularga hizmat ko'rsatishning ko'rinishini ko'rsatadigan xizmatlarni taqdim etadi. Masalan, ko'chada o'ynayotgan bolalarni qaysi biridir yig'lab tursa u mutloq begona bo'lsa ham uni borib ovutish va uni kayfiyatini ko'tarish uchun unga konfet yoki qandaydir shirinlik

berish va kayfiyati tezda ko'tarilib ketadi bunday beminnat yordam berish o'smirlar psixologiyasida altruizmning ijobiy ta'sirini ifodalaydi.

Ota-onalik- foyda haqida o'ylamasdan va kelajakka qo'shgan hissasini ko'rib chiqmasdan, barcha yaxshiliklarni berishga tayyor shaxslardir. Bunday ota-onalar bolalarning shaxsiy manfaatlari bilan harakat qilishadi va ularning bajarilmagan orzularini amalga oshirishlariga yordam berishadi. Ota-onadagi alturizmni ongsizlik desak bo'ladi, chunki ona hech qachon bolalariga bergan tarbiyasi mehri va farzandlari uchun o'tkazgan yillari uchun minnatdorchilik kutmaydi.

Xulq atvorning alturizmga xos xususiyatlarning shakllanishida o'qish va mehnat faoliyati yetakchi rol o'ynaydi, chunki o'qish va mehnat jarayonida qo'llaniladigan individual usullar xulq – atvorga ta'sir etib, uning ayrim xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ko'pgina xususiyatlar o'zgaga taqlid qilish natijasida ham paydo bo'ladi. Xulq atvorga janjalli (nizoli) vaziyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Inson umrining oxirigacha o'z xatti – harakatlarini boshqarib, xulq atvorini o'zi baqarorlashtirgan bo'lsa, hayotidagi barcha vaziyatlarga shunchalik oqilona va qat'iyatlilik bilan yondashiladi.

Oilada yangi tug'ilgan farzand teta-poya qilib yura boshlagan onlardanoq oilaning kattalari uni erkalatishlar orqali shirin muomalaga o'rgatadi, kattalarga xurmat, kichiklarka g'amxo'rliq izzat tushunchalari xam oilada tarbiyalanadi.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar Oilada yangi tug'ilgan farzand teta-poya qilib yura boshlagan onlardanoq oilaning kattalari uni erkalatishlar orqali shirin muomalaga o'rgatadi, kattalarga xurmat, kichiklarka g'amxo'rliq izzat tushunchalari xam oilada tarbiyalanadi.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar va ularning zimmasida katta masulyat yuklanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev SH. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent-“O'zbekiston”-2017.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - Toshkent, 2007.
3. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. –T. Fan.2003.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2010.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

*Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi golballashuv sharoitida, jadal rivojlanish natijasida oilaviy qadriyatlarimizning shakllanish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, nizolar va ularni bartaraf etish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: golballashuv, oila, qadriyat, oilaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, nizo, keksa avlod, ma’lumotlar oqimi.

Аннотация. В данной статье упоминаются проблемы и конфликты, возникающие в процессе формирования наших семейных ценностей в результате стремительного развития в современных условиях глобализации, и пути их устранения.

Ключевые слова: глобализация, семья, ценности, семейные ценности, семейные отношения, конфликт, старшее поколение, информационный поток.

Annotation. In this article, the problems and conflicts arising in the process of formation of our family values as a result of rapid development in the current globalization conditions and the ways of their elimination are mentioned.

Keywords: globalization, family, value, family values, family relations, conflict, older generation, information flow.

Oila – bu muqaddas dargoh. Oila jamiyatimizning bir bo‘gini. U nikoh yoki qon-qarindoshlik munosabatlariga asoslanib quriladi. Oilalar a‘zolar soni bilan bir-biridan farq qiladi. Oila odamlarni birgalikda yashash sharoitlari, yaqinlari uchun javobgarlik hissi, axloqiy va huquqiy normalar bilan birlashtiradi. Odatda oilaning asosini hurmat, muhabbat, ehtirom va o‘zaro kelishuv tashkil etadi. U jamiyatning har bir a‘zosi tug‘ilib o‘sadigan, shakllanadigan makon. Yaqin insonlarning bir-biriga ulashadigan samimiy his-tuyg‘ulari va munosabatlari, farzandlariga bo‘lgan muhabbati, faxri, o‘zaro ishonchi oilani o‘ziga xos va takrorlanmas birlik sifatida namoyon qiladi. Oilaviy qadriyatlar oila hayotining asosiy prinsiplarini belgilab beradi hamda o‘z ichiga avloddan avlodga meros bo‘lib qoladigan an‘ana, urf-odat, xatti-harakat va qarashlar normalarini qamrab oladi. Ularga oiladagi o‘zaro muhabbat va samimiyat, mas’uliyat, samimiy muloqot, o‘zaro qayg‘urish va qo‘llab-quvvatlash, hurmat, kechira olish (kompromissga borish), ishonch, an‘analarni misol qilib keltirish mumkin.

Oila va oilaviy qadriyatlar, aslini olganda, inson hayotida bor bo‘lgan eng qadrlil va kerakli yutuqdir. Albatta, ishdagi muvaffaqiyat, do‘stlar bilan muloqot, ta’lim kabi muhim kategoriyalar ham mavjud. Ammo oila bu sokin va ishonchli baxt asosidir.

Oilaviy an‘analar va qadriyatlarni shakllantirishning dolzarbligi shundan iboratki, ular farzandlarning hayotiy tanlovlari (prinsiplari) va yo‘nalishlarini belgilab beradi. Oilaviy qadriyatlar xulq-atvorga ishora, munosabatlar asosi; his-tuyg‘ularning haqqoniyligi; o‘tmish bilan bog‘liq xotira sifatida namoyon bo‘ladi. Oilada

shakllanayotgan farzandlarni o‘zi va uni qurshab olgan olam bilan uyg‘unlikda yashashga o‘rgatish har bir ota-onaning va oilaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunga kattalarni hurmat qilish, rostgo‘y bo‘lish, turli xil insonlar bilan muloqot qilish va kelishish ko‘nikmalari kabilar misol bo‘ladi. Oila instituti shakllanishi davomida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelgan. Bugungi kungi oilalarning ham shu kabi qiyinchiliklari bor, shu bilan birgalikda, yangi muammolar ham kelib chiqmoqda.

Oilaning doimiy muammolariga yashash joyi, iqtisodiy resurslarga yetishish, hayotni yo‘lga qo‘yish, qarindoshlar bilan muloqot qilish, bir-birlari bilan muzokaralar olib borish, oilada hokimiyatni bo‘lishish, bolalarni tarbiyalash, ularni o‘qitish, ishga joylash kabilar kiradi. Bularning barchasiga qo‘shimcha ravishda zamonaviy muammolar paydo bo‘ldi. Eng kattasi oila a‘zolarining bir-birini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro yordam berish, ota-onalarning farzandlariga vaqt va e‘tiborining yetishmasligi, axborot oqimining jadalligi va uni olish imkoniyatining ko‘pligi bolalar tarbiyasiga va qiziqishlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Oilaviy qadriyatlar haqidagi g‘oyalar o‘zgarmoqda. Agar ilgari oilani atrofdagi barcha insonlar qo‘llab-quvvatlashga intilgan bo‘lsa, endi bu holat tobora kamayishi kuzatilmoqda. Ajralishlar soni va oiladagi zo‘ravonliklar ortib bormoqda. Oilaning parchalanishiga to‘sqinlik qilgan qadriyatlar va me‘yorlar o‘z-o‘zidan parchalanmoqda. Mazkur muammolarni o‘z vaqtida va tizimli yechish maqsadida oila va ta’lim institutlari, mahalla va jamoatchilikning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega. Hayotimizda foydalanadigan oila modeli bizning dunyoqarashimizda qanday shakllangan? Bu asosiy uchta omilga bog‘liq.

- Birinchisi, tug‘ilib o‘sgan oilamizning namunasi.
- Ikkinchisi, atrofdagi oilalar va insonlarning o‘zaro munosabatlari.
- Uchinchisi, atrofdagi axborot oqimi, ya’ni kino, kitob, madaniyat namunalari va h.k. Bu bilan bog‘liq qanday muammolar bor?

Zamonaviy ota-onalarning vaqt hamda o‘zaro samimiy muloqotining yetishmovchiligi yoki ota-onalarning deviant xulq-atvori farzandlar dunyoqarashiga bevosita ta’sir qiladi. Ular ideal oila modelini atrofdan qidira boshlaydi va bir necha xil oila modellarini, o‘zini tutish ssenariylarini o‘zi uchun kashf qilishlari mumkin. Axborot olishning eng yengil usuli turli gadjetlar orqali yoki OAV orqali tasavvurlarini boyitish ekanligi hech kimga sir emas. Hozirda mazkur muammo dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki ko‘p hollarda ota-onalar farzandlarining olayotgan axborotlarini nazorat qilishga ulgurmay qolishmoqda. Turli tarmoqlar, krossplatformalar orqali olinayotgan ma’lumotlar bolalarning qiziqishlari, xulq-atvori va dunyoqarashini shakllantirmoqda. Bu, o‘z navbatida, avlodlar o‘rtasidagi turli tushunmovchilik va ziddiyatlarga olib kelishi kuzatilmoqda. Shuning uchun oiladagi tarbiya oilaviy qadriyatlarni shakllantirishning asosiy omili bo‘lishi juda muhim ahamiyatga ega.

Eng yaxshi tarbiya – bu shaxsiy namuna. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytilmagan. Agar unib, o‘sib kelayotgan yosh avlod ota-onasi bir-birini hurmat qiladigan, baxtli oilada yashasa, shu samimiyatni har kuni ko‘rsa, u kelajakda o‘z oilasini ham shu tarzda yaratishga, shu kabi norma va qadriyatlar asosida yashashga

harakat qiladi. Oila a'zolarining birgalikda vaqt o'tkazishlari juda muhim. Bugungi jadal va tahlikali zamonda ham oila a'zolari o'zara ishonch va muloqotni yo'qotmasliklari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, otaona har kuni o'z farzandlariga vaqt ajratishni o'zlari uchun an'anaga aylantirsa, buni baxt deb bilishsa, farzandlarining yutuqlarini qo'llab-quvvatlasa, xafa bo'lganiga taskin bersa, oilaning jipsligi oshadi va farzandlar tarbiyasidagi muammolarning oldi olinadi. Erta bolalikdan bolalarda ishonchli va ochiq muloqot qilish istagini qo'llab-quvvatlagan oilalarda otalar va bolalar o'rtasidagi tushunmovchilik, turli muammolar chetlab o'tiladi.

Oilaviy qadriyatlar oilaning faxridir. Oilaviy qadriyatlarning shakllanishi va yaratilishida keksa avlodning o'rni beqiyos. Udum va urf-odatlar vaqt o'tib qadriyatlarga aylanishi mumkin. Oilada sodir bo'lgan bir voqea shunchaki xotirada saqlansa, avlodlar mulkiga aylanmaydi. Hikoya qayta-qayta aytilmasa, yo'qoladi yoki unutiladi. Keksav avlod bilan birga yashamaydigan oilalar uchun bolalar bilan ularni ko'rishga borish, qo'ng'iroq qilish, ularni e'zozlash muhim ahamiyatga ega. Bolalarning bobosi va buvisiga bo'lgan samimiy g'amxo'rlikni ko'rishlariga imkon berish juda muhim. Bu xatti-harakatlar ular uchun an'anaga va oilaviy qadriyatga aylanadi. Zero, mehr bergan yurak mehr beradi. Oilada oila a'zolarining har biri rioya qilishi kerak bo'lgan asosiy qoidalar bo'ladi. Bolalarni haddan tashqari erkab, qoidalarga rioya qilmasligiga qo'yib berish, tarbiyasining buzilishiga olib keladi. Bu ota va onaga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Oilada ushbu oddiy tamoyillarga amal qilish bolalarga kelajakda baxtli oila uchun zamin bo'ladigan to'g'ri munosabat, me'yorlar va qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bugungi kunda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda ta'lim institutining o'rni katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Oiladagi qadriyatlar va maktabdagi ta'limning uyg'unligi, hamkorligi har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish imkonini beradi. Ota-ona va farzandlarning birgalikda vaqt o'tkazish imkoni yetishmayotgan paytda bolalar har kuni boradigan va kunduzgi vaqtining aksariyatini o'tkazadigan ta'lim dargohlarida oilaviy qadriyatlarni singdirish imkoni mavjud. O'qituvchilar turli shakllarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha tadbirlarni tashkil qilishlari mumkin. Bu tadbirlarga ota-onalar ham jalb qilinishi mumkin. Masalan, qo'shma oilaviy bayramlar, sport tadbirlari, ota-onalar bilan rolli o'yinlar, oilaviy qadriyatlar haqida sinf soati, onalar kuniga bag'ishlangan tadbir va h.k. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, baxtli va ahil oila yosh avlodning to'liq hayot kechirishi, o'sishi va rivojlanishi uchun mustahkam asosdir. Oila, ta'lim instituti va jamoatchilik fikrini shakllantirish vositalari tomonidan oilaviy qadriyatlarni shakllantirish, ularni asrash va himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abramson A. 8 Family Values All Parents Should Incorporate, According to Child Development Experts. <https://www.fatherly.com/love-money/family-values-all-parents-should-enforce/>

2. Куркин В. Проблемы семейных ценностей в 21 веке
<https://vadimkurkin.com/blog/psikhologiya-otnosheniy/problemy-semeynykh-tsennostey-v-21-veke/>

3. Семья и семейные ценности. https://dunilbol.edu.yar.ru/15_maya_minus_mezhdunarodniy_den_semi.html

4. Семья и семейные ценности: формирование семейных ценностей в школе.

5. Melikboboyevich, s. u., Sattorovna, b. r. d., Tillayevna, b. b., & Badalovna, c. n. Oilada farzandga tarbiya berish uslublari va ularning shakilanishi. "Modern education and development" international interdisciplinary research journal 2024 yil.

KEKSALIKKA MOSLASHISHDA QADRIYATLARNING O'RNI

Jumayeva Guljahon O'ralovna

Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Keksalik davriga moslashishda qadriyatlarning o'ri, oila qadriyatlari, ana'analar, urf-odatlar hamda keksalarning qadriyatlari jamiyatni birlashtiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi, yoshlarga hayotiy ko'nikmalar va an'analarni o'rgatishda muhim rol o'ynashi, bu qadriyatlar jamiyat barqarorligi va kelajak avlodning ijobiy shakllanishiga xizmat qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oila, keksalik, moslashish, urf-odatlar, ana'analar, kelajak avlod, ijtimoiy ma'suliyat, sog'lom turmush, hayot mazmuni, bilim, intilish.

Keksalik - bu psixologik jihatdan katta o'zgarishlarni talab qiladigan o'ziga xos yosh-davr. hisoblanadi. An'anaga ko'ra, qarish tanazzul va pasayish jarayoni sifatida qabul qilinsada, bu davrda insonda rivojlanish jarayonlari ham sodir bo'ladi. Jumladan, kishining keksalikda yashagan yigirma-o'ttiz yil umri aynann shu yoshga xos bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni egallash uchun etarli davr bo'lib, aksariyat hollarda hayotni faollashtirish va hayot sifatini yaxshilash uchun zaruriy shart bo'lib xizmat qiladi.

Keksalik davrining dastlabki nazariyalaridan biri amerikalik olimlar E. Kuming va U. Genrilar tomonidan 1961-yilda yaratilgan bo'lib, bu dissotsiatsiya nazariyasidir. Ushbu nazariyaga J. Rozen, Xayurst va B. Nyugarten tomonidan olingan empirik ma'lumotlar asos bo'lgan

Bugungi kunda xam inson hayoti davomida uning yoshi o'tgan sari qadriyatlari o'zgarishining umumiy modeli masalasi munozarali bo'lib qolmoqda. Tarixan yoshlarning yanliklarga intilishi, keksalar esa ana'analar tarafdori bo'lib qolishi haqidagi stereotip ustun bo'lib kelgan va hozirda ham ushbu qarash hukmronlik qilib kelmoqda. 1960-yillarda psixolog va sotsiologlar "uzoqlashish" nazariyasini ilgari surdilar, unga ko'ra, inson yoshi ulg'aygan sayin, u asta-sekinlik bilan ijtimoiy aloqalar va funktsiyalardan uzoqlashadi va uni yo'qotadi. Xususan, E. Kamming va V. Genri [Cumming, Henry 1961] keksalikni "rolsiz rol" deb atashgan va bu davrda ijtimoiy rolning o'zgarishi qadriyatlarni qayta baholashga olib keladi deb hisoblagan. D. Bromley [Bromley 1966] bunday "uzoqlashish, uzilish" ni keksalar jismoniy va

aqliy qobiliyatlarning susayishi, va bu keksalarning psixologiyasi va dunyoqarashida aks etishi muqarrarligi bilan izohlagan.

Keksayishning ijtimoiy-psixologik nazariyasiga ko'ra, keksalikning boshlanishi bilan shaxsning qadriyatlar tizimi ham o'zgaradi. Inson hayoti davomida rivojlanishi nazariyasi, ijtimoiy-emotsional selektivlik nazariyasi va maqsadga yo'naltirilgan rivojlanish nazariyasi kabilar xuddi shunday qarashni ilgari suradi. Hayot davomida rivojlanish nazariyasi vakili P. Baltes [Baltes 1987] shaxsning rivojlanishini organizm moslashish qobiliyatining o'zgarishi deb hisoblaydi va shunga mos ravishda qarish shaxsning yashash sharoitlariga tana o'zini yangi biologik holat tufayli kelib chiqqan tabiiy yo'qotishlar va ular tufayli shakllangam yangi tajribalarga moslashishi deb tushunadi.

Keksalarda qadriyatlar jamiyatning tarixi, madaniyati va tajribasini aks ettiradi. Ularning qadriyatlari odatda mustahkam hayotiy prinsiplar va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, yoshlarga hayotiy saboqlar va ko'nikmalarni o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Quyida keksalar orasida keng tarqalgan ba'zi qadriyatlar keltirilgan:

Oila va o'zaro hurmat: Ko'p keksa kishilar oila qadriyatlarini eng asosiy va muhim deb bilishadi. Ular oila a'zolariga mehr-muhabbat ko'rsatishni, o'zaro hurmatni va qo'llab-quvvatlashni yuqori qadrlashadi. Ular uchun oilaviy bog'lanishlar, oilaning yaxlitligi va birdamligi katta ahamiyatga ega.

An'analar va urf-odatlariga sodiqlik: Keksalar madaniy an'analarga va diniy urf-odatlariga sodiqlikni qadrlashadi. Ular madaniyat va diniy marosimlarni saqlash va avloddan-avlodga o'tkazishni jamiyat barqarorligi va birligini ta'minlashda muhim deb biladilar.

Mehnatsevarlik: Keksalar orasida o'z kuchlari bilan mehnat qilish, halol va vijdonan ishlash qadriyatlari yuqori baholanadi. Ular mehnatning hayotdagi o'rni va insonning muvaffaqiyatga erishishida sabr-toqat va mashaqqatning ahamiyatini e'tirof etadilar.

Sabrlilik va qanoat: Hayotiy tajribaga ega bo'lgan keksalar uchun sabr va qanoat muhim qadriyatlardan hisoblanadi. Ular murakkab vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash va hayotga real qarashni o'rganish haqida yoshlarga maslahat berishadi.

Ijtimoiy mas'uliyat va mehr-oqibat: Keksalar ijtimoiy mas'uliyatni va o'z atrofidagi odamlarga mehr ko'rsatishni qadrlaydilar. Jamiyatdagi zaif va yordamga muhtoj kishilarga yordam berish, mehribonlik ko'rsatish ular uchun odatiy qadriyatdir.

Milliy va madaniy merosni qadrlash: Ular o'z milliy tarixini, urf-odatlarini va o'ziga xosligini qadrlashadi. Bu merosni saqlash va yosh avlodga yetkazish vazifasini o'z zimmalariga olishadi.

O'quv va bilimga intilish: Ko'p keksalar hayot davomida o'rganish va o'z bilimlarini oshirishni qadrlashadi. Ular uchun kitob o'qish, yangi ma'lumotlar olish va dunyoqarashni kengaytirish muhim qadriyat sanaladi.

Keksalarning qadriyatlari jamiyatni birlashtiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, yoshlarga hayotiy ko'nikmalar va an'analarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Bu qadriyatlar jamiyat barqarorligi va kelajak avlodning ijobiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Keksalikka moslashishda qadriyatlarining o'zni juda katta, chunki bu davrda insonlar ko'pincha turli o'zgarishlar va qiyinchiliklarga duch keladilar. Keksalar o'z qadriyatlari orqali yangi hayot sharoitlariga, o'zgarayotgan jismoniy va ruhiy holatga moslashishda kuch va ma'no topadilar. Quyida qadriyatlarining keksalikka moslashishda qanday rol o'ynashi haqida ba'zi nuqtalar keltirilgan:

Hayot ma'nosini topish: Keksalik davrida ba'zi shaxslar uchun kasbiy faoliyat tugaydi, farzandlar voyaga yetadi va yangi hayot yo'nalishlari paydo bo'ladi. Shu vaqtda qadriyatlar keksalarga o'z hayotining ma'nosini qaytadan kashf etishga yordam beradi, o'zini jamiyatning muhim bir qismi sifatida his qilishlariga xizmat qiladi.

Sabrlilik va ijobiy qarash: Keksalar odatda sabr va qanoat kabi qadriyatlarni yuqori qadrlashadi, bu esa hayotning so'nggi davriga optimistik qarash imkonini beradi. Bu qadriyatlar qiyinchiliklarni yengib o'tishda va hayotni xotirjam qabul qilishda yordam beradi.

Sog'lom munosabatlarni saqlash: Ko'plab keksalar o'z qadriyatlariga asoslangan holda oilaviy va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishadi. Ular uchun yaqinlari va do'stlari bilan muloqotda bo'lish muhim bo'lib, bu ularga ijtimoiy qo'llab-quvvatlov va xavfsizlik hissini beradi.

An'analar va ma'naviy e'tiqodlarga sodiqlik: An'analar va e'tiqodlar keksalarga o'z hayotini ma'nolantirish va o'zligini saqlashda yordam beradi. Bu qadriyatlar orqali ular hayotlaridagi o'zgarishlarni qabul qilishlari osonlashadi va jamiyat bilan bog'lanish hissi saqlanadi.

Yoshlarga maslahat va o'rgatish: Ko'pgina keksalar uchun o'z tajribalarini yoshlarga yetkazish, maslahat berish, bilim va qadriyatlarini ulashish muhim ahamiyatga ega. Bu ular uchun yangi vazifani – avlodlar o'rtasida bilimlar ko'prigini yaratish imkoniyatini beradi va o'zlarini jamiyatga foydali his qilishlariga imkon yaratadi.

Sog'lom turmush tarziga intilish: Keksalar uchun sog'lom turmush tarzi qadriyatining ahamiyati ortadi, chunki ular sog'lig'ini asrash orqali hayot sifatini saqlab qolishga harakat qilishadi. Bu qadriyatlar ularni doimiy jismoniy mashqlar qilish, to'g'ri ovqatlanish va ruhiy xotirjamlikka intilishlariga undaydi.

Hayotiy maqsad va rejalarga sodiq qolish: Ba'zi keksalar yoshligidan erishgan maqsadlarini yodga olish yoki yangi maqsadlar qo'yish orqali hayotda faol qolishga harakat qiladilar. Bu qadriyat keksalikda ham hayotdan zavqlanishga va o'zlarini foydali his qilishlariga yordam beradi.

Keksalik davrida qadriyatlar insonlarga hayotiy vazifalarni qayta ko'rib chiqish va yangi sharoitlarga moslashishda psixologik tayanch sifatida xizmat qiladi. Bu qadriyatlar orqali inson o'z-o'zini qadrlash, jamiyat bilan bog'lanish va hayotga ijobiy qarash imkoniyatini topadi.

Adabiyotlar

1. Райгородский Д. Я. Учебное пособие по психологии старости. Самара: Издательский Дом БАХРАХ-М, 2004. 736 с.

2. Яницкий М.С. Ценностные ориентации личности как динамическая система. – Кемерово: Кузбассвузиздат, 2000. – 204с.

3. Ананьев Б.Г. К проблеме возраста в современной психологии / Психология старения и старения: Хрестоматия / Сост. О. В. Краснова, А. Г. Лидеров. М.: Академия, 2003.

XAVOTIRLI HOLATLARNING TURLI OILALARDA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Normuminova Dilafruz Erkinovna
TerDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Satir o‘zining oilada xavotirli psixik xolatlar bo‘yicha psixoterapevtik tajribasidan kelib chiqqan holda oilaviy munosabatlar jarayonida ko‘zga tashlanadigan muloqotning 5 xil uslubini ajratadiki, ulardan to‘rttasini u samarasiz deb ataydi, bittasi yetarli darajada tajriba va bilimga ega bo‘lgan yetuk muloqot uslubiga kiradi

Kalit so‘z: Oila a‘zolarining bir birlariga mehr-muhabbati,, oilaviy munosabatlar, muammoli oilalar,xavotirli holatlar.

Oila psixologiyasida oilalar turli mezonlarga ko‘ra farqlanadi. Oilaviy hayotni tizimli tarzda tasavvur etib, uning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga jazm etgan olimlardan biri Amerikalik tadqiqotchi Virjiniya Satir hisoblanadi. U oilaviy hayotni tavsiflash uchun quyidagi tushunchalarni ishlatadi: oila energetikasi, oila tizimi, chegarasi va funksional xususiyatlari. Virjiniya Satir oila energetikasi tushunchasini qo‘llab, uning o‘z ichiga ko‘plab jabhalarni xususan, oilaning tibbiy biologik xususiyatlaridan tortib, uning psixologik mavjudligini belgilovchi omillar, ekologik shart-sharoitlardan boshlab, tiriklikning mezonlari bo‘lmish ovqatlanish hamda har bir oila a‘zosining xatti harakatlarining namoyon bo‘lishigacha qamrab olishini ta’kidlagan.

Oilaviy hayotning psixologik energetikasini tavsiflash uchun Satir —oilaning emosional qozoni tushunchasini ishlatadi, ya’ni, oila a‘zolarining kundalik muloqot, muomala jarayonlarini u go‘yoki —bir qozonda qaynovchilarning birgalikda yashashida namoyon bo‘ladigan hissiyotlar ko‘zqusiday tasavvur etadi. Bu —qozondagi his-kechinmalar hayotning muayyan davrlarida o‘ta jo‘shqin va boy bo‘lsa, boshqa bir davrda mazmunan tor yoki tarang ham bo‘lishi mumkin. Oila a‘zolarining bir birlariga mehr-muhabbati, yaqinligi, hamkorligi ma’lum davrlarda kuchli ijobiy bo‘lsa, boshqa davrda kimnidir kimdandir tobeligi bois yoki kimningdir qattiqqo‘lligi bois torroq, mazmunsizroq bo‘lishi ham ko‘zatiladi. Bu jarayonlar o‘z navbatida oila a‘zolarida ijobiy yoki salbiy hissiyotlarga sabab bo‘ladi.

Oilaviy munosabatlar tizimi mutaxassislarining fikricha, oila a‘zolarining muayyan rollar doirasida u yoki bu holatlarda o‘zligini namoyon etishi yoki ijrosi emas, balki, bu har bir oilaga xos bo‘lgan o‘zaro munosabatlar —xaritasi xisoblanadi. Masalan, biror oilaga yordam bermoqchi bo‘lgan terapevtga ayni shu xarita kerak,

chunki u real a'zolarining real o'zaro munosabatlarini boshqachasiga tasavvur etishi mushkul. Bu xaritaga ayni shu oila a'zolaridan tashqari, ularning yaqinlarining ta'siri ham kiradi. Masalan, agar erkak kishi oilada qandaydir ajrab qolgan bo'lib, xotini va farzandlari bilan yashagan taqdirda ham uning xotiniga bo'lgan real munosabatlariga boshqa uyda yashaydigan onasining ta'siri bo'lsa, demak, oilaviy munosabatlar xaritasida qaynonaning ta'siri ham albatta nazarda tutilishi shart.

Yoki birinchi nikohidan ajralgan ayol sobiq erining farzandi bilan birga yashayotganligi bois, hamisha uni eslab turishi, bolasining istagiga ko'ra, sobiq eri bilan ko'rishib turishi, hattoki, moliyaviy jihatdan unga tobe ham bo'lishi mumkin. Bu, tabiiy, ayni paytda real oilaviy munosabatlarga ta'sir etmay qolmaydi. Mana shu kabi xolatlar oilada ba'zan xavotirli psixik xolatlariga sabab bo'ladi. Shuningdek, oilaning funksional xususiyatlari – bu oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning sifatiiy taraflarini tavsiflaydi. Masalan, muloqot uslublari; har bir oilaga xos bo'lgan tartib-qoidalar; o'zaro muloqot jarayonida kommunikativ to'siqlarning mavjudlari (yo'qligi). Satir o'zining oilada xavotirli psixik xolatlar bo'yicha psixoterapevtik tajribasidan kelib chiqqan holda oilaviy munosabatlar jarayonida ko'zga tashlanadigan muloqotning 5 xil uslubini ajratadiki, ulardan to'rttasini u samarasiz deb ataydi, bittasi yetarli darajada tajriba va bilimga ega bo'lgan yetuk muloqot uslubiga kiradi. Dastlabki to'rttasi odatda muomala jarayonida biror muammo yoki to'siqni yengishga, o'zini ataylab yaxshi ko'rsatishga, kimgadir yoqishga yoki aksincha, kimnidir nimagadir ayblashga, tanqid qilishga xizmat qiluvchi uslublardir.

Psixoterapevtik amaliyotda Satir ham Karl Rojers kabi barcha muomala uslublarini tahlil qilar ekan, bir insonning boshqa bir insonni tinglay olishiga alohida e'tibor qaratadi. Asosiy maqsad shundan iboratki, har bir oila a'zosini o'z tartib-qoidalarini buzmagani holda muomala madaniyatiga o'rgatishdir. Ota-onalar tuzilmasi har doim ham er-xotinlikni nazarda tutmaydi, zero, uni yolg'iz momo, xola yoki to'ng'ich farzand ham tashkil etishi mumkin. Shuning uchun terapevtik muolajalarda yoki maslahatlarda ota-onalar tuzilmasini aynan kim tashkil etishini bilish ahamiyatlidir. Ota-onalar eng avvalo oilaning xavfsizligi, unda samimiyat muhitining bo'lishi, tarbiya jarayonlarining qanday kechishiga javobgardir. Ular shu oiladagi barcha farzandlarning kelajagini, kerak bo'lsa, juda yaxshi kamol topishi uchun o'z bilim va tajribasini safarbar etadigan insonlardir. Muammoli oilalar deb, Minuxin oila ichidagi mavjud tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishini tushunadi. Masalan, —pa-de-de tipidagi oila (fransuzcha pas de deux – ikki kishi raqsi ma'nosini bildiradi) odatda faqat ikki kishidan iborat bo'lib, bunday oilada farzand bo'lmaydi. Yoki farzandlari allaqachon —uchirma qilingan bo'lib, ota-ona xonadonini tark etgan bo'ladi. Bu kabi oilalardagi o'zaro munosabatlar anchagina tarang bo'lib, aksariyat holatlarda bunday kechinmalar vaqtincha xarakterga egadir. Unda naslni davom ettirish, bola tarbiyasi kabi muammolarning mavjudligi er-xotin munosabatlariga rahna soladi. Bunday oilalarda ham ko'pincha munosabatlardan qanoatlanmaslikdan xavotirli xolatlar kuzatiladi. Bouen oiladagi o'zaro munosabatlar tizimini tasavvur qilish uchun fanga “emosional uchburchaklik” tushunchasini kiritdi. Unga ko'ra, oila tizimini, uning poydevorini tashkil etuvchi asosan uch inson yoki sub'yekt bo'ladiki, boshqa munosabatlar ularning vaziyatni

nazorat qilishlari, u yoki bu vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlariga bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tutushkina.M.K. Psixologicheskaya pomosh' i konsultirovaniye v prakticheskoy psixologii.M.,2001. 285-s
2. Nelson Djouns R. Teoriya i praktika konsultirovaniya. Uchebnoye posobiye. M.,2001. 408-s
4. Izard K. Emosii cheloveka. - M.: Izd-vo MGU, 1980. 66-s

OILADA DESTRUKSIYA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK SABABLARI

Qorabayev Abdurasul Abduxalil o'g'li
Termiz davlat universiteti magistranti

Bugungi rivojlangan dunyoda ilm ma'rifat egallash turli kasblarni o'rganish osonlashib borishi bilan bir qatorda inson ongini zaharlovchi g'oyalar ham keng tarqalib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali turli dasturlar, saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar nafaqat yoshlarning balki kattalarning ham xulq atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sir emas.

Bu esa o'z navbatida kishilarda va oilalarda destruksiyaning shakllanishiga olib kelmoqda. Amma Ommaviy aborot vositalarini birgina sabab qilib keltirishimiz hato boladi. Bu muammoning psixologik sabablari ham mavjud.

Oilada destruksiya shakllanishining psixologik sabablari ko'p qirrali bo'lib, bir qator ichki va tashqi omillar bilan bog'liq. Bu jarayon oilaning umumiy muhitiga, har bir a'zoning shaxsiy tajribasi va psixologik holatiga ta'sir qiladi. Quyida oilaviy destruksiyaning asosiy psixologik sabablari keltirilgan:

1. Kommunikatsiya muammolari

- Ochiq va sog'lom muloqotning yetishmasligi oilada tushunmovchilik va ziddiyatlarga olib keladi. Odamlar o'z his-tuyg'ularini ifoda qila olmasalar yoki bir-birlarini tinglamasalar, bu yillar davomida oilaviy aloqalarni buzib qo'yishi mumkin.
- To'g'ri muloqotning yo'qligi ko'pincha tashqi stress omillari bilan birgalikda ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi.

2. Oiladagi ro'l va vazifalarning noaniqligi

- Oila a'zolari orasida ro'l va vazifalarning noto'g'ri taqsimlanishi, mas'uliyatning tengsiz bo'lishi ham destruksiyaning sabablaridan biri. Bunday vaziyatda ba'zi a'zolar o'zlarini kamsitilgan yoki haddan tashqari bosim ostida his qilishlari mumkin.
- Odatda, bunday ziddiyatlar oilada aytib o'tilmagan, yashirin g'azab va noroziliklarga olib keladi, bu esa oilaning buzilishiga sabab bo'ladi.

3. Stress va depressiya

- Stress va psixologik bosimlar (moliyaviy muammolar, kasalliklar, ishsizlik) oila a'zolarining hissiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday

sharoitlarda, odamlar ko‘pincha o‘z salbiy his-tuyg‘ularini boshqalarga chiqarishga moyil bo‘ladilar, bu esa oila ichidagi mojarolarning ko‘payishiga olib keladi.

- Davomli stress va depressiya holatlari sog‘lom munosabatlarni zaiflashtiradi va destruksiyani kuchaytiradi.

4. Travmatik tajribalar

- Bolalikdagi yoki oiladagi travmatik hodisalar (ruhiy va jismoniy zo‘ravonlik, ajralish yoki o‘lim kabi holatlar) oilaviy munosabatlarga uzoq muddatli salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.
- Bunday travmalar hissiy rishtalarni zaiflashtiradi, odamlar orasida ishonch va xavfsizlik tuyg‘ularini buzadi.

5. Shaxslararo munosabatlardagi disfunktsiyalar

- Oila a‘zolarining bir-birlariga nisbatan disfunktsional xatti-harakatlari, masalan, passiv-agressivlik, boshqalarni manipulyatsiya qilish yoki doimiy tanqid qilish, oilaviy aloqalarning sinishiga olib keladi.
- Bunday disfunktsional xatti-harakatlar odatda a‘zolar o‘rtasida chuqurroq psixologik jarohatlarga olib keladi.

6. Ota-onalarning hissiy yondashuvlari

- Ota-onalarning bolalariga nisbatan qattiqqo‘l yoki hissiy jihatdan beparvo bo‘lishi ham destruksiya sabablaridan biri bo‘lishi mumkin. Bunday munosabatlar bolaning o‘z-o‘ziga ishonchi va psixologik barqarorligiga salbiy ta‘sir qiladi.
- Hissiy jihatdan befarqlik yoki haddan tashqari nazorat ham oilada mojarolarni kuchaytiradi.

7. O‘zini anglash va shaxsiy rivojlanish inqirozlari

- Oila a‘zolari o‘z hayotiy maqsadlarini anglash yoki shaxsiy rivojlanishda muammolarga duch kelsalar, ular ichki stressni boshdan kechirishlari mumkin. Bu shaxsiy inqirozlar ko‘pincha oila munosabatlariga ta‘sir qiladi.
- Oilaviy munosabatlarda o‘z-o‘zini rivojlantirish va shaxsiy ehtiyojlarni kamsitish, stress va norozilikka olib keladi.

8. Ajralish qo‘rquvi va tashvish

- Ajralish yoki yaqin kishidan uzoqlashish qo‘rquvi ham oiladagi munosabatlarning zarar ko‘rishiga olib keladi. Ba‘zi hollarda, bu turdagi tashvishlar oila a‘zolari o‘rtasida ehtiyotkorlik va cheklovchanlikni kuchaytirishi mumkin.
- Ushbu holatlar o‘zaro ishonchning pasayishiga va munosabatlarning sovishini keltirib chiqaradi.

Xulosa

Oilada destruksiya shakllanishining psixologik sabablari o‘zaro murakkablikka ega bo‘lib, oilaviy aloqa, shaxsiy rivojlanish, hissiy barqarorlik va oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlariga chuqur bog‘liqdir. Bu sabablarni erta aniqlash va psixologik yordam olish oilaviy rishtalarni mustahkamlash uchun muhimdir.

Oilada destruksiya shakllanishining ko‘plab psixologik sabablarini tushunish orqali biz oilaviy muhitni yaxshilash va bu jarayonlarni oldini olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Minuchin, S. (1974). *Families and Family Therapy*. Harvard University Press.
2. Bowen, M. (1978). *Family Therapy in Clinical Practice*. Jason Aronson.
3. Nichols, M. P., & Schwartz, R. C. (2017). *Family Therapy: Concepts and Methods* (11th ed.). Pearson.
4. Carter, B., & McGoldrick, M. (2005). *The Expanded Family Life Cycle: Individual, Family, and Social Perspectives*. Allyn & Bacon.

OILAVIY NIZOLARNI MEDIATSIYA ORQALI HAL ETISHDA PSIXOLOGIYANING O‘RNI: ILMIY YONDASHUVLAR VA AMALIY NATIJALAR

Murodova Elmira

Termiz davlat universiteti magistranti

Oilaviy nizolar, jamiyatning asosiy tuzilmasi bo‘lgan oila ichida yuzaga keladigan turli tushunmovchiliklar va qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Bunday nizolar nafaqat shaxsiy, balki jamiyat miqyosida ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ularni hal qilishda an‘anaviy sud tizimi va qonuniy choralar ko‘p holatda konflikt namo barqarorligini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, mediatsiya oilaviy nizolarni hal etishda samarali va ijobiy yo‘nalish sifatida muhim ahamiyatga ega. Mediatsiyaning muvaffaqiyatli bo‘lishi, o‘z navbatida, psixologiyaning asosiy yondashuvlariga, ya‘ni emotsional holatlarni boshqarish, o‘zaro tushunishni rivojlantirish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga bog‘liqdir. Ushbu maqolada, oilaviy nizolarni mediatsiya orqali hal etishda psixologiyaning roli tahlil qilinadi, psixologik tamoyillar va metodlarning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Mediatsiya — bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘rtasidagi nizolarni o‘zaro kelishuv asosida hal qilish jarayonidir. Mediator, o‘zining neytral va noxolis pozitsiyasi orqali, tomonlar o‘rtasidagi dialogni boshqaradi va ularning muammolarini konstruktiv tarzda hal qilishga yordam beradi. Mediatsiyaning asosiy maqsadi taraflarni bir-biriga qarshi qo‘ymasdan, balki ular orasida tushunish va kelishuvga erishishdir. Mediatsiyaning jarayonida mediator odatda shunday texnikalarni qo‘llaydi:

1. Aktiv tinglash: Mediator tomonlarning nuqtai nazarlarini diqqat bilan tinglaydi va ular o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etadi.
2. Empatiya va hissiy qo‘llab-quvvatlash: Mediator taraflarga bir-birining his-tuyg‘ularini anglash va hurmat qilishga yordam beradi.
3. Yechimlarni izlash: Mediator tomonlarni muammolarni hal qilish uchun samarali va ijobiy yechimlar izlashga undaydi.

Mediatsiya, ko‘pincha, psixologik yondashuvlar va jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Psixologik mediatsiya jarayonida, tomonlarga o‘zlarini ifodalash va o‘zaro muloqot qilishda yordam beradigan psixologik ko‘nikmalar kerak bo‘ladi.

Psixologiyaning mediatsiya jarayonidagi o‘rni

Psixologiyaning mediatsiya jarayonidagi o‘rni ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvlar konfliktlarni hal qilishda samarali va barqaror natijalarga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Psixologiya, ayniqsa, oilaviy nizolarni hal etishda, tomonlarning emotsional holatlarini boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va qaror qabul qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashda yordam beradi.

1. Emotsional Boshqaruv va Konfliktni Boshqarish

Oilaviy nizolar ko‘pincha emotsional kuchlanish va stress bilan bog‘liq. Oila a‘zolarining bir-biriga nisbatan g‘azab, xafa bo‘lish yoki hayajon ko‘rsatishlari jarayonni yanada murakkablashtiradi. Psixologiya emotsional intellektning rivojlanishi orqali bu holatlarni boshqarishga yordam beradi. Daniel Goleman (1995) tomonidan ta‘kidlanganidek, emotsional intellektga ega shaxslar o‘zlarining va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglashda, shuningdek, ularni boshqarishda yuqori muvaffaqiyatlarga erishadilar. Mediatsiya jarayonida psixologlar taraflarga o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash, ularni konstruktiv tarzda ifodalash va boshqalarning his-tuyg‘ulariga nisbatan empatiya bildirishni o‘rgatadilar. Bu usul, o‘z navbatida, konfliktni qisqartirish va qarorlarni tezroq qabul qilishga yordam beradi.

1. Aktiv Tinglash va Tushunishni Yaratish

2. Psixologik yondashuvlarning yana bir muhim elementlari - bu aktiv tinglash va tushunishni oshirish. Mediatsiya jarayonida mediator, tomonlarga faol ravishda tinglashni va bir-birining fikrlarini to‘g‘ri tushunishni o‘rgatadi.

Elmira Murodova Carl Rogers (1951) tomonidan ishlab chiqilgan “empatik tinglash” kontseptsiyasi mediatsiyada asosiy yondashuvlardan biri sifatida ishlatiladi. Mediator, o‘z navbatida, taraflar o‘rtasida ochiq va samimiy muloqotni rag‘batlantiradi, bu esa o‘rtadagi tushunmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Oila a‘zolari bir-birining fikrlarini va his-tuyg‘ularini anglab yetganlarida, ular birgalikda yechim izlashga ko‘proq tayyor bo‘ladilar.

3. Empatiya va O‘zaro Hurmatni Rivojlantirish

Empatiya, mediatsiya jarayonida muhim o‘rin tutadi. Psixologiya empatiya rivojlantirishga qaratilgan texnikalar orqali taraflarga bir-birining pozitsiyasini tushunishga yordam beradi. Mediatsiya jarayonida mediator oila a‘zolarini bir-birining fikrlariga, his-tuyg‘ulariga va ehtiyojlariga hurmat bilan qarashga undaydi. Martha Nussbaum (2001) o‘zining “Empathy and Justice” asarida, empatiyaning adolat va qaror qabul qilish jarayonida qanday muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaydi. Empatiya oila ichidagi konfliktlarni hal etishda, tomonlar o‘rtasida do‘stona va adolatli yondashuvni yaratadi.

4. O‘zini Anglash va Rivojlanish

Mediatsiya nafaqat oilaviy nizolarni hal qilish, balki oilaviy a‘zolarini o‘zini anglash va ijtimoiy rivojlanishga undash imkonini ham beradi. Psixologiya, shaxsiy o‘sish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash jarayonlarida muhim vosita hisoblanadi. Mediatsiya jarayonida oilaviy a‘zolar o‘zlarining his-tuyg‘ularini va ehtiyojlarini

yaxshiroq anglab yetadilar. Bu, o'z navbatida, oila ichidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Erik Eriksonning (1950) psixosotsial rivojlanish nazariyasi, bu jarayonni o'zgartirish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy motivatsiya va maqsadlarni belgilaydi.

Mediatsiya jarayonida psixologik yondashuvlarning afzalliklari Mediatsiya jarayonida psixologik yondashuvlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Stressni kamaytirish: Mediatsiya jarayonida emotsional holatlarni boshqarish, taraflarning hissiy stressini kamaytiradi.

2. Konstruktiv va ijobiy qarorlar: Psixologik metodlar orqali tomonlar konfliktlarni hal qilishda ko'proq konstruktiv va barqaror qarorlar qabul qiladilar.

3. Oilaviy munosabatlarni yaxshilash: Mediatsiya jarayoni, oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, bu esa oila ichida barqarorlikni saqlashga olib keladi.

4. Kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish: Mediatsiya ishtirokchilari bir-birining fikrlarini tinglash va to'g'ri tushunish orqali kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Xulosa

Oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiya jarayoni, zamonaviy ijtimoiy tizimda samarali va ko'proq qo'llaniladigan usulga aylangan. Mediatsiya, sud tizimidan farqli o'laroq, oilaviy aloqalar va muloqotni tiklashga, tomonlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Mediatsiya jarayonida psixologiyaning o'rni juda katta, chunki u konfliktlarni tinchlik yo'li bilan hal qilishda tomonlarning hissiy holatini boshqarishga, ularning o'zaro tushunishini rivojlantirishga va kommunikatsiya ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Psixologik metodlar, masalan, emotsional intellekt, empatiya, aktiv tinglash, va hissiy boshqaruv, mediatsiyaning samarali bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuvlar oilaviy a'zolarga o'zaro hurmat va tushunishni yaratish, o'z his-tuyg'ularini konstruktiv tarzda ifodalashni o'rgatadi, shu bilan birga, konfliktlarni tezroq va ijobiy tarzda hal qilish imkoniyatini yaratadi. Mediatsiyaning eng katta afzalligi shundaki, u oila ichidagi muammolarni hal qilishdan tashqari, oilaviy munosabatlarni yaxshilash va barqarorlashtirishga ham xizmat qiladi. Psixologiya yordamida, tomonlar o'rtasida shaxsiy o'sish, o'zini anglash va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash jarayonlari amalga oshiriladi, bu esa oilaning umumiy farovonligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mediatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun psixologik bilim va metodlarni yanada chuqurroq o'rganish, hamda bu jarayonni oilaviy nizolarni oldini olish va hal qilishda kengroq qo'llash zarur. Mediatsiya nafaqat muammolarni bartaraf etish, balki oilaviy hayotning barqarorligini saqlash va oiladagi aloqalarni mustahkamlashda samarali vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. Bantam Books.
2. Rogers, C. (1951). Client-Centered Therapy: Its Current Practice, Implications, and Theory. Houghton Mifflin.
3. Erikson, E. H. (1950). Childhood and Society. W. W. Norton & Company.

SHAXS TAKOMILLASHISHIDA VA FARZAND TARBIYASIDA OILANING O'RNI

*Qayumova Mehribon, Termez Davlat Universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti, Psixologiya yo'nalishi, 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Oila inson hayotidagi eng muhim institutlardan biri bo'lib, shaxsning shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Psixologiyaga ko'ra, odamning hayotiy tajribalari, xulq-atvori va shaxsiyati ko'pincha oila ichidagi munosabatlar va tarbiya usullaridan shakllanadi. Har bir oila a'zosi bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek shaxs takomillashishida ham farzand tarbiyasida ham oilaning alohida o'rni bor. Bu jarayonni chuqurroq tushunish uchun, mashhur psixologlar nazariyalari, hayotiy voqealar va oiladagi tarbiyaning ta'siriga murojaat qilamiz.

Tayanch so'zlar: oila, shakllanish, bog'lanish nazariyasi, psixosotsial rivojlanish, o'z-o'zini anglash, shaxs.

Bowlbiyning bog'lanish nazariyasi bo'yicha, farzandning ota-onasi bilan mustahkam va ishonchli bog'lanishi uning kelajakdagi shaxsiyati va boshqalar bilan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bolalikda ota-onasi tomonidan yetarli e'tibor va mehr bilan tarbiyalangan bir tanishimni eslayman. U yoshligida onasi bilan juda yaqin aloqada bo'lgan, onasi doimo uni qo'llab-quvvatlagan va himoya qilgan. Bugungi kunda u ijtimoiy jihatdan ochiq, boshqalarga nisbatan ham xuddi shunday mehribon va ishonchli bo'lib shakllandi. Psixologik jihatdan u boshqalar bilan yaqin bog'lanishlarda mustahkamlikni his qiladi, qiyinchiliklarga duch kelganda, bolaligida shakllangan oila qo'llab-quvvatlovi uning ichki kuchi sifatida namoyon bo'ladi.

Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola hayotining ilk yillarida ishonch va ishonchsizlik o'rtasida kurashadi. Bu davrda ota-onaning e'tibori va qo'llab-quvvatlovi bolaning kelgusidagi ruhiy salomatligi uchun asos yaratadi. Oilada doimiy e'tibor va himoya his etgan bola kattalar bilan ochiq muloqot o'rnatishni o'rganadi. Masalan, mahallamizdagi bir yosh bola ota-onasi tomonidan har doim hurmat va sabr bilan tarbiyalangan. Ota-onasi uning istak va ehtiyojlariga javob bergani sababli, bola o'zini erkin his qiladi, o'z fikrini ifoda etadi va atrofida qilargalarga ishonadi. Bu kabi oilada ulg'aygan bola o'zini qadrlangan va qadrlil his qiladi, bu esa kelgusida hayotiy muvaffaqiyatlariga kuchli ta'sir qiladi. Oila ichidagi muloqot va psixologik qo'llab-quvvatlash ham shaxsning o'z-o'zini anglashida muhim rol o'ynaydi. Muloqot orqali bola o'z his-tuyg'ularini ifoda qilishni, sabrli bo'lishni va boshqalarning his-tuyg'ulariga e'tibor berishni o'rganadi. Misol qilib: Bir tanishimning oilasi bunga yaxshi misol bo'la oladi: oilasida har bir a'zoning fikri tinglanadi va ularning his-tuyg'ulari qadrlanadi. Bu bola kattalardan o'rnak olib, tengdoshlariga nisbatan ham ochiq va tushunarli munosabatda bo'lib o'sdi. Bu holatda oila nafaqat uning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qildi, balki uning do'stlari va atrofida qilargalarga nisbatan munosabatini ham shakllantirdi. Shaxs tarbiyasida oiladagi qadriyatlar va ko'rsatmalar ham juda muhim. Bolaning mehnatga, adolatga va mas'uliyatga bo'lgan qarashlari asosan oilada shakllanadi.

Misol uchun, bir tanishimning oilasi mehnatga juda katta ahamiyat qaratadi. Ular bolalariga har doim ishda mas'uliyatli bo'lish va o'z ustida tinimsiz ishlash zarurligini o'rgatishadi. Ushbu oila tarbiyasida o'sgan bola hozirda ishga mas'uliyat bilan yondashadi, jamoa orasida hurmatga sazovor bo'lgan va mehnatiga halollik bilan munosabatda bo'ladigan yetuk inson bo'lib yetishgan. Oilaning psixologik iqlimi, ya'ni oiladagi hissiy muhit, bolaning psixologik salomatligi va o'ziga nisbatan ijobiy qarashlariga bevosita ta'sir qiladi. Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga, o'zaro hurmat va mehr-muhabbat mavjud oilada bola o'zini erkin va qadrligini his qiladi. Boshqa tomondan, haddan tashqari tanqidiy yoki qat'iy tartibda o'sgan bolalar, ko'pincha, o'ziga nisbatan past baho yoki ishonchsizlikni rivojlantirishlari mumkin. Bir sinfdoshimning oilasi bunga misol bo'ladi: uning otasini doimo uni qo'llab-quvvatlagan, har bir yutug'ini qadrlagan. Bu esa unda yuqori o'ziga ishonch shakllanishiga olib keldi va bugungi kunda u o'z maqsadlariga erishishda hech qanday to'siqlardan qo'rqmaydi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, shaxs takomillashuvida oila a'zolarining munosabatlari va tarbiya usullari hal qiluvchi o'rin tutadi. Oila nafaqat farzandga dunyoqarash va qadriyatlarini singdiradi, balki uning psixologik barqarorligi, o'ziga ishonchi va ruhiy rivojlanishi uchun asos yaratadi. Shu sababli, farzand tarbiyasida ota-onalar farzandning o'zini erkin his qilishiga, mehr-muhabbatni his qilishiga va unga qo'llab-quvvatlash berishga katta e'tibor qaratishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bowlby, J. (1982). Attachment and loss: Vol. 1. Attachment (2nd ed.). Basic Books.
2. Erikson, E. H. (1963). Childhood and Society. Norton.
3. Vasta, R., Haith, M. M., & Miller, S. A. (1999). Child Psychology. John Wiley & Sons.
4. Махмудов, Н., & Юлдошев, Ш. (2000). Инсон психологияси. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси

III-SHO‘BA. YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK JIHATLARI.

АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ ПСИХОЛОГИК ФИКРЛАРИНИ ИЛМ ФАНГА ТАДБИҚ ЭТИШ МАСАЛАСИ

*Қодирова Азиза Бекмуродовна
ТерДУ Психология кафедраси доценти,
психология фанлари бўйича(PhD) фалсафа доктори*

Аннотация: Бу даврда тасаввуф илмининг бош мавзулари белгиланди. Сўфийлар жамият аъзолари ўртасида мустақил бир табақа сифатида намоён бўла бошладилар. Баъзи жойларда тасаввуф мактаблари ташкил топди. Тасаввуф таълимотида илм “нур” истилоҳи билан берилди, демак нур-илм, илм эса ўз навбатида нурдир. Руҳиятшуносликнинг тасаввуфий асосларини ўрганиш бошқа фанларни билишни ҳам тақозо этади.

Аннотация: В это время были определены начальные темы представления суфизма как науки. Среди главенствующих народов суфийцы стали выделяться в качестве независимого племени. В некоторых местах были созданы школы пропаганды суфизма. В сфере образования суфизма «луч» знаний даётся через постижение знаний, итак луч-знание, знание в свою очередь является лучём.

Annotation: During this period, the main themes of mysticism were identified. Sufis began to emerge as an independent class among members of society. In some places mystical schools were established. In mystical teaching, knowledge is given by the term "light," meaning that light is knowledge, and knowledge in turn is light. The study of the mystical foundations of psychology requires knowledge of other disciplines as well.

IX-X асрлар – ислом тасаввуфи илм сифатида шаклланиб, ўз тамойиллари барпо этилган, буюк мутасаввифлар шаклланиб этиша бошлаган ва мумтоз тасаввуфий асарлар ёзилган давр бўлди. Бу даврда тасаввуф илмининг бош мавзулари белгиланди. Сўфийлар жамият аъзолари ўртасида мустақил бир табақа сифатида намоён бўла бошладилар. Баъзи жойларда тасаввуф мактаблари ташкил топди. Лекин шуни ҳам қайд этиш лозимки, гарчи “*тасаввуф*” истилоҳи араб халифалигининг шимоли-шарқий худудларида етарли даражада муомалада бўлган бўлса-да, бу истилоҳ Мовароуннаҳр ва Хуросонда IX-X асрларда кенг кўламда истеъмолда бўлмаган. Бу даврда минтақа мистиклари асосан зуҳд – зоҳидлик ҳақида мунозаралар олиб бордилар.

Тарих тақозоси билан Хуросонда IX-X асрларда тасаввуф ривожи учун жуда қулай шарт-шароитлар вужудга келдики, унинг оқибатида бу минтақада турли тасаввуфий ҳаракатлар шаклланди. Энг муҳими, бу ҳаракатлар кейинчалик бутун ислом дунёсида тасаввуф асоси бўлиб хизмат қилди. X аср бошларигача Хуросон, айниқса унинг Балх шаҳри ислом мистицизмнинг

маркази бўлган. Ўша даврнинг Иброҳим б. Адҳам, Шақиқ ал-Балхий, Ҳотим ал-Асамм, Аҳмад б. Хадравайх, Абу Бакр ал-Варроқ ва Муҳаммад б. ал-Фадл каби машҳур суфийлар асли балхлик бўлганлар, ёхуд ушбу шаҳарда яшаб ижод этганлар. Хуросон сўфийлари ўзлари яшаётган муҳитда катта обрў-эътиборга эга бўлганлар.[:6-7]

Шу билан бирга ал-Ҳаким ат-Термизий “Наводир ал-усул”даги ҳадисларни шарҳлашда ўзига хос усулда ёндашади. Бунда у ҳадисни қуйидаги унсурлар: *қалб, садр, ақл, нафс, руҳ* орқали шарҳлаб, ботиний маъноларини очиб беради.

Умуман олганда, ал-Ҳаким ат-Термизийнинг шарҳларида *руҳ* ва *нафс* рақобатига катта ўрин берилади. Масалан, “Наводир ал-усул”нинг 34-усулидаги ҳадис шарҳига эътиборимизни қаратамиз: Расуллоҳ с.а.в.дан ривоят қилинган “*Мусулмон киши аёл кишининг зийнатларига бир қараб, сўнгра кўзини қуйи қилса, Аллоҳ унинг ибодатида ҳаловат беради*” – ҳадисининг шарҳида шундай ёзади: “Биринчи назар солиш – руҳнинг назари, иккинчи назар солиш эса нафснинг назар солишидир. Биринчи қарашда кўз аёл кишининг зийнатларига тушса, унга кўзни қуйи қилиш вожиб бўлади. Иккинчи бор очиб қараш ҳам кўзнинг иши, бу учун жазосини олади. Айтишларича, кўзнинг қараши руҳнинг қараши билан боғлиқ. Шунинг учун ҳам “ҳаё икки кўзда” дейдилар, чунки ҳаё руҳнинг иши. Яна айтадиларки, кўзи кўрдан ҳожатингни сўрама. Ибн Аббос дедилар: “Кўзи кўрдан ҳожатингни асло сўрама, агар кишидан ҳожатингни сўрасанг унинг афтига юзлан, зеро ҳаё икки кўздадир. Шунингдек, тунда ҳам асло сўрама, ҳожатингни тонгда сўра, чунки Расуллоҳ с.а.в. дедилар: “*Эй Аллоҳим умматимга уларнинг тонгларида барака бер!*”. Агарда киши кўзини ҳалол бўлмаган нарсадан қуйи қилса, руҳини ифлосланишидан сақлаган бўлади, нафсини эса шаҳватдан лаззат олишидан сиқиб қўйган бўлади ва шу сабабдан унга бу дунёда савоб нури берилади, оқибатда у ибодат ҳаловатини топади. Абу Умома р.а дан ривоят қилишларича, Расуллоҳ с.а.в. дедилар: “Аёл зийнатларига қараш, шайтоннинг захарланган ўқларидандир”. Кимки кўзини четга олса Аллоҳ унга ибодатида ҳаловат беради”.[:17]

Ал Ҳаким ат-Термизийга кўра руҳнинг қароргоҳи инсоннинг бош қисмида бўлиб, шу ердан у инсоннинг танаси бўйлаб ёйилган. Нафснинг қароргоҳи эса қоринда, шу жойдан у тана бўйлаб ёйилган. Ал-Ҳаким ат-Термизий ўз шарҳларида руҳни “самовий” ва нафсни “ардий” (ерга мансуб) деб, руҳ совуқ, нафс эса иссиқ дейди. Агар инсон “пуф” деб пуфласа, совуқ ҳаво чиқади, бу руҳнинг совуқлиги. Агарда “ҳах” деб оғзидан ҳаво чиқарса иссиқ ҳаво чиқади, бу нафснинг иссиқлиги. Биринчи совуқ ҳаво – *нафса*, иккинчи иссиқ ҳаво эса *нафха*. Руҳнинг одати итоаткорлик, нафснинг одати эса шаҳватга берилиш. Ал-Ҳаким ат-Термизий ҳар қандай ҳадисларни шарҳлашга киришар экан, руҳ ва нафс унсурлари унда асосий мавқеъни эгаллайди. Шунингдек, ҳадисларининг ички-яширин маъноларини очиб беришда аллома *садр* (кўкрак) ва *қалб* унсурларига ҳам кўп ўринда мурожаат қилади.[:18]

Қуйидаги қудсий ҳадис талқинида ҳам ал-Ҳаким ат-Термизий яширин маъноларини очиб беришга ҳаракат қилади: Расулуллоҳ с.а.в. дедилар: “Аллоҳ таоло деди: Мен банданинг ўйларидаман, мен ҳақимда ўзи ҳохлаганча гумон қилсин”. Ушбу ҳадис талқинида Термизий айтади: Гумон *садр*да (кўкрак)да иккиланиб турадиган нарса, у нафснинг безовталанишидан пайдо бўлади. Аллоҳ таоло мўъмин банданинг қалбига тавҳид нурини беради, кўксига ҳам нур беради. Мўъминнинг кўксига (*садр*га) берилган бу нур унинг қалбидаги тавҳид нурини ҳимоялаш учун қалбини ўраб олади. Агарда нафс безовта бўла бошласа, *садр* (кўкрак)ги нур ёришади, нафс тинчланади, қалб таскин топади ва гумон яхшиланади.

Агарда нафсда шаҳват устун келиб, шаҳват тутуни билан қайнаб ётган бўлса, у *садр*ни қоронғу қилиб қўяди, *садр*ни қоронғу қилиб қўяди, *садр* зулматда қолади, нафс ўз безовта ўйлари билан келади ва ҳаяжонланади, иккиланади мана шу банданинг Аллоҳ ҳақида ёмон гумонидир.[:18]

Шунингдек, “Наводир ал-усул” асарининг 252-усулида ҳамр, яъни майнинг ҳаром эканлиги ҳақидаги ҳадисни шарҳлаганда ҳам ал-Ҳаким ат-Термизий “*қалб*” унсурига мурожаат қилади: “Агар ҳамр (ичкилик) одамнинг ичига кирса, қалбни ҳамр қилади, яъни қоплаб олади ҳамда ақл ва қалб ўртасини тўсиб қўяди. Қуръонда ҳамр ҳаром қилинди, унинг ҳамр деб номланишига сабаб, у қалбни қоплаб олади ва уни ақл нуридан тўсиб қўяди. Ҳар қандай ичимлик ушбу сифатга эга бўлса, унга “ҳамр” номи қўйилиши керак ва у ҳаромдир”.[:19]

Ал-Ҳаким ат-Термизийга кўра *қалб*, *ақл* ва *садр* (кўкрак) маърифатнинг (идрок этишнинг) манбаларидир. *Қалб* Аллоҳнинг раҳматини, Унинг нури хусусиятларини ва булардаги сирларни идрок этади. *Ақл* эса Аллоҳнинг тадбири ва унинг хусусиятлари, ҳамда ундаги ҳикматни англайди. *Садр* эса шарият бобига тааллуқли бўлган Аллоҳнинг амрлари, яъни ҳалол ва ҳаромни идрок этади. *Қалб ақл* устидан ҳукмрондир.

Ақл бош (ёки мия)да жойлашган. Унинг нури *садр*га, у ерда жойлашган *фуад*нинг (юракнинг) икки кўзига боради, токи у ишларни бошқарсин, яхши билан ёмонни, фоида билан зарарни фарқласин. Агар инсон май ичса, душман (шайтон) ўз ражосати (ифлослиги) билан унинг *садр* (кўкси)ига ўрнашиб олади ҳамда *садр* ва *фуад*нинг ўртасини тўсиб қўяди, худди тўғон дарёни тўсиб қўйганидек. Шунда *фуад* зулматда қолади.[:20]

Ал-Ҳаким ат-Термизий “Наводир ал-усул”, “Масоил аҳли Сарахс” асарларида ҳадисларни талқин қилишда ҳамда ўз қарашлари ва фикрларини ифода этишда қўллаган услубларини умумийлаштириб, қуйидаги йўналишлар бўйича тасниф этиш мумкин:

1. Таҳлилий йўналиш: Бунда у бир сўзнинг ишлатилаётган маъносини таҳлил этиб, ўша сўз ва сўз билдирган ашё ўртасини улайди, яъни ашё ва унинг номи маъносини бир-бирига боғлайди.

2. Луғавий йўналиш: Бунда ал-Ҳаким ат-Термизий ҳар бир сўзни энг кичик унсурларигача, яъни ушбу сўзни ташкил этган ҳарфларгача таҳлил этади. Бу билан сўзни ташкил этган ҳарфларгача таҳлил этади. Бу билан сўзни ташкил

этган ҳарфлар ва сўз ўртасидаги ҳамда сўз ва у билдирган маъно ўртасидаги боғлиқлик бор эканлигини у таъкидлаб ўтади. Бу аллома ҳар бир ҳарф сўз маъносининг қандайдир бир қисмини ўзида мужассам этишини, шунингдек, сўз ибора маъносининг бир қисмини ўзида мужассам этишини ҳамда ана шу қисмлар мажмуидан сўзлар ва ибораларнинг тўлиқ маънолари ташкил топишини кўрсатиб беради.

3. Тажриба йўналиши: Ал-Ҳаким ат-Термизий ўз фикрларини ўқувчилар онгига етказиш мақсадида турли мисоллар, ривоятлар ва хулосаларини тақдим этади. Бу унинг нозик ҳолатларини синчковлик билан идрок этишидан дарак беради.

4. Келиштирув йўналиши: Ал-Ҳаким ат-Термизий бир мавзу бўйича турли қарама-қарши мулоҳазаларини жамлайди, сўнгра уларни бир-бирига яқинлаштириб, ихтилофли фикр ва қарашларни ўзаро мослаштиради.

5. Фалсафий йўналиш: бунда у юқоридаги тўрт йўналишни ўзида жамлайди, шу билан бирга ал-Ҳаким ат-Термизийнинг инсоннинг яралиши, унинг моҳияти, ташқи ва ички идрок этиш ҳиссиётлари (*садр, ақл, руҳ, қалб, нафс*) орқали идрок этиши ҳақидаги фикрлари унинг фалсафий қарашларининг негизини ташкил этади.

6. Танқидий йўналиш: ал-Ҳаким ат-Термизий исломий илмларнинг барча соҳаларини эътибордан четда қолдирмайди. Хоҳ у фикҳ бўлсин, ёки калом, тасаввуф, тафсир бўлсин уларнинг барчаси билан таниш бўлганлиги унинг асарларида яққол кўзга ташланади. Шунингдек у ушбу соҳа эгалари ҳақида фикр ва мулоҳазаларини билдиради. Бу мулоҳазлар холис ва беғараз танқид руҳида бўлиб, кўпинча аллома танқид қилган фикри ўрнига ўзи тўғри деб ҳисоблаган фикрни ўртага ташлайди.

7. Диний-амалий йўналиш: аллома ўз қарашлари маиший ҳаётда амалий ифода топиши мумкинлиги нуқтаи назаридан фикрларини баён қилган.

Мана шу юқоридаги санаб ўтилган етти йўналиш ал-Ҳаким ат-Термизийнинг дунёқараши, яъни *ҳикмани* ташкил этувчи бўлаклардир. [:20-21]

Ал-Ҳаким ат-Термизий ўзи яшаган тасаввуфий муҳитда катта обрў-эътибор ва таъсирга эга шахслардан бўлган. Унинг 200 га яқин рисоалари аксар ҳолларда ундан сўралган саволларга йўллаган жавобларидир. Бу рисоалар асосан руҳий таълимотларни ўз ичига олиб, ҳар бир рисола бу соҳанинг етук мутахассиси томонидан жуда нозиклик билан ҳамда юксак савияда берилган жавоб, йўл-йўриқ ва кўрсатмалардир. Савол-жавоб тарзидаги рисоаларнинг бу даражада кўплиги ал-Ҳаким ат-Термизий ўз даврида тасаввуф оламида ғоятда улкан мавқега эга бўлганлиги ва жамият эътибор марказида турганлигидан далолатдир. Ҳаттоки, ўзи яшаган муҳитида жуда катта таъсирга эга бўлган *маломатия* сулукига асос солган уч шайхдан бири бўлган Абу Усмон ал-Ҳирийнинг тутган йўлидаги камчиликларни унга жавоб тариқасида йўллаган мактубида очикдан –очик ёзиб, унга керакли насихатлар бериши, шу билан бир қаторда ўлкадаги яна бир кучли тасаввуфий оқим – *карромийлик* таълимотларига қарши чиқиши ал-Ҳаким ат-Термизийнинг ўзига хос мустақил йўналиш ва маслак соҳиби эканлигини тасдиқлайди. Ал-Ҳаким

ат-Термизийнинг таъсир доираси фақат ўзи яшаган давр ва минтақа билан чегараланиб қолмаган. У ўз асар ва рисоалари билан тасаввуфда чуқур из қолдирган алломалардандир. Биз унинг асарлар Имом ал-Ғазолий (1058-1111), Ибн ал-Арабий (1165-1240), Ибн Қаййим ал-Жавзийя (1116-1201), Хожа Муҳаммад Порсо (1345-1419) ва бошқа йирик мутасаввифларнинг ижодларига таъсир этганини кузатимиз мумкин.[:21-22]

Адабиётлар рўйхати

1. Чориев З., Аннаев Т., Муртазаев Б., Аннаев Ж. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 149 б.
2. Омонтурдиев Ж. Ал-Ҳаким ат-Термизий таълимоти. – Тошкент: Университет, 2000. – 95 б.
3. Ал-Ҳаким ат-Термизий, Қайтарилган амаллар (ал-Манҳийёт). Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи М.Исмоилов. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро маркази”, 2019. – 256 б.
4. Термизий алломалар / С.Турсунов ва бошқ. – Тошкент: Yangi nashr, 2015. – 272 б.
5. Ал-Ҳаким ат-Термизий, “Яширин масалалар” (“ал-Масоил ал-макнунa”). Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи М.Исмоилов. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро маркази”, 2019. – 216 б.
6. Термизий, Ал-Ҳаким. Нодир масалалар /араб тилидан таржима/. Муқаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи И.С.Усмонов. – Т.: Мовароуннаҳр, 2007. – 88 б.

ЭГОИЗМНИ ЎРГАНИШДАГИ НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

*Кареева Юлдуз Хушбаковна
Психология фанлари бўйича фалсафа доктори, Phd
Термиз давлат университети*

Аннотация: Эгоизмни эмперик ўрганишга қаратилган дастлабки уриниш биринчи бўлиб Россияда К.Муздыбаев томонидан амалга оширилган бўлиб, у эгоистик хатти-ҳаракатга кўпроқ мойил ижтимоий гуруҳларни, уларнинг профессионал ва ижтимоий ҳолати, ёши ва гендер фарқларини тадқиқ этди. Шу боис эгоизмни ўрганиш, уни экспериментал жиҳатдан тадқиқ этиш муҳим ва биз ҳам ўз тадқиқотимизда ушбу масалани ўрганишни олдимизга мақсад қилиб қўйдик.

Калит сўзлар: эгоизм, альтруизм, эгоцентризм, эгоистик шахс.

Шахсдаги эгоизм хулқ кўринишлари турли ёшдаги инсонларда ва ижтимоий муносабатларнинг барча соҳаларида мавжуд. Инсон ижтимоий муносабатларнинг пассив кузатувчиси эмас, балки унинг фаол иштирокчиси саналади, у ўз шахсий интилиш ва қизиқишлари, ақл-идроқи билан ўзини-ўзи тарбиялашга, юксак инсоний фазилатларини шакллантиришга ҳаракат қилади. инсонинг маънавий баркамолликка эришишида шахснинг хулқ-атвори, ўрни,

мақсад ва қизиқишлари интилиши катта ўрин тутди. Шахс психологиясини тадқиқ этар эканмиз, унинг маълум бир хусусиятлари ва ҳулқ кўринишларини бевосита кузатиш орқалигина ўрганиб бўлмаслигига ишонамиз, чунки бу хусусиятларда турғунлик, барқарорлик ва изчиллик йўқ. Шу билан бирга, турли хил илмий йўналиш вакиллари шахс хусусиятлари тушунчасини турли хил ички таркиб билан тушунтирадилар, бу эса уларнинг фикрича, ҳулқ-атвор ва тажрибаларнинг барқарорлиги ва собитлигини сақлаб қолиш имконини беради.

Эгоизм ўз назариясига кўра, инсон ўзига нисбатан устун бурчга эга, шунинг учун унга фақат ўз манфаатлари муҳим [1]. У бошқаларни фақат ўзининг “мен”и доираси билан чеклайди, бошқалар у ҳақида қайғуришларини ҳоҳлайди. Бошқача қилиб айтганда, эгоизм асосан ўз эҳтиёжларини юзага чиқаришга асосланган мақсадга қаратилган ҳулқ-атвор соҳасида учрайди. Шу сабабли, эгоистнинг ўзига хос хусусиятлари, биринчидан, мақсадларнинг фақат ўзига қаратилганлиги, иккинчидан, мақсадларга эришиш воситаларининг ҳар бир шахснинг ҳуқуқларини ҳимоя қиладиган ва жамиятда адолатни таъминлайдиган умумэтироф этилган меъёрларга мос келмаслигидадир. Айнан шу икки асосий хусусият эгоист шахсда ўзаро боғлиқ бўлмаган, баъзан эса ғайриижтимоий хусусиятларнинг бутун мажмуасини шакллантиришга олиб келади. Энди эгоизмнинг хусусиятлари ҳақида тўхталиб ўтсак.

1. Эгоизмнинг юқори даражада индивидуал йўналганлик хусусияти. Эгоизмнинг бу йўналиши ҳаётий тамойилнинг ўзига хос кўринишига эга бўлиб, унинг ахлоқи, альтруизм ахлоқидан фарқли ўлароқ, бошқаларнинг ҳис-туйғулари ва манфаатларини бутунлай эътиборсиз қолдиришидадир, шунинг учун альтруизм ахлоқини ижтимоий, эгоизм ахлоқини эса ижтимоий бўлмаган деб аташ мумкин. Шундай қилиб, ўз манфаатни ўйлайдиган (эгоист) шахснинг мотивлари фақат ўз эҳтиёжларини, индивидуал интилишларини акс эттиради. Шунинг учун эгоист ўзининг барча когнитив қобилиятларини фақат ўз ҳис-туйғулари ва эҳтиёжларига, ҳуқуқлари ва бурчларига қаратади ҳамда уларни энг муҳим деб билади. Эгоист учун қоида тариқасида ягона воқелик фақат ўз “мени” ҳисобланади. Бошқаларнинг манфаатлари ва қарашларига эътибор бермаслик, бир томондан, ўзларининг яхшиликларини устун қилиш истаги билан боғлиқ бўлса, иккинчидан, улар ўзларининг қобилларига ўралиб қолади.

2. Бошқалар олдидаги ҳар қандай мажбуриятдан озодлик хусусияти. Бу хусусият эгоист шахсга бошқа одамларнинг манфаатларини эътиборсиз қолдиришда намоён бўлади. Бундан ташқари, эгоист қарзни салбий қиймат сифатида изоҳлайди. Шунинг ҳам алоҳида айтиш керакки, инсоннинг бошқалар олдидаги мажбуриятлари унда маълум ижобий ҳис-туйғуларга эга бўлгандагина пайдо бўлади, масалан, ҳамдардлик, дўстлик, севги, ҳурмат ва бошқа туйғулар. Эгоистларда бундай ҳис-туйғуларнинг пайдо бўлиши натижасида масъулиятни ўз зиммаларига олишдек вазифани бажаришга қодир эмас. Эгоизм ҳақида: "Ҳеч ким менга бирор вазифани буюришга журъат эта олмайди ва мен ўз муносабатимни ўзим белгилайман", деб ёзган Стирнер. Буни

янада аниқроқ қуйидагича ифодалаш мумкин: “Мен бошқага нисбатан ҳеч қандай мажбуриятга эга эмасман...”[2].

Эгоизмнинг эгалик қилиш истаги. Эгоизм- хусусийликка (антидепривацион) қарши тамойилга асосланади (лотинча деприватио - йўқотишдан), яъни ҳар қандай маҳрумликни бартараф этишга қаратилган ҳаётий муносабатни ифодалайди. Г. Марселнинг ифодалашича, эгалик аллақачон истакда ёки даъвода мавжуд бўлади[3]. Бундан ташқари, истакда “борлиқнинг етишмаслиги” (бирор нарсанинг етишмаслиги, бирор нарса қила олмаслик, кимдир ёки нимадир бўлмаслик ва ҳоказо) мавжуд [4]. Мен ҳеч қачон қаноатланмайман, чунки менинг хоҳишларимнинг чеки йўқ; Мен кўпроқ нарсага эга бўлганларга ҳасад қилишим керак ... ”[5]. Очкўзлик бўлмаса-да, ҳаддан ташқари эҳтиёж туфайли юзага келган эгалик қилиш истаги салбий, асосан ҳалокатли хусусиятлар ва истакларнинг чигаллигини (бошқаларга қарама-қаршилик ва ҳасад, алдаш, вайрон қилиш, эксплуатация қилиш ва бошқалар) ўз ичига олади

Эгоизмнинг мақсадга йўналганлиги. Эгоист шахсларнинг мақсад сари йўналганлиги, ҳаракати ва фаоллиги билан у ижтимоий муҳитда ўзининг манфаатларига максимал даражада эриша олади. Улар ўз мақсадларига эришиш учун ўзларини ҳеч нарса билан чекламайдилар ва ҳеч қандай ахлоқий талаблар уларни тўхта олмайди. “Эгоист, – деб таъкидлади М. Штирнер, –ҳеч нарсада ўзини чекламайди ёки қурбон қилмайди, у шунчаки қарор қилади: менга нима керак бўлса мен унга қандай бўлмасин эгалик қилишим керак” [6].

Зиддиятли эгоизм. Ўз-ўзини севиш одамларни бир-бирига душман қилади, деб ҳисоблаган Д. Юм [7].

Эгоизм назариётчиси М. Штирнер эгоистик мотивация ҳақида шундай фикр билдиради: “Дунё менинг йўлимга тўсқинлик қилганда, мен уни йўқ қилиш орқали ўз эҳтиёжларимни қондираман”, [8]. Эгоист шахснинг бузғунчи салоҳияти Р. Лаут томонидан қайта-қайта таъкидланган: “Эгоист манфаат, куч, ўз хоҳиши ва ҳалокат идеалига амал қилади” [9].

Шахс жамиятнинг муҳим бир бўлаги сифатида ўрганилиши лозим бўлган феномендир. Шундай экан шахснинг ижобий хулқ атвор кўринишлари билан бирга унинг эгоизм каби салбий хислатларини ўрганиш психология фанининг асосий вазифаларидан биридир.

Хулоса қилиб айтганда, жамиятда шахснинг маънавий камолоти ҳамма вақт ҳам муҳим масалалардан бўлиб келган. Шундай экан, жамиятда салбий деб қараладиган айрим хулқ кўринишлари, хусусан, эгоизмни ўрганиш, улар билан коррекцион ишларни амалга ошириш заруратини келтириб чиқаради. Биз кейинги тадқиқот ишимизда эгоизм юқори бўлган шахсларни ижтимоий психологик тренинглари, ролли ўйинлар ва психологик машғулотлардан фойдаланган ҳолда коррекция қилишни олдимизга мақсад қилиб олдик.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Калин Ж. Ин Дефенсе оф Эгоизм // Моралитй анд Рационал СелфИнтерест / Эд. Д.П.Гаутҳиер. Энглеууд Слиффс, 1970. П.64—87

- 2.Штирнер М. Единственный и его собственность. Харьков, 1994. С.306-307
- 3.Марсель Г. Быть и иметь. Новочеркасск, 1994
- 4.Сартр Ж.П. Бытие и ничто: Опыт феноменологической онтологии. М., 2000.
- 5.Фромм Э. Иметь или быть? М., 1986.С. 32

TA'LIM VA MEHNAT JARAYONIDA SHAXS PSIXOSOMATIK KASALLIKLARINING IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK OMILLARI VA OQIBATLARI

Mekhriniso SAYDALIYEVA

Teacher of the Department of Psychology of Termiz State University

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada, yuqoridagi salbiy ruhiy xolatlarning surunkali davom etishi natijasida, qanaqangi asab – psixosomatik kasalliklarning kelib chiqishi, dunyo bo‘ylab xar 3/1 insonda kuzatilayotgan depressiya, uning alomatlari hamda undan xalos bo‘lish usullari haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** asab – ruhiy kasalliklar, psixosomatika, stress, depressiya, fobiya, affekt, psixoanaliz, psixoterapiya.*

Hozirda butun dunyoda kechayotgan jarayonlar nafaqat davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holatiga, shuningdek insonlarning ruhiy holatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Xar bir shaxs o‘z individual-psixologik xususiyatlariga qo‘ra, biri-biridan tubdan farqlanadi. Biz ushbu holatni bazi insonlarning hotirjam, normal ruhiy xolatda ekanliklarida, ba’zi insonlarda esa aksincha, fobiya (qo‘rquv), affekt (miyadagi kuchli qo‘zg‘alish, xatti-xarakterlar ustidan nazorat yo‘qolishi), stress, depressiya (ruhiy tushkunlik) kabi holatlar hamda turli xil asab – ruhiy kasalliklarning yuzaga kelishida ko‘rishimiz mumkin.

Asab – ruhiy kasalliklar bilan shug‘ullanuvchi fan sohasi psixosomatika deb nomlanib, bu soha psixologiya va tibbiyot sohalarining birlashuvidan yuzaga kelgan. Psixosomatika – bu insonda doimiy tarzda kechuvchi ichki bosim, zo‘riqish, ruhiy tushkunlik, stress natijasida inson a‘zolari faoliyatining buzilishi orqali namoyon bo‘luvchi kasalliklarni o‘rganadi. Bu organizmning yuqoridagi salbiy holatlarga qarshi javob reaksiyasidir. 1950 – yilda amerikalik psixoanalitik olim Frants Aleksander psixosomatik kasalliklarning 7 turini ajratdi. Bular bronxial astma, gipertoniya, revmatoid artrit, oshqozon va 12 ichak yarasi kasalliklari, qandli diabet, yarali kolit, neyrodermitdan iborat. Keyinchalik bularning qatoriga yurak xuruji, bepustlik, saraton, bosh, bo‘yindagi og‘riqlar xam qo‘shildi. Psixosomatik kasalliklarning asosini kengroq tushinish maqsadida quyidagi voqeani keltirib o‘taman. Rossiyalik psixoterapevt Olga Lukina o‘z shaxsiy tajribalaridan birida quyidagi xodisani qayd etadi: bir mijoz yurak atrofidagi kuchli va tez – tez kuzatiladigan og‘riqdan shikoyat qiladi. Ammo tekshiruvlar natijasida unda yurak bilan bog‘liq muammolar aniqlanmaydi. Shundan so‘ng ma’lum bo‘lishicha, u erkak yirik xalqaro kompaniyada bosh boshqaruvchi vazifasida ishlab, ko‘p mexnat qilar va o‘z ishlarini sidqidildan bajarishga odatlangandi. Ammo uning yangi raxbari o‘ta jaxldor va imkoniyatsiz narsalarni talab qiluvchi kimsa edi. Natijada u qanchalik mukammal ishlashga intilgani sayin shunchalik ko‘p xatoga yo‘l qo‘yar va

boshliqdan undan qoniqmayotganligi borasida dakki eshitardi. Undagi qo'rquv va xavotir kattalashadi. Doimiy stressga javoban organizim passivlikka o'tadi. Ya'ni doimiy xavotir, ichki zo'riqishdan charchagan inson organizmi faollikdan ko'ra uyquni afvzal biladi. U erkak esa yurak soxasidagi og'riqlar sabab xoxlasa-da, uxlay olmaydi. Vrachning so'zlariga ko'ra, shu xolat yana ozroq vaqt davom etganda, mijozda miokard infarkt yoki insultning yuzaga kelishiga sabab bo'lardi.

Ushbu voqeadan kelib chiqib aytish joizki, insonning ichki ruhiy kechinmalari, xis – tuyg'ulari turli jismoniy kasalliklarni keltirib chiqarishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Boshqa turdagi psixosomatik kasalliklar quyidagilardan iborat. O'ziga ishonmaydigan, ichki xislarini tashqariga chiqara olmaydigan, o'z imkoniyatlarini yetarlicha baxolay olmaydigan insonlarda tez-tez bosh og'rig'i kuzatiladi. Stressga, xavotirga beriluvchan, asabiy, noumid insonlarda soch bilan bog'liq muammolar – soch to'kilishi va oqarishi kuzatiladi. Keng tarqalgan psixosomatik kasalliklardan biri – psixogen kardiologiyadir. Bu xolatda insonlarda kuchli ichki zo'riqish, stress natijasida, xavo yetishmasligi, yurakning ba'zan tez, ba'zan esa sekin urishi, yurakning tomoqqa tiqilguday bo'lib qattiq urishi, qizib ketish yoki sovuq qotish kabi xolatlar yuzaga keladi. Shu sababli bu soxadagi og'riqlarni faqatgina infarkt yoki stenokardiya bilan bog'lash noo'rindir. Kuchli asabiy – ruhiy zo'riqish natijasida, qo'l va oyoq suyaklari xamda bo'g'imlarda kuchli og'riq kuzatiladi. Bu kabi holatga ba'zan bod (revmatizm) degan noto'g'ri tashxis qo'yiladi. Muntazam ruhiy zo'riqishlardan so'ng insonlarda nafas yetishmovchiligi bilan bog'liq holat – psixogen astma yuzaga keladi. Uning haqiqiy astmadan farqi – tomoq qichishi, qurib qolishi, nafas yetishmovchiligidadir. Bunday xolatda allergologga emas tibbiy psixologga murojat etish kerak.

Amerikalik psixolog olim Jeykob Liberman “21 – asr rivojlangan texnika va asab ruhiy kasalliklar davridir” deya yozadi. Jaxon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzida depressiyaga chalinganlar soni 200 000 000 ga yaqinni tashkil etmoqda. Depressiya kuchli va davomiy ichki zo'riqish, yaqin insonini yo'qotish, muvaffaqiyatsizliklar, uzoq davom etuvchi og'ir kasalliklar ta'sirida yuzaga keladi. Unga chalingan insonlarda tushkunlik, umidsizlik, g'am-g'ussa, o'zidan va hayotdan qoniqmaslik, doimiy bosh og'rig'i va bosh aylanishi, xolsizlik, xotira susayishi, qabziyat, ishtahaning pasayishi, nafas yetishmasligi, qaysarlik, yolg'izlikka intilish, ozib ketish kabi holatlar ro'y beradi. Tayvan milliy tibbiyot markazida ishlovchi olim Fu Chi Yan nevrologiya bo'limidagi 600 bemorni o'rganib, migren, bosh og'rig'i va depressiya o'rtasidagi bog'liqlikni kashf etdi. Depressiya antidepressant (miyada “baxt garmoni” deb nomlanuvchi serotoninni oshiruvchi dori vositasi) dori – darmonlar bilan va psixoterapevtik suhbatlar orqali davolanadi. Bu holat esa erishilmagan, qondirilmagan ehtiyojlarga aylanib, ichki alamzadalik va nevrozni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Психосоматика // Прикладные аспекты современной психологии : термины, концепции, методы : справочн. изд. / Авт.-сост.: Н. И. Конюхов (доц., канд. наук). — М., 1992.

2. Малкина-Пых И. Г. Психосоматика. Справочник практического психолога. — М.: Эксмо, 2005.

3. Deuraseh Nurdeen, Abu Talib Mansor (2005). "Mental health in Islamic medical tradition". The International Medical Journal.

SHAXSNI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK HIMOYA QILISH VA XAVFSIZLIK

Z.Ch. Alimov

Termiz davlat universiteti

“Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrası” o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xavfsizlik va uning turlari, Axborot xavfsizligining vazifalari haqida so‘z boradi. Axborot xurujlari, mutaxassislar kompyuter jinoyatchiligida farqlanadigan turlarini, psixologik himoya, axborot-psixologik qurol, psixologlar himoya mexanizmlari va ularning turlari kabilar haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lasiz. Shaxsni ijtimoiy-psixologik himoya qilish va xavfsizlik bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi va asosiy yo‘nalishi haqida bilib olasiz.

Kalit so‘zlar: xavfsizlik, axborot xavfsizligi, xakerlar, krekerlar, frikerlar, proeksiya, identifikatsiya, regressiya, ratsionalizatsiya, konversiya

Xavfsizlik tushunchasi bevosita shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik va biologik tizimlarida normal faoliyat yuritishini kafolatlovchi tushunchadir. Ijtimoiy tuzilmaning, ya‘ni, yaxlit jamiyatning xavfsizligi odamlar hayot tarzining sifatini, uning davomiyligini belgilovchi muhim mezondir. Bu o‘rinda fanda bevosita xavfsizlik tushunchasiga yaqin ishlatiladigan bir qator tushunchalarga izoh berish joizdir.

Ijtimoiy xavfsizlik – jamiyatda mavjud bo‘lgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni ta‘minlash organlari, davlat muassalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istaqlari, maqsad- muddaolarini amalga oshirishlariga imkon berish bilan bog‘liq vazifalarini o‘z ichiga oladi. Bunda ayrim-alohida tabaqa yoki aholi qatlamining manfaatlari, ya‘ni, ularning yaxshi yashashlari, uzoq umr ko‘rishlari, bir hududdan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishiga aloqador xavfsizlik nazarda tutilmaydi.

Milliy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat, iqtisodiyot va davlatchilikning barqaror taraqqiyot etishi uchun xavf solishi mumkin bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimini bildiradi. Milliy xavfsizlik tashqi va ichki xavflardan yaxlit jamiyatni muhofaza qilishni nazarda tutadi.

Tashqi xavfsizlik – ikki bosqichni nazarda to‘tadi: umuminsoniy yoki global xarakterli va davlatlararo xavfsizlik masalalari. Tashqi xavfsizlik tahlil etilganda avvalo ekologik, harbiy, radiatsion, epidimiologik, kriminal-jinoiy, biologik va madaniy-axloqiy (ekspansiyalar) turdagi xavflarning oldini olish nazarda tutiladi.

Ichki xavfsizlik esa mamlakat doirasida inson konstitutsion huquq va kafolatlariga aloqador bo'lgan iqtisodiy diversiyalarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslikka bog'liq bo'lgan maxsus choralarni, terroristik xurujlarning oldini olish va ularni vaqtida bartaraf etish, kelib chiqishi bo'yicha ijtimoiy, tabiiy, biologik hamda texnik asosli tahdidlardan jamiyat a'zolarini himoya qilishni nazarda tutadi.[3, B. 84]

Axborot xavfsizligi – aslida jamiyatning ob'ektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo'lishi uchun yaratilayotgan shart- sharoitlarni nazarda to'tadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali aholiga yetib keladigan ma'lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo'lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak.. Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo'layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bo'lavermaydi va jamiyat o'z a'zolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo'ladi.

Axborot xavfsizligining vazifalari:

- ✓ shaxs va jamiyatning axborot qabul qilish va undan foydalanishga bo'lgan huquqini ta'minlash;
- ✓ xolis axborotlar makonini ta'minlash (mustaqil OAV tizimini yaratish orqali);
- ✓ informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni bartaraf etish yo'li bilan ushbu yo'nalishda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan terroristik tahdidlar, jumladan, telefon orqali, kompyuter tizimi orqali ro'y beradigan xavflarni, shu orqali noqonuniy mablag'larning bir manbadan ikkinchisiga oqib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- ✓ shaxsni, tashkilot va yaxlit jamiyatni axborot- psixologik tahdidlardan himoya qilish;
- ✓ imidjni shakllantirish, turli bo'hton, mish-mishlar va noo'rin xabarlarga qarshi kurashish.

Shaxsni ijtimoiy-psixologik himoya qilish va xavfsizlik bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib, u kishining ruhiy va jismoniy salomatligini himoya qilishga qaratilgan strategiya va choralarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonning asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

1. Shaxsiy chegaralarni belgilash va himoya qilish: Bu jarayonda odam o'z shaxsiy chegaralarini belgilab olishi va atrofdagilar bilan o'zaro muloqotda bu chegaralarga rioya qilinishini ta'minlashi zarur. Shaxsiy chegaralar buzilishi odatda stress, xavotir, hattoki depressiyaga olib kelishi mumkin.

2. Salbiy ta'sirlardan himoyalaniish: Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari yoki atrofdagi insonlar orqali kelayotgan salbiy ta'sirlardan himoyalaniish juda muhimdir. Buning uchun o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, salbiy ta'sirlarni cheklash va ijobiy axborot bilan oziqlanish muhim hisoblanadi.

3. Ruhiy bardamlikni oshirish: Ruhiy bardamlikni oshirish uchun odam stressni boshqarish usullarini (meditatsiya, jismoniy mashg'ulotlar, o'zi yoqtirgan mashg'ulot

bilan shug‘ullanish) o‘rganishi kerak. Bu usullar ruhiy barqarorlikni oshirishga yordam beradi.

4. O‘zi haqida ijobiy fikrni shakllantirish: O‘ziga nisbatan ijobiy fikrga ega bo‘lish, o‘zini qadrlash, o‘z imkoniyatlariga ishonish ham ijtimoiy-psixologik himoya uchun muhim hisoblanadi. Odam o‘zini qanday qabul qilsa, atrofdagilar ham unga shunday munosabatda bo‘lishadi.

5. Sog'lom ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish: Tashqi dunyo bilan sog'lom va ijobiy munosabatlarni shakllantirish orqali shaxs o‘zining ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashi mumkin. Qo‘llab-quvvatlovchi do‘stlar va yaqin insonlar bilan muloqot qilish ham psixologik himoya beradi.

6. Xavfsizlik choralarini ko‘rish: Ijtimoiy xavfsizlikni oshirish uchun onlayn faoliyatda ehtiyotkorlik qilish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, tanish bo‘lmagan insonlar bilan shaxsiy ma‘lumotlarni bo‘lishmaslik lozim.

Bu tamoyillar shaxsiy rivojlanish va psixologik xavfsizlikni ta'minlashda yordam beradi, bu esa shaxsning ijtimoiy hayotida sog'lom va barqaror bo‘lishi uchun zarurdir.

Axborot xurujlari turlicha bo‘lgani uchun unga nisbatan xavfsizlik choralarini ko‘rish ham turli sohalarda (siyosat, iqtisodiyot, mudofaa) va turli jabhalarda (davlat miqyosida, hududiy, tashqilish, shaxsiy) amalga oshiriladi. Ya’ni, davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta’minlashga aloqador bo‘lgan ishlar muayyan bir tashkilot doirasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligidan farq qiladi. Birinchisiga gap milliy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risida ketsa, ikkinchi holatda tashkilotdagi muayyan ijtimoiy guruhlararo axborot almashinuvida bo‘hton, to‘xmat, mish-mishlar tarqatishga bog‘liq bo‘lgan salbiy holatlar nazarda tutiladi. Lekin ikkala holat ham axborot xurujlariga odamlarning normal faoliyatlari uchun xalaqit beruvchi omil sifatida qaraladi.

Axborot xurujlari – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo‘naltirilgan ta’sir bo‘lib, uning asl maqsadi o‘sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarining g‘arazli niyatlaridan kelib chiqadi.

Mutaxassislar kompyuter jinoyatchiligining quyidagi turlarini farqlaydilar:

- 1) terrorizm;
- 2) josuslik (xalqaro va sanoat sohasidagi);
- 3) ekstremistik guruhlar faoliyati (siyosiy, ekologik va diniy yo‘nalishlardagi);
- 4) uyushgan jinoyatchilik va qalloblik;
- 5) xakerlar faoliyati (alohida va uyushgan guruhlar).

Yuqori axborot texnologiyalari sohasida esa quyidagi toifali jinoyatchilik turlari farqlanadi:

a) **xakerlar** (ingliz tilidan olingan: hackers) – kompyuterlar va axborot tizimlarini juda yaxshi biladigan odamlar;

b) **krekerlar** (ingl. srackers) – axborot tizimning xavfsizligi ataylab buzib, ruxsatsiz unga o‘zgartirish kiritish bilan shug‘ullanadigan insonlar;

v) **frikerlar** – (ingl. phreakers) turli xil telekommunikatsiya tizimlarida qo‘poruvchilik bilan shug‘ullanadiganlar.

Axborot- psixologik qurol – bu yangi turdagi qurol bo‘lib, u ommaviy axborot vositalari, kompyuter o‘yinlari, Internet tizimi yordamida inson ongi orqali uning psixikasiga ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangandir.

Psixologik himoya – shaxsni turli salbiy ta’sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shunday holatlarda odam odatda shaxslararo munosabatlarda o‘zini boshqacharoq to‘tadigan bo‘lib qoladi. [2, B. 55]

Psixologlar himoya mexanizmlariga odatda quyidagilarni kiritadilar:

Ochiq - his-kechinmalarni bosish, ko‘rsatmaslikka urinish;

Rad etish - ya’ni noma’qul ma’lumotni ochiq rad etish, qo‘shilmaslik;

Proeksiya – o‘zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi ob’ektlarga ko‘chirish orqali paydo bo‘lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;

Identifikatsiya – o‘zini axborot egasiga o‘xshatish, uning o‘rniga o‘zini qo‘yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o‘zlashtirish;

Regressiya – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo‘lib o‘tgan qaysidir voqelarga qaytish, ularning yaxshi va ma’qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o‘zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;

Yolg‘izlanish – jamiyatdan o‘zini olib qochish, o‘zidagi o‘zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish, masalan, shunday sharoitlarda ayrim talabalar o‘qishga bormay qo‘yadilar;

Ratsionalizatsiya – mulohaza va fikr yuritish orqali o‘zida himoya instinktlarini paydo etish;

Konversiya- muloqotdagi qandaydir to‘siqlar yoki barerlarni olib tashlash uchun kutilmagan usullarni qo‘llash, masalan, xavotirli informatsiyani yumoristik mavzu bilan almashtirish yo‘li. [6, B. 118]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2017.
2. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – T., 2007.
3. Arifxodjayev I.X. Ichki ishlar idoralari xodimlari psixologiyasi. – T., 2007.
4. Botirov B.M. Etnopsixologiya: O‘quv qo‘llanma. – T., 2011.
5. G‘oziyev E.G. Yosh davrlar psixologiyasi. – T., 1994.
6. Grishina N.V. Psixologiya konflikta. – CPb., 2005.

OLIV TA’LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O’RNI VA AHAMIYATI

Alimardonova Nasiba Abdug‘affor qizi

Termiz davlat universiteti

Psixologiya ta’lim yo‘nalishi 1-kurs (Sirtqi) talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o‘quv yurlarida talabalarga pedagogik va psixologik xizmat samaradorligini oshirish usullari va vositalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishdan tashqari oliy o‘quv yurlarida talabalarga pedagogik va psixologik xizmat samaradorligini oshirishda amalga oshiriladigan ishlar va ularning amaliy tadbiri haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Oliy taʼlim, universitet, psixologik va pedagogik xizmat koʻrsatish, T. I. Volkova, A. V. Brushlinskiy, talabalar, Psixofiziologik tuzatish va boshqalar.

Kirish. Bugungi kunda oliy oʻquv yurtlari quyidagilar uchun sharoit yaratishga moʻljallangan tizim boʻlib shaxsning mehnat, bilish va aloqa subʼekti sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun yoʻl hisoblanadi. Shu munosabat bilan, oliy taʼlim muassasalari psixologik-pedagogik xizmatlari darajasi oshdi, subʼektiv rivojlantirish uchun shart-sharoitlar bilan taʼminlash shaxsning salohiyati, shaxsiy oʻz imkoniyatlarini yanada etarli darajada anglash universitetda oʻqish paytida yosh avlodni bilim tajribasni oshirish, oʻzining psixologik imkoniyatlarini va turli qiyinchiliklarni engishda oʻzida kuch toʻplaydi. Bir qator oliy oʻquv yurtlarida yaratilgan psixologik xizmatlar bugungi kunda mavjud emas shunga qaramay, talabalarda bilim olish va yangi taʼlim jarayoniga moslashish koʻnikmalari shakllanib kelmoqda. Maqolaning asosiy maqsadi bugungi kunda universitetlarda talabalarni oʻqitish jarayonida psixologik-pedagogik yordamning xususiyatlarini nazariy hamda amaliy asoslash va aniqlashdir. Universitetda qoʻllab-quvvatlash tizimi maxsus psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratishni oʻz ichiga qamrab oladi bu esa muvaffaqiyatli individual rivojlanish, va oʻz-oʻzini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda bu, koʻpincha moslashish toʻsigʻini engib oʻtolmaydigan birinchi kurs talabalari uchun juda yaxshi koʻmak xisoblanadi. Kasb-hunar taʼlimini psixologik qoʻllab-quvvatlash zarurati universitetlardagi psixologik xizmati uzoq vaqtdan beri mahalliy psixologlar va oʻqituvchilar tomonidan amalga oshirilib kelingan. Ushbu muammo bugungi kunda albatda bizning davlatimizda ham mavjud inistitut va universitetlarimizda psixologik va pedagogik xizmat koʻrsatish ishlari juda quvonarli deya olmaymiz chunki talabalardan universitet psixologi kim deb soʻrasak aksariyat talabalar buni bilishmaydi bu esa oʻz navbatida shu mutaxassis kasbiga yaxshi yondashmayotganligidan dalolat beradi. Bu yuqori malakali mutaxassislarga qoʻyiladigan yangi talablar bilan bogʻliq edi ilmiy-texnik ishlanmalar va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yangi bosqichi bilan aloqalar koʻplab rivojlangan davlatlarda ular uchun yetarli ilmiy texnikaviy baza shakllantirib qoʻyilgan.

Psixologik va pedagogik yordamning turli jihatlari psixologik yordam talabani kasbiy moslashuvi, kasbiy mustaqilliginishakllantirish va barqarorlik, kasbiy deformatsiyalarning oldini olish, professoroʻqituvchilarning moslashuvi va readaptatsiyasi, soʻnggi yillardagi dissertatsiya tadqiqotlarida oʻz aksini topdi; psixologik-pedagogik qoʻllab-quvvatlash tizimining individual tarkibiy qismlari bugungi kunda yaratilgan xamda kamchiliklar ustida ishlar olib borilmoqda deya olamiz. Biroq, umuman universitet faoliyatini psixologik qoʻllab-quvvatlash muammosi, psixologik va pedagogik qoʻllab-quvvatlash tizim va jarayon sifatida yuqori darajadagi barcha tarkibiy elementlarni qamrab oladi deya olmaymiz. Psixologik va pedagogik qoʻllab-quvvatlash doimiy, uzoq muddatli jarayon sifatida ham belgilanadi kutish, tashxis qoʻyish va hal qilishda maxsus oʻqitilgan oʻqituvchi-psixologning ishtiroki talabani shaxsiy muammolarini yechish uchun yoʻnaltiriladi. T. I. Volkova psixologik va pedagogik yordamni quyidagicha koʻrib chiqadi talabani kasbiy tayyorgarligini psixologik qoʻllab-quvvatlashning bir qismi ekanligini taʼkidlaydi. Shunday qilib, A. V. Brushlinskiy psixologik va pedagogik

qo'llab-quvvatlashning asosiy muammosi deb hisoblagan universitetda talabaning kasbiy tayyorgarligi, birinchi navbatda, o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoitlar tizimini yaratishdir. Uning ta'kidlashicha, umumiy tizim, talabalarning shaxsiy, aqliy fazilatlar va jarayonlari oliy ta'lim uchun ayniqsa muhimdir: motivatsiya, qobiliyat, aks ettirish va boshqalar shular jumlasidandur. SHu bilan birga, u talabalar tegishli psixologik bilim va psixotexnikani o'zlashtirganda ularda yaxshi natija bo'ladi va o'z hayot yolari davomida va ya'ni, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni, va muammoli vaziyatlar yengish uchun o'zlarida ichki psixologik motivatsiya shakllanadi.

Talabalarning ijodiy rivojlanishining muhim sharti ekanligini, A.V. Brushlinskiy ham o'z ilmiy ishlarida ko'rib chiqdi talabalarning psixologiya fanining hayotdagi qiyinchiliklarni engish va chinakam samaradorligini tushunishlari hamda bu fanga nisbatan qiziqish mavjud ekanligini aniqlagan. SHunday qilib, T. G. YAnicheva psixologik va pedagogik yordamni tashkiliy tizim sifatida belgilaydi, optimal sharoitlarni yaratishga qaratilgan diagnostika, ta'lim va rivojlanish choralari bo'lajak mutaxassisning shaxsiy rivojlanishi psixologik va pedagogik yordam o'quv faoliyatini ko'p bosqichli tashkil etish sharoitida talabaning kasbiy tayyorgarligi quyidagilar bo'lishi mumkin bo'lajak mutaxassisda bir qator shaxsiy fazilatlar shakllantirishga ko'maklashish jarayoni sifatida taqdim etilgan, kabi:

- mustaqil, ma'lumotli, erkin va mas'uliyatli tanlov qilish qobiliyati va tayyorligi;
- bitiruvdan keyin kasbiy tayyorgarlikka intilish, mustaqil kasbiy rivojlanish va o'zini takomillashtirish;
- olingan bilimlarga muvofiq kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik kasbiy malaka va ko'nikmalar egalsh.

Psixologik va pedagogik yordamning asosiy maqsadi o'qituvchilar har bir ta'labaga bilim berish davomida ularning rivojlanishi va har birining individual xususiyatlaridan kelib chiqib talaba bilan o'zaro munosabat taktikasini qo'llash lozim bo'ladi. Oliy ta'lim tizimida psixologik va pedagogik yordamning vazifalari, psixologik va pedagogik xizmatni ta'minlash universitet talabalarining yangi va ijtimoiy sharoitlarda muvaffaqiyatli kasbiy tayyorgarligiga ko'maklashish, talaba va o'qituvchi tizimida ishonchli va muhiti shakllantirish. O'quv jarayonida kasbiy va psixologik yordamning mohiyatini quyidagicha aniqlash mumkin psixofiziologiya va kasbiy tanlov sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui katta maktab o'qituvchilari va talabalarning psixologik diagnostikasi va psixologik-pedagogik tayyorgarligi, turli hildagi qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan shaxslarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash va chuqur o'rganish va moslashishdagi qiyinchiliklar, shuningdek ularning funksional ruhiy holati va ish qobiliyatini korreksiya va profilaktika ishlarini olib borish va ta'lim faoliyati samaradorligi, shaxsiy kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirish fazilatlar, umuman mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishdur.

Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy faoliyatiga quyidagilar kiradi:

- shaxsning aqliy va intellektual faoliyat turini baholash;

-bitiruvchi talabalarning kasbiy yoʻnalishini va rivojlanishini aniqlash kelajak kasbini tanlash boʻyicha psixologik tavsiyalar;

-taʼlimda oʻqitish va ijtimoiy-psixologik moslashuvning muvaffaqiyatini prognoz qilish; taʼlim va kasbiy faoliyat uchun motivatsiyani shakllantirish va qoʻllabquvvatlash;

-qabul qilishga tayyorgarlik jarayonida psixologik yordamga muhtoj shaxslarni aniqlash va universitetda oʻqishning dastlabki birinchi bosqich talabalarga maslahat va tavsiyalar berish;

-psixologik treninglar va psixologik-pedagogik mashgʻulotlarni oʻtkazish;

-qiyinchiliklarga duch kelgan shaxslar bilan psixofiziologik tuzatish tadbirlarini oʻtkazish va moslashtirish.

Psixofiziologik tuzatish tadbirlarini oʻtkazish uchun hisoblanadigan muammolar va moslashishdagi qiyinchiliklar: past intizom; asosiy oʻquv fanlari boʻyicha past akademik koʻrsatkichlar; □salomatlik holati va sogʻligʻining yomonligi haqida koʻplab shikoyatlar; oʻqish uchun motivatsiyani pastligi Psixofiziologik tuzatish choralari quyidagilarga qaratilgan:

-hissiy barqarorlikni oshirish; oʻz-oʻzini hurmat qilishni shakllantirish;

-psixologik noqulaylikni bartaraf etish;

-shaxslararo nizolarni hal qilishda yordam berish □kognitiv aqliy jarayonlarning rivojlanishi;

-muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;

Kasbiy psixologik yordam faoliyatida qoʻllaniladigan asosiy psixologik tuzatish ishlari kiradi:

-aqliy oʻzini oʻzi boshqarish texnikasini oʻrgatish;

-samarali aloqa texnikasini oʻrgatish;

-biologik faol nuqtalarni oʻz-oʻzini massaj qilish texnikasini oʻrgatish;

-faol va passiv mushaklarni boʻshashtirish va boʻshashtiruvchi vosita mashgʻulotlarini oʻrgatish texnikasi;

Natijada, psixofiziologik qoʻllab-quvvatlash tadbirlarining asosiy maqsadi funksional qulaylikka erishish uchun, talabada taʼlim olish jarayonida yuqori samaradorlik va kasbiy tayyorgarlik hamda psixologik ijobiy kayfiyatni shakllantiradi.

Shunday qilib psixologik va pedagogik qoʻllab-quvvatlash tushunchasda quyidagi fikrlar eng muhimi sanaladi, yani psixologik va pedagogik qoʻllab-quvvatlash-bu qulay sharoit yaratadigan texnologiya xisoblanib talaba, oʻqituvchi, universitet xodimining shaxsiyatini rivojlantirish va ularning yanada, muvaffaqiyatli ishlashi shaxsiy va professional tarzda rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Psixologik va pedagogik qoʻllab-quvvatlash-bu tashkiliy, ijtimoiy-psixologik tizim va kasbiy va shaxsiy rivojlanishni optimallashtirishga qaratilgan psixologik chora-tadbirlar boʻlib boʻlajak mutaxassis va universitetning psixologik xizmati doirasida amalga oshiriladi. Psixologik qoʻllab-quvvatlash nafaqat quyidagilarni oʻz ichiga oladi talabalar kontingenti, shuningdek, oliy oʻquv yurtining boshqa elementlari va tuzilmalarini rivojlanish xamda ijobiy psixologik iqlimni yuzaga keltirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. — T.: «O‘qituvchi», 1992. Davletshin M.G.
2. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi. — T.: TDPU nashriyoti, 1997.
3. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Gomezo tahririda. — T.: «Sharq», 1982.
4. Nishonova Z. Bolalar psixodiagnostikasi. — T.: TDPU nashriyoti, 1999.
5. G‘oziyev E. Intellekt psixologiyasi. — T.: «O‘qituvchi», 1996. G‘oziyev E. Inson psixikasining rivojlanishi. — T.: «O‘qituvchi», 1996.

BOLANING PSIXIK RIVOJLANISHIDA O‘YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Jakbarov Abduvohid Maxmudjon o‘g‘li
Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya ta'lim yo'nalishi 1-kurs (Sirtqi) talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolaning muayyan xususiyatlari, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat’iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intilishlari va bolaning psixik rivojlanishida o‘yin faoliyatining roli haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘yin, faoliyat, harakat, maktabgacha yosh, sub’yekt, jism, rolli o‘yin

Ko‘pchilik psixologlar hamda pedagoglar o‘yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug‘ullanib, o‘yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Ma’lumki, o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. O‘yinning qiziqarliligi uni anglab yetishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, bola hayotida o‘yin ham xuddi shunday ahamiyat kasb etishi mumkin. Jahon psixologiyasi fanida to‘plangan boy ma’lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlari shakllantirishda o‘yinlar katta rol o‘ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o‘rishiga o‘yinning ta’siri haqida gap borganida avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o‘yinni tashkil qilishning o‘ziyoz mazkur yoshdagi bolaning harakatini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o‘yinning bola harakatiga ta’sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini sub’yekt aynan o‘yin paytida emas, balki bevosita mashg‘ulot orqali o‘zlashtiradi. Uchinchidan, o‘yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o‘yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta’minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o‘yin) sub’yekt (jonot) ongining dastlabki ob’ekti darajasiga o‘tib o‘tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo‘lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat’iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o‘yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi

va yangi shakldagi harakatlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi.

Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi. Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini berdi: a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi. O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulqatvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan

Z.V.Manuylenkoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zan ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari ham mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning aqliy o'sishi to'g'risida fikr yuritilganda, shuni ham aytish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy ko'rinishiga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tuvchi narsalarning aksariyatidan o'yinda bevosita o'ekt sifatida foydalaniladi. O'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'liq jihatini aks ettiradi. Yuqorida aytilganidek, narsa bilan o'yin harakatlarning takomillashuvi harakat shakli, xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O'yin harakatlarning qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko'rinishdagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tafakkur va

aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida narsalami qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning flkriy, aqliy jihati namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi. Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o'yin faoliyatida bolaning aqliy o'sishini chuqurroq izohlab berish hali yetarli tajriba ma'lumotlari mavjud emas. Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlam shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning histuyg'usini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.G'.E.G'oziyev Ontogenez psixologiyasi. Toshkent 2020-yil
- 2.Sh.A.Dustmuxamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbaeva Yosh davrlari ra pedagogik psixologiya. Toshkent, TDPU
- 3.Ананьев Б.Г. К психофизиологии студенческого возраста / Современные психолого-педагогические проблемы высшей школы / Под ред. Б.Г. Ананьева, Н.В. Кузьминой. — Вып. 2. — Л.: ЛГУ, 1974.
- 4.Выготский Л.С. Собр. соч. в 6 т. / Под ред. А.М. Матюшкина. — М.: Педагогика, 1982—1984.
- 5.Ильин В.С. О повышении системности в педагогической подготовке студентов к работе в школе / Современные задачи общеобразовательной школы и проблемы подготовки педагогических кадров: Сб. науч. тр. АПН СССР НИИ общей педагогики. — М., 1978.

ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАР ОИЛАСИДА ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

*Ибрагимо Шерзод Эгамбердиевич
Мустақил тадқиқотчи*

Ҳарбий хизматчилар оиласида тарбияланаётган қизларни оила шароитида мустақил оилавий ҳаётга тайёрлашга йўналтирилган фаолият жараёнида педагогик таъсир воситаларининг кучига мурожаат этилиши мақсадга мувофиқдир. Қизларни оилавий ҳаётга тайёрлашга таъсир кўрсатишнинг қуйидаги воситалари самарали эканлиги аниқланди:

1. Қизларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш мақсадида олиб борилган таълим ва тарбия. Маълум мақсадга йўналтирилган (мазкур ўринда қизларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш) таълим ва тарбия ишларини олиб бориш

асосида қизларда оилавий ҳаётни ташкил этиш борасидаги назарий билим ҳамда амалий кўникма ва малакалар шакллантирилади.

2. Қизларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш жараёнида миллий ва умуминсоний қадриятлар ва уларда илгари сурилган ғоялардан фойдаланиш. Миллий ва умуминсоний қадриятлар ва уларда илгари сурилган ғоялар қизларда оилавий ҳаётни ташкил этиш, оила аъзолари ўртасида мулоқот муносабатларни олиб бориш чоғида ўзбекона урф одатлар (катталарга ҳурматда, кичикларга иззатда бўлиш, меҳмонларга ҳурмат кўрсатиш, ҳовли, уй жойларни озода тутиш, оила сирларини ошкор этмаслик, оилавий масала ёки муаммоларни қариндош уруғлар билан маслаҳатлашиб ҳал этиш, оилавий тадбирларни кўпчилик иштирокида ўтказиш ва ҳоказолар), ҳаёли, иболи, самимий, камтарин ва меҳнатсевар бўлиш, фарзандлар тарбиясини олиб боришда миллийликка эътибор бериш борасида маълум билим ҳамда кўникмаларнинг шаклланишига замин ҳозирлайди.

O'rta yosh inqirozi - bu inson 30-50 yoshda boshdan kechiradigan hissiy holat, ko'pincha bu hayot tajribasini qayta baholash bilan bog'liq. Ko'rinib turibdiki, yoshlikning ko'plab imkoniyatlari va orzulari o'tkazib yuborilgan, ammo qarilik (yoki o'lim) juda tez orada keladi. Turli odamlar uchun inqiroz turli yoshda sodir bo'ladi, bu individual xususiyatlarga bog'liq. Inqiroz ko'pincha hissiy qo'zg'alish davri sifatida belgilanadi va o'zgarishga chanqoqlik bilan bog'liq. Uning tajribasi vaqtida odamlar keksalik haqidagi fikrlar bilan kurashishga harakat qilishadi. Ko'pchilik o'yin-kulgi foydasiga mas'uliyatdan voz kechishi mumkin. Shuning uchun "o'rta yoshdagi inqiroz" atamasi ko'pincha sport avtomobilini sotib olish yoki yangi munosabatlarni boshlash bilan bog'liq. O'rta yoshdagi inqiroz - bu o'rta yoshdagi o'z tajribasini qayta baholash bilan bor bo'lgan uzoq muddatli hissiy holat, bunda odam bolalik va O'smirlik davrida orzu qilganko'plab imkoniyatlarni qaytarib bo'lmaydigan darajada o'tkazib yuborgan (yoki o'tkazib yuborilganga o'xshaydi) va boshlangan. O'z keksaligi va o'limi juda real vaqtga ega bo'lgan voqea sifatida baholanadi (va "kelajakda" emas). O'rta yosh ham chuqur fikrlash vaqti bo'lishi mumkin. Odamlar o'zlari yashab o'tgan yillariga nazar tashlab, agar ular boshqacha yo'l tutganlarida hayotlari qanday bo'lar edi, deb hayron bo'lishadi. Ba'zilar boshqa kasbni tanlamagani yoki orzu qilgan narsasiga erisha olmaganidan afsuslana boshlaydi. Boshqalar esa yoshliklarining baxtli kunlarini eslashadi.

Ba'zi odamlar o'rta yoshdagi inqirozni boshdan kechirishlarining bir nazariyasi shundaki, ular baxtning pasayishini boshdan kechirishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, baxt hissini U shaklida tasvirlash mumkin. Bu erda baxt darajasining bosqichma-bosqich pasayishi kech o'smirlik davrida boshlanadi va 40 yoshgacha davom etadi. Baxt 50 yoshda yana o'sishni boshlaydi. Bu gipoteza yarim million amerikalik va evropaliklarning ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. So'rov davomida 60 yoshdan oshgan odamlar hayotlarida hech qachon bunchalik baxtli bo'lmaganliklarini aytishgan. qirq yoshlilar esa o'zlarini juda baxtsiz qis qilishardi. Biroq, U shaklidagi egri chiziq umuman aksioma emas.

Tadqiqotlarga ko'ra, hamma ham o'rta yoshdagi inqirozni boshdan kechirmaydi. Ayrim olimlar inqiroz tushunchasini ijtimoiy kontsruksiya deb hisoblaydilar. 40 yoshda qandaydir inqiroz ro'y berishi kerak degan ishonch odamlarni umidsizlik va tanazzulni boshdan kechirmoqda deb o'ylashga majbur qiladi. Voyaga etgan farzandlari alohida yashashni boshlaganlarida, odamlar o'zlarini yolg'iz his qilishadi. AQSh Milliy o'rta yosh tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning taxminan 26 foizi o'rta yoshdagi inqirozni boshdan kechirgan [4]. Shu bilan birga,

respondentlarning aksariyati bu 40 yoshdan oldin yoki 50 yoshdan keyin sodir bo'lganligini ta'kidladi. Ushbu ma'lumotlar aksiomaga shubha tug'diradi, chunki bunday hissiy holat bevosita yoshga bog'liq, chunki o'rtacha ko'rsatkich odatda 45 yil deb hisoblanadi.

Bundan tashqari, respondentlarning katta qismi inqirozga yosh emas, balki hayotdagi jiddiy voqea sabab bo'lganini aytishdi. Bularga ajralish, ishdan ayrilish, yaqin kishini yo'qotish yoki boshqa joyga ko'chirish kiradi. Bu atama dastlab faqat erkaklarga nisbatan qo'llanilgan. U bu davrda boshdan kechirgan o'lim qo'rquvini tushuntirdi. Bugungi kunda ta'rif erkaklar va ayollar duch keladigan jismoniy, psixologik, ijtimoiy muammolarni qamrab oladi. Biroq, ko'pchilik o'rta yoshdagi inqirozni qarish bilan bog'lamaydi.

Psixologlar tomonidan olib borilgan so'rovlardan birida erkaklar ishdagi yoki oiladagi muammolar, ayollar esa sog'liq va shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq muammolar haqida gapirishlari ma'lum bo'lgan. Demak muammoning jins xususiyatlari ham kuzatiladi. Mazkur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g'alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta'sir etadi. Natijada unda takabburlik, mag'rurlik hislari paydo bo'ladi, o'zining boshqalardan ustun qo'ya boshlaydi yoki, aksincha, hayot zahmatlari uning pessimist, narsa va hodisalarga nisbatan loqaydlik tuyg'usini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala ko'rinishga ega bo'lgan ruhiy holat ham oila a'zolari, tengqurlari, mehnat jamoasi a'zolarining ta'siri orqali astasekin muayyan yo'nalishga tushib qoladi. Umuman, kamolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejasi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush ikirchikirlariga, tabiat, jamiyat, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar, imkoni boricha hotirjamlik, totuvlik, tinchlik, do'stlik, dunyo lazozatlaridan oqilona foydalanish tuyg'usi bilan yashaydilar.

Etuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko'proq o'rin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir. Lekin odamlarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bu, chegara turlicha, masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda bo'lishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shartsharoitga, jug'rofiy iqlim va hokazolarga ham bog'liqdir. Mazkur yosh davrining o'zgaruvchanligini insonning biologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillari (irsiy alomat, ijtimoiy muhit, uzluksiz tarbiyaviy ta'sir) belgilaydi. Yu.N.Kulyutkin bir xil yosh davridagi odamlarda har xil jarayonlar, holatlar, xossalar, xususiyatlarning o'sishi, o'zgarishi baravar emas, balki ularning birovda oldin xotira, keyin tafakkur, boshqa birovda, aksincha, rivojlanishini, bir psixik jarayonning zaiflashuvi, ikkinchisini jadal sur'at bilan o'stirishini uqtiradi. Shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi faoliyatning barcha turlarida ma'naviy va ruhiy jihatdan o'zini anglashini yanada takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ананев Б.Г. Структура развития психофизиологических функций взрослого человека. // Хрестоматия по возрастной психологии. М.: ИПП, 1996. С. 275—283.

- 2.Бодалёв А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. М.: Флинта: Наука, 1998.
- 3.Божович Л.И. Проблемы формирования личности: Под ред. Д. И. Фелдштейна. М.: Институт практической психологии; Воронеж: НПО МОДЕК, 1995. 352 с.
- 4.G‘.E.G‘oziyev Ontogenez psixologiyasi.Toshkent 2020-yil

O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OTA –ONA VA O‘QITUVCHI HAMKORLIGIDAGI HARAKATLARI TA‘LIM SIFATINI YAXSHILASHDA TUTGAN O‘RNINI TADQIQ ETISH

*Choriyeva Sarvinoz Abdirashidovna
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda ba’zi oilalarda bolalarni tarbiyalashning asosiy ijtimoiy institut kabi ta’lim-tarbiya shakllangan bo‘lib, umumiy ta’lim muassasasi ota-onalar bilan o‘zaro aloqani yo‘lga qo‘ymoqda., ota-onalar, bolalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi turi rivojlanmoqda Ushbu maqolada o‘quvchilarni tarbiyalashda ota-ona va o‘qituvchilarning samarali ishlari, qanday harakat qilishlari, va maktabda ta’lim sifatini samarali olib borish hamda so‘rovnomalar o‘tkazilganligi natijalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: hamkorlik, psixika, tarbiya, ta’lim, o‘qituvchi, o‘quvchi,, maktab, faoliyat, bilim, ko‘nikma,harakat, an’anaviy, o‘smir, qiziqish, odat, guruh, jamoa.

Kirish. Ko‘pgina hollarda, ota-onalar farzandiga yomonroq baho qo‘ygan o‘qituvchiga o‘z farzandini ko‘proq narsaga loyiq deb da’vo qilish uchun tez-tez ta’lim maskaniga kelishadi. Eng yomoni, ota-onalar farzandlarining noto‘g‘ri hattiharakatlari tufayli chaqirilganda ota-ona o‘zini maqtaydi. Farzandining noto‘g‘ri hatti-harakatlarini to‘g‘irlash uchun o‘qituvchi bilan hamkorlik qilish o‘rniga, ular hatto farzandining qilmishini to‘g‘ri ekanligini va bu haqda tashvishlanadigan hech narsa yo‘qligini tasdiqlaydilar. Ushbu holatlar hozirgi kunda bir qadar odat tusiga kirib qolgandek go‘yo va bu o‘qituvchilarni tanlagan sohalarida ishtiyoqlarini yo‘qotishiga olib keladigan stressga olib keladi. Maktabda yuqori sinfdagi qizimga qaraganda boshlang‘ich sinfdagi o‘g‘limni dars tayyorlatish menga ancha qiyin vazifa. Ba’zan uni aldab, qo‘liga shirinliklar tutqazib, uyga berilgan vazifani bajartirishga undasamda u kitobini qo‘liga olishi bilan yana televizordagi fantastik multiklariga tikilib qoladi. Uning o‘y-hayoli sahnasida multifilmlardagi yuziga niqob taqib olgan maskali quroli o‘zidan katta robot bolakaylar paydo bo‘ladi. Qo‘lidan televizor pultini olishga ham hojat qolmaydi. Undagi jangarilik, betgachoparlik, qaysarlik kerak bo‘lsa muammoning tugunini yecholmay halak bo‘lasan kishi.

Ayniqsa darsdan keyingi ta’til kunlarida kitob olish o‘rniga yana o‘sha teleekranga termulib qolishadi. Buni dugonalar bilan bo‘lgan suhbatimizda mulohaza uchun o‘rtaga tashladik. Farzandini ta’tilda kitob o‘qiyotganini aytgan o‘rtoqlarimiz

atigi ikki nafarni, majburlab dars tayyorlatayotgani esa uchta qolganlarimiz esa har qancha imkoniyat yaratib bermaylik hamon yo televizorga yoki telefon ekraniga termulib qolganlari esa 80-90 foizni tashkil qilishi bizni hamisha o'ylantirdi.

Tadqiqot qismi. Keling avvalo, yuqoridagi vaziyatlarning yuzaga kelishi, bolani o'tish davrining 5-6 yoshidanoq kitobga darsga bo'lgan ishtiyoqi so'nib, bo'sh vaqtini boshqa keraksiz ishlar bilan mashg'ul bo'lishi bizni hamisha munozara qilishga chorlaydi. Aslini olganda oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik jarayoni ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga, bo'sh vaqtni o'tkazishga, bolalar va pedagogik jamoa bilan o'zaro munosabatlarga qaratilgan bo'lishi kerak. Umumta'lim tashkilotining o'quvchilarning oilalari bilan hamkorligining maqsadlari va shartlari o'zaro munosabatlarni tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Ularning yutug'i ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik qilish shakllari va usullariga - ularning birgalikdagi muloqotini va faoliyatini tashkil etish usullariga bog'liq. Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash maktab tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo'lgan muayyan vazifalarga, ota-onalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Guruh va jamoaviy hamkorlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: maktab miqyosida va sinfda ota-onalar yig'ilishi; maktab tadbirlari, konsertlar o'tkazish; ochiq kunlar (ota-onalar kuni); ota-onalar qo'mitasining tematik konferensiyalarini tashkil etish va ular bilan yaqindan hamkorlik qilish; ota-onalarning ijodiy guruhlari bilan ishlash, savol-javob kuni;guruh maslahatlari; ota-onalarni maktab ma'muriyati, pedagogik jamoa bilan uchrashish; ota-onalar uchun ma'ruzalar; seminarlar, treninglar; o'quv filmlarini ko'rish va keyingi muhokamalar; ota-onalar maktablari.

Agar boshqa tasnifni ko'rib chiqsak, umumiy ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlik shakllari an'anaviy va noan'anaviy bo'linadi. An'anaviy shakllar - bu barcha umumiy ta'lim muassasalari uchun umumiy bo'lgan, yillar davomida sinovdan o'tganlar. Bunga quyidagilar kiradi: ota-onalar yig'ilishi; ota-onalar uchun ma'ruzalar; ota-onalar bilan pedagogik suhbatlar; oilaviy tashriflar; tadbirlarni birgalikda tashkil etish; Hamkorlikning noan'anaviy shakllari oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari bo'lib, o'qituvchilarga ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va o'qitishda imkon qadar yordam berishga yordam beradi. Har bir ota-ona o'qituvchini bolani har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan ishida qo'llab-quvvatlashga intiladi. Ammo zamonaviy ota-onalar - bu paydo bo'lgan muammolarni, mavjud vaziyatni tahlil qilishga qodir bo'lgan bilimli odamlar, shuning uchun o'qituvchi oila bilan hamkorlikning yangi shakllaridan foydalanishi kerak.

Umumiy ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning ko'plab shakllari mavjud. Belgilangan maqsadlarga erishish va yuqori natijalarga erishish uchun o'qituvchi ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyatda turli xil hamkorlik shakllarini to'g'ri birlashtira olishi kerak. Har safar o'qituvchilar tarkibi har bir oilaning xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli, samaraliroqlarini tanlashi kerak. Axir hamkorlikning asosiy maqsadi ota-onalar bilan ittifoqdosh bo'lishdir. Shunday qilib,

aytishimiz mumkinki, umumiy ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikning barcha shakllarining mazmuni o'quvchilarning barkamol rivojlanishiga qaratilgan faol ta'lim o'zaro ta'sirini yaratishdir. O'qituvchilar va ota-onalarning to'g'ri tashkil etilgan o'zaro aloqasi bolani yaxshiroq tushunishga, oilada va maktabda shaxsiy ta'lim muammolarini hal qilishning eng maqbul usullarini topishga yordam beradi. O'qituvchi esda tutishi kerakki, u foydalanadigan barcha shakllar bolalar, ota-onalar va maktab o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatishga, ularni bir jamoaga birlashtirishga, ularning muammolarini bir-birlari bilan bo'lishish va birgalikda hal qilish zarurligini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Oila va maktab hamkorligi maktab hayoti davomida davom etadigan jarayondir. O'zaro hurmat munosabatlari bilan birgalikda ijobiy maktab muhiti mutaxassislar, ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilarga dasturlar va xizmatlar bilan bog'liq muammolarni ular mojarolar manbaiga aylanmasdan oldin hal qilish uchun konstruktiv hamkorlikda ishlashga yordam beradi. Biroq, hatto eng yaxshi niyat bilan yondashilgan taqdirda ham, talaba dasturining har qanday jihati, masalan, o'qitish metodikasi, yordamchi texnologiyalardan foydalanish, o'quv dasturiga o'zgartirishlar kiritish va hokazolar bo'yicha kelishmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Mavzuga oid masalani chuqurroq tahlil qilish Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi aksariyat maktablari o'qituvchilar hamda o'quvchilarning ota-onalari ishtirokida anonim kichik so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijasida maktab-ota-ona, o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi. So'rovnoma 15 ta savoldan iborat bo'lib, "Farzandingiz kelajakda qaysi yo'nalishni tanlashini istaysiz?", "Farzandingiz bilan uyda birgalikda dars tayyorlaysizmi?", "Farzandingiz bilan birga (ta'lim uchun) kuniga necha soat shug'ullanasiz?", "Farzandingiz bilan birga uy vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelganmisiz?" kabi savolnoma matni tuzildi. Demak, savolnomalarda ota-onalar ko'pchiligi farzandi oliy ma'lumotli bo'lishini istashini anglaymiz. Shunga qaramay ota-onalarning 30 foizi farzandiga o'zi istagan kasbni tanlash ixtiyorini bergan. So'ralganlarning 5 foizi farzandi savdo sohasida ishlashini istaydi. Qolganlari esa har xil sohalarda ishlashlarini xohlashgan.

Quvonarlisi sinaluvchilarning ko'pchiligi farzandining dars tayyorlash jarayonida muntazam qatnashadi, ozroq qismi esa ba'zi-ba'zida bu bilan shug'ullanadi. Shug'ullanishga vaqt topolmaydiganlar ham yo'q emas. Ular orasida "1-2 soatdan ko'p", "darsi tugaguncha", "ba'zida ikki soatdan ham ko'p", "bo'sh vaqtimda", "har xil", "tunda" kabi variantlar uchraydi. Quvonarlisi farzandi bilan birga shug'ullana oladigan ota-onalar sinaluvchilarning yarmini tashkil qilsa, afsuski ba'zi-ba'zida vaqt ajratadiganlar ham anchagina ekan. Bu esa bolaning bir o'zi shug'ullanishiga to'g'ri kelayotganidan dalolat. Ular ichida "har kuni vaqt ajratishga harakat qilaman", "shug'ullanaman", "darslariga uncha tushunmaslik" kabi javoblar bor. Sir emaski, fanzandiga uy vazifalarini bajarishda ko'maklashadigan aksariyat ota-onalar turli darajadagi qiyinchiliklarga uchraydi.

Bular darslarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, to'g'ri metodikani tanlay bilmaslik, bola psixologiyasini tushunmaslik, oilaviy muhit bilan bog'liq va boshqa muammolar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, farzandingizning o'qituvchisidan uy vazifalari bo'yicha Ular orasida dars tayyorlashni istamagan farzandini

jazolaydiganlar ham oz bo'lsa-da, bor. Shu kabi holatlarda ota-onalarga audio, video, kitob, qo'llanma va maqola ko'rinishidagi tavsiyalar yordamchi bo'lishi mumkin. Demak, ota-onalar farzandining ta'limi uchun asosan fanlar bo'yicha repetitor xizmati va chet tillarni o'rganish uchun pulli xizmatlardan foydalanadi. Kam bo'lsa-da, sport-sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, kasb-hunarga o'qitish va musiqiy ta'lim uchun haq to'laydiganlar ham bor. So'ralganlar orasida turli ijtimoiy qatlam vakillari borligi, ularning moliyaviy imkoniyatlari turfa xilligini hisobga olsak, farzandi ta'limi uchun ko'pchilik pul sarflagan. Bundan ota-onalar "Eng yaxshi sarmoya – ta'limga kiritilgan sarmoya" tushunchasiga tobora ko'proq ega bo'lib borayotganini anglash mumkin.

XULOSA Ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomadan shunday umumiy xulosaga kelish mumkin: ular farzandining ta'limiga befarq emas, iloji boricha ta'limda ishtirok etishga, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni yechishga harakat qiladi. Ularga zarur tavsiyalar berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ta'limdagi ishtirokini rag'batlantirish, bu bo'yicha motivatsiya berish juda ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishonov U., Tursunov I. «Pedagogika kursi» Toshkent 1997 yil.
2. Babanskiy Y. K. «Pedagogika» M. 1988 yil.
3. Munavvarov A. K. «Pedagogika» Toshkent 1996 yil.
4. Avloniy A. «Saylanma» Ikki jildlik. Toshkent., 1999 yil.

SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA PSIXOLOGIK QARASHLAR

Rustamova Munisa

Termiz Davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sharq allomalarning asarlaridagi psixologik qarashlari va turli xil fikrlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z va iboralar: Sharq allomalari, psixologik qarashlar, ruh, ruhiyat, tarbiya, shaxs, ijtimoiy, aql, psixologik asarlar, poklanish, ma'naviy, nafs, Farobiy, Beruniy, Navoiy, Ibn Sino, Rumi, Yusuf Hos Hojib

O'tmishda ajdodlarimiz insoniyatning psixologik qonuniyatlarini muayyan ilmiy yo'nalish sifatida o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning asarlari, qo'lyozmalarida mazkur holatlarning yoritilishi, tahlili kuzatiladi. Biz sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o'rganishga bo'lgan intilishi kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy bilan taqozo qilganligini ba'zi qonuniyatlar qanday kashf etilganligini bilib olamiz. Ta'kidlash lozimki, allomalarning shaxs ma'naviy-ruhiy kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi kungacha o'z o'rnini va ahamiyatiga egadir. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, kabi mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari bugungi kunda fan taraqqiyotining metodologik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Sharq allomalari asarlarida ruhiyat masalalari asosan falsafa, tibbiyot va axloq bilan bog'liq tarzda

ko'rib chiqilgan. Ular inson tabiatini chuqur tahlil qilib, ichki muvozanat va axloqiy kamolotga erishishni asosiy maqsad deb bilganlar.

Abu Rayhon Beruniy o'zining qator falsafiy asarlarida psixologik va pedagogik qarashlarini bayon qiladi. Bular inson shaxsining shakllanishi, axloqiy kamoloti, aql-idrok, tafakkuri haqida fikrlaridir. Beruniyning " Qadimgi avlodlar obidalari" asarida ba'zi odamlar shaxsining shakllanishida ularning xulq-atvorida mavjud bo'lgan ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarning shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida to'xtalib o'tadi. Bu illatlarga qarama-qarshi oqil odamlar haqida o'z fikrini bayon qiladi. Beruniyning fikricha oqil odamlarning taraqqiyoti va uning ruhiyatining rivojlanishi hech to'siqlarsiz ijobiy rivojlanishga ega bo'ladi deb tushuniladi.

Beruniy psixologiya sohasida aniq bir narsa yozmagan bo'lsada, Farobiy ta'limoti ta'sirida inson shaxsining kamoloti, uning aql-idroki, ruhiy taraqqiyoti haqidagi o'zining psixologik va pedagogik qarashlarini hamma asarlarda to'liq bayon qiladi. Masalan: " Mineralogiya", "Hindiston" hislar bilan seziladigan va aql bilan bilinadigan bir qator kitobning tarjimasida- degan kitob va risolalarida o'zining ruh haqidagi qarashlari, ruhiyatning ba'zi muhim masalalarini bilish va tafakkur jarayonlari haqida ko'p, g'oyat qimmatli fikr- mulohazalar mavjud. Beruniy olamni ob'ektiv reallik, inson irodasidan tashqarida mustaqil ravishda mavjud bo'lgan borliq sifatida qaraydi. Beruniy kishi ongi, tafakkuri va ruhiyatini moddiy jismdan keltirib chiqargan holda tasavvur etadi.

Abu Ali ibn Sino – birinchilardan bo'lib psixologiya fanida tajriba amalga oshirgan alloma hisoblanadi. U emotsional holatlar bo'yicha dastlabki tajribalarni amalga oshirgan. Uning " Tadbiri manozil" asarida ta'lim-tarbiyada uning psixologik asoslariga alohida e'tibor bergan.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari o'sha davrdagi, keyingi davrdagi va hozirgi davrda ham tibbiyot sohasidagi olimlarning qo'llanmasi hisoblanadi.

Ibn Sino birinchi bo'lib tarbiyada suhbat metodini qo'llashni taklif etadi. Bolalarni o'qitishda va tarbiyalashda bir guruhda yoki jamoada tarbiyalansa, ular faoliyat turlarining amalga oshirishda bir-biriga moslashadi, bir-biriga hurmat-e'tibori kuchayadi va jamoaning ta'sirida keraksiz odatlarni yo'qotadi deb ta'kidlaydi. Bu bilan birinchi bo'lib ijtimoiy psixologiya asoslariga asos soladi. Bundan tashqari Ibn Sino tarbiya metodlari haqida ham to'xtalib o'tadi. Tarbiya metodlaridan oila tarbiyasi, oilada bola tarbiyasini amalga oshirishda regional xususiyatlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Unsurmoniy Kaykovus – 1082-1083- yillarda 63 yoshida yozilgan "Qobusnoma" asari o'g'li Gilonshohga nasihat sifatida yozilgan, ammo undagi g'oyalar keng ijtimoiy, axloqiy va psixologik qarashlarni o'z ichiga oladi. "Qobusnoma" asarida inson ruhiy olami, xulq-atvorni tarbiyalash, nafsni boshqarish va ma'naviy kamolotga erishish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Asarda shaxsning ichki sifatleri va yaxshi xulq-atvoriga alohida e'tibor qaratiladi.

Kaykovusning qarashicha, baxt va tinchlikka erishish nafaqat moddiy boylik, balki ruhiy muvozanat va ichki osoyishtalik bilan bog'liq. U haddan tashqari hirs yoki boylikka intilish inson ruhiyatini buzishini ta'kidlaydi.

“ Qobusnoma” ning psixologik nuqtai nazaridan analiz qiladigan qismi – bu 27-bobi hisoblanadi. Bu bob “ Farzandlarni parvarish qilish fikrida” deb ataladi. Unda farzandning ota-onani xurmat qilish, oila tarbiyasi, oilada ota-onaning farzandiga tarbiya berish usullari va farzandlarni parvarish qilishda uning yosh davrlarga e’tibor berish haqida to’xtaladi. Bu bob psixologik nuqtai nazardan juda ham muhim ahamiyatga ega.

Jaloliddin Rumiy o’zining mashhur “Masnaviy ma’naviy” asarida inson ruhiyati, ichki kechinmalari va o’zlikni anglash jarayonini chuqur tahlil qilgan. Uning psixologik qarashlari tasavvufiy dunyoqarash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson ruhining poklanishi va ma’naviy kamolotga erishishini markaziy mavzu sifatida oladi. Rumiyning fikriga ko‘ra har bir insonda nafs va ruh o‘rtasida ichki kurashlar mavjud. U inson kamolotga erishishi uchun nafsini jilovlab, ruhiy tinchlikka erishishi zarurligini ta’kidlaydi. Masnaviyda nafs ko‘pincha hayvoniy istaklar timsolida tasvirlanadi va bu istaklarni boshqarish ruhiy rivojlanishning asosi sifatida talqin etiladi. Rumiy asarlarida inson o‘zligini anglash va haqiqiy “men’ni topish markaziy mavzu hisoblanadi. Uning fikricha, odamlar ko‘pincha moddiy hayotga haddan ortiq berilib, ichki dunyosidan uzoqlashadilar. Rumiyning “Masnaviy” da aytilishicha, ruhning haqiqiy mohiyatini anglash orqali inson ma’naviy uyg‘onishga erishadi va haqiqatni his qiladi. Rumiy muhabbatni inson ruhini poklovchi va davolovchi eng kuchli manba sifatida tasvirlaydi. Muhabbatni ichki shifo vositasi sifatida ko‘radi, bu esa zamonaviy psixoterapiyada qo‘llaniladigan empatika va mehr-muhabbat terapiyasi bilan uyg‘un keladi.

“Ichindagi ichindadir”- Jaloliddin Rumiy asarlarida tez-tez uchraydigan ma’no jihatidan chuqur iboralardan biridir. Bu ibora insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlari va o’zlikni anglash haqidagi chuqur tasavvufiy qarashlarni ifodalaydi. Ushbu qarashlar insonning ma’naviy hayoti va ichki kechinmalari bilan bog‘liq psixologik tushunchalarni ham aks ettiradi. Rumiy fikricha, ham bir insonning haqiqiy mohiyati tashqi ko‘rinishida emas, balki uning ichki dunyosida yashirin.

Abu Nasr Farobiy yozgan asarlaridan bizning e’tiborimizga falsafa, pedagogika, psixologiya, etika-estetika bo‘yicha asarlari qiziqtiradi.

Farobiy psixologiyaga oid asar yozmagan bo‘lsa-da, uning psixologik qarashlari falsafa, axloq, ijtimoiy masalalar va bilish nazariyasiga bag‘ishlangan asarlarida keng yoritilgan. Ushbu asarlarda inson ruhiyati, aql va nafsning tabiati, shaxsning kamoloti va ijtimoiy muhitdagi ahamiyati kabi masalalar chuqur tahlil qilingan.

Farobiy “Aql ma’nolari haqida” risolasida aqlning turli ma’nolarini tahlil qilgan va ularni nazariya va amaliy jihatlarida ajratgan. Inson aqli ruhiy va ma’naviy taraqqiyotning asosi ekanligini ta’kidlagan. Nazariy aql orqali haqiqatni anglash va amaliy aql yordamida ijtimoiy hayotni boshqarish muhim ekanini tushuntiradi.

“Fozil odamlar shahri” asarida farobiy ijtimoiy va axloqiy tamoyillar orqali ideal jamiyatni tasvirlab beradi. Psixologik jihatdan har bir shaxsning tabiati har bir shaxsning tabiati, iste’dodlari va ehtiyojlarini tushunish muhimligini uqtiradi. Inson ruhiyati va ehtiyojlarini to‘g‘ri anglash jamiyatning uyg‘un rivojlanishi uchun asosiy shart sifatida ko‘rsatiladi.

“Musiqqa haqida katta kitob” asarida musiqa va uning inson ruhiyatiga ta’siri haqida fikr yuritiladi. Farobiy musiqaning odamning his-tuyg‘ulariga ta’sirini chuqur tahlil qilgan va uning ruhiy tarbiyaning muhim vositasi sifatida ko‘rsatgan. U to‘g‘ri musiqiy ohanglar inson ruhini tinchlantirishi va ma’naviy yuksalishga yordam berishini ta’kidlaydi.

“Ilmlarning kelib chiqishi haqida” asari turli ilmiy fanlarning tasnifiga bog‘ishlangan bo‘lib, unda psixologik bilimlarning falsafa va tibbiyot haqida fikrlar bayon etilgan. Farobiy inson ruhiyati va aqliy faoliyatini tushunish ilm-fan va ta’lim-tarbiyaning muhim vazifasi ekanini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy ijodida inson ruhiyati, nafs va aqlning o‘zaro kurashi, sevgi va ma’naviyatning inson hayotidagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. Uning asarlaridagi psixologik qarashlar tasavvuf falsafasi, axloqiy va ijtimoiy masalalar bilan chambarchas bog‘liq. Navoiy inson tabiatining murakkabligi badiiy obrazlar orqali ochib berib, shaxsiy kamolot va ruhiy poklanish mavzularini dolzarb qilgan.

"Mahbub ul-Qulub" asari Navoiy tomonidan yozilgan axloqiy-falsafiy risola bo‘lib, unda shaxsning ruhiy fazilatlari, insonning turli kayfiyatlari va xulq-atvorini tahlil qilishga katta e’tibor qaratilgan. U kishilarning xulq-atvori, quvonch va qayg‘u, hasad va saxovat kabi ruhiy holatlarni chuqur tahlil qiladi. Ruhiy muvozanatga erishish uchun sabr-toqat va me’yor hissi zarurligi uqtiriladi.

"Hayrat ul-Abror" dostoni falsafiy va axloqiy mavzularda yozilgan bo‘lib, insonning ruhiy va ma’naviy rivojlanishini yoritadi. Dostonning markaziy mavzularidan biri nafs va aql o‘rtasidagi doimiy kurashdir. Navoiyga ko‘ra, inson aql bilan yo‘l topishi va nafsni jilovlashi kerak.

Shaxsning yuksalishi uning ichki olamidagi poklanish va fazilatlarni rivojlantirishga bog‘liq. Navoiy insonning ijobiy fazilatlar orqali haqiqatni topish yo‘lini ko‘rsatadi.

"Layli va Majnun" asarida insonning ruhiy kechinmalari, sevgi azobi va ichki ziddiyatlari keng tahlil qilingan. Majnunning holati orqali insonning ichki dunyosidagi cheksiz sevgi va real hayotdagi imkoniyatlar o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Bu psixologik kechinmalar insonni ruhiy kamolot sari yetaklaydi. Majnunning dard va iztiroblari sevgi orqali insonni ilohiy haqiqatga olib boradigan vosita sifatida ko‘rsatiladi.

"Farhod va Shirin" asarida insonning sevgi, fidoyilik va iroda orqali o‘zligini topishi va maqsad sari intilishi tasvirlangan. Farhodning fidoyilik yo‘lidagi kurashi inson ruhiyatining sabr-toqat va maqsadga erishish istagi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Sevgi insonning ruhiy rivojlanishi va maqsadlariga erishishi uchun ilhom manbai sifatida tasvirlanadi.

"Lison ut-Tayr" dostoni ramziy hikoyatlar orqali insonning ruhiy poklanish va yuksalish yo‘lini tasvirlaydi. Insonning ruhiy sayohati maqsad sari uzluksiz intilishni talab qiladi. Qushlar ramzi orqali Navoiy ruhiy kamolot sari olg‘a intilish g‘oyasini ilgari suradi. Har bir qushning sinovlardan o‘tishi orqali insonning ichki ziddiyatlari va ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lidagi qiyinchiliklari tasvirlanadi.

"Munshaot" (Maktublar to‘plami) asarida Navoiy turli ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritadi va inson ruhiyatining murakkab tomonlarini tahlil qiladi. Navoiy jamiyatlardagi munosabatlar, rahbarlik va adolat tushunchalarini yoritib, inson ruhiyati va

shaxsiyatiga ta'sirini ko'rsatadi. Asarda rahbarning ichki dunyosi, u qanday ruhiy sifatlarni rivojlantirishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (Xushbaxtlik ilmi) asari insonning ruhiy olami, axloqiy fazilatlari, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy kamoloti haqidagi chuqur psixologik qarashlarni o'zida mujassam etadi. Ushbu asar 11-asrda yozilgan bo'lib, davlat boshqaruvi, rahbarlik va shaxsiy fazilatlarning ahamiyati bilan bir qatorda insonning ruhiy va axloqiy jihatlarini ham tahlil qiladi. Yusuf Xos Hojibning qarashlari nafaqat o'sha davr, balki hozirgi zamon psixologiyasi uchun ham ahamiyatlidir. Yusuf Xos Hojib asarda nafs va aqlning kurashi masalasini yoritib, insonning ruhiy yuksalishi uchun aqlning hukmronligi zarurligini ta'kidlaydi. Aqliy quvvatni kuchaytirish va nafsiy mayllarni boshqarish orqali inson o'zini nazorat ostida ushlashi mumkin.

Inson baxt va tinchlikka erishishi uchun ichki tozalikka, nafsni jilovlashga intilishi kerak. Bu jarayon inson ruhiyatining yuksalishiga olib keladi. Asarda axloqiy qadriyatlar va ruhiy barqarorlik shaxsiy kamolotning asosi sifatida talqin etiladi.

Yusuf Xos Hojib insonni halollik, rostgo'ylik, adolat va sabr-toqat kabi fazilatlarni rivojlantirishga chorlaydi. Inson baxtga erishish uchun sabrli va irodali bo'lishi kerak. Ruhiy barqarorlik aql va nafs kurashidagi muvaffaqiyat bilan bog'liq. Yomon odatlar va nafsiy istaklar insonni zavolga olib boradi. Shuning uchun Yusuf Xos Hojib fazilatlarni shakllantirishga katta urg'u beradi.

"Qutadg'u bilig"da rahbar shaxsining fazilatlari va uning ruhiy holati keng tahlil qilinadi.

Inson adolatli bo'lsa, ruhiy tinchlikka erishadi. Rahbar esa adolat bilan boshqarib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi kerak. Rahbarning ichki dunyosidagi muvozanat va kamtarlik uning boshqaruvdagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Kibr va ochko'zlik esa nafsga qul bo'lishning belgilaridir.

Yusuf Xos Hojib baxt va xotirjamlikka erishish jarayonini tahlil qilib, inson uchun ruhiy farovonlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Baxt – insonning ichki dunyosidagi tinchlik va barqarorlik bilan bog'liq. Faqat moddiy ne'matlarga intilish baxt keltirmaydi, balki ruhiy jihatdan boy bo'lish ham zarur. Hayotdan qanoatlanish ruhiy tinchlikni ta'minlaydi. O'ta istaklar va nafsiy talablar esa insonni asabiylashishga va azobga olib boradi.

Yusuf Xos Hojib insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini ruhiyatga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rsatadi. Do'stlik va hamjihatlik insonning ruhiy salomatligi uchun muhimdir. Yolg'on va xiyonat esa insonni ruhiy azobga soladi. Insonlar o'rtasidagi hurmat ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi, chunki hurmatsizlik va tahqir ruhiy tushkunlikka olib keladi.

Sharq allomalari inson ruhiyatiga oid chuqur bilimlarga ega bo'lib, ular psixologik qarashlarni falsafa, axloq va ma'naviyat bilan uyg'un holda yoritganlar. Aql va nafs o'rtasidagi kurash, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, sevgi orqali ruhiy poklanish, baxtga erishish yo'llari kabi masalalar ularning asarlarining markazida turadi. Ularning fikricha, insonning ichki barqarorligi va ijtimoiy munosabatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ruhiy kamolot va baxt faqat aqlni rivojlantirish, nafsni boshqarish va ezgu fazilatlarni rivojlantirish orqali amalga oshadi.

OILADAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUHIT VA OILA INTEGRATSIYASI

Abramatova Marjona O'ktam qizi

Termiz davlat unversiteti amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy oilalarning shaxslararo munosabatida hamdardlik, bir-birini tushuna olish, g'am-tashvishi, qiyinchiliklariga emotsional javob bera olish qobiliyatini rivojlantirish hamda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga ba'gishlanadi.

Kalit so'zlar: O'zini boshqalar o'rniga qo'ya olish, hamdardlik, psixologik muhit, muloqat, munosabat, e'tibor, ruhiy rag'batlantirish, motivatsiya.

Oila jamiyatning ajralmas bir bo'gi'ni hisoblanadi. Ilm-fan tarixida oilani nazariy jihatdan o'rganish bilan bog'liq va bir necha ming yilni o'z ichiga oladigan (Konfusiy,Platon,Arastu davridan boshlab) azaliy ananalar mavjud.

Oila-bu mustaqil olam bo'lib, boshqa ijtimoiy voqeliklarga o'xshaydi," jonli, alohida va yaxlit tarixiy tizim"ni ifoda etadi.

Oila-inson hayotining zarur va asosiy bosqishlaridan biri. Tabiiy va ijtimoiy muhit o'rtasidagi bog'liqliklar oila faoiyati orqali amalga oshadi. Individning biologic muhitdan ijtimoiy muhitga o'tishi taminlanadi.Chunki insonning birinchi ko'rgan ijtimoiy muhiti oila hisoblanadi. Individ aynan oila muhitida shaxs sifatida shakllanadi.Oilani o'rganish uni jamiyatning yangi avlodlarini dunyoga keltirish,taminlash va ularning jamiyatda o'z o'rnini egallashi bo'yicha o'ziga xos vazifani bajaradigan kichik bir tizimi sifatida qaramaslik kerak.Sababi shundaki oila ijtimoiy instinkt sifatida jamiyatning yuqoridagi vazidalarini bajaradigan oddiy muhit emas. Oilaviy hayot ijtimoiy voqelik,ijtimoiy tabaqalashuv va iqtisoslashuv jarayonida ishtirok etadigan turfa ijtimoiy kuchlar to'qnash keladigan muhit bilan chanbarchas bog'liq.Oila ijtimoiy tashkilot,tuzilma,institute va kichik guruh xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan yuqori darajali tuzilma hisoblanadi.Lekin ming afsuslar bolsinki,besh qo'l baravar bolmaganidek oila va uning muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatib boruvchi kuchlar ortib bormoqda.Natijada esa oilada parokandalik,buzilishlar ortib bormoqda.Oila buzilishing asosiy sabablari er va xotin munosabatlariga uchinchi shaxs aralashi,bir-birini tushunmaslik,xattoki ijtimoiy tarmoqlar ham sabab bo'lmoqda.Ayniqsa bu ko'rsatkichlar yevropa davlatlarida juda yuqori.Buning sababi esa "oilaning keragi yoq,nikoh shart emas,u insonning erkini cheklab qo'yadi" kabi soxta shiorlar ko'payib bormoqda.

Ma'lumki,oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi sanaladi.Oila mustahkam, tinch,halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa,halol-haromning farqi qolmasa,o'sha jamiyat buziladi,tinchi yo'qoladi,oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi.Shuning uchun ham qadimdan har bir jamiyat oila masalisiga katta e'tibor berib,oilalarning mustahkam va baxtiyor bo'lishi uchun imkonida bor bolgan barcha chora va tadbirlarni ko'rib kelgan.Biroq hozirgi kunga kelib ushbu chora-tadbirlar foyda abermayabdi,oila buzilishlar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Shu bilan birga, musulmonlar yashaydigan ushbu uch mintaqa uzoq umr o'rish va ko'pbolalilik bo'yicha ham peshqadam hisoblanadi.

Rossiya davlati oila buzilishi bo'yicha yetakchi o'rinda turibgina qolmay, balki aholi soni ham kamayib bormoqda. Rus mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, Rossiyadagi oilalarning 66 foizi faqat bitta bola qoldiradi. Oxirgi o'n yil ichida Rossiya aholisi har yili taxmiman 900 mingtagacha kamayib bormoqda. Davlat bor imkoniyatlarini ishga solib bu halokatdan qutilish choralarini izlamoqda. Rossiya Federatriyasi majlisi raisining o'rinbosari A. Torshinning ta'kidlashicha, bu davlatda faqat musulmonlardangian odam soni ortib bormoqda.

2010-yilning ikkinchi yarmida AQSHlik mutaxassislar o'zlarining davlatlari oila buzilishi bo'yicha dunyo b'yicha eng yuqori o'rinda turishini e'lon qildilar.

Britaniyada esa har 6 ta yangi qurilgan oila hissasiga 5 ta buzilgan oila to'g'ri keladi. Xulosa qilib aytganda, O'zbek oilalarida, farzandlarni ruhiy qo'llab-quvvatlash, ularning fikrlarini hurmat qilish, iqtidor va qobiliyatlarini inobatda olish, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashish va ruhan rag'batlantirish orqali ularda g'am-tashvishni eng olish, qiyinchiliklariga emotsional javob bera olish kabi xususiyatlarni shakllantirgan holda ijobiy psixologik muhitni yaratishga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. T-2021
2. V. Karimova Oila psixologoyasi darslik T-2007 yil
3. Abdullayeva D., Yarqulov R., Atabayeva Oila psixologiyasi N. 2015.
4. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. //uslubiy qo'llanma. – T. – 1998.
5. Umarov B.M. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o'rni. //uslubiy qo'llanma. – T. – 2008

OILANING QIYINCHILIKLARI VA UNI HAL QILISH YO'LLARI

Boboraxmatova Marjona

Termiz Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola oilaning qiyinchiliklari va muammolarini tahlil qilib, ularni samarali hal qilish yo'llarini ko'rsatadi. Maqola oila a'zolarining har biriga yordam berishi va muammolarni birgalikda hal qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu tavsiyalar orqali oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va qiyinchiliklarni yengib o'tishga erishish mumkin.

Tayanch so'zlar: oila, tarbiya, farzand, muammolar, qiyinchiliklar.

Oila- inson hayotining asosiy birligi bo'lib, uning barqarorligi va farovonligi jamiyatning rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil etgan har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, butun organizm o'z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishda har bir hujayraning munosib o'rni bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyoti,

ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdidi ortib borayotgan ayni vaqtda oilalar mustahkamligini ta'minlash va bu masalani to'g'ri hal etilishining asosiy yo'li bo'lmish yoshlarni oilaviy hayotga to'g'ri tayyorlash masalalaridech kechiktirib bo'lmaydigan, sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmaydigan, o'ta jiddiy yondashishlarni talab etuvchi davlat, hukumat miqyosidagi dolzarb masaladir.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf- odatlarni o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab- avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga- jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib, hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlari odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota- onaning roli katta.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf- odatlari va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63- moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega.

Jamiyatning muhim bo'g'iniga ega bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar dunyoga keladi, kamolga yetadi, ulg'ayadi. Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, poydevorichi? Darhaqiqat, oilaning barpo etilishida kimlar yoki nimalar muhim rol o'ynaydi, tashqi ta'sirlarchi? Mavjud oilalar va yangi barpo etilayotgan kichik bir oila o'z mavqeini qanchalik asramoqda? Oila- muqaddas qo'rg'on, oila- ma'naviy kamolot maskani va boshqa bir qancha so'z va iboralar bilan oilaning mavqeini belgilaymiz. Albatta, jamiyatda namunali oilalar ko'p. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma'naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurli, piru- badavlat otaxon va onaxonlar ko'z oldimizga keladi. Ammo, afsus, bizni o'ylantiradigan masala bu- oila qo'rg'onining buzilishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tashqi va ichki omillarning mavjudligidir. ***Tashqi omillarga:***

1. **Ijtimoiy bosim:** Jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar oilaning barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin.

2. **Moliyaviy muammolar:** Pul muammolari, ish joyidagi muammolar, iqtisodiy beqarorlik oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. **Ta'lim va ish bilan bog'liq omillar:** Oila a'zolarining ta'lim darajasi va ish sharoitlari o'zaro munosabatlarga ta'sir qilishi mumkin. O'zaro tushunmovchiliklar va maqsadlarning farqlanishi ajralishga olib kelishi mumkin.

4. **Tashqi ta'sirlar:** Do'stlar, qarindoshlar yoki boshqa ijtimoiy guruhlar oilaga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, do'stlarning salbiy fikrlari yoki qarindoshlarning aralashuvi misol bo'ladi.

Ichki omillarga:

1. **O'zaro ishonchning yo'qligi:** Oila a'zolari o'rtasida ishonchning bo'lmasligi.

2. **Munosabatlardagi tushunmovchiliklar:** O'zaro muloqot yetishmovchiligi, hissiyotlarni ifoda etmaslik yoki noto'g'ri tushunishlar.

3. **Qaror qabul qilishdagi muammolar:** Oila a'zolari o'rtasida qarorlarni birgalikda qabul qilishdagi noaniqliklar yoki kelishmovchiliklar.

4. **Oila rollarining noaniqligi:** Oila ichidagi rollarning aniq belgilangan bo'lmasligi, masalan, ota-ona yoki farzand sifatida kutilayotgan vazifalar.

5. **O'zgarishlarga tayyorsizlik:** Hayotdagi o'zgarishlarga, masalan, ish joyini o'zgartirish, ko'chish yoki farzand tug'ilishi kabi holatlarga tayyor bo'lmaslik kabilar kiradi.

Bu kabi tashqi va ichki omillar oilaning barqarorligini buzishi, unga ta'sir qilishi va natijada oila buzilishiga olib kelishi mumkin.

Oilada vujudga keladigan qiyinchiliklardan biri bu- moliyaviy muammo hisoblanadi. Daromadning yetarli bo'lmasligi, turli xil qarzlar yoki xarajaylarni boshqarishdagi qiyinchiliklar bu muammoni yuzaga keltiradi. Oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, hissiy masalalar, bola tarbiyasidagi farqlar, ota-onalar o'rtasida qarorlar bo'yicha kelishmovchiliklar, oila a'zolarining sog'liq bilan bog'liq muammolar ham oiladagi qiyinchiliklar hisoblanadi.

Oilada erkak va ayollarning o'z vazifalari mavjud. Oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash va xarajatlarni boshqarish, bolaga tarbiya berish va ularning ta'lim olishlari uchun zarur shart- sharoitlar yaratish, oila ichidagi qarorlar qabul qilish, muammolarni ha qilish va yaxshi qadriyatlarni o'rgatish, sevgi va qo'llab quvvatlashni ta'minlash erkaklarning asosiy vazifalari hisoblanadi. Bolalarini tarbiyalash va ularning o'qishi va rivojlanishiga yordam berish, uyni tozalash, ovqat tayyorlash va boshqa uy ishlarini bajarish, sevgi va e'tibor ko'rsatish, oila ichida muvozanatni saqlash, oila a'zolari o'rtasida sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish, oila budjetini rejalashtirish va xarajatlarni boshqarishda yordam berish, oila a'zolarining sog'ligiga g'amxo'rlik qilish kabilar ayollar zimmasiga yuklanadigan vazifalardir. Ko'rib turganimizdek bu vazifalar orasida ikkala jins vakillari tomonidan ham bajariladigan yaxlit vazifalar mavjud. Aynan shu vazifalarni bajarishdagi befarqliklar ham qandaydir ma'noda oilaning hamjihatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, oilda farzand tarbiyasi bilan yuzaga keluvchi qiyinchiliklar aniq bir yechim talab qiluvchi muammo

hisoblanadi. Bunday muammolar yuzaga kelganida ikki tomonlama hamjihatlikda ish ko‘rish, zarur bo‘lsa psixolog yoki pedagog yordamidan foydalanish zarur.

Adabiyotlar:

1. G‘. Shoumarov- OILA PSIXOLOGIYASI(2010).
2. Rizouddin ibn Faxriddin,Oila,T.,(1991).
3. Turaeva. G.E.(2022). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personell.

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILA MUSTAHKAMLIGINING
ME’ZONLARI XUSUSIDAGI QARASHLARI.**

*Kayumova Go`zal Narzullayevna
TerDU Psixologiya kafedrasi o`qituvchisi*

Annotatsiya:Ushbu maqola sharq mutafakkirlari va davlat arboblari - Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Axmad Donish, Abay Sunanbayev, Rizouddin ibn Faxruddin, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlaridagi oila-nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi xaqida g‘oyatda ibratli maslahat va ugitlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, oila-nikox munosabatlari, ota-onalar va farzandlar munosabati, sadoqat, yorga vafo,erkak va ayol munosabatlari, ota-onaning vazifalari.

Zamonamizning turli davrlarida oila va nikox munosabatlari olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.Zardushtiylik dinning muqaddas kitobi «Avesto»da keltirilgan oila va nikox odoblari, erkak va ayol munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g‘oyatda qimmatli fikrlar bugunda xam o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. «Avesto»da er va xotin munosabatlari, oilada farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. «Avesto»da keltirilishicha qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi qat’iy man etilgan. Qavm va urug‘r qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday kilingan. Unda ko‘p bolali oilalarga davlat xisobidan nafaqa tayinlash lozimligi, bir yo‘la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor ekanligi o‘qtiriladi.

Markaziy Osiyo xalklarining «Alpomish», «Kuntug‘mish», «Gurug‘li», «Oysuluv», «Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayxo», «Manas», «Kizjibek», «Kozi Kurpesh Bayan suluv» kabi dostonlarida erkak va ayol o‘rtasidagi sof insoniy munosabatlar, muxabbat, sadoqat, yorga vafo mavzusi yoritilgan. Ayol doimo erkak kishiga sodik do‘st va yor, oqila, topqir, oilaviy tinchlikning posboni sifatida ulug‘langan.

Yukorida keltirilgan - «Alpomish», «Kizjibek» va «Manas» kabi mashxur dostonlarda nikoh tuzishga oid odatlarda yigitning jismoniy qobiliyatlariga alohida ahamiyat berilgan. Yigitning jismoniy qobiliyati sinab ko‘rilgan. Masalan, uning qizga munosib yoki nomunosib ekanligini aniklash uchun o‘zaro ot poygasi, kamondan nishonga urish, uzoqqa o‘q uzish, kurash tushish kabi bellashuvlar

o'tkazilgan. Shuningdek, bu tanlov «Qiz quvmok», «Tortishmachoq», «Oltibokan» kabi xalk o'yinlarida o'z ifodasini topgan. Bu dostonlar qadimgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash an'analari xaqida to'lik tasavvur va ma'lumot beradi.

Islom dini, uning asosiy manbalari xisoblangan Qur'oni Karim va xadislarda bo'lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan xamda farzandlarning nasliiy pok bo'lishini xisobga olib, bo'lajak qaynota va qaynonalarni tanlash zaruriyati o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Kelin yoki kuyov qilmoqchi bo'lgan xar bir ota-onaning bo'lajak qudalar naslini surishtirishlari yoxud xar bir musulmon o'zining «yetti pushti»ni bilishi lozim, degan talablar xam islomiy ma'naviyatdan kelib chiqqan. Qur'oni Karimning «Baqara», «Niso» suralarida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya masalalariga aloxida urg'u berilgan.

Toshga uyib yozilgan yodgorliklar ichida o'zining ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari bilan ma'naviy meros qoldirganlardan biri - Kurkit ota o'git-nasixatlaridir. VIII-IX asrning mashxur qozoq kuychisi, musiqashunos olimlardan biri Kurkit ota o'git-nasihatlarini, aforizmlarining tarbiyaviy axamiyati katta. Kurkit ota ota-onani hurmat qilish, qadrlash, oilaviy munosabatlar, yigit bilan qiz tarbiyasi, inson xarakterining turli xil sifatleri xususida keyingi avlodga ibrat bo'ladiga pand-nasihatlar qoldirgan. Masalan, onadan ibrat olmagan kiz yomon, otadan o'rnak olmagan o'g'il yomon. Bunday farzand xalqning boshini birlashtirib, uyidan ovqat berishga xam yaramaydi, degan fikrlarni bildirgan. Kurkit ota ayollar xarakteriga psixologik jixatdan aloxida axamiyat karatadi va ularni guruxlarga ajratadi. Ayollarning bir guruxi oilaning tayanchi, mexmondust bo'lib unib-o'sgan ayollar bo'lsa, ikkinchisi - insofsiz, sabrsiz; uchinchisi - g'iybatchi, tozalikka rioya qilmaydigan ayollar bo'ladilar.²

Dunyoga mashxur olim, ma'rifatparvar Abu Nasr Farobiy inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati xaqidagi qarashlarini mashxur «Fozil odamlar shaxri» va «Baxt-saodatga erishuv xaqida» asarlarida bayon etadi. Farobiy keraksiz urf-odatlardan (xozir xam oilaviy xayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt-saodatga erishish yo'llari xaqida gapirib, shunday deydi: «Raxbarlar (er yoki xotin) «yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni xam o'zgartirmog'i kerak. Aks xolda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda xech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish xam bo'lmaydi». Shuningdek, «Baxt saodatga erishuv yulida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustaxkamlamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur»ligini ta'kidlaydi.

Sharq mutafakkirlaridan yana biri - Abu Rayxon Beruniyning oilaviy munosabatlar xaqidagi qarashlari xam alohida e'tiborga loyikdir. Beruniy o'z qarashlarida, ayniqsa, xotin-qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U o'zining «Minerologiya» asarida oila qurayotgan qizlarga ota-onaning nasihatlarini keltirib, oiladagi tinchlik-totuvlik, baxtiyorlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlaydi va shunday yozadi: «Ey qizim! Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning xamma xislatlarini bilmaysan. "Sen yer bo'l, u esa osmon bo'ladi." Demak, sen u bilan shunday yul tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi olijanob bo'ladi. Osmon shifobaxsh

yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi u xam o'z mehru shafqati bilan seni xushnud etadi. Yana sen unga kanizak bo'lsang, u senga xizmatchi bo'ladi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlargina eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan xolda uning oldida o'tirma. Abdullox ibn Jafar ismli ota o'z qizini turmushga chiqarayotib shunday deydi: - Sen rashk qilishdan saqlangin, chunki bu ajralib ketishning kalitidir. Eringga xadeb gina kilaversang nafratni uyg'otadi. Yaxshisi, sen ering bilan xushmuomala bo'lgin, bu har qanday sehr-jodudan yaxshidir va suvdan foydalangin, bu xushbuy narsalarning ichida eng birinchisidir».³ Beruniy o'z qarashlarida oila tinchi bevosita aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga aloxida urg'u bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abay Ibragim Kunanbayev. Slova nazidaniya. / Per. s kaz. - Almaty: «Rauan», 1995. -S. 135.
2. Xasanov S. Xorazm ma'rifati - olam kuzgusi. - T.: «O'kituvchi», 1996. -304-b.
3. Muxiddin S. Oila va shar'iy nikox odoblari. - T.: «Movarounnaxr», 1999. 80-b.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. - T.: Abdulla Kodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 1993. -224-b
5. Abdullayeva, L., & Kayumova, G. Z. N. (2024). Boshqaruv jarayonida rahbar siyosiy faolligini oshirishning psixologik jihatlari. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 530-532.

KASBIY SHAKLLANISHNI O'RGANISHDA TADQIQOT METODIKALARINING QO'LLANILISHI VA PSIXODIAGNOSTIKA JARAYONI NATIJALARI

Almardanova Salomat Bobonazarovna
Termiz davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy yo'nalganlik xususiyatlarining namoyon bo'lish darajalarini aniqlash bo'yicha eksperimental model asosida tadqiqotlar amalga oshirishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z va iboralar: talabalar, kasbiy shakllanish, ijtimoiy hayot, kasbiy yo'nalganlik, tadqiq etish, rivojlantirish, diagnostik tahlil, eksperimental model.

Аннотация: В данной статье представлена информация о проведении исследований на основе экспериментальной модели для определения уровней проявления особенностей профессиональной направленности.

Ключевые слова: студенты, профессиональное становление, общественная жизнь, профессиональное направление, исследования, разработки, диагностический анализ, экспериментальная модель.

Annotation: This article provides information on conducting research on the basis of an experimental model to determine the levels of manifestation of the characteristics of a professional orientation.

Key words: students, professional formation, social life, professional direction, research, development, diagnostic analysis, experimental model.

Talabalarning kasbiy shakllanishi ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Kasbiy yo'nalganlik xususiyatlarining namoyon bo'lish darajalarini aniqlash va uni o'rganish, tadqiq etish va rivojlantirish uchun diagnostik tahlillar amalga oshirildi. Kasbiy yo'nalganlik xususiyatlarining namoyon bo'lish darajalarini aniqlash bo'yicha eksperimental model asosida tadqiqotlar amalga oshirishni ma'qul topdik.

Talabalarda o'zlaridagi psixologik imkoniyatlarning, yutuq va kamchiliklari to'g'risida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lsalar, kasbiy shakllanishida duch keladigan barcha qiyinchiliklarni yengishda o'zidagi mavjud salohiyatidan unumli foydalanishga, bo'lajak kasbi haqida ijobiy tasavvurlarning shakllanib borishiga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot ishimizda T. D. Dubovitskaya tomonidan taklif qilingan anketa pedagogika universitetida o'qishning barcha bosqichlarida talabalar shaxsining kasbiy yo'nalishini aniqlash uchun foydalanishga tavsiya qilingan.

Talabalarda kasbiy shakllanishi darajasini o'rganish muammosiga yondashishda dastlab mazkur xususiyatning tarkibini aniqlab olish, ularda kasbiy shakllanishning qaysi shkalasi ustunligini aniqlashga harakat qildik.

Dastlabki tadqiqotimizda talabalarda kasbiy shakllanishi xususiyatlari haqida birlamchi ma'lumotlarni olish uchun «Talabalarning kasbiy-pedagogik yo'nalganligi» so'rovnomasini o'tkazdik. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarda kasbiy pedagogik yo'nalganlikning ahamiyatli xususiyatlari va shu xususiyatlar ifodasining namoyon bo'lish darajasini aniqlab olishdan iborat edi.

1-jadval.

«Talabalarning kasbiy-pedagogik yo'nalganligi» so'rovnomasi kursla bo'yicha Kruskal Uollis mezoni asosidagi statistik tafovut. (N=432)

Shkalalar	Kurs	N	O'rtacha rang	Kruskal Uollis	Ishonch darajasi
Kasbiy va qadriyatlar yo'nalganligi	2-kurs	153	200,78	17,404	,000
	3-kurs	151	250,46		
	4-kurs	128	195,22		
O'quv va kasbiy qiziqishlar	2-kurs	153	248,95	12,225	,043
	3-kurs	151	211,27		
	4-kurs	128	185,99		
O'quv-kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabat	2-kurs	153	226,11	1,448	,485
	3-kurs	151	212,48		
	4-kurs	128	209,75		

O'quv kasbiy faoliyatga tayyorgarlik	2-kurs	153	222,25	1,221	,543
	3-kurs	151	219,14		
	4-kurs	128	206,51		
O'quv kasbiy faoliyat motivlari	2-kurs	153	258,75	11,584	,050
	3-kurs	151	213,48		
	4-kurs	128	205,43		
Pedagogik yo'nalganlik	2-kurs	153	219,18	13,226	,046
	3-kurs	151	212,70		
	4-kurs	128	247,78		

Izoh: $p \leq 0,05^*$; $p \leq 0,001^{***}$

Dastlab, talabalarda kasbiy shakllanishi xususiyatlari aniqlash maqsadida ularning kasbiy-pedagogik yo'nalganligini darajasi aniqlandi. Tanlab olingan respondentlarda, 2-, 3-, 4-bosqich talabalarida «Talabalarning kasbiy-pedagogik yo'nalganligi» so'rovnomasi o'tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kasbiy va qadriyatlar yo'nalganligi shkalasi 2-kurs talabalarda yuqori kurslarga nisbatan farqlar mavjudligi ya'ni, 2-kurs talabalar qadriyatlar orqali kasbga yo'nalganlik 4-kurs talabalariga nisbatdan yuqoriligi bilan izohlanagan. 3-kurs talabalarida esa boshqa kurs talabalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalar aniqlandi. ($H=17,404; p < 0,000$). Demak talabalarda 3-bosqichga kelib kasbga layoqat, kasbga qiziqish va qadriyatlar tizimida kasbga yo'nalish eng yuqori nuqtasi hisbolanishi aniqlandi. (1-jadval)

Kasbiy va qadriyatlar yo'nalganligi ijtimoiy va shaxs omiliga yo'nalganlik xususiyatini ochib beradi. Ijtimoiy qadriyatlar, shu jumladan, ta'limiy qadriyatlar ham shaxsni shakllantirishga xizmat qilib, unda erkin va mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Shaxsning qadr-qimmatini oshirishi, pedagoglar tomonidan shaxs omilining ta'lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekti sifatida tan olishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi maqsadga muvofiq tarzda sodir bo'ladi.

O'quv va kasbiy qiziqishlar shkalasi uch bosqichda (2-3-4 kurs talabalarida) o'tkazilgan statistik –tadqiqotda farqlar mavjudligi aniqlandi. O'quv va kasbiy qiziqishlar shkalasi bo'yicha 2-kurs talabalarida yuqori kurslarga nisbatan ustunlik kuzatildi. Chunki oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan boshlab mutaxassislik fanlari to'liq o'qitilishni boshlaydi. O'quv materiallaridagi yangi ma'lumotlar kasbiy qiziqishning ortishiga sabab bo'lishi bilan izohlanadi. ($h=12,225; p > 0,43$).

Oliy ta'lim muassasasida tahsil olgan bitiruvchilar, ya'ni bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ulardagi kasbiy mahoratning o'sishini ta'minlovchi ma'naviy omillar mavjudir. shunday ma'naviy omillardan biri - talabaning shaxsiy qiziqishi, intilishi, dunyoqarashi nuqtayi nazaridan o'zining bilimiga va malakalariga muayyan talablar qo'ya bilishidir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim "standart"lariga to'liq javob bera oladigan shaxsni mutaxassis sifatida bir qolipda shakllantirib, tarkib toptirish qiyin, lekin har bir maqsadli ta'lim-tarbiya zamirida barcha talabalarning rivojiga turtki berish, uni tafakkuri o'sishiga ta'sir etish usullarini qo'llashda eng samarali muomala shakllarini amaliyotga tatbiq etish zarur.

O'quv-kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabat shkalasida barcha uch bosqich (2-3-4-kurslar) talabalarida o'tkazilgan statistik –tadqiqotlarda farqlar mavjud, lekin sezilarli darajada emas. O'quv-kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabat 3-4 kurs talabalariga nisbatan 2-kurs talabalarida nisbatan yuqori natija mavjud. Talabalardagi maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlilik, diqqatni taqsimlay olish, tirishqoqlik, kuzatuvchanlik, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, shaxsiy namuna ko'rsatish kabi jihatlar o'quv-kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabat muvaffaqiyatning muhim omillaridan hisoblanib, bu kabi jihatlar boshqa kurslarga nisbatan 2-kurs talabalarida ustunligi bilan izohlash mumkin. ($h=1,448$; $p>,485$).

O'quv-kasbiy faoliyatga tayyorgarlik bo'lgan munosabat shkalasi uch bosqich (2-3-4-kurslar) o'tkazilgan statistik –tadqiqotda farqlar mavjud, sezilarli emas. ($h=1,221$; $p>,543$).

O'quv kasbiy faoliyat motivlari shkalasi uch bosqich (2-3-4-kurslar)da o'tkazilgan statistik –tadqiqotda farqlar mavjudligi aniqlandi. O'quv-kasbiy faoliyat motivlari shkalasida 2-kurs talabalarida yuqori ko'rsatkichga egaligi aniqlandi. Kasbiy faoliyat motivlari talabalarda bilim olishdan ham ko'ra xulq-atvorini, yangi xislatlarning namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. ($h=11,584$; $p>,050$). Kasbiy faoliyat motivlari faqat bilimlarni o'zlashtirish, o'quv malakalarini egallash, muomala maromini qo'llash bilangina cheklanib qolmasdan, balki faoliyatda shaxs xususiyatlarining namoyon bo'lishini ham izohlab berishga xizmat qiladi.

Pedagogik yo'nalganlik shkalasida uch bosqich (2-3-4-kurslar) talabalarida o'tkazilgan statistik–tadqiqotda farqlar mavjud. Pedagogik yo'nalganlik shkalasida ustunlik 4-kurs talabalariga tegishli ekanligi aniqlandi. Pedagogik yo'nalganlik yuqori ko'rsatkichga egaligi pedagogik kasbga qiziqish va faoliyatining ushbu turi bilan shug'ullanishiga bo'lgan ishtiyoq 4-kurs talabalarining yuqori tafovutlarini o'qish bilan birgalikda amalga oshiriladigan malakaviy va pedagogik amaliyot davomidagi bolalarga bo'lgan munosabat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, pedagogik kuzatuvchanlik qobiliyatining shakllanib borishi bilan izohlash mumkin. ($h=13,226$; $p>,046$).

Talabalarda «Talabalarining kasbiy-pedagogik yo'nalganligi» so'rovnomasi ularda kasbiy-pedagogik yo'nalganlik shakllanishining shkalalar bo'yicha ma'lumotlar aniqlandi. Tadqiqotimizda talabalarda kasbiy-pedagogik yo'nalganlik to'g'risidgi birlamchi ma'lumotlar sasosida aniqlangab tafovutlarning izohlarini keltirdik, talabalarda kasbiy pedagogik xususiyatlar ifodasining namoyon bo'lish darajasini hamda pedagogik yo'nalganlikning ahamiyatli xususiyatlari kurslar kesimida tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Дубовицкая Т.Д. К проблеме диагностики учебной мотивации. Вопросы психологии. – 2005. – 73 – 78 с.
- 2.Almardanova S.B.Talabalar kasbiy shakllanishi psixologik muammo sifatida.Xalq ta'limi.O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. Toshkent.2021 yil.103-106-b

3. Almardanova S.B. Talabalar kasbiy shakllanishi va ma'naviy yuksalishida koping strategiyaning ahamiyati. TDPU Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. Toshkent. 2020 yil. 80-b
4. Almardanova, S. (2022). Copping strategy for student professional formation.
5. Bobonazarovna, A. S. (2024). The Importance of Ability in the Professional Formation of Students. European journal of innovation in nonformal education, 4(2), 215-217.
6. Bobonazarovna, A. S. (2022). Interpretation of students' professional formation as a psychological problem. European journal of innovation in nonformal education, 2(4), 149-150.

V-SHO‘BA.TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA INNOVATION YONDASHUVLAR.

ВОЗМОЖНОСТИ ПСИХОФИЗИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ВОСПРИЯТИЯ ЗРИТЕЛЬНЫХ ИЛЛЮЗИЙ

Пронин Роман Олегович
и.о.доцента кафедры психологии
филиала МГУ им. М.В.Ломоносова, Ташкент

Психофизика (в узком смысле) изучает соотношение между величинами физических стимулов и интенсивностью вызываемых ими ощущений [1]. Современная же психофизика занимается методологией психологических измерений, поскольку используются сложные (многомерные) стимулы, качества которых нельзя описать через набор отдельных физических параметров (например, оценить качество выпускаемой продукции) [2]. Исходя из этого, можно применить психофизические методы для изучения степени подверженности иллюзорным иллюзиям [5].

В классической психофизике используются понятия абсолютного порога (нижнего и верхнего), разностного (дифференциального) порога, относительного порога [3].

Нижний абсолютный порог – минимальная интенсивность стимула, необходимая и достаточная для вызывания ощущения (часто используется в исследованиях) [3].

Верхний абсолютный порог – значение интенсивности стимула, при которой наблюдается появление ощущения, неспецифичного для данной модальности, как правило, боли (используется крайне редко) [3].

Разностный (дифференциальный) порог – минимальное изменение интенсивности стимула, приводящее к изменению интенсивности ощущения, или другими словами, минимальная разница интенсивности стимула, которую может почувствовать испытуемый [3].

Относительный порог – отношение разностного порога к исходной интенсивности стимула, относительно которой производилось измерение разностного порога [3].

Г.Фехнер предложил 3 метода измерения абсолютного и разностного порогов, которые называются классическими психофизическими методами. Их характерной чертой является то, что внимание уделяется в основном стимульным переменным и недостаточно учитываются субъективные факторы несенсорной природы (мотивация, установки, ожидания). Тем не менее, относительная простота этих методов, относительно небольшие затраты времени на процедуру измерения, удобство выражения пороговых мер в физических единицах дают возможности широкого применения в современных исследованиях [2].

1. Метод минимальных изменений (метод границ). При определении нижнего абсолютного порога экспериментатор изменяет интенсивность тестового стимула в сторону увеличения (восходящий ряд) и в сторону уменьшения (нисходящий ряд). В восходящих рядах интенсивность стимула увеличивают с подпорогового значения, а в нисходящих рядах интенсивность стимула уменьшают со значения, превышающего значение нижнего порога. Интенсивность стимула изменяется упорядоченно небольшими равными порциями. При предъявлении каждого стимула испытуемый отвечает, ощущал ли его. Так как восходящий ряд начинается с подпороговых стимулов, то в начале он даёт отрицательные ответы. Как только испытуемый даёт положительный ответ, предъявление ряда заканчивается. Нисходящий ряд начинается с надпороговых стимулов и положительных ответов испытуемого и заканчивается озвучиванием первого отрицательного ответа [3].

Недостатком данного метода является предъявление стимула, интенсивность которого нужно плавно менять, а технически это сделать получается не всегда. Например, варьировать длину отрезка – для этого нужны специальные компьютерные программы. Другой недостаток – явление гистерезиса, суть которого заключается в несовпадении нижних абсолютных порогов в нисходящем и восходящем ряду в силу ошибки ожидания, предвосхищения (в восходящем ряду, когда испытуемый ждёт появления сигнал и может дать положительный ответ в то время, как стимул не достиг пороговой величины) или привыкания (в нисходящем ряду, когда испытуемый привык ощущать стимул, и даёт положительные ответы, а его величина перевалила за пороговое значение). Преодоление этого недостатка достигается за счёт увеличения количества восходящих и нисходящих рядов до 20-40, что увеличивает время проведения исследования [3].

Этот метод можно применить для определения подверженности зрительным иллюзиями следующим образом: экспериментатору самому варьировать размеры или угол отдельных элементов изображения в соответствии с восходящими и нисходящими рядами и зафиксировать ответы испытуемых в тех значениях, где отмечено, что размеры или другие характеристики воспринимаются, как одинаковые или схожие [5]. Для этого нужны специальные программы, позволяющие варьировать размеры отдельных элементов изображения.

2. Метод установки (метод средней ошибки). Испытуемый в эксперименте сам увеличивает и уменьшает интенсивность стимула до тех пор, пока ощущение не возникнет (в восходящем ряду) или не исчезнет (в нисходящем ряду). Предъявление восходящих и нисходящих рядов аналогично методу минимальных изменений. Таким образом, испытуемый попеременно осуществляет подравнивания, начиная со стимула подпороговой величины, либо со стимула надпороговой величины [2], [3].

Недостатки у данного метода те же, что и у метода минимальных изменений. К тому же он не получил широкого применения в практике исследований. Преодоление этого недостатка достигается за счёт увеличения

количества восходящих и нисходящих рядов до 20-40, что увеличивает время проведения исследования.

Этот метод можно применить для определения подверженности зрительным иллюзиям следующим образом: испытуемому самому варьировать размеры или угол отдельных элементов изображения в соответствии с восходящими и нисходящими рядами и сообщать свои ответы исследователю в тех значениях, где отмечено, что размеры или другие характеристики воспринимаются, как одинаковые или схожие. Для этого нужны специальные программы, позволяющие варьировать размеры отдельных элементов изображения [5].

3. Метод констант (метод постоянных раздражителей). С помощью методов минимальных изменений или установки определяют диапазон значений стимула, внутри которого находится нижний абсолютный порог. Внутри этого диапазона устанавливают несколько фиксированных значений стимула и испытуемым предъявляют только их в случайном порядке. Таким образом, нет упорядоченности в изменении интенсивности стимуляции в последовательных пробах [2].

При определении разностного порога испытуемый сравнивает 2 стимула. Один стимул, эталонный, не меняется, другой, тестовый, может принимать несколько фиксированных значений. Используется набор из нескольких дискретных стимулов, как и при определении нижнего порога. При этом в каждой пробе испытуемый должен вынести суждение, больше или меньше эталонного был тестовый стимул. Тестовый стимул может принимать значения меньше и больше эталонного. Совпадение интенсивностей эталонного и тестового стимулов называется точкой физического равенства (ТФР). В промежутке между этими двумя значениями при увеличении изменяемого параметра стимула пропорция ответов «больше» плавно возрастает от 0 до 1. Поэтому пропорцию ответов «больше» представляют в виде графика, называемого психометрической функцией [3].

Данный метод исключает ошибку привыкания и ожидания, что делает его более надёжным и применяемым в экспериментах. Тем не менее, количество повторений всех проб (для более точной статистики) рекомендуется варьировать от 5 до 10 [4].

Этот метод можно применить для определения подверженности зрительным иллюзиям следующим образом: заготовить несколько модификаций стимульного материала и предъявлять их в случайном порядке. Ответы же испытуемого фиксируются в специально разработанном бланке. Соответственно, при использовании данного метода можно использовать вполне стандартные программы, позволяющие предъявлять стимульный материал в случайном порядке, (например, Power Point), что упрощает процесс исследования [5].

Таким образом, мы проследили возможности и ограничения классических психофизических методов и установили, что для определения степени подверженности зрительным иллюзиям метод минимальных изменений и метод

установки нуждается в дополнительном программном обеспечении, в то время как метод констант более удобен и надёжен в практическом плане.

Литература

1. Гусев А.Н., Измайлов Ч.А., Михалевская М.Б. Измерение в психологии. М.: Смысл, 1998.
2. Гусев А.Н. Общая психология. Т.2 «Ощущение и восприятие» / Под ред. Б.С. Братуся. М.: Академия, 2007.
3. Любимов В.В. Психология восприятия М.: ЧеРо, 2007.
4. Меньшикова Г.Я Психологические механизмы восприятия зрительных иллюзий. М.: МАКС Пресс. 2013.
5. Пронин Р.О. Особенности восприятия зрительных иллюзий учащимися 1 и 5 классов общеобразовательной школы // Материалы международной научной конференции студентов, аспирантов и молодых учёных «Ломоносов-2016» 11-15 апреля 2016 г., Москва. М.: Изд-во МГУ, 2016.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA KO‘P XONALI SONLARNI NOMERLASHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Djumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna;
Termiz davlat universiteti,

Dots. pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limlarda ko‘p xonali sonlarni nomerlashda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ko‘p xonali sonlarni nomerlashda og‘zaki, yozma nomerlash usullaridan hamda talabalarni amaliy mashg‘ulotda faollashtirish maqsadida “Tushunchalar tahlili”, “Zanjir” o‘yini, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Zinama-zina”, “3 X 4” metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nomerlash, yozma nomerlash, tayyorgarlik davri, ko‘p xonali sonlar konsentri, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, bosqich, matematik diktant, metod, taqqoslash.

Bugungi kunda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarni rivojlanishi natijasida o‘quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta‘limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta‘lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar egallanayotgan bilimlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, ularni tahlil qilishlariga, bilimlarini baholashlariga, to‘g‘ri xulosalalar qilishni o‘rgatishga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinfdoshlari bilan o‘zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchi markaziy ishtirokchiga aylanadi.

O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat

yuritishiga olib olib keladi. Bu esa, o'quvchidan ko'proq mustaqil ishlash, ijod qilish va iroda kabi sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy tabiatdan kelib chiqqan holda, o'quvchini ovqitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, imkoniyat yaratadi.

Innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

“Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi” [4: 220 b].

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari oldida turgan eng dolzarb muammo o'quvchilarda zarur ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini yuqori bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotda qo'llay olishdan iboratdir. Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar vositasida darslarni olib borish o'quvchilarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlarida ham ko'mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlashda didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

“Zanjir” o'yini.

Bu o'yinni sonning karralilarini topishda tashkil etish mumkin. O'qituvchi bir sonni aytadi. O'quvchi esa o'sha songa yana o'sha sonning o'zini qo'shib aytadi, shu tariqa o'quvchilarning hammasi o'yinga jalb etilishi mumkin. Masalan, o'qituvchi 15 sonini aytsa, o'quvchilar 15 ga 15 ni qo'shib, 30 deydi, keyingisi 60 deydi, shu tariqa o'quvchilarning birin-ketin 120, 240, 480, 960 va hokazo sonlar aytadilar. Bu didaktik o'yinni katta sonlarda ham davom ettirish mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi.

Bu metodning maqsadi o'quvchilarning darsda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajalarini aniqlashdan iborat bo'lib, u o'quvchilarga o'z bilimlarini erkin bayon eta olish, yakka va guruhda ishlay olish, sinfdoshlari fikrlariga hurmat bilan qarash, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatadi.

№	Tushunchalar nomi	Izohi
1	O'nli kasr deb qanday kasrga aytiladi?	
2	Simmetrik shakllar deb qanday shakllarga	

	aytiladi?	
3	Fazoviy shakllarning tekislikdagi shakllardan farqi nimada?	
4	Sonning o'rtta arifmetik qiymati qanday topiladi?	

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

“Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi [kichik guruhlarda ishlab](#), darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi” [2: 140 b].

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

Zinama-zina metodi

“Ushbu metod o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash xamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya o‘quvchilar bilan bir gurux ichida yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tqaziladi va taqdimot qilinadi” [3: 184 b].

O‘quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha xosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izox berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

O‘quv mashg‘ulotining bunday tashkil etilishi o‘quvchilarni mustatqil fikrlashga, o‘tilgan va o‘zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma ko‘rinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o‘rgatadi.

Ushbu metodning bajarilishi quyidagicha amalga oshiriladi. Jadvalning har bir zinasida massa, sig‘im, vaqt o‘lchov birliklari mavzusi keltirilgan bo‘lib, talaba mavzuning mazmun mohiyatini yoritib berishi kerak.

O‘qituvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog‘ozdagi

bo'sh joyga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi, guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi, tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;

Mavzu	Massa, sig'im, vaqt o'lchov birliklarini o'rgatish metodikasi
--------------	--

Massa o'lchov birliklari	Javob
---------------------------------	--------------

Sig'im o'lchov birliklari	Javob
----------------------------------	--------------

Vaqt o'lchov birliklari	Javob
--------------------------------	--------------

Talabalarni amaliy mashg'ulotida faollashtirish uchun "So'z o'yini" metodidan foydalaniladi.

Talabalar uch guruhga bo'linadi va guruh vakillaridan bitta talaba doskaga chiqadi. "Modellashtirish" so'zidagi harflardan foydalanib so'zlar tuzadi, topilgan so'zlar takror bo'lmasligi kerak. Qaysi guruh talabasi ko'p so'z topsa, shu guruh g'olib bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. "Bayoz", 2023 yil. - 296 b.
2. H.M.Jumayeva. "Matematika o'qitish metodikasi" (Amaliy mashg'ulotlar 1-modul). O'quv qo'llanma/ Termiz.: "TerDU NMM" nashriyoti, 2023. -140 b.
3. Qahhorov S.Q., Hayitov U.H. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida innovatsion texnologiyalar: o'quv qo'llanma /.-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-184 b.
4. Ishmuhammedov R. Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Toshkent. 2016 yil. - 220 b.

TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISHDA XARAKTER VA IRODAVIY XUSUSIYATLARNING O'RNI

*Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna
p.f.b.f.d.(PhD)Termiz davlat universiteti*

Ijtimoiy turmushning turli sohalari bo'yicha yuz berayotgan o'zgarishlar, tub islohotlar jamiyatda yangilanishlarni yaratishga, fuqarolar farovonligini oshirishga, ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishga yo'naltirilgan. Mazkur ijtimoiy voqeliklar, hodisalar ro'yobga chiqishining negizida, jumladan, pedagogika institutlari

talabalarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarini rivojlantirish muammosi ham yotadi.

Hozirgi davrda insonning psixologik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va ularni to'laroq ro'yobga chiqarish, shu asosda muayyan ijtimoiy istiqbol rejalarini belgilash hamda ularda ma'naviy axloqiy fazilatlarni rivojlantirish har bir davlat, jamiyat va xalqning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, har bir shaxsning o'zi jamiyat va xalqning tarkibiy qismi sifatida o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi rivojlantirishi va kamol toptira borishi muqarrardir.

Sharq uyg'onish davrning buyuk mutafakkirlari Ibn Sino, Al-Beruniy, Forobiylar ham inson xarakterida ijobiy sifatlarni rivojlantirish muammosiga alohida e'tibor qaratganliklarini ta'kidlab o'tish joiz. Chunki ularning ma'naviy mulki jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa bo'lib hisoblanadi.

Insonga kompleks yondashish asosida har tomonlama va garmonik rivojlanishi muammosi, uning XX asrda muhimligi B.G.Ananev, A.A.Bodalev, V.V.Davidov, A.G.Kovalev, V.N.Myasishchev, V.A.Kruteskiy, N.A.Menchinskaya va boshqalarning ishlarida ta'kidlab o'tiladi [1, 2, 4, 5]. Xarakter va qobiliyat har bir shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, individual-psixologik xususiyatlari rivojlanishining qonuniyatlarini kompleks o'rganishda amalga oshiriladi.

Shaxsning xakteri va qobiliyatlarining o'zaro aloqasi muammosini yechishga nazariy yondashishlar ishlab chiqilishi va qo'yilishi birinchi marta B.G.Ananev tomonidan «Xarakter va qobiliyat rivojlanishidagi o'zaro aloqalar haqida» nomli ishida amalga oshirildi. B.G.Ananevning nazariy fikrlari o'z vaqtida V.N.Myasishchev ishlarida keyingi rivojlanishini topdi. Bu tadqiqotning maqsadi yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish qobiliyati bilan chaqqonlik, harakatchanlik, irodaviy o'zini boshqarish va emotsional turg'unlik kabi xarakterologik xususiyatlarining o'zaro aloqasini nazariy va eksperimental tadqiq etish hisoblanadi.

K.D.Ushinskiyning ko'rsatishicha, xarakter tushunchasiga ega bo'lish kuzatish uslubi orqali amalga oshadi [10]. Kuzatish manbaning mazmunini emas, balki insonning hayot va faoliyat shakllarini kuzatish demakdir. Lekin Ushinskiyning tarbiyachining tarbiyalanuvchiga ta'siri haqidagi qarashlari orqali xakterdagi sun'iylikni xarakter mazmunidan ajratmaganlikdir.

Lesgaft o'zining xarakter haqidagi ta'limotini ochib berishda quyidagi irodaviy xususiyatlarga e'tibor qilishlikni uqtirib o'tadi: o'zini idora qila bilish, o'zining faoliyatini anglash, to'siqlardan o'ta olish imkoniyati kabilarni nazarda tutadi. Bulardan tashqari, xarakter xususiyatlariga u insonlardagi qat'iylik, ya'ni ongli tarzda mavjud haqiqatga irodaviy erishishni kiritadi [7].

A.N.Leontevning fikricha, xarakter insonning individual xususiyatlariga kiritiladi [6]. Bu fikrlar Yu.B.Gippenreyterning maqolasida ham keltiriladi [3]. B.M.Teplovning yozishicha, «hech qanday psixik xususiyat» tug'ma bo'lmaydi [9]. Iqtidor tug'ma bo'lishi mumkin.

A.N.Leontevning shaxs konsepsiyasi xarakter muammolarini keng ko'lamda tahlil qilishga yordam beradi. Ular ichida hammadan oldin "xarakter" tushunchasi hajmini belgilash hamda xarakter bilan temperament munosabatlarini aniqlash muammosi ishtirok etadi. Uning tomonidan berilgan "individ" va "shaxs"

tushunchalarining talqini xarakterni individning xususiyatlariga kiritishga yordam beradi. Xarakterni bunday tushunish insonning xulq-atvori usullarini ko'rsatadi. Bu esa shaxs xususiyatlariga aynan o'xshashdir.

Ko'pincha inson xakteri haqida gap borganida, uning individual ko'rinishi va o'ziga xos psixologik xususiyatlari tushuniladi. Insonni xarakterlash doimo uning individualligini boshqa odamlardan farqlaydigan tomonlarini ko'rsatish bilan tavsiflanadi.

Yuqorida tahlil qilingan iroda bilan xarakterning munosabatlaridan kelib chiqqan holda irodaviy xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz. Irodaviy xususiyatlar Oliy ta'lim muassasalari talabalarining bo'lg'usi pedagogik faoliyatiga tayyorgarlikda katta ahamiyatga ega.

Irodaviy xususiyatlardan yana biri bu o'zini tuta bilishdir. O'zini tuta bilish xarakterning shunday sifatiki, bunda aynan shu vaqtda kerak bo'lmagan ongdagi va faoliyatdagi barcha narsalar chetlashtirilishi yoki to'xtatilishida ko'rinadi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan inson tashqaridan jiddiy, o'z nutqini, kayfiyatini boshqara oladi, emotsional portlashlarga yoki affektga berilmaydi.

O'zini tuta bilishga juda yaqin bo'lgan xususiyat – bu o'zini boshqarishdir. Agar o'zini tuta bilish keraksiz, zararli, stixiyali narsalardan saklanishni bildirsa, unda o'zini boshqarish atamasining ko'rsatishicha, inson o'zining faoliyatini kuzatib boradi, javobgarlik hissiga va talabchanlikka ega bo'ladi, bunda salbiy tomonga qandaydir chetlashishga yo'l qo'yilmaydi. O'zini boshqara olmaydigan odam o'zini boshqarish mexanizmini yo'qotib qo'yadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib shuni xulosa qilish mumkinki, talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda har bir pedagog ta'lim jarayonida talabalarda xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarini rivojlantirishi shaxsning xulq-atvorini oqilona baholashda xarakterni hisobga olishi, inson mayllari va xohishlarining kuchli yoki zaifligi xarakteriga bog'liq ekanligini bilishi, inson hayotiy ustanovkasida mustahkamlanuvchi, uning negiziga aylanuvchi harakatni qidirishi va topishi, hayotiy omillar xarakter shakllanishiga ta'sir qilishining pedagogik mexanizmlari, uning rivojlanishi va faoliyatda aks etish jarayoni haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды. В 2-х томах. М.: 1980. - 10-110 с.
2. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. -М.: 1978. -13 с.
3. Гапиров Б.Т. Динамика развития нравственного самосознания личности студента в процессе обучения. -Т.: 1993.
4. Ительсон Л.Б. Математические и кибернетические методы педагогики. Москва: 1964.
5. Кон И.С. Категория "я" в психологии // Психологический журнал. 1987. № 3. С. 42.

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK ONGNI TARBİYALASHGA OID TUSHUNCHALAR.

*Oygul Xolmuminova Jumayevna
Termez davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) dotsent*

Annotatsiya: Hozirgi kunda global ekologik halokatlarning oldini olish va sabablarini bartaraf etish jamiyatdagi ekologik ongga bog'liq bo'lib turibti, uning maqsadga muvofiq shakllanishi esa ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanad

Tayanch tushunchalar: Ekologik tarbiya, oila maxalla ma'naviy tafakkur ta'lim-tarbiya maktab atrof muxit tushunchalar.

Mustaqillikka erishish baxtiga muyassar bo'lgan halqimiz hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o'zgarishlari, halqimizning ekologik ongini tarbiyalashga bo'lgan qiziqishi, ma'naviy tafakkurda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, tabiatga nisbatan ogoh bo'lish ehtiyojlari seza boshladi.

Har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim-tarbiya olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'lik. Ana shunday ma'naviy tafakkurga ega bo'lgan avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo'lib, shu xalqi manfaatlari yo'lida xizmat qila olishi mumkin va o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda yoshlarda ekologik ongini tarbiyalashga oid tushunchalarni shakllantirish muxim rol o'ynaydi.

Bu esa nafaqat hozirgi avlod taqdiri, balki kelajak avlodning taqdiri ham shunga bog'liq ekanligini anglaydi.

Shunga ko'ra yosh avlodning ekologik ongini tarbiyalashga oid tushunchalarni shakllantirishdan foydalanib yoshlarni tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi, hamda bu mavzu dolzarb bo'lib, jamiyat rivojida katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston va Qozog'iston hududida joylashgan, Orol dengizi xududlarida bo'layotgan ekologik o'zgarishlar haqidagi fikrlaridan shuni anglab olishimiz mumkinki, Orol bo'yi ekologik inqiroz inson tarixining eng xavfli xususiyatlaridan biri bo'lib qolganligini o'quvchilarga tushuntirish bilan birga ularning ongiga uning og'ir oqibatlarini yetkazishimiz lozim .

Davlatimiz rahbari shu bois o'quvchi yoshlarga ekologik ongini tarbiyalashga oid tushunchalarni shakllantirishga doimo katta e'tibor berib kelganlar. Shu oqilona siyosat tufayli halqimiz o'zligini tanib, ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda uni yangi pog'onaga ko'tarishga harakat qilmoqda.

Yosh avlodning ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirmasdan turib, uning turmush tarzini va taraqqiyot darajasini oshirishda muvaffaqiyatlarga erishish qiyindir.

Maktab o'quvchisining ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish orqali, ularni tarbiyalash nafaqat davlat ishi, balki bu borada oila, so'ngra maktab, qolaversa, mahalla ham ma'sul bo'lib, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida to'xtovsiz davom etiriladiki, bu esa insonning ma'naviy yetukligi darajasini ta'minlaydigan asosiy manba hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek: "Tarbiya-insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'g'iti bilan singadi. Inson hayot tajribasi, bilishi, odob-axloqi, hatti-harakati bilan o'zining ruhiy olmoshini boyitib boradi".

Millat va mamlakatning ma'naviy taraqqiyoti yoshlarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda ma'navi kamolotiga asos soladi. Ekologik tarbiya yoshlarga muayyan maqsad, kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudrat ato etadi. Ekologik tarbiya yoshlar uchun eng muhim ijtimoiy ehtiyojga aylanadi.

Umumta'lim maktab o'quvchilarini ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish eng avvalo, oiladan boshlanadi va maktabda, mahallada davom etiriladi. Xuddi shu yerda maktab bilan oila o'rtasida uzviy aloqa o'rnatiladi. So'ngra oilaning mahalla bilan jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi tarkib topib boradi. Bu sohadagi asosiy mas'uliyat umum ta'lim maktab o'qituvchilari zimmasiga yuklatiladi. Dastlabki ilk tushunchalar albatta oilada, maktabgacha va undan keyingi ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilib, unda o'qituvchilarni qanday mahorat bilan ishlashiga bog'liq.

Ekologik ong tushunchasini yoshlarda shakllantirar ekanmiz, bugungi kunda tabiat va inson o'rtasida o'zaro faol bog'liqlikdagi holatlar bo'lib, tashqi muhitni o'zlashtirishdagi jarayonlar rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonunlari asosida inson xulqini rivojlanishiga bog'liq.

Har qanday shaxsning ekologik ongini shakllanishida uning ekologik halokatlarga nisbatan ichki kechinmalari, o'zini tabiat oldida aybdor deb hisoblashi, uning hissiy-ruhiy holati ham muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra yosh avlodning ekologik ongini tarbiyalashga oid tushunchalarni shakllantirishda quyidagi xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi.

1.O'quvchilarning e'tiborli atmosferada tuzli chang, suv tarkibi yomonlashganligi tufayli dehqonchilikka ham salbiy ta'sir qilganligini ko'rsatish;

2.Ekologiya vaziyat yomonlashganligi tufayli: anemiya, buqoq, bosh og'rig'i, buyrak kasalliklari kabilarning ortgani ko'proq ta'kidlangan;

3.Ekologik ahvolning buzilishi oilaviy budjetga ham salbiy ta'sir etgan;

4.Ekologik vaziyatning yaxshilanishi uchun, asosan, ko'proq daraxt ekish, tabiatni asrash zarur deb hisoblangan;

5.Ekologik vaziyatning yomonlashishi tufayli o'zi tug'ilib o'sgan joyini tashlab ketmaslik. Etnik qadriyatlarining o'ziga xosligini tasiri;

6.Ekologik vaziyatning buzilishi aholi o'rtasida xavotirlanish, tashvishlanish darajasini ortib borishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kungacha ekologik ong tushunchasini shakllantirishda ekologik muammolar turlicha o'rganilgan, ammo

aholining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyati, atrof-muhitdagi o'zgarishlar, insonning unga bo'lgan munosabatlari, ekologik savodxonlik alohida ahamiyatga ega. Bu borada ekologik ongini tarbiyalashga oid tushunchalarni shakllantirish uchun, ularni hayotga tayyorlash, o'qituvchilarni ekologik bilim darajasini kengaytirish, malaka va ko'nikmalarini oshirish, ta'lim uzluksizligini ta'minlash zaruriy ehtiyojdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch"-T.: Ma'naviyat, 2008 y.
2. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekistoni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakteristik strategiyasi. -T.: O'zbekiston, 2017. "Gazeta. uz"
3. Xudoyqulov X.J. Pedagogika.Psixologiya.-T.: Navruz.2011 yil.
4. Shamsheva A.K.O'quvchilarda ekologik ongini shakllantirishning psixologik xususiyatlari."Xalq ta'limi" jurnal. №1. 2010 yil. 16-119-bet.
5. Isakulova N.J.Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiya berish. Monografiya. Fan.2012 yil.134-bet.

O'ZBEK RAQSINI PROFESSIONAL METODIK O'RGANISH

Muratova Sabohat Choriyevna

TAFU Pedagogika kafedrasini mudiri

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bugungi kunda raqs san'ati axloqiy-estetik tarbiya vositasi bo'lib, kishining tashqi ko'rinishini ko'rkamlashtiradi, madaniy hayotni yuksaltirishda aloqida o'rin tutadi, Raqs ansambllariga qiziqish hozirgi kunda ortib boryapti. Havaskor raqqosalar yuksak darajadagi professional raqqosa bo'lib yetishmasalar-da, ijtimoiy hayotimizda, mamlakatimizning rivojlanib, gullab-yashnashida, ijobiy rol ado etadilar, yetuk insonlar bo'lib yetishadilar.

"Yaxshi texnikaga ega raqqosa" deganimizda, ijro harakatlari tez, aniq va chaqqon bo'lgan raqqosani ko'z oldimizga keltiramiz. Lekin yaxshi texnikaga ega raqqosa raqsda baletmeyster va bastakor aytmog'chi bo'lgan fikrni o'z ijrosi bilan ochib beribgina qolmasdan, raqs yordamida ma'lum ma'nodor fikr yarata olishi kerak. Bosh, gavda, qo'l va oyoq uchun mashqlar bajarish, aylantirishlarni ko'proq mashq qilish raqqosalarni raqslarda uchraydigan murakkab kombinatsiyalashgan harakatlarni ijro etishga oldindan tayyorlaydi.

Raqqosa bu murakkab kombinatsiyalarni yaxshiroq ijro etishni ta'minlash uchun harakatlardan-harakatlarga yumshoq o'tish mashqni chuqurroq o'zlashtirishi kerak. Bundan tashqari, bu mashqlar, holatlar ustida muntazam shug'ullanib borilsa, raqqosaga texnik va badiiy imkoniyatlarni o'zlashtirishda yangiliklar yaratadi. Shuni unutmaslik kerakki, aylanishlar, harakatlarning nozik va aniq mijrosi maqsad va ma'no bilan amalga oshirilishi kerak.

Har safar mashq ustida ishlayotganda raqqosaning oldiga aniq vazifa qo'yilmog'i kerak. Bu vazifa raqqosaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda uning umumiy ijrochilik qobiliyatini rivojlanishiga foyda oladigan bo'lishi kerak. Masalan, agar raqqosa ijrosida egilish yoki charx aylanishi oqsayotgan bo'lsa, shu harakatni mashqlar yordamida takrorlash mumkin. Mashqlar ma'lum

ko'nikmalarni hosil etish, rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgandir. Bu vazifani bajarishda o'rgatish jarayonini sistemalashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Harakatlarning ichki tuzilishini, oldingi harakatga asoslangan holda yanada murakkabroq harakatni hosil etishning yo'llarini hisobga olish zarur. Bu sohadagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, ijrochilik sohasini muntazam ravishda tarbiyalash ishi "oddiydan - murakkabga" prinsipi asosida tashkil etilishi kerak. Yangi harakatni o'zlashtirish ishiga oldingi harakat puxta o'zlashtirilgandan keyingina o'tish mumkin. Aks holda, raqqosa oldiga qo'yilgan vazifa o'ta murakkablashib ketishi mumkin. Shu sababli ijro texnikasining turli elementlarini o'rganishda uzviy bog'liqlik prinsipiga amal qilish zarur bo'ladi.

Yangi o'rgatilayotgan harakat oldingisiga ma'lum darajada o'xshaydigan yoki o'xshamaydigan joylarini aniqlash, ularni tahlil etishni o'rgatib borilsa, raqqosa uchun ijro etish paytida qiyinchiliklar tug'dirmaydi. Harakatlarni o'zlashtirish jarayonini ilmiy asosda to'g'ri olib borish kerak, chunki keyinchalik xatolari sezilganda, yana qaytadan o'rgatmaslik maqsadida qat'iy qoidalarga bo'ysungan holda ta'lim berilishi kerak. Raqsdagi murakkab harakatlarni o'rgatishda uni qismlarga bo'lib o'zlashtirish, o'zlashtirib bo'lgandan so'ng qismlarni birlashtirib, yaxlit ijro etish yaxshi samara beradi. Mashq qilish jarayonida raqqosa o'zidagi kamchilik va xatolarni o'zi aniqlay bilishi, yangilashi – texnik imkoniyatlarni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir.

Raqqosadan o'z-o'ziga talabchanlik hissini ham o'stirib borish zarur, bu raqsdagi tajribasini oshib borishini ta'minlaydi. Raqs san'atida "Klassik raqs" fani ijro texnikasini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi, oyoq muskullarining kuchli bo'lishi, gavda va qo'lining nozik, mayinligi, eng asosiysi esa harakatni ongli ravishda bajarilishini ta'minlaydi, bilimlarni charxlab, o'tkirlashtiradi. Raqs texnikasini oshirishda birinchi bo'lib harakatlarning aniq bajarilishini ta'minlash zarur, ikkinchidan harakatlarni sekin qismidan tez qismiga o'tishda yoki aksincha, tez bajariladigan harakatdan keyin sekin bajariladigan harakatga o'tishda harakatlar ma'nosini yo'qotmaslikka erishish kerak. Har bir harakatni o'rgatishda avval shu harakatni sekin bajartirib, sekin-asta o'z tempiga yetkazishini mashq qildirish kerak. Sekin bajargan paytda harakatning qonun-qoidalarga amal qilish nazarda tutiladi, harakat nazariy jihatdan o'zlashtirilganidan so'ng esa kerakli tempgacha tezlashtiriladi.

Agar harakatni birdaniga o'z tempida o'rgatilsa, raqqosa harakatlarni nazorat qila olmay qoladi va ijro nazoratsiz, xatolar bilan o'rganiladi. Ikkinchidan, bunday tezlik uchun raqqosa yetarli tayyorlanmagan bo'ladi, natijada keraqsiz bo'lgan harakatlar ijro etilib ketadi. Har bir ijro ham ma'lum darajada kuch ishlatib bajariladi. Nafas olish, kuchlanish ijro harakatiga yordam qilishi yoki xalaqit berishi mumkin. Kuch ishlatish, nafas olishlar to'g'ri amalga oshirilsa, mashqlar davomida ko'nikmalar hosil qilinsa, raqqosa charchoq sezmaydi. Demak, ijro paytida kuchni to'g'ri taqsimlab ishga solinishini nazorat qilish baletmeysterning ta'lim berish ishidagi asosiy vazifasidir. Shunday qilib, raqqosaning ijro texnikasini rivojlantirish orqali uning yetuk raqqosa bo'lib yetishishiga erishish mumkin.

Raqqosaning raqs ijrosini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi ko'p jihatdan gavdaning to'g'ri tutilishiga bog'liqdir. Ijro paytida gavdani shunday tutish lozimki, toki u raqqosaning barcha harakatlari uchun qulay bo'lsin. Shu bilan bir qatorda raqsda gavdaning va harakatlarning tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lishiga erishish kerak. Raqqosalar ijrochiligining holatlari, mayinligi, oyoqlarning chaqqonligi, aniq harakatlanishi hamda yuzidagi muqomlarning kerakli joyda ishlata bilishga erishishlari kerak.

O'zbek raqsimizda iyak ortiqcha ko'tarilmaydi, bosh va gavda, qo'l harakatlari bilan uyg'unlashib ketadi. Gavdaning umurtqa suyaklari tik bo'lishi va bo'shshmasligi kerak. Yelka esa harakatga mos ravishda harakatlanishi kerak. Raqqosaning ijro etish paytidagi ruhiy holati muhim o'rin tutadi. Har bir raqqosa sahnaga chiqishdan oldin sahnaga, tomashabinning nazoratiga ko'nika olishi kerak. O'zini ruhan tuta bilishi kerak. Ijro etmoqchi bo'lgan raqsini to'liq o'rgangan va o'ziga ishongan bo'lishi kerak. Baletmeyster raqqosani birinchi mashg'ulotlardan boshlab, sahnaga tayyorlab boradi. Baletmeysterning shogirdlari bilan muomalasi ularning ijrosi muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi. Raqqosa ijro etadigan raqslar majmuasi – repertuar deyiladi. Raqqosalar uchun repertuar tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak? Repertuarni qanday tanlash kerak? Duch kelgan raqsni sahnalashtiravermaslik kerak, shuningdek, duch kelgan raqsni ham raqqosaga ijro etish uchun o'rgatish yaramaydi. Tanlanayotgan raqs raqqosaning ijro mahoratini yana bir pog'onaga ko'tarish uchun xizmat qilishi kerak. Raqqosaning ijro mahoratidagi muvaffaqiyatli rivojlanishi har doim ham uning qobiliyati bilan belgilanavermaydi. Bunda repertuar tanlashning ham muhim ahamiyati bor. Raqqosaning oldiga qo'yilayotgan vazifalarning bir maromda murakkablashib borishi uning qiziqishini yanada kuchaytirib boradi. Boshqacha qilib aytganda, tanlanayotgan raqs oldingisidan ijro jihatdan murakkabroq bo'lishi zarur. Shuni aytish kerakki, tanlangan raqs raqqosa imkoniyatlariga mos kelishi kerak, toki u raqsning badiiy va texnik vazifalarini hal eta olsin.

Raqqosalarning hammasidan ham ijro usuli va uslublarning ko'nikmasi bir xilda rivojlangan bo'lmaydi. Ba'zilar jadal tezlikda ijro etishda qiyinchiliklar sezilar, boshqalar vazmin, mumtoz raqslarning ijrosida qiynaladilar. Repertuar tanlashda raqqosaning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Hozirgi kunda raqs ijrochilari uchun repertuar tanlashda boshqa xalq raqslari jamlangan kitobdan foydalanish ham mumkin. O'zbek xalq meros raqslarimizga aylangan raqslarni esa Roziya Karimovaning "Bahor" ansambli raqslari, "Isahor Oqilov sahnalashtirgan raqslar" kitobidan foydalanish mumkin. Raqqosalarning repertuarlari tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga ijrochilarning imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Kichik va o'rta guruh qatnashchilari asosan maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab o'quvchilaridan iborat bo'lganligi sababli o'rgatiladigan raqslar o'zlariga xos va mos bo'lishi kerak. Bu guruh qatnashchilari bolalikka xosdir. Ularga sho'x, o'ynoqi va folklor raqslari ko'proq mos tushadi. Uncha qiyin bo'lmagan harakatlar berilishi, xilma-xil figuralar hosil qilinadigan yurishlar berilishi kerak. Bu guruhlarga "Paxta" syuitasi, "Sho'x qiz", "Lazgi" raqslarini o'rgatish mumkin. Bolalarbop qo'shiqlarga - Vatan, do'stlik mavzusidagi qo'shiqlarga raqs sahnalashtirish mumkin.

Quvnoqlik, baxtiyorlik hissi raqsdan aks etishi lozim. Biror syujetli raqs o'rganilayotganda esa uning mazmuni sodda til bilan ularga tushuntirilsa, chin dildan sevib, mehrini berib ijro etishadi. Raqs to'laqonli chiqadi, chunki yosh bolalarning zehni o'tkir, xotirasi kuchli bo'ladi. Ular raqsni tez fursatda o'rganib oladilar. Havaskor raqqosaga repertuar tanlashda baletmeyster axloqiy-estetik tarbiyani amlga oshirayotganini aslo unutmasligi kerak. Chunki har qanday raqs ham yoshlarga axloqiy-estetik tarbiya beravermaydi. Raqs xarakteri, badiiy obraz yo'nalishi, kulminatsiyasi, raqsning umumiy tuzilishini anglab olish kelajakda to'laqonli ijro uchun yordam beradi. Bularni aniqlashda baletmeyster yordami kerak bo'ladi. Raqs kuyi ijrochilarga eshittirib ko'riladi, uning xarakteri, qaysi uslubda va janrdagi kuy ekanligi tushuntiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karpenko M. P. Perspektivi razvitiya sistema vysshego obrazovaniya na osnove "Konsepsii vuza- 2030" / M. P. Karpenko //Vestnik REAN. 2005. T. 5. №3. S. 27-34.
2. Karpenko M. P. Perspektivi razvitiya sistema vysshego obrazovaniya na osnove "Konsepsii vuza- 2030" / M. P. Karpenko //Vestnik REAN. 2005. T. 5. №3. S. 27-34.
3. Karimova R. O'zbek raqslari. T. 2003 y.
4. Karimova R. O'zbek raqslari. T. 2003 y.
4. Hamidova X., Sayfullayeva D., Zokirova S. Merosiy raqs durdonalari. T. 2003y .
5. Karimova R., Sayfullayeva D. O'zbek yakka ayollar raqsi. T. 2007 y. . Nikitin V.Y. Modern djaz tanets. M.
6. 2000 y. Muxamedova O'. Uyg'ur xalq raqslari. T. 2009y.
7. Sayfullayeva D., Kazakbayeva Z. O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari . T. 2006 y.

IQTIDORLI BOLALARNING KOMMUNIKATIV VA TASHKILOTCHILIK XUSUSIYATLARI PSIXOKORREKSIYASI.

*Abdullayeva Zuhro Ismoilovna
Termiz davlat universiteti
Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilarda tadqiqot ishi olib borildi. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o'lchashning ishonchli mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: Psixologiya, aql va idrok, muloqot, iqtidor, shaxs, tadqiqot, ijtimoiy-psixologik, qobiliyat, shaxs.

Kirish. Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Ch. Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj. Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavxumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Shu o'rinda «intellekt» so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik. Intellekt - lotincha so'z - intellectus - tushunish, bilish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Rus olimi Ye.A. Klimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb - hunar sohaslarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so'rovnoma» deb atadi. Shunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo'naltirilgan sohasiga ko'ra 5 toifaga bo'ldi:

P(T) - tabiat (usimlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);

T - texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari) ;

Ch(O)- odam (odamlar guruhi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli ma'lumotlar, belgili simvollar);


X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).

Tadqiqot ishimizda iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini o'rganish bo'yicha "Iqtidorli bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini aniqlash testi", "Iqtidorli bolalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash testi", metodikalari asosida tadqiqotlar olib bordik. Dastlab, diagnostik bosqichda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi past bo'lgan o'quvchilarni aniqlab oldik. Har bir qo'llanilgan psixodiagnostik metodika iqtidorli

bolalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyati qay darajada rivojlanganligi bo'yicha iqtidorligini aniqlash maqsadida olib borildi. Natija quyidagidek bo'ldi. **“Kommunikativ qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko'rsatkichlari**

1.jadval.

Respondentlar n=60	Kommunikativ qobiliyat darajalari		
	yuqori	o'rta	past
Soni:	17	25	18
Foizi:	28%	42%	30%



1.rasm. Kommunikativ qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko'rsatkichlari.


Bizning tadqiqot ishimizda iqtidorli bolalar qobiliyati ayniqsa, kommunikativ qobiliyati yuqori bo'lishi aytilgan edi, ammo olib borgan tajriba sinov ishlarimiz iqtidorli bolalar guruhida kommunikativ qobiliyati yuqorilar bilan birga o'rtacha va past darajadagilari ham mavjudligini ko'rsatdi.

Shuningdek, iqtidorli bolalarning tashkilotchilik qobiliyatini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimizda ham o'ziga xoslik, ya'ni tashkilotchilik qobiliyati yuqorilar bilan birga tashkilotchilik qobiliyati o'rtacha va past darajadagilari ham mavjudligi va ular ko'pchilikni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

2.jadval.

Respondentlar n=60	Tashkilotchilik qobiliyati darajalari		
	yuqori	o'rta	past
Soni:	13	26	21
Foizi:	21%	43%	36%

“Tashkilotchilik qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko‘rsatkichlari



2

.Rasm “Tashkilotchilik qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko‘rsatkichlari.

Iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari diagnostikasi zamonaviy iqtidorli ta’lim-tarbiyasida bu kabi hususiyatlarning rivojlanishiga e’tiborning kamligi, shart-sharoitlarning yetarli darajada har bir iqtidorli bolalarning individualligini xisobga olgan xolda yaratilmaganligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, iqtidorli bolalarni erta aniqlash, ularni tarbiyalashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning talabi ekanligini har bir pedagog bilishi va chora tadbirlar rejasini tuzgan xolda ular bilan ish olib borishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Abdullayeva, Z. I. (2023). The role of psychological characteristics in the development of communication style in a talented person. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 302-305.
2. Abdullayeva, Z. I. (2023). Iqtidorli shaxs muloqotining shakllanishida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ahamiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 275-277.
3. Narkulov, X. (2023). Study of the problem of intelligence and thinking in psychology. *Modern Science and Research*, 2(10), 987-991.
4. Jurayevna, G. D. (2023). The Role of Parents in the Family in Educating a Spiritually Perfect Child. *European journal of innovation in nonformal education*, 3(11), 117-120.

KASBIY IMIJNI O‘RGANISHDAGI ILMIIY YONDASHUVLAR.

Aminova Dilnoza Orifjonovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada imij va kasbiy imij atamalarining paydo bo‘lishi, olimlar tomonidan berilgan ta’riflar ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Kasbiy imij tushunchasini paydo bo‘lishi qo‘llanish sohalari keng miqiyosda tahlil qilingan.

Kalit so‘z: imijalogiya, imij, kasbiy imij, psixologik, pedagogik tadqiqotlar, metodologiya.

Аннотация: В данной статье научно исследовано возникновение терминов имидж и профессиональный имидж, определения, данные учеными. Появление понятия профессионального имиджа широко анализировалось в сферах применения.

Ключевые слова: имиджология, имидж, профессиональный имидж, психолого-педагогические исследования, методология.

Imij doimiy izlanishni taqozo etadigan muammolar toifasiga kiradi. Muammoni psixologik, sotsiologik, pedagogik, falsafiy va boshqa fanlar doirasida tadqiq etilganligini oldingi paragrafda yoritgan edik. Navbatdagi vazifamiz imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o'rganilganlik holatini tahlil qilishdan iborat. Bu boradagi masalalar xususida quyida bayon etiladi.

Rus olimasi G.M.Andreeva imijni tahlil qilar ekan uni itimoiy-psixologik yangi paradigma sifatida hamda ijtimoiy psixologik bilimlarni «ijtimoiy psixologik tushuntirish va tizimlashtirish bilan shug'ullanuvchi zamonaviy ijtimoiy hodisa tarzda izohlaydi» [5]. Bunday hodisalardan biri imij bo'lib, ko'pchilikka ta'sir qiladigan ko'p qirrali va murakkab hodisa zamonaviy jamiyatning hayot sohalari, uning mohiyati, timsoli va mexanizmlarini shakllantirish hali aniq belgilangan emas. Imijni izohlash shu kungacha kam bo'lganligi sababli, uning nazariy va metodologik jihatdan yondashuvga zaruriyati mavjud.

Imijni metodologik jihatdan samarali yondashuvlaridan biri uning tuzilishi va qonuniyatlarini ijtimoiy tasavvurlar orqali o'rganish maqsadga muvofiqdir (S.Moskovichi, J.K.Abrik, D.Jodele va boshqalar).

Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi qator ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qildi (H.Azuma, K.Kashivagi, 1987; H.Raty, L.Snellman, 1992; A.Vornanen 1992, 1993; B.Schefer, B.Schleder, 1994) va bu rus ijtimoiy psixologiyasi vakillarining izlanishlari uchun ham turtki vazifasini o'tadi (A.I.Dontsov, T.P.Yemelyanova, 1987; V.V.Znakov, 1997; K.A.Abulxanova-Slavskaya, 1997, 2000; G.M.Andreeva, 2000; P.N.Shixirev, 2000; T.P.Yemelyanova, 2006; I.B.Bovina, 2008 va boshqalar.)

Ijtimoiy psixologiya tadqiqotlarida ijtimoiy nazariyaga ehtiyoj o'sib borayotgan bo'lsa-da, ammo uning imijni to'laqonli tahlili uchun har doim ham yetarlicha emasligi, unga qo'shimcha izohlar berishni talab etadi.

Ijtimoiy tasavvurlarning imijni metodologik asosi sifatida tadqiq etishga e'tibor qaratamiz. Dastlab nazariyaning vujudga kelishi haqida izoh berilganda ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi 20-asrning ikkinchi yarmida ancha to'laqonli rivojlandi va ijtimoiy tasavvurlar masalasi tadqiqotchilarning e'tiborini uzoq vaqtdan beri o'ziga jalb etib kelmoqda. E.Dyurkgeym, M.Veber, A.Shyuts, P.Berger, T.Lukman, P.Burde va boshqalarning ishlarida ijtimoiy tasavvurlar masalasi nazariy jihatdan o'rganilganligini aytib o'tish o'rinlidir.

S.Mossovichi tomonidan taqdim qilingan ijtimoiy tasavvurlar nazariyasiga ko'ra inson harakat usullarini tanlashda ob'ektiv voqelikning stimullariga emas, balki ularni qanday tasavvur qilishiga tayanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, S.Mossovichi kontseptsiyasida, Ye.Dyurgeyimning jamoaviy tasavvurlar nazariyasiga asoslanib, ijtimoiy tasavvurlar (SP) nafaqat shaxs uchun, balki turli madaniyatlar, sinflar yoki guruhlarining o'ziga xos jihatlarini

ifodalovchi butun guruh uchun ham haqiqatni yaratadigan omil sifatida ishlaydi. Bu «individual ongning shu ijtimoiy guruh vakillariga xos bo'lgan qismi» tarzda ifodaladi [2, 148-b.].

K.A.Abulxanova ta'kidlaganidek, «Mossovichi ijtimoiy tasavvurlarni shaxs va haqiqat o'rtasidagi kanal deb hisoblaydi, bu uning ongiga qo'shimcha ravishda ta'sir qiladi. Tasavvurlar-shaxs tomonidan o'zlashtirilgan kundalik jamoaviy bilimlarning maxsus shakli» [1, 92-b.].

Demak, ijtimoiy tasavvurlar nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy tasavvurlar ilmiy bilimlarga qarama-qarshi bo'lgan «oddiy» bilimlar shaklidir. Bu bilimlar son-sanoqsiz o'zaro ta'sirlar, kommunikatsiyalar va muloqotlar jarayonida hosil bo'ladi, bu kommunikatsiyalarda yaratilib, tilda saqlanadi. Ijtimoiy tasavvurlar-talqin va tushunish usuli kundalik voqelik, shaxslar va guruhlarning bilish faoliyatini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy bilishning muayyan shakli.

Shunga asoslanib, ijtimoiy tasavvurni vosita sifatida talqin qilish yoki G.M.Andreeva tomonidan belgilanganidek, ijtimoiy haqiqatni bilishning «shakli» sifatida idrok etish mumkin. Biroq, ijtimoiy tasavvurlarning kognitiv funksiyasi yagona emas [5, 6].

S.Moskovichi ijtimoiy tasavvurlar talqini vakillarining quyidagi beshta funksiyasini asoslab berdi:

1. Ongning shaxs va guruh tuzilishida barqarorligi va barqarorligini saqlash.
2. Voqelik talqini.
3. Yangi axborotni mavjud ijtimoiy tasavvurlar tizimiga moslashtirish.
4. Vositachilik va mavjud munosabatlar va hatti-harakatlarni tartibga solish.
5. Mazmuniy sintezi [7, 97-b.].

Rus mualliflarining asarlarida ijtimoiy tasavvur funksiyalarini talqin qilishga bir necha bor urinishlar bo'lgan. Shunday qilib, O.Ye.Baksanskiy ijtimoiy tasavvurning uchta funksiyasini asosiy deb hisoblaydi:

1. Ijtimoiy tasavvurlar bilish vositasi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati voqelik tavsifini uni tushuntirish va tushunish.

2. Ijtimoiy tasavvurlar turli guruh a'zolarining xatti-harakatlarini ushbu guruh tomonidan qabul qilingan normalar, ideallar va qadriyatlarga ko'ra vositachilik qiladi.

3. Ijtimoiy tasavvurlar davom etayotgan hodisalarni, kuzatilayotgan hodisalarni allaqachon shakllangan, mavjud qarashlar, fikrlar va baholarga moslashtiradi [8, S. 283].

Shunday qilib, muallif ijtimoiy vakillikning kognitiv, qiymatga yo'naltirilgan va adaptiv vazifalarini asoslab beradi.

Shunday qilib, ijtimoiy tasavvurlar nazariyasining asosiy qoidalarini ko'rib chiqish ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tasvir mohiyatini tahlil qilish bilan bog'liq bir qator dastlabki kuzatuvlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Avvalo, ijtimoiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan bu hodisaning maxsus kommunikativ xususiyatini postulyatsiya qilish kerak. Haqli ravishda I.P.Shkuratova ta'kidlaganidek, imij faqat «imij tashuvchining va u uchun mo'ljallangan auditoriyaning o'zaro ta'siri» vaziyatida paydo bo'ladi. Uning tashuvchisidan jo'natilgan axborotimiz timsolni shakllantirish uchun hech qanday asos yo'q,

auditoriyasiz esa printsiptial jihatdan mumkin emas, chunki har bir imij unga murojaat qilinadi va pirovard natijada u tomonidan hosil qilinadi [180, 64-b.]

Imij, shuningdek, ijtimoiy tasavvurlar ommaviy ong hodisasi bo'lib, voqelikni nafaqat shaxs uchun, balki guruhlar uchun ham bunyod etuvchi omil vazifasini bajaradi.

Yuqorida ko'rsatilgan siyosiy lider va partiyalar imijini o'rganish natijalari bilan tasdiqlanishi mumkin, bu sub'ektlar tomonidan siyosat sub'ektlariga tegishli bo'lgan xususiyatlarning yuqori darajada izchilligini namoyish etadi (Ye.B.Shestopal, 1997; I.A.Bazavova, 2006). Bu hol bizni ham imijning stereotiplar bilan bog'liqligini ko'rishga undaydi, lekin ijtimoiy bilishning bu vositalarini aniqlash, bizningcha, aniqliklarni talab etadi.

Imij stereotipdan moslashuvchanlik, o'zgaruvchanlik va faoliyat kabi muhim xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ye.B.Pereligina qayd etganidek, «bu dinamik xarakterga ega, uning sifatlari o'zgartiriladi, ko'rinishidagi o'zgarishlarning o'zi yoki guruh ongida o'zgarishlarga muvofiq o'zgartiriladi» [130, 13-b.].

Shunday qilib, imij, shuningdek, ijtimoiy tasavvurlar ijtimoiy bilish ob'ektlarining mutlaq o'xshashligi «nusxa» si emas, u ijtimoiy voqelikning faol ijtimoiy-psixologik tuzilma jarayoni va natijasidir.

Imij, shuningdek, ijtimoiy tasavvur madaniy-tarixiy kontekstga bog'liq. Ye.B.Pereligin auditoriyaning tarkibi va uning ijtimoiy guruh sifatidagi xususiyatlari imijning mazmuni, imijni shakllantirish usullari va axborot kanallari haqida sub'ekt tomonidan qabul qilingan qarorlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [131].

Shuni ta'kidlash kerakki, 1940-yillardan boshlab Amerikalik jamoatchilik bilan aloqalar mutaxassislari tomonidan obrazlarni shakllantirishda maqsadga muvofiqlik jihatini ta'kidlash uchun "imij» tushunchasidan foydalanilgan.

Amerikalik iqtisodchi va sotsiolog K.K.Bolding «Imij. Hayot va jamiyatdagi bilim» asarida imijni jamiyat va inson xulq-atvorini anglashning kaliti deb hisoblagan va yangi fan – obraz qurish ilmini yaratishni muhim deb hisoblagan [189]. Bir qator tadqiqotchilar ushbu ta'limning sun'iy tabiatini, manipulyativ tabiatini faqatgina ijtimoiy ta'sir va tashviqot vositasi sifatida ko'rib chiqdilar.

Shunday qilib, mashhur amerikalik tarixchi D. Burstinning «Imij, yoki Amerika tushida nima bo'ldi» kitobida holatini tanqid qilish orqali amerikaliklar jamiyati, uning «voqelikdan qochish» sifatida o'z ifodasini topgan, jumladan, imijning replikatsiyasida bu holatni kuzatdi. Muallifning fikricha, amerikaliklarning kundalik hayotida o'zini namoyon etadigan xarakterli tendentsiya-haqiqatni yashirish istagi o'zlari, xayoliy bir dunyoga qochishdan iborat. D.Burstinning ko'rsatishicha, zamonaviy madaniyat, aslida, odamlar va ularning haqiqiy hayoti o'rtasida turgan soxta reallikni yaratadi. Bu illatlarning ko'p ishlab chiqarilishi biznesning asosi va bozorni rivojlantirish uchun poydevor bo'ldi. Ko'pchilik uchun zamonaviy dunyo jamiyat taraqqiyotining yo'nalishini ko'rsatuvchi mos yozuvlar nuqtasiga aylangan obrazlar olamiga aylandi.

Ijtimoiy bilish psixologiyasi sohasida taniqli olim G.M.Andreeva shunday deydi: «Imij-bu idrokning perspektivasi ataylab o'zgartirilganda va ob'ektning faqat muayyan jihatlarini ta'kidlanganda, idrok qilinadigan ob'ektning o'ziga xos tasviridir».

Shuning uchun ob'ekt yoki hodisani illyustrativ tasavvur qilishga erishiladi. Imij va real ob'ekt o'rtasida ishonchlik deb ataladigan bo'shliq mavjud, chunki, imij timsolning ranglarini quyuqlashtiradi» [5, 180-181-b.].

Bir qator tadqiqotlarda imij masalasini psixologik jihatdan o'rganish amalga oshirilgan S.V.Yelinovanning tadqiqotida oliy ta'lim muassasasining tashqi imijini shakllanishining ijtimoiy-psixologik modeli ishlab chiqilgan. Ushbu ishda qayd etilgan holatga ko'ra «imij» ilk bora xorijiy psixologiyada D.Mayers, R.Berona, D.Birn, B.Djonson, D.Doti, R.Chaldini, L.Braun, F.Kotler tomonidan reklama va marketing doirasida amalga oshirilgan [1].

D.V.Berezina tomonidan ta'lim muassasasi rahbari imijini shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari, OTM rahbari imijining tabiiy, ichki va tashqi psixologik tuzilmasi ajratib ko'rsatilgan [1]. D.S.Krutilinning tadqiqotida Rossiya qurolli kuchlari ofitser-rahbarlarining imiji sotsiologik jihatdan o'rganilgan. Natijada quyidagi ahamiyatli ilmiy ko'rsatkichlar olingan: Ofitser-rahbar imijining sotsiologik ta'rifi va uni harbiy qismda shakllantirishning kontseptual modeli ishlab chiqilgan. Imij fenomenini o'rganishga oid mavjud nazariy va uslubiy yondashuvlarni o'rganish ofitser-rahbarning imijini uning ijtimoiy qiyofasi deb hisoblash imkonini bergan, unga xos shaxsiy-kasbiy, status, kasbiy-boshqaruv fazilatlarini, xususiyatlarini aks ettiradi va asosan unda harbiy-ijtimoiy tashkilot rahbari sifatida unga bo'ysunuvchilarning ijtimoiy munosabatlarini belgilashi yoritib berilgan. Ofitser-rahbarning obro'si harbiy tashkilot ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va shaxsning qadriyatlar yo'nalishi, ijtimoiy-ustanovkalariga moyilligi bilan belgilanar ekan. Ofitser-rahbarning obro'si uning harbiy jamoada vakolatining asosi bo'lib, harbiy-ijtimoiy boshqaruv samaradorligining asosiy omillaridan biri sifatida asoslangan [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Averchenko L.K. Imidj i lichnostnyy rost: Uchebnoe posobie. -Novosibirsk: NGAZ i Ch, 1999. 146
2. Azarenko, S. A. Soobshество tela / S. A. Azarenko. - Moskva : Akademicheskii Proekt, 2007. - 239 s.
3. Akopov G.V. Sotsialnaya psixologiya obrazovaniya. M.: MSPI, Flinta, 2000. - 296 s.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING IJOBIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

*Muhiddinova Dilrabo Bahridin qizi
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarining rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi, Jumladan maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning maktabga tayyorgarlik jarayonida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlar, haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Kichik maktab yoshi, shaxsiy tayyorgarlik, intellektual tayyorgarlik, oʻquv faoliyatiga tayyorgarlik, harakat tayyorgarligi, psixik faollik.

Kichik maktab yoshidagi bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan bolalar boʻlib ular boshlangʻich sinf oʻquvchilari hisoblanadi. Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim oʻzgarishlar roʻy beradi. Binobarin ularning psixikasida ham oʻzgarishlar sezilarli darajada boʻladi. Bolaning maktabga kirishi uning hayotida burulish chogʻidir. Bola maktabga kirib oʻqiy boshlashi bilanoq uning hayotida asosiy faoliyat oʻqish boʻlib qoladi.

Maktabda bola tizimli ravishda yangiliklar oladi, bu oʻquvchilarning kundan kunga orttirib borayotgan hilma-xil mavzudagi bilimlarning manbayidir. Bolaning bilimlarni sistemali tarzda oʻzlashtirishi natijasida undagi bilimning doirasi kengayib boradi, aqliy jarayonlar rivojlanadi shu bilan bir qatorda bolaning emotsional-irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib rivojlana boshlaydi. Maktabdagi taʼlim jarayonining oʻzi bolaning sezgi, idrok, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qoʻyadi.

Yetakchi boʻlgan oʻquv faoliyatidan ham tashqari boshqa faoliyatlar oʻyin, muloqot va mehnat ham oʻquvchi shaxsi rivojiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Bu faoliyalar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogʻliq boʻlgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Oʻquv faoliyati oʻquvchilarda oʻqishda muvaffaqiyatga erishish extiyojini qondirsa, shuningdek, tengdoshlari orasida oʻz oʻrniga ega boʻlish imkoniyatini ham yaratadi. Aynan ana shu oʻrin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi oʻqishga harakat qilish mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda oʻzi erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlarining muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi boʻlish nihoyatda muhim. Bu yoshdagi bolalarda musobaqaga kirishish motivi doimiy extiyoj sanalib, bu motiv ularga kuchli emotsional zoʻriqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bogʻcha davrida boshlanib, kichik maktab hamda oʻsmirlik davrida yaqqol koʻzga tashlanadi. Bolalar kattalarning u haqidagi bergan baxo va fikrlariga qarab, oʻz-oʻziga beradigan baxosi, asosan, toʻgʻridan toʻgʻri oʻqituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatidagi muvaffaqiyatiga bogʻliq. Bu yoshdagi bolalarda mavjud boʻlgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi tasirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalashga yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu davr bolaning turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarini yuzaga kelish va mustahkamlanish davri hisoblanadi. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan birgalikda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatleri mustahkamlanib boradi. Mehnatsevarlik bolada oʻzi qilayotgan ishidan zavq olsagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bogʻliq. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq boʻlsa unda asta sekinlik bilan boysunuvchanlik, tobelik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda bazi salbiy hislatlarini rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Chunki hayotiy tajribalarni kimlargadir taqlid qilgan holda oʻzlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil ishlarni koʻproq buyurish va ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir ishni mustaqil, ijtimoiy vazifa bajarishni

topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Maktab yoshidagi bola o'zining individual xususiyatlarini anglaydi. Bolani o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boradi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bola o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzulishiga beradigan baxosi ham o'z-o'zini anglashida kata ahamiyatga ega. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz tuzulishiga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Ular o'zlarining o'quv faolayati jarayonida o'zlaridagi xulqatvori va faoliyatini o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishni qaror toptirishga yordam beradi. O'quvchi xulq-atvorini motivlashtirishi ham ozgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Ahloqiy his tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshlarda ko'zga tashlangan bolaning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Shuning uchun "Bola boshidan" kabi maqollar xalq o'g'zaki ijodida ko'plab uchraydi. O'smirlik davrinig boshlanishiga kelib juda ko'pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularni bilish jarayonlarida ham ko'zga tashlanadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ayrim o'quvchilarning umumiy va mahsus layoqatlari ko'zga tashlanadi.

Kichik maktab yoshida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshdagi bolalarda diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutq to'liq rivojlanib bo'lganligi uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin.

Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. Shuningdek, o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davrida boshqarishdan o'z-o'zini boshqarishga o'tishi nihoyatda muhimdir.

Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxs xususiyatlari tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topa boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz holda

sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shular asosida ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi. Kichik maktab davridan boshlab o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga e'tibor beriladi. Bu davr ichida bolalarda mehnatga nisbatan ongli, ijobiy munosabatda bo'lish asoslari tarkib topa boshlaydi. Ularda mehnatga havas uyg'onadi, mehnatga va mehnat ahllariga hurmat bilan qarash, ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga intilish singari fazilatlar tarkib topadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar zarur bo'lgan harakat va amallarni darhol o'zlashtirib va egallab ololmaydilar, ko'proq ortiqcha va chalkash harakatlar qiladilar. Mehnat jarayonidagi turlicha ish harakatlarini, chunonchi: tikish, to'qish, kiyish yoki taxtalarni randalash kabi ish harakatlarni qiynalmasdan va birmuncha silliq bajaradigan bo'lish uchun har bir ishda har qanday harakatlar qilish kerakligini va bu harakatlarning qay yo'sinda amalga oshirilishini aniq bilib olish va esda qoldirish kerak bo'ladi. Harakatlarni qayta-qayta takrorlash, mashq qilib borish natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarda uchrab turadigan ortiqcha va chalkash harakatlar yo'qolib boradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axlokiy onglari I va IV sinfdagi o'qish mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi va axlokiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida insoniy an'analar asosida harakat qilishga o'rganadi, o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola xulq-atvorining rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Kichik maktab davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o'tish davridir.

Vaholanki, ushbu ko'nikmalar o'qituvchi tomonidan ma'lum odat va malakalarga o'rgatilinganidan so'nggina paydo bo'ladi. Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda kattadir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning his-tuyg'ulari ularning faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining har bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Baho kishida qoniqish va qoniqmaslik hislarini yuzaga keltirishi mumkin bo'lib, bu hislar bolani yaxshi o'qishga ruhlantiradi. Ba'zan past baho olish orqali yuzaga kelgan salbiy hislar chuqurlashib, o'qituvchining noto'g'ri reaksiyasi va kattalarning doimiy tanbeh va tanqidlari oqibatida bolaning xarakter xislatiga aylanib qolishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari uchun ijobiy baho olishlariga yordam beruvchi asosiy hislardan biri intellektual hislardir. Odamning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hislar intellektual hislar deb ataladi. Bilishga qiziqish, taajjublanish va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish hislari intellektual hislar qatoriga kiradi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyorsiz diqqat yuqori turadi. Lekin, maktabda o'qish birinchi yiliyoq o'quvchilarda ixtiyoriy diqqatning vujudga kela boshlashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Diqqatning bu turi B.T. Annoevning yozishicha, »... katta odamlar bilan bolalarning birgalika faoliyati va tarbiyaning maxsuli bo'lib hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatning yanada yaxshiroq o'sishi maktab yoshidagi bolalarda idrok va

tafakkurning tarbiyalanishga bog`liqdir». Kichik yoshdagi o`quvchilarning ixtiyoriy diqqati to`g`risidagi masala bilan K.D.Ushenskiy ko`p shug`ullangan. U ba`zi pedagoglarning, kichik yoshdagi o`quvchilarda ixtiyorsiz diqqatning afzalligiga tayangan holda maktabdagi barcha o`qish jarayonining faqat qiziqarli va maroqli qilib tashkil etish kerak degan fikrlarga qo`shilmagan. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o`qishida shaxsiy va ijtimoiypsixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta. Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so`ngra esa emotsional motivatsion yo`nalish bo`yicha yangi shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo`nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo`lgan bosqichlarni o`taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T.Nishonova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Toshkent-2019
2. SH.A.Do'stmuhammedova, Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, SH.K.Karimova, SH.T.Alimbaev Toshkent-2013
3. M.X.Xolnazarovna, M,Q,Muhliboyev

ПЕРЕДОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ В ИЗУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В СФЕРЕ МЕДИЦИНЫ

Шоймуродова Файруза Комильжон кизи

Термезский университет экономики и сервиса

Студентка медицинского факультета кафедры стоматологии

Научный руководитель. Хазраткулова Озода Абдуганиевна

доктор философских наук, и.о. доцент

Старший преподаватель кафедры медицинских наук

Аннотация. В данной статье рассматриваются преимущества использования передовых инновационных методов в обучении будущих врачей естественным наукам.

Ключевые слова: инновационная технология, метод, преподавание, медицинское образование.

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время происходящие в современном обществе изменения (научно-технический прогресс, увеличение темпов экономического роста, развитие производительных сил, процессы интеграции и глобализации), активная разработка и внедрение в клиническую практику новых лечебно-диагностических и реабилитационных технологий, стремительное расширение спектра лекарственных средств определяют необходимость реформирования системы высшего медицинского образования, направленного на обеспечение подготовки конкурентоспособных специалистов, способных удовлетворить потребности меняющегося рынка труда, обеспечить научно-техническое и

социальное развитие нашей страны, ее интеграцию в европейское и мировое пространство.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

В высшей медицинской школе в настоящее время наряду с традиционной лекционно-семинарской зачетной системой широко используются различные инновационные образовательные технологии, такие как: личностно-ориентированное, развивающее, проблемное, модульное и дистанционное обучение; игровые и деятельностные; информационно-коммуникативные и симуляционные; исследовательские методы.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Технология личностно-ориентированного обучения предусматривает дифференцированный подход к обучению, учитывающий уровень интеллектуального развития студента и его способности. При использовании данной технологии студент всегда находится в центре внимания преподавателя, что позволяет активизировать его познавательные способности, определять лучшие качества. На практических занятиях широко используется интерактивный метод работы в группе - метод мозгового штурма, в ходе которого обучаемые генерируют, а затем и развивают собственные идеи. Данный метод позволяет преодолеть стереотипы мышления, повысить творческий потенциал обучаемых, выработать навыки решения проблемы, что в дальнейшем формирует их как способных к конкуренции специалистов.

Технология развивающего обучения – это обучение студентов на примере клинических ситуаций, что обеспечивает активную подготовку к предстоящей профессиональной деятельности в условиях современного здравоохранения. С этой целью при проведении практических занятий широко используются моделирование, то есть рассмотрение ситуации из реальной жизни, и ситуационное задание. Для моделирования характерны высокая степень вовлечения обучаемого в учебный процесс, немедленная обратная связь. Оно позволяет обучаемым применять свои знания, испытывать ответственность за принятие решения в «реальных» ситуациях, не беспокоясь о последствиях их решений, развивать навыки. Решение учебных ситуационных задач позволяет сформировать у студентов навыки, необходимые для их будущей практической деятельности: клиническое мышление, умение правильно выбрать врачебную тактику и оказать своевременную квалифицированную помощь. При этом используются различные типы ситуационных задач: задачи с типичной конкретной акушерской ситуацией, требующие краткого и однозначного ответа, направленные на выработку и закрепление знаний акушерства у студентов; задачи, содержащие многочисленные данные, при которых возможны различные подходы к их решению; задачи с развернутым логическим построением, элементами программированного обучения и контроля, способствующие выработке у студентов клинического и логического мышления на предметно-профессиональном уровне по диагностике, дифференциальной диагностике заболеваний, методам обследования и выбору адекватной врачебной тактики.

К технологии развивающего обучения можно отнести и самостоятельную работу студентов, выполняемую по заданию преподавателя, целью которой является научить студента самостоятельно и осмысленно работать с учебным материалом, научной информацией, научить его самоорганизации и самовоспитанию для того, чтобы привить умение в дальнейшем непрерывно повышать свою квалификацию и быть конкурентоспособным специалистом.

Технология проблемного обучения предусматривает создание проблемной ситуации, представляющей собой интеллектуальное затруднение для студента, которое побуждает его искать решение. К данным технологиям относят: проблемные лекции, семинары, учебные дискуссии, учебно-исследовательские работы. Проблемная лекция предусматривает обсуждение различных точек зрения, их логики, разрешение спорных моментов и объективных противоречий. В ходе лекции преподаватель ведет диалог со студентами как собеседник, пришедший «поделиться» своим личностным содержанием, признает право студента на собственное суждение и заинтересован в нем, строит коммуникацию с аудиторией так, чтобы подвести студентов к самостоятельным выводам. Дискуссия как метод обучения способствует повышению эффективности учебного процесса за счет включения обучаемых в процесс обмена знаниями, идеями или мнениями. Используется в тех случаях, когда обмен мнениями может привести к новому взгляду на проблему или необходимо изменить модель поведения, развить навыки межличностного взаимодействия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, реализация современных педагогических технологий в профессиональном обучении специалистов позволяет подготовить квалифицированного специалиста соответствующего уровня и профиля, конкурентоспособного на рынке труда, компетентного, свободно владеющего своей профессией, готового к профессиональному росту, социальной и профессиональной мобильности.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Буравкова, А. Г. Ситуационные задачи как способ формирования клинического мышления врача / А. Г. Буравкова, О. Б. Демьянова // Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии. – 2014. – № 38. – С. 41–45.
2. Гузеев, В.В. Основы образовательной технологии: дидактический инструментарий: [основной обучающий инструментарий учителя, составляющий базу любых образовательных технологий. Классификация основных методов обучения] / В.В. Гузеев. - М. : Сентябрь, 2006. - 192с.
3. Литвинова Т.Н. Применение интегративно-модульной системы обучения студентов медицинского вуза общей химии для повышения качества образования – <http://www.ksma.ru/fh/juk.k29.doc>.
4. Новиков, А. М. Методология учебной деятельности / А.М.Новиков. – М.: Эгвес, 2017. – 156 с.

TALABA YOSHLARLARNING BO'LAJAK O'QITUVCHI SIFATIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Salimov Ilyos

Termiz davlat universiteti magistri

Annotatsiya: Oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislarining tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, amaliy faoliyatda mustaqil ravishda harakat qila olishlari ta'minlanishi lozim. Shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil qilish, uni boshqarish hamda rivojlantirishning yangicha yondashuv va zamonaviy usullari asosida ilmiy asoslangan tizimini yaratishga erishish zarur.

Zamonaviy ta'lim makonida ishning eng yaxshi natijalariga erishish, ta'lim sifatini oshirish, belgilangan maqsadlarga erishish uchun o'qituvchining vakolatlarini rivojlantirish darajasiga e'tibor berishi kerak. Ta'limda vakolatlarga asoslangan yondashuv yangi natijalarga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining asosiy tarkibiy qismidir. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra (B. Oskarsson, A.V. Xutorskoy) kommunikativ kompetensiyani asosiy ko'nikmalarga bog'lash mumkin - "bu shaxsiy va shaxslararo fazilatlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar va bilimlar turli xil ish va ijtimoiy hayotning turli shakllarida va turli xil vaziyatlarda namoyon bo'ladi". Ortiqcha kasbiy ko'nikmalar (kasbiy mahoratdan tashqari) - kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga qodir ko'nikmalar. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 16-moddasi yangi ta'lim texnologiyalariga bag'ishlangan bo'lib, unda elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalari nazarda tutilgan. Elektron ta'lim deganda nafaqat "...axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim faoliyatini tashkil etish" tushuniladi, eng muhimi, "talabalar va o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini" tashkil etish, masofaviy ta'lim texnologiyalari deganda esa "...axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari "talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi bilvosita (masofadagi) aloqalarni" tashkil etish uchun. Bunday yondashuv elektron va masofaviy texnologiyalardan interaktiv ta'lim shakllarini tashkil etishda faol foydalanish imkonini beradi, masalan: talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, talabalarning loyihalar bo'yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish.

Psixologiya fanida layoqat va qobiliyatlarni o‘rganish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Ushbu psixologik xususiyatlarni o‘rganish orqali yoshlarning keleshdagi kasb-hunar faoliyatini to‘g‘ri tanlashiga zamin yaratadi. Zero, shaxsning tug‘ma layoqatlari o‘z vaqtida tashxis qilinsa, ular qobiliyat darajasigacha shakllantirilsa, keyinchalik yuqori darajada namoyon bo‘lgan qobiliyatlar asosida kasb-hunar tanlansa, shaxning faoliyat samadorligi ham yuqori darajada namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-e‘tiqodli insonlar bo‘lib voyaga etishadi.

Buning uchun uzluksiz ta‘lim tizimining barcha jabhalarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ahamiyati kattadir. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda faoliyat masalasi muhim masala hisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo‘nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar shaxsning faolligi manbai bo‘lib hisoblanadi. Ehtiyoj – jonli mavjudotning hayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatidir. Kishining faolligi ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo‘ladi. Kishining ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o‘z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida alohida ajralib turadi.

Inson kasb faolligida «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bogʻliq. Shaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, oʻzligini namoyon qiladi. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon boʻlmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi.

Yaʼni, kasb faoliyati – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman extiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va oʻz-oʻzini oʻzgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu – moddiy neʼmatlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu – yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga oʻxshash. Har qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Qilinayotgan har bir harakat maʼlum narsaga – predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, maʼruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan boʻlib, u avvalo oʻsha daftardagi yozuvlar soni va sifatida oʻzgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan boladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarni aynan nimalarga yoʻnaltirilganligiga qarab, avvalo tashqi va ichki kasb faoliyati farqlanadi. Tashqi kasbiy faoliyat shaxsni oʻrab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni oʻzgartirishga qaratilgan faoliyat boʻlsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat boʻlib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat roʻy beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam boʻladi. Agar oʻylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi kasbiy faoliyat aqliy boʻlgani bilan uning peshonalari, koʻzlari, hattoki, qoʻl harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir toʻxtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab oʻquvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, songra kasbga yoʻllash kerak.

Kasbga yoʻnaltirish - bu ilmiy asoslangan va oʻzini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, oʻzini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turgun kasb tanlash uchun hayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir.

«Kim boʻlsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bogʻliq. Kasbni toʻgʻri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak koʻrsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng koʻp namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda boʻlish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha

hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi. Ma'lumki, xalqimiz qadimdan yosh avlod tarbiyasi, xususan yoshlarni mehnatga tayyorlash, ularga hunar o'rgatishga alohida e'tibor berib keladi. Buni "Hunar-hunardan unar, yigit kishiga qirq hunar oz" kabi maqollarimizda ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bu sohaga e'tibor yanada kuchaydi. Yangi turdagi ta'lim, jumladan maktabdagi mehnat ta'limi va uni negizida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirib, kollejlarda o'qishni davom ettirishga tayyorlash uchun kasb-hunar ta'limi muassasalari tashkil etilishi jadallashtirilmoqda. Ularni o'z ishining ustasi bo'lgan, erkin fikrlaydigan barkamol shaxs tarbiyasi jamiyatimizning ustuvor vazifalari sirasiga kiritilmoqda, zero aynan shunday yoshlar davlatimizning buyuk kelajagini bunyod eta oladi. Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z o'rnini topishi, kasbiy o'zligini anglashi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi va unga qiziqishi kun sayin ortib bormoqda.

Bundan tashqari, psixologlar o'quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur. O'smirlar va ilk o'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat. Bunga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

1. O'z-o'zini baholay bilish malakalariga o'rgatish;
2. Intellektual va hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish;
3. Realistik jihatdan o'z-o'zini baholashni rivojlantirish.

5-7 sinf (o'rta yoshdagi) o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mazmuni, ulardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o'rni to'g'risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko'nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o'quvchilar uchun hayotdagi o'z o'rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o'z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik layoqatlar, o'zi ulg'ayotganligada, yangi bir pozitsiyada o'ziga e'tiborida, atrofga va olamga munosabatida shakllanishi kerak.

8-9 sinf o'quvchilarida kasbga yo'naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma'naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil

qaror qabul qilish hatti-xarakatlari natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi.

8-9 sinf o'quvchilarida oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalari asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kasbga yo'naltirish faoliyat amalga oshiriladi.

1. O'quv va maxsus fanlarni chuqur o'rganish asosida;
2. Diqqatini tanlagan faoliyatida kasbiy muhim sifatlarini shakllantirilishida;
3. Kasbiy rejalari ustidan nazorat va ularni asoslanish darajasini ochib berishda;
4. Kasbiy faoliyatga o'zini tayyorlash yo'llari, o'ziga tashxis qo'yish, natijalarini baholashda;
5. Ijtimoiy kasbiy ko'nikish, kasbni tanlash sabablari, kasbiy yo'nalish asoslari shakllanishida.

Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg'or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma'ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tadbirlar o'quvchining shu kasbga bo'lgan qiziqishini yanada qat'iy qilishini vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Kasbga yo'llash o'quv qo'llanma"ning 165-181 betlar.
2. K.Jo'raboev. o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha psixologik-pedagogik o'yinlar, mashqlar va metodikalar. T.2017-yil
3. S.X.Jaliljonova va boshqalar. Kasb psixologiyasi. O'q. Toshkent-2010

PEDAGOGLARDA HISSIY ZO'RIQISH VA UNING MEHNAT FAOLIYATIGA TA'SIRI.

Shahobiddinova Marg'uba Abdulhay qizi
Uzun tumani 53-sonli maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik faoliyatdagi hissiy zo'riqish va uning o'qituvchi faoliyatiga ta'siri yoritib berilgan. O'qituvchining kasbiy faoliyatida emotsional holatini belgilaydigan va o'qituvchilarning kasbiy faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'plab stress omillari bilan birga kelishi ko'rsatilgan. Ta'kidlanishicha, adaptiv mexanizmlarning buzilishi, stressga past qarshilik, stress omillarining uzoq davom etadigan surunkali ta'siri bir qator psixosomatik kasalliklarga olib keladi. Maqolada emotsional holat muammosi bo'yicha tadqiqotlar va yondashuvlar tahlil qilinadi, "hissiy charchash", tushunchalarini tahlil qilinadi, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatining stressni keltirib chiqaradigan xususiyatlarini ko'rib chiqadi

Kalit so'zlar: emotsiya, hissiy zo'riqish, o'qituvchining charchashi, hatti-harakatlar, emotsional portlash charchash belgilari, psixologik salomatlik.

Zamonaviy odam doimo stress yoqasida yashaydi. Bunga albatta yomon ekologiya, shahar hayotining qattiq ritmi, tajovuzkor ijtimoiy muhit, siyosiy beqarorlik, moliyaviy inqirozlar va boshqa shu kabi ko'plab omillar sabab bo'ladi.

Stresssiz hayot mumkin emas. Stress inson hayotining doimiy hamrohiga aylanishga ulgurdi. Olimlarning fikricha, kichik stresslar muqarrar va zararsizdir, ammo haddan tashqari ko'p stress inson va guruh uchun katta, dolzarb muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, stresssiz professional faoliyat yo'q." O'qituvchilarning salomatligi va hayot sifati, boshqa ko'plab kasbiy sohalarda bo'lgani kabi, ko'p jihatdan ish sharoitlari, ishni tashkil etilishi, mazmuni va faoliyatning boshqa xususiyatlariga bog'liq. Biroq, ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muhitidagi stress omillari doimo keng tarqalgan bo'lib, so'nggi o'n yilliklarda ayniqsa keng ko'lamlil bo'lib qoldi. Zamonaviy o'qituvchining ishi katta psixoemotsional holatlar bilan bog'liq. Pedagogik ishda yuqori mas'uliyat, motivatsion va shaxsiy ishtirok, yosh maktab o'quvchilari bilan muloqotda sezilarli hissiy "zo'riqish", boshlang'ich ta'limdagi sezilarli o'zgarishlar davridagi ishning murakkabligi o'qituvchi faoliyatining stressli xususiyatini belgilaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, stress o'qituvchining doimiy holatidir. Kasbiy faoliyat zamonaviy o'qituvchiga yuqori talablarni qo'yadi, bu esa o'z psixologik resurslarini doimiy va maksimal safarbar qilishni talab qiladi. O'qituvchilik kasbi odatda kasbiy faoliyatning intellektual va hissiy jihatdan eng qizg'in turlaridan biri sifatida tan olingan. Pedagog kasbi sog'lig'ining buzilishining chastotasi bo'yicha yuqori xavfli kasblar guruhiga kiradi. Ma'lumki, taranglik darajasi bo'yicha o'qituvchining ish yuki menejerlar va bankirlar, bosh direktorlar va uyushmalar prezidentlari, ya'ni odamlar bilan bevosita ishlaydigan boshqa mutaxassislardan o'rtacha ko'proqdir. O'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida ko'plab stress omillariga, shu jumladan katta o'quv yuklariga, kundalik va uzoq davom etadigan qiyin vaziyatlar bilan bog'liq tez-tez ta'sirchan reaksiyalar, stressga o'z vaqtida javob bera olmaslik, turli toifadagi odamlar bilan doimiy muloqot qilish, intensiv aks ettirishni talab qiladi. O'qituvchining ishi noto'g'ri hissiy reaksiya ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan har xil stressli vaziyatlarga to'la. Stressli ta'sirning takroriy takrorlanishi yoki davomiyligi bilan hissiy qo'zg'alish turg'un shaklga ega bo'lishi mumkin.

O'qituvchilarning kasbiy faoliyati intensivligining sabablari ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan bog'liq.

- Ob'ektiv omillarga ish kunining ish yuki, faoliyatning tor muddatlari, mehnat natijalarining pasayishi, qoniqarsiz turmush sharoiti va past ish haqi kabi faoliyat shartlari kiradi. Bundan tashqari, ko'plab ijtimoiy yuklar o'qituvchining yelkasiga yuklanadi.

- O'qituvchi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan sub'ektiv omillarga o'quvchilar va hamkasblar bilan muloqotga to'sqinlik qiluvchi shaxsning individual xususiyatlari, ish tajribasining yetishmasligi, kasbiy o'sishdan qoniqmaslik, noaniqlik yoki mas'uliyatning etishmasligi va boshqa shaxsiy fazilatlar kiradi. Tadqiqotchilar A. K. Markova, L. M. Mitina, M.M.Rybakovalar pedagogik faoliyatning stressli holatlarining quyidagi tasnifini ajratadilar:

- 1) o'qituvchi va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar holati (huquqbuzarlik harakati, ziddiyatli vaziyatlar, o'qituvchining talablarini e'tiborsiz qoldirish);

2) hamkasblar va ma'muriyat bilan munosabatlarda yuzaga keladigan vaziyatlar (topshiriqlarning ortiqcha yuklanishi, ish yukini taqsimlashdagi nizolar, o'quv ishlarini ortiqcha nazorat qilish, maktabda noto'g'ri o'ylangan yangiliklar va boshqalar);

3) o'qituvchi va bolalarning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar holatlari va boshqalar. Biz bilamizki, o'qituvchi o'quvchilar bilan ishliydiki. Faoliyati jarayonida pedagoglar, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'ladi. Uning kasbiy faoliyatida charchashi yoki asbiylashishi bevosita pedagogik jarayondagi turli nizolarga, ota-onalar bilan muloqotdagi tushunmovchilikka, o'quvchilarning o'zlashtirish hamda ularning kayfiyatlariga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z-o'zidan ta'limdagi o'zlashtirish darajasining pasayishiga olib keladi. O'qituvchining kasbiy stress alomatlari quyidagilar: Doimiy charchoqni his qilish. Motivatsiya yo'qligi. Ko'ngilsizlik va boshqa salbiy his-tuyg'ular. Kognitiv muammolar. Ishlashning yomonlashuvi. Uyda va ishdagi shaxslararo muammolar. O'ziga g'amxo'rlik yetishmasligi. O'z ishidan mamnun bo'lishning umumiy pasayishi. Sog'liqdagi muammolari. Kasbiy stressga eng moyil bo'lgan kasb bu o'qituvchilikdir, chunki ularning ishi doimiy stressli vaziyatlar bilan bog'liq. Stress surunkali holatga kelganda esa bu vaqt davom etadi va o'qituvchi boshqa narsalarga e'tibor berishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. O'qituvchining eng muhim kasbiy ahamiyatli sifati sifatida stressga chidamlilikni shakllantirish bo'yicha ishlar alohida ahamiyatga ega. Tibbiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarda stress darajasini optimallashtirish (kamaytirish) usullarining to'rtta guruhi tasvirlangan. Keling, ularni batafsil ko'rib chiqaylik. Jismoniy usullar, yuqori va past haroratlarda turli xil ta'sir qilish. Biokimyoviy usullar farmakologik preparatlar, dorivor o'simliklar, aromaterapiya va boshqalarni qo'llash bilan bog'liq. Stressga qarshi fiziologik usullar jismoniy mashqlar, sport o'yinlari, nafas olish texnikasi, massaj, mushaklarning bo'shashishi, elektroyuq va boshqalar. Psixologik usullar stressni kamaytirishning turli xil texnikalari, metodlarining katta guruhidir. Ulardan ba'zilari psixolog tomonidan o'qituvchilar bilan ishlashda qo'llaniladi, u o'qituvchilarga o'z-o'zini tuzatish va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlarini faollashtirishning boshqa usullarini o'rgatadi. Psixologik usullarga quyidagilar kiradi: autogenik trening, meditatsiya (o'z-o'zini gipnoz qilish va stressli sharoitlarda yuzaga keladigan aqliy va avtonom jarayonlarni ongli ravishda tartibga solish variantlari sifatida); stressni keltirib chiqaradigan hodisalarni ajratilgan (fazoviy, vaqtinchalik, submodal va boshqalar) idrok etish usuli sifatida stressdan ajratish; ijobiy tasvirlardan foydalanish (vizualizatsiya), ratsional terapiya, art terapiya va boshqalar foydalaniladi

Psixologik nuqtai nazardan, pedagoglar ko'proq hissiy zo'riqish va ishdan begonalashish tuyg'usini boshdan kechirish xavfi ostida bo'ladi. Agar nazorat qilinmasa, charchash o'qituvchining sog'lig'iga, baxtiga, munosabatlariga va ish samaradorligiga putur yetkazishi mumkin. Stressni aniqlash va imkon qadar tezroq kurashish uchun nimaga e'tibor berish kerakligini bilish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'z salomatligi va kasbiy samaradorligini saqlab qolish uchun pedagogik stressologiya va kasbiy ruhiy salomatlik sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Багнетова, Е.А. Образ жизни и профессиональные факторы риска здоровью педагога [Текст] / Е.А. Багнетова. – Сургут : РИО СурГПУ, 2017. – 100 с.

2.Водопьянова, Н.Е. Синдром выгорания: дидактика и профилактика [Текст] / Н.Е. Водопьянова, Е.С. Старченкова. – СПб. : Питер, 2008. – 336 с.

3.Логинова А.В. Профессиональный стресс и синдром профессионального выгорания в педагогической деятельности // Молодой ученый. 2015. №11. С. Loginova AV. Professional'nyu stress i sindrom professional'nogo vygoraniya v pedagogicheskoy deyatel'nosti [Professional stress and burnout syndrome in teaching]. Molodoy ucheny. Russian

O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ- ATVOR KO'RINISHINING NAMOYON BO'LISHI

Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi

Termiz davlat universiteti

Psixologiya yo'nalishi magistratura talabasi

Hozirgi kunda o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jabhalarda bir muncha ustun. Ularda ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bolmoqda. Bu davirda "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Deviant xulq-atvor belgilarining paydo bo'lishi shaxsning ijtimoiy muhitiga ta'sir qiladi. Sotsiologiyada deviant xatti-harakatlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlari yordamida hamma narsani tartibga solish har doim ham mumkin emas. Maqsad va imkoniyatlar o'rtasidagi nomutanosiblikdan, odamlar natijaga erishish uchun boshqa vositalardan, masalan, noqonuniy usullardan foydalanishadi. Deviant xulqning salbiy turlari:

-Belgilangan yashash joyisiz yashash, ko'chalarda tilanchilik, voyaga etmagan bolalar va o'spirinlar haqida gap ketganda uysiz qolish.

-Hayvonlar va odamlarga nisbatan shafqatsizlik, bu qonun ustuvorligida, lekin boshqalarning tashvishi va qo'rquviga sabab bo'ladi.

-Yomon odatlarga moyillik-alkogol, giyohvand moddalar. Bu shuningdek, kompyuter va qimor o'yinlariga, fohishalikka, o'g'rilikka va qonunga muvofiq turli darajadagi javobgarlik uchun javobgarlikka tortishni o'z ichiga oladi.

O'zbek olimlari ham buyo'nalishda bir qator tatqiqot va shogirt ustoz an'analari davom ettirgan. O'smir xulq -atvoridagi salbiy o'zgarishlarni ijtimoiy omillar bilan bog'lagan V. M. Karimovanning shogirdi A. T. Kadirova o'smirlardagi oilaviy nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tassavurlarining shakillanishida oila muhitida ota-onalarning o'zaro munosabatarida, ularning farzan tarbiyasidagi mas'uliyadi, shu bilan birga oila azolarining har birining ijtimoiy psixologik mavqei, oilaviy munosabatlarga tayyorlik xususiyatlari muhim ahamiyat o'ynashini takidlagan. Shu bilan birga o'smirlarda anqlangan nizokashlik to'g'risidagi tassavurlar mohiyatan

oiladagi o'zaro munosabatlarga, bundan tashqari faqat ota-onalarga emas, aka- uka, opa-singillar o'rtasidagi muommila xarakteriga ham bog'liq ekanini takidlab o'tadi. Bu oilalarning toliq yoki notoliqligiga ham bog'liq. Ota-onalardan birining o'limi, ajralishlar - kattalar uchun bolalarning ruhiy holati haqida o'ylash uchun imkoniyat. Har xil muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi, bunga misol ota-onalarga ma'lum:

1. Bolaning turli xil qo'rquvlari va komplekslari, ular kattalarga aytishga xijolat bo'lishadi.
2. Ota-onalar tomonidan nazoratning yo'qligi, har qanday harakatlar uchun o'zlarining jazosizligini tushunish.
3. Agressiya, tirnash xususiyati, dunyoni salbiy qabul qilish.
4. O'z-o'zidan engish qiyin bo'lgan ruhiy kasalliklar.

Har bir alohida jamiyatda muayyan qoidalar, normalar va buyruqlar mavjud. Masalan, Meksikaning jinoiy hududlari uchun maqbul bo'lgan narsa dunyoning madaniy poytaxtlarida axloqsiz bo'lib tuyuladi. Deviant xatti-harakatlarning ko'p turlari mavjud, ularning barchasi bir nechta guruhlariga bo'linadi: jinoyatchilik, axloqsiz, o'z joniga qasd qilish. Deviant xatti-harakatlarning har bir shakli batafsil ko'rib chiqilishi kerak. Haqiqatdan voz kechish, yomon odatlar, yo'q bo'lgan o'zingizning kashf etgan dunyongizga sho'ng'ish, hamma narsa sodda va tushunarli ko'rinishlarda bo'lib ko'rinadi. Kontseptsiya "yomon odat" degan ma'noni anglatuvchi inglizcha "qo'shadi" so'zidan kelib chiqqan. Giyohvandlikka qaratilgan deviant xatti-harakatlar turlari har xil bo'lishi mumkin - engil shakldan og'ir shaklgacha. Ushbu og'ish quyidagi salbiy harakatlar bilan ifodalanadi: alkogol, giyohvand moddalar, tamaki mahsulotlariga qaramlik; qimor va kompyuter o'yinlariga qiziqish; fohishalik.

Noto'g'ri xulq: Qonunni buzadigan harakatlar, ataylab qilingan deviant xattiharakatlar deb ataladi va ular o'qituvchilar, sotsiologlar va sud ekspertlari tomonidan nazorat qilinadi.

Uch turi mavjud:

1. Zaif - og'ir jazoga olib kelmaydigan mayda huquqbuzarliklar, masalan, bezorilik, jamoat joylarida suiste'mol qilish, alkogol ichimliklarni ko'p ichish.
2. O'rtacha - Mehnat to'g'risidagi qonunlarning intizomiy buzilishi, masalan, ishdan kechikib qolish, ish vaqtida mast bo'lganda paydo bo'lish.
3. Og'ir - qonunni jiddiy buzadigan va javobgarlikka olib keladigan harakatlar, masalan fohishalik, giyohvandlik vositalarini sotish, o'g'irlik, jinsiy zo'ravonlik. Bu borada olimlar izlanishlar va tatqiqotlar olib borgan.

E. Dyurkgeymning fikriga ko'ra, jamiyat darajasida me'yoriy nazoratning zaiflashishi bilan xatti-harakatlarning og'ish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. R. Mertonning anomiya nazariyasiga ko'ra, deviant xulq-atvor, birinchi navbatda, jamiyat tomonidan qabul qilingan va belgilangan qadriyatlarga jamiyatning qaysidir qismi erisha olmaganida yuzaga keladi. Sotsializatsiya nazariyasi kontekstida odamlar deviant xulq-atvoriga moyil bo'lib, ularning ijtimoiylashuvi deviant xatti-harakatlarning ayrim elementlari sodir bo'lganda bu xatti-harakatlarga e'tiborsizlik, nazoratga olmaslik

ko‘rinishida rag‘batlantirishi natijalariga ko‘ra xulq- og‘ishlari yuzaga chiqishi sodir boladi. Yana bir qator olimlar deviant xulq- atvorni mayllar bilan bog‘lab tushuntiradi. Yana bir olim esa XIX asrning 70-yillarida faoliyat ko‘rsatgan italiyalik kriminalshunos Chezare Lombrozo “Ba’zi odamlar jinoyiy mayllar bilan tug‘iladilar va ular ibtidoiy insonlar tipiga mansub bo‘ladilar”, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, jinoyatchi tiplarni bosh chanog‘i shakliga qarab aniqlash mumkin. U ijtimoiy tajribaning kriminal xulq rivojiga ta’sirini inkor etar edi, uning asosiy g‘oyasi-ko‘pchilik jinoyatchilarning biologik jihatdan degenerativ va defektli ekanida edi. Richard Daygdeyglning fikricha, “ba’zi jinoyatkorona xulq-atvor shakllanishi uchun xos bo‘lgan mayllar doimo avloddan-avlodga o‘tib turadi“. Biologik omil va jinoyatga mayl orasidagi bog‘liqlik g‘oyasi Vilyam Sheldon ishlarida 1940 yillarda qaytadan tiklandi.

Sheldon odamlarning 3 jismoniy tipini ajratib ko‘rsatdi:

- Mezomorf tip: mushakdor, faol
- Ektomorf tip: suyak tizimi yaxshi rivojlangan
- Endomorf tip: to‘lalikka moyil odamlar

Uning fikricha, ulardan biri–mezomorf tip huquq buzarlikka mayl bilan bevosita bog‘liq. Bu tip vakillari mushak tizimlari yaxshi rivojlanganligi sababli zo‘rovonlikka moyilligi bilan og‘ishkan xulqni namoyon qiladi.

L.S.Vigotskiy fikricha, qiyin o‘smir xayotiy munosabatlar xarakterining yig‘indisidir. Bular avvalo qaysar, injiq, bolalar ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning malum bir qismi intizomsiz, qo‘pol bo‘ladilar. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o‘zgartirish ularga ba’zi xuquqlarni berish bilan ularga tasir o‘tkazish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, deviant xulq- atvor ma’noviy jihatdan ham ko‘rinib turibdiki, og‘ishgan xulqni ifoda etibgina qolmay ijtimoiy muhitda hamma uchun umumiy norma holatidagi qonun va chegaralardan chiqish, buzishligini anglatadi.

Quyidagi maqolada takidlangani kabi og‘ishlar ham zaif,o‘rta hamda yuqori darajali o‘lchashlar bilan belgilanadi. Bu og‘ishlar natijasida deviant xulq-atvorli shaxslarni o‘rab olgan ijtimoiy muhit ham birdek ziyon ko‘radi.

Deviant xulqning namoyon bo‘lishiga yuqorida ko‘plab olimlar o‘z fikr va nazariyalarini ilgari surganligini ko‘rishimiz mumkun. E. Dyurkgeyim hamda R. Mertonning fikr va nazariyalarini uyg‘unlashtirsak, har bir xulq-atvorning og‘ishganligida nazoratchining layoqati pasligi hamda og‘ishgan xulq nomoyon qilinganda mukofot sifatida etiborsiz qoldirish. Nazorat qismini yo‘qligi deviant xulqni yuzaga chiqaridaigan omillarni biri xolos. Boshqa bir omili esa bu mayillarga borib taqaladi. Olimarni ishlariga qarab shuni tushinish mumkinki, mayillar irsiyat orqali avlodlarda nomoyon bo‘ladi. Bu irsiyatlar avloddan avlodga o‘tisi bilan shaxslarning tashqi ko‘rinishida yani tana shaklining o‘zgarishida ham namoyon bo‘ladi va og‘ishgan xulqga moyillikni tana shakliga bo‘lagan xolda ham aniqlashga yordam beradi. Lekin hulosa sifatida faqat shaxslarning tana shaklining noadatiyligiga qarab to‘la-to‘kis aniqlash yetarli emas. Shu jumladan og‘ishlar yuzaga kelganda nazoratsizlik yoki nazoratning pasayishi natijasida bu xulq- atvor jamiyatda keng ko‘lamda yoyilib boradi.

Deviant xulq-atvorni bartaraf etish chora tadbirlar sifatida nazoratga olish, to'g'ri yoki yanglish xat harakatlarda rag'bat yoki jazo berish lozim. Bu jarayonda qiziqarli faoliyat turlarga jalb etish ularni, shijoatli bo'ishi uchun maqsadga muvofiq tarzda vazifa va huquqlar berish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Har bir izlanishlar maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirilishi samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Z.T.Nishanova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. pedagogik psixologiya Toshkent- 2019
2. <https://oefen.uz/uz/>
3. <https://ppmedu.jdpu.uz/>

BOLALARDA QOBILYATLARNING SHAKLLANISHIDA OLILANING O'RNI

*Toshbayeva Madina Ravshan qizi TerDU Amaliy psixologiya yo`nalishi talabasi
Qayumova Go`zal Narzullayevna TerDU Psixologiya kafedراسi o`qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb muammolardan biriga aylanib borayotgan oila va uning jamiyatimizda tutgan o'rni, bugungi kunda oilalarning farzand kamoli, iqtidori, qobiliyatlarining namoyon bo'lishidagi roli va bu oilalar yo'l qo'yadigan kamchiliklar, Muhtaram Prezidentimizning oila haqidagi fikrlari, turli olimlarning farzand qobiliyatlarining namoyon bo'lishida oilaning o'rni haqidagi fikrlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qobilyat, emotsional tarbiya, farzand, baxt, kelajak, D.Mayers, F.Zimbardo, At-Termiziy, B.Naqshbandi, Kettel, Spirmen.

Biz bilamizki, hozirda oilalardagi muhit zamonaviylashib bormoqda va qaysidir ma'noda bola bee'tibor qolmoqda. Bunga sabab globallashuv, ota va onaning kun davomida ish faoliyatida bo'lishi, farzandga emotsional tarbiya berishda xatoliklarga yo'l qo'yishi hisoblanadi. Ota-ona farzandni faqat iqtisodiy jihatdan ta'minlashni asosiy vazifa qilib olmoqda. Bola har doim bola bo'lib qolmaydi. U qachondir baribir ulg'ayadi. Unga bolaligidagi berilgan mehr, e'tibor, sarflangan vaqt butun bir umri uchun yetarli bo'lishi mumkin. To'g'ri, zamonaviy hayot o'z afzalliklariga ham ega. Barcha sharoitlar yaratilgan, ilm olish uchun turli o'quv markazlari bo'ladi, bola xohlagan zamonaviy sport turi bilan shug'ullanishi mumkin. Ammo bu yerda emotsionallik, hissiy aloqa eng muhim masaladir. Mehr, e'tibor ko'rgan bolagina buni qaytara oladi. Zamonaviy dunyoning zamonaviy bolalari ham o'zgacha ko'rinadi. Akseleratsiya jarayoning tezlashuvi bolalarning biologik, psixologik, jismoniy ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Hozirda oilaga, farzandga e'tibor eng muhim masalalardan bo'lib biri bo'lib turibdi. Chunki, oila jamiyatning dastlabki bo'g'ini va barchasi oiladan boshlanadi. "Shavkat Mirziyoyevning Facebook ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida davlat rahbari tavalludiga bag'ishlangan «Janob Prezident» nomli hujjatli film namoyish qilindi. Intervyuda O'zbekiston prezidenti oila va baxt haqidagi fikrlarini o'rtoqlashdi. Uning fikricha,

har bir inson hayotida eng muhimi, bu — oila. «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'iy nazar, kim bo'lishidan qat'iy nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», - dedi u. «Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo'lsa men o'zimni baxtli deb bilaman», — deya ta'kidladi prezident." Farzand-oila baxti, kelajagi, ertangi kundagi faxridir. Ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyati benihoya kattadir. Bolaning kelajakda yetuk inson bo'lib yetishida, ilmida, tarbiyasida ota-ona va o'qituvchi hamkorligi juda muhimdir. Farzand-yurt kelajagidir. Unga qiziqishlari, qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon yaratish lozim. Hozirgi kunda ta'limga, yoshlarga bo'lgan e'tibor yuqori darajaga ko'tarilgan. Yoshlarning kelajakda komil inson bo'lishi, kasb-hunar egallashlari uchun juda ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada olib borilayotgan islohotlar ham o'z samarasini bermoqda. Bola kelajakda o'z yo'lini topa olishida, ilmi, el-yurtga xizmat qiluvchi komil shaxs bo'lib rivojlanishida unga yoshligidan e'tibor berish, qo'llab-quvvatlash lozim bo'ladi. Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko'pchiligi oila muammolarining qator qirralarini o'z ilmiy izlanishlarida o'rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik ayrim psixologlar, xususan, D. Mayers, V. Kvinn, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o'rganilgan. Olimlar tomonidan to'plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan o'zbek muhitiga to'g'ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odat, an'ana va milliy qadriyatlari boshqasirikiga mos kelmaydi. Muhimi, O'zbekistonda oila va undagi o'zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo'lgan ma'lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni hududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganish zarur. Ta'kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg'iloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat hamda hozirgi davr O'zbekiston olimlari M.G. Davletshin, G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.G'. G'oziyev, Sh.R. Baratov, M.Mamatov, B.M. Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o'rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta'sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Bolani ota-ona o'z istaklari yuzasidan biror narsaga qiziqishga majbur qilishi ijobiy natijaga olib kelmasligi mumkin. Bola fikrlari inobatga olinishini bilishi va o'ziga ishonchi bo'lishi lozim. Qobiliyatli, iste'dodli bola undan foydalana olmasa, ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat atrof muhit bilan o'zaro ta'sir va ta'lim-tarbiya bilan rivojlana boradi. Qobiliyatlarning miqdor tavsifi va ularni o'lchash bilan chet el psixologlari Termen, Spirmen, Kettel va boshqalar

shug‘ullanganlar. Ular qobiliyatni o‘lchash usuli sifatida aqliy iste’dod testlaridan foydalangan. Bu usul aqliy jihatni emas, balki qobiliyatlar haqida ma’lumot to‘plashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda, L.S.Vigotskiy o‘zining qarashini aytib o‘tgan. “Qobiliyatlar odamning faoliyatidan tashqarida mavjud bo‘lmaydi. Qobiliyatlarining tarkib topishi esa ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon bo‘ladi”. Farzand yurtimiz kelajagi ekan unga yoshligidan e’tibor berish, qo‘llab-quvvatlash lozim va shartdir. Biz kelajakda go‘zal va farovon hayot kutar ekanmiz, albatta, farzandlarimiz ham ruhan, ham jismonan sog‘lom bo‘lishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>.
2. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15 b.
3. Q.G.Narzullayevna, D.S.Halimovna. Bola qobiliyatlarining yuzaga chiqishida ota-ona va o‘qituvchining o‘rni. Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi. 1-jild 1-son. 28-29 b.

INSONLARNI MANIPULYATSIYA QILISH USULLARI VA UNING PSIXOLOGIK TEXNIKASI

Toshpulatova Dilfuza Allayor qizi, Kayumova G.N.

Termiz davlat unversiteti amaliy psixologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola insonlarning irodaviy xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar, shu bilan b birga ularni manipulyatsiya qilish usullarini o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek maqolada manipulyatsiya ta’sirida turli oqimlarga kirib qolgan odamlarga tafsiyalar berish va amaliy yordam ko‘rsatish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Manipulyatsiya, ishonch, muammolar, manipulyator, yolg‘onning ishlatilishi, firibgarlik, ahloqiy tamoyillar.

Hozirgi kunda odamlar o‘zlari bilib bilmay manipulyatsiyadan foydalanishadi **Manipulyatsiya** -bu o‘z manfaati yo‘lida boshqalardan foydalanish, ularni boshqarish orqali ularga ta’sir ko‘rsatish Haddan oshiq manipulyatsiya — bu axloqiy tamoyillarni hurmat qilmaydigan, aldaydigan va boshqalarning zaifligi va ishonuvchanligidan foydalanadigan nayrangchilar, firibgarlar va yolg‘onchilarning hiylasidir. Eng kamida manipulyatsiya boshqalarning hisobidan nazorat o‘rnatish, foyda olish yoki imtiyozlarni qo‘lga kiritish uchun o‘tkaziladigan ta’siridir. Asosan manipulyatsiyaga uchraydigan odamlar sodda, ko‘ngli bo‘sh, hamma narsaga ishonuvchan odam bo‘ladi. Manipulyator esa o‘ziga ishongan, odamlarga, odamlarni boshqara oladigan, irodasi kuchli inson bo‘ladi. Manipulyatsiya oddiy ta’sir ko‘rsatish yoki ishontirishdan farq qiladi. Oddiy ta’sir o‘tkazish odatda zararsiz deb hisoblanib, insonlarga zarar yetkazmaydi va uni majburlamaydi. Bunda insonga ta’sir o‘tkazishda majburlashlar yoki zo‘ravonliklar bo‘lmaydi. Ishontirish-bu boshqalarni

odatda ma'lum bir maqsad zamirida istalgan hatti-harakat tomon yo'naltira olishlik qobiliyatidir. Oddiy ta'sir o'tkazish va ishontirishning hech qanday salbiy va ijobiy tomonlari bo'lmaydi.

Manipulyatsiya uchun manipulyatsiya o'z o'ziga xizmat qilish yoki boshqalarga yordam berish yoki foyda keltirish bo'lishi mumkin. Hissiy manipulyatsiya oldindan aytib beruvchi omillarni tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, hissiy manipulyatsiya ortidagi mexanizmlari jinsga qarab farqlanadi. "Erkaklar uchun yuqori darajadagi hissiy intellekt, ijtimoiy ma'lumotlarni qayta ishlash, bilvosits tajovuzkorlik va manfaati yo'lidagi kognitiv buzilishlar hissiy manipulyatsiyani sezilarli darajada bashorat qilgan". "Ayollar uchun esa yoshroq bo'lish, hissiy intellektning yuqori darajasi, bilvosita tajovuzkorlik, birlamchi psixopatik belgilar va past darajadagi ijtimoiy ogohlik hissiy manipulyatsiyani sezilarli darajada bashorat qilgan. Biroq, ayollar uchun hissiy intellekt bostiruvchi sifatida xizmat qilgan. Manipulyatsiya turli yo'llar bilan tariflanadi. Masalan, Marsha .M.Linehanning ta'kidlashicha, shaxsiyat chegarasi buzilishi bo'lgan odamlar ko'pincha manipulyatsiya qilishda asli manipulyativ bo'lmagan xatti-harakatlarni namoyon qiladilar. Linehanga ko'ra bular ko'pincha kuchli og'riqning o'ylamay qilingan xatti-harakatidir va ko'pincha atayin qilinmagani uchun haqiqiy manipulyativ hisoblanmaydi.

Shved psixologi Henrik Fekseusning "manipulyatsiya san'ati. Qanday qilib aqlli, baxtli bo'lish va hayotning ma'nosini topish" – "boshqa odamlarning fikrlarini qanday o'qish va ularni jimgina boshqarish" va "qanday qilib aldanmaslik kerak" nomli dastlabki ikkita kitobning davomi. Ammo agar ular insonning boshqa odamlar va atrofdagi dunyo bilan o'zaro munosabatlariga bag'ishlangan bo'lsa, unda bu kitobning vazifasi o'quvchilarni o'zlari bilan muloqot qilishga o'rgatishdir. E.V.Sidorenko shunday ta'rif bergan: Manipulyatsiya - bu boshqa shaxsni ma'lum holatlarni boshdan kechirishga, qarorlar qabul qilishga va tashabbuskorning o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlarga undashga qasddan va yashirin harakatidir.

I. A.V.Lipnitskiyning va M.S.Nedilko so'zlariga ko'ra, kasbiy psixologik barqarorlik "huquqni muhofaza qilish organi xodimining o'z faoliyatining boshqa sub'ektlari bilan ijtimoiy o'zaro munosabatlarining haqiqiy amaliyotida ma'naviy etuklik darajasini, faoliyatga kasbiy tayyorligini» belgilaydi va muammoli vaziyatlarni professional ravishda hal qilishga hissa qo'shadi, pedagoglarda manipulyatorlikka moyillik boshqa soha vakillariga nisbatan past natijani ko'rsatgan. Pedagog kasbida, har bir mashg'ulotda manipulyatsiya elementlarini uchratish mumkin. Biroq so'rovnomadan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, pedagoglar kasbiy kompetensiyasi o'zaro hurmat nuqtai nazaridan manipulyatsiyani qo'llamasliklarini o'z javoblarida bildirganlar. Qolaversa bu ta'sirning halokatli tomonlari, inson xatti-harakatlarining qat'iy tuzilishiga, uning ichki erkinligini bostirishga qaratilgandir.

Odamlarga ta'sir qilish shakllarini tadqiqotchisi P.S.Taranov manipulyatsiyani quyidagicha ta'riflaydi: yolg'onga to'la, lekin har doim tashqi ko'rinishida munosib va samimiy, odatda teatrlashtirilgan va amalga oshirish usuli murakkab, lekin bir shaxs yoki bir guruh shaxslarning o'z manfaatlari yo'lida boshqa odamlarning ongini

maqsadli boshqarish harakati. Ushbu ta'rifni ilmiy deb atash qiyin, ammo u «manipulyatsiya» so'zining o'ziga xos firibgarlik, hiyla-nayrang, makkor harakatlarga to'la zamonaviy tushunchalaridan birini aks ettiradi. Manipulyatsiya asosan 28-35 yoshli odamlarda boshqa yoshdagi odamlarga nisbatan ko'proq uchraydi. Bunga sabab mazkur yosh davri jismonan, ruhan eng navqiron, kuchga to'la davr. Ilk yetuklik davrining boshlanishi, istaklar haqiqatga aylanish davri, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchining ortishi, shuningdek, hayotning topilgan asoslarini tasdiqlash va taqqoslashga bo'lgan ehtiyojning kuchliligi bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. T-2021
2. V. Karimova Oila psixologiyasi darslik T-2007 yil
3. Abdullayeva D., Yaqulov R., Atabayeva Oila psixologiyasi N. 2015.
4. E. G'ozziyev "Psixologiya" T. 2003
5. S. N. Jo'rayeva X. G. Sharafutdinova, B. A. Mamaradjabova "Umumiy psixologiya o'quv qo'llanma

O'SMIRLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN XARAKTER AKSENTUATSIYASI TIPLARINING DEVIANT XULQ ATVOR SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi

Termiz Davlat Universiteti talabasi.

Ilmiy rahbar: Choriyeva Sarvinov

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bugungi kunda o'smirlik davrida yuzaga keladigan xarakter aksentuatsiyasi tiplarining og'ishgan xulq-atvor shakllanishiga ta'sirining psixologik mexanizmlari va ushbu muammoning chet el olimlari tomonidan o'rganilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xarakter aksentuatsiyasi, deviant, astenik, sikloid, shizoid, psixika, ehtiyoj, krizis, ijtimoiy muhit.

O'smirlik davri yosh davrlar psixologiyasidan bizga ma'lumki eng og'ir davr hisoblanadi. Endigina o'sib kelayotgan o'smirlar davri an'anaviy ravishda qiyin deb hisoblanadi ham psixologik, ham psixologik, ham va ijtimoiy nuqtai nazardan og'ir davr hisoblanadi. Xarakter bu odamning odamlarga, bajarilgan ishga munosabatini belgilaydigan barqaror shaxsiyat xususiyatlari majmui. Xarakter faoliyat va muloqotda namoyon bo'ladi va odamning xulq-atvoriga o'ziga xos soyani beradigan narsani o'z ichiga oladi. Ma'lumki har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hayotda bunday farqlar kishining xarakteri bilan bog'liq deb tushuntiriladi. Xarakter shakllanishi davrida uning tipologik xususiyatlari, hali hayotiy tajriba bilan tekislanmagan va yashirilmagan bo'lsada, shunchalik ravshan bo'ladi, ba'zida ular psixopatiyaga, ya'ni patologik xarakter anomaliyalariga o'xshaydi.

O'smirlar voyaga yetganida, urg'u chiziqlari odatda tekislanadi. Bu bizga "o'tkinchi "haqida gapirishga imkon beradi o'smirlik urg'ulari xarakter "(Lichko

A.E. 1977). O'smirlik davrida ijtimoiy, fazoviy, shaxsiy ijtimoiy ehtiyoj ortadi – shaxsiy avtonomiya, nimaga olib keladi jamiyat, oila, shuningdek, g'oyalardagi tub o'zgarishlar “yolg'izlik” va “yolg'izlik” tushunchalari haqida. O'smirlik davrida yolg'izlik hissi yoshga bog'liq qiyinchiliklar bilan bog'liq va shaxsning psixologik shakllanishi va shuning uchun muloqatga bo'lgan ehtiyojning asosiy sababidir tengdoshlar va qiziqishlar bilan ijtimoiy ahamiyati va rolda guruhda. Shaxslararo munosabatlar sohasini shakllantirish amalga oshiriladi asosiy shaxsiyat yetuklashganda hissiy qo'zg'aluvchanlik, hissiy tajribalarning kata barqarorligini o'z ichiga olgan mexanizmlar, yetarli tajribaga ega bo'lish qobiliyati qo'rquv va xavotirning namoyon bo'lishi, qochish yoki qarama-qarshi his-tuyg'ularining to'liq yo'qligi, shuningdek nafaqat baholash bilan bog'liq tajribaning paydo bo'lishi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida, ya'ni 1968 yilda nemis psixiatri K. Leongard “aksentuatsiya tushunchasini kiritdi. U buni me'yordan chetga chiqish, individual xususiyatlarning haddan tashqari kuchayishi deb ta'riflagan. To'qqiz yil o'tgach, 1977 yilda, sovet olimi A.E. Lichko aniqroq va torroq “belgi aksentuatsiyasi” so'zini ishlatishni taklif qildi. Aynan bu olimlar (K. Leongard va A.E. Lichko) psixologiya faniga beqiyos hissa qo'shdilar, aksentuatsiyalarning yaqin bir-birini to'ldiruvchi tushunchalari va tasniflarini ishlab chiqdilar. Xarakterning aksentuatsiyasi bu ba'zi xususiyatlarning haddan tashqari ifodalanishi. Urg'u-bu odamning ichki dunyosidagi nomutanosiblik belgisidir. Xarakter aksentuatsiyasi “urg'u” degan ma'noni anglatadi xarakterning ayrim xususiyatlari klinik normadan oshib ketgan holatni bildiradi. Bunda aksentuatsiya garchi psixik buzilish sifatida qaralmasa ham, ular o'rtasidagi o'xshashliklar o'zaro aloqa mavjudligidan dalolat beradi. Aksentuatsiya tushunchasining rivojlanishi 1977-yilda A.Y. Lichko, Leongard ishlari va P.B. Gannushkinning psixopatiya lar klassifikatsiyalari asosida aksentuatsiyani “shaxs” tushunchasidan ko'ra ko'proq “xarakter” tushunchasiga bog'lab o'rganish kerakligini ta'kidlab o'tdi. Bunga sabab shaxsning juda ham ko'p qirrali ekanligi va aksentuatsiya boshqa qirralarda ham uchrashi, natijada uni ajratish mushkullik qilishi bo'ldi. O'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi ko'p hollar shaxsiyat buzilishiga oid kasalliklar bilan o'xshash, deya talqin qilinadi, ammo xarakter aksentuatsiyadan farqli o'laroq shaxsiyat buzilishlarga olib keladi.

A.Y. Lichko aksentuatsiyaning ikki xil turini ajratadi:

Ochiq aksentuatsiya – normal holatning eng chekka darajasi hisoblanadi. Bu aksentuatsiya turi butun hayot davomida saqlanib qoladi va namoyon bo'ladi. Insonda shaxsga oid jarohatlar bo'lmaganda ham patologiyaning o'rni to'ldirilmaydi.

Yopiq aksentuatsiya – normaning odatiy holatda namoyon bo'lishi. Xarakterning aksentuatsiyalangan jihatlari psixik jarohatlar sabab namoyon bo'lishi mumkin, ammo u sotsial dezadaptatsiyaga olib kelmaydi.

O'smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplari

Xarakter aksentuatsiyasi bo'yicha o'smirlarda izlanishlar olib borilganda uning bir nechta tiplari farqlangan ova o'rganilgan. Ilk aksentuatsiyaga oid tipologiyani 1968-yilda Karl Leongard yaratgan bo'lib, u asosan, 12 xil tipdan iborat bo'lgan.

- | | |
|----------------------------|------------|
| 1. Affektiv-labil | -Qoloq |
| 2. Affektiv-ekzaltirlangan | -Introvert |

3. Qo'zg'aluvchan	-Xavotirli
4. Demonstrativ	-Ekstrovert
5. Distim	-Emotiv
6. Pedantik	-Gippertim

Xarakter aksentuatsiyasi tipologiyasi 1977-yilda A.Y. Lichko ham o'z aksentuatsiya tipologiyasini ishlab chiqqan, ammo uning tipologiyasi o'ziga xos bo'lib, faqatgina o'smirlar uchun ishlab chiqilgan edi.

1. Epileptik	-Psixostenik
2. Isterik	-Konform
3. Gippertim	-Psixonevrotik
4. Shizoid	-Senzitiv
5. Sikloid	-Beqaror

Karl Leongard bo'yicha aksentuatsiya tiplariga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Gippertim – faoliyatga va tajribaga intilish, omadga e'tibor berish, distim – axloqiy jihatlarni, his-tuyg'ularni va qo'rquvni ta'kidlaydigan ichki holat, muvaffaqiyatsizlikka e'tibor berish; affektiv labil (kuchli ifodalanganda "siklotimik") – gippertim va distim holatlarning davriy o'zgarishi; affektiv – ekzaltir – ilhom, his-tuyg'ularning kuchli ekanligi; Xavotirli- qo'rquqlik, kamtarlik, Emotiv – mehribonlik, qo'rquv, rahm-shafqat.

O'smirlarda quyidagi xatti-harakatlar kuzatiladi;

-Spirtili ichimliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilish;

-O'smirlarning teatrlashtirilgan va o'z joniga qasd qilish xatti- harakatlari;

-Turli g'oyalar ostida birlashgan guruhlar va subkulturalarga qo'shilishi ko'zga tashlanadi. Olimlar bir ovozdan shunday xulosaga kelishgan namoyishkorlik- o'smir xatti –harakatlarining xarakterli xususiyatlaridan biridir. A.E.Lichkoning fikriga ko'ra, namoyishkorona reaksiya " O'smirlar xulqidagi affektiv reaksiyalar ichida eng ko'p uchraydiganidir". Pedagoglar o'smirlarning xatti-harakatida ko'pincha namoyishkorlik muammosiga duch kelishadi. O'smir ko'p hollarda yolg'on, ahmoqlik, qo'pollik kabi usullar orqali e'tiborni jalb qiladi. Odatda, bunday o'smirlar, xudbin, egoist, o'z xulqidagi kamchiliklarini tuzatishni istamaydi. B u xatti-harakatlar mudofaa usulida emas, balki atrofdagilardan g'alaba qozonish o'z-o'zini tasdiqlash, atrofdagilarni diqqatini qaratish maqsadida amalga oshiriladi.

Ko'p psixologlar o'smirlilik davridagi inqirozning rivojlanish tushunchasini "Xarakter aksentuatsiyasi" bilan bog'laydilar. Xarakter aksentuatsiyasi shaxsiy individual xususiyatlarini bilish pedagogika o'smirning harakatlarini oldindan ko'ra bilish imkonini beradi. O'smirlarda xarakterning o'zgaruvchiligi va ularda yuzaga keladigan turli xildagi deviant xulq-atvor shakllari yuzaga kelishi va ularning namoyon bo'lishi haqida ko'plab olimlar o'z ishlarini olib borishgan.

Xulosa: qilib shuni aytish mumkinki, xarakter aksentuatsiyasi – bu shaxsni "oddiiy" odamdan ajratib turadigan shaxs xarakter aksentuatsiyani belgilangan talablar asosida diagnostikasini amalga oshirish orqali turli salbiy holatlarni oldini olish imkoniyati paydo bo'ladi. Aynan xarakter aksentuatsiyasi jadallik bilan namoyon bo'lishi o'smirlilik davriga borib taqaladi. Bunday psixologik xususiyatlar judayam o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. O'smirlarda yuqorida keltirilgan

aksentuatsiya tiplari ijtimoiy sharoitlarda oilaviy muhitda ijobiy yoki bo'lib shakllandi. Bu esa o'smirlar egallab turgan davra, faoliyat jarayonlariga va do'stlar davrasidagi munosabatlar ierarxiyasida shakllanadi. Yuqoridagi, aksentuatsiya tiplarining ba'zilarida salbiy va psixopatiyaga moyillik ham kuzatiladi. Bu esa ma'lum bir miqdorda yigit va qizlarda ta'lim sifatini va bilim egallashda yuzga keladigan motivatsiyani pasayishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Deviant xulq –atvor psixologiyasi I.M.Xakimova o'quv qo'llanma Toshkent 2014.

2. Haydarjonov J. SHAXS IJTIMOYIY XIMOYASIZLIGINI OG'ISHGAN XULQ ATVORGA TA'SIRINI IJTIMOYIY PSIXOANALITIK MEKANIZMLARI // BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI

3. Ahloq –odobga doir hadis namunalari. T.1990

4. G'oziev E. Psixologiya T''O'qituvchi'' 1994

5. Karimova V. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. T''Sharq''2000.

YOSHLARDA EGOIZIM VA ALTURIZIM TUSHUNCHALARI

Pirnazarova Sabrina Xolmurod qizi

Termiz Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Yoshlarda egoizm va alturizm turlicha bo'ladi, u inson rivojlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Egoizm, alturizm, o'smirlik davri, egoistik shaxs .

KIRISH

Bugungi kunga kelib, hayotimizda juda ko'p yangiliklar shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birgalikda, yoshlarning ham xulq-atvorida jiddiy o'zgarishlar kuzatilayapti. Bunda, yoshlarda egoizm (lotincha -men) – o'z foydasi, manfaatini ko'zlovchi xatti-harakat, o'z manfaatini boshqa kishilar manfaatidan ustun qo'yish. Ijtimoiy borliqda shaxsiy manfaatlarning inson faoliyatining bosh maqsadi hamda jamiyat va atrofdagilarga munosabatni baholashning asosiy mezoniga aylanganini ifoda etuvchi hayotiy faoliyat prinsipini anglatuvchi atama.

Egoizm vujudga kelishi quldorlik jamiyatining yemirilishi va xususiy mulkning vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan va jamiyatning bo'linishi, uning tarkibida faoliyati o'z ijtimoiy maqomini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan individlar va yopiq guruhlarining shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Tovar xo'jaligi, ayniqsa, kapitalistik ishlab chiqarish usulining rivoji egoizm tamoyilini turli ahloqiy konsepsiyalarga asoslangan inson faolligining universal mezoniga aylantiradi. Ommaviy ahloqiy ongda cheklanmagan egoizm hamisha qoralanib, alturizm tamoyili unga qarshi qo'yib kelingan.

Egoizm mazmun-mohiyatiga oid bu ikki yondashuvha tegishli qarashlar antik davr allomalari Demokrit, Epikur, ayrim sofistlar ta'limotlarida o'z ifodasini topgan. Egoizm uyg'onish, ayniqsa, ma'rifatparvarlik davrida yashab ijod etgan Spinoza, Volter, Russo, Didro, Golbax kabi mutafakkirlar ta'limotlarida aks ettirilib,

mohiyatan, dunyoviy ne'matlardan voz kechish va individning cherkov-feodal iyerarxiyasiga bo'ysundirilishi g'oyasiga tayangan nasroniy axloqqa qarshi qaratilgan edi. Zero, tarixiy jihatdan progressiv ahamiyat kasb etgan bunday qarashlarda ijtimoiy foydali faoliyatida nafaqat moddiy, balki ma'naviy manfaat tamoyiliga suyanadigan insongina jamiyat taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qilishi mumkin, degan fikr ilgari surilgan. Psixologik nuqtai nazardan egoizm insonning o'z «Men»iga qaratilgan shaxs faolligi bo'lib, manmanlik, o'zini, o'z manfaatlarini o'zgalar manfaatidan ustun qo'yishda ifodalanadi.

Alturizm (lotincha: «alter» - boshqa, boshqalar) – boshqalarning farovonligi uchun beg'araz g'amxo'rlik bilan bog'liq faoliyatni anglatuvchi tushuncha. Fidoyilik ya'ni o'z manfaatini boshqa bironing manfaati uchun qurbon qilish bilan bog'liq. Shaxs, boshqa odamlar yoki umuman olganda umumiy manfaatlar uchun «alturizm» atamasi faylasuf Auguste Comte tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan, uning fikricha, alturizm «boshqalar uchun yashash» me'yorining timsolidir, insoniyat jamiyatini yanada insonparvarlashtirish sari o'zgartirishning harakatlantiruvchi kuchidir. Shu bilan birga, August Comte alturizmga asoslangan axloqqa xristian axloqiga qarshi chiqdi, uning fikricha najotga intilish asosida, u xudbinlikning namoyon bo'lishi deb hisobladi.

August Comte alturizmning ikki turini aniqladi:

1. Hayvonlarga xos (instinktiv alturizm);

2. Ikki insonga xos bo'lgan, tamaddun ta'sirida rivojlanib, tug'ma bo'lib qolgan.

Comtedan ancha oldin, alturizm axloqiy tamoyil sifatida tushunilgan va mavjud edi. Shunday qilib, Suqrot shaxsning xudbinligini qoplaydigan axloq qonunining asosi «olish emas, balki berish» va boshqalarning foydasiga xizmat qilish istagi insonda kuchliroq, deb hisoblardi. Axloqiy ongning shakli sifatida alturizm tushunchasi Shaftesberi, Adam Smith, Deyvid Yum, Gottfried Leibniz, Immanuel Kant, Ludwig Andreas Feuerbach tomonidan ishlab chiqarilgan.

Alturizm fenomenining ko'plab ilmiy ta'riflari konseptsiyani shakllantirgan muallifning fanning u yoki bu sohasiga mansubligiga bog'liq. Falsafa va axloqda alturizm hodisasi odamlar jamoasiga xos bo'lgan bir-biriga nisbatan tabiiy moyillikni qabul qilishga asoslangan axloqiy talabni ifodalash shakli bilan bog'liq. Psixologik nuqtai nazardan, alturizm ko'pincha sadoqat, hamdardlik, rahm-shafqatga asoslangan mazmunli, erkin va boshqalarga hech qanday foyda keltirmaydigan xizmat sifatida ta'riflanadi, altruist esa o'z xohish-istaklaridan voz kechishi, farovonligini qurbon qilishi, o'zini to'liq rad etish orqali erishishi mumkin. Psixologiyada u ba'zan prosotsial xatti-harakatlar yoki uning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Ba'zi ma'nolarda alturizmni xudbinlik bilan solishtirish mumkin.

Egotsentrizm (lot.ego-men va -markaz) -shaxsning o'z qiziqish doirasiga bog'lanib qolishi, boshqa odamlar va narsalarga nisbatan o'zining dastlabki bilishiga oid qarashi yoki fikrini o'zgartira olmasligi, hatto o'z tajribasiga qarama-qarshi axborotlarga moslasha bilmasligidan iborat, xislati.

Egoizm inson shaxsiy qiziqishlarining qondirilishi eng ko'p yuqori darajada turadi. Egoizm qiziqishlar to'qnashgan ziddiyatli vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Bunday

holatlarda shaxs istaklarining qondirilishi boshqalar qiziqishiga zid ravishda amalga oshadi.

Shaxslararo munosabatlarda “egoizm “ tushunchasi turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchi, bu “diktatorlik egoizmi”, ya’ni insonda “ hamma mening manfaatimga xizmat qilishi kerak”, degan ishonch hissida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi, “shaxsiy nodirlik egoizmi” –“agarda menga qulay bo‘lmasa rioya qiladigan tamoyillarga rioya qilmayman “ kabi qarashlarda ifodalanadi.

Uchinchi, “anarxik egoizm “-“har bir odam o‘z manfaati yo‘lida ko‘ngliga kelgan ishni qilishi mumkin”, degan fikrga tayanadi.

Xulosa: Bundan shunday xulosaga kelamizki, yoshlarda alturizm va egoizm tushunchalari bir xilda bo‘lsa inson rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki alturizm ham, egoizm ham me’yorda bo‘lishi ijtimoiy muhit uchun yaxshi bo‘ladi. O‘smirlik davridagi egoizmni to‘liq tushunish uchun ko‘p qirrali yondashuv zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Kavka G.Hobbesian Morall and Political Theory.Princeton:PrincetonUniversity Press

2.J.Egoism.-Oxford: Ed.Peter Singer.Blackwell.-1999.38-39p

3.Robinson,J.Egoism.- Oxford: Ed.Peter Singer. Blackwell.-1999.36-p

MOTIVATSIYANING INSON HAYOTIGA TA’SIRI

Zokirova Tamanno Botirali qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar : Choriyeva Sarvinoz

Annotatsiya: Motivatsiya inson hayotida muhim rol o‘ynaydi. U odamlarni maqsadlarga erishishga, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga va o‘z imkoniyatlarini oshirishga undaydi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, ehtiyojlar ierarxiyasi, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, Linkolin Vagner, Albert Eynshteyn.

Kirish

Motivatsiya, inson harakatlarining harakatlantiruvchi kuchi bizning maqsadlarimiz, xatti-harakatlarimiz va umumiy farovonligimizni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatga erishish uchun ish joyidan shaxsiy intilishlargacha, tushunish va motivatsiyadan foydalanish juda muhimdir. Ushbu maqola haqiqiy hayotda ham, psixologiya motivatsiyani qanday kuzatishi va o‘rganishi haqida ham motivatsiya nima ekanligini ko‘rsatadiva bundan tashqari motivatsiyaning turli qirralarini o‘rganadi, uning manbalari, turlari va amaliy strategiyalarini, shu bilan birga qiyinchiliklar va u uchun yechimlarni o‘rganadi. Motivatsiya o‘zining ildizlarini psixologik nazariyalarda topadi, ular nima uchun odamlar muayyan faoliyatni boshlashlari, qo‘llab-quvvatlashlari va tugatishlarini tushuntirishga intiladi.

Motivatsiyaning mohiyati –bu energiya va doimiy maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlar. Bizda motivatsiya bo‘lsa, biz harakat qilamiz.

Asosiy nazariyalar Amerika psixologi Maslouning ‘Ehtiyojlar iyerarxiyasi’ni o‘z ichiga oladi, unda odamlar asosiy omon qolishdan tortib o‘zini-o‘zi amalga oshirishgacha bo‘lgan ehtiyojlar iyerarxiyasi tomonidan turtki bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

Yana bir Amerika motivatori, psixologi Gertsbergning ikki faktorli nazariyasi: ishdan qoniqish va norozilik kabi omillar bir-biridan farq qiladi, uzoq muddatli motivatsiyaning ichki elementlarini ta’kidlaydi.

Motivatsiya turlari:

1.Ichki motivatsiya: Bu shaxsiy qoniqish, qiziquvchalik yoki muvaffaqiyat hissi kabi ichki omillardan kelib chiqadi. Ichki motivatsiya doimiy qiziqish va ijodkorlik bilan bog‘liq.

2.Tashqi motivatsiya: mukofot yoki jazo kabi tashqi omillar tashqi motivatsiyani qo‘zg‘atadi. Qisqa muddatda samarali bo‘lsa-da, tashqi mukofotlarga doimiy ishonish uzoq muddatli ichki motivatsiyani buzishi mumkin.

Motivatsiyani oshirish uchun amaliy strategiyalar:

1.Maqsadni belgilash: aniq belgilangan maqsadlar yo‘nalish va maqsad hissini ta’minlaydi.SMART (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time-bound) mezonlari samarali maqsadlarni belgilash uchun asos yaratadi.

2.Ijobiy mustahkamlash: mukofotlar va e’tiroflar ijobiy xulq-atvorni kuchaytirishi va motivatsiyani oshirishi mumkin.

3.o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi (SDT): bu ichki motivatsiyani rivojlantirishda kompetensiya va bog‘liqlikning ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlaydigan muhitni yaratish motivatsiyasi.

4.Fikr va mulohaza: konstruktiv fikr-mulohazalar doimiy yaxshilanishga yordam beradi, o‘z-o‘zini aks ettirish esa shaxsiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Qiyinchiliklar va yechimlar:

1.Kechiktirish: kechiktirishning asosiy sabablarini,masalan, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish yoki aniqlik yetishmasliginitushunish juda zarur. Vaqtni boshqarish usullarini qo‘llash va vazifalarni kichikroq, boshqarilishi mumkin bo‘lgan bosqichlarga bo‘lish kechikishni yumshatishi mumkin.

2.Kuchlanish: Uzoq davom etgan stress va charchoq charchashga olib keladi, motivatsiyani susaytiradi. O‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yish, real umidlarni belgilash va qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratish charchashning oldini olishning kalitidir.

Shu o‘rinda motivatsiyaga ta’sir etuvchi omillar ham borligini unutmasligimiz kerak ular quyidag ilar:

Shaxsiy xususiyatlar, qadriyatlar va e’tiqodlar ;Ijtimoiy va madaniy omillar.

Motivatsiya mavjudligi, shuningdek, bir maqsadni boshqasidan ko‘ra tanlashda qat’iylilik va qat’iyatlilik darajasidan shu ma’lumki, ularbirgalikda yuzaga kelishi ehtimoli yuqori.

Ehtiyojlar, idrok va his-tuyg'ularga bo'lingan ichki motivlardan kelib chiqadigan motivatsiyamiz ko'pincha tashqi motivatsiyaga qaraganda tezroq va kuchliroq bo'ladi. Bu xatti-harakatlar, o'z navbatida, ko'proq ijobiy motivatsion va hissiy holatlarni yaratganda, ular ijobiy teskari aloqa orqali xatti-harakatni kuchaytirishi tabiiy va takrorlanish ehtimolini oshiradi. O'z-o'zin rag'batlantirish inson uchun foydalidir va shuning uchun unga erishishda yordam beadigan yo'llarni topish juda muhim. Inson o'zini ham hayratda qoldirishi va qo'rquvga qarshi urushga tayyor bo'lishi kerak –u motivatsiyadagi to'siqlarni yengib o'tishidir.

Motivatsiya inson psixologiyasining ko'p qirrali jihati bo'lib, psixologik nazariyalardan tushunchalar olish, motivatsiyaning turli turlarini tushunish va amaliy strategiyalarni amalga oshirish orqali shaxslar va tashkilotlar muvaffaqiyatga erishish va shaxsiy o'sishni rag'batlantirish uchun motivatsiya kuchini ochishlari mumkin. Motivatsiya kuchidan foydalangan holda, odamlar qiyinchiliklarni yengib o'tishlari, o'zlarining potentsiallarini ochishlari va shaxsiy professional muvaffaqiyat sari sayohatga chiqishlari mumkin. Motivlangan odam o'z chegaralarini bosib olishga harakat qiladi va har doim o'z ish faoliyatini kundan-kunga yaxshilashga harakat qiladi. Bundan tashqari, inson har doim qanday vazifa bo'lishidan qat'i nazar, unga eng yaxshisini beradi.

Shuningdek, o'z-o'zini rag'batlantirish narsalarni yaxshi his-tuyg'ular bilan bog'lashdan kelib chiqadi. Agar o'tmishda sodir bo'lgan yaxshi narsalarni eslasa, motivatsiya tezroq topiladi. Bundan tashqari, bir kishi o'zini va uning yutuqlarini boshqalarniki bilan solishtirmasligi kerak. Agar u o'z natijalari va ularni yaxshilash yo'llariga e'tibor qaratsa, o'zi uchun motivatsiya bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, o'z-o'zini rag'batlantirish odamlarni turi xil hayotiy maqsadlarga erishishga undashda muhim ahamiyatga ega va shuning uchun uni ilgari surish kerak. Ehtiyojlar piramidasi - bu amerikalik psixolog Avraam Maslouning inson ehtiyojlarining ierarxik modeli uchun keng qo'llaniladigan nom.

Ushbu ehtiyojlar piramidasi motivatsiyaning eng mashhur va keng tarqalgan nazariyalaridan biri - ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasini aks ettiradi. Bu nazariya ehtiyojlar nazariyasi sifatida ham tanilgan (inglizcha: *need theory*) yoki *hierarchy theory*.

Maslou ibtidoiy fiziologik ehtiyojlarni qondirish asoslarning asosi ekanligini yaxshi bilardi. Uning fikricha, ideal baxtli jamiyat, eng avvalo, qo'rquv va xavotirga sabab bo'lmagan, to'q odamlar jamiyatidir. Agar biror kishida, masalan, doimo oziq-ovqat yetishmovchiligi bo'lsa, u sevgiga juda muhtoj bo'lishi dargumon. To'yish deganda Maslou nafaqat oziq-ovqat tanqisligining yo'qligini, balki yetarli miqdorda suv, kislorod, uyqu va boshqa asosiy fiziologik inson ehtiyojlarini ham nazarda tutgan.

Shaxsning tabiati, u yasab turgan tashqi muhit, uni o'rab turgan hodisa va voqealar, shaxsning qobiliyati va motivatsiyasi hamda boshqa son-sanoqsiz omillardan kelib chiqqan holda ehtiyojlarning namoyon bo'ladigan shakllari har xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun, masalan, turli odamlarda hurmat va e'tirofga bo'lgan ehtiyoj har xil tarzda namoyon bo'lishi mumkin: kimdir taniqli siyosatchi,

deputat, jamoat arbobi bo'lishi va umumjahon e'tirofni va mashhurligini qozonishni istaydi, boshqasi uchun esa o'z farzandlarining hurmat qilishlari yetarli bo'ladi.

Xuddi shu ehtiyoj doirasidagi eng keng diapazon piramidaning istalgan bosqichida, hatto birinchi (fiziologik ehtiyojlar)da ham kuzatilishi mumkin.

Asosiy ehtiyojlar qondirilgach, yuqori darajadagi ehtiyojlarning dolzarbligi tobora oshib boradi. Faqat birinchi ehtiyoj to'liq qondirilgandagina keyingi ehtiyojning o'rnini yangisi egallaydi degan shartlar mavjud emas. Bundan tashqari, diagrammada ko'rsatilganidek, ehtiyojlar ajralmas ketma-ketlikda emas va qat'iy pozitsiyalarga ham ega emasdir. Ushbu qonuniyat barqaror hisoblanadi, lekin turli odamlar uchun ehtiyojlarning o'zaro joylashishi har xil bo'lishi mumkin.

Shuningdek, Gumilyovning sivilizatsiya darajasining oshishi va ularning tez degradatsiyasi bilan madaniy ehtiyojlarning rivojlanishi haqidagi nazariyasi bilan ba'zi bir o'xshashliklarga e'tibor berishi mumkin (masalan, Maslou piramidasi asosi, ya'ni fiziologik yoki himoya ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik buzilgandagi holatlar).

Ierarxiya nazariyasini sinovdan o'tkazishda asosiy muammo shundaki, inson ehtiyojlarini qondirishning ishonchli miqdoriy o'lchov ko'rsatkichlari mavjud emas. Maslouning o'zi ierarxiyadagi tartib o'zgarishi mumkinligini ta'kidladi. Nazariyaning ikkinchi muammosi ehtiyojlarning ierarxiyaga bo'linishi, ularning ketma-ketligi bilan bog'liq. Biroq, nazariya nima uchun ba'zi ehtiyojlar qondirilgandan keyin ham motivator bo'lib qolishini tushuntirib bera olmaydi.

1968-yilda ehtiyojlar nazariyasi ierarxiyasi mashhurligiga qaramay, tasdiqlanmagan va asosiligi past, dedi Duglas Xoll va Xalil Nugaim (Duglas Xoll, Xalil Nougaim). Xuddi shu fikrni huquqshunos Suttl 1972-yilda takrorladi. Xoll va Nugaim o'z tadqiqotlarini olib borishganda, Maslou ularga xat yozdi va unda u sub'ektlarning yosh guruhiga qarab ehtiyojlarni qondirishni hisobga olish muhimligini ta'kidladi. Maslouning so'zlariga ko'ra, "omadli" bolalikdagi xavfsizlik va fiziologiyaga bo'lgan ehtiyojni, o'smirlilik davrida tegishlilik hissiga ega bo'lish va muhabbatga bo'lgan ehtiyojni qondiradi. O'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyoj "omadli"larda 50 yoshga to'lguncha qondiriladi. Shuning uchun yosh tarkibini hisobga olish kerak.

XULOSA qilib shuni aytish mumkinki, motivatsiya inson hayotida muhim rol o'ynaydi. U odamlarni maqsadlarga erishishga, qiyinchiliklarni yengib o'tishga va o'z imkoniyatlarini oshirishga undaydi.

Motivatsiya shuningdek, psixologik holatni yaxshilaydi, stressni kamaytiradi va umumiy farovonlikni oshiradi. O'z-o'zini motivatsiya qilish, odamlarni yangi bilimla olishga va rivojlanishga, shuningdek, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abraham Maslow. "Inson motivatsiyasi nazariyasi".
2. Richard.M "Inson xulq-atvorida ichki motivatsiya va o'z-o'zini belgilash"

3.A.V.Petrovskiy "Umumiy psixologiya",1972.4.Gari P. "Maqsadlarni belgilash va vazifalarni bajarish nazariyasi".

MAKTABLARDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARNING FAOLIYATLARIDAGI YUZGA KELADIGAN MUOMMOLARI

Jo'rayeva Mavluda Umurzoq qizi
Qumqo'rg'on tumani 46-maktab psixologi

Annotatsiya : Ushbu maqolada bugungi kunda maktablarda faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlarning lavozimi bo'yicha bajarayotgan ishlari, majburiyatlari hamda kamchiliklari va uni bartaraf etish haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Psixolog, majburiyat, faoliyat, o'quvchi, o'qituvchi, muloqot, amaliyot, ruhiyat, muommo.

Hozirgi paytda barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliyotchi psixologlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ular o'qituvchi va o'quvchlar hamda ota-onalar bilan pedagogic va psixologik ishlarni olib borishadi. Lekin xalqimiz orasida psixolog xizmatidan foydalanishga nisbatan salbiy munosabat haligacha saqlanib qolgan. Ko'pchilik bu sohaning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishmaydi, shuning uchun ularni ko'proq seminar va treninglar tashkil etib, ularning bilim va malakalarini oshirib boorish kerak deb o'ylayman.

Psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning etakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SHu bosdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z fuqarolarining ma'naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tiborni qaratmoqdalar. SHu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xizmat tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi., shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy-tatbiqiy yo'nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko'pgina olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar Shundan kelib chiqqan holda, bugungi ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida bo'lajak kadrlarni har jihatdan tayyorlash bilan bog'liq psixologik xizmatning ilmiy-tashkiliy jihatlariga va ayniqsa, ijtimoiy-psixologik muhofaza imkoniyatlarini tadqiq qilishga oid maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning nihoyatda tanqisligi; ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya fanlarida bugungi psixologik xizmat tatbiqini qamrab oluvchi vazifalarning aniq va batafsil belgilanganmaganligi; bir necha yillardan buyon talaygina ta'lim va mehnat jamoalarida psixologik xizmat ko'rsatish jarayoni amalga oshirilib kelsa-da va ayni paytda, o'zbekistonlik psixolog-olimlar tomonidan ilg'or psixologiya ilmining hayotga, amaliyotga tatbiqiga oid qator yakunlangan tadqiqotlar, ko'rsatmalar, tavsiyalar mavjud bo'lsa-da, O'zbekistondagi psixologik xizmat samaradorligini alohida tadqiq qilinmaganligi; ta'lim va mehnat

muassasalarida tashkil etilgan psixologik xizmat tajribalari misolida o'quvchi va ishchi-xodimlar muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashdagi ijtimoiy psixologik muhofaza imkoniyatlarini o'rganish va kamol toptirish bilan bog'liq bugungi O'zbekistonning o'z istiqbol va istiqbol yo'li, ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti talablariga javob beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi kabilarni bugungi dolzarb muammolardan biri Mavzuning dolzarbliigi Maktab amaliyotchi psixologining faoliyati doirasidagi muammolar ta'lim tizimida toboro ishlarni tashkil qilish muammolarini ortirib bormoqda, Ayniqsa hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan umumta'lim matablarida kasb-hunarga o'quvchilarni yo'naltirish bevosita psixolog oldida turgan asosiy dolzarb muammo hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. amaliy psixologiya, pedagogik psixologiya fanlarini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitadi. Maktab psixologining amaliy kasbiy faoliyatida o'smirlik davridagi o'quvchi-larga xos shaxslararo nizolar sharoitida psixokorreksion ishlarning metodlari va shakllari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqotimizda biz tomondan ishlab chiqilgan maktab psixologining psixokorreksion faoliyati modeli yuqori samara berdi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan amaliy psixologlar, maktab o'qituvchilar, psixologik-konsultativ markazlar mutaxassislari faoliyatida foydalanish mumkin. Shuningdek, maktabda psixokorreksion muhitni yaratish, maktabda tarbiya jarayonining psixokorreksion modelini keyinchalik yanada takomillashtirish imkoniyatlarini ochib beradi. Olingan natijalar maktabda psixologik xizmatni rivojlantirishning zamonaviy shart-sharoitlarini kengaytiradi va maktab psixologlari faoliyati va tarbiyaviy ishlarining dasturini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar, universitetlar, pedagogika institutlari, pedagogika va psixologiya bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanmalari yaratishda, ma'ruzalar matni tayyorlashda, innovatsion dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. V.M.Rusalov tadqiqotlarida ijtimoiy psixologiya uchun muhim bo'lgan hamkorlik faoliyati muvaffaqiyati ma'lum jihatlari bilan individual uslub imkoniyatlariga ham bog'liq ekanligi qayd etilib, "xolerik" temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganga qaraganda "flegmatik" va "melanxolik" bilan birgalikda ishlagan xollarda ancha samarali bo'lishi empirik ma'lumotlar asosidadir.

Demak, muassasadagi amaliy psixolog har bir shaxs faoliyati hamkorligini tashkil etish jarayonida ushbu imkoniyatlarni hisobga olishi orkali ijtimoiy-psixologik yutuqlarga erishishi mumkin. Mazkur tadqiqotlarning ta'lim va mehnat faoliyati muvaffaqiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan kuzatishlarimiz natijalari ham tasdiqladi va bu esa har bir shaxsni faoliyatdagi muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan muxofazalanish (himoyalanih) quroli sifatida har bir o'quvchi va ishchi xodim uchun xarakterli bo'lgan individual uslub mezonlarini ishlab chiqish va uning psixologik xizmat jarayonida yanada takomillashtirish yo'llarini izlashga da'vat etdi. Shaxs individual farqlanishining ijtimoiy qimmatini tadqiq qilish muammosi K.K.Platonov asarlarida bir qadar kengroq ko'lamda qayd etiladi. K.Platonovning metodologik xizmati shundaki, u inson ijtimoiy individual olamini tushunishning quyidagi to'rt mezonini ishlab chiqdi va shaxs ijtimoiy individual farqlanish

moxiyatini tushunish uchun muhim bo'lgan ushbu ijtimoiy mezonlarning nazariy-ilmii kontsepsiyasini yaratdi. Ya'ni, 1 - mezon (kategoriya) asosidagi farqlanishga ko'ra insondagi sifatlar o'zgarishi bilan uning moxiyati va ijtimoiy yo'nalishlari ham o'zgaradi. Bu o'rinda shaxs atributlari uning ongliligi, dinamikligi, faollik va betakrorligi kabi barcha sifatlar muhim o'rin tutadi. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to'g'risida o'ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ko'pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bolsam ekan yoki qaysi sohaning mutaxassisi bo'lsam ekan? - degan savolni oz oldilariga qo'yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi. Natijada o'quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi.

Xulosa Amaliyotchi psixolog o'z vazifasini burchini o'rtacha 70 foiz a'lo darajada bajarsa, bu butun jamoada kata burilish yasaydi deb o'ylayman. Ya'ni bu yerda sog'lom muhit shakllanadi. Muvaffaqiyatlar kaliti esa avvalo sog'lom muhit yarata bilishdadir. Kishi ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish va ko'zlangan maqsadga erishishda noan'anaviy yondashuvning samarali kechishi esa albatta amaliyotchi psixolog mahorati, yangiliklar yarata bilishi, juda muhimdir, ana shundagina o'ziga nisbatan ishonch uyg'ota bilishga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'oziyev, E. (2010). Umumiypsixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE Publ. 103, 41-46.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUV

Usmanova Zebo Turabovna
Termiz tumanidagi 25-umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lim tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, Matematika fanini o'qitishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqilishini taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida 2020-yil 7-mayda Prezidentimizning "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unda, iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo'yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini hamda sovrinli o'rinlarni egallashini ta'minlash, matematika fani bo'yicha kadrlarni, xususan qishloq joylaridagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, matematika fani bo'yicha kadrlarni, matematika fani bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish maqsad va vazifalari belgilangan [1;3].

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'qituvchisining samarali faoliyati, uning chuqur va rang-barang kasbiy bilimlari, uning yuqori darajadagi dars berish metodikasini egallanganligi va darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishi bilan uzviy bog'liq. Bu vazifalarning hal qilinishida pedagogning innovatsion yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiya inglizcha so'z bo'lib, "innovation" - yangilik kiritishdir. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- ✓ yangi g'oya tug'ilishi, u kashfiyot bosqichi;
- ✓ ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi;
- ✓ yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi;
- ✓ yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq qilish bosqichi;
- ✓ muayyan bir sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- ✓ pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bema'romlik qonuni;
- ✓ nihoyat amalga oshish qonuni;
- ✓ qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;
- ✓ pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Hozirgi sharoitda mehnat bozorida ustuvor o'rinni egallagan kuchli raqobatbardosh mutaxassis bo'lish uchun, har bir mutaxassisdan innovatsiyalardan samarali foydalanishi bilan bir qatorda, kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi, faoliyatida kompetensiyaviy yondoshuvi hamda uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo qilmoqda.

Xo'sh, kompetensiya, kompetentlik nima?, Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?

"Competence" so'zi inglizcha "to compete" so'zidan olingan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. Ilmiy pedagogik, manbalarda, kompetensiya, kompetentlik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. "Competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni yoritishga xizmat qiladi. "Kompetentlik" so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetensiya-shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik esa – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishidir. Balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish hamda ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Dunyo bo'yicha yagona tayanch kompetentsiyalar ro'yxati mavjud emas. Ammo, kompetentsiyalar, avvalo jamiyatning fuqarolarini tayyorlash uchun berilgan buyurtma bo'lganligidan, bunday ro'yxat ma'lum davlat yoki regiondagi jamiyatning o'zaro kelishilgan nuqtai nazari bilan belgilanadi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun ishlab chiqilgan tayanch kompetentsiyalari quyidagilar:

- ✓ kommunikativ kompetentsiya;
- ✓ axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi;
- ✓ o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi;
- ✓ ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi;
- ✓ milliy va umummadaniy kompetentsiya;
- ✓ matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish

hamda foydalanish kompetentsiyasi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi haqida qisqacha to'xtalamiz. Ushbu kompetensiya aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuzish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi [2;8].

O'qitishning zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga o'tilishi esa ta'lim jarayoniga qor ko'chkisi kabi ta'sir ko'rsatadi va misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib keladi. Bunda yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o'qituvchisining vazifasiga aylanadi. Bilimli, yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlargina jamiyatning ta'lim oldiga qo'ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo'ladilar. O'qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z ustida tinimsiz izlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirishi va ularni ta'lim jarayonida qo'llashi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, ularda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish esa ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi [3;35]. Olib borilgan amaliy tajribalar natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

- ✓ innovatsiyalarning mazmuni va ularni amaliyotda qo'llash metodikasi pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi;
- ✓ kompetentsiya, kompetentlilik, kasbiy kompetensiya tushunchalari tahlil qilinib, pedagogik faoliyat jarayonida qo'llash inkoniyatlari aniqlashtirildi;
- ✓ o'quvchilarda matematik savodxonlik kompetensiyasini egallash malakalari pedagogik-psixologik tahlil qilinib, pedagogik faoliyatda foydalanish usul va vositalari ko'rsatildi;
- ✓ boshlang'ich sinf matematika darslarida kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatlari nazariy va amaliy o'rganilib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Matematika darslarida o'qituvchining zamonaviy metodik vositalardan samarali foydalanib innovatsion yondashuvi o'quvchilarning mavzuning to'liq o'zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o'quv jarayonida ularning o'zlari faol ishtirok etishlarini ham ta'minlaydi. Bu esa matematika fanini o'qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Toshkent sh., 2020-yil 7-may, PQ-4708-son.
- 2.Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. - T.: "O'QITUVCHI", 2004. -328 b.
- 3.Repyova I.V. Matematika 3-sinf (III qism) Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. –T.: "Novza nashriyoti", 2023. – 127 b.

O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ SHAKLLANISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Abdullayeva Risolat Eshonqul qizi
Amaliy psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Jumayeva Guljahon Oralovna
Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada insonning axloqiy va psixologik rivojlanishi haqida keng tahlil berilgan. Jumladan, o'smirlik davrida destruktiv xulq shakllanishi va uning ijtimoiy, madaniy hamda shaxsiy omillari yoritilgan. Shuningdek yirik allomalar, jumladan, Abu Nasr al-Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Yusuf Xos Hojibning axloqiy-falsafiy qarashlarini ta'kidlab, bugungi kunda ham ularning ahamiyatini e'tirof etadi. Destruktiv xulqning rivojlanishiga bolalikdagi salbiy tajribalar, ota-onaning befarqligi, shuningdek, ijtimoiy va psixologik omillar sabab bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Kalit so'z: O'smir, ota - ona, o'qituvchi, destruktiv xulq, xulq - atvor, Z.Freyd.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda uning ma'lum bir yosh davridagi psixologik xususiyatlari eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Inson xulqida jamiyatda qabul qilingan meyor va mezonlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, ijtimoiy taraqqiyot omillaridan biriga aylangandir. Ushbu meyor va mezonlar nafaqat ijtimoiy barqarorlikka, balki individning o'zini ham ruhiy barqarorlik va taraqqiyoti uchun zarurdir. Jamiyatda axloqiy ma'naviy madaniy xulq ko'rinishlari shakllanish, ushbu talablar darajasidan og'ish masalalariga qadimdan allomalarimiz tomonidan alohida e'tibor berib kelingan.

Axloqiy meyorlardan og'ish muammolari, Abu Nasr Al Forobiyning «Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob», «Baxtga erishuv haqida», «Davlat arbobining hikmatlari», «Fozil odamlar shahri» singari asarlarida ko'tarilgan. Alloma o'z qarashlarida fazilatga juda katta o'rin beradi. Arastuga o'xshab, u ham fazilatlarni

ikki qismga fozoil nutqiya (aql-idrokka asoslangan fazilatlar va fazoil xulqiya (xulqiy fazilatlar)ga ajratadi hamda ularning o'rtalik xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi. Buyuk vatandoshimizning fikricha, insonga uni go'zal amallar qilish uchun yo'naltiradigan odat mahsuli bo'lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda meyor qay darajada saqlangani bilan bog'lanadi.

Yana bir sharq allomasi Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida insonlar va xalqlarning ijobiy yoki salbiy urf-odatlarini, xulq-atvorining shakllanishida tabiiy muhitning hamda jug'rofiy omillarning ahamiyatini ko'rsatib berdi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari asosan «Axloq ilmiga doir risola», «Burch to'g'risida risola», «Nafsnik pokiza tutish to'g'risida risola», «Adolat haqida kitob», «Turar joylardagi tadbirlar»singari asarlarida va o'z zamondoshlari bilan olib borgan munozaralari yozishmalarida o'z aksini topgan. Yusuf Xos Hojib tomonidan inson xulq atvoriga nisbatan o'ziga xos yondashuvda yaxshi xulq ham, yomon xulq ham, ikki xil bo'lishi mumkin: tug'ma va ijtimoiy muhit natijasida shakllangan xulq. Yusuf Xos Hojib axloqiy-falsafiy qarashlari bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan, chunki u umuminsoniy, ma'naviy negizlarni o'rgatadi.

Destruktiv xulq — jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy xulq ko'rinishlariga zid bo'lgan har qanday muqobil fikrlarni inkor etishga yo'naltirilgan xulq ko'rinishlari.

Destruktiv xulq nafaqat insonda ma'lum bir ijtimoiy muammolarni, balki uning jismoniy sog'ligida ham muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Destruktiv xulq 2 asosiy turlarda namoyon bo'ladi:

1. Delinkvent tur — jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy xuquqiy meyorlarga qarama qarshi bo'lgan xatti — harakatlarga xulqning yo'nalganligi maishiy oilaviy nizolar, yo'l transport xodisalari, qo'pollik.

2. Deviant tur — jamiyatda qabul qilingan axloqiy meyorlarga qarama - qarshi xulqiy ko'rinishlarni namoyon etish (alkogolizm, suitsid narkomaniya) mehr -muhabbatga ega bo'lmaganligi.

Destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarida insonning ma'lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar,ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mexr muxabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin.

Bundan tashqari quyidagi sabablar ham aloxida e'tibor talab qiladi:

Psixik sog'lomlik holati hayot davomida qo'zg'ovchi omillar ta'sirida o'zgarib turishi mumkin.

Jismoniy sog'lomlik holati hayot davomida keskin yomonlashish mumkin, natijada inson hech qanday qonun qoidalarga bo'ysunishni xoxlamay qoladi.

Kasbiy sohada muvaffaqiyatsizliklar Bu holatlarda inson o'zining noto'kisligini qo'yilgan talabalarga javob bera olmasligini his etadi. Natijada o'z o'ziga baxo berish darajasi pasayadi, ijtimoiy mavqeini yo'qotadi o'ziga bildirilgan e'tirozlarni adolatsiz deb qabul qiladi.

Z.Freyd inson xulqiga 2 asosiy instinkt: Eros – hayot isintinkti undagi quvvat «libido» hayotni saqlash, qayta tiklashga yo'naltiradi va Tanatos – o'lim instinkti

undagi quvvat hayotni vayron qilish va to'xtatishga yo'naltiradi (suitsid) Tanatos asosini Freyd barcha biologik hayot farmalari uchun umumiy bo'lgan biologik mexanizm tashkil etadi deb hisoblagan har bir organizm o'zidagi asabiy qo'zg'aluvchanlikni imkon qadar pasaytirishga harakat qiladi o'lim barcha ichki qo'zg'aluvchanlikni umuman yo'qotadi, shuning uchun barcha tirik organizmlar o'limga intiladilar. Lekin organizmning mutlaq osoyishtalikka intilishiga hayot instinkti qarshilik ko'rsatadi. Freyd bo'yicha inson xulqi ushbu ikki instiktning o'zaro munosabatlari natijasida shakllanadi.

Freyd ta'limotini taniqli psixolog va psixoterapevt E.Bern qo'llab quvvatlaydi. Lekin ushbu tadqiqotchilar faqat destruktiv xulq ko'rinishlarini chuqur tahlil qilmagan holda destruktiv tendensiyalarni ta'kidlaydilar.

Desstruktiv xulq muammosi bilan taniqli amerika oimi E.Fromm shug'ullangan. O'zining «Erkinlikdan qochish», «Inson destruktivligi anatomiyasi» asarlarida ushbu muammoning ijtimoiy madaniy determinantlariga alohida e'tiborini qaratgan.

N.Y.Maksimovaning tadqiqotlaridan shu narsa aniqlandiki, og'ir tarbiyali o'smirlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarida salbiy holatlarga olib keluvchi quyidagi ichki sabablar ham bor ekan, jumladan: sinfdoshlar bilan muloqotning qiyin olib borilishi, xulq - atvor meyorlarining shakllanmaganligi, ijtimoiy meyorlar va xulq - atvor qoidalarining qadrini tushunmasligi, inkor etish, o'zi atrof olamni bir butun deb tasavvur etaolmasligi, pedagoglarning talab va takliflarini inobatga olmaslik, o'z - o'ziga o'ta baland baho berish, ota - ona, o'qituvchi bilan kelishmaslik oqibatida ijtimoiy to'g'ri rivojlanmaslik.

A.Ye.Lichkoning aytishicha, o'smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shu yosh uchun xos bo'lgan quyidagi xossalalar bilan bog'liq:

1. Tengdoshlari bilan birgalikda guruhlariga ajralish. Vaqt o'tgan sari o'zlariga zarar bo'luvchi mojaro va sarguzashtlarga o'ralashib qolishlari. Achinarlisi, bekorchi o'smirlar bo'sh qolib, kayfiyatni ko'tarish uchun spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi. O'smirlar ba'zilar qiziquvchanlikdan «kattalardek bo'lish», boshqalari esa qolganlaridan qolib ketmasligi uchun ham ichishga ro'ju qo'yadilar. Ular nafaqat o'g'il bolalar, balki qizlar ham bo'ladilar.

2. Imitatsiya (o'xshatish) bu doimo kimgadir taqlid qilishdir. Bunday o'smirlar o'z tengdoshlari yoxud kattalarning xatti - harakatini takrorlaydilar. Atrofdagilardan birortasi spirtli ichimlik, giyohvand modda iste'mol qilsa, unga taqlid qiluvchilar ko'payadi. Ko'pgina o'smirlar o'ziga "namuna" qilib kino qahramonini, aktyorlar, sozandalarni tanlaydilar va ularga taqlid qiladilar. Agarda taqlid qilinayotgan qahramon salbiy qahramon bo'lsa, unda ota - ona va pedagoglar turli noxushliklarga tayyor turishlari darkor. Ayniqsa, "namuna" uchun tanlangan inson real shaxs bo'lsa - yu, u ichkilikboz, giyohvand, jinoyatchi bo'lsa, undan juda katta kulfatlarni kutish mumkin, chunonchi, ko'pgina giyohvandlar, katta pul kerakligidan turli jinoyatlarga o'ralashib qolishadi.

3. Inkori reaksiyasi (qarama - qarshi tuyg'u). O'smirlar uchun xos bo'lgan tuyg'u. Xulqning qarama - qarshi xususiyatlari yaqinlarining dilsiyohligi, shaxsiyatni xafa qilishi, talablarning bajarilishida namoyon bo'ladi. Qarama - qarshi ruhdagi harakatlar ko'pincha ota - ona, kattalarga qaratilgan bo'ladi. Oilada muammoli

vaziyat yuzaga kelganda, bolaning ichki va tashqi “meni” kichik yoki bo‘rttirilgan huquqbuzarliklar bilan namoyon bo‘ladi. Bunday isyonkorlik ruhidagi harakatlarga ota - onalarning bolaga nisbatan loqaydligi, shaxs sifatida uni hurmat qilmasligi, qiziqishlariga to‘sqinlik qilishi sabab bo‘ladi:

Ota - onaning bolasiga qo‘ygan o‘ta yuqori talablari, uni “vunderkind” – o‘ta yuqori cho‘qqilarni egallovchi shaxs qilishdek orzulari ham sababi bo‘ladi. Dushmanlik hissin berkitib, o‘smir kattalarga bo‘lgan norozilik, xafaligini, undan ruhan begonasirashini namoyon qiladi. U o‘ziga do‘stlarni tashqaridan izlay boshlaydi va ko‘pincha ichuvchi, cheg‘ kuvchi to‘daga kirib qoladi.

Rivojlanish tuyg‘usi (emansipatsiya) o‘smirning o‘z erkinligi, mustaqilligi uchun kurashi. U kattalar nazoratidan tezroq ozod bo‘lishni xohlaydi. Uni qancha nazorat qilishsa, u shuncha erkinlikka talpinadi. Bu o‘smirning qaysarligi bilan bog‘liq. Ruhan sog‘lom o‘smirlardan o‘ta qaysarlik xislatlari vaqti bilan o‘tadi. Agarda kattalar o‘ta shafqatsizlik va so‘zsiz bo‘ysunishni so‘rashsa, unda o‘smirlar o‘ta keskin xarakter namoyon qiladilar. Eng xavotirga soladigani shuki, o‘smirlarning xatti-harakati bunday holatlarda uydan qochish va daydichilik bilan tugallanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak o‘smirlik davri ontogenetik taraqqiyotning eng murakkab pallasi hisoblanadi. O‘smirlik davrining eng asosiy xususiyati psixik va jismoniy yoki psixik va somatik jarayonlar intensivligi bilan xarakterlanadi. Aynan shu davrda tez toliqish, jismoniy zaiflik, turli kasalliklarga moyillik holatlarini kuzatish mumkin. Bularning barchasi psixosomatik o‘zgarishlar hisoblanib, psixik va somatik jarayonlar o‘zaro uzviy bog‘liqligining natijasi sanaladi. O‘smirlik darida destruktiv xulq ko‘rinshlarini namoyon bo‘lishi deviant delikvent addiktiv xulq ko‘rinshlari ta‘sirida namoyo bo‘lishi, o‘smirlik davrining o‘tish davri xususiyati sifatida vaqtinchalik ahamiyat kasb etishi ma‘lum bir ehtiyojlar frustratsiyasiga javob reaksiyasi sifatida namoyon bo‘lishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. –T.: 2004.
2. Гамезо М.В., Петрова Е.А., Орпова Л.М. Возрастная и педагогическая психология. –М.: 2003.
3. Davletshin M.G., Do‘stmuhammedova va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv metodik qo‘llanma. –T.: 2004
4. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq me‘rosi nashriyoti, “O‘AJBIT” markazi, 2002, -205 b.

PSIXOLOGIYA VA TIBBIYOTDA PSIXOSOMATIK YONDASHUV

Toshpo‘latova Durdona Sharifbekovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti (KIUT) Pediatriya yo‘nalishi
1-kurs talabasi

Turli xil somatik kasalliklarning etiologiyasi, yengilishi va oldini olishda psixologik omillarning ahamiyati haqidagi g‘oya uzoq tarixga ega bo‘lib, uning kelib

chiqishini qadim zamonlarda topish mumkin va uning qonuniyligi haqidagi munozaralar to'xtamaydi. shu kungacha.

Psixosomatik tibbiyotning ilmiy asoslari uchta olimning ismlari bilan bog'liq

1) Z. Freyd

Z. Freyd nazariyasi psixosomatikaga kuchli ta'sir ko'rsatib, ikkinchisining e'tiborini tana va behushlik o'rtasidagi bog'liqlikka qaratdi.

aqliy, hayotning dastlabki jihatlari va ta'sirli to'qnashuvlarning ma'nosi, shuningdek somatik organga aylanish mexanizmi to'g'risida.

2) I.P. Pavlova

Pavlov nazariyasining ba'zi qoidalari (shartli reflekslar, yo'naltiruvchi refleks) patologik bezovtalik, shizofreniya, psixopatiya, odamning atrofdagi va butun dunyoga odamlarni yo'naltirish va moslashishidagi buzilishlar va buzilishlar sifatida tushunishda aks etadi. organik disfunktsiyalarni davolash.

3) V. Kannon

Psixosomatik tibbiyotning rivojlanishi va shakllanishida eng muhimi V. Kennonning qarashlari bo'lib, uning hissiyotlarning fiziologik korrelyatsiyasi haqidagi klassik tushunchasi ("sagarbarlik reaksiyasi") ko'plab kasalliklarni tushuntirishda psixosomatik nazariyada asosiy hisoblanadi.

Psixosomatik yondashuvning rivojlanish mantig'i psixikaning va somaning inson salomatligi holatidagi roli haqidagi qarashlar evolyutsiyasining aksidir. An'anaga ko'ra, ikkita modelning mavjudligi taxmin qilinadi - biomedikal va biopsixosotsial. Agar dastlab psixosomatik yondashuv biomedikal modelga norma (sog'liq) va patologiyani (kasallik) tushunishda reaksiya sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, endi u rivojlanib borgan sari biopsixosotsial modelning asosiy g'oyalariga asoslangan.

Biopsixosotsial modelning afzalliklari shundaki, biologik, psixologik, ijtimoiy omillar me'yor va patologiyaning muhim determinantlari sifatida qabul qilinadi. Ierarxik aloqa mexanizmi orqali biologik (tizimli, funktsional buzilishlar, infeksiyalar), psixologik (fikrlash tarzi, his -tuyg'ular, motivlar) va ijtimoiy (oilalar, madaniyat, jamiyat, ijtimoiy qo'llab -quvvatlash) omillar o'zaro ta'sir qiladi. boshqa tomondan o'zgarishlar. "Psixologik va jismoniy o'zgaruvchilar kengroq tizimning bir qismi sifatida qabul qilinadi. Tizim ierarxik ketma-ketlikda tashkil etilgan va past darajali quyi tizimlar tartibda ierarxik jihatdan yuqori darajaga birlashtirilgan kichik tizimlardan (fiziologik, psixologik, ijtimoiy) iborat. Butun qismlardan ko'ra ko'proq bo'lganda, murakkab birlashuvga aylaning".

2. "Psixosomatika" atamasi birinchi marta 1818 yilda nemis psixiatr Xaynrot tomonidan juda sirli jumlada ishlatilgan: "Qoida tariqasida, uyqusizlik manbai psixosomatikdir, lekin hayotning har bir bosqichi o'zi uchun murakkab sababni berishi mumkin. uyqusizlik ». "Psixosomatika" so'zi, Margetts ta'kidlaganidek, 19-asr boshlarida nemis adabiyotida "psixofizik", "somatopsixik" kabi ikkita murakkab atamani ishlatib, modani hurmat qilish edi. va umuman tanada ...

20 -asrning 20 -yillarida "psixosomatik tibbiyot" atamasini birinchi bo'lib Feliks Detch ishlatgan. Bu yillarda rasmiy tibbiyot fani bemorlarning etiologiyasi va davolanishida psixologik omillarning rolini inkor etdi. "Psixosomatik" atamasining

rasmiy tug'ilgan kuni 1935 yil deb hisoblanadi, bu Flander Dunbarning "Tuyg'ular va tana o'zgarishlari" kitobining nashr etilishi munosabati bilan. J. Lipovskiyning so'zlariga ko'ra, F. Dunbar o'z kitobida "psixosomatik" atamasining taqdirini oldindan bashorat qilib, "psixosomatik munosabatlar" atamasi "psixika va tana bir narsaning ikki tomoni" degan fikrni ifoda etish uchun etarli emasligini ta'kidlagan. yagona yaxlit ". "U yaxshiroq atama haqida o'ylay olmadi ... va bu meros yaxshi yoki yomon, hali ham bizda."

Psixosomatik tibbiyotning asosiy yo'nalishlari va "psixosomatika" atamasini tushunishda ziddiyatlar F.V.Bassin (1972), V.V. Nikolaeva (1987) va boshqalarning asarlarida qayd etilgan.

Psixosomatik tibbiyot salomatlik va kasallik haqidagi juda aniq, tor tibbiy tushunchaga javob sifatida paydo bo'lgan deb ishoniladi. Psixosomatik tibbiyotning asosiy aksiomasi - bu kasalliklarning o'z -o'zidan yo'qligiga ishonish, faqat kasal odamlar bor, ya'ni odamda kasallik yo'q, lekin odam kasal. Psixosomatik tibbiyot doirasida psixosomatik munosabatlarni o'rganish ma'lum bir bosqichga ega.

1939 yilda "Psixosomatik tibbiyot" jurnalining birinchi soni nashr etilganidan beri psixosomatik tibbiyotning asosiy namoyandalari F. Dunbar / F. Dunbar / va F. Aleksandr / F. Aleksandr /. Ularning ismlari psixosomatik bemorlarning shaxsiy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan bog'liq.

"Shaxsiy xususiyatlar turkumi" tushunchasi F. Dunbar / F. Dunbar / ba'zi shaxsiy xususiyatlar va jismoniy kasalliklarning ayrim turlari o'rtasidagi munosabatni ta'kidlaydi. Bu yondashuv bir xil nozologiyaga ega bo'lgan bemorlarning shaxsiy xususiyatlarini, odamlarning munosabati, odatlari va kasalliklarini birlashtiradi, shaxs profilidagi o'xshashliklarni e'lon qiladi. U psixosomatik tibbiyot leksikoniga "yarali shaxs", "artritli shaxs", "koronar shaxsiyat" va boshqa tushunchalarni kiritdi. Garchi zamonaviy tadqiqotlar faqat ayrim kasalliklarga chalingan bemorlarga xos bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni ko'rsatishning noqonuniyligini isbotlagan bo'lsa -da, shaxsiyat xususiyatlarini o'rganish va ta'riflash, ayniqsa, bemorlarga psixologik yordam ko'rsatish jarayonida katta amaliy ahamiyatga ega. F. Dunbar / F. Dunbar / bir qator qiziqarli faktlarni aniqladi, xususan, kasallik natijasida paydo bo'ladigan premorbid shaxsiyat xususiyatlari va uning xususiyatlari muammosini qo'ydi.

F. Aleksandr / F. Aleksandr / (uning ismi va psixosomatik yondashuvi sinonim sifatida qabul qilinadi) "o'ziga xoslik gipotezasini" tuzgan. U o'z ishida har qanday kasallikka xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlar emas, balki dinamik, ongsiz ekanligini ta'kidlaydi.

ziddiyatlar turkumi. F. Aleksandr kontseptsiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) aniq konflikt - ayrim kasalliklarning paydo bo'lishining sababchi omili, faqat boshqa omillar - genetik, biokimyoviy, fiziologik mavjud bo'lganda;

2) odamning hayotiy holati ma'lum bir nizoga faollashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi;

3) ziddiyat bilan kechadigan kuchli his -tuyg'ular avtonom asab tizimi, gormonal va nerv -mushak kanallari orqali somatik organlarning funksiyasi va tuzilishini o'zgartirishga olib keladi.

Bu yoʻnalish somatik kasalliklar va ularning alomatlarini ruhiy kechinmalar va shaxslararo toʻqnashuvlarning ramzi sifatida qaraydi. Shunday qilib, organlarning ramziy tili nazariyasi inson hayotining turli davrlarida somatik kasalliklarning etiopatogenezi boʻyicha repressiya qilingan hissiy tajribalarning ahamiyatiga ishora qiladi va odam tan olmagan komplekslar natijasida psixosomatik buzilishlarni belgilaydi.

F. Aleksandrning psixosomatik tibbiyotni rivojlantirish va psixosomatik kasalliklarni tushunishda xizmatlari shubhasizdir, chunki uning nazariyasi kasallikning moyilligini (moyilligini), uning paydo boʻlish kontekstini va uni keltirib chiqaradigan da'vo qilingan mexanizmlarni ajratadi. Ta'kidlash joizki, zamonaviy nashrlarda koʻpincha "psixosomatik tibbiyot" tushunchasini emas, balki turli kasalliklarning sabablarini tushuntirishda "psixosomatik yondashuv", "psixosomatik omillar" tushunchalari ishlatiladi. Ularning oʻrtasida hech qanday tub farq yoʻq. Bu atamalar psixosomatik fikrlash va somatik kasalliklarning sabablarini tushunishning turli bosqichlarini aks ettiradi.

F.V.Bassin, psixosomatik fikrning rivojlanishini tahlil qilar ekan, psixosomatik yondashuv va psixosomatik tibbiyotni farqlash zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, psixosomatik yondashuv kasallikning etiologik jihatiga, aniqrogʻi, kasallikning boshlanishida psixologik omillarning roliga e'tibor bilan tavsiflanadi. Holbuki, psixosomatik tibbiyot, uning fikricha, psixoanalitik postulatlar asosida psixika va ong oʻrtasidagi munosabatlar muammosini hal qiladi. Shunday qilib, mavjud adabiyotlarda, birinchi navbatda, fanda mohiyatan bir xil hodisani bildiruvchi atamalar farqlanadi, ikkinchidan, psixosomatik tadqiqotlarda psixoanaliz gʻoyalarning ustunligi toʻgʻrisida asta -sekin yoʻq boʻlib ketadigan illyuziya paydo boʻladi.

F.V.Bassin psixosomatik gʻoyalar rivojlanishiga xos boʻlgan ikkita paradoksni ochib beradi.

1) birinchi paradoks norma va patologiyaning hissiy, ruhiy holatga bogʻliqligi haqidagi "yarim sezgi, yarim empirik" kontseptsiyada yotadi, bu badiiy adabiyotda, e'tiqodda, xalq an'analarida va davolash usullarida aks etadi. Bu dunyodagi har kim hech boʻlmaganda bir marta sababini tushuntirib bergan

uning jismoniy kasalligi, stress yoki xavotir, "hamma kasalliklar asabdan" ekanligi. Bu paradoks inson salomatligi va uning ruhiy holati oʻrtasida bogʻliqlik borligiga ishonishdan iborat, bu aloqani isbotlovchi yoki rad etuvchi koʻplab tadqiqotlar natijalariga qaramay mavjud boʻladi.

2) ikkinchi paradoks-bu tibbiyotda psixosomatik yondashuvning rivojlanishidagi qarama-qarshilik, ya'ni bu yondashuv nomoddiy, oʻlchab boʻlmaydigan oʻzgaruvchilarga e'tiborni qaratdi va somatik hodisalarning mohiyatini faqat ikkitasini tahlil qilish orqali aks ettirishini aks ettirdi. Kasallikning ajralmas tomonlari - moddiy, jismoniy va ruhiy, ruhiy.

Psixosomatik yondashuv, V.V. Nikolaevaning fikricha, psixosomatik munosabatlarning ikki tomonini tahlil qilishdan iborat - ruhiy omillarning inson somatik sohasiga ta'siri va somatik omillarning inson psixikasiga ta'siri.

Psixika va somaning o'zaro bog'liqlik mexanizmi "aylana doirasi" mexanizmi hisoblanadi. "Dastlab, somatik sohada (lekin, ehtimol, ruhiy sohada) paydo bo'ladigan buzilish, psixopatologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi, ikkinchisi esa keyingi somatik kasalliklarning sababi bo'ladi" [60; 17].

Zamonaviy psixosomatika - bu psixodinamik nazariya, o'rganish nazariyasi, ekzistensial fenomenologiyani birlashtirgan fanlararo yondashuv. Tajriba bilan bir qatorda, bugungi kunda psixosomatik yondashuvda, aniq tibbiy tarixlar, shuningdek, kasallikning boshlanishi va rivojlanishi sharoitida shaxsiy tajriba tarixlari, ham o'zgarish ma'lumot manbalari sifatida, qiziqish uyg'otadi.

So'nggi yillarda ilmiy leksikonda yangi atama paydo bo'ldi va shunga mos ravishda tadqiqotning yangi yo'nalishi - ijtimoiy psixosomatika, bu ijtimoiy - psixologik jarayonlarning turli tuzilmalar va faoliyatdagi o'zgarishlarga ta'sirini tahlil qilishni anglatadi. inson tanasining tizimlari. Ijtimoiy psixosomatika ijtimoiy-psixologik jarayonlar va kasalliklarni bog'laydi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Vasileva O. S., Filatov F. R. Psixologiya zdorovya cheloveka (etalony, predstavleniya, ustanovki): Uchebnoe posobie M .: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2001. 352 s.
2. Gumanisticheskiy podxod k oxrane zdorovya/Otv.red. N. Berkovits. M.: Aspekt Press, 1998 yil.
3. Gurvich I.N. Sotsialnaya psixologiya zdorovya. SPb.: Izd-vo SPbGU, 1999 yil.
4. Karamyan M.X. Psixologiya zdorovya: uchebno-metod. posobie/M.X. Karamyan, Nats.un-t Uzb. imzo Mirzo Ulug'bek. T .:, 2010. 116 s.
5. Psixologiya zdorovya: Uchebnik dlya vuzov/Pod red. G. S. Nikiforova. SPb .: Piter, 2006. 607 s.

DELINKVENT XULQ-ATVOR KO'RINISHLARI.

*Yaxyoyeva Muhayyo Hikmatullo qizi
Termiz davlat universiteti Amaliy psixologiya
yo'nalishi 4-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: Terdu kafedrasi o'qituvchisi: Kayumova Go'zal

Anotatsiya: Ushbu maqolada delinkvent xulq-atvorning o'smir yoshlar hayotidagi ta'siri va uning natijasida kelib chiqadigan sabablar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: delinkvent xulq, erta alkogolizm, seksual xulq deviatsiyasi, o'smirlik davri, delinkvent xatti-harakatlar.

"Delinkvent xulq-atvor" degan tushuncha asosan yosh avlod tomonidan turli xildagi huquqbuzarliklar (masalan, ta'magirlik, birovlarini qo'rqitib narsasini olib qo'yish, avtotransportni o'g'irlash va hokazo) qilinganida qo'llaniladi. Bunday vaziyatlarda jinoyatchilik yo'liga kirgan yoshlarning fe'l-atvorini yaxshilab o'rganish kerak. Ularning ta'lim-tarbiyasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni tuzatishga harakat qilish zarur.

Delinkvent xulq-atvorga quyidagi holat va alomatlar kiradi: etiologiyasi turlicha bo'lgan psixopatik holatlar (psixopatiya – shaxs xarakteridagi tug'ma yoki keyinchalik o'zlashtirilgan ayrim psixologik alomatlar. Ular kishining ruhiy olamini ancha murakkablashtirib, psixik disgarmoniya holatini keltirib chiqaradi va kundalik hayotda anchagina muammolarni tug'diradi. Odatda psixopatiyada shaxs xarakterining ayrim jihatlari haddan tashqari rivojlangan, boshqalari esa aksincha, kam rivojlangan bo'ladi);

Psixopatiya va aksentuatsiyaning turli shakllari;

shaxs xarakterida psixogenetik shart-sharoitlar bilan bog'liq patologik reaksiyalarning namoyon bo'lishi; shaxs strukturasi kuzatiladigan nisbatan ancha turg'un ifodalanuvchi patologik alomatlar. Asosan balog'at davriga o'tish vaqtida kuzatiladigan bunday holatlarda 13-14 yoshli bolalar turli xil sabablar tufayli o'z joniga qasd qilishi mumkin. Suitsidal o'y-fikrlar o'smirlik davrining tipik patologiyalari jumlasiga kiritiladi. O'smirlik davridagi yoshlarning suitsidal xatti-harakatlari katta yoshli odamlarning nazarida mutlaqo asossiz (o'rinsiz, arziyasiz) bir bahona tufayli ro'y berishi mumkin.

Holbuki, bunday paytlarda o'smirlarning ichki ruhiy olamida juda kuchli emotsional jarayonlar kechishi mumkin.

Aksariyat hollarda o'z joniga qasd qilishni ixtiyor etgan o'smirlar ichki ziddiyatlarning yechimini topa olmaganligi, umidsizlikka tushib qolish,

o'zini yolg'iz his qilishi tufayli

ancha vaqtdan beri qiynalib yurgan bo'lishadi. Yoshi kattalar uchun o'smirlarning ruhiyatida kuzatilayotgan psixo-emotsional holat arziyasdek tuyulishi mumkin, ammo ular uchun yuzaga kelgan "muammo" juda jiddiy hisoblanadi. O'smirlarning bunday holati o'z qilmishining oqibatlarini yaxshi tasavvur eta olmaslik, hayotiy tajribasining pastligi bilan izohlanishi mumkin. Yosh bola va o'smirlarda o'lim kabi psixofiziologik holat haqidagi tasavvurlar katta yoshli odamlarnikidan ancha farqlanadi. Ular psixofiziologik jihatdan ushbu jarayon (o'lim)ni ortga qaytarib bo'lmazligini yaxshi anglab yetmagan bo'lishadi. Shuning uchun balog'at yoshiga yetmagan o'g'il-qizlarning suitsidal fikrlariga, bu boradagi niyatlariga nihoyatda jiddiy e'tibor qaratish kerak.

Patologik xarakter kasb etmaydigan xatti-harakatlar jumlasiga quyidagilar kiritiladi: mikro-ijtimoiy (oilaviy muhit, kichik jamoa) miqyosida kuzatiladigan, bola (o'smir) shaxsiyatining shakllanish jarayoni va uning ta'lim-tarbiyasida namoyon bo'ladigan o'ziga xos kamchiliklar (jumladan, biron bir kasb-korga qiziqishning yo'qligi, ijtimoiy hayotda zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi, ijtimoiy normalarga nisbatan e'tiborning pastligi va hokazo)ning namoyon bo'lishi;

Xulq-atvorning patologik va patologik bo'lmagan buzilishlarini quyidagi alomatlariga qarab ajratish mumkin: Shaxsning ruhiyatiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlar. Odatda bunday salbiy ta'sir ruhiy shikast yetkazilgan vaqtning o'zidagina emas, ya'ni lokal xususiyat kasb etmasdan, balki undan keyin ham ancha uzoq vaqt davomida o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Deviant xulq-atvor namoyon bo'lishining stereotipik xarakter kasb etishi. Deviant xulq-atvorning

polimorfik xarakter kasb etishi. Bunda turli vaziyatlarda shaxs jamoa (muassasa)da oʻrnatilgan tartib-intizomga nisbatan keskin norozilik bildirishga, asotsial, delinkvent, autoagressiv xatti-harakatlar qilishga moyillik koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. F.Xaydarov, N. Xalilova "Umumiy psixologiya" 247-bet. Toshkent-2010
2. N. Islomoilova, D.Abdullayeva "Ijtimoiy psixologiya" 110-125-betlar Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent - 2013
3. P. Ivanov, M.Zufarova "Umumiy psixologiya" 317-318-betlar Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2008.
4. G.X.Sharafuddinova – Umumiy psixologiya, Toshkent 2022

KONSENTRIZM ASOSIDA TADQIQOTCHILIK ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

F.U.Olloqulova

Termiz davlat Pedagogika instituti

Boshlangʻich taʼlimda matematika va ona tili

kafedrasi oʻqituvchisi

Kalit soʻzlar: konsentrlangan oʻquv koʻnikmalar, boshqaruv, tadqiqotchilik, konsentrizm, universal oʻquv koʻnikmalar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada konsentrizm asosida tadqiqotchilik elementlarini shakllantirishning pedagogic imkoniyatlari, oʻquv koʻnikmalarini rivojlantirish uchun bir qator talablari koʻrsatilgan.

Sifatli va zamonaviy taʼlimni taʼminlash, yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish va ularni global miqyosda raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlash hozirgi davrning global masalaridan sanaladi. Mamlakatimizda koʻplab yangi oʻquv dasturlari, oʻqitish uslubi va yondashuvlar, darsliklar, xalqaro baholash dasturlariga mos holda ishlab chiqilishi bu boradagi say-harakatlar natijasidir. Bu loyihalar oʻquvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash koʻnikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qoʻllay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu koʻnikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Maktab oʻquvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish, ularda ilmiy-tadqiqot koʻnikmalarini shakllantirishda boshlangʻich sinf davrida fan asoslari tarkibida tashkil etiladigan kichik tadqiqotlarning oʻrni katta. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tadqiqotchilik elementlarini konsentrizm asosida shakllantirish oʻquvchilarda ilmiy tadqiqotchilik elementlarini shakllantirishda bilimlarni integratsiyalash muammosini ham hal qilish imkoniyatini beradi.

Dastlab tadqiqot usuli tabiiy fanlar doirasida vujudga kelgan boʻlib, XX asrning boshlariga kelib pedagogik tizim sifatida shakllandi. Keyinchalik olimlar barcha fanlar doirasida tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish mumkinligi haqida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bu borada bir qancha munozaralar boʻlishiga qaramasdan, pedagoglarimiz yakdillik bilan ushbu tizimni aynan boshlangʻich sinflarda qoʻllash

samarali ekanligini tajribalarda ko'rsatib berdilar, chunki kichik maktab yosh davrida o'quvchilar tabiatiga ko'ra faol, qiziquvchan, yangiliklarni izlash, tadqiq qilish va tushinishga intiladi.

O'quvchining tadqiqotchilik salohiyati undagi ijodkorlik sifatlari bilan bog'liq bo'lib, bu izlanuvchi N.O'rinova qayd etganidek, an'anaviy tafakkur qoliplaridan voz kechish tafakkurning moslashuvchanligi, inson fe'l-atvorining originallik, tashabbuskorlik va nostandartlik kabi bir qator xususiyatlari orqali o'z aksini topadi [1].

Tadqiqotchi Sh.Boltayevaning fikricha, ijodiy faoliyat inson tashabbuskorligining barcha ko'rinishlari aks etadigan intuitsiya (zehn-farosat) va intiutiv fikrlash jarayoni bilan bog'liq muammoli ta'limni ham taqozo etadi. Shuningdek, inson faoliyati natijasida o'z mehnatidan qoniqishi, ish jarayonida yangiliklarni kashf etishga harakat qilishi, muammolarga o'rinli yechimlarni tavsiya qilishda motivatsiya ham ijodiy faoliyatning komponentlari sanalib, qo'yilgan masalani oldin egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan bog'lay olish hamda yangi vaziyatlarda qo'llay bilish, obyektning aniqlanmagan o'ziga xos xususiyatlarini izlash jarayoni ekanligi ham ta'kidlanadi.

Pedagog olim R.Jo'rayevning ilmiy izlanishlarida o'quvchilarda qobiliyatlar turlicha namoyon bo'lishi, o'qituvchining masalaga shu nuqtayi nazaridan yondashishi ulardagi ijodkorlik sifatlari rivojiga yo'l ochishi ta'kidlanadi. Uning fikricha, insonning ma'lum bir ishni bajarishi uchun zarur sanalgan bilimlarni egallashga intilishi, o'qib-o'rganishi, yaratuvchanligi, mustaqil tafakkur yuritishi, muhimni nomuhimdan farqlay bilishi, narsa-predmet yoki hodisalarning umumiy jihatlarini aniqlashi, taqqoslashi, analiz va sintez qilishi, noan'anaviy fikrlashiga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish ko'nikmalari majmuyi ijodkorlik qobiliyatini tashkil etadi. [2]

Professor R.X.Jo'rayev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning batafsil andazasini berib bo'lmaydi. O'qituvchining o'zi ham tadqiqotchi pozitsiyasini egallashi va bolalar bilan birga kashf etilgan ilmiy qoidalarga mos kelmaydigan biror fikrdan "ajablanishi" yoki qiziqarli muammoni ko'ra bilishi kerak. Aks holda "tadqiqot" atalmish ushbu faoliyat ko'rsatma bo'yicha beriladigan o'quv topshirig'iga aylanib qoladi". [3]

R.T.Tillayeva tadqiqot faoliyati davomida shakllantirilishi mumkin bo'lgan shaxsiy bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarga urg'u berib, "Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu o'quvchilarning tadqiqot faoliyati davomida shakllantirilishi mumkin bo'lgan shaxsiy bilim, ko'nikma, malaka va tajribalari yo'nalishlari mazmuni, qiymati, xulq-atvori me'yorlari majmuyidir. Bunda o'quv jarayonlari xususiyatlariga ko'ra muayyan vaqt mobaynida (qisqa yoki uzoq muddatli) tadqiq etilayotgan obyekt doirasida tanqidiy fikrlash, g'oyalarni ilgari surish, muammolarni aniqlashtirish, turli xil bilim manbalari bilan mustaqil ishlash, kuzatish, tadqiq etish, yechimlarni taklif qilish asosida noma'lum bo'lgan yangi bilimlarni izlab topish va o'zlashtirish algoritmi tushuniladi." [4]

Ta'limni modernizatsiyalash o'quv jarayonida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. O'quvchi shaxsining

mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash, tafakkur, ilmiy dunyoqarash, fanlararo integratsiya kabi sifatlar bilan ham bog‘liq funksiyalari ta‘limning shaxsga yo‘naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Bunda o‘quvchini ta‘lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta‘lim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlarini (yerkinlikka intiluvchanlik, mustaqillik, shaxsiy fikrlarning mutloq o‘ziga xos tizimga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini tasdiqlash ehtiyojining mavjudligi) hisobga olgan holda, o‘quvchiga uning o‘ziga xosligi (individualligi) ni rivojlantirish imkonini berish, uning o‘z-o‘zini takomillashtirishi, namoyon etishi uchun sharoit yaratish lozim. Zero, har qanday o‘quvchi o‘ziga va faqat o‘zigagina xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish va namoyon etishga intiladi. Ona tili darslarida konsentrizm asosida tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari: shakl, metod va vositalari asosida o‘quvchilarda tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish jarayonini baholash mezonlari (diqqatni jamlash, anglash, tasavvur qilish, mustaqil fikrlay olish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni) tavsiflaydi.

Ma‘lumki, inson ongi tashqi olam, u yashab turgan ijtimoiy hayot, ta‘lim-tarbiya, ijtimoiy faoliyat, umuman hayot to‘g‘risidagi bilim va tushunchalar majmuida shakllanadi, taraqqiy etadi. Insonlar xilma xil bo‘lgani kabi ularning faoliyati, ong taraqqiyoti ham turli xildir. Shunday bo‘lsada ularning yanada taraqqiy etishi uchun ta‘lim jarayoni juda ham muhimdir. Bunda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va ko‘lamini kengaytirishda, hayotiy muammolarni yechimini fan asoslariga tayangan holda yechish ko‘nikmalarini shakllantirish ya‘ni tadqiqotchilik elementlarini ona tili darslarida tashkil etiluvchi kichik tadqiqotlarga bevosita bog‘liq. Chunki hayotiy faoliyatning asosi eng avvalo ona tili fanlari negizida shakllantiriladi, ya‘ni og‘zaki va yozma nutq elementlarini shakllantirish, muloqot madaniyatini o‘zlashtirish va ijtimoiy munosabatlarga kirishimlilik ushbu fan orqali shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik elementlarini konsentrizm asosida shakllantirish jarayoni eng avvalo atrof olamni kuzatish, tahlil qilish, tajribalar ortirish, mavjud muammolarda mavjud ilmiy bazani safarbar eta olish, muammo mohiyatini tushunish, uni yechimlarini bosqichma bosqich izlab toppish, asoslash, umumlashtirish jarayoni ona tili fan mavzularini o‘zlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, o‘quvchilarda konsentrizm asosida tadqiqotchilik elementlarini ona tili darslarida shakllantirishda zamonaviy o‘qitish usullaridan, ya‘ni pedagogika fanining ilg‘or yutuqlaridan foydalanish, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan manbalarni yaratish kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifalari o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o‘z-o‘zini anglash xususiyatini shakllantirishdan iborat. Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tadqiqotchilik elementlarini konsentrizm asosida shakllantirishning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritish mumkin.

Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik elementlarini konsentrizm asosida shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, kichik

maktab yoshidagi o'quvchilar ta'lim olish uchun turli tayyorgarlik darajasiga, har xil ijtimoiy tajribaga ega bo'lgan holda maktabga tayyorlanadi. O'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda, ularning imiy dunyoqarashini shakllantirish, ulatning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda mantiqiy tafakkurni shakllantirish, ya'ni mantiqiy fikrlashni o'stirish samarali usul hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mantiqiy fikrlash tug'ma iste'dod emas, shu ma'noda uni shakllantirish hamda o'stirish mumkin va zarur.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning konsentrizm asosida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishda muammoli texnologiyalardan foydalanish qulaydir. Masalan, biz tavsiya qilayotgan "Idrok xaritasi" texnologiyasiorqali o'quvchi berilgan muammoni turli tomondan tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi uchun ham bu texnologiya ahamiyatli bo'lib bolaning qay darajada muammoni yechishga imkoniyati bor yoki yo'qligini, o'quvchini bilimi tuzilishini baholaydi. Texnologiyaga ko'ra, o'quvchilar asosiy mavzu (fikir, tushuncha)ni varoqning markaziga joylashtirib yozishadi. Har bir kichikroq fikr, tushuncha asosiy fikrdan tarmoq kabi ajraladi. Bu kichikroq fikrlardan qo'shimcha, aloqador fikrlar, tushunchalar tarmoq shaklida tarqaladi. O'quvchilar ma'lumotni aks ettirish uchun diagrammada rasmlar yoki so'zlar ishlatishlari mumkin. Bu usul o'quvchi bilimining tuzilishini aks ettiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida konsentrizm asosida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishda pedagoglar kabi ota-onalarning ham ta'siri katta bo'lib, bunda ularning ma'lumoti va bilim saviyasi muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning ota-onalari ularga maktabda olib borilgan ishlari yuzasidan suhbatlar tashkil etishlari, ulardagi qiziqish va mayllarni inobatga olishlari, ularni qiziqishlarini amalga oshirishlari uchun sharoit yaratib berishlari, turli konstruktiv to'garaklarga jalb etishlari o'quvchilarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga kata turtki bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik elementlarini shakllantirishda ularning psixik va yosh xususiyatlariga mosligini ko'rib chiqish lozimdir. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga kaladi. Bolalar psixologiyasi fanining asosiy masalasi o'quvchi psixik taraqqiyotini o'rganishdan iborat ekan, bu masalani hal qilishda, uni tushuntirib berishda turli xil qarashlarni o'rganish, tahlil qilish muhimdir. Shundan kelib chiqib, biz o'quvchilar psixik rivojlanishida faoliyatning va muloqotning o'rni masalasida bahs yuritish mumkin. Avvalo faoliyat psixologiyasi haqida to'xtalib o'tiladi. Faoliyat-bu faol, maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishga oid tafakkurning rivojlanishi, unda ijobiy yoki aksincha salbiy tasavvurning shakllanishi atrofida kechayotgan narsa-hodisalar, xususan, chetdan qabul qilinayotgan ma'lumotlarga to'g'ri munosabat bildirish, umuman voqelikni to'g'ri baholash ahamiyatga molikdir. Bugungi jamiyatda yuz berayotgan turli muammolarga nisbatan ongli munosabat ko'nikmasini shakllantirish. Yani bu muammolarni ko'ra olish, uni kuzatish, sabab va oqibatlarini aniqlashga uning samarali ijobiy yechimlarini qidirishga urinish kabilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўринова Н.М. Педагогларда иждоқорлик қобилиятини узлуксиз ривожлантириш усуллари // Uzluksiz ta'lim. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 49. 70
- Болтаева Ш. Бошланғич таълимда ўқувчилар иждоқ фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий педагогик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 10 б. 17
2. Жўраев Р.Х. Ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятини ташкил этиш // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 16.
3. Жўраев Р.Х. Ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятини ташкил этиш // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 7

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR O'SISHINING UMUMIY SHART-SHAROITLARI VA PSIXIK RIVOJLANISHI

Mamanova Shaxrizoda Ilhom qizi
Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya ta'lim yo'nalishi 1-kurs (Sirtqi) talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolaning muayyan xususiyatlari, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intilishlari va bolaning psixik rivojlanishida o'yin faoliyatining roli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'yin, faoliyat, harakat, maktabgacha yosh, sub'yekt, jism, rolli o'yin

Uch yoshli bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ulaming harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'mini yig'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin. Mazkur yosh xususiyatlarini tadqiq qilgan N.M.Shchelovanov, D.B.Blkonin va boshqalarning fikricha, bolaning uch yoshgacha o'sishida erishgan yutuqlari uning xulq-atvorini, bilish jarayonlarini sifat jihatdan ancha o'zgartirib yuboradi. Shunga qaramay, bolaning o'sishiga kattalarning ta'siri, roli yetakchiligicha qolaveradi, lekin asta-sekin o'sib borishi mustaqilroq bo'lishini ta'minlaydi. Ammo maktabgacha yoshdagi mustaqillik ko'pincha bolaning amaliy faoliyatda uncha kuchli bo'lmagan shaxsiy imkoniyati doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishida, nisbatan oz uchrasada, tobelikdan qutuuish tuyg'usida ro'yobga chiqadi. Bolaning mustaqilligi faqat uning jismoniy va aqliy imkoniyatida, kuchi yetadigan jarayonga nisbatan o'z munosabatini kattalarning ko'magisiz amalga oshirishida emas, balki o'zining kuch-quwati, qurbi yetmaydigan, muayyan amaliy ko'nikmalarini egallay olmagan turmush muammolarini hal etishida ham ko'rinadi.

Mazkur psixologik holatning o'ziga xos jihatlari Elza Keller, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina, E.G'oziev va N.Sodiqxo'jaevalarning mamlakatimizda, chet ellarda mashhur ona kundaliklarida yoritilgan hamda batafsil

tahlil qilingan. Maktabgacha yoshga qadar bolalarning psixologik xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda kimning ilmiy tadqiqoti va asari boʻlmasdan qatʼi nazar, unda vujudga keladigan xohish, istak hamda niyatning qondirilishi individni kamol toptirishga, shakllantirishga qaror qilgan kattalar tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi. Mana shu yosh davrida namoyon boʻladigan tarbiya jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki alomatlari (belgilari) ham psixologik tadqiqotlarda va ilmiy-psixologik adabiyotlarda koʻp marta taʼkidlangan boʻlib, birinchi navbatda oʻjarlik, negativizm, qaysarlik, inijlik kattalarning bolalar nazarida obroʻsizlanishi va qadsizlanishi kabi illatlar bilan bogʻliqdir. Qator ilmiy-psixologik manbalarda aytilishicha, shu yoshdagi bolalarning his-tuygʻulari na irodasida muhim oʻzgarishlar sodir boʻladi va bularning hammasi boladagi xudbinlik, oʻziga bino qoʻyish, aksilijtimoiy mayl, urinish, qaysarlik, rashk kabi illatlarda yaqqol aks etadi. N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinalarning oqilona mulohazalariga qaraganda, bolalardagi inijliklarning bosh omili atrofda odamlarning ular shaxsiga adolatsiz, notoʻgʻri, mensimay munosabatda boʻlmasdan iboratdir, bizningcha, olzini tan oldirishga intilish ham bunga sababdir.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini oʻrganan A.N.Golubevaning fikricha, noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish unda oʻjarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalarning oʻjarligi doimiy boʻlmaydi, masalan, oʻz tengdoshlariga nisbatan oʻjarlik qilish ahyon-ahyondagina roʻy beradi, ular asosan katta yoshdagi odamlarga, shunda ham muayyan tarbiyachiga yoki oila aʼzolarining birortasiga oʻjarlik qiladilar. A.N.Golubeva bolalardagi oʻjarlik barqaror emasligi sababli uning oldini olish mumkinligini uqtiradi. A.P.Larinning tadqiqotida esa noqulay va nomaqbul tarbiyaviy shart-sharoitlarda qaysarlik juda erta, hatto uch yoshda ham paydo boʻlishi ifodalangan. Dastlab oʻjarlik baʼzi-baʼzida roʻy beradi, lekin u hech qachon barcha katta yoshdagi kishilarga qaratilgan boʻlmaydi, binobarin, uning obʼekti alohida shaxs hisoblanadi. Bola xarakterining bu sifati muhitning notoʻgʻri tarbiyaviy taʼsiri oqibatida biror darajada barqarorlashsa, keyinchalik koʻpchilikka qaratilgan. umumlashgan shaklga kira boshlaydi. Oʻjarlik bir guruh odamlarga yoʻnalganligini ham uchratish mumkin. A.P.Larin toʻplagan maʼlumotlar oʻjarlikning asosiy sabablari - bolaning mustaqilligini cheklab qolinish, erkinlik tuygʻusi va tashabbusini soʻndirish va uning ong xususiyatini (anglash surʼatini) kamsitishdan iboratligini koʻrsatadi. Mazkur omillar bolaning kattalarga munosabati negizini tashkil qiladi va uning psixik oʻsishi davomida muayyan darajada oʻzgarib boradi. Ularning oʻzgarishi kattalarning bolaga u erishgan kamolot bosqichini hisobga olib, oqilona munosabatda boʻlmishiga bogʻliq. Agar maktabgacha davrda bolaga tegishli munosabatda boʻlmish, unda oʻjarlik vujudga kelishi mumkin. Bola xulqida muayyan sharoitning taʼsiri bilan paydo boʻlgan oʻjarlik va nojoʻya qiliqlar mavjudligi, uning psixikasida jiddiy oʻzgarish roʻy berganini, endi unga uning hozirgi oʻsish darajasini hisobga olib, munosabatni amalga oshirish zarurligini bildiradi. Bolaning psixikasida vujudga keladigan inqirozning sabablari: 1) kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatini; 2) xohish va istagini mustaqil holda tumiushda qaror toptirishga intilishini; 3) ayrim koʻzga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga urinishini; 4) oʻz holicha ish tutishni cheklash. Kattalar bolaning

ra'yiga, mustaqilligiga qarshi tunnadan, mumkin qadar istagiga, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o'z-o'zidan barham topadi, nizo yoki ixtilofning oldi olinadi. Oila va bog'chada shaxslararo munosabatlar ilmiy asosga qurilib, oqilona qoidaga suyanilsa va pedagogik odob (nazokat) doirasidan chetga chiqilmasa, yuqorida aytilgan ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin emas. O'jarlik, qaysarlik, kattalarga itoatsizlikning vujudga kelishi - bolaning kattalarga qaramlikdan qutulishga urinish va kichik maktabgacha yosh davridan maktabgacha davrga o'tishning tashqi ifodasidir. Mustaqillikka intilish mazkur yosh davridagi olzgarishlar, yangilanishlar, ya'ni shaxsiy xatti-harakatni va "men o'zim"ni anglashning mahsuli tariqasida ro'vobga chiqish kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.G'.E.G'oziyev Ontogenez psixologiyasi. Toshkent 2020-yil
- 2.Sh.A.Dustmuxamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbaeva Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent, TDPU
- 3.Ананьев Б.Г. К психофизиологии студенческого возраста / Современные психолого-педагогические проблемы высшей школы / Под ред. Б.Г. Ананьева, Н.В. Кузьминой. — Вып. 2. — Л.: ЛГУ, 1974.

KOMPETENTLIK VA PEDAGOGIK MAHORAT, KOMPETENSIYA VA UNING AHAMIYATI

Z.Ch. Alimov

Termiz davlat universiteti

"Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrası" o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni 5-moddasida "Tegishli malumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" deb e'tirof etoilgan. XXI asrda o'qituvchidan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogic mahurat, kompetentlik va ijodkorlik talab etadi. Ushbu maqolada pedagog faoliyatida kompetensiya va kompetentlikning o'rni, kasbiy muammolarni hal qilishdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Pedagoglarning qobiliyatlar va ularni shakllantirish, o'z ustida ishlashi haqida ko'rsatmalar va tavsiyalar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, pedagogik kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, kreativlik, qobiliyat, pedagogik mahurat, professional ta'lim

Ta'lim jarayonlarini tashkil qilishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv (qobiliyat va tayyorlik) yotadi. Ta'lim mazmunini aniqlash va rejalashtirishda kasbiy kompetensiya, qobiliyatlarini aniqlash, kasbiy muammolarni hal qilishga qodir mutaxassis quyidagilarni bilishi zarurligini nazarda tutadi:

- ✓ Tahlil qilish, talqin qilish va qo'llash qobiliyati, pedagogik tushunchalar va nazariyalar;
- ✓ O'z qadriyatlar tizimida o'zini aks ettirish qobiliyati;
- ✓ Nazariya va amaliyotni birlashtirish qobiliyati (ya'ni faoliyat) kompetentlikni namoyon qilishi mumkin bo'lgan yondashuv;

- ✓ O'qituvchining natijalarini baholash subyektning o'zaro tasirini oraliq bosqichlari;
- ✓ Jamoa va guruhda ishlash qobiliyati;
- ✓ Mos keladigan darsdan tashqari kompetensiyaning mavjudligi, ta'limdagi zamonaviy ijtimoiy natijalar.

O'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllanishini ta'minlash uchun ta'lim tarbiya jarayonlarida quyidagi ko'nikmalar va malakalarni shakllanishiga jiddiy e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi, xususan:

1. O'qituvchilarning faoliyatlari jarayonida rivojlanishlari diagnostikasini kuzatish, ularning o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish;
2. Ta'limning maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, kelgusida innovatsion rivojlanishni ta'minlaydigan faoliyatni to'g'ri tashkil etilganligini o'rganish;
3. Ta'lim jarayoni barcha subyektlari bilan samarali o'zaro aloqalarni o'rnatilganligi;
4. Qulay va xavfsiz ta'lim muhitini yaratilganligi, o'zgarishlarni hisobga olishi;
5. Shaxsiy kasbiy rivojlanishni tizimli ravishda loyihalashtirish, shuningdek o'zini-o'zi tarbiyalash ishlarini tashkil etishi.

Pedagogik kompetentlik – yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushiniladi. Kompetensiya va “kompetentlik” atamaları o'zakdosh bo'lib, ular G'arb ilmiy adabiyotida 60-yillarning oxiri, 70-yillarda paydo bo'ldi. “Kompetensiya” atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90-yillaridan e'tiboran ishlatila boshlagan. “Kompetensiya” atamasi “pedagogik madaniyat”, “kasbiy layoqatlilik”, “kvalifikatsiya” atamaları bilan ma'nodosh hisoblanib kelindi. “Kompetensiya” – muayyan muammo va masala, xodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo'lishni o'zida ifoda etadi. “Kompetentlik” – ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtiradi. [1, B. 158]

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi o'quv jarayonida shakllanishi kerak, chunki bu innovatsion ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish, o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirish jarayonlarini xavfsiz va qulay sharoitlarda tashkil etish uchun zarur bo'lgan ichki shaxsiy xususiyatlar majmuasidir. O'qituvchi faoliyatining barcha tarkibiy qismlarini amalga oshirish kerak, chunki o'qituvchi pedagogik, texnik va texnologik, ilmiy, nazariy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. O'qituvchida ushbu tayyorgarlikka mos kompetensiyalarni mavjudligi nafaqat o'qitish va ta'lim jarayonining mahoratli pedagogi bo'lishiga, balki ta'lim sifatini ta'minlashda shaxsan samarali ishtirok etishga imkon beradi.

Kasbiy kompetentlik va pedagogi mahorat - o'qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo'lib, u yillar davomida shakllanadi. U yuksak mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlar bilan birga uning

pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina o'z kasbiga layoqatli, istedodli bo'lishi mumkin.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatining o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyatlar sifatida qo'llaniladi. Masalan tadqiqotchi olim E.F Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishdagi integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchilikni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. [2, B. 201]

Shaxsiy kompetentlik – shaxsning ijtimoiy dunyoqarashi, ilmiy va intellektual salohiyati, kreativligi, shaxslararo muloqot-munosabatlariga faol kirisha olishi, konfliktlarni hal etishga taktik yondashuvi, kasbiy faoliyat talablariga muvofiq shaxsiy va kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi, faol hayotiy va fuqarolik pozitsiyasining qaror topganligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

Metodik kompetentlik - o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy faoliyatdir.

Ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni o'qituvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, bu kasbiy faoliyatda asosiy va maxsus kompetensiyalarni amalga oshirishni anglatadi:

- ✓ Oldindan rejalashtirish va ishlash natijalarini bashorat qilish qobiliyati;
- ✓ Yetarlicha yuqori darajadagi ilmiy, nazariy va uslubiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi;
- ✓ Ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish qobiliyati;
- ✓ Ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etilishini ta'minlash va nazorat qilish qobiliyati;
- ✓ O'qituvchining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy kompetensiyalarini o'z-o'zini takomillashtirishi;
- ✓ O'z-o'zini tarbiyalash, ilmiy va uslubiy yangiliklardan xabardor bo'lishi;
- ✓ Pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, kamchiliklarni bartaraf qilish qobiliyati.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo'lajak pedagog pedagogik mahoratni egallash, professional ta'lim jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnini topib keta olishi yosh o'qituvchining o'ziga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruxan tushkinlikka tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi. Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga va o'z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog'liq. Bularning barchasi kasbiy fazilatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaxsni har

tomonlarga rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim-tarbiya tizimini nazariy metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharaflil vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev S.X. Pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati// O‘quv uslubiy qo‘llanma. – Namangan, 2023. - №1. – 113b
2. Abdullayev S.X. Ergonomika, Malaka oshirish tizimining ergonomic muammolari. МГУ.Филиал МГУ имени М.В.Ломоносова в городе Ташкенте. Наука, просвещение и культура в системе непрерывного образования: проблемы и решения по реализации государственной программы. «Год внимания и заботы о старшем поколении» Материалы научно-практической конференции. Част 1. Стр 48-54. Ташкент 2015г.
3. Abdullayev S.X. Ta‘lim tizimida korporativ boshqaruv yondashuvini tadbiiq etish ta‘lim sifatini oshirish omili// Xalq ta‘lim jurnali. – Toshkent, 2015. - №3. -39-426.
4. Ishmuhamedov. R., Mirsoliyeva. M. O‘quv jarayonida innovatsion ta‘lim texnologiyalari. -T.: «Fan va texnologiya», 2014,60 b.

O‘SMIR O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARAGA YO‘NALTIRISHDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING VAZIFALARI

B.B.Qorjovov

Tremiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladigan fazilatlar yig‘indisining tuzilishi oqibat natijada konkret faoliyat talablari bilan belgilanadi va faoliyatning xar xil turlari uchun turlicha bo‘ladi. Konkret qobiliyatlar tuzilishini tashkil etadigan shaxs xislatlari va xususiyatlari orasida ba‘zi birlari yetakchi o‘rinni egallasa, ba‘zi birlari yordamchi rolni o‘ynaydilar.

O‘smir o‘quvchilarni biror mehnat soxasi bo‘yicha kasb tanlashga tayyorlash ta‘lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Buning uchun maktab jamoasi va maktabda faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi psixolog quyidagi vazifalarni bajarishlari kerak: Kasbiy layoqat – bu xar-bir odamning psixologik va psixofiziologik xususiyatlari yig‘indisidan iborat. Bunday sifatlar mehnat jarayonida erishilishi zarur bo‘lgan natijalarni amalga oshirish uchun kerakli maxsus bilimlar, malakalar va maxoratlarni egallash jarayonida namoyon bo‘ladi. Kasbiy layoqat tushunchasiga xar bir odamning o‘z mehnatidan mamnun bo‘lishi mehnatining natijalariga berilgan baxo ham kiradi.

Kasbiy layoqat - bu tug‘ma, tabiiy sifat emas, balki odamning mehnat faoliyati natijasida shakllanadigan xususiyatdir. Muayyan ijtimoiy-iqtisodiy haroitlarda sodir bo‘ladigan mehnat jarayonida faqat ayrim funksional sistemalar va kishining psixologik xususiyatlari shakllanadi Mmasalan, kasbni idrok qilish, xotira va tafakkurning rivojlanishi, balki kishi shaxs sifatida muayyan yo‘nalishdagi o‘ziga xos

xarakterga ega bo'lgan shaxsning ijtimoiy-professional tipik tarkib topadi. Ko'p hollarda kishining kasbi uning tashqi ko'rinishida ham o'z aksini topadi. Kasbiy layoqatni shakllantirish uchun zarur bo'lgan vaqt xar bir odamning tabiiy xususiyatlari, uning kasb tanlashdagi maqsadi va yetarli darajada o'z kasbiga tayyorligiga bog'liq. Odamning kasbiy layoqatliligini belgilashda yuqoridagi omillarning xar biri o'ziga xos ahamiyatga egadir. Bu kasbiy layoqatning shakllanishi doim individual jarayon ekanligini bildiradi. Bu jarayonni tashkil etishda mexnat kasbini egallovchi shaxslar uchun ozmi yoki ko'pmi darajada quday sharoitlar yaratishi mumkinligini unutmash zarur. Ammo insonning insonning tug'ma qobiliyatlariga nisbatan bunday deyish noto'g'ri. Chunki bir qancha ming yillar davomida odam biologik mavjudot sifatida o'zgargani yo'q, ammo uning kasblari, mexnat jarayoni doim o'zgarib kelmoqda. Shuning uchun odamning mexnat faoliyatiga doir tabiiy shart-sharoitlar universal xarakterda bo'lib, professional jixatdan odamga ta'siri betaraf (neytral) va xar bir kishiga keng doirada kasb tanlash imkonini beradi. Kasbiy layoqatni o'rganish jarayonida xar bir individga xos psixologik, psixofiziologik, tibbiy va antropologik belgilar xisobga olinishi kerak. Bunda foydalanish mumkin bo'lgan metodik vositalar: professional bilim va malakalarni belgilab beruvchi testlar («maqsadga erishuv testlari») xisoblanadi.

Kasb tanlash muammolari – bu insonlarning kasb egallash layoqatini o'rganish va baxolashga qaratilgan maxsus chora tadbirlardir. Kasb tanlashda quyidagi to'rtta omilga aloxida e'tibor beriladi: tibbiy, fiziologik, pedagogik va psixologik. Shunday qilib, o'zining mohiyat va belgilariga ko'ra kasb tanlashning samaradorligini baxolash ijtimoiy-iqtisodiy tadbir xisoblanadi. Metodlari bo'yicha esa kasb tanlash tibbiy biologik va psixologik tadbirlar qatoriga kiritiladi. Kasb tanlashda psixologik komponentining mohiyatini, xudi shuningdek, uning nazariy asoslarini kishi qobiliyatlarining diagnostikasi va prognozi tashkil etadi. Shu sababdan «professional tanlov» tushunchasi va «psixologik tanlov» ko'pincha bir biriga yaqin xioblanadi. Psixologik tanlovni muayyan bir jarayon va sistema sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Psixologik tanlov jarayoninig asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat; dastlabki diagnostik inflyatsiyani topi shva ularni qayta ishlash, mazkur kasb faoliyati bo'yicha shaxsning qobiliyatini Aniqlab beri shva Ayni vaqtda uning shu kasbga layoqati darajasini baxolash, prognozni tanlangan odamlarning professional layoqatliligiga doir ma'lumotlar asosida tekshirish (verifikatsiya).

Psixologik tanlov sistemasi asoslangan va eksperimental jixatdan tekshirilgan ijtimoiy diagnostik metodlarni, kerakli texnik vositalarni va tekshirish ishlarini olib borish chora tadbirlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqarii, psixologik tanlov olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, dastlabki diagnostik ma'lumotlarni talqin (interpretatsiya) va prognozlar tuzishni o'z ichiga oladi; menat faoliyatining muvaffaqiyatini baxolash belgilari (kreteriy), kasb samaradorligi (effektivligi)ni ko'rsatkichlari; prognozlarni qayta tekshirish (varifikatsiya) uchun lozim bo'lgan logik va matematik apparatlar ham psixologik tanlov sistemasiga kiradi. Bu sistemada diagnostik uslublardan foydalanish va bu uslublarning olib borilayotgan tanlov ishlarining asosiy diagnostikasini belgilashga qaratish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak: Kasbiy yo'nalishni belgilash juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Xar qanday kasbning shaxs intilishlari va xususiyatlariga mos kelishi mexnat samaradorligini ta'minlashning muxim sharti xisoblanadi. Xar-bir odamning intilishlari va qobiliyatlariga mos kasbni tanlash shaxsning rivoj topishi uchun muxim omildir. Maktab o'quvchilarida kasb tanlashga qiziqishni shakllantirish ijobiy ish faoliyati shakllanishiga yordam beradi va o'quvchilarda maqsadga intilish, qat'iylik va iroda mustaxkamligi kabi ijobiy sifatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G'oziyev, K.Mamedov. Kasb psixologiyasi. —T.: O'ZMU 2003.
2. R.Xudayberdiyev, „Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish“ „Surxon-nashr“-2023
3. M. Зерapo, M. Semago. „ Bolaning aqliy rivojlanishini baholash nazariyasi va amaliyoti ” Maktabgacha va boshlang"ich maktab yoshi. Sankt-Peterburg 2010
4. L.S. Vigotskiy „ Inson taraqqiyoti psixologiyasi “ M .: Eksmo nashriyoti 2005.

TALABALARNING OLIY TA'LIMGA PSIXOLOGIK MOSLASHISHIDA OILANING ROLI

*O'roqov Adham Abdimurod o'g'li
Termiz davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Yurtimizda yoshlarning ilm olishlariga e'tibor kuchli qaratilgan. O'quvchilar oliy ta'limga kirgach ularning ilm olishlari ta'lim sifatiga, oliygohning qulay shart sharoitlarigagina bog'liq emas, balki, talabalarning psixologik moslashishi ham muhim o'rin tutadi.

Talabalarning oliy ta'limga yaxshiroq moslashishida bir necha omil mavjud. Bulardan biri oiladir.

Talabalarning oliy ta'limga psixologik moslashishida oilaning roli juda muhimdir. Oliy ta'lim tizimiga kirish, yangi muhitga o'tish, va o'zini yangi talabalar hayotiga moslashtirish jarayoni yoshlar uchun psixologik nuqtai nazardan ko'p o'zgarishlarni va ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayonda ota-onalar va oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashi va psixologik yordam taqdim etishi talabalar uchun juda ahamiyatli. Oilaning psixologik moslashishdagi roli bir necha jihatdan namoyon bo'ladi:

1. Emotsional qo'llab-quvvatlash

Talabalarning oliy ta'limga kirish jarayonida ko'plab yangi stress faktorlariga duch kelishi mumkin: yangi do'stlar orttirish, yangi muhitga moslashish, akademik talablarga javob berish va shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish. Oila, ayniqsa ota-ona, talabaning bu jarayondagi hissiyotlarini tushunib, ularga qo'llab-quvvatlovchi, ishonchli va do'stona muhit yaratishi kerak. Bu talabaning o'zini xavfsiz va xotirjam his qilishi, stressni kamaytirishi, va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi mumkin.

2. Motivatsiya va qiziqishni oshirish

Oilaning oliy ta'limga yo'naltirilgan motivatsiyasi va qo'llab-quvvatlashi talabaning maqsadlariga erishish uchun kuchli turtki bo'lishi mumkin. Ota-onalar, o'z farzandlariga bilim olishning ahamiyatini tushuntirish va ularga yuqori maqsadlar qo'yishda yordam berish orqali talabalarga motivatsiya bera olishadi. Bu motivatsiya ularni darslarga, ilmiy ishlarga va boshqa ijtimoiy faoliyatlarga ko'proq jalb qiladi.

3. Qiyinchiliklar bilan kurashishda yordam

Oliy ta'limga kirgan talaba ko'pincha yangi sinovlar va muammolarga duch keladi. Ota-onalar bu jarayonda qiyinchiliklarga qanday qarshi turish, stressni boshqarish va muvaffaqiyatga erishish bo'yicha maslahatlar berishlari mumkin. Ular farzandlariga, ayniqsa, imtihonlarga tayyorlanish, vaqtni boshqarish va stressni kamaytirish haqida yordam bera olishadi. Oila a'zolarining shunday psixologik ko'magi talabaning psixologik moslashuvini osonlashtirishi mumkin.

4. O'zaro aloqalar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash

O'qish jarayonida ijtimoiy aloqalar muhim rol o'ynaydi. Oila o'z farzandlariga yangi do'stlar orttirish, jamoada ishlash, va ijtimoiy muhitga moslashish haqida maslahatlar berish orqali ularning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Buning natijasida talaba yangi guruhda o'zini erkin va qulay his qilishga yordam topadi.

5. Moliya va amaliy qo'llab-quvvatlash

Oliy ta'lim talabalari ko'pincha moliyaviy bosimga duch kelishadi. Oila bu jihatdan ham qo'llab-quvvatlash ko'rsatishi mumkin. Oila a'zolarining moliyaviy yordam va maslahatlari talabaning akademik yutuqlariga erishish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi va ularni moliyaviy noaniqliklardan saqlaydi. Shuningdek, oila amaliy yordam (masalan, turar joy, oziq-ovqat, transport) orqali ham farzandiga yordam berishi mumkin.

6. Shaxsiy o'sish va o'zgarishga tayyorlik

Oliy ta'limga kirgan talaba o'zining shaxsiy rivojlanishida katta o'zgarishlarga duch keladi. Oila a'zolarining psixologik qo'llab-quvvatlashi, ularni o'zgarishlarga ochiq va tayyor qilishga yordam beradi. Ota-onalar, farzandlariga yangi vazifalarni bajarishga va hayotdagi yangi holatlarni boshqarishga yordam berish orqali, ularni o'zining shaxsiy o'sish jarayonida mustahkamlashadi.

Oilaning talabaning oliy ta'limga moslashishida roli katta. Oila faqat tashqi yordam ko'rsatishdan tashqari, talabaning psixologik holatini, motivatsiyasini va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga katta hissa qo'shadi. Ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari va yaqin do'stlar talabaning oliy ta'limdagi muvaffaqiyatli yo'lini osonlashtirish uchun muhim qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Talabalarning oliy ta'limga moslashishi psixologik jihatdan murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda oila eng muhim psixologik yordam manbai hisoblanadi. Ota-onalar va oila a'zolarining faol va tushunarlik qo'llab-quvvatlashi talabaning yangi muhitga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi. Ular talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi, stressni boshqarishda yordam berishi, va ijtimoiy integratsiyani qo'llab-quvvatlashi orqali talabaning o'z yo'lini topishida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar Ro'yxati:

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Boudah, A. (2014) *Psychosocial Adaptation of Students to University Life: The Role of Family Support*. *Educational Psychology Review*.
3. Schwarzer, R., & Knoll, N. (2007). *External Resources and Coping with Stress: The Role of Social Support in University Students' Adaptation*. *Journal of Educational Psychology*, 99(3), 481-492.
4. Rosen, L. D., & Schneider, L. (2008). *Coping with Change: The Role of Parental Involvement in University Students' Emotional Well-Being*. *Journal of Applied Developmental Psychology*.
5. Miller, S. (2016). *Family and Student Success in Higher Education: A Meta-Analysis of the Support Systems of First-Year Students*. *Journal of College Student Development*, 57(4), 341-350.

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIGA CHET TILLARINI O'RGATISHNING INTERFAOL USULLARI (6-SINF O'QUVCHILARI MISOLIDA)

Umarova Iroda Umarovna
TISU magistranti

Yuqori sinf o'quvchilariga chet tillarini o'rgatish ham yoqimli, ham qoniqarli bo'lishi mumkin. Interfaol usullardan foydalangan holda o'qituvchilar o'quvchilarni faol jalb qilishlari va ularning o'rganish tajribasini yaxshilashlari mumkin. Ushbu maqolada til o'rganishni 6-sinf o'quvchilari uchun qiziqarli va samarali qilish mumkin bo'lgan turli strategiya va tadbirlar muhokama qilinadi.

O'yinga asoslangan ta'limning ahamiyati. O'yinga asoslangan ta'lim bolalar uchun universal vosita bo'lib xizmat qiladi va tilni rivojlantirish uchun zarurdir. O'yinni til o'rgatish jarayoniga integratsiyalash o'qituvchilarga o'quvchilarning eshitish qobiliyatini, so'z boyligini va ijtimoiy ko'nikmalarini oshirish imkonini beradi. Bu erda bir nechta o'yinga asoslangan faoliyatni hisobga olish kerak:

- **Harakat so'zlari:** "yugurish", "sakrash", "qarsak urish" va "aylantirish" kabi buyruqlarni maqsadli tilda chaqirib, o'quvchilarni bu harakatlarni birgalikda bajarishga undash. Bu nafaqat harakat fe'llarini o'rganishga yordam beradi, balki to'plangan energiyani chiqarishga yordam beradi.

- **Ta'lim muhiti:** Uyda yoki sinfda yoshga mos kitoblar va qulay o'rindiqlar bilan to'ldirilgan rag'batlantiruvchi maydon yarating. Yodlashni osonlashtirish uchun o'yinchoqlar va narsalarni maqsadli tildagi tasvirlar va so'zlar bilan belgilang.

- **San'at faoliyati:** Talabalarga so'zlarni bo'yash, chizish va kuzatish uchun asosiy badiiy materiallarni taqdim eting. Rang berish faoliyati bilan shug'ullanish yozish uchun juda muhim bo'lgan nozik vosita ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- **Davom etuvchi hikoya:** Kundalik tartiblarni muntazam ravishda aytib bering va maqsadli tilda yangi lug'atni kiriting. Tanish iboralarni takrorlash tilni ochish va tushunishga yordam beradi.

Til o'rganish uchun qiziqarli tadbirlar O'yinga asoslangan o'rganishdan tashqari, bir nechta interaktiv tadbirlar chet tilini o'qitishni yaxshilashi mumkin:

- **Vazifaga asoslangan ta'lim:** Talabalardan maqsadli tildan real vaziyatlarda foydalanishni talab qiladigan vazifalar va loyihalarni loyihalash. Ushbu yondashuv amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va jamoaviy ishlashni rag'batlantiradi.

- **O'yinga asoslangan ta'lim:** Til o'rganishni yanada qiziqarli qilish uchun darslarga o'yinlar va hamkorlikdagi raqamli vositalarni qo'shing. O'yinlar ravonlikni oshirishi va faol ishtirokni rivojlantirishi mumkin.

- **Hikoya:** Chet tilini o'rgatish va o'rganish uchun qiziqarli usul sifatida hikoya qilishdan foydalaning. Bunday yondashuv talabalarni mahalliy madaniyatga singdirishi va boy til tajribasini yaratishi mumkin.

- **Raqamli manbalar:** Ko'proq interaktiv va qiziqarli darslar yaratish uchun AI vositalari va boshqa raqamli resurslardan foydalaning. Texnologiya yangi g'oyalarni taklif qilishi va sinf tajribasini boyitishi mumkin.

- **Videodarlar:** Talabalarni ona tilida so'zlashuvchilar bilan tanishtirish va tinglash ko'nikmalarini oshirish uchun maqsadli tilda video kontentni joriy qiling. Bunday darslar avtomobil safarlariga yoki belgilangan til amaliyoti vaqtlariga kiritilishi mumkin.

Xulosa. Interfaol yondashuvni amalga oshirish orqali o'qituvchilar chet tillarini o'rganayotgan o'rta maktab o'quvchilari uchun jonli va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin. O'yinga asoslangan o'rganish, vazifalarga yo'naltirilgan loyihalar, o'yinga asoslangan faoliyat va raqamli vositalar kabi strategiyalar til ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishi va tillarni o'rganishga ishtiyoqni uyg'otishi mumkin. Ushbu interfaol usullar 6-sinf o'quvchilariga o'rganish sayohatidan zavqlanib, chet tili bo'yicha mustahkam poydevor yaratish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Karpenko M. P. Perspektivi razvitiya sistema vysshego obrazovaniya na osnove "Konsepsii vuza- 2030" / M. P. Karpenko // Vestnik REAN. 2005. T. 5. №3. S. 27-34.

2. Karimova R. O'zbek raqslari. T. 2003 y.

TALABALARNING GURUHDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARIDA OILA MUHITINING TA'SIRI

*Haydarova Sarvinoz Saydullayevna
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada talabalarning guruhdagi shaxslararo munosabatlarida oilaviy munosabatlar o'rni. Oilani shaxsning rivojlanishida psixik ta'sir ko'rsatishi, oilaviy munosabatlarda yoshlar shaxsini tarbiyalashning psixologik asoslari ilmiy yoritilgan.

Kalit so'zlar: mavqey, status, talaba yoshlar, psixik xususiyatlar, oilaviy munosabat.

Аннотация: В статье раскрывается роль семейных отношений для поиска студентами своего места и положения в группе, психологическое влияние семьи на развитие личности, психологические основы воспитания личности молодых людей в семье. отношения научно освещены.

Ключевые слова: положение, статус, студенческая молодежь, психические особенности, семейные отношения.

Abstract: In the article, the role of family relations for students to find their place and position in the group, the psychological effect of the family on the development of the individual, the psychological foundations of the upbringing of the personality of young people in family relations are scientifically covered.

Key words: position, status, student youth, mental characteristics, family relationship.

Talabalarning muloqot sub'yektlari sifatidagi xususiyatlarini rivojlanishning ijtimoiy holati nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin. Talabalik davri etakchi faoliyatning o'zgarishi, ijtimoiy maqomning o'zgarishi, yoshlarning yangi ijtimoiy rolga kirishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarning ahamiyati muxim sanaladi ko'pincha iqtisodiy va psixologik jihatdan ota-onasiga qaram bo'ladi. Ijtimoiy etuklikning rasmiy boshlanishi va uning haqiqiy "boshlanmaganligi" o'rtasidagi bunday tafovut ushbu rivojlanish davrining jiddiy qarama-qarshiligidir. Talabalik yoshi bu qarama-qarshilik bartaraf etilganda, faol yo'nalish va yangi ijtimoiy funksiyalarning rivojlanishi sodir bo'lgan davrda shaxs uchun bosqich bo'ladi. Oliy o'quv yurtida talaba maqomida qolish yangi vakolatlar va yangi xulq-atvor strategiyalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ular ko'pincha dominant, mustaqil xatti-harakatlar bilan bog'liq. Talabalarda bularning barchasi muloqot atrofida sodir bo'layotgan hamma narsani nazorat qilish, ular his qilayotgan yoki o'ylayotgan narsalarga ta'sir qilish istagi bilan ajralib turadi. Oliy o'quv yurtida talaba maqomida qolish yangi vakolatlar va yangi xulq-atvor strategiyalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ular ko'pincha dominant, mustaqil xatti-harakatlar bilan bog'liq. Talabalarda bularning barchasi muloqot atrofida sodir bo'layotgan hamma narsani nazorat qilish, ular his qilayotgan yoki o'ylayotgan narsalarga ta'sir qilish istagi bilan ajralib turadi. Guruhning o'zaro ta'sir mexanizmlari muammosining muhim xususiyatlardan biri shaxslararo o'zaro ta'sir - bu shaxsning guruhdagi statususiga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Jahon miqyosida talaba va ta'lim dargohlari munosabatlari va o'quv faoliyatiga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda albatta talabalarning guruhlarda tutgan o'rni anchayin muhim sanaladi.

Pespublikamizda so'nggi yillarda «Oliy ta'lim muassasalapida talabalar psixologiyasi ularning ijtimoiy guruhlarda tutgan o'rin stpategik yo'nalishlariga e'tibop qapatilmoqda. Milliy mustaqillik xalqimiz manfaatleri yo'lida mamlakat xayotining barcha jabhalarida keng ko'lamli tub islohotlarni amalga oshirish, davr talablariga monand ravishda modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarini sobitqadamlik bilan ro'yobga chiqarish imkoniyatini bermoqda. Ushbu o'z umumiy

maqsadiga ko‘ra milliy istiqbol asoslarini mustaxkamlashga qaratilgan isloxotlarning istiqbolga yonaltirilgani jihatidan eng muhim yo‘nalishi, shubhasiz, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi tizimini takomillashtirishga, mustaqillik davrida qo‘lga kiritilgan ulkan yutuqlarni saqlash va ko‘paytirishga qodir shaxslarni voyaga yetkazishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada qullab quvvatlash bilan bogliq. Talaba shaxsini xar tomonlama rivojlantirish uchun o‘quv faoliyati bilan birgalikda boshqa faoliyat turlari xam zarur. Ijtimoiy siyosiy faollikni oshirish talabaning ma‘naviy yetilishida, ijtimoiy tajribani to‘plashda, amaliy ishda uchraydigan tashkiliy vazifalarni hal qilishda jamoatchilik faoliyatlari muxim zamin xisoblanadi. Jamoatchilik ishlari bilan shugullanadigan talabalar uning bulg‘usi faoliyat uchun ahamiyatini tushunib yaxshi o‘qishadi, ularda ijobiy o‘quv motivlari kuchli. Oliy o‘quv yurtiga topshirgunga qadar jamoat ishlari oylab shugullangan abituriyentlarning ko‘p qismi, u yoki bu jamoat topshiriqlarini bajarishni davom ettiradilar, bu esa oldingi malaka va qiziqishlarning barkarorligidan dalolat beradi. Jamoatchilik faoliyatiga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishning o‘zi yetarli emas, balki har bir jamoat topshirigi talaba tomonidan ijobiy idrok etilishi muhim. «Jamoat ishlari bilan shug‘ullanishga sizni nima undaydi» degan savolga talabalar o‘zlarini ko‘rsatish va shaxslarini rivojlantirish motivlari yuksak ahamiyatga egaligini ko‘rsatganlar. Birinchi o‘rinda ijtimoiy siyosiy yo‘nalgan motivlar odamlarga foyda keltirish motivi ko‘rsatildi. Ikkinchi o‘rinda topshirilgan ish uchun guruh jamoasi oldida javobgarlik hissi, oliy o‘quv yurtidagi ishlardan xabardor bo‘lish istagi turadi. Jamoatchilik ishlari bilan shugullangan talabalarda muloqotga kirishuvchanlik, ko‘pchilik oldida o‘zini tuta bilish, ma‘suliyat, mustaqil fikrlash kabi shaxs xislatlari rivojlanadi.

Shunday qilib, jamoatchilik ishining psixologik xususiyatlari talabalarning ularga munosabatida, jamoat ishlarida ishtirok etish motivlarida, uning shaxs sifatida shakllanishiga

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmudov I.I. “Boshqaruv psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir: AXolbekov. T. DJQA „Rahbar“ markazi; „YUNAKS-PRINT“ MChJ, 2006. 230-
2. Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. -SPb., „Piter“, 1999. 688- s.
3. Akramova F.A. “Oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratishning ijtimoiy-psixologik asoslari”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2014.
4. Karimova V. Oila himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi // HQUQUQ BA BURCH. – №5. – Toshkent, 2007. – B. 31.
5. Qadirova A.T. O‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixol. fan. nom. dis. – Toshkent: 2007. –B. 36.
6. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent, – B. 15

SUD JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI VA UNING ADVOKATLAR PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

TerDU magistranti
Maxmanova Munisa Erkin qizi.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi so'nggi yillarda dunyo bo'ylab ko'plab sohalarda inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Sud tizimi ham bunday o'zgarishlardan istisno emas. Advokatlar faoliyatida, sud jarayonlarida, xususan, hujjatlarni tahlil qilish, dalillarni tekshirish va qarorlar qabul qilishda SI texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bu o'zgarishlar faqatgina sudning samaradorligini oshirish bilan cheklab qolmay, balki advokatlar psixologiyasiga ham o'zgarishlar kiritmoqda. Ushbu tezisdagi sun'iy intellektning sud jarayonlarida o'rni va uning advokatlar psixologiyasiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

I. Sun'iy intellektning sud jarayonlaridagi roli

1. Hujjatlarni tahlil qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash

SI texnologiyalari sud jarayonlarida advokatlarga katta yordam beradi. Misol uchun, hujjatlarni tezda tahlil qilish, pretsedentlarni topish, zaruriy qonun hujjatlarini izlash va boshqa huquqiy ma'lumotlarni topish uchun foydalaniladi. Bu, o'z navbatida, sud ishlarini tezlashtirish va yanada aniqroq qilishga yordam beradi.

2. Dalillarni yig'ish va tekshirish Sun'iy intellekt texnologiyalari video, audio va boshqa raqamli dalillarni analiz qilishda, ularning haqiqiylikni aniqlashda ham qo'llaniladi. Masalan, yuzni tanib olish va ovozdan identifikatsiya qilish tizimlari orqali dalillarni ishonchli ravishda tekshirish mumkin.

3. Tushunish va qaror qabul qilish jarayonini yaxshilash

SI texnologiyalari advokatlarga noaniqliklarni aniqlash va to'g'ri yondashuvni tanlashda yordam beradi. Bunda, algoritmlar yordamida ko'plab faktlar va ijtimoiy yoki huquqiy holatlarni o'rganish va tahlil qilish osonlashadi.

II. Advokatlar psixologiyasiga ta'siri

1. Stress va tashvishning kamayishi SI texnologiyalaridan foydalanish advokatlarga o'z ishlarini samarali va tez bajarishga yordam beradi, bu esa ularning ish bilan bog'liq stress va tashvishini kamaytiradi. Texnologiyalar yordamida advokatlar noaniq va murakkab vaziyatlarni tezda hal qilishlari mumkin, bu esa ularning ishonch hissini oshiradi.

2. Innovatsion yondashuv va yaratish imkoniyatlari SI yordamida advokatlar ishlarining murakkabligini kamaytirish bilan birga, yangi va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, o'z navbatida, ularning ijodiy salohiyatini oshiradi va ularni yangi usullarni qo'llashga undaydi.

3. Kognitiv yukni kamaytirish Sun'iy intellekt yordamida qog'ozli hujjatlar va ma'lumotlar bilan ishlashda kognitiv yukni kamaytirish mumkin. Advokatlar hujjatlarni avtomatik tarzda tahlil qilib, asosiy ma'lumotlarni tezda olishlari mumkin, bu esa ularning ish jarayonini samarali qiladi.

4. Yangi psixologik qiyinchiliklar Biroq, texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq yangi psixologik qiyinchiliklar ham yuzaga kelmoqda. Advokatlar ba'zan sun'iy intellektga to'liq ishonmasliklari mumkin, bu esa ularning ish faoliyatiga ta'sir

qilishi mumkin. Shuningdek, texnologiyalarga ko'proq tayanish ba'zida ularning intuisiya va kognitiv qobiliyatlarini zaiflashtirishi mumkin.

III. Xulosa. Sun'iy intellekt sud tizimida samaradorlikni oshirishi, ishlarni tezlashtirishi va yanada aniqlik kiritishi mumkin. Shu bilan birga, u advokatlar psixologiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi: stressni kamaytiradi, yangi yondashuvlarni keltirib chiqaradi va kognitiv yukni engillashtiradi. Biroq, texnologiyalarga to'liq ishonish va unga o'rganish jarayonida yangi psixologik qiyinchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellektning sud tizimidagi roli va uning advokatlarga ta'sirini kuzatib borish va etiborga olish zarur.

SHAXS PSIXOLOGIYASIDA BADIY ASAR KITOBLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

OLOMONOVA S.

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Badiiy adabiyot nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun zaruriy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, ta'lim kitob, fan, o'z-o'zini anglash, adabiyot, san'at va kino, shaxs, asar.

Hozirgi zamonaviy texnika va texnologiyalar asrida insonlarni ommaviy madaniyat qurshovidan asrab qoluvchi eng ma'naviy boylik bu badiiy adabiyotlar hisoblanadi. Hozirgi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlarni kitobxonlikka keng jalb qilish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, har bir oliy ta'lim muassasasi balki mahallarda ham kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib kelinmoqda. Bu bilan biz juda katta natijalarga erishishimiz balki ma'naviy dunyoimizni kengaytirishimiz mumkin. Bu hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Albatta, shaxs psixologiyasida badiiy asarlarning o'рни haqida matn shaklida keltiraman: Badiiy asarlar, xususan adabiyot, san'at va kino, shaxs psixologiyasida muhim rol o'ynaydi. Ular inson ruhiyatini, his-tuyg'ularini va o'z-o'zini anglash jarayonini chuqur tasvirlaydi. Badiiy asarlar orqali o'quvchilar emotsional tajriba oladi, bu esa ularning empatiya hissini rivojlantiradi. O'quvchilar badiiy asarlar orqali boshqa insonlarning ichki dunyosini tushunishga harakat qilib, o'z hissiyotlari va muammolari bilan yuzma-yuz keladilar.

Shuningdek, badiiy asarlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Asarlarni muhokama qilish jarayonida odamlar o'z fikrlarini bildirish, boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatini topadilar. Bu esa shaxslararo muloqotni rivojlantirib, ijtimoiy ko'nikmalarni oshiradi.

Madaniy anglashni rivojlantirishda ham badiiy asarlarning roli katta. Ular turli madaniyatlarni va ijtimoiy kontekstlarni o'rganishga yordam beradi, bu esa shaxsning global qarashini kengaytiradi. Badiiy asarlar orqali insonlar hayotning turli jabhalarini va muammolarini o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.

Shuningdek, badiiy asarlar ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlilni rivojlantiradi. O'quvchilar asarlarni o'qish jarayonida qahramonlar va syujetlarni tahlil qilishadi, bu esa ularning fikrlash qobiliyatini oshiradi. Badiiy asarlar orqali shaxs o'z ijodkorligini ham rivojlantiradi, chunki ularni yaratish jarayoni yaratuvchanlikni talab etadi.

Badiiy asarlar shaxs psixologiyasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular ichki dunyoni kengaytiradi, boshqalar bilan aloqalarni mustahkamlaydi va turli ijtimoiy holatlarni tushunishga yordam beradi. Shu sababli, badiiy asarlarni o'rganish va ulardan foydalanish shaxsning umumiy rivojlanishi uchun zarurdir. Badiiy asarlar inson shaxsiyatining shakllanishida va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular ruhiy holatlar, hissiyotlar va ijtimoiy munosabatlarni chuqur anglash imkonini beradi. Badiiy asarlar orqali o'quvchilar nafaqat o'z his-tuyg'ularini, balki boshqalarining hissiyotlarini ham tushunish imkoniga ega bo'ladilar.

Badiiy asarlarning emotsional ta'siri shaxsni o'z hissiyotlari bilan yuzma-yuz kelishga undaydi. O'quvchilar qahramonlar orqali o'zlarini ko'rishlari, ularning dardlari va quvonchlariga sherik bo'lishlari mumkin. Bu jarayon o'z-o'zini anglash va o'z his-tuyg'ularini izohlashda yordam beradi, shuningdek, empatiya va rahm-shafqat hissini rivojlantiradi. Ijtimoiy aloqalar nuqtai nazaridan, badiiy asarlar odamlar o'rtasida fikr almashish, muloqot qilish va o'zaro tushunishni kuchaytiradi. Ular o'zaro suhbatlar uchun boy mavzu beradi, bu esa shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Badiiy asarlar madaniyat va tarix haqida bilimlarni ham taqdim etadi. Odamlar turli xalqlarning hayot tarzini, urf-odatlarini va ijtimoiy muammolarini badiiy asarlar orqali o'rganadilar. Bu esa ularning global fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va turli madaniyatlarni tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, badiiy asarlar ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O'quvchilar asarlarni o'qish, tahlil qilish va baholash jarayonida ijodiy qobiliyatlarini oshirishadi. Badiiy asarlarni yaratish jarayoni shaxsning yaratuvchanligini rag'batlantiradi, bu esa uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Badiiy asarlar shaxs psixologiyasi va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ular ruhiy holatlarni, madaniy tushuncha va ijodiy fikrlashni kengaytiradi. Shunday qilib, badiiy asarlarni o'rganish va ulardan foydalanish shaxsning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarurdir. Badiiy asar kitoblari shaxs psixologiyasini shakllantirishda va tarbiyaviy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Ular insonlarni o'z ichki dunyosini anglashga, his-tuyg'ularini ifoda etishga va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Badiiy asar kitoblari inson shaxsiyatini rivojlantirishda, psixologik ongni oshirishda va tarbiyaviy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat bilim beradi, balki shaxsning ichki dunyosini boyitadi va turli hissiyotlarni anglashda yordam beradi.

1. Emotsional Rivojlanish

Badiiy adabiyot asarlarini o'qish orqali insonlar turli xil hissiyotlarni boshdan kechirishadi. Qahramonlar orqali ularning muammolari va yutuqlari bilan tanishib, o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini anglash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu jarayon emotsional intellektni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Moral va Etika.

Badiiy asarlar ko‘pincha axloqiy muammolarni ko‘taradi va o‘quvchilarni o‘z fikrlarini shakllantirishga undaydi. Adabiyotda aks etgan konfliktlar va ularning yechimlari, shaxsning etik qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarlarni o‘qish orqali insonlar yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik haqida chuqurroq fikr yurita boshlaydilar.

3. Ijtimoiy va madaniy anglash.

Badiiy asarlar ijtimoiy muhit va madaniyatni aks ettiradi. Ular orqali o‘quvchilar turli xalqlar, madaniyatlar va hayot tarzlari bilan tanishishadi. Bu esa o‘z navbatida, ijtimoiy muhitga nisbatan xushmuomalalik va bag‘rikenglikni rivojlantiradi.

4. Tanqidiy fikr yuritish

Badiiy adabiyot nafaqat ma‘lumot beruvchi, balki fikr yuritishga ham undovchi vositadir. O‘quvchilar asarlar orqali turli nuqtai nazarlarni o‘rganadilar va ularni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Bu jarayon shaxsiy qarorlar qabul qilishda va muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

5. Motivatsiya va ilhom

6. Shaxsiy his-tuyg‘ularni anglash

Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Qahramonlarning hayotiy muammolari va tajribalari, o‘quvchilarga o‘z hayotlari bilan bog‘lanish va o‘z his-tuyg‘ularini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Badiiy asarlar ko‘pincha muvaffaqiyatga erishish, o‘z orzulariga erishish haqida hikoya qiladi. Qahramonlarning kurashi va muvaffaqiyatlari o‘quvchilarga ilhom bag‘ishlaydi va o‘z maqsadlariga erishishda motivatsiya beradi

Xulosa

Badiiy asar kitoblari shaxs psixologiyasida tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular emotsional rivojlanish, empatiya, axloqiy qadriyatlar, tanqidiy fikr va ijtimoiy anglashni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, badiiy adabiyot nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun zaruriy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy asar kitoblarining tarbiyaviy ahamiyati shaxs psixologiyasida aks etadi. Ular emotsional rivojlanish, moral va etika, ijtimoiy va madaniy anglash, tanqidiy fikr yuritish va motivatsiyani oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, badiiy adabiyotni o‘qish har bir insonning shaxsiy rivojlanishi uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdulla Qodiriyning “Fozil odamlar shahri” 1924-yil
2. Abdulla Qohhorning “Sarob” Romani 1934-yil
3. Xurshid Davron “Falsafa va axloq” 1999-yil chop etilgan
4. Hayriniso G‘aniyevaning “Psixologiyasi va adabiyot: inson ruhiyati va badiiy tasvir” 2023-yil chop etilgan

НИЗОЛАРНИ МУҚОБИЛ ҲАЛ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ ТУШУНЧАСИ ВА ТУРЛАРИ. МЕДИАЦИЯНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

*Хушбоқова Нигора Ғайрат қизи
ТерДУ*

Кўп асрлар давомида медиация давлатлараро алоқаларда, оилалар, қўшнилар, сиёсий партиялар, профессионал, диний ва бошқа жамоатчилик гуруҳлари ўртасида ва парламентда юзага келадиган низоларни бартараф этишда муваффақиятли қўлланилди.

Бизнинг давримизда медиация ва унинг таркибига кирадиган усулларнинг аҳамияти каттадир. У нафақат оила ва меҳнат низоларида, балки ҳар қандай даражадаги мулкӣ муносабатларда, жумладан, компаниялар, корпорация менежменти ва унинг акциядорлари ўртасидаги, шунингдек, халқаро ҳуқуқ субъектлари орасидаги қарама-қаршиликларни бартараф этишда қўлланилмоқда.

“**Медиация**” сўзи латин тилидаги “*mediare*” сўзидан олинган бўлиб, воситачилик қилиш, келиштириш мақсадида аралашуш деган маъноларни билдиради. Шунинг учун юридик адабиётларда медиация ва воситачилик тушунчалари синоним ҳисобланади.

БМТ уставининг 33-моддасида медиация (воситачилик) низоларни ҳал этиш воситаси сифатида тан олинган. Европа Парламенти ва Кенгашининг 2008-йил 21-майдаги ЕИ 2008 (52) директиваси фуқаролик ва тижорат соҳасидаги медиациянинг айрим аспектларига тааллуқли бўлиб, медиация тушунчасига қуйидагича таъриф берилади: “*Низонинг икки ёки ундан ортиқ тарафлари улар ўртасидаги низони ҳал қилиш тўғрисида келишувга эришиш мақсадида, мазкур жараён тарафларнинг ташаббуси билан уюштирилганлигидан, суд томонидан таклиф этилган ёки тайинланганлигидан ёки миллий қонунчиликда кўрсатилганлигидан қамъи назар учинчи тарафга ёрдам сўраб мурожаат этиши жараёнидир*”.

Жаҳон тажрибасининг кўрсатишича медиация, фуқаролик-ҳуқуқий низоларни ҳал этишда жуда самарали ҳисобланади. Айниқса англо-саксон ҳуқуқий тизимида яраштирув жараёнлари ривожланган, шунингдек, медиация Европа давлатларида кенг тарқалган.

Охириги ўн йилликда Европа ҳамжамияти доирасида медиацияга ижтимоӣ муносабатларнинг иштирокчилари ҳуқуқлари, эркинликлари ва манфаатлари ҳимоясини таъминлаш имкониятларидан бири сифатида мурожаат этиш тенденцияси кузатилмоқда. Хусусан, 2002-йил Европа комиссияси томонидан фуқаролик ва тижорат ҳуқуқлари бўйича низоларни муқобил ҳал этиш масалалари бўйича **Яшил китоб** ишлаб чиқилган.

Ҳозирги кунда медиация АҚШ, Янги Зеландия, Канада, Австралия, Буюк Британия, Франция, Испания, Италия, Бельгия, Австрия, Германия каби давлатларда кенг ривожланган. Шунингдек, медиация институти Қозоғистон ва Қирғизистонда ҳам ҳар томонлама ривожланмоқда.

Медиацияни ўрганиш бўйича халқаро тадбирларда унинг самарадорлиги бўйича бир қанча рақамлар келтирилади. Масалан, АҚШда мазкур процедурадан ўтган ишларнинг 95 фоизи суд муҳокамасигача етиб бормаган. Германияда медиациянинг кўрсаткичлари катта таассурот қолдиради – 90 фоиздан кўпроқ музокаралар тарафларнинг келишув битими билан яқунланган. Қуйи Саксонияда самарадорлик 97 фоизни ташкил этади. Буюк Британияда 90-95 фоиз низоли ҳолатлар суд муҳокамасигача ҳал этилади. Европада медиациянинг самарадорлиги ўртача 40-80 фоизни ташкил этади.

Медиация кенг қўлланиладиган давлатларда у одил судловга эришишни таъминловчи усуллардан бири эканлиги тўғрисидаги фикр мустаҳкам ўрин эгаллаган. Бу ҳақиқатдан ҳам шундай. Ҳозирга даврда судларга келиб тушаётган ишлар сони ортиб бораётганлиги сабабли жамият низоларни ҳал этишнинг муқобил усуллари кидирмоқда. Бунга жумладан, низоларни ҳакамлик судлари ва тижорат арбитражлари томонидан ҳал этилиши киради. Низоларни ҳал этишда охириги натижага эришиш усули сифатида медиациядан фойдаланиш ҳам катта аҳамият касб этмоқда.

Янги Ўзбекистонда медиациянинг ҳуқуқий асослари қуйидаги қонунчилик ҳужжатларида бевосита ўз ифодасини топган:

1. *Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (55-моддаси);*
2. *Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (242, 363, 364, 377, 378, 384-моддалари);*
3. *Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодекси (44, 49, 51, 56, 69, 70, 116, 118, 122, 166, 195, 203, 226, 278-моддалари);*
4. *Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси (48, 49, 50, 53, 63, 65, 101, 103, 107, 131, 155-моддалари);*
5. *Ўзбекистон Республикасининг “Ҳакамлик судлари тўғрисида”ги Қонуни;*
6. *Ўзбекистон Республикасининг “Медиация тўғрисида”ги Қонуни;*
7. *Ўзбекистон Республикасининг “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги Қонуни (14, 34, 36, 37-моддалари);*
8. *Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни (63-моддаси);*
9. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 17-июньдаги “Низоларни муқобил ҳал этишнинг механизмларини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4754-сон Қарори ва бошқалар.*

INTELLEKTUAL QOBILIYAT RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK TADQIQI

*To‘raqulova Marjona
Termiz davlat universiteti magistranti*

Интеллектуал қобилиятлар - инсоннинг турли хил муаммоларни ҳал қилиш қобилиyatida намойон бўладиган ақлий қобилиятлардир. Ақлий қобилиyat muammosi qadim

zamonlardan buyon mashhur olimlarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan va qozirgi kunda ham muqim ahamiyat kasb etmoqda. Aqliy qobiliyatni psixologik o'rganishning ilk ilmiy asosini uni o'lchash, tekshirish bo'yicha yaratilgan testlar tashkil etadi. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, eramizdan avvalgi qadimgi Vavilonda mirza va kotiblar tayyorlanadigan maktab bitiruvchilarida tadqiqotlar o'tkazilgan. Yaxshi tayyorlangan mirza (kotib) o'sha davrning eng e'tiborli, taniqli kishisi hisoblangan. Bu esa nomzodning aqliy salohiyati, o'sha davr bilimlarini egallash darajasi bilan belgilangan.

Qadimgi Misrda koxinlik san'atiga bir qancha belgilangan sinovlarga dosh bergan kishilargina o'rgatilgan. Ma'lum bo'lishicha avvalo nomzod suxbatdan o'tgan (biologik ma'lumotlar olinib, bilim darajasi aniklangan). Undan tashqari tashqi qiyofasi, suhbat qilish qobiliyati baholanib, meqnat qilish ko'nikmasi, eshitish va jim turish, olov va suvdan sakrash, yakka holda har qanday qiyinchilik va qo'rquvdan holi bo'lishi kabilar tekshirilgan. [2]

Psixologiyada aqliy qobiliyat intellekt tushunchasi orhali ifodalanadi. Intellekt, lotincha so'zdan olingan bo'lib, u-odatda aql-idrok, anglash, tushunish, faqmlash, aqliy fikr yuritish kabi ma'nolarni anglatadi. Intellekt individning ma'lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir.

Jaxon psixologiyasida intellektni o'rganish XIX asrning oxirlarida frantsuz psixologi A.Bine tomonidan amalga oshirilgan. Dastlab A.Bine o'z shogirdlari bilan hamkorlikda bolalar intellektining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida psixologik aqliy testlar dastasini ishlab chiqqan. A.Bine tadqiqotlariga nazariy negiz sifatida o'sha davrda qukmron mavqega ega bo'lgan funktsional psixologik nazariya tadbiq etilgan bo'lib, unda ruqiy rivojlanish bir nechta tabiiy tuqma funktsiyalar rivojining natijasida yuz beradi, degan fikr ustunlik qilar edi. Ushbu kontseptsiyaga asoslangan holda A.Bine test topshiriqlari uchun shunday masalalarni tanlaganki, bunda bolaning ilgarigi bilim va ko'nikmalarini qo'llash imkoniyatlari sezilarli darajada kamaytirilgan.

1921 yilda «Psixologiya ta'limi» jurnalida AqShning yirik psixologlari tomonidan test mavzusida uyushtirilgan bahs munozaralar bosilib chiqdi. Tadqiqotchilardan intellektni tushuntirish va uni tadqiq qilishning eng yaxshi yo'li so'ralganda, garchi ularning intellekt haqidagi tushunchalari bir-birlarini inkor qilarli darajada bo'lsada, deyarli barcha olimlar test tadqiqotlarini eng maqbul, eng omilkor usul deb baholadilar. Jumladan, L.Termen «Intellekt mavhum tafakkurga nisbatan qobiliyatlikdir», E.Torndayk «Intellekt bilimlarning o'zaro mutanosibliigi va ularning atrof-muqitga moslashishdagi ko'magi ekanligi», X.Vudris «Intellekt bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan qobiliyat ko'rinishi» deb ta'kidlaydilar.[4]

Mashhur psixologlar R.Kettel va J.Xormlar intellektni ikkita tarkibiy qismga ajratadi: 1. Flyuidlashgan intellekt; 2. Kristallashgan intellekt. Mualliflarning fikriga ko'ra flyuidlashgan intellekt inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida ko'zga tashlanib, dastavval u ilk bolalik davridayoq namoyon bo'ladi, keyinchalik esa inson ruqiyatiga asta-sekin singib boradi. «Flyuidlashgan» intellekt tarkibi nasldan-naslga meros tariqasida o'tadi. «Kristallashgan» intellekt esa individning hayoti davomida (ontogenezda) orttirilgan ko'nikmalardan tashkil topadi. Bizning nazarimizda aqliy

qobiliyatga nisbatan bunday qarash bir muncha ixcham, ammo uning tarkibiy qismlarini asoslashda qiyinchilik tuqdiradi.

XX-asrning 20-30 yillarida aqliy qobiliyat va aqliy taraqqiyot muammosi bo'yicha eng samarali shuquqlangan mashhur rus psixologi S.L.Rubinshteyn o'z tadqiqotlarida aqliy qobiliyat muammosiga jiddiy yondoshib psixologiya ilmini nazariy jihatdan boyitdi, psixologiya fani taraqqiyotini konkretlashtirdi, ong va faoliyat birligi printsipli umumpsixologik doirada keng tadqiq qilindi. S.L.Rubinshteyn uchun faoliyat qar qanday qobiliyatlar rivojlanishining asosi hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, u yoki bu qobiliyat shu jumladan aqliy qobiliyat dastlab o'yin, keyinchalik esa, ta'lim va meqnat faoliyatida shakllanib, rivojlanib boradi. Shuningdek, S.L.Rubinshteynning aqliy faoliyat eng avvalo muammoli vaziyatdan boshlanadi, degan fikri to qozirgi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Aqliy qobiliyat muammosi S.L.Rubinshteyndan tashqari uning shogirdlari T.V.Kudryavtsev, A.M.Matyushkin, I.S.Yakimanskaya kabilar tomonidan ham chuqur tadqiq qilingan. Ular muammoli vaziyat masalasining nazariy va amaliy jihatlarini ochib berishga harakat qilib, bunday vaziyatning shaxs mustahil, ijodiy fikrlash xususiyatlariga ta'siri va ularning psixologik mexanizmlarini taqlil qilgan. Jumladan, T.V.Kudryavtsev nazariyasiga binoan, muammoli o'qitish jarayonida o'quvchilar oldida muammoli vaziyat yaratish, ularning o'qituvchi bilan hamkorlikdagi maqsuldor faoliyatida, o'qituvchining umumiy raqbarligida, aqliy faoliyatini amalga oshirish jarayonida muammoning moqiyatini anglash, tan olish, uning echimini qidirish va hal etish uchun vositalar tanlashda o'z ifodasini topadi.

qobiliyat muammosi B.G.Ananov ishlarida yanada rivojlantirildi. U shunday yozadi: - «Talant inson shaxsi faolligining murakkab birikmasidan iborat». Talantning rivojlanishi uchun ma'lum shart-sharoit bo'lishi kerak, eng avvalo, insonning o'zi qar tomonlama rivojlangan, qobiliyatlari rang-barang bo'lishi lozim. Talant rivojlanishining asosiy sharti bo'lgan shaxsning qar tomonlama rivojlanganligi xususiyati bo'lmasa, talantning o'zi haqida gapirishning qojati bo'lmas edi.[1]

Mashhur rus psixologi P.Ya.Galperin ta'lim jarayonida aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish xaqidagi nazariyaga asos soldi. Bu nazariyaga muvofiq maktab o'quvchilarida tushunchalar va tafakkurni shakllantirish ilmiy bilimlarni o'zlashtirishning tashkiliy jarayoni sifatida talqin qilinadi, tashqi moddiylashgan harakatlarni ichki aqliy harakatlarga asta-sekin qaytishini bildiradi. Ushbu jarayonning eng muqim, asosiy tushunchasi sifatida harakat ajratib ko'rsatiladi. Mazkur kontseptsiyaga binoan ta'lim jarayoni alohida o'ziga xos ravishda tashkil qilinishi nazarda tutiladi.

Aqliy qobiliyatlarni tadqiq etishda asosiy yutuqlardan biri standartlashtirilgan testlarning yaratilishi bo'ldi – deb ta'kidlaydi mashhur rus psixologi E.A.Golubeva. Olimaning fikricha, ular faqat umumiy aqliy qobiliyatlarnigina emas, balki ana shu qobiliyatlarga bog'liq bo'lgan maxsus – texnik, musiqaviy, badiiy, konstruktiv va boshqa qobiliyatlar, shuningdek, shaxs xususiyatlarini aniqlash imkonini ham beradi. E.A.Golubeva umumiy aqliy va maxsus qobiliyatlar diagnostikasi masalasiga alohida urg'u berib; - «Agar ularni o'z vaqtida aniqlab yuzaga chiqarilmasa, uzoq yillar

davomida, ba'zan esa butunlay shaxsning o'zi uchun ham, boshhalar uchun ham yashirin bo'lib qolishi mumkin» deb ta'kidlaydi.[3]

Aqliy qobiliyat va iste'dod muammosini mashhur rus psixologi N.S.Leytes ham keng tadqiq etgan, uning tadqiqotlari bolalar iste'dodining individual xususiyatlarini o'rganishga baqishlangan. N.S.Leytes fikriga ko'ra meqnatga aqliy zo'r berish layoqati iste'dodning asosiy omilini tashkil etadi. N.S.Leytes qobiliyatlarni belgilangan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarish uchun sharoit yaratuvchi shaxsning psixologik xususiyatidir, deb ta'riflaydi. Faoliyatni bajarish imkoniyati va muvaffaqiyat darajasi ham aynan shunga bog'liq bo'ladi.

V.A.Krutetskiy aqliy faoliyatning xususiyatlari bo'lgan matematik qobiliyatlar haqida gapirib, avvalo, o'qituvchilar o'rtasida bir muncha tarhalgan yanglish fikr haqida to'xtalib o'tadi. Birinchidan, matematik qobiliyatlar, dastavval, tez va aniq hisoblash qobiliyatidan iborat deb hisoblanadi. Aslida esa, hisoblash qobiliyati chinakam matematik qobiliyatni tarkib toptirish bilan hamma vaqt ham bog'liq bo'lavermaydi. Ikkinchidan, matematikaga qobiliyatli bo'lgan o'quvchilar formulalar, rahamlar va sonlarni eslab qolish uchun juda yaxshi xotiraga ega bo'ladilar, deb hisoblanadi. Biroq matematikada ko'p miqdordagi rahamlar, faktlar, sonlar, formulalarni tez va mustahkam esda olib qolish qobiliyatga ancha kam asoslangan. V.A.Krutetskiy matematikaga bo'lgan qobiliyatlar, matematik masalalarni idrok qilish xarakteriga ta'sir ko'rsatishini aytadi.

Psixolog E.Z.Usmonova turli vaziyatlarda tafakkurni emotsional-motivatsion boshqarilishi muammosini o'rganib, tafakkur individual qolatga nisbatan hamkorlik faoliyati jarayonida o'ziga xos tarzda kechishini taxlil qilgan. E.Z.Usmonova tafakkurni o'rganishning muxim jihatlaridan biri shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida intellektual masalalarni samarali echishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat deb hisoblab, o'z tadqiqotlarida tafakkurning motivatsion-emotsional boshqarilishini tafakkurning kechishi va mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida e'tirof etadi.

Har bir inson nimagadir, qaysidir darajada qobiliyatli ekan, albatta, hayoti davomida qobiliyatlarini ma'lum maqsad yo'lida ishlatishlari talab etiladi. Zero, bekorga sarf qilingan bo'sh vaqt odamning ruqiy taraqqiyotini to'xtatib, borgan sari ruqiy qashshoqlanishiga olib boradi. Ammo vaqtim bo'sh deb o'zini turli faoliyatga majburan undash ham aqliy kamolotga etaklamaydi. Bu erda xalqimizning «bo'ynidan bog'langan it ovga yaramaydi» degan dono maqoli o'rinlidir. Buning ma'nosi shuki, kishi o'zi xohlamagan, intilmagan ishga uni majbur qilishdan hech bir natija chiqmaydi. Eng avvalo, kishida faollikka undovchi turtki, ichki extiyoj mavjud bo'lgandagina, faoliyatni faol bajarishga intiladi.

Aqliy qobiliyat muammosiga nisbatan olimlarning qarashlari va adabiyotlar tahlili asosida quyidagicha ta'rif berdik: aqliy qobiliyat tabiat in'omi bo'lishi bilan bir qatorda ta'lim-tarbiyaga muxtoj bo'lgan, uzluksiz rivojlanish xarakteriga ega bo'lib, shaxsning umumiy rivojlanganlik darajasini hamda fikr yuritish uslubini belgilab beruvchi ko'pqirrali individual psixologik xususiyat xisoblanadi. Muammoning taqlili aqliy qobiliyat, eng avvalo, individual psixologik xususiyat bo'lib, shaxsning aloxida xususiyatlari uning umumiy aqliy rivojlanishi uchun etarli shart-sharoit yarata olmasligini, shu tufayli aqliy qobiliyatlarni ruyobga chiqarish uchun barcha ruxiy

imkoniyatlarni ishga solish lozimligini asoslash imkonini berdi. Aqliy qobiliyatni rivojlantirishda, eng avvalo, o'quvchi va talabalarning bilish jarayonlarini optimal darajada rivojlantirish xamda ularda o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqish, intilish va ijobiy motivatsiyani shakllantirish zarurligi bu borada keng tadqiqotlar olib borilishi lozimligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Ананьев Б.Г. Проблемы способности. – Москва: 1962. – 18 с.
2. Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психодиагностике. - СПб., 1999. - 528 с.
3. Голубева Э.А. Способности и индивидуальность. - М.: Прометей, 1993. – 114 с.
4. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. -Тошкент: 1990. - Б. 156-184.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA SHAXSGA QARATILGANLIK TAMOYILIDAN FOYDALANISH

Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna
TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim muassasasi moslashuvchanligi bilan xarakterlanadigan va pedagogik jarayonlarning natijadorligiga intiluvchi yaxlit tizimdir. O'qitish shakllarining turli va variativ xususiyatli ekanligi, chuqurlashtirilgan o'qitish imkoniyatlarining mavjudligi, o'quv-metodik majmuani tanlash erkinligi o'qituvchidan, avvalo, o'z metodik paradigmasini o'zgartirishni talab qiladi. Buning hosilasi o'laroq, o'qituvchi:

1) ta'lim mazmun-mundariyasi;

2) o'qitish texnologiyasi;

3) o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchining roli kabi yo'nalishlarda o'z paradigmasini o'zgartirishiga to'g'ri keladi. Aslida, ta'limning mazmun-mundariyasi keskin va uzil-kesil o'zgarishlarga tatbiq etilishi ta'limning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Negaki, o'zgarish maromlilik, ravonligi, "eskirgan materiallarning yangilanishligi" kabi xususiyatlari bilan ham ahamiyatlidir. Shuning uchun o'qituvchi paradigmasi ta'lim mazmun-mundariyasi yo'nalishida o'zgarar ekan, bu o'zgarish bosqichlilik tamoyiliga asoslanishi lozim. Dastlab mazmun-mundarija tarkibidagi anchayin yorqin va esda qolarli materiallar o'zgarishi hamda o'zgargan holda ta'lim oluvchi xotirasida muhrlanib qolishiga erishish lozim. Bu voqelikning psixologik ahamiyati ham mavjud bo'lib, u o'quvchini "yangiliklar, o'zgarishlar tomonga etaklaydi" [1;176-b]. Shu o'rinda o'quv dasturlarining (ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim tizimida) "tarixiylik" xususiyatiga ega ekanligi, bu hol ta'lim oluvchiga o'z o'quv-bilish faoliyatida tegishli o'zgarish sodir etishga monelik qilishini aytish lozim. Masalan, ma'lum bir o'quv fani bo'yicha yuqori kurslarda (umumta'lim maktablarida yuqori sinflarda) o'rganiladigan mavzu ta'limning quyi bosqichlaridan boshlanadigan ildizlarga ega. Mazmun-mundarijaviy o'zgarishlar yasash esa materiallarning "tarixiylik" xususiyatlarini istisno etishni taqozo etadi. Uzluksiz ta'limdagi

diversifikatsiya esa (xuddi marketing talablari asosida ta'lim xizmati ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatidagidek) o'quv materialini "kelgan joyidan" yangilab ketishni nazarda tutadi va aynan o'z muttasil o'zgaruvchanlik tamoyili bilan ta'lim jarayoni subyektlarining "o'zgarishlarini osonlashtiradi" [1].

O'qituvchining o'z-o'zini o'qitish texnologiyasi yo'nalishida o'zgartirishi ham dars jarayonida ayrim muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Mazkur muammolar, hozirgi davr bolalarining kitobga kam murojaat qilishlari, o'rganilayotgan mavzuga doir ma'lumotlarni axborot texnologiyalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot ko'rinishida olayotganlari ham sir emas. Ta'lim amaliyotida keng quloch yoygan bu holatning salbiy tomoni o'qituvchining asosiy funksiyalari va o'qitishning "tili" o'zgarishi bilan bog'liq. Masalan, muayyan bir o'quv fani bo'yicha "avval" foydalanilgan o'quv darsliklari va qo'llanmalarining mavzuga oid materialni yoritishda foydalangan uslubi, bayon etish shakli, mulohazalar yo'nalishi axborot texnologiyalari vositasida xuddi o'sha mavzu bo'yicha taqdim etilgan materialdan farq qilishi, bu esa ta'lim oluvchilarda tushunmovchilik keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, ta'limga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi o'qituvchidan o'qitishning yangi shakllari, metodlari va metodikalariga murojaat qilishni talab qiladi. Natijada esa o'qituvchi o'zining faoliyatini hosil qiluvchi bir necha funksiyalarini o'zgartirishi yoki tubdan yangilashi zarur bo'ladi (masalan, ma'lum bir mavzuni o'rganishda bahs-munozara tashkil qilishi uchun o'qituvchi bayonchilik funksiyasini tubdan yangilashi, o'zida muvofiqlashtiruvchilik, boshqaruvchilik kabi funksiyalarni rivojlantirishi lozim) [2;54-b]. Bunday o'zgarishlarning umumta'lim maktablarida yoki nisbatan katta jamoa hisoblangan OTMlarda qiyin kechishi mumkinligi ma'lum. Sababi, an'anaviy muassasalarda, eng avvalo, pedagogik muhitni kommunikativ-ijodiy muhitga aylantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirish kerak bo'ladi. Bu esa ko'p vaqt talab qiladigan davomli jarayon. Jamiyatning talab va ehtiyojlari natijasi o'laroq, sodir bo'lgan uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining hosilasi sifatida shakllangan ta'lim xizmatlari marketingida o'qituvchining o'qitish texnologiyasi yo'nalishida o'zgarishi muammosini hal etish yo'llari ko'zda tutiladi. Gap shundaki, an'anaviy ta'lim muassasalari bilan gorizontal ierarxiyada bir xil darajadagi zinani egallagan zamonaviy ta'lim xizmati ko'rsatish muassasasida aksar hollarda "tayyor o'qituvchi", ya'ni yuqori darajada kreativlikka ega bo'lgan mutaxassislar faoliyat ko'rsatadi [3;131-b].

Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayoni shaxsga qaratilganlik tamoyilining ahamiyati o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida shakllanadigan hamda davomli ravishda barqarorlashib boradigan munosabatlarning yangilanishida namoyon bo'ladi. Biz ushbu o'rinda o'qituvchining shaxs sifatidagi sifatleri muhim ekanligini alohida qayd etishni lozim deb hisoblaymiz. Negaki, "ta'limning har qanday shakl, tur, ko'rinish, metod va texnologiyasida o'qituvchi ta'lim oluvchi uchun eng birlamchi va asosiy bilim manbai bo'lib qolaveradi. Garchi, televideniya, axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari, ekskursiya sayohatlari, ta'lim oluvchining shaxsiy intilishlari evaziga olingan bilimlar ham muhim sanalsa-da, baribir ta'lim oluvchi nazarida o'qituvchi "hamma narsani bilguvchi" hisoblanadi. Aks holda,

uning auditoriyada o'tirishida ma'no qolmaydi" [2;57-b]. Biroq hozirgi davr o'qituvchisi uchun ta'lim oluvchilarni hayron qoldirish, qiziqtirish, yangi bilimlar taqdim etish oson emas. Chunki "bola qanchalik ko'p bo'lsa, qiziqishlar shunchalik turfa" [3;135-b]. Bunday sharoitda o'qituvchi, eng avvalo, ta'lim oluvchilar shaxsini o'rganib chiqishi, refleksiv usullar yordamida ularning ta'lim olishning barcha komponentlariga bo'lgan munosabatini o'rganib chiqishi, shuningdek, olingan axborotni chuqur tahlil qilishi va taqdim etadigan bilimlarni ma'lum bir tizimga solishi lozim bo'ladi. O'qituvchining tashkilotchilik funksiyasi ustuvor bo'lishi, uning pedagogik faoliyatini hosil qiluvchi tuzilma ta'lim oluvchilarning ijodiy potensialini ochishga qaratilishi muhim sanaladi. O'qituvchi jamoaviy faoliyatni har bir o'quvchining faolligini oshirish natijasida rivojlantirishi, binobarin, har bir ta'lim oluvchini ta'lim jarayoni subyekti darajasiga ko'tarilishi uchun sharoit va kommunikativ muhit yaratishi talab etiladi. Ya'ni ushbu o'rinda "obyektiv jarayonli yondashuv o'rmini subyektiv-faoliyatli yondashuv egallaydi" [4;127-b]. Mazkur jarayon shaxsning doimiy, izchil ravishda ravnaq topib borishiga qaratilgan bo'lib, uning natijasida ta'lim oluvchining ta'limiy ehtiyojlari yanada ortib borishi kuzatiladi. Ko'rib turganimizdek, bu hol ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining yanada tez sur'atlarda rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu o'ziga xos "diversifikatsiyaviy zanjir"ni oddiy hayotiy misol bilan tushuntirish mumkin. Atrofi kunlik ashyolar, predmetlar, turli obyektlar bilan qurshalgan odam tabiatni kuzatishga, olam kengligidan lazzat olishga harakat qilmaydi, lekin sal balandroqdan olamni kuzatishga ichki ehtiyoj sezadi. Intilish natijasida nisbatan balandroqqa chiqqach esa, olamning o'z tasavvuridagidan ancha keng ekanligini his qiladi va bu hissiyot yanada balandroqqa ko'tarilishga undaydi. Shunday qilib, u yuqorilagani sari yanada ko'proq narsani ko'rishga, atrof-borliqni mukammalroq idrok etishga harakat qiladi. Binobarin, shaxsning ehtiyoj va talablari ortib boraveradi. Shu barobarida balandlikka intilgan shaxs yuqoriga ko'tarishi mumkin bo'lgan vositalarni axtaradi. Uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiyaning shaxsga qaratilganlik tamoyili ta'lim jarayoni subyektlaridan ikki tomonlama faollik talab qiladi. Bunda ta'lim oluvchining faolligi undagi bilish ehtiyojining ortishida, o'qituvchining faolligi esa unga bilish manbalarini taqdim etishida namoyon bo'ladi. Demak, uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonining shaxsga qaratilganlik tamoyili ta'lim jarayonida subyekt-faoliyatli yondashuvning takomillashuvini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афанасева Т. П. Профильное обучение в школе: модели, методы, технологии. Уч. пос. М., 2006. – 178 с.
2. Недосекина Н. В. Диверсификация видов педагогической деятельности как отражений сущностных характеристик образования в постиндустриальном обществе // "Человек и наука". – 2013. – №2. – 70-73 с.
3. Галаскова И.А. Моделирование вариативных образовательных маршрутов учащихся как средства обеспечения адаптивности школьной среды. Автореферат. – Ульяновск: 2010. – 27 с.
4. Ахунова Г. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammosi. O'quv qo'llanma. TDIU, T. "Iqtisod-moliya". – 2005. – 183 b.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА АДВОКАТУРАНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Маликов А.Р

Термиз давлат университети талабаси

Адвокатура Ўзбекистон Республикасидаги фуқаролик жамиятининг энг муҳим институтларидан бири, ҳуқуқий давлат тизимининг элементи бўлиб, усиз жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини самарали ҳимоялаш иложсиздир.

Яқин вақтларга қадар ўқув дастурларида адвокатурага, суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш идораларига нисбатан кам эътибор бериларди. Жамият онгида сақланиб қолган адвокатура – бу обрўлироқ идоралар (прокуратура, суд)да иш топа олмаган юристларнинг унчалик обрўли бўлмаган, иккинчи даражали касби деган фикр, бахтиимзга, ҳуқуқ ижодкорлиги, қонунчилик базаси ва ҳуқуқни қўллаш амалиётидаги ўзгаришлар таъсирида аста-секин ўзгариб бормоқда.

Шундай бўлса ҳам, Суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари, Жиноят-процессуал ҳуқуқи, Фуқаролик процессуал ҳуқуқи, Иқтисодий процессуал ҳуқуқи ва Прокурор назорати фанлари доирасида адвокатлик фаолияти масаласини ўрганиш бўлажак юристларда ҳимоя функциясига нисбатан тўғри муносабатни шакллантириш учун етарли эмас. Шу сабабли, мустақил Адвокатура фанини ўқитиш муҳим аҳамиятга эга.

Масалани янада чуқурроқ тушуниш учун, аввало, Адвокатура тўғрисидаги қонунчилик предметини ташкил қилувчи муносабатларни ва уларни мувофиқлаштириш услубларини таҳлил этиш талаб қилинади.

Маълумки, ҳуқуқий тартибга солиш – бу ижтимоий ҳаётдаги юридик аҳамиятга омиллар ва жараёнлар бўлиб, улар ҳуқуқнинг бошқарувчилик салоҳиятини, яъни ҳуқуқий меъёрларнинг тартибга солувчи ҳаракатлари йўналтирилган мақсадни ўзида ҳис этади (ёки ҳис этиши лозим).

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг таъкидлашича, қонунчилигимизда адвокатларнинг самарали фаолият юритиши учун барча етарли асослар яратилган бўлса-да, амалиётда бу нормалар мутлақо ишламаётганини афсус билан қайд этишимиз лозим.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев юритаётган сиёсат марказида инсон манфаати, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш мақсади мужассам. Сўнгги йилларда мамлакатимизда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини, аввало, жиноий тажовузлардан ҳимоя қилишнинг ишончли кафолатларини таъминлашга, шунингдек, инсон шаъни ва кадр-қиммати камситилишига, қонуний манфаатлари чекланишига йўл қўймасликка қаратилган кенг қўламли ишлар изчиллик билан амалга оширилмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” китобида таъкидланганидек, “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси мустақил адвокатура фаолиятини самарали ташкил этишни назарда тутади. Суд-тергов

фаолиятида фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоялаш бугунги куннинг долзарб вазифасидир”.

Тараққиёт стратегиясининг 19-мақсади – “Адвокатура институтининг инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдаги салоҳиятини тубдан ошириш, шунингдек, аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг малакали ҳуқуқий хизматларга бўлган талабини тўлиқ қондириш”дан иборат.

Бу устувор мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифалар белгиланган:

- биринчидан, адвокатура институтини тўлақонли ўз-ўзини бошқариш тизимига ўтказиш ва адвокатурага ёш малакали кадрларни жалб қилиш;

- иккинчидан, Адвокатлар палатаси бошқарув органларининг адвокатлар ҳамжамияти олдидаги ҳисобдорлигини кучайтириш;

- учинчидан, адвокатлар малакасини ошириш тизимининг замонавий ва институционал асосларини шакллантириш;

- тўртинчидан, адвокатлик фаолиятини рақамлаштириш. Бошқача айтганда, адвокатлик фаолиятига замонавий ахборот технологияларини жорий қилиш орқали ортиқча бюрократия ва қоғозбозликка чек қўйиш, судлар, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва бошқа давлат органлари билан электрон ҳужжатлар алмашинувини йўлга қўйиш;

- бешинчидан, бепул ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш қўламини кенгайтириш;

- олтинчидан, нотариат ва фуқаролик ҳолатлари далолатномаларини ёзиш органларининг хизматларидан оворагарчиликсиз, шу жумладан масофадан туриб ва “ягона дарча” тамойили асосида фойдаланишни таъминлаш кўзда тутилмоқда.

Бу борадаги ҳуқуқий ва ташкилий ишлар изчил амалга оширилмоқда.

Айниқса, адвокатларнинг онлайн лицензия олиш имконияти яратилаётгани оворагарчиликларга чек қўйиб, бор кучини фуқаролар ва юридик шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга сарфлашига йўл очади. Малака имтиҳонини топшириш, лицензия олиш, адвокатлик бюросини рўйхатдан ўтказиш, адвокатлик гувоҳномасини олиш бўйича композит хизмат кўрсатиш йўлга қўйилмоқда.

Шунингдек, “Юридик ёрдам” ахборот тизими яратилмоқда. Ушбу тизим адвокат сўровини электрон юбориш, электрон тартибда адвокат ордерини олиш, адвокатлар, суд, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва бошқа давлат органлари ўртасида электрон маълумот алмашиш имконини беради.

JINOIY PROTSESSIDA ADVOKATNING JABRLANUVCHI, GUMON QILINUVCHI, AYBLANUVCHI VA SUDLANUVCHI BILAN PSIXOLOGIK KONTAKTI: XUSUSIYATLAR VA AHAMIYATI

Samadov Islom

Termiz davlat universiteti magistranti

Kirish Jinoiy protsessdagi psixologik kontaktning roli. Jinoiy protsessning muhim jihatlardan biri advokat va ishtirokchilar o‘rtasidagi psixologik muloqotdir.

Bu, odatda, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoya qilishda adolatni ta'minlash uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy yuridik amaliyotda advokatning psixologik tayyorgarligi va muloqot usullari jinoiy protsessda muhim o'rin tutadi. Har bir ishtirokchining hissiy va ruhiy holatini inobatga olish, ularning advokat bilan ochiq va ishonchli munosabatda bo'lishiga yordam beradi.

Asosiy qism Jabrlanuvchi bilan muloqot xususiyatlari

o Jabrlanuvchilar ko'pincha hissiy shok holatida bo'ladilar va qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadilar. Shuning uchun advokat ularning ruhiy holatiga mos ravishda e'tiborli va ehtiyotkor bo'lishi kerak.

o Jabrlanuvchiga ularning huquqlarini tushuntirish va xavfsizlikka ishonch berish advokatning asosiy vazifasidir.

Gumon qilinuvchi bilan muloqot xususiyatlari

o Gumon qilinuvchilar, ko'pincha, o'z himoyachilariga ishonchsizlik bilan qaraydilar. Advokat ularga himoya strategiyasini tushuntirishi va haqiqatni aniqlashda yordam berishi zarur.

o Gumon qilinuvchining stress holatini kamaytirish va u bilan ochiq muloqot o'rnatish uchun advokat psixologik yondashuvga ega bo'lishi kerak.

Ayblanuvchi va sudlanuvchi bilan muloqot xususiyatlari

o Ayblanuvchilar va sudlanuvchilar o'z himoyalariga e'tiborli bo'lishlari kerak, chunki bu jarayonda ularning ruhiy va psixologik holati muhim ahamiyatga ega.

o Advokat ularga jinoyat huquqi va protsessiyaga oid masalalarni tushuntirishi, sudda o'zini tutish qoidalarini bayon qilishi kerak.

o Ularning hissiy barqarorligini ta'minlash orqali advokat samarali himoya usulini qo'llay oladi.

Psixologik kontaktga erishish usullari

o Ishonchli muhit yaratish uchun advokat qo'pol so'zlardan, agressiv ohangdan va hukm chiqarishdan saqlanishi zarur.

o Har bir ishtirokchining shaxsiy holatini, hissiy holatini va ruhiy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda moslashuvchan yondashuv qo'llanilishi kerak.

o Muloqot davomida advokat empatiya va sabr-toqat ko'rsatishi kerak, bu esa o'z navbatida ishtirokchilarning ishonchini oshiradi.

Xulosa. Jinoiy protsessda advokat va jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi o'rtasidagi psixologik kontakt samarali himoya va odil sudlovni ta'minlash uchun zarurdir. Har bir ishtirokchi bilan alohida yondashuv, ishonchli muhit va ehtiyotkor muloqot – adolatli protsessning kalitidir. Psixologik kontakt usullarini rivojlantirish advokatning malakasi va ta'sirchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. A. Baron va D. Byrne, 2016 "Social Psychology"
2. L.L.Wiggins, 2012, "Psychology for Lawyers: Understanding the Human Factors in Negotiation, Litigation and Decision Making"
3. A.A. Usmonova, A.N.Norboyev, 2006, "Yuridik psixologiya" o'quv qo'llanma

ADVOKATURADA PSIXOLOGIYA: MUVAFFAQQIYATLI HUQUQIY FAOLIYAT UCHUN MUHIM VOSITA

Panjiyev Asliddin Sharofiddinovich
Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezida advokatlik faoliyatida psixologiya bilimlarining o'rnini va ahamiyati yoritib berilgan. Advokatning mijozlar bilan ishlashda psixologik yondashuvi, sud jarayonida muvaffaqiyatli nutq va ta'sirchan taqdimot qilish qobiliyatlari, shuningdek, o'zining ruhiy salomatligini saqlash uchun stressni boshqarish usullari ko'rib chiqilgan. Tezida psixologiyaning advokatlik faoliyatidagi uch asosiy yo'nalishi – mijoz bilan ishlash, sud jarayonidagi o'zaro ta'sir va advokatning shaxsiy ruhiy barqarorligi – batafsil tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot, advokatlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun psixologik ko'nikmalar huquqiy bilimlar qatorida qanchalik zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: advokatlik psixologiyasi, mijoz bilan ishlash, sud jarayonidagi muloqot, stressni boshqarish, ruhiy barqarorlik, huquqiy muvaffaqiyat, advokatlar uchun psixologiya. Advokatlik faoliyatida huquqiy bilimlar yetarli bo'lsa-da, psixologiya bo'yicha bilimlar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir sud jarayoni nafaqat huquqiy, balki insoniy, ya'ni hissiy va ijtimoiy muloqotni o'z ichiga oladi. Mijozlar, sudyalalar, guvohlar, hamkasblar va boshqa ishtirokchilar bilan muvaffaqiyatli ishlash uchun advokat yaxshi psixologik ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Advokat mijozning ruhiy holatini to'g'ri tushunish va yuridik jarayonda stressni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lmasa, huquqiy yutuqlariga qaramasdan muvaffaqiyat qozona olmaydi. Ushbu tezis advokatlik faoliyatida psixologiya bilimlarining asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqadi.

Mijoz bilan ishlashdagi psixologiya

Advokatning asosiy vazifalaridan biri mijoz bilan samarali o'zaro ta'sir qilishdir. Mijozning advokatga bo'lgan ishonchi nafaqat yuridik bilimlarga, balki advokatning psixologik yondashuviga ham bog'liqdir. Advokat mijozni diqqat bilan tinglashi, uning hissiy holatini tushunishi va himoyasiga ishonch bildira olishi zarur. Ko'pincha, mijozlar huquqiy masalalarda o'zlarini notinch his qilishadi va advokat ularga nafaqat huquqiy yordam ko'rsatadi, balki ularni ruhiy qo'llab-quvvatlashga ham harakat qiladi. Masalan, qiyin vaziyatlarda mijozni stressdan chiqarish, ularni tinchlantirish va vaziyatni mantiqiy baholashga o'rgatish advokatning psixologik ko'nikmalarini talab qiladi. Shuningdek, mijoz bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish orqali advokat mijozning to'liq ma'lumotni ochiq-oydin aytishiga erishadi, bu esa ishni muvaffaqiyatli olib borish uchun juda muhimdir.

Sud jarayonidagi psixologik muloqot. Sud jarayonida advokat nafaqat huquqiy bilimlarga, balki ta'sirchan nutq va taqdimot qobiliyatlariga ham ega bo'lishi lozim. Sudyaga yoki hakamlar hay'atiga murojaat qilar ekan, advokatning psixologik bilimlari taqdimotni samaraliroq qilishga yordam beradi. Nutqni to'g'ri tuzish, tana tilini boshqarish va hissiy momentlarni tushunish sud jarayonida advokatning muvaffaqiyatini oshiradi. Guvohlar bilan ishlashda ham advokatning psixologik

yondashuvi juda muhimdir. Guvohlar ko'pincha o'z so'zlarini qayta ko'rib chiqishlari yoki stress ostida bo'lishlari mumkin. Advokat guvohlarning ruhiy holatini hisobga olib, ularga to'g'ri savollar berish orqali kerakli ma'lumotlarni olishni maqsad qilishi kerak. Advokatning psixologik salomatligi

Advokatlik kasbi yuqori darajada stressli bo'lishi mumkin. Murakkab sud jarayonlari, mijozlarning bosimi va uzoq davom etadigan yuridik ishlar advokatning psixologik barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, advokatlar o'z ruhiy salomatligini saqlash uchun turli texnikalardan foydalanishlari kerak. Professional burnout yoki hissiy charchoq advokatlar orasida keng tarqalgan. Buning oldini olish uchun advokatlar o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlashlari, muntazam ravishda dam olishlari va sport, meditatsiya kabi ruhiy bo'shshish uslublaridan foydalanishlari tavsiya etiladi. Shuningdek, advokatlar o'zlarini ichki motivatsiya qilish va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, advokatlik faoliyatida muvaffaqiyat qozonish uchun faqat huquqiy bilimlar yetarli emas. Psixologik ko'nikmalar advokatning mijozlari, sudyalalar va guvohlar bilan samarali ishlashiga, shuningdek, o'z stressini boshqarishga yordam beradi. Muvaffaqiyatli advokat bo'lish uchun inson psixologiyasini yaxshi tushunish, hissiy vaziyatlarda o'zini boshqarish va ruhiy salomatlikni saqlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. A. Baron va D. Byrne, 2016 "Social Psychology"
2. L.L.Wiggins, 2012, "Psychology for Lawyers: Understanding the Human Factors in Negotiation, Litigation and Decision Making"
3. A.A. Usmonova, A.N.Norboyev, 2006, "Yuridik psixologiya" o'quv qo'llanma

ФАРЗАНД ТАРБИЯСИГА МУНОСАБАТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

*Шарафутдинова Хадичахон Гулямутдиновна.
Темиз давлат университети доценти, п.ф.н.*

Келажакимиз пойдевори деб эътироф этилаётган ёш авлод таълим-тарбияси ва тараккиёти давлат аҳамиятига молик масалалардан хисобланиб, жамиятнинг оила ва оилавий тарбияга бўлган талаби ҳам кун сайин ортиб бормокда. Инсон боласи оилада туғилиб вояга етади, жамиятнинг етук ва фаол аъзоси сифатида шаклланиши ҳам кўп жиҳатдан оила, ундаги таълим-тарбия муҳити, ўзаро соғлом муносабат ва албатта ота-оналарнинг ўз фарзандларини ҳар томонлама баркамол қилиб тарбиялаш борасидаги масъулиятига боғлиқ тарзда кечади. Ота-оналарнинг оилада болаларни ҳар томонлама етук-баркамол қилиб вояга етказиши, уларнинг тараккиётини таъминловчи қобилиятини рўёбга чиқариши каби муаммолар ҳозирги куннинг долзарб масаласидир.

Ўзбек оиласи дунёдаги бошқа оилалардан ўзининг болажонлилиги, хаё ва ибонинг кучлилиги, ўзаро ҳурмат ва қўллаб-қувватлаш ҳиссининг юксаклиги билан

ажралиб туради. Зеро, оиладаги дўстона муносабат меҳрибонлик, ғамхўрлик, эътибор ва самимият ўз навбатида фарзандларининг муносабатларини нормал ўстиришга ёрдам беради.

Оилавий турмушдаги самимий ва оқилона муносабатлар, илиқ руҳий иқлим таъсири натижасида шу оиланинг меваси бўлган фарзандлар руҳиятида камтарлик, кўнгилчанлик, илтифот, сабр, уятчанлик, тўғрилиқ, яхшилик, юмшоқлик, дилкашлиқ, меҳрибонлик, талабчанлик, меҳнатсеварлик, виждонлилик, меҳнатга маъсулит, билим олишга мойиллик, озодалиқ, иззат-нафс, тежаб-тергашлик каби шахс фазилатлари таркиб топади. Аксинча оилавий муносабатлардаги номувофиқлик, кўполлик, андишасизлик, фарзандлар руҳий дунёсида кеккайиш, писмиқлик, тартибсизлик, безорилик, қолоқлик, кўпчилик томонидан қабул қилинган хатти-ҳаракат қоидаларни сезмаслик, уларни менсимаслик каби иллатларнинг шаклланишига олиб келади.

Республикамиз мустақилликка эришганидан буён мамлакатимиз аҳолисининг турмуш тарзини яхшилаш, келажагимиз давомчилари бўлган ёшлар ҳақида қайғуриш, оилалар тинчлиги ва мустақамлигини таъминлаш, соғлом авлод, соғлом болани шакллантириш соҳаларида жуда улкан ишлар амалга оширилмоқда. Мустақилликдан кейинги ҳар бир йилнинг мазмун жиҳатдан ўзаро боғлиқ, давомли қилиб номланиши ва бу борада давлат дастурлари қабул қилиниб, амалиётга тадбиқ этилаётганлиги бунинг ёрқин исботидир.

Боланинг соғломлигини белгиловчи омиллар хилма-хил бўлиб, уларнинг ичида психологик омиллар асосий ўринни эгаллайди. Боланинг психологик соғломлиги унинг нафақат шахс сифатида руҳан соғлом бўлишини, балки унинг жамият ҳаётида фаол иштирок этишини таъминловчи психологик хусусиятларининг меъёрида шаклланишини ҳам назарда тутаяди.

“Соғлом бола” баркамоллик тушунчаси билан айнанлаштирилган бўлиб, унинг замирида болаларнинг жисмоний, руҳий, маънавий, эстетик, ақлий соғломлиги кабилар ётади. Мурғак қалб эгаларининг ҳар томонлама баркамол бўлиб шаклланиши, бизнинг назаримизда ота-оналарнинг фарзанд табиясидек масъулиятли вазифага нисбатан муносабатларига кўпроқ боғлиқ бўлади.

Табийй равишда, ўз фарзандларининг соғломлиги, камоли, келажаги тўғрисида қайғурмайдиган, уларнинг оиласига, жамиятга фойда келтира оладиган комил инсон сифатида вояга етказишини орзу қилмаган ҳеч бир ота-она бўлмаса керак. Афсуски, ота-оналарнинг бундай юксак орзу умидлари ҳар доим ҳам улар кутганидек рўёбга чиқавермайди. Хўш, бунинг сабаби нимада? – деган савол туғилади. Бу каби саволларга анъанавий “ота-оналарнинг масъулиятсизлиги, эътиборсизлиги туфайли” деган жавоб билан чекланиб, унинг замирида ота-оналарнинг боланинг соғломлиги, баркамоллиги каби тушунчаларни қандай тасаввур этишлари каби муҳим психологик муаммо мавжудлиги ҳақида ўйлаб ҳам кўрмаймиз.

Албатта, болаларнинг соғломлиги, баркамоллиги каби тушунчаларни ҳар бир ота-она турлича талқин қилади. Жумладан, айрим ота-оналар ўз фарзандларини соғлом ва баркамол қилиб ўстириш иқтисодий бекаму кўст

қилишдир деб хисобласалар, бошқалари одоб-ахлоқли қилиб ўстиришни, айримлари билимли, касб-корли, жисмонан бақувват қилиб вояга етказишдан иборат деб тасаввур қиладилар. Ота-оналар ана шундай тасаввурларидан келиб чиқиб, фарзандларини тарбиялашда ўзлари мезон қилиб олган омилга алоҳида эътибор қаратишга мойил бўладилар. Аммо болаларнинг соғломлиги ва баркамоллиги тушунчаси бир ёқлама талқин этиладиган масала эмаслиги ҳақида ҳар доим ҳам бош қотирмайдилар.

Муаммонинг моҳиятига кириб бориш учун энг аввало соғлом ва баркамол боланинг ижтимоий-психологик портретини яратиш лозим деб хисоблаб, соғлом бола қиёфасини белгиловчи қўйидаги мезонларни ишлаб чиқдик:

- **Болаларнинг жисмоний хусусиятлари** (жисмоний жиҳатдан бақувват, соғлом ўз ёшига мос равишда куч ва ғайратга тўла бўлиб ривожланиши ва бошқалар);

- **Болаларнинг ижтимоий хусусиятлари** (ижтимоий фаоллик, ватанпарварлик, воқеа-ходисаларга муносабат, хулқ-атвор, муомала, дид, онглилик, эътиқод, муҳит, оилавий муносабатлар ва шу кабилар);

- **Болаларнинг рухий хусусиятлари** (иродаси, ҳис-туйғулари, характери ва темпераменти, қизиқишлари, соғлом турмуш тарзи, қобилиятлари (ўқиш, меҳнат, санъат, спорт, техника ва бошқа соҳаларда)нинг намоён бўлиши);

- **Болаларнинг ахлоқий-маънавий хусусиятлари** (одоби, ахлоқи, эстетик ҳислари, нутқи, муомаласи ва хулқ-атворининг ижтимоий нормаларга мутаносиблиги);

- **Болаларнинг ақлий хусусиятлари** (билиш жараёнлари фаолиятининг ёшига мос тарзда ривожланганлиги, билим олиш ва ақлий имкониятларини ўстиришга нисбатан фаоллиги ва бошқалар);

Ота-оналарнинг “Соғлом бола” тўғрисидаги тасаввурларининг фарзанд тарбиясига муносабатлари шаклланишидаги аҳамиятини ўрганиш мақсадида тадқиқот олиб бордик. Тадқиқотимизда 30 нафар бошланғич синф ўқувчилари ҳамда 30 нафар ўсмир ёшдаги ўқувчиларнинг ота оналари иштирок этдилар. Респондентларга “Менинг “Соғлом бола” тарбияси тўғрисидаги тасаввурим” мавзусида иншо ёзиб беришлари таклиф этилди.

Ота-оналарнинг “Менинг “Соғлом бола” тарбияси тўғрисидаги тасаввурим” мавзусида ёзган иншоларининг таҳлили асосида уларнинг назарида боланинг соғломлигини белгиловчи меъзонларни қўйидаги гуруҳларга ажратдик:

1-жадвал.

№	Респондентлар	Бошланғич синф ўқувчиларининг ота-оналари (1-гуруҳ) n = 30	Ўсмир ўқувчиларнинг ота-оналари (2-гуруҳ) n = 30	Умумий кўрсаткичлар
	Бола соғломлиги			

	мезонлари	сони	%	сони	%	
1.	Жисмоний хусусиятлари	13	65%	17	85%	67,5 %
2.	Ижтимоий хусусиятлари	7	35%	11	55%	45%
3.	Рухий хусусиятлари	10	50%	12	60%	55%
4.	Ахлоқий-маънавий хусусиятлари	15	75%	18	90%	82,5%
5.	Ақлий хусусиятлари	11	55%	12	60%	57,5%

1-жадвал маълумотлари 1-гурӯх натижалари ота-оналарнинг “Соғлом бола” ҳақидаги тасавурлари алоҳида мезонлар бўйича етарди даражада шаклланмаганлигини намоён этди. Бу гурӯхдаги ота-оналарнинг 75% -“Соғлом бола” тимсолида ахлоқий-маънавий хусусиятларининг етук бўлишини, 65% - жисмоний хусусиятлари ривожланганлигини, 50% - фарзандларидаги ақлий хусусиятларнинг шаклланганлигини, 50% - рухий хусусиятлари мустаҳкамлигини ва атиги 35 % - боланинг ижтимоий хусусиятлари шаклланган бўлишлигини кўришлари маълум бўлди.

Албатта фарзандларимизнинг ахлоқий-маънавий ва жисмоний баркамоллиги энг муҳим омиллардан ҳисобланади. Аммо, улар боланинг бир бутун ҳолда баркамоллигини таъминловчи ягона омиллар бўла олмаслигини чуқур англаб етишимиз лозим. Бошланғич синф ўқувчилари ота-оналарининг ўз фарзандлари ақлий, рухий ва ижтимоий хусусиятлари шаклланишига нисбатан эътиборларининг сустиги албатта уларнинг тарбиявий муносабатлари шаклланишига таъсир ўтказмасдан қолмаслигини эътироф этиш жоиз.

2-гурӯх натижаларида бироз бошқачароқ ҳолат кузатилади. Яъни ўсмир ёшдаги ўқувчилар ота-оналарининг соғлом бола тарбияси хусусидаги тасавурларида анча ривожланиш мавжудлиги маълум бўлди. Жумладан, уларнинг 90% - ўз фарзандлари ахлоқий-маънавий хусусиятларнинг етуклигини, 85% - жисмоний бақувватликни энг муҳим жиҳат сифатида эътироф этганлар. Шунингдек, ақлий ва рухий жиҳатдан ривожланган бўлишлигини 60 %, ижтимоий хусусиятлари шаклланганлигини 55% ота-оналар муҳим деб ҳисоблаганлар.

Демак, иккала гурӯх натижаларини қиёсий таҳлил қилганимизда ота-оналарнинг “Соғлом бола” тўғрисидаги тасавурлари шаклланиши динамик ўсиш хусусиятига эга экан деган хулосага келиш мумкин. Бу албатта, ижобий ҳол. Аммо, иккала гурӯхда ҳам ота-оналарнинг “Соғлом бола” тўғрисидаги тасавурлари айрим мезонлар бўйича шаклланганлигининг умумий даражаси нормадан паст эканлиги бу борада ота оналарнинг умумий саводхонликлари етарли эмаслиги муаммога жиддий ёндошишни талаб этади.

Психологларнинг таъкидлашларига кўра, оилада фарзанд тарбиясида йўл қўйиладиган хатоликлар турли-туман бўлиб, уларни келтириб чиқарувчи сабаблар сифатида қуйидагилар эътироф этилади:

1. Болаларга катталар томонидан диққат эътиборнинг етишмаслиги
2. Ота-оналар билан фарзандлар ўртасида ўзаро тушунишнинг йўқлиги ва унга икки томонлама интилишнинг етишмаслиги.
3. Кўр-кўрона оталик ва оналик меҳр-муҳаббатининг ҳукм суршилиги ва унинг барқарор аҳамият касб этмаслиги.
4. Ота-оналарнинг берқарор ҳис-туйғулари, кайфиятлари, уларнинг тартибсиз тасодифий характерга эга бўлишлиги.
5. Катта-кичик ёшдаги фарзандлар даврасида ота-оналарнинг салбий хулқ-атворлари ҳамда уларнинг ичкиликбозликлари, гиёҳвандлиги каби иллатларнинг ошқора намоёиш этилиши.
6. Оила муҳитида адолатсизлик, иккиюзламачилик, ўғрилиқ, товламачилик иллатларининг намоён бўлиши.
7. Ота-оналарнинг билим савияси ва маданий даражаларининг паст эканлиги ва бошқалар.

Бизнинг тадқиқотимиз ота-оналарнинг фарзанд тарбияси хусусидаги тасаввурларини ўрганиш билан чекланмасдан, уларда мақсадга мувофиқ тасаввур ва қарашларни шакллантиришнинг психологик механизмларини ишлаб чиқишдан иборат эди. Шу боис оилада “Соғлом бола” тарбиясини тўғри йўлга қўйиш учун бир қатор тавсияларни тақдим этамиз.

Тавсиялар:

- энг аввало ота-оналар фарзанд тарбияси борасида ўзларида чуқур билим ва тажрибани шакллантиришлари зарур бўлиб, у ижтимоий, педагогик, психологик ва бошқа соҳалардаги билимдонликни қамраб олиши лозим;
- оилада қатъий интизом ва кун тартибининг бўлиши болалар тарбиясига ижобий таъсир қилишини ҳисобга олиб, кун тартибини белгилашда болаларнинг билим олишдаги ютуғи, жисмоний саломатлиги, одоб-ахлоқи, ақлий ривожланиши, руҳий шаклланиши кабиларга алоҳида эътиборни қаратиш, оила режимида қатъий амал қилишларини назорат қилиб бориш даркор;
- тарбияда мақсаднинг аниқлиги муҳим ўрин тутди, чунки у тарбиявий ишларини тўғри йўналтириш имконини беради. Ота-она боланинг биринчи мураббийси, уни тарбиялашда шахсан ибрат кўрсатувчи таъсирчан омил эканлигини ҳисобга олиш;
- ота-онанинг ўзаро дўстона муносабати, меҳрибонлиги, ғамхўрлиги, ўз навбатида фарзандларининг муносабатларини нормал ўстиришга ёрдам бериши туфайли бунга қатъий амал қилишни унутманг.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Учинчи минг йиллик боласи. Таянч дастури. Т., 2002
2. Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. Тошкент. 1999. 28-34 бетлар

3. Каримова В.М. Саломатлик психологияси ёхуд саломат бўлиш учун руҳиятни бошқариш сирлари.-Т.: Янги аср авлоди, 2005 – 72 б.

4. Психологиянинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент, ТДПУ, 2009.18-20 бетлар.

5. Шоумаров Ш., Шоумаров Г. Б. Муҳаббат ва оилавий ҳаёт.- Т.: Ибн Сино нашриёти.- 1990.- 92 б.

АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК БАРҚАРОРЛИК ПСИХОЛОГИЯСИ

Қудратуллаев Жалолiddин
Термиз давлат университети талабаси

Инсоният ахборот оқими тобора тезлашган, ер шари аҳолиси кайфиятини, руҳиятини, мақсад ва интилишларини, қолаверса, бутун тафаккур тарзини ўзгартиришга қодир бўлган ахборот технологияси вужудга келган бир даврда яшамокда. Бу ҳозирги замон цивилизациясининг ўзига хос ютуғидир. Халқлар, мамлакатлар, давлатлар ўзаро муносабатларини тобора яқинлаштиришга, жаҳон ижтимоий-сиёсий жараёнларини бошқаришга, дунёвий кайфият, дунёвий руҳият ва маслакнинг вужудга келишига хизмат қиладиган мўжизакор ходиса.

Бироқ цивилизациянинг ана шундай улкан, кенг миқёсли ва серқирра ютуғидан ким қандай мақсадларда фойдаланаяпти? Уни беқиёс ва қудратли кучини нималарга ишлатаяпти? - деган ҳақли савол ҳам муаммога айланмоқда.

Ахборот таҳдиди шундай бир универсал характерга эгаки, унинг барча бошқа соҳаларга жиддий салбий таъсир қилиш имконияти бор: шахс дунёқарашига, жамият барқарорлигига, давлат тинчлигига, жамоатчилик фикрини чалғитишга ва оқибатда ҳар бир мамлакатнинг маънавий, сиёсий, иқтисодий, маданий юксалишига ҳам. Чунки ахборотнинг жамият, ташкилот, оила, шахс онгига кириб келиши унча ҳам кўзга ташланмайди. Ижобий ва салбий ахборотни фарқлаш, яхши маълумотни ўзлаштириш ва зарарлисини рад этиш учун инсон онги ривожланган, унинг ўзи эса мустаҳкам иродали бўлиши зарур. Ҳар бир мамлакат аҳолисининг асосий қисми эса бундай имкониятга эга эмас. Шунинг учун ахборот-психологик барқарорликка биринчи ўринда ахборот тарқатувчилар эга бўлиши шарт: давлат тузилмалари хизматчилари, журналистлар, педагоглар, жамоат ташкилотлари ходимлари ва бошқ.

Ахборот таҳдидларнинг энг хавфлиси - давлат сиёсатини таъминлашга ҳалакит бераётганларидир. Чунки салбий таъсир тор доирадаги одамларни қамраб олса, давлат ва жамиятга таҳдид бутун бир мамлакат, халқ тинчлигини хавф остига қўяди. Инсон учун ахборот - энг таъсирчан воситадир. Ахборот-психологик хавфсизлик таҳдиднинг биринчи манбаси - бу инсоннинг ўзидир.

Ўзбекистонда ахборот соҳасидаги миллий хавфсизликни таъминлаш тажрибаси такомиллашиб бормоқда. Ҳозирга келиб, ахборот хуружи авж олаётган бир вақтда, ахборот тарқатиш технологиялари тобора ривожланиб, унинг усул ва услублари янгиланиб бораётганлиги ҳаммамизга сир эмас.

Ўзбекистонда ахборот бериш, уни қабул этиш, фойдаланиш ва тарқатишнинг умуммиллий манфаат ва умуммиллий тараққиёт нуқтаи назаридан бошқарув механизмини яратиш унинг моҳияти ва унсурларини чуқур англаш зарур бўлиб қолмоқда. Бугунги кунда кундалик халқаро муносабатларда “ахборот уруши”, “ахборот қарама-қаршилиги”, “ахборот босими” каби тушунчалар кўп ишлатилаётганлиги аҳолини ахборот хуружидан ҳимоялаш бўйича чоралар кўриш муҳимлигини янада оширади.

Ана шу ҳаётий эҳтиёждан келиб чиқиб ахборот соҳасида миллий хавфсизликни таъминлаш тизимини яратишнинг қуйидаги усулларини қўллаш зарур деб ҳисоблаймиз:

Биринчидан, социологик йўналиш. Бунда ахборот олиш ва тарқатиш жараёнида жамият тараққиётида ахборотнинг ижтимоий воқелик сифатидаги ролдан келиб чиқиб жамиятда шаклланаётган ижтимоий онг йўналишлари, ижтимоий тафаккур даражаси ва унинг оқимларини ўрганишни йўлга қуйиш керак. Аҳолининг турли қатламлари, қарашлари, касбий ва бошқа ижтимоий ҳолатлари асосидаги фикрлаш тарзини аниқлаб бориш зарур.

Иккинчидан, статистик йўналиш. Кўпмиллатли мамлакатда, хусусан, 130 дан ортиқ миллат ва элат яшаётган, 20 га яқин диний конфессиялар фаолият кўрсатаётган Ўзбекистонда миллатлараро ва динлараро можароларни, турли сиёсий манфаатлар ва бузғунчи ғоялар таъсирида келиб чиқиши мумкин бўлган сиёсий низоларни ўрганиб бориш. Бу борада аниқ ҳисоб-китобларга, таҳлилий ечимларга эга бўлиш.

Учинчидан, сиёсий конфликтология ва сиёсий психология. Ахборот-психологик хавф авж олаётган бир пайтда, турли бузғунчи ғоялар инсон онги ва тафаккурига ўз таъсирини ўтказаётган бир шароитда сиёсий можаролар келиб чиқиши мумкин бўлган манбаларни ўрганиш, омилларни аниқлаш ҳамда унинг натижасида жамиятда шаклланиши мумкин бўлган жамоатчилик

фикри, сиёсий қарашлари, руҳияти - ижтимоий-сиёсий психология изчил равишда ўрганиб борилмоғи лозим.

Тўртинчидан, мантикий-тизимий ва функционал таҳлил. Ахборот тизими, хусусан, ахборот-психологик таъсир ахборот сиёсати тизими ва воситасининг муҳим қисми сифатида баҳоланиши лозим. Воқеликка ана шу тарзда ёндошиб, илмий-таҳлилий, назарий ва амалий хулосалар чиқариш керак. Тиғиз ахборотлашган жамиятда ахборот оқими таъсирида шаклланаётган ижтимоий фикр фан нуқтаи назаридан изчил ўрганилмоғи, унинг предмети ва методологиясини ишлаб чиқиш муҳим бўлиб қолди.

Бешинчидан, ахборот тизимида миллий истиқлол ғоясининг устиворлиги. Ҳар қандай фуқаро ахборот бозоридан «маҳсулот» танлаш жараёнида унинг қалбида, руҳиятида, кайфиятида, феъл-атворида, буларнинг барчасининг оқибати сифатидаги хатти-ҳаракати ва муносабатида мафкуравий иммунитет устуворлигини таъминлаш мақсадга мувофиқдир.

Демак, очиқ ахборотлар таҳдиди шароитида ёшларни тўғри яшашга, ватанпарвар ва инсонпарвар бўлишга, эркин фикрли бўлишга ўргатиш орқали уларда мафкуравий иммунитетни тарбиялаш энг долзарб вазифалардир. Зеро, ўргатиш бир томонлама жараён бўлмай, у «педагог-тарбияланувчи» мулоқоти тизимида кўпроқ *тарбияланувчининг фазилатларига* боғлиқдир. Бундай мураккаб ишни ташкил этишда ҳар бир ижтимоий тоифа ёки шахснинг индивидуал психологик хусусиятларини инобатга олиш зарурати ижтимоий психологияда исботланган.

Ахборот соҳасининг тез суръатлар билан ўсиши, уни автоматлаштириш усуллариининг шиддат билан ривожлантирилиши компютерларнинг яратилишига ва кишилиқ ҳаётининг турли соҳаларини компютерлаштиришга олиб келди. Бу эса ўз навбатида бугунги кунда ғоятда тезкорлик билан ўсиб бораётган «Ахборотли жамият» назариясини майдонга келтирди.

Ахборот сиёсатини тиғиз ахборотлашган жамият шаклланаётган бир пайтда ҳозирги замонавий талаблардан келиб чиқиб, янгилаш, модернизациялаш зарур.

Жамият шу даражада шаклланиши лозимки, унинг аъзолари тиғиз ахборотлар бозоридан умуммиллий манфаатга хизмат қиладиган, унинг тараққиётига ёрдам берадиган ахборотни танлай олсин. Ахборот олиш кафолати бу бевосита шахсий манфаатдан устун турадиган, умуммиллий манфаатга дахлдор бўлган қадриятга айланмоғи лозим. Ана шундай шароитда қандай мазмундаги ахборотни тарқатишни ман этиш, жамиятнинг психологик ҳолатига салбий таъсир этувчи, ижтимоий, миллий, этник, диний тафовут ва келишмовчиликларни кучайтирувчи, зўравонлик ва урушни тарғиб этувчи, порнография, маиший бузуқлик, шахслар мавқеига, обрўсига ва шаънига салбий таъсир этувчи ахборотларни чегаралашнинг норасмий, виждон билан боғлиқ бўлган, соғлом ақл ва юксак тафаккурга таянган маънавий-руҳий меъёрлари вужудга келади.

Маънавий-маърифий тарғиботни ҳамма оилада, маҳаллада, кенг жамоатчиликка ахборот тармоқлари, нотиклик клублари, жамоат ташкилотлари орқали узатиш мумкин. Бизнинг ижтимоий хулқ-атворимиз, хатти-ҳаракатларимиз бизнинг установакаларимиз билан белгиланади. Тарғибот ва ташвиқот ҳам таълим-тарбиянинг бир кўринишидир, агарда тўғри тарғиб қилинса, инсонларни бузғунчи ғоялардан асрайди, установакаларни ўзгартиради.

Демак, фарзандларга оилада таълим тарбия берилаётганда ота-оналарнинг ўзлари улар учун намуна, ибрат бўлишлари керак. Шунинг учун миллий ғояни инсонлар қалбига ва онгига сингдиришни энг аввало оиладан бошлаш керак.

Шундай қилиб, ахборот хуружларига қарши туришда қуйидагиларни ёдда тутиш лозим:

а) аслида атайлаб таъсир этишга мўлжалланган хабарни шахс дарров қабул қилмайди. Чунки, биринчидан, унда илгаридан психологик ҳимоя мавжуд ва иккинчидан, ҳар қандай янги нарсанинг сингиб кетиши учун муайян ахборот тўсиқлари мавжуд.

б) бундай шароитларда “учинчи шахс таъсири” рўй беради. “Учинчи шахс таъсири” маъноси – “бу хабарга ҳамма ишонаверсин, менга таъсир қилмайди” деб ўйлаган шахс, маълум маънода ахборот таъсирига тушиб бўлган бўлади.

в) Ишонтирувчи чақириқларга, масалан, реклама орқали етказилаётган хабарларга ёш болалар жуда ўч бўлади ва айнан улар ота-онани кўндиради.

90% оналар айнан реклама қилинган товарларни болаларига харид қилиб олиб беради. “Интернет”га уланиш, уйда замонавий компьютерга эга бўлиш фикри ҳам болалардан чиқади.

г) Хабарнинг асл мақсади аслида фақатгина маълумот бериш эмас, балки аниқ фактлар асосида *ишонтира* олиш ҳам демакдир. Одамнинг маълумотлилик даражаси қанчалик юқори бўлса, унинг турли хабарларга ишонқирамай муносабатда бўлиши ҳам юқори бўлади. Лекин хабарга ишонқирамай қарашимиз бизнинг уни қабул қилишимиз ёки қилмаслигимизни билдирмайди. Вояга етмаганлар ўртасида «бу ахборот манбаига ишонманглар», «Улар атайлаб ёлғон маълумот бермоқда» десак, бу нарса уларнинг шу турли ахборотни қабул қилмасликларини кафолатламайди. Лекин «огоҳлантирилган одам қуролланган, муҳофазаланган бўлади» деган тамойилдан келиб чиқиб, биринчи огоҳлантиришдан сўнг, яна ўз фикримизни фактлар билан асосласак, улардаги иммунитет кучлироқ бўлади. Лекин шуни назарда тутиш лозимки, огоҳлантириш муддатлари ҳам роль ўйнайди. Масалан, экспериментларда бир хафта аввал огоҳлантиришнинг таъсири узоқроқ муддатдан кўра камроқ эканлиги маълум бўлган. Ёки уйда холи, комфорт шароитда қабул қилинган таъсир билан одамлар орасида, кўпчиликнинг ичида ёмон хабарни қабул қилиш фарқланади, чунки ёлғиз уйдаги таъсир скептизмни кучлироқ намоёниш этиши кузатилган.

Иккинчи томондан, бевосита ахборотни қабул қилиш арафасидаги огоҳлантириш қарши аргументлар ишлаб чиқиш вақтини камайтиради, ундан сал аввалроқ огоҳлантириш эса инсон миясида маълумотни қайта ишлашга имкон беради.

д) Таниш нарсалар ҳақида маълумотга эга бўлган одамни ишонтириш тезроқ амалга ошади. Лекин самарали тактикалардан бири - ахборот каналлари орқали берилаётган маълумотларни очикчасига жамият манфаатларига зид

эканлиги, уларнинг адолатсиз, худбинларча узатилаётганлиги, нималаридир қонунга хилоф эканлигини қайд этиш мумкин. Яъни, тарбиячи, ўқитувчи очик тарзда ўз норозилигини баён этиши, тарғиботчи фикрига қарши эканлигини айтиши мумкин. Бу ҳолат ҳам аудиторияни ўйлашга мажбур этади.

Айтиш жоизки, ҳар бир инсон ҳаётга ўз нуқтаи назари билан қарайди. Ташқи муҳит инсонга турлича таъсир кўрсатади. Зарарли таъсирлардан ҳимояланиш ўша инсонда мафкуравий иммунитет қай даражада эканлигига боғлиқлиги аллақачон ўз исботини топган. Зеро, инсон маънавий-маърифий, ахлоқий-руҳий даражасидан келиб чиққан ҳолда фаолият кўрсатади. Шунга яраша фикрлайди, ахборот қабул қилади, хулоса чиқаради. Бу хулоса унинг онги қай даражада шаклланишини кўрсатади. Ҳар қандай ахборот мазмуни, моҳияти, таъсир этиш даражаси, жамиятга фойдали ёки зарарлилиги, кишини эзгуликка ёки ёвузликка даъват этишини эътибор билан ўрганиш лозим. Зеро, миллий манфаатларни асраш ва ривожлантириш учун ахборот-психологик хавфсизликни таъминлаш ғоят муҳимдир. Шу ўринда ахборот-психологик хавфсизлик тушунчасини теран англаб олмақ жоиз. Мутахассислар фикрича, ахборот-психологик хавфсизлик – бу бевосита инсон руҳиятига таъсир ўтказиш орқали уни ўз ақидаларидан, муқаддас идеалларидан, эътиқодидан айирадиган бузғунчи ғоялардан асрашдир. Демак, ахборот-психологик хавфсизликка эҳтиёж, энг аввало бевосита инсон ва жамият, инсон ва давлат, шахс ва унинг дахлсизлиги, миллат ва миллий қадриятлар, жумладан, урф-одатлар, анъаналар, тарихий ва маданий мерос, авлодлар ворисийлиги, миллатнинг истикболи билан боғлиқ бўлган қадриятларга маънавий-руҳий таъсир, бузғунчи ғояларнинг мавжудлигидан келиб чиқади.[6]

Ахборот-психологик хавфсизликка риоя қилинмаса, унинг таъсирчан чоралари кўрилмаса, бузғунчи ғоялар миллий қадриятларни барбод этиш орқали тарихан мавжуд бўлган халқлар ва миллатларни геноцидга олиб келиши муқаррар. Тиғиз ахборотлашган жамиятда ахборот орқали замонавий руҳий таъсир технологияларининг тобора ривожланиб бораётганлиги шахс ва жамият тафаккурининг шаклланишига у ёки бу тарзда кучли таъсир ўтказади. Жамоатчилик фикрининг қай даражада шаклланишига, жамиятнинг сиёсий онги, ҳуқуқий билимлар савияси, маънавий-маърифий даражасига қараб жамиятнинг тараққиётга ёки таназзулга юз тутиши муқаррар. Ижтимоий фикрни шакллантиришда ахборот таъсирини ошириш, ахборот технологияларидан фойдаланиш усуллари ва услубларининг тобора кенгайиб бораётганлигини назарда тутсак, ахборот-психологик хавфсизлик муаммоси яна ҳам кескинлашиб қолади.

Ахборот технологиялари ривожланаётган жамиятда турли таҳдидлар ҳам пайдо бўлиб туриши одатий ҳолга айланмоқда. Ахборот-психологик ҳимоя

етарли даражада таъминланмаган жамиятда турли таҳдидлар одамларда қурқув, ҳадик ва ишончсизлик туйғуларини пайдо қилаверади. Шу ўринда жамиятда ахборот-психологик хавфсизликнинг тўла таъминланиши шундай салбий ҳолатларга чек қўйиши мумкин. Ахборот-психологик хавфсизлик ҳар қандай ёт, бузғунчи ғоялар, мафкуравий таҳдидларнинг салбий таъсирини йўққа чиқаришга хизмат қилади. Жамият тараққиёти жараёнида ахборот-психологик хавфсизлик маънавий-ахлоқий мезонларга ҳам айланиши мумкин. Бунда ахборот олиш ва тарқатиш билан шуғулланувчи ОАВ ходимларининг сиёсий савияси, касб маҳорати ва энг муҳими фаол фуқаролик позицияси ҳам намоён бўлаверади.[5]

Маълумотларга қараганда ҳозир дунё бўйича инсонлар орасида (катта ёшдагилар орасида ҳам, ёшлар, ўсмирлар, болалар орасида ҳам) тажовузкорлик кўрсаткичи тобора ошиб бормокда. Бунинг асосий сабабларидан бири эса агрессияни тарғиб қилувчи адабиётлар, теле-, радио-, аудио-, видео- ва мультимедиа маҳсулотлари, интернетдаги материаллар, компьютер уйинларининг кўпайиб бораётганидир. Уларнинг барчаси инсонларнинг психик ва психоэмоционал ҳолатига босим қилиш, кишиларни зимдан бошқариш, уларга ахборий-психологик таъсир ўтказишнинг таъсирчан воситаси сифатида намоён бўлади. Одамларнинг онг ости фаолиятига ахборий таъсир ўтказиш (кимёвий препаратлар, лазер-нур мажмуалари, юқори ёки қуйи частотали тўлқинларни ҳосил қилувчи генераторлар ёрдамида кўрсатиладиган психотрон таъсирни-ку, қўя турайлик) уларда турли психосоматик касалликларнинг рижоғланишига, танада физиологик ва органик бузилишларнинг кузатилишига, шунингдек, хатто ўлимгача олиб келадиган вазиятларни яратишга сабаб бўлиши мумкин. [7]

Жамиятда ахборот-психологик хавфсизликни таъминлаш учун ташкилий-техник жиҳатдан таъминланган бўлиш, замонавий техника ва технологиялар билан етарли даражада қуролланиш зарур. Бу борада моддий-молиявий база бўлиши керак. Ахборот-психологик хавфсизликни таъминлаш моҳиятини теран англайдиган соҳа ходимлари имкониятларини кенгайтириш, замонавий ахборот технологиялардан самарали фойдалана оладиган билимларга эга, ҳар томонлама кенг фикрлайдиган кадрларни тайёрлаш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар

- 1.Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Монография. – Тошкент: Фан, 2007.
2. Ғаффорова Г. Ахборот ва ахборотлаштириш масалаларининг фалсафий-методологик муаммолари: Фалсафа фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2008.
3. Ғуломов С.С. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Тошкент: Шарқ, 2000.

4. Криско В. Секреты психологической войны. Цели, задачи, формы, опыт. – Минск. Харвест, 1999. с-6.

6. Раимов Ш.У. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш – миллий хавфсизлик стратегиясининг энг муҳим йўналиши. /Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси жорий архиви, 2006.

7. Кодиров У. Ёшлар ва ахбории-психологик хавфсизлик. Замонавий таълим журн. 2014, №4

IRODAVIY FAOLLIKNING VAZIYATLI VA SHAXSLILIK DETERMINANTLARIGA DOIR YONDASHUVLAR

Jo‘rayev O‘tkir Tashpulatovich

Termiz davlat universiteti Psixologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada irodaviy faollikning vaziyatli va shaxslilik determinantlariga doir yondashuvlari bayon etilgan. Tadqiqot mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda iroda muammosini determinantlarini yoritishga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek irodani rivojlantirishga doir tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: iroda, faollik, gender, mas‘ulyatlilik, tashabbuskorlik, qat‘iyatlilik, matonat, mustaqillik, tirishqoqlik, g‘ayratlilik, ziyraklik, sobidqadamlik.

KIRISH. Shaxsning o‘z maqsadlariga erishishida, biror faoliyatga mas‘uliyat bilan yondashishi, oldida turgan to‘siqlarga qaramasdan mazkur vazifani bajarishda g‘ayrat ko‘rsatishi, qat‘iyatlilik va tashabbuskorlik namoyon etishi muvaffaqiyatli faoliyat garovi bo‘lib qolmoqda. Darhaqiqat, insonning har qanday faoliyatda iroda yetakchi o‘rin egallaydi.

Psixologiya fanida irodani o‘rganish turli ilmiy-metodologik asosga qurilgan holda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida amalga oshirilib kelinmoqda. Uzoq tarixga ega bo‘lgan izlanishlar falsafa fani qobig‘ida o‘tkazilgan, lekin sof psixologik masalalarni ochishga harakat qilingan. Iroda to‘g‘risidagi mulohazalar, talqinlar, uning ichki mohiyatini ochishga intilish antik dunyoda yuzaga kelgandesak adashmagan bo‘lamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Psixologiya sohasida olib borilgan nazariy va amaliy tajribalarning tahliliga asoslanib, iroda muammosini ikki ko‘rinishda o‘rganilmoqda. Birinchi yondashuv o‘z tarkibiga determinlashuv an‘anaviy muammolarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ikkinchi yondashuv esa masalani o‘zini o‘zi boshqaruv sifatida o‘rganishni talab etadi. Psixologiya sohasida bunday holat “iroda” tushunchasi mazmunini birma’noli tarkiblarga ajratishda, uni boshqa atamalar bilan munosabatini aniqlashda qiyinchiliklarni tug‘diradi.

Shu boisdan psixologiya sohasida ixtiyoriy va irodaviy tartibga solish munosabatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud bo‘lganligi sababli, bu ikki hodisaning nazariy tahlili asoslangan ma‘lumotlar yetarli emasligi muammoni yanada chuqurroq o‘rganishga ehtiyoj tug‘diradi.

Iroda va irodaviy sifatlar borasida bir qator ilmiy konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ularda mavzumiz doirasidagi o‘ziga xos qarashlarni uchratish mumkin. Jumladan

irodaga nisbatan dastlabki qarashlar qadimgi yunon mutafakkirlaridan Aristotel ta'limotlarida o'z aksini topa boshlagan. Aristotelning yondashuvlarida dastlabki voqelik iroda, muammosi doirasida talqin etilgan bo'lib, insonning o'zidan boruvchi harakatning tug'ilishi sifatida talqin qilinadi. Iroda muammosiga harakatning tug'ilishi kontekstiga asoslanib qarash, eng avvalo uning qo'zg'atuvchilik funksiyasini o'zida aks ettiradi. Shuningdek Epikur "Shaxs xulq-atvorining spontan, determinlashmagan tanlov erkinligi to'g'risidagi masalani" dastlab fan maydoniga olib kirgan edi.

Bizning mavzumizga dahldor tadqiqotlardan biri N.D.Skryabin tomonidan amalga oshirilgan. [6] U o'z tadqiqotlarida ikki jins sinaluvchilarning jasurlik sifatlarini davriy o'zgarishlarini asoslab berishga harakat qilgan.

Irodaviy faollikning individual xususiyatlari mavjud bo'lib, u shaxs faoliyatini ma'lum bir maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi. Shaxs faoliyatida iroda ichki qiyinchiliklarini yengishga yonaltirilgan ongli tuzilmadan iborat bo'lib, u o'zini o'zi boshqarish sifatida namoyon bo'lib, o'z ichki kechinmalarini hamda faolligini tartibga solishga xizmat qiluvchi psixologik hodisadir. Irodaning kuchi yoki kuchsizligini aks ettiruvchi holatlar uning individual xususiyatlarini namoyon qiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlari, sifatleri, hislatlari, illatlari to'g'risida mulohaza yuritiladi. Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo'lib, ular abuliya (yunoncha abulia – qat'iyatsizlik degan ma'noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha apraxia-harakatsizlik ma'nosini bildiradi) atamaları bilan ifodalanadi. Abuliya - bu miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan tarzda shunday qila olmaslikdan iborat inson ojizligidir. [7]

Ba'zi tadqiqotchilar qarashlarida irodaviy faollikni, shaxsning tashqi muhit bilan bo'ladigan aloqasini tushuntirishga harakat qiladilar. Y.A.Sergiyenkoning takidlashicha, iroda bu - voqelikni subyektga ong darajasida aks ettiruvchi hamda faoliyatni nazorat qiluvchi psixikaning tipik xususiyatidir deb izohlaydi [2;87-b]. Unga ko'ra shaxs har qanday oldida turgan to'siqlarni yengishda iroda kuchiga tayanadi. Shuningdek, iroda shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi psixologik jarayondir.

Taniqli tadqiqotchi olim Y.P.Ilinning yondashuvlariga binoan, irodaviy faollikning mohiyatiga to'xtalishdan oldin, uni turlarga ajratib ko'rsatish muhim vazifa sanaladi. Chunki ular aynan psixik faoliyatning qaysi bo'g'inlarida qatnashadi yoki inson uchun nimani ta'minlab beradi degan savol paydo bo'lishi tabiiy[3;44-b]. Demak, irodaviy sifatlar insonning individual psixologik faoliyatini nazorat qiluvchi psixologik unsurlardan sanaladi. Yana bir tadqiqotchi V.K.Kalinning qarashlarida, irodaviy faollik o'ziga xos psixologik voqelik hisoblanib, uning namoyon bo'lishi tartibga soluvchanlik va nazorat qilish funksiyalarida aks etadi [4;61-b]⁴. Ushbu

jarayonda shaxsning biror-bir faoliyatdagi muvaffaqiyatning o'zgarmasligi inobatga olinadi.

Gruzin akademigi D.N.Uznadze ta'limotida irodaning shakllanishini shaxsning mehnat faoliyati bilan aloqadorligini izohlaydi, qachonki iroda faol ehtiyojsiz ham ro'yobga chiqadi va subyektning ehtiyojlariga bog'liq bo'lmagan qadriyatlarni yaratishga yo'naladi. D.N.Uznadze "Iroda muammosining tub ildizini shunda ko'radiki, bunda iroda faoliyat yoki xulq-atvorning manbasi ilg'or ehtiyojlarning impulsi emas, aksincha butunlay boshqa narsa tarzida ko'rinishga ega bo'lib, hatto unga qarama-qarshi xususiyat kasb etadi" degan fikrlarni keltirib o'tadi. [;316-b]

Nemis psixologi Vilyam Shtern irodaning o'ziga xos xaxatlarini quydagicha tariflaydi, "Uhaqiqiy harakat bilan emas, balki kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan harakat bilan bog'liq va iroda insonni oldinga intilishga chorlovchi istiqbolli harakatidir" deb ta'riflaydi.

Shuningdek, mashhur rus psixologi A.V.Petrovskiy tajribalari asosida "Iroda – bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir", deb takidlaydi. [4;250-b] Darhaqiqat A.V.Petrovskiyning yuqoridagi ta'rihi irodaga berilgan umumiy ta'riflarga mos keladi.

Har bir insonda irodani rivojlantirish va uni mustaqil ravishda tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Irodani ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa, shunchalik ko'p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Jo'rayev O.T. Xorij psixologiyasida iroda muammosining tadqiqi. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari ilmiy jurnali 75-77 betlar. 2021. [1/6] ISSN 2181-7324
2. Сергиенко Е.А., Виленская Г.А., Ковалева Ю.В. Контроль поведения как субъектная регуляция // М.: Институт психологии РАН, 2010. – 352 с.
3. Ильин Е.П. Психология волевой услия.- СПб.: ПИТЕР, ДОМ НАУКА, 2009. – 368 с.
4. Калинин В.К. Психология воли (Метод.аспект) // Симферополь: ТНУ, 2011.– 321 с.
5. Ғозиев Э.Ғ Умумий психология Тошкент 2010 йил. 223-226-бетлар.
6. Сатторова Г.И. Илк ўспирин ёшида иродавий сифатларни ўрганишнинг психодиагностик имкониятлари. Монография. Қарши. Насаф нашриёти. 2014 йил.

KICHIK YOSHDAGI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KOGNITIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHDA OILANING O‘RNI VA RO‘LI

Nurqulova Gavhar

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Kognitiv faoliyat-bu idrok, fikrlash, xotira, e'tibor, nutq kabi aqliy jarayonlar yordamida atrofdagi voqelikni bilishga qaratilgan ongli faoliyat hisoblanadi. Kognitiv rivojlanish tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilishga ta'sir qiluvchi intellekt va aqliy funksiyalarning kamolotini ifodalaydi. Ushbu maqolada kichik yoshdagi o'quvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirish, uni yo'llari usullari va unda oilaning o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kognitiv faollik, fikrlash, qobiliyat, oila, muhit, rivojlantirish.

Ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati yosh o'quvchining rivojlanishida yetakchi rol o'ynaydi. Ta'lim faoliyatida namoyon bo'ladigan va atrofdagi haqiqatni bilishga qaratilgan faoliyat kognitiv deb nomlanadi. Kognitiv faoliyat bolaning intellectual rivojlanishini ta'minlaydi. U nafaqat kognitiv vazifalarni hal qilish zaruriyati, balki olingan bilimlarni amalda qo'llash zarurati bilan ham tavsiflanadi. Kognitiv faoliyat bu - bilimlarni egallash va rivojlantirishning maxsus jarayoni, uni doimiy ravishda chuqurlashtirish, kengaytirish va takomillashtirishdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish yo'llari va usullarini o'rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biridir. Atrof-olam, dunyoni anglashga qiziqish, noma'lum narsani bilish istagi – asosan o'qitish va faoliyat samaradorligini belgilaydigan ustuvor xususiyatdir. Kognitiv harakatlarni tashkil etish bolada allaqachon shakllangan ehtiyojlarga, shu jumladan kattalar bilan muloqot qilish zarurligiga asoslangan bo'lishi kerak (harakatlar, amallar, qarorlar, fikrlarni tasdiqlash). Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda kognitiv (bilish) faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilishning ikki yo'li mavjud: keng va intensiv. Ularning ikkalasi ham bitta yakuniy maqsadga ega: bilimli, axloqli, ijtimoiy faol, qobiliyatli shaxsni tarbiyalash. Biroq, maqsadga erishishning yondashuvlari turlicha. Keng yo'l, birinchi navbatda, bolalarga yetkazilgan bilim hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi. Intensiv yo'l sub'ektiv, shaxsiy manfaatdorlik pozitsiyasini shakllantirishga asoslanadi va bu ta'lim dasturlari tarkibidagi o'zgarishlarni va o'qitish uslublarini intensivlashtirishni (rivojlanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) nazarda tutadi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbligi shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi faqat uning faoliyati va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o'z navbatida mustaqillik va tashabbusni shakllantirishga yordam beradi. Kognitiv faoliyat bolaning faolligini, uning bilimga bo'lgan ishtiyoqini, noma'lumdan ma'lumni aniqlashga bo'lgan harakatini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda "bilish faoliyati" tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Kognitivlik bolaning mustaqil faoliyatga intilishini anglatadi, ijtimoiy tajribani, insoniyat tomonidan to'plangan faoliyat usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Manbalarda kognitiv faoliyat bilan bir qatorda kognitiv qobiliyat iborasi ham keng qo'llaniladi. Kognitiv qobiliyat bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u bolaning

intellektual rivojlanishi, uning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aniqlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Qobiliyatlar – bu insonning individual psixologik o‘ziga xosligi bo‘lib, ilmiy, amaliy va ijodiy faoliyatida namoyon bo‘lishini hamda uni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Pedagogika va psixologiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichida kognitiv qobiliyatlar bolaning intellektual va hissiy qobiliyatlarining kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. Kognitiv qobiliyat har qanday bilim faoliyati muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Ya‘ni kognitiv (bilish) qobiliyatlari atrofidagi dunyoni bilishga qaratilgan, sharoit va omillar ta‘siri ostida rivojlanayotgan insonning individual xususiyatidir.

Kichik maktab yoshi ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Shu davrda ko‘plab sohalarda ilg‘or o‘zgarishlar yuz berdi, aqliy jarayonlar (diqqat, xotira, hislar, fikrlash, nutq, tasavvurlar) yaxshilanadi, shaxsiy fazilatlar faol rivojlanadi.

Tadqiqotlar (K.Yu.Belaya, N.E.Varaksa, N.S.Denisenkova, T.V. Doronova, L.B. Shnayder va boshqalar) ko‘rsatganidek, oilada (ota-onalar, bobo-buvilar, boshqa qarindoshlar) bolaning rivojlanishiga qiziqish ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, bolaning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda oilaning o‘rni, bu jarayonga qanday ta‘sir qilishi, kichik maktab yoshidagi bolaning aql-idroki va ijodkorligini rivojlantirishga qanday yordam berishi mumkinligi haqida savol tug‘iladi.

Oila jamiyatning kichik bo‘lagi bo‘lib, u bolaning dastlabki hayot maktabi, ota-ona bo‘lsa, ham tarbiyachi, ham o‘qituvchisidirlar.

Bolaning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi oilaviy tarbiyaning bir qancha omillari mavjud:

- Ota-onalarning bolaning kognitiv qobiliyatini rivojlanishiga nisbatan pozitsiyasi va unga ta‘sir qilish usullari
 - Bolaning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga munosabat
 - Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar uslublari
 - Bolani boshqarish va boshqarish uslubi
 - Oila tarkibi va undagi munosabatlar.

Keling, ushbu sohalarning har birini ko‘rib chiqaylik. Porotskaya va V.F. Spiridonov asarlarida, kichik maktab yoshidagi bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga oilaning sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ko‘pchilik olimlar oilaning to‘liqligi, ya‘ni ikkala ota-onaning mavjudligi va ularning birgalikda yashashi qobiliyatlarning rivojlanishini belgilamaydi, bu yerda muhim omil - oila a‘zolarining moddiy va psixologik farovonligi deya ta‘kidlagan. Ijodkorlik qulay psixologik muhit va bo‘sh vaqtning mavjudligini talab qilishi uzoq vaqtdan beri ma‘lum, shuning uchun kognitiv qobiliyatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun oilada va bolalar jamoasida iliq, do‘stona muhitni taminlash zarurdir. Kattalar bolaning ijodiy izlanishdan va o‘z kashfiyotlaridan qaytishi uchun xavfsiz psixologik bazani yaratishi kerak. Bolani doimo ijodiy bo‘lishga undash, uning muvaffaqiyatsizliklariga hamdardlik ko‘rsatish, muvaffaqiyatlarini muntazam rag‘batlantirib borishi zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, bolaning kamol topishida yurtimizda yaratilayotgan shart-sharoitlar nihoyatda ko‘p. Lekin har bir ota-ona tarbiya avvalo oiladan

boshlanishini anglab yetishi kerak, Bolaning qanchalik bilimli, kognitiv qobiliyatli, lider bo‘lib yetishishi, kelajakda yuksak marralarni zabt etishi uning yoshligida oladigan tarbiyasiga bog‘liqdir. Buning uchun ota-ona doimo farzandi ta‘lim olayotgan maktab bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi, kerak bo‘lsa oilada ona pedagog bo‘la olishi lozim. Maktabdagi ta‘lim jarayonining asosiy prinsiplariga oila, mahalla va maktab bilan hamkorligining kirishi ham bu jarayonning qanchalik muhim ekanligining yaqqol isbotidir. Ota-onalar bola tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berib o‘z bolalarini qanday insonlar bo‘lib yetishib chiqishini nazardan chetda qoldirmasliklari kerak. Har bir ota-onada pedagogik bilimlar mujassam bo‘lishi kerak. Bu bilimlar ota-onalarning bolalarni yosh va individual xususiyatlarini o‘rganishga, xulqini to‘g‘ri tahlil qilishga, uning tarbiyasi uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlashga intellektual, ijodiy, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Щукина Г.И. Усиление когнитивной активности в процессе образования. – М., Образование, 2005 год.
2. Kognitiv faoliyat darajalari: darslik / T.I. Shamov. - M.: Ta'lim, 2005. - 286 b.
3. Azizov, D. (2023). KOGNITIV KOMPETENTLAR KLASTERINING TUZILISHI. Interpretation and Researches, 1(9). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1026>
4. Nurqulova, G. (2023). PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR STIMULATING COGNITIVE ACTIVITY IN SCHOOLCHILDREN OF YOUNGER AGE. Modern Science and Research, 2(12), 1262-1265.
5. Ergashevna, N. G. (2023). Improving Educational Mastery Opportunities in Primary School.

OILADAGI ROLLAR TAQSIMOTIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Xudoyqulova Shoirra

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail: soirahudojkulova34@gmail.com

Phone number: (88) 807 31 07

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi rollar taqsimotiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, ota-onaning munosabatlari hamda rollarning to‘g‘ri taqsimlanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy muhit, shaxs, oila, xulq - atvor, tarbiya.

Shaxsning komil inson bo‘lib shakllanishida oilaning o‘rni beqiyosdir. Zero, qadimdan oila bejiz muqaddas sanalmagan. Inson o‘z hayotini oilasiz tasavvur qila olmaydi va aynan mana shu oila muhitida u jamiyat a‘zosi sifatida tarbiya topadi. Oiladagi tarbiya muhiti, avvalo, oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ya‘ni, ota-onalar bilan farzandlarning o‘zaro yaxshi munosabati, qariyalarga hurmat-e‘tibor, ota onaning farzandlar tarbiyasiga o‘ta mas‘ulligi, oilada o‘rnatilgan namunali tartib va ijobiy urf-odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot

hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lishi kabilar oilaviy munosabatlar madaniyatining nozik qirralaridir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak, o'sha oiladagi sog'lom muhitga putur yetadi va nosog'lom munosabatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu sababli oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Oilaning sog'lomligi va oilaviy muhitning qanday darajada bo'lishi jamiyat rivojiga, undagi mavjud muammolarni hal etishda ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oiladagi ota va ona o'rtasidagi yuksak madaniy munosabat bolalarni quvnoq, xushchaqchaq o'sishlariga, to'g'ri tarbiya olishlariga, oilada sog'lom muhit yaratilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Noahillik, qo'pollik, do'q-po'pisa, asabiylik hukm suogan oilalarda halovat bo'lmaydi, oiladagi kichik kelishmovchilik, ziddiyatli xolat ham dastavval bolalarning psixik holatiga ta'sir ko'rsatadi, ularda yomon odatlar hosil bo'lishiga olib keladi.

Oila doirasidagi ijtimoiy rollar shaxsning ruhiy, psixologik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir a'zo o'ziga xos rolga ega bo'lib, bu rollar oiladagi vaziyatga qarab shakllanadi va o'zaro munosabatlarni aniqlaydi. Oilada ota, ona, farzandlar va boshqa a'zolar o'rtasidagi rollarning taqsimlanishi psixologik omillar bilan bog'liq bo'lib, oiladagi har bir a'zo bu rolda o'ziga xos tarzda rivojlanadi.

Oilaviy rollar oilaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy holatiga ko'ra o'zgarishi mumkin, lekin psixoanaliz nuqtai nazaridan har bir a'zo o'ziga yuklatilgan rol orqali o'z psixologik rivojlanish yo'lini belgilaydi. Shuningdek, bu rollar shaxslararo munosabatlar va individning o'zini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada oilaviy rollarning psixologik xususiyatlari Z. Freyd, Alfred Adler va boshqa psixologlarning asarlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda oiladagi ijtimoiy rollarning taqsimoti va har bir rolning psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Maqolada psixoanalitik nazariya va tug'ilish tartibi nazariyasidan foydalanilgan. Shuningdek, oiladagi har bir rolning individning ruhiy rivojlanishiga ta'siri psixologik jihatdan ko'rib chiqilgan.

Oilada ota va ona asosiy ijtimoiy rollarni bajaradi. Ota ko'pincha oilada iqtisodiy ta'minlovchi va intizomni saqlovchi shaxs sifatida ko'riladi. Bu uning farzandlar va rafiqasi bilan bo'lgan munosabatlariga ta'sir qiladi.

Ona oiladagi g'amxo'rlik, mehr-muhabbat va parvarish qilish kabi rollarni bajaradi. Onaning bu roli bolalarning ruhiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Freydning psixoanalitik nazariyasiga ko'ra, onaning farzand bilan yaqin hissiy aloqasi farzandning kelajakdagi ruhiy holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Oilada farzandlar o'rtasidagi rollar ham muhim psixologik xususiyatlarga ega. To'ng'ich, o'rtancha va kenja farzandlarning oiladagi o'rni ularning psixologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

To'ng'ich farzand ko'pincha oilada katta mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. U yosh aka-uka yoki opa-singillariga o'rnak bo'lib, ota-onaning umidlarini amalga oshirishga harakat qiladi. Bu holat unga liderlik xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, lekin shu bilan birga ortiqcha bosim va stressni ham keltirib chiqarishi mumkin. To'ng'ich farzand ko'pincha oilaning diqqat markazida bo'lib, oilaning qadriyatlarini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, to'ng'ich

farzandning ota-onasi bilan bo'lgan munosabatlari keyingi aka-uka yoki opa-singillarga nisbatan qat'iyroq bo'lishi mumkin, bu esa uning shaxsiy xulq-atvorini shakllantiradi.

O'rtancha farzand esa ko'pincha to'ng'ich farzandning soyasida qoladi. Bu farzandning oiladagi o'rnini kamroq e'tibor bilan belgilanadi, bu esa uning o'zini anglashiga ta'sir qiladi. O'rtancha farzand ko'pincha o'ziga nisbatan ko'proq mustaqillik va erkinlikka ega bo'ladi, lekin o'z mavqeini topish uchun ko'proq harakat qilishi kerak bo'ladi. O'rtancha farzand o'zining oiladagi mavqeini mustahkamlash uchun o'zini ko'proq ko'rsatishga intiladi va bu holat uning shaxsiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kenja farzand esa ko'pincha oilaning eng ko'p e'tiboriga sazovor bo'lgan a'zo hisoblanadi. Unga ko'pincha ota-ona va aka-ukalar tomonidan g'amxo'rlik qilinadi va ko'proq mehr-muhabbat ko'rsatiladi. Bu holat kenja farzandni o'ziga nisbatan ishonchli, lekin ba'zan ortiqcha talabchan qilib qo'yishi mumkin. Kenja farzandning oiladagi roli uning o'ziga xos xulq-atvorini va boshqalar bilan bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Bu farzand oilada eng ko'p himoyalangan va erkalgan bo'lishi mumkin, bu esa uning kelajakdagi shaxsiy munosabatlariga ham ta'sir qilishi ehtimoli bor.

Farzandlar o'rtasidagi munosabatlar ham ularning psixologik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Aka-uka yoki opa-singillar o'rtasidagi raqobat va qizg'anish hissi oiladagi har bir farzandning ruhiy rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Psixoanalizga ko'ra, aka-uka yoki opa-singillar o'rtasidagi raqobat oilada kimning e'tibor markazida bo'lishi uchun kurashga olib keladi. Bu raqobat ularning ruhiy holatida raqobatchilik va stressni keltirib chiqarishi mumkin. O'z navbatida, bu holat oilaviy muhitda farzandlarning shaxsiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Psixoanalitik yondashuvga ko'ra, farzandlar ota-onaning e'tiborini qozonish uchun raqobatga kirishadi, bu esa aka-uka yoki opa-singillar o'rtasidagi ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bu jarayon bolalarning o'zaro munosabatlarida ham aks etishi mumkin, ya'ni har bir farzand o'z o'rnini saqlashga intiladi.

Oiladagi rollarning to'g'ri taqsimlanishi shaxsning ruhiy sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar oilada rollar noto'g'ri taqsimlansa yoki haddan tashqari qattiq intizom mavjud bo'lsa, bu holat farzandlarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Psixologlarning fikriga ko'ra, oiladagi haddan tashqari talablarga ega bo'lgan to'ng'ich farzandlar stress va tashvish holatiga ko'proq duch kelishi mumkin. Kenja farzand esa ortiqcha himoya va e'tibor tufayli mustaqillikdan mahrum bo'lishi mumkin.

Oiladagi rollarning muvozanatli taqsimlanishi farzandlarning ruhiy sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradi. Ota-ona farzandlarning psixologik ehtiyojlariga e'tibor qaratishi, ularni qiziqtirgan va muhim bo'lgan sohalarida rag'batlantirishi lozim. Farzandlarning oilaviy muhitda o'zlarini anglashlari va o'z o'rnini topishlari ularning kelajakdagi ruhiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlari uchun asos yaratadi.

Oiladagi rollarning psixologik taqsimoti shaxsning ruhiy rivojlanishi va shaxsiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. To'ng'ich farzandning liderlik roli, o'rtancha farzandning mustaqilligi va kenja farzandning himoyalanganligi

oiladagi har bir a'zoning o'ziga xos xulq-atvorini belgilaydi. Bu rollar oiladagi sharoit va ota-onaning munosabatlariga qarab o'zgaradi.

Psixoanaliz nuqtai nazaridan, farzandlar o'rtasidagi raqobat va ota-onaning kutilmalari ularning psixologik holatiga ta'sir qiladi. Har bir farzandning oiladagi roli uning shaxsiy rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Oilada rollarning to'g'ri taqsimlanishi esa shaxsning ruhiy sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradi.

Oilada ijtimoiy rollar taqsimotining psixologik xususiyatlari har bir farzandning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ota-onaning munosabatlari, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi raqobat hamda rollarning to'g'ri taqsimlanishi farzandlarning ruhiy sog'lig'iga ta'sir qiladi. Psixoanaliz nuqtai nazaridan, oiladagi rollarning muvozanati shaxsning ruhiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasidagi nutqi. 29-dekabr, 2020-y.
2. Yadgarova G.T., Avlayev O.U. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishlash (Uslubiy qo'llanma) T.: 2007 y.
3. Karimova V.M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - Toshkent, 2007.
4. Umarov B.M. Tarbiyasi og'ir bolalar va ular xulq-atvoridagi og'ishlarning kelib chiqish sabablari. (Uslubiy qo'llanma) – Toshkent, "Aloqachi" nashriyoti – 2008, 64 bet.

MUNDARIJA

<i>So‘z boshi. Abduqodir Hamidovich Toshqulov-Termiz davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor</i>	3
<i>Karimova V.M. Oilalarda rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Nizomiy nomidagi TDPU</i>	5
<i>Akramova F.A. O‘zbekistonda oilaga psixologik xizmat – innovatsion-psixologik faoliyat sifatida. Nizomiy nomidagi TDPU</i>	9
<i>Umarov B.M. O‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Alfraganus universiteti,</i>	12
<i>M.Fayziyeva. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini. QarDU</i>	16
<i>Жўраева С.Н. Оилавий муносабатларда шахсинг бахтни ҳис қилиш даражалари Nizomiy nomidagi TDPU</i>	20
<i>Beknazarova L.S. Innovatsion o‘qitishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari QarshiDU</i>	24
<i>Bekova Sh.J. Oilaviy munosabatlarning tipik ko‘rinishlari QarshiDU</i>	28
<i>Шарафутдинова Х.Г. Оилавий муносабатлар деструкциясида когнитив психотерапиянинг аҳамияти ТерДУ</i>	31
I-SHO‘BA. OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI.	
<i>Abdullayeva R.M. Oilaviy munosabatlar barqarorligi-hayot mazmuni ko‘rsatkichi sifatida.</i>	37
<i>Achilov N.A. Oilada ma’naviy axloqiy tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari. TerDU</i>	41
<i>Abdunazarova Z.A. Ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikda shaxs va jamoaning o‘zaro aloqadorlik munosabati. (TerDPI)</i>	44
<i>Turayeva G.E. Oilada sog‘lom bola tarbiyalashdagi o‘zaro munosabatlar (TerDU)</i>	47
<i>Bilolova Z.B. Oiladagi stress holatining o‘ziga xos xususiyatlari va echimlari. (Tosh. Alfraganus)</i>	51
<i>Қулмаматова Ф.Қ. Оила ва ёшлар деструктив хулқининг шаклланиши. DPTU</i>	56
<i>Хайруллойева М.Х. Ота-она ва фарзанд муносабатларининг ijtimoiy hayotga ta’siri. (TerDU)</i>	59
<i>Usanova B.E. Pedagog xodimlarning stressga bardoshlilikini oshirishda oilaviy muhitning ta’siri. TerDU</i>	62
<i>Murtozayeva M.K. Oilaviy munosabatlarni o‘rganishga doir</i>	66

allomalarning ilmiy merosi. TerDU talabasi	
<i>Ulasheva K.</i> Oilaviy munosabatlarda erkak va ayol psixik xususiyatlaridagi tafovutlarning tahlili. TerDU	68
<i>Choriyeva S.</i> Oilaviy munosabatlarni o'rganishga doir allomalarning ilmiy merosi (TerDU)	71
II-SHO'BA. GLOBALLASHUV SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI.	
<i>Назирова Л.В.</i> О проблеме представленности женщин в социальной жизни (ТГПУ)	75
<i>Самторова М.Д.</i> Ўз-ўзини англаш оилавий қадрият сифатида. (TerDU)	78
<i>Karayeva Y.X.</i> Alixonova Yu. Oilada farzand tarbiyasida internet va ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta'siri. (TerDU)	81
<i>Xudoynazarova N.Sh.</i> Oilaviy munosabatlarning shakllanishida alturizm xususiyatining psixologik fenomenlari (TerDU)	83
<i>Shomurotov U.M.</i> Globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlar muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari..(DTPI)	86
<i>Jumayeva G.O'.</i> Keksalikka moslashishda qadriyatlarning o'rni. TerDU	89
Normo'minova D.E. Xavotirli holatlarning turli oilalarda namoyon bo'lish xususiyatlari TerDU	92
<i>Qorabayev A.A.</i> Oilada destruksiya shakllanishining psixologik sabablari. (TerDU)	94
<i>Murodova E.</i> Oilaviy nizolarni mediatsiya orqali hal etishda psixologiyaning o'rni: ilmiy yondashuvlar va amaliy natijalar (TerDU)	96
<i>Qayumova M.</i> Shaxs takomillashishida va farzand tarbiyasida oilaning o'rni (TerDU)	99
III-SHO'BA. YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.	
<i>Қодирова А.Б.</i> Ал-Ҳаким ат-Термизийнинг психологик фикрларини илм фанга тадбиқ этиш масаласи. (TerDU)	101
<i>Караева Ю.Х.</i> Эгоизмни ўрганишдаги назарий қарашларнинг психологик таҳлили (TerDU)	105
<i>Saidaliyeva M.</i> Ta'lim va mehnat jarayonida shaxs psixosomatik kasalliklarining ijtimoiy – psixologik omillari va oqibatlari. (TerDU)	108
<i>Alimov Z.Ch.</i> Shaxsni ijtimoiy-psixologik himoya qilish va xavfsizlik.	110
<i>Alimardonova N.A.</i> Oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning o'rni va ahamiyati.	113

<i>Jakbarov A.M</i> Bolaning psixik rivojlanishida o‘yin faoliyatining ahamiyati. ()	117
<i>Ибрагимов Ш.Э.</i> Ҳарбий хизматчилар оиласида қизларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг психологик жиҳатлари. ()	119
<i>Bilolova Z.B.</i> Farzandlar ta’lim-tarbiyasida psixologik bilimlardan foydalanishning ahamiyati. (Toshkent)	122
<i>Botirov Z.N.</i> O‘smirlarda ijodiy qobiliyat rivojlanishida oilaning o‘rni. TerDU	125
IV-SHO‘BA. O‘ZBEK OILALARIDA GENDER STEROTIPLAR VA IJTIMOIIY ROLLAR MUVOFIQLIGI.	
<i>Туниянц А.А.</i> Специфика гендерной идентичности в юношеском и зрелом возрасте. (Филиала МГУ им. М.В. Ломоносова в г. Ташкенте)	129
<i>Mamadiyeva Z.Sh.</i> Ota-ona munosabatlarning bola psixologik rivojiga ta’siri. (TerDU)	133
Sharafullaeva Sh.K. Yetuklik davri inqirozining yosh va jins xususiyatlarini psixologiyada tadqiq etilishi. (TerDU)	136
<i>Choriyeva S.A.</i> O‘quvchilarni tarbiyalashda ota –ona va o‘qituvchi hamkorligidagi harakatlari ta’lim sifatini yaxshishilashda tutgan o‘rnini tadqiq etish. (TerDU)	139
<i>Rustamova M.</i> Sharq allomalari asarlarida psixologik qarashlar (TerDU)	142
<i>Abramatova M.O‘.</i> Oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va oila integratsiyasi. (TerDU)	147
<i>Boboraxmatova M.</i> Oilaning qiyinchiliklari va uni hal qilish yo‘llari (TerDU)	148
<i>Qayumova G.N.</i> Bolalarda qobiliyatlarning shakllanishida oilaning o‘rni. (TerDu)	151
<i>Almardanova S.B.</i> Kasbiy shakllanishni o‘rganishda tadqiqot metodikalarining qo‘llanilishi va psixodiagnostika jarayoni natijalari TerDU	153
V-SHO‘BA. TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA INNOVATSION YONDASHUVLAR	

<i>Пронин Р.О.</i> Возможности психофизических методов для исследования восприятия зрительных иллюзий. Филиал МГУ им. М.В.Ломоносова, Ташкент	158
<i>Djumayeva X.M.</i> Boshlang'ich ta'limda ko'p xonali sonlarni nomerlashda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. (TerDU)	161
<i>Norboyeva S.M.</i> Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda xarakter va irodaviy xususiyatlarning o'rni. (TerDU)	164
<i>Xolmuminova O.J.</i> O'quvchilarda ekologik ongni tarbiyalashga oid tushunchalar (TerDU)	167
<i>Muratova S.Ch.</i> O'zbek raqsini professional metodik o'rganish TAFU	169
<i>Abdullayeva Z.I.</i> Iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik xususiyatlari psixokorreksiyasi. (TerDU)	172
<i>Aminova D.O.</i> Kasbiy imijni o'rganishdagi ilmiy yondashuvlar. (TISI)	175
<i>Muhiddinova D.B.</i> Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijobiy xususiyatlarini shakllantirish. (TerDU)	179
<i>Шоймуродова Ф.К.</i> Передовые инновационные методы в изучении естественных наук в сфере медицины. (TISU)	183
<i>Salimov I.</i> Talaba yoshlarlarning bo'lajak o'qituvchi sifatida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish. (TerDu)	186
<i>Salimova M.S.</i> Imkoniyati cheklangan insonlardagi ijtimoiy integratsiya muammosi. (TerDu)	190
<i>Bobonazarov O.Sh.</i> Shaxs o'z-o'zini anglashi shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlari. (TerDU)	195
<i>Abdusalomova Z.</i> Bolalar psixologiyasining maqsad va vazifalarining ustuvorligi. (TerDU)	198
<i>Mengdanova N.M.</i> O'quvchilarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini yo'naltirishning pedagogik-psixologik jihatlari. (TerDU)	201
<i>Shahobiddinova M.A.</i> Pedagoglarda hissiy zo'riqish va uning mehnat faoliyatiga ta'siri. (Uzun tumani 53-sonli maktab)	204
<i>Umirzoqova Sh.L.</i> O'smirlarda deviant xulq-atvor ko'rinishining namoyon bo'lishi. (TerDU)	207
<i>Toshbayeva M. R.</i> Bolalarda qobiliyatlarning shakllanishida olilaning o'rni TerDU	210

<i>Toshpulatova D.A., Kayumova G.N.</i> Insonlarni manipulyatsiya qilish usullari va uning psixologik texnikasi. (TerDU)	212
<i>Toshpo'latova O'.B.</i> O'smirlik davrida yuzaga keladigan xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviant xulq atvor shakllanishiga ta'sirining psixologik mexanizmlari. (TerDU)	214
<i>Pirnazarova S.X.</i> Yoshlarda egoizm va alturizm tushunchalari. (TerDU)	217
<i>Zokirova T.B.</i> Motivatsiyaning inson hayotiga ta'siri. (TerDU)	219
<i>Jo'rayeva M.U.</i> Maktablarda amaliyotchi psixologlarning faoliyatlaridagi yuzga keladigan muommolari. (Qumqo'rg'on tumani 46-maktab)	223
<i>Usmanova Z.T.</i> Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuv. (Termiz tumanidagi 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi)	225
<i>Abdullayeva R.E.</i> O'smirlarda deviant xulq shakllanishining ijtimoiy psixologik determinantlari. (TerDU)	228
<i>Toshpo'latova D.Sh.</i> Psixologiya va tibbiyotda psixosomatik yondashuv. Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti	231
<i>Yaxyoyeva M.H.</i> Delinkvent xulq-atvor ko'rinishlari. (TerDU)	235
<i>Olloqulova F.U.</i> Konsentrizm asosida tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. (TerDPI)	237
<i>Mamanova Sh.I.</i> Maktabgacha yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari va psixik rivojlanishi. ()	241
<i>Alimov Z.Ch.</i> Kompetentlik va pedagogik mahorat, kompetensiya va uning ahamiyati (TerDU)	243
<i>Qorjovov B.B.</i> O'smir o'quvchilarni kasb-hunaraga yo'naltirishda amaliyotchi psixologning vazifalari. (TerDU)	246
<i>O'roqov A.A.</i> Talabalarning oliy ta'limga psixologik moslashishida oilaning roli (TerDU)	248
<i>Umarova I.U.</i> Yuqori sinf o'quvchilariga chet tillarini o'rgatishning interfaol usullari (6-sinf o'quvchilari misolida) (TISU)	250
<i>Haydarova S.S.</i> Talabalarning guruhdagi shaxslararo munosabatlarida oila muhitining ta'siri (TerDU)	251
<i>Maxmanova M.</i> Sud jarayonlarida sun'iy intellektning roli va uning advokatlar psixologiyasiga ta'siri (TerDU)	254
<i>Olomonova S.</i> Shaxs psixologiyasida badiiy asar kitoblarining tarbiyaviy	255

ahamiyati (TerDU)	
<i>Xuшбоқова Н. Г.</i> . Низоларни муқобил ҳал қилиш усуллари тушунчаси ва турлари. медиациянинг назарий асослари (TerDU)	258
<i>To'raqulova M.SH.</i> Iintellektual qobiliyat rivojlanishining psixologik tadqiqi (TerDU)	259
<i>Otamurodova Sh.O.</i> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligini oshirishda shaxsga qaratilganlik tamoyilidan foydalanish (TerDU)	263
<i>Маликов А.Р.</i> Ўзбекистон республикасида адвокатуранинг конституциявий-ҳуқуқий асослари (TerDU)	266
<i>Samadov I.</i> Jinoiy protsessida advokatning jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi bilan psixologik kontakti: xususiyatlar va ahamiyati (TerDU)	267
<i>Panjiyev A.Sh.</i> Advokaturada psixologiya: muvaffaqiyatli huquqiy faoliyat uchun muhim vosita (TerDU)	269
<i>Шарафутдинова Х.Г.</i> Фарзанд тарбиясига муносабатнинг шаклланиши (TerDU)	270
Қудратуллаев Ж. Ахборот-психологик барқарорлик психологияси (TerDU)	275
<i>Jo'rayev O'.</i> Irodaviy faollikning vaziyatli va shaxslilik determinantlariga doir yondashuvlar (TerDU)	281
<i>Nurqulova G.</i> Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida kognitiv faollikni rivojlantirishda oilaning o'rni va ro'li (TerDU)	284
<i>Xudoyqulova Shoira</i> Oiladagi rollar taqsimotiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar (TerDU)	286

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**«Oilaviy munosabatlar psixologiyasi: muammo va yechimlar» mavzusida
Termiz davlat universitetining 70-yillik yubileyiga bag‘ishlangan respublika
ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI
2024 yil 11-noyabr**

МАТЕРИАЛЫ

**Республиканская научно-практическая конференция «ПСИХОЛОГИЯ
СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ», посвященная
70-летию Термезского государственного университета
11 ноября 2024 год**

MATERIALS

**"PSYCHOLOGY OF FAMILY RELATIONS: PROBLEMS AND
SOLUTIONS" republican scientific-practical conference dedicated to the 70th
anniversary of Termiz State University
November 11, 2024**

**Muharrir: X.G.Sharafutdinova
Musahhah: O.Nizomiddinov
Texnik muharrir: A.Bo‘riyev
Kompyuterda sahifalovchi: F.Abdimurodov**

Terishga 02.11.2024-yilda berildi.
Bosmaga 09.11.2024-yilda ruxsat etildi
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Hajmi 18,5 bosma taboq.
Buyurtma № 154. Times New Roman graniturasida.
Ofset usulida chop etildi. 100 nusxada. 296 bet.

“Surxon ilm nashri” nashriyoti.
Termiz davlat universiteti NMM bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Termiz shahri, “Barkamol avlod” ko‘chasi, 43-uy.